O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

“ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOT” FANIDAN O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100000 –	Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 –	Pedagogika
Ta'lim yo`nalishi:	5111700 –	Boshlang`ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish



Farg`ona -2022

Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 25-avgustdagi ____-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:	X.N.Shokirova – Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:	f.f.n., dots.G.Roziqova f.f.n., dots.M.Abdupattoyev

O‘quv-uslubiy majmua Farg`ona davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasining 2022-yil 30-avgustdagi 1-yig’ilishi bayoni bilan foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **PhD.M.Isroilov.**

USLUBIY MAJMUA MUNDARIJASI

1. Ma’ruza mashg‘ulot.....
2. Amaliy mashg‘ulot.....
3. Mustaqil ta`lim.....
4. Glossariy.....
5. Ilovalar.....

a) Fan dasturi …….....

b) Ishchi fandasturi …….....

c) Sillabus …….....

d) Testlar …….....

e) Baholash mezonlari.....

f) Adabiyotlar ro ‘yxati…….....

1. MA’RUZA MASHG’ULOTLARI
1-MAVZU
TIL IJTIMOIY, DOIM O’ZGARIB, RIVOJLANIB TURUVCHI HODISADIR. MILLIY VA ADABIY TIL. FONETIKAVA FONOLOGIYA. ONA TILINING VOKALIZMI VA KONSONANTIZMI. NUTQNING FONETIK BO’LINISHI. NUTQ TOVUSHLARINING FONETIK O’ZGARISHLARI.

R E J A:

1. Til ijtimoiy hodisa ekanligi. Tilning tuzilishi va tizim sifatidagi xususiyatlari. Tovushlar tizimi, leksikasi, grammatik qurilishi.
2. Milliy va adabiy til.
3. Fonetikava fonologiya
4. Nutqning fonetik bo’linishi. Nutq tovushlarining fonetik o’zgarishlari.

Adabiy til *— milliy tilning ishlov berilgan, me’yorlashtirilgan oliy formasi.*
Sistema *— har biri alohida mustaqil (avtonom)bo'lgan murakkab mexanizmiar (fonemalar tizimi, morfemalar tizimi, leksik birliklar tizimi, sintaktik konstruksiyalar tizimi) o'rtasidagi aloqadorlikdan tarkib topgan makrotizim*
Til *— fonetik, leksik va grammatik vositalar o‘rtasidagi aloqa- munosabatlardan tarkib topgan barqaror tizim (sistema).*
Nutq *— til vositalari ishtirokida fikr ifodalash jarayoni.*
Ierarxiya *- til tizimida quyidan yuqoriga qarab bosqichma- bosqich joylashgan sathlar (yaruslar) yig‘indisi: fonetik-fonologik sath (quyi yarns), morfemik sath, leksik sath (yuqori yaruslar), grammatik sath (yariada yuqoriroq yarns) kabi.*
Vokalizm *- unli fonemalar tizimi.*
Konsonantizm *-undosh fonemalar tizimi.*
Divergentsiya *- til strukturasidagi o`zgarishlar ta`sirida bir fonemaning ikki fonemaga bo`linishi. Mas. «k»ning «k»va «q»ga ajralishi.*
Konvergentsiya *- tarixiy taraqqiyot natijasida bir necha fonemaning bir fonema holiga kelishi: qadimgi turkiy va eski O`zbek tillarida alohida-alohida fonemalar bo`lgan «θ« va «o» unlilari shu qonuniyat asosida Hozirgi o`zbek adabiy tilida bitta «o» fonemasiga birlashgan.*
Fonetika *- tilshunoslikning fonetik birliklar, ular-ning fizik-akustik va h.k. xususiyatlari haqida ma`lumot beruvchi bo`limi.*
Umumiy fonetika *- fonetikaning barcha tillarga xos umumnazariy masalalari haqida ma`lumot beruvchi turi.*
Xususiy fonetika *- fonetikaning muayyan bir til tovush-lari, ularning turlari, fizik-akustik va artikulyatsion xususiyatlari xususida bahs yurituvchi turi.*
Tarixiy fonetika *- xususiy fonetikaning ichki bir turi. U muayyan til tovush tizimini diaxron planda va dinamik holatda (tarixiy taraqqiyotda) O`rganadi.*
Tavsifiy fonetika *- xususiy fonetikaning ichki bir turi. U muayyan tilning fonetik tizimini statika holatida (til taraqqiyotining oldingi bosqichlarida yuz bergan hodisalar bilan bog`lamay) o`rganadi.*
Qiyosiy fonetika *– qardosh yoki noqardosh tillarning tovush tizimlarini qiyoslab*

o`rganadigan fonetika.
Eksperimental (instrumental) fonetika *- nutq tovushlari, urg`u kabi birliklarning fizik-akustik va artikulyatsion xususiyatlarini maxsus asboblar vositasida o`rganadigan fonetika.*
Konsonantizm - *undosh fonemalar tizimi.*
Labial undoshlar - *lab-lab va lab-tish undoshlari.*
Til-tish undoshlari *(dorsal va alveolyar undoshlar)- tilning uchki qismi bilan pastki yoki yuqori tishlarning milki orasidagi to`siqda hosil bo`ladigan undoshlar.*
Til oldi- tanglay undoshlari - *til oldi qismining qattiq tanglay tomon ko`tarilishidan hosil bo`lgan to`siqda yuzaga keladigan undoshlar.*
Til o‘rta undoshi - *tilning o`rta qismi bilan tanglay orasidagi to`siqda hosil bo`lgan «y»undoshi.*
Sayoz til orqa undoshlari- *k,g, fonemalari. Ular velyar (qattiq)undoshlar sanaladi.*
Chuqur til orqa undoshlari - *q,g`,x fonemalari. Ular uvulyar (kichik til ishtirokida hosil bo`lgan) undoshlar sanaladi.*
Bo‘g‘iz undoshi - *«h» fonemasi. U faringal undosh deb ham ataladi.*
Yumuq fokusli burun tovushlari - *m,n,n sonantlari.*
Kuchli pozitsiya - *fonemaning asosiy ottenkasi saqla-nadigan pozitsiya.*
Kuchsiz pozitsiya- *fonemaning asosiy ottenkasi o`zgarishiga olib keladigan pozitsiya.*
Intervokal holat - *undosh fonemaning ikki unli orasi-dagi holati.*
Assimilyativ holat - *nutq oqimida fonemalar assimilyatsiya-siga olib keluvchi vaziyat.*
Dissimilyativ holat - *nutq oqimida fonemalar dissimi-lyatsiyasiga olib keluvchi vaziyat.*
Divergent - *divergentsiya yo`li bilan bir fonemaning ot-tenkalaridan O`sib chiqqan yangi fonema.*
Bo`g`in*- nutq oqimining tovushdan katta, so`zdan kichik (ba`zan bir so`zga teng) segment birligi.*
Sillabema*- bo`g`inning fonologik birlik sifatidagi nomi.*
Sillabika*- bo`g`in (sillabema) haqidagi ta`limot.*
Bo`g`in markazi*- bo`g`in balandligi, u bo`g`in tarkibidagi unliga to`g`ri keladi.*
Berkitilgan bo`g`in*- CV, CVC tipidagi bo`g`inlar. Berkitilmagan bo`g`in- V,VC tipidagi bo`g`inlar. Ochiq bo`g`in- V,CV tipidagi bo`g`inlar.*
Intonatsiya *- og`zaki nutqning ritmik-melodik tomoni, undagi ovoz (ton) tovlanishlari.*
Nutq melodikasi *– gapda ovozning ko`tarilishi va pasayishi.*
Nutq ritmi *– urg`uli va urg`usiz bo`g`inlarning, ulardagi cho`ziq va qisqa unlilarning qo`llanishida vazndoshlik, ohangdoshlikning mavjud bo`lishi.*
Temp *– nutq oqimining surаti, tezlik darajasi.*
Nutq intensivligi *– talaffuzning kuchli yoki kuchsiz bo`lishi.*

Nutq tembri *- nutq oqimida asosiy ton va qo`shimcha tonlar nisbatidan kelib chiqadigan tovush bo`yoqdorligi.*
Pauza *– nutq oqimidagi ayrim to`xtalishlar.*
Urg`u *- muayyan til fonetik-fonologik tizimidagi supersegment birliklardan biri.*
Aktsentema *- urg`uning so`z yoki nutq oqimidagi fonologik-aktsentologik xususiyatlariga nisbatan nomlanishi.*
***Dimanik urg`u*** *- zarb urg`usi.*
Kvantitativ urg`u (miqdor urg`usi) *- cho`ziqlik belgisiga ega bo`lgan urg`u.*
***Tipik ottenkali urg`u*** *- bo`g`in tarkibidagi unlining asosiy ottenkasini saqlash imkonini beradigan urg`u.*
***Tonik (musiqiy) urg`u*** *- ovoz tonining o`zgarishi, tovlanishiga asoslangan*
Bog`langan urg`u *- muayyan tilda so`zdagi biror bo`g`inga doimiy bog`langan urg`u.*
***Erkin urg`u*** *- muayyan tilda so`zning turli bo`g`inlarida uchraydigan urg`u.*
Assimilyatsiya- *bir xil kategoriyadagi tovushlarning so`z tarkibida o`zaro moslashuvi.*
Akkomodatsiya- *turli kategoriyadagi tovushlarning so`z tarkibida o`zaro moslashuvi.*
Nazalizatsiya- *unli tovushlarning so`z tarkibidagi burun sonantlari ta`sirida resonator ton bilan aytilishi.*
Reduksiya- *urg`usiz bo`g`indagi unlining kuchsizlanishi.*
Spirantizatsiya- *portlovchi undoshning intervokal holatda sirg`aluvchi undoshga o`tishi.*
Proteza- *so`z boshida tovush orttirilishi.*
Epenteza- *so`z o`rtasida tovush orttirilishi.*
Epiteza- *so`z oxirida tovush orttirilishi.*
Prokopa – *so`z boshidagi tovushning tushib qolishi.*
Sinkopa - *so`z o`rtasidagi tovushlardan birining tushib qolishi*
Apokopa- *so`z oxirida tovush tushish hodisa.*

Til ijtimoiy hodisa ekanligi. Tilning tuzilishi va tizim sifatidagi xususiyatlari. Tovushlar tizimi, leksikasi, grammatik qurilishi.

Ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunish kerak? Eng avval mana shu savolga javob berish lozim. “Ijtimoiy” degani yakka shaxsga emas, balki butun jamiyatga tegishli deganidir. Demak, nimaiki butun jamiyat uchun xizmat qilsa, jamiyat tomonidan rivojlantirilsa, shu narsa ijtimoiy hodisadir. Bunga birinchi navbatda **til** kiradi. Adabiyot, san’at, madaniyat ham ijtimoiy hodisalardir, lekin bu hodisalarning asosida baribir til turadi.

Til odamlarning bir-birlari bilan muomalada bo‘lishi uchun yordam beradigan eng muhim vositadir. Odamlar til vositasida o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalaydilar. Insoniyat jamiyatining shakllanishida tilning roli

beqiyosdir. Til bo‘lmasa, jamiyatning bo‘lishi mumkin emas, chunki til insonlarni jamiyat sifatida jipslashtirib turuvchi buyuk ne’matdir. Bundan tashqari, til bir millatni boshqa millatdan ajratib turuvchi eng muhim belgilardan biridir. Til taqdiri jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog‘liq.

Manbalardan ma’lumki, hozirgi zamon fanlarini quyidagi yirik guruhlarga ajratish mumkin:

1. Tabiiy fanlar.
2. Texnika fanlari.
3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar.
4. Matematika fanlari[1].

Tilshunoslik fani ijtimoiy-gumanitar fanlar guruhiga mansub bo‘lib, inson tili, ya’ni so‘zlashuv quroli uning o‘rganish obyektidir. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da bu fanga shunday ta’rif beriladi: “Tilshunoslik til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati,, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko‘rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan”[2].

Tilshunoslik fani yuqoridagi guruh fanlarning ko‘pchiligi bilan aloqadordir.

Har qanday til tovush tilidir, chunki nutq tovushlarning muayyan ketma-ketligidan iborat bo‘lgan so‘zlardan tashkil topadi. Nutq tovushlari esa **fizika** fanining **akustika** bo‘limida ham o‘rganiladi. Nutq faoliyati insonning markaziy asab tizimi yordamida boshqariladi, demak, tilshunoslik fani **fiziologiya** fani bilan aloqada bo‘lishi lozim. **Kimyo** fanida **valentlik** degan tushuncha mavjud. Bu molekula tarkibidagi atomning boshqa atom bilan bog‘lanish xususiyatidir. Xuddi shu xususiyat tildagi so‘zlarda ham mavjuddir. Masalan, *qizil, shirin, achchiq, yirik* so‘zlari *olma* so‘zi bilan bog‘lana oladi, lekin *yupqa*, *aqlli, a’lochi, beg‘am, ozg‘in* so‘zlari *olma* so‘zi bilan bog‘lana olmaydi.

Har qanday fan **falsafa** bilan bog‘liq, chunki falsafa barcha fanlarning kelib chiqish manbasi sifatida tan olingan. Tilshunoslik fani, birinchidan, falsafaning bilish nazariyasi bilan bog‘langan bo‘lsa, ikkinchidan, bu fan bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis o‘z tadqiqotlarida muayyan falsafiy yo‘nalishga tayanadi.

Ma’lumki, adabiyot so‘z san’ati sifatida tan olingan. Demak, tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan bo‘lmish so‘z adabiyot uchun ham asosiy qurol bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, tilshunoslik adabiyotni o‘rganadigan **adabiyotshunoslik** fani bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tilshunoslik **tarix** fani bilan bog‘liq, chunki til tarixi shu tilning egasi bo‘lmish millat tarixining bir qismidir.

Siz ”mantiqiy fikr”, ”bu mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan fikr” degan gaplarni eshitgansiz. Bu esa tilshunoslik va **mantiq** fanlarining o‘zaro bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Har ikkala fanni birlashtiruvchi narsa tafakkurdir. Tafakkur tilda so‘z, so‘z birikmasi va gaplar orqali namoyon bo‘lsa, mantiqda hukm, tushuncha va xulosalar ko‘rinishida aks etadi.

Tilshunoslik va matematik fanlar. Hozirgi paytda matematika fani aralashmagan fan bo‘lmasa kerak. Oddiy arifmetik amallardan tortib, murakkab matematik formulalar ham barcha fanlardagi hisob- kitoblarda qo‘llanadi.

Tilshunoslikda *”**Bir** bosh bo‘lakli va **ikki** bosh bo‘lakli gaplar”* degan nomlarning mavjudligi oddiy arifmetik sonlarning qo‘llanishiga misol bo‘ladi. Endi quyidagi parchaga e’tibor qiling: *”Vaholanki eng tor tovushni 0 raqami bilan, eng keng tovushni 1 raqami bilan belgilasak, tovushlarning bu jihatdan farqi quyidagicha bo‘ladi:*

i – u – o – e – â – a
0 – 0,2 – 0,3 – 0,8 – 0,9 - 1”[3]

Bu parchada ishlatilgan ifodalar nisbatan murakkabroq formulalarga misol bo‘la oladi.

Tilshunoslik va texnik fanlar. Tilshunoslik va texnik fanlardan hisoblangan **kibernetikaning** o‘zaro bog‘liqligi shundaki, kibernetikaning mahsuli bo‘lmish EHM ham insonga o‘xshab axborot qabul qilib, uni uzatish vazifasini bajaradi. EHM yaratilishi uchun inson organizmi asos bo‘lib xizmat qilgan. EHMning paydo bo‘lishi avtomatik tarjimaning yuzaga kelishiga sababchi bo‘ldi.

Tilshunoslik fanining turlari. Tilshunoslik ikkita xususiyatiga ko‘ra turlarga bo‘linadi:

1. O‘rganish obyektining hajmiga ko‘ra:

a) xususiy tilshunoslik alohida olingan tilning tovush tizimi, lug‘at boyligi va grammatik qurilishini o‘rganadi, shu sababli bunday tilshunoslik “o‘zbek tilshunosligi”, “rus tilshunosligi” kabi nomlar bilan ataladi.

b) umumiy tilshunoslik yer yuzida mavjud bo‘lgan barcha tillarning umumiy xususiyatlarini, kelib chiqishini, dunyo tillarning tasiflanishini o‘rganadi. U o‘z tadqiqotlarida xususiy tilshunoslik yutuqlaridan unumli foydalanadi.

2. O‘rganish maqsadiga ko‘ra:

a) nazariy tilshunoslik til hodisalariga nazariy jihatdan yondashadi, ya’ni shu hodisalar bo‘yicha umumlashma tarzida chiqarilgan xulosalar, qoidalar yaratadi.

b) amaliy tilshunoslik tilga amaliy nuqtai nazardan yondashadi, ya’ni uning insonlar hayotidagi amaliy ahamiyatini o‘rganadi. Masalan, chet tillarni o‘rganish, avtomatik tarjima kabi masalalar bilan shug‘ullanadi.

Til jamiyatsiz mavjud bo‘la olmaydi. Jamiyat a’zolari tilning yashashi, rivojlanishi uchun mas’uldirlar. Shu munosabat bilan, o‘tgan asrning 70-80-yillaridagi o‘zbek tilining ahvolini eslash o‘rinlidir. Bu davrda o‘zbek tilining faoliyat ko‘rsatish doirasi juda torayib, uning butunlay yo‘qolib ketish xavfi paydo bo‘ldi. Ana shunda jamiyatimizning ilg‘or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg‘urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu qonunning qabul qilinishi istiqlol tomon qo‘yilgan ilk qadamlardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir” [4].

Eng avvalo, **”davlat tili”** tushunchasiga izoh berib o‘tish lozim. Bu degani

til boshqa davlat ramzlari qatorida qonun asosida davlat himoyasiga olingani, til bilan bog‘liq masalalar davlat darajasida hal qilinadi, deganidir.

Quyida mazkur qonunni to‘laligicha keltiramiz.

Til va tafakkur

Tafakkur – bu fikrlash deganidir. Inson gapirishdan oldin o‘ylaydi, fikrlaydi. “Avval o‘yla, keyin so‘yla” degan maqol bejiz yaratilmagan. Demak, til va tafakkur o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Tafakkur borliqning ongda aks etishi bo‘lsa, til tafakkurning muayyan belgilar (masalan, tovushlar) orqali ifoda qilinishidir. Buni quyidagi chizmada aks ettirish mumkin:



Yuqoridagi maqolda fikrning so‘zdan oldin kelishiga ishora qilingan. Borliq dastavval so‘zlovchi ongida fikr shaklida namoyon bo‘ladi, keyin bu fikr so‘zlar vositasida gapga aylanib, tinglovchiga yetkaziladi. Tafakkur va tilning o‘xshash va farqli tomonlari bor. O‘xshashligi:

1. Til ham, tafakkur ham insonga xos.
2. Har ikkalasi ham borliqni aks ettiradi.
3. Har ikkalasi ham bir paytda paydo bo‘lgan. Farqlari:

1. Tafakkur birliklari tushuncha, hukm, xulosa hisoblansa, til birliklari so‘z, birikma va gapdir.
2. Tafakkurni mantiq fani o‘rgansa, tilni tilshunoslik o‘rganadi.
3. Turli millat vakillari bir xil fikrlashlari mumkin, lekin ular o‘z fikrlarini har xil tillarda ifodalaydilar.

Tafakkur va til bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi, chunki til bo‘lmaganida insonning tafakkuri yuzaga chiqmagan bo‘lar edi. Xuddi shuningdek, tafakkur bo‘lmasa, tilga hech qanday ehtiyoj yo‘q. Biz bu o‘rinda til deganda fikrni ifodalovchi har qanday vositani nazarda tutyapmiz: kar-soqovlarning imo- ishora tili, yo‘l harakati belgilari va boshqalar ham shu jumlaga kiradi.

Til va nutq

Til va nutq tushunchalari yaqin-yaqingacha farqlanmasdan kelinardi, bu ikki so‘zni ma'nodosh (sinonim) so‘zlar sifatida ishlataverar edik. Keyingi paytlardagi tadqiqotlar til va nutq tushunchalarini farqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Til deganda ma'lum xalq tomonidan ishlatiladigan, uzoq tarixga ega bo‘lgan hodisani tushunishimiz kerak. **Nutq** esa shu tilning ma'lum paytda va ma'lum o‘rinda namoyon bo‘lishidir. Ayrim olimlar til va nutq tushunchalarini farqlashda shaxmat o‘yinini misol qilib keltirishadi[5]. Shaxmat donalari, taxtasi, shaxmat o‘yini qoidalari yig‘indisi tilga qiyos qilinadi. Bu narsalar taxminan to‘rt ming yildan beri o‘zgarishga uchramasdan kelyapti. Har bir shaxmatchining o‘yin uslubi, o‘ziga xos xususiyatlarini esa nutqqa o‘xshatishadi. Muayyan til birliklari vositasida turli fikrni ifoda qilish mumkin. *“Ega+to‘ldiruvchi+kesim”* ko‘rinishidagi qolip tilga tegishli bo‘lsa, nutqda shu qolip asosida son-sanoqsiz gaplar tuzish mumkin: *“Men ukamni ko‘rdim // Sobir akasiga yordamlashdi // Salim*

opasidan eshitdi...” Bu esa shu nutqning yaratuvchisiga bog‘liqdir.

Tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev til qurilishida uning ikki holatini - **lison** va **nutq** tushunchalarining farqlanishi haqida yozadi. “*Lison,* - deb yozadi olim, - kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud til birliklaridan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik. *Nutq* esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi”[6]. Olimning fikricha, bu juftlikda nutq asosiy rol o‘ynaydi, chunki tildagi hodisalar dastlab nutqda yuzaga keladi va keyinchalik lisonga ko‘chadi. O‘z navbatida bu hodisa lisondan nutqqa olib chiqiladi[7].

Til va nutq tushunchalari ikkita har xil hodisalarni ifodalamas ekan, ularni bir-biriga qarama- qarshi qo‘yish mumkin emas, chunki hodisani shu hodisaning namoyon bo‘lishiga qarama-qarshi qo‘yib bo‘lmaydi.

Tilning tuzilishi. Yer yuzidagi har qanday til tuzilish jihatidan quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lug‘at tarkibi.
3. Grammatik qurilishi.

Dastlab til og‘zaki shaklda paydo bo‘lgan va bu tilning asosini nutq tovushlari tashkil etgan. Har qanday tilda muayyan miqdordagi nutq tovushlari mavjud bo‘lib, bu shu tilning **tovush tizimini** tashkil etadi. Shu tovushlarning turlicha birikishi orqali so‘zlar hosil bo‘ladi. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida 30 ta nutq tovushi bor. Shulardan *a, d, m, o* tovushlarining turlicha joylashtirilishi natijasida *odam, omad, moda* kabi so‘zlarni hosil qilish mumkin.

Har qanday tilda mavjud bo‘lgan so‘zlar yig‘indisi shu tilning **lug‘at tarkibi** (ayrim darsliklarda **leksika**) deb yuritiliadi. Lug‘at tarkibi bir tilni boshqa tildan farqlantiradi. Leksika muayyan til paydo bo‘lgan paytdan boshlab shu tilning egasi bo‘lmish xalq tomonidan boyitib borilishi lozim, aks holda bu til iste’moldan chiqib, o‘lik tilga aylanadi.

Lug‘at tarkibidagi so‘zlar tarixiy jihatdan aynan shu tilga tegishli bo‘lmasligi mumkin, lekin bu so‘zlar shu tilda so‘zlashuvchi odamlar uchun o‘zaro muloqot vositasi bo‘lib kela olsa, ular mazkur tilning lug‘at tarkibiga mansub bo‘ladi. Masalan, *kitob, maktab, a’lo* so‘zlari aslan arabcha bo‘lib, o‘zbek tiliga taxminan VII-VIII asrlarda kirib kelgan. Hozirgi paytda bu so‘zlar o‘zbek millatiga mansub barcha odamlar uchun tushunarli va ular shu insonlar tomonidan o‘zbekcha so‘zlar sifatida qabul qilinadi. Hatto bu so‘zlar asosida *kitobxon, maktabdosh, a’lochi* kabi yangi so‘zlar ham yasalgan.

Tovushlar tizimi va leksikaning mavjudligi tilning muloqot vositasi darajasiga ko‘tarilishi uchun yetarli emas. Buning uchun so‘zlar o‘zaro birikib so‘z birikmasi va gaplar hosil qilinishi lozim. Buni esa tilning **grammatik qurilishi** belgilaydi. Demak, muayyan tilga mansub bo‘lgan so‘z, so‘z birikmasi va gaplarning qurilishi shu tilning **grammatik qurilishi** deb yuritiladi. *”Bizning fakultetimizda talabalar ko‘p to‘garaklarga qatnashadilar”* gapini olib ko‘raylik. Avvalo, so‘zlarning qurilishini tekshiramiz: *Biz-ning fakultet-imiz-da talaba-lar ko‘p to‘garak-lar-ga qatnash-a-di-lar”.* Ko‘rinyaptiki, *ko‘p* so‘zidan boshqa barcha so‘zlar turli ma’noli qismlarga ajraladi. Endi so‘z birikmalarining qurilishini tekshiramiz: *Bizning fakultetimizda, fakultetimizda qatnashadilar,*

ko‘p to‘garaklarga, to‘garaklarga qatnashadilar. Va, nihoyat, gap qurilishini tekshiramiz: *”Bizning* (aniqlovchi *fakultetimizda* (hol) *talabalar* (ega) *ko‘p* (aniqlovchi) *to‘garaklarga* (hol) *qatnashadilar* (kesim)*”*. Demak, tildagi har bir birlik o‘zining ichki qurilish qonuniyatlariga asosan tarkib topadi.

Til tizim sifatida. Bu masalaga to‘xtalishdan oldin **”tizim”** tushunchasi izohlanishi kerak. Manbalarda bu tushunchaga quyidagicha ta’rif berilgan: ” **Tizim** - 3. O‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan narsa, hodisalar birligi, majmui”[8]. Yana: ”**Sistema** (yun.), o‘zaro munosabat va aloqada bo‘lgan, muayyan yaxlitlik, birlik hosil qiluvchi juda ko‘p elementlar”[9]. Demak, tizimning asosiy belgilari, birinchidan, juda ko‘p qismlardan iborat bo‘lishi kerak, ikkinchidan, bu qismlar o‘zaro munosabatda, aloqada bo‘lishi lozim.

Tizimga misol keltirish uchun gapni uzoqdan boshlashga to‘g‘ri keladi. Astronomiyadan ma’lumki, Yer sayyorasi Quyosh tizimiga kiruvchi 9 ta sayyoraning biridir. O‘z navbatida, Quyosh tizimi ham kamida xuddi shunga o‘xshagan 100 mlrd. yulduzni o‘z ichiga olgan Galaktika (bizda uni Somon yo‘li deyishadi)[10] tizimi tarkibiga kiradi. Bizning galaktika esa galaktikalar tizimiga mansubdir. Endi ulkan tizimlardan nisbatan kichik tizimlarga, ya’ni Yer sayyorasiga qaytamiz. Yer yuzida yashovchi aholi 5600 dan ortiq tilda so‘zlashadi. Yuqorida aytilganidek, til ijtimoiy hodisalar tizimiga mansub bo‘lib, bu tizimga yana adabiyot, san’at, madaniyat kabi bir qancha ijtimoiy hodisalar kiradi. Til ham o‘z navbatida tizim sifatida o‘zaro bog‘langan va munosabatda bo‘ladigan tovushlar tizimi, lug‘at tarkibi va grammatik qurilishi kabi qismlardan iborat (yuqorida bularning har biriga ta’rif berildi). Bu o‘rinda biz bu qismlarning o‘zaro aloqasi va munosabatini ochishga harakat qilamiz. Yakka olingan nutq tovushi so‘z sifatida shakllanmasa yoki so‘z tarkibiga kirmasa, u oddiy **fiziologik** hodisa sifatida qolaveradi. Boshqacha aytganda, nutq tovushi **ijtimoiy** ahamiyat kasb qilishi lozim. Masalan, ***u*** tovushi so‘zlashuvchi insonlar uchun ”o‘zga shaxs” ma’nosini ifodalovchi so‘zga aylanmasa, oddiy tovushligicha qolaveradi. O‘z navbatida ***u*** so‘zi gap ichida ishtirok etib, ma’lum vazifa bajarmasa, oddiy

so‘zligicha qolaveradi. Mazkur so‘z ishtirok etgan gap esa ”gap” deb ataluvchi tizim tarkibiga kiradi.

Xullas, tilning tovushlar tizimi, lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi til tizimini tashkil etadi.

Til taraqqiy qilib, o‘zgarib boruvchi hodisa

Tarixdan ma’lumki, yuqori va quyi paleolit davrida odamlar urug‘-urug‘ bo‘lib yashashgan. Buning sababi shuki, birgalashib ov qilish yolg‘iz faoliyat ko‘rsatishdan afzalroq hisoblangan. Demak, bu davrda **urug‘ tili** mavjud bo‘lgan va bu til urug‘ a’zolari uchun umumiy til hisoblangan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davriga kelib odamlar qabilalarga birlasha boshlaganlar va natijada **qabila tili** shakllangan. Qabila tili shu qabila tarkibiga kiruvchi barcha urug‘ a’zolari uchun umumiy til hisoblangan. Odamlar o‘rtasidagi tenglik yo‘qola borishi natijasida, ya’ni ibtidoiy jamoa tuzumining yemirish davrida qabila ittifoqlari paydo bo‘lgan, natijada endi **qabila ittifoqi tili** paydo bo‘lgan. Keyinchalik ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, qabilalar o‘rtasidagi aloqalarning yo‘qolib, hududiy

aloqalarning yuzaga kelishi natijasida xalqlar paydo bo‘lgan. Natijada endi **xalq tili** shakllanadi, qabila tillari xalq tili tarkibida shevalar ko‘rinishida saqlanib qoladi. Xalqlar yagona hudud, yagona til, yagona madaniyat va yagona ma’naviy birlikka erishgandan keyin millat sifatida shakllanadilar va buning natijasida **millat tili** paydo bo‘ladi. Bu jarayonni quyidagi chizmada aks ettirish mumkin:



Ko‘rinyaptiki, til to‘xtovsiz ravishda o‘zgarib, rivojlanib boruvchi ijtimoiy hodisa ekan. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Tildagi o‘zgarishlar birinchi navbatda uning **lug‘at tarkibida** aks etadi. Kishilar hayotidagi o‘zgarishlar, ilm-fan, madaniyat hamda iqtisodning rivojlanishi tilning lug‘at tarkibini boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatik qurilishi esa juda sekinlik bilan o‘zgaradi. Buni til tarixini o‘rganish orqaligina sezish mumkin. Tilning muntazam tarzda taraqqiy qilib borishini ona tilimiz bo‘lgan **o‘zbek tili** misolida ko‘rib chiqamiz.

O‘zbek tili ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lug‘at tarkibida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Tilimiz lug‘at tarkibining ichki imkoniyatlar vositasida yangi yasalgan so‘zlar va boshqa tillardan qabul qilingan so‘zlar hisobiga boyib borishi ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, *aqldosh, telemahmadana, muzlatgich, purkagich* kabi yangidan yasalgan so‘zlar, *broker, diler, makler, komputer, menejer, fermer, biznes* kabi boshqa tillardan olingan so‘zlar bunga misol bo‘la oladi. Ayrim o‘zbekcha so‘zlarning ma’nosida o‘zgarishlar yuz berib, ular boshqa ma’nolarda qo‘llana boshladi. Masalan, *ishbilarmon* va *tadbirkor* so‘zlari ilgari sifat turkumiga mansub bo‘lib, belgi ifodalagan bo‘lsa, hozirgi paytda bu so‘zlar ot turkumiga ko‘chib o‘tdi va shaxs ma’nosini ifodalaydigan bo‘lib qoldi.

O‘zbek tilining fonetik tizimida, nisbatan kam bo‘lsa ham, ayrim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, o‘zlashma so‘zlarda bo‘g‘inning o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan yangi turlari (so‘z boshida va so‘z oxirida ikki yoki undan ortiq undoshning qator kelishi) paydo bo‘ldi: *sport, stol, traktor, shkaf, magistr, kongress* kabi. Shuningdek, o‘zlashma so‘zlarda ikkita har xil unlining o‘zbek tili uchun xos bo‘lmagan ketma-ket kelish holatlari kuzatiladi: *aeroport, poema, geologiya, teatr, bionika* kabi (arabcha *doim, inshoot, maorif, taassurot, shuur, tabiiy* kabi so‘zlar ilgaridan mavjud edi). 12

Ona tilimizning grammatik qurilishida ham juz’iy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Masalan, morfologik o‘zgarishlarga *-lar* ko‘plik qo‘shimchasi ma’nolari kengayishini (hurmat, kinoya, jamlash, ayirish, noaniqlik, kuchaytirish), egalik qo‘shimchasi ma’nosidagi umumdan ajralganlik *(Bobur bog‘i, Navoiy ko‘chasi)* kabi ma’noning paydo bo‘lishi kiritilsa, sintaktik o‘zgarishlarga boshqa tillarning ta’sirida yangicha tarkibdagi to‘liqsiz gaplarning *(Tug‘ilgan kuningiz bilan, Bayramlar bilan* va h.*)* yuzaga kelganligini, qo‘shma gaplar tasnifidagi

o‘zgarishlarni misol qilib keltirish mumkin.

Ona tilimizning bundan keyingi taraqqiyoti leksikaning yana ham boyishi, grammatik qurilishning ichki qonuniyatlar asosida takomillasha borishi bilan bog‘liq ravishda davom etadi.

Milliy va adabiy til

Adabiy til- milliy tilning oliy (namunali va qayta ishlangan) shakli. Madaniy-ijtimoiy mavqeiga ko‘ra adabiy til hududiy shevalar, xalq tili, ijtimoiy va kasbiy jargon, jargonga qarshi turadi. Adabiy til til taraqqiyoti jarayonida shakllanadi, shuning uchun u tarixiy kategoriya hisoblanadi. Adabiy til madaniyat tili bo`lib, u o`z taraqqiyotining yuqori darajasida shakllangan. Adabiy tilda adabiy asarlar yaratiladi, madaniyatli kishilar ham gapiradi. Qarzga olingan so'zlar, jargonlar, klişelar, byurokratlar va boshqalar tilni to'sib qo'yadi. Binobarin, tartibni yaratuvchi va naqsh ko‘rsatib til sofligini saqlaydigan kodifikatsiya (me’yorlar yaratish) mavjud. Normlar zamonaviy rus tilining lug'atlarida va grammatika bo'yicha ma'lumotnomalarda mustahkamlangan. Zamonaviy rus adabiy tili o'z rivojlanishining yuqori bosqichida, kabi rivojlangan til u keng uslublar tizimiga ega.

Milliy adabiy tilning shakllanish va rivojlanish jarayoni uning ijtimoiy bazasini kengaytirish, kitob yozma va xalq og‘zaki uslublarini yaqinlashtirish tendentsiyasi bilan tavsiflanadi. Rus adabiy tili keng ma’noda A.S.Pushkindan to hozirgi kungacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida belgilanishi bejiz emas: xalq og‘zaki va adabiy tilni bir-biriga yaqinlashtirgan, xalq tilini xalq tilining asosiga aylantirgan A.S.Pushkin edi. adabiy nutqning turli uslublari. I. S. Turgenev Pushkin haqidagi nutqida, Pushkinning o'zi "bir-biridan butun bir asr yoki undan ko'proq vaqt ajratilgan boshqa mamlakatlarda ikkita asarni bajarishi kerak, ya'ni: tilni o'rnatish va adabiyot yaratish" ni ta'kidladi. Shu o‘rinda milliy adabiy tilning shakllanishiga, umuman, atoqli adiblarning ta’siri katta ekanligini ta’kidlash lozim. Ingliz adabiy tilining shakllanishiga V.Shekspir, ukrain tilini T.G.Shevchenko va boshqalar katta hissa qo'shdilar. Rus adabiy tilining rivojlanishi uchun N.M.Karamzinning faoliyati muhim bo'ldi, bu haqda, xususan, AS Pushkin gapirdi. Uning fikricha, bu shonli rus tarixchisi va yozuvchisi “uni (tilni) xalq so‘zining jonli manbalariga aylantirgan”. Umuman olganda, hozirgi rus adabiy tilini rivojlantirishda barcha rus klassik yozuvchilari (N.V.Gogol, N.A.Nekrasov, F.M.Dostoyevskiy, A.P.Chexov va boshqalar) u yoki bu darajada qatnashgan.

Adabiy til odatda milliy tildir. U tilning avvaldan mavjud bo‘lgan ayrim shakllariga, odatda dialektga asoslanadi. Millatning shakllanishi davrida adabiy tilning shakllanishi odatda dialektlardan biri - mamlakatning asosiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'muriy, diniy markazi shevasi asosida amalga oshiriladi. Bu dialekt turli dialektlarning sintezi (shahar Koine). Masalan, rus adabiy tili Moskva shevasi asosida shakllangan. Ba'zan adabiy tilning asosi supra-dialektal ta'limga aylanadi, masalan, Frantsiyadagi kabi qirollik saroyi tili. Rus adabiy tilida bir nechta manbalar mavjud edi, ular orasida biz cherkov slavyan tilini, Moskva buyruq tilini (Moskva Rossiyasining ish davlat tili), dialektlarni (ayniqsa, Moskva shevasi) va buyuk rus yozuvchilarining tillarini qayd etamiz. Rus adabiy tilining shakllanishida cherkov slavyan tilining ahamiyatini ko'plab tarixchilar va

tilshunoslar ta'kidlaganlar, xususan, L.V.Shcherba o'zining "Zamonaviy rus adabiy tili" maqolasida: "Agar rus adabiy tili Rossiyada o'smagan bo'lsa edi. Cherkov slavyan atmosferasi, keyin Pushkinning "Payg'ambar" ajoyib she'ri biz bugungi kungacha hayratda. Zamonaviy rus adabiy tilining manbalari haqida gapirganda, birinchi o'qituvchilarning faoliyati haqida gapirish muhimdir. Slavyan Kiril va Metyus, ular tomonidan slavyan yozuvini yaratish, rus xalqining ko'plab avlodlari tarbiyalangan liturgik kitoblarning tarjimasi. Dastlab, bizning rus yozma madaniyatimiz xristian edi, slavyan tillaridagi birinchi kitoblar Injil, Zabur, Havoriylar faoliyati, apokrifa va boshqalarning tarjimalari edi. Rus adabiy an'anasi asosan pravoslav madaniyati bo'lib, u, shubhasiz, nafaqat badiiy adabiyotda, balki adabiy tilda ham o'z aksini topgan.

"Rus adabiy tilini me'yorlashtirish uchun asoslarni buyuk rus olimi va shoiri M. V. Lomonosov qo'ygan. Lomonosov "rus tili" kontseptsiyasida rus nutqining barcha turlarini - buyruq tilini, jonli og'zaki nutqni, mintaqaviy o'zgarishlari, xalq she'riyatining uslublarini birlashtiradi va rus tilining shakllarini adabiy tilning konstruktiv asosi sifatida tan oladi. uning asosiy uslublaridan kamida ikkitasi (uchtadan) "(Vinogradov V.V. "Rus tili tarixining asosiy bosqichlari").

Har qanday davlatda adabiy til bolalarga adabiy me'yorlar asosida o'qitiladigan maktablar orqali tarqaladi. Ko'p asrlar davomida cherkov ham bu erda muhim rol o'ynadi.

Adabiy til va til tushunchalari fantastika bir xil emas, chunki adabiy til nafaqat badiiy adabiyot tilini, balki tilning boshqa realizatsiyalarini ham qamrab oladi: publitsistika, fan, davlat boshqaruvi, notiqlik, so‘zlashuv nutqining ayrim shakllari. Tilshunoslikda badiiy adabiyot tili kengroq tushuncha sifatida qaraladi, shu sababli san'at asarlari adabiy til shakllari ham, hududiy va ijtimoiy dialektlarning elementlari ham, jargon, argot, xalq tilini ham kiritish mumkin.

So'zdan foydalanish, urg'u, talaffuz va boshqalarning ma'lum normalari (qoidalari) mavjudligi. (bundan tashqari, me'yorlar dialektlarga qaraganda qattiqroq), bu me'yorlarga rioya qilish, ushbu tilda so'zlashuvchilarning ijtimoiy, kasbiy va hududiy mansubligidan qat'i nazar, umuman majburiydir;

Barqarorlikka intilish, umumiy madaniy meros, adabiy va kitob an’analarini asrab-avaylash;

Adabiy tilning insoniyat tomonidan to'plangan bilimlarning butun hajmini ifodalash va mavhum, mantiqiy fikrlashni amalga oshirishga moslashishi;

Stilistik boylik turli xil nutq vaziyatlarida fikrni eng samarali ifodalashga imkon beradigan sinonimik vositalarning ko'pligidan iborat.

Adabiy til vositalari eng to`g`ri va salmoqli so`z va iboralarni, eng maqsadga muvofiq grammatik shakl va konstruksiyalarni uzoq va mohirona tanlab olish natijasida paydo bo`lgan.

Adabiy tilning milliy tilning boshqa turlaridan asosiy farqi uning qat’iy me’yoriyligidadir.

Keling, milliy tilning dialekt, xalq tili, jargon, argot va jargon kabi turlariga murojaat qilaylik, ularning xususiyatlarini aniqlashga harakat qilamiz.

Dialekt(yunon tilidan dialektos - suhbat, dialekt, qo'shimcha) - yaqin hududiy, ijtimoiy yoki kasbiy hamjamiyat tomonidan bog'langan shaxslar

tomonidan muloqot sifatida ishlatiladigan ma'lum bir til turi. Hududiy va ijtimoiy dialektlarni farqlang.

Hududiy dialekt- yagona tilning bir qismi, uning haqiqatda mavjud xilma-xilligi; boshqa dialektlarga qarshi. Hududiy dialekt tovush tuzilishi, grammatikasi, so‘z yasalishi va lug‘at tarkibidagi farqlarga ega. Bu farqlar kichik bo'lishi mumkin (slavyan tillarida bo'lgani kabi), keyin ma'ruzachilar turli lahjalar odamlar bir-birini tushunadilar. Nemis, xitoy, ukrain kabi tillarning dialektlari bir-biridan juda farq qiladi, shuning uchun bunday dialektlarda so'zlashuvchi odamlar o'rtasida muloqot qilish qiyin yoki imkonsizdir. Misollar: ***pan*** (Sharqiy Ukraina) - ***Patent*** (G'arbiy Ukraina); Ukrainaning turli qismlarida laylak nomlari: ***qora burun*** , ***leleka*** ,***botsyun*** , ***botsian*** va boshq.

Hududiy dialekt shunday ta'riflanadi o'ziga xos etnografik xususiyatlarga ega bo'lgan tarixan shakllangan mintaqa aholisi o'rtasidagi aloqa vositasi.
Zamonaviy shevalar ko'p asrlik taraqqiyot natijasidir. Tarix davomida hududiy birlashmalarning o‘zgarishi munosabati bilan dialektlarning parchalanishi, birlashuvi va qayta guruhlanishi sodir bo‘lgan. Dialektlarning eng faol shakllanishi feodalizm davrida sodir bo'ldi. Hududiy tarqoqlikni bartaraf etish bilan shtat ichidagi eski hududiy chegaralar buzilib, shevalar yaqinlashmoqda.

V turli davrlar o'zgartirish dialektlarning adabiy til bilan aloqasi. asosida yozilgan feodal davri yodgorliklari mahalliy til, mahalliy dialekt xususiyatlarini aks ettiradi.

Ijtimoiy dialektlar- muayyan ijtimoiy guruhlarning tillari. Masalan, ovchilar, baliqchilar, kulollar, savdogarlarning umumiy tildan faqat lug'atda farq qiladigan kasbiy tillari, talabalar, talabalar, sportchilar, askarlar va boshqalarning guruh jargonlari yoki jaranglari, asosan yoshlar guruhlari, yashirin tillar, argolar. tasniflangan elementlardan.

Ijtimoiy dialektlarga muayyan iqtisodiy, tabaqa, diniy va boshqalar tilining umumiy tildan farqli variantlari ham kiradi. aholi guruhlari.

Professionalizm- bir kasb vakillariga xos bo'lgan va atamalardan farqli o'laroq, ma'lum bir kasb tushunchalarining yarim rasmiy nomlari bo'lgan so'zlar va iboralar. Kasbiylik ma'lum bir kasb, faoliyat turi bilan bog'liq bo'lgan maxsus tushunchalar, ob'ektlar, harakatlarni belgilashda katta farqlanishi bilan ajralib turadi. Bu, masalan, ovchilar tomonidan itlarning ba'zi xususiyatlari uchun ishlatiladigan nomlar: *jozibalilik, xushmuomalalik, yuqori qobiliyat, qovushqoqlik, chuqur ko'tarilish, kuyish, eshitilmaslik, yirtib tashlash, jo'shqinlik, piyoda, ishtiyoq, burish* va hokazo.

Xalq tili- xalq og'zaki nutqi, milliy nutq aloqasining og'zaki kodlanmagan (nonormativ) sohasi bo'lgan milliy til shakllaridan biri. Umumiy nutq supra-dialektal xususiyatga ega. Lahjalar va jargonlardan farqli o'laroq, ona tilida so'zlashuvchilar uchun odatda tushunarli bo'lgan nutq har bir tilda mavjud va barcha ona tilida so'zlashuvchilar uchun kommunikativ ma'noga ega.

Umumiy nutq tarixiy rivojlangan nutq tizimidir. Rus tilida xalq tili Moskva so'zlashuv koinesi asosida paydo bo'lgan. Xalq tilining shakllanishi va rivojlanishi rus milliy tilining shakllanishi bilan bog'liq. So'zning o'zi XVI-XVII asrlarda qo'llanilgan so'zdan shakllangan. "oddiy nutq" iborasi (oddiy odamning nutqi).

So‘zlashuv lug‘ati, bir nuqtai nazardan, adabiy tildan butunlay tashqarida bo'lgan va yagona tizimni ifodalamaydigan savodsiz nutq sohasi. Misollar: *Ona*, *hamshira*, *kiyimlar*, *odekolon*, *biznes*(bilan salbiy qiymat), *shilimshiq*, *kasal*, *aylanmoq*, *g'azablanmoq*, *uzoqdan*, *boshqa kun*.

Boshqa nuqtai nazardan, so'zlashuv lug'ati yorqin, past stilistik rangga ega bo'lgan so'zlardir. Bu so'zlar ikki guruhni tashkil qiladi: 1) kundalik kundalik xalq tili, adabiy tilga kirgan va qisqargan (so'zlashuv so'zlariga nisbatan) ifodali va uslubiy bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar. Misollar: *ahmoq*, *murda*, *yuziga urish*, *to'shakka mixlangan*, *semiz qorinli*, *uyqu*, *baqirmoq*, *ahmoqona*; 2) adabiy tildan tashqaridagi qo‘pol, qo‘pol lug‘at (vulgarizmlar): *Haromi*, *kaltak*, *hamlo*, *krujka*, *yomon*, *urish* va boshq.

Shuningdek bor adabiy xalq tili, adabiy tilning xalq og'zaki tili bilan chegarasi bo'lib xizmat qiladigan so'zlar, frazeologik birliklar, shakllar, nutq burilishlarining maxsus stilistik qatlami bo'lib, "tushish" ning yorqin ekspressiv bo'yoqlari bilan ta'minlangan. Ulardan foydalanish me'yori shundan iboratki, ular adabiy tilga cheklangan stilistik vazifalar bilan ruxsat etiladi: personajlarning ijtimoiy va nutqiy xususiyatlarini ifodalash vositasi sifatida, ekspressiv jihatdan "qisqartirilgan" shaxslar, narsalar, hodisalar xususiyatlari. Adabiy xalq tiliga faqat uzoq saralash, semantik va uslubiy ishlovdan so‘ng adabiy matnlarda uzoq muddat qo‘llanilishi tufayli adabiy tilga mustahkam o‘rnashib qolgan nutqiy elementlar kiradi. Adabiy xalq tilining tarkibi harakatchan va doimiy ravishda yangilanib turadi, ko'plab so'z va iboralar "so'zlashuv" va hatto "kitobiy" maqomini oldi, masalan: " *hammasi yaxshi bo'ladi*», « *shivirlovchi*», « *nerd*».

So‘zlashuv lug‘ati- biroz qisqartirilgan (neytral lug'at bilan solishtirganda) stilistik rangga ega bo'lgan va nutq tiliga xos bo'lgan so'zlar, ya'ni. adabiy tilning og'zaki shakli, cheksiz tayyorlanmagan muloqot sharoitida xizmat qiladi. TO so‘zlashuv lug‘ati qo'shimchali ba'zi otlarni o'z ichiga oladi - *ah*, *– Torting*, *– Ulya)*, *– un*, *– w (a)*, *– buta*, *– yag (a)*, *– yak* va boshq. (*soqolli odam*, *dangasa*, *iflos*, *qichqiruvchi*, *dirijyor*, *chaqaloq*, *bechora*, *semiz odam*); qo'shimchali ba'zi sifatlar - *ast–*, *– da–*,
-Ovat - (*tishli*, *tukli*, *qizg'ish*); bir qator fe'llar - *bunday qilma*(*masxara qilish*, *moda bo'lish*); ba'zi old qo'shimchali fe'llar *boshiga –*, *yoqilgan*- va postfiks - *Xia*(*osilib turing*, *ko'ring*, *suyang*, *tashrif buyuring*); iboralardan yasalgan ot va fe’llar: *bepul chavandoz*< *chiptasiz*, *rekordlar kitobi* < *rekordlar kitobi*, *byulleten* < *saylov byulletenida bo'lish* ko'plab boshqalar kabi. Lug'atlarda bu so'zlar "so'zlashuv so'zi" deb belgilangan. Ularning barchasi rasmiy biznes va ilmiy uslublarda kam uchraydi.

Jargon- odamlarni kasbi (haydovchilar, dasturchilar jargonlari), jamiyatdagi mavqei (19-asrdagi rus zodagonlarining jargoni) asosida birlashtirgan alohida nisbatan barqaror ijtimoiy guruh tomonidan muloqotda (odatda og'zaki) ishlatiladigan nutq turi; qiziqishlar (filatelistlarning jargonlari) yoki yosh (yoshlar jargonlari). Jargon umumiy tildan o‘ziga xos lug‘at va frazeologiyaga ko‘ra, so‘z yasalish vositalarining maxsus qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Argo lug'atning bir qismi bir emas, balki ko'plab (shu jumladan, yo'qolgan) ijtimoiy guruhlardir. Bir jargondan ikkinchisiga o‘tganda “umumiy fond” so‘zlari shakl va ma’noni

o‘zgartirishi mumkin. Misollar: " *qorayish*"Argotda -" *o'ljani yashirish*", Keyinchalik -" *aldash*"(So'roq ostida), zamonaviy yoshlar jargonida -" *aniq emas* lekin", " *javobdan qochish*».

Adabiy til bilan milliy til o‘rtasida farq bor. Milliy til adabiy til shaklida namoyon bo'ladi, lekin har bir adabiy til darhol milliy tilga aylanmaydi. Milliy tillar odatda kapitalizm davrida shakllangan.

Rus adabiy tili haqida (qarang: Rus adabiy tili tarixi) 17-asrning boshlaridan boshlab gapirish mumkin, u 19-asrning birinchi yarmida, A.S.Pushkin davrida milliy tilga aylandi.

Italiyada adabiy til Dante ijodida allaqachon ma'lum bo'lgan, ammo faqat 19-asrning ikkinchi yarmida, Italiyaning milliy birlashuvi davrida uning milliy tilining shakllanishi sodir bo'ldi.

Badiiy adabiyot tiliga quyidagilar kiradi: shevalar, shahar xalq tili, yoshlar va professional jargon, argot - va bularning barchasi komponent Milliy (milliy) til.
Milliy tillarni shakllantirishning uchta usuli mavjud:
1) tayyor materialni ishlab chiqish;
2) dialektlarning kontsentratsiyasi;
3) dialekt va tillarning "kesishishi".

Dialekt - bir hudud bilan bog'langan odamlar o'rtasida aloqa vositasi sifatida qo'llaniladigan til turi.
standartlashtirilgan adabiy til emas;
uning tashuvchilari o'zlarining davlat yoki avtonom birligiga ega emaslar;
bu aloqaning nufuzli shakli emas.

Dialekt tilning hududiy variantidir. Dialekt adabiy tildan til tizimining barcha darajalarida farq qilishi mumkin: fonetik, morfologik, leksik va sintaktik. Masalan, rus tilining ba'zi shimoliy lahjalari eksantrik talaffuz, "CH" tovushini "ts" bilan almashtirish bilan tavsiflanadi ("choy o'rniga tsay", "qora" o'rniga "tserny" va boshqalar. .).

Lekin, albatta, eng ko'p farqlar lug'atda. Shunday qilib, Shimoliy rus dialektlarida umumiy rus tilidagi "yaxshi" o'rniga "bask", "qo'shni" o'rniga - "shaber" va hokazo.

Rus tilidagi dialektal farqlar odatda juda kichik. Sibir Ryazanni oson tushunadi, Stavropolda yashovchi esa shimoliy ruschani tushunadi. Ammo Germaniya yoki Xitoy kabi mamlakatlarda alohida lahjalar orasidagi farq rus va polyak o'rtasidagi farqdan ham kattaroq bo'lishi mumkin! Bunday mamlakatlarda turli shevalarda so‘zlashuvchi kishilar o‘rtasida muloqot qilish juda qiyin yoki hatto mutlaqo imkonsiz bo‘lganligi sababli ularda milliy adabiy tilning roli keskin ortib bormoqda. Bu yerda adabiy til butun mamlakat aholisini bir xalqqa birlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiy tilning asosiy xususiyati - uning normallashishi. Ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlar "adabiy til" atamasi o'rniga "standart til" atamasini qo'llashlari bejiz emas - ya'ni. "Standart til".
Adabiy tilning yana bir xususiyati uning ifoda vositalari, birinchi navbatda, lug‘at boyligidir. Argot, dialektlarda, xalq tilida biz deyarli faqat kundalik mavzularda muloqot qilishimiz mumkin. Tilning ushbu variantlarida madaniy, siyosiy, ilmiy

terminologiya to'liq yoki deyarli yo'q. Adabiy tilda deyarli har qanday mavzuda gapirishimiz va yozishimiz mumkin. Tilning boshqa variantlaridan farqli o'laroq, adabiy til nafaqat kundalik sohaga, balki yuqori intellektual faoliyat sohasiga ham xizmat qila oladi. Boshqacha aytganda, adabiy til ko‘p funksiyali.

Jargon (jargon, argo) hisoblanadi ijtimoiy variant til. Jargon ozmi-ko‘pmi yopiq ijtimoiy guruh tilidir. Yoshlik jargoni, talaba jargoni, dengizchi jargoni, jinoiy jargon va boshqalar mavjud. Ba'zi hollarda, masalan, jinoiy muhitda jargon sifatida ishlatiladi maxfiy til, bilmaganlar uchun tushunarsiz, boshqalarda bu shunchaki til o'yini, nutqingizni yanada ifodali, g'ayrioddiy qilish usuli. Bundan tashqari, jargon o'ziga xos "parol" bo'lib xizmat qilishi mumkin: jargon so'zlari va iboralarni qabul qilingan muhitda kimdir tomonidan qo'llanilishi, go'yo: "Men bu erda menikiman" degan signaldir.

Odatda, tillar bir-biri bilan ona tilida so'zlashuvchilarning aloqalari yoki madaniyatlar aloqasi orqali o'zaro ta'sir qiladi. Bunday holda, bir tilning so'zlari boshqa tilga o'tishi mumkin. Bu so'zlarning u yoki bu buzilishi bilan birga keladi, chunki har bir tilning o'ziga xos talaffuzi va boshqa tillardan farq qiladigan o'ziga xos grammatikasi bor. So'zlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tish jarayonlari hayotda juda yaxshi kuzatiladi. Agar tillarning o'zaro ta'siriga to'xtaladigan bo'lsak, u holda til aloqasi ushbu tillarda so'zlashuvchi odamlarning nutqiy o'zaro ta'siri sifatida davom etadi.

Til substrati- tub aholi tilining chet tiliga ta'siri, odatda aholining birinchi tildan ikkinchi tilga o'tish davrida bosqinchilik, etnik singdirish, madaniy ustunlik va hokazolar yo'qolgan til xususiyatlari. Til ma'lum bir artikulyatsiya asosi bilan bog'liq bo'lishidan tashqari, xalq hayotida juda chuqur ildiz otgan, iqtisodiy ko'nikma va an'analar bilan juda chuqur bog'langan. Shuning uchun bir tildan ikkinchi tilga o‘tish murakkab va mashaqqatli jarayondir. Yangi tilni aniqlik va mukammallik bilan o'zlashtirishga sub'ektiv intilish qanchalik katta bo'lmasin, bu istak to'liq amalga oshmaydi. Ona tilining fonetika, lug‘at, semantika, tipologiyadagi ayrim sifatlari so‘zlovchilarning irodasi va ongiga zid holda saqlanib qoladi va yangi nutqning qo‘shilgan qobig‘i orqali “porlashda” davom etadi. Natijada, idrok etilayotgan chet tili berilgan muhitda asl muhitda bo'lganidan farqli ravishda o'ziga xos o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu hodisa lingvistik substrat deb ataladi.

Superstrat- istilo natijasida mahalliy aholi tiliga yangi kelgan aholi tilining ta'siri, bosib olingan yoki bo'ysundirilgan mahalliy aholini o'zlashtirish uchun etarlicha tanqidiy massaga ega bo'lmagan ma'lum bir etnik ozchilikning madaniy hukmronligi. Shu bilan birga, mahalliy lingvistik an'ana tugamaydi, lekin unda chet tilining ta'siri seziladi (davomiylikka qarab turli darajada va turli darajalarda). Substratdan farqli o'laroq, superstratum tilning yo'qolishiga olib kelmaydi, lekin uning til rivojlanishiga ta'siri juda muhim bo'lishi mumkin. **Adstrat**- bu tillarda so'zlashuvchi xalqlarning uzoq muddatli birga yashashi va aloqalari sharoitida bir tilning boshqa tilga ta'siri natijasida izohlanadigan til tizimining xususiyatlari majmui. Adstratum, bu kontseptsiya bilan bog'liq bo'lgan substrat va superstratum atamalaridan farqli o'laroq, tilning o'zaro ta'sirining neytral turini anglatadi, bunda bir tilning boshqa tilga etnik assimilyatsiyasi va erishi bo'lmaydi. Adstratik

hodisalar ikki mustaqil til orasida qatlam hosil qiladi. Ba'zan "adstratum" atamasi aralash ikki tillilik (ko'p tillilik) uchun ishlatiladi.

Fonetikava fonologiya

Lisoniy sathlar sirasida fonetika eng kichik tashkil etuvchi va boshqa sathlar birliklari uchun moddiy (substantsial) asos bo‘luvchi birliklarni beradigan sath sifatida ajralib turadi.

Insonning nutq faoliyati sezgi a’zolari asosida his qilinuvchi nutq birliklari - tovush yoki tovushlar tizimi vositasida ro‘yobga chiqadi. Nutq tovushlari o‘zida uch jihatni birlashtirgan murakkab nutqiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilar:

a)talaffuz a’zolari bilan boshqariladigan markaziy nerv sistemasi mahsuli (fiziologik jihat);

b)tabiatdagi har qanday tovush kabi akustik tabiatga ega (fizik, akustik jihat);

v)nutq tovushlari kishilarning axborot uzatish, kommunikatsiya vositasi (funktsional, sotsial, lisoniy jihat).

Nutq tovushlarining haqiqiy va biz uchun muhim jihati ularning funktsional aspektidir. Tilshunoslikda aytilgan uch jihatni yaxlitlikda o‘rganish yoki ajratgan holda tadqiq qilish masalasida bir xillik yo‘q. Ba’zilar nutq tovushlarining fiziologik tomoni biologiya fanining, akustik jihati fizika fanining o‘rganish predmeti bo‘lib, tilshunos uning faqat funktsional tomoninigina tekshirishi lozim degan g‘oyani ilgari surishsa, ayrimlari har uchala jihat bir-biridan ajralmasdir, ularni yaxlitlikda o‘rganmoq kerak degan aqidaga tayanadilar. Ana shu ikki qarash kurashi natijasida tilshunoslikda ikki-fonetika va fonologiya sohalari ajraldi. Pirovard natijada fonetika nutqiy variant (xususiylik)larni, fonologiya esa lisoniy invariant (umumiylik)larni tadqiq qilish bilan mashg‘ul bo‘ladigan bo‘lib qoldi.

Fonetika va uning birligi. Fonetika deganda eng quyi lisoniy sath ham, tilshunoslikning shu sathni o‘rganadigan sohasi ham tushuniladi. Fonetika (*gr.phonetikos* - tovushga, ovozga xos) tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o‘laroq, nafaqat o‘rganish manbaining funktsional tomonini, balki nutq tovushlarini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, ularning akustik xossalarini va til egalari tomonidan qabul qilinish jihatlarini ham tekshiradi. Fonetikada tilshunos-likning boshqa fan sohalari-adabiyotshunoslik, fiziologiya, fizika, psixologiya kabi fanlar bilan aloqasi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu fanlardan farqli o‘laroq, fonetika tovushlarga so‘z, qo‘shimcha va gaplarga moddiy qiyofa beruvchi til tizimi unsuri sifatida qaraydi.

Fonetika nutqdagi tovush o‘zgarishlari va almashinishini, urg‘u va uning turlarini ham o‘rganadi.

Fonetikani o‘rganish imlo (orfografiya), to‘g‘ri talaffuz (orfoepiya) me’yorlarini yaxshi o‘zlashtirib olishda, adabiy va dialektal talaffuz farqlarini aniqlashda, logopediya va surdopedogogikada nutqiy nuqsonlar diagnostikasi va ularni bartaraf etishda katta ahamiyatga ega. Fonetika yutuqlari aloqa vositalarini tekshirish va ular samaradorligini oshirishda hamda nutqni avtomatik aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Fonetikaning bo‘limlari. Fonetika, avvalo, umumiy, xususiy va qiyosiy fonetikaga ajraladi.

Umumiy fonetika. Inson talaffuz apparatining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda nutq tovushlari hosil qilishning umumiy shartlari (masalan, undoshlarning hosil bo‘lishi o‘rniga ko‘ra lab, til, bo‘g‘iz undoshlarining farqlanishi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi, sirg‘aluvchi, portlovchi-sirg‘aluvchi tovush xossalarining aniqlanishi kabilar), shuningdek, tovushlarning umumiy akustik xossalari o‘rganiladi. Qisman artikulyatsion, qisman akustik belgilarga tayangan holda nutq tovushlarining universal, shuningdek, farqlovchi belgilariga tayanadigan ichki tasniflarini berish bilan ham shug‘ullanadi. Umumiy fonetika tovushlarning birikish qonuniyatlari, bir tovushning ikkinchisiga ta’siri xususiyatlarini (akkomodatsiya va assimilyatsiyaning turli ko‘rinishlari), bo‘g‘inning tabiati, bo‘g‘inda tovushlarning birikish qonuniyatlari, bo‘g‘inlarga bo‘linish shartlari, so‘zlarning fonetik tuzilishi, qisman urg‘u va singarmonizm masalalarini ham tekshiradi. Umumiy fonetika intonatsiya uchun qo‘llaniladigan vositalar (tovush balandligi, kuchi (intensivligi), cho‘ziqligi, tezligi (tempi), pauza, tembr kabi masalalarni ham tekshiradi.

Xususiy fonetikada yuqorida aytilgan masalalar muayyan tillar misolida tekshiriladi. Xususiy fonetika tarixiy fonetika va zamonaviy, muosir fonetika, sinxron fonetika va diaxron fonetika, tasviriy fonetika va eksperimental fone-tika kabi ko‘rinishlarda ish yuritadi.

Qiyosiy fonetikada bir nechta qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan tillarning, yoxud bir qancha dialekt va shevalarning unli va undosh tovushlari, ulardagi fonetik o‘zgarishlar va boshqa hodisalar qiyosiy aspektda tekshiriladi.

Qiyosiy fonetika umumiy va xususiy fonetika oralig‘idagi vaziyatni egallaydi.

Nutqning fonetik bo’linishi. Nutq fraza (jumla), takt, so’z, bo’g’in va tovushlardan tashkil tlpadi.

Fraza ko’pincha gapga teng bo’lib, nutqning ikki pauza orasidagi intonatsion butunligidir. Fraza yoyiq va yig’iq bo’lishi mumkin. Fraza yoyiq bo’lsa taktlarga ajraladi, yig’iq bo’lsa taktga teng bo’lib qoladi.

So’z – nutqning alohida bir urg’u bilan aytiladigan bo’lagi. So’z takt ichida yoki o’zicha mustaqil keladi.

Bo’g’in – bir tovush yoki tovushlar qo’shilmasidan iborat bo’lib, bir nafas zarbi bilan aytiladigan so’zning bo’lagidir. Bo’g’in bir unlidan iborat bo’lganda tovushga teng kelib qoladi.

Tovush – fonetik bo’linishning oxirgi nuqtasi bo’lib, boshqa bo’laklarga bo’linmaydi.

Fonologiya. Fonologiya (*gr. rhone* - tovush, *logos* - ta’limot) termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushlarining fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funktsional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo‘ldi. Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funktsional qonuniyatlarini o‘rganuvchi soha bo‘lib, semiotik (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektda o‘rganadigan fonetikadan farqlanadi.

Fonetikaning birligi bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushlari bo‘lganligi kabi, fonologiyaning birligi so‘zlovchilarning ana shu bevosita kuzatishda berilgan

nutq tovushlari asosida yotgan tovush tipi haqidagi ijtimoiy tasavvurlaridir. Har bir fonema kishilar ongida umumiy farqlovchi xususiyatlari asosida vujudga kelgan maxsus «akustik portret» yoki «tovush obrazi» sifatida yashaydi. Bu farqlovchi belgilar tovushlarning artikulyatsion va akustik belgilari asosida vujudga keladi va barqarorlashadi.

Fonemaning uch tomoni farqlanadi: akustik (eshitish), fiziologik yoki artikulyatsion (aytilish va talaffuzi), sotsial (ma‘no ajratish). Bulardan uchinchi tomoni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy fonologiya faqat shu jihatnigina e‘tiborga oladi. Chunki, akustik va artikulyatsion-fiziologik jihatlar bevosita nutq bilan bog’liq.

Boshqa lisoniy birliklar kabi fonemalar ham paradigmatik va sintagmatik munosabatlarda yashaydi. Bular *fonologik paradigmatika va fonologik sintagmatika* deyiladi.

O‘zaro qarama-qarshi belgilarga ega bo‘lgan, biroq umumiy, integral belgilari asosida birlashgan bir tipdagi fonemalar sirasi *fonologik paradigma,* fonemalarning o‘zaro munosabatlari *fonologik paradigmatik munosabat* deyiladi.

Fonologik paradigmaning markazida fonologik ziddiyatlar turadi. Fonologik ziddiyat (oppozitsiya)lar fonemalarning farqli belgilarini ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi unli fonemalar bir umumiy belgi - «o‘pkadan kelayotgan havoning tovush paychalariga urilish natijasida hosil bo‘lgan ovozning og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchramay chiqishidan vujudga keladigan tovush tiplari» invariant xossasiga ega va u 6 ta unli fonema uchun ham amal qiladi. Biroq bu mohiyat ostida birlashgan fonemalar o‘zaro zidlanib, kichik guruhlar hosil qiladi. [*i*] va [*u*] «yuqori tor» belgisi bilan «o‘rta keng» xossasiga ega [*e*] va [*o‘*] hamda «quyi keng» xossasiga ega [*a*] va [*o*] fonemalar guruhlariga qarama-qarshi turadi. Yoki «lablanmagan» belgisiga ega [*i*], [*e*], [*a*] fonemalari guruhi «lablangan» belgisiga ega [*u*], [*o‘*], [*o*] guruhiga qarama-qarshi turadi. O‘z navbatida, [*i*], [*e*], [*e*] guruhi a’zolari o‘ziga xos belgilari asosida o‘zaro zidlanadi.

Tilshunoslikda fonologik ziddiyatlarning turli tip va ko‘rinishlari farqlanadi. N.S.Trubetskoy «Fonologiya asoslari» asarida fonologik ziddiyatlarni uch asosga ko‘ra tasniflaydi:

Fonologik ziddiyatning ziddiyat tizimiga munosabatiga ko‘ra tasnifi.

Bunda ziddiyatlar bir o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli, muntazam va ajralgan ziddiyatlarga bo‘linadi. Bir o‘lchovli ziddiyatda fonemalar bir belgi asosida zidlanadi. Masalan, [*i*] va [*u*] fonemalaridan biri lablanmagan va ikkinchisi lablangan bo‘lib, bunda ular bir belgi - «lablangan»lik xossasiga ko‘ra qarama-qarshi turadi.

Ko‘p o‘lchovli ziddiyatda ziddiyat a’zolari birdan ortiq belgi asosida qarama-qarshi qo‘yiladi: [*i*], [*o*] ziddiyatida [*i*] yopiq va lablanmagan bo‘lsa, [*o*] yarim yopiq, lablangandir.

Muntazam ziddiyatda zidlanuvchi a’zolar o‘zaro o‘ziga xos belgilar asosida qarama-qarshi qo‘yiladi: «[*i*]-tor [*o*]-keng» zidlanishi muntazam zidlanishdir. Bunda [*i*] fonemasi «tor» lik, [*o*] fonemasi «keng»lik belgisiga ega. «[*i*] (tor) [*o*] (tor emas)» zidlanishi esa muntazam emas. Chunki birinchi a’zoda ziddiyat belgisi

aniq, ikkinchi a’zoda aniq emas. Agar ikkinchi a’zoning ziddiyatdagi belgisi «keng» bo‘lganda edi, ziddiyatni muntazam ziddiyat deyish mumkin bo‘lur edi.

Bir belgining bo‘linishlari asosida zidlanish ajralgan zidlanish deyiladi. Quyidagi ikki zidlanishga diqqat qiling:



Birinchi zidlanishda ziddiyat belgisi bo‘lingan, ajralgan, ikkinchida esa bunday hol mavjud emas.

A’zolari o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra ziddiyatlar tasnifi. Bunga ko‘ra, privativ (noto‘liq), gradual, (darajali), teng qiymatli ziddiyatlar ajratiladi.

Birinchi tasnifda ziddiyat belgisi xarakteriga ko‘ra ziddiyat turlari ajratilgan bo‘lsa, ikkinchi tasnifda fonemalarning ziddiyat a’zolariga munosabatiga ko‘ra tasnif amalga oshiriladi.

Barqarorlik darajasiga ko‘ra zidlanishlar barqaror va barqaror bo‘lmagan turlarga bo‘linadi. Barqaror zidlanishda fonemalarning qanday nutqiy vaziyatda bo‘lishidan qat’i nazar, ulardagi ziddiyat saqlanib qoladi. Masalan, til oldi unlisi til orqa undoshi bilan kelgan vaziyatda til orqa undoshi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda [*a*] unlisi bilan til orqa [*u*] unlisi orasidagi ziddiyat kuchsizlanadi.

Barqaror bo‘lmagan ziddiyatning neytrallashmagan holatini ta’minlovchi fonetik pozitsiya kuchli pozitsiya deyiladi. Masalan, [*b*] fonemasi so‘z boshida jarangsizlashmaydi va bu pozitsiyada uning [*p*] fonemasiga zidligi saqlanadi. Bu kuchli pozitsiyadir. Neytrallanish, so‘nishga olib keluvchi pozitsiya kuchsiz pozitsiyadir. Demak, bunday pozitsiyadagi ziddiyat barqaror bo‘lmagan ziddiyat deyiladi. Unli va undoshlar orasidagi qarama-qarshilik barqaror ziddiyatga misol bo‘la oladi. Yoki undoshlarning paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra, unlilarning tor-kenglik xossalariga ko‘ra zidlanishi ham barqaror ziddiyatlardir. Lablanish belgisiga ko‘ra [*o‘-e*] tizimchasi ham barqaror ziddiyat asosiga qurilgan.

Demak, o‘zbek tilining fonetik paradigmasi deganda har qaysisi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan barqaror bir umumiy belgi ostida birlashadigan fonetik unsurlardan tashkil topgan tizim tushuniladi. Bu butunlik yoki paradigma o‘z ichida ayrim belgilari bilan umumiylikni tashkil etgan va shu umumiylik uchun asos bo‘lgan belgilari bilan boshqa shunday umumiylikdan farq qiladigan kichik butunliklardan, ichki paradigmalardan-mikrosistemalardan tashkil topadi. Bu tizimchalar unli va undosh fonemalar paradigmalaridir. Bu kichik paradigmalar a’zolarining umumiy belgilari ularning shu tizimni tashkil etishini ta’minlasa, farqlovchi belgilari bu ichki paradigmaning yana kichik bo‘laklarga bo‘linib ketishiga olib keladi. Jarangli undoshlar paradigmasi, jarangsiz undoshlar paradigmasi kabi.

Nutqning fonetik bo’linishi. Nutq tovushlarining fonetik o’zgarishlari.

Nutq ketma-ket kelgan tovushlarning yig’indisi yoki zanjirsimon ulanishidan iborat bo’lib, ma’lum fonetik birliklardan tashkil topadi. bu fonetik bo’linish hisoblanadi va tilshunoslikda segmentasiya (lotincha segment - bo’lak) deb ham yuritiladi. Har bir bo’lak segment hisoblanadi. fonetik birliklar dastlab ikki guruhga segment va supersegment birliklarga bo’linadi.

Segment birliklar – so’z yoki morfema tarkibida gorizontal chiziq bo’ylab birin-ketin keladigan birliklardir. Ularga nutq tovushi, bo’g’in, fonetik so’z, takt va fraza kiradi.

Supersegment birliklar – o’rg’u, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalar bo’lib, ular so’zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador bo’ladi va ular bilan birga qo’llanuvchi ustama hodisalar hisoblanadi.

Nutqning boshqa bo’laklarga bo’linmaydigan eng kichik birligiga tovush deyiladi. Tovushlardan bo’g’in tashkil topadi.

Bir havo zarb bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar yig’indisi bo’g’in deyiladi. Ular so’zni hosil qiladi. Nutq tovushlarining muayyan ketma-ketlikdagi ifoda plani fonetik so’z hisoblanadi.

Ikki kichik pauza orasiga joylashgan va yagona o’rg’u bilan aytiladigan bir yoki bir nechta bo’g’inning yig’indisi takt deyiladi. Havo bulut edi. Bu gap 2 ta taktdan iborat. Birinchisi – havo, ikkinchi bulut edi. Takt gapdagi o’rg’uli so’zga bog’liq bo’ladi. Gapimizdagi uchinchi so’z o’rg’u olmagani uchun 2 ta takt ajratilyapti.

Har ikki tomondan chuqur pauza bilan ajratiladigan fonetik birlikka fraza (jumla) deyiladi. Fraza gapga to’g’ri kelmaydi. Gap – sintakti birlik. Fraza fonetik birlik hisoblanadi. Biz ona – Vatanimizni ko’z qorachig’imizdek asraymiz. Bu sintaktik jihatdan bitta gapdan, fonetik jihatdan 2 ta frazadan tashkil topgan.

Ma’lumki, unli tovushlar bo’g’in hosil qiladi. So’zda nechta unli bo’lsa, bo’g’in miqdori ham shuncha bo’ladi. Ol – ma (2 ta unli 2 bo’g’in), ma’naviyat (4 ta unli 4 bo’g’in).

Bo’g’in tuzilishi jihatidan quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Bir unlidan iborat: o-ta, o-na, a-ka.
2. Bir unli va bir undoshdan iborat:

a) unli + undosh – ot, ish, ol.

b) undosh + unli – lo-la, do-na, to-za.

3. Bir unli va ikki undoshdan iborat:

a) undosh + unli + undosh: kuch, qosh, mak-tab.

b) unli + ikki undosh: aql, ilm, erk.

v) ikki undosh + unli: fra-za, sta-kan.

4. Bir unli va uch undoshdan iborat:

a) undosh + unli + ikki undosh: baxt, qirq, dard.

b) ikki undosh + unli + undosh: stol, trak-tor, xlor.

5. Bir unli va 4 undoshdan iborat.

a) ikki undosh + unli + ikki undosh: sport, shrift.

b) undosh + unli + uch undosh: punkt, tekst.

v) uch undosh + unli + undosh: skver, shtraf, skrip-ka.

Bug’inning CCV, CCVC, CCVCC, CVCCC, CCCVC kabi tiplari asosan rus tilidan o’zlashgan so’zlarda uchraydi. Turkiy tilga xos sof o’zbekcha so’zlarda bir tovushdan 4 tovushgacha bo’lgan bo’g’in tiplari mavjud. Bo’g’in unli yoki undosh fonema bilan tugashiga ko’ra 2 xil bo’ladi:

unli bilan tugasa ochiq bo’g’in: bo-la, lo-la

undosh bilan tugasa yopiq bo’g’in: maktab, dehqon.

Tilda bo’g’inning amaliy ahamiyati katta.

1) Satrga sig’may qolgan so’zni ikkinchi satrga ko’chirish bo’g’in asosida amalga oshiriladi.
2) SHe’riyatning barmoq vazni bo’g’inlar sonining teng bo’lishiga asoslanadi.
3) Bog’cha bolalari va boshlang’ich sinf o’quvchilarini o’qish, yozishga o’rgatishda ham bo’g’in asosida ish olib boriladi.
4) Bo’g’in fonetik so’zning shakllanishida qurilish materiali bo’lib xizmat qiladi.

Bo’g’in fonologiyada sillabema deb yuritiladi.

So’z tarkibidagi bo’g’inlardan birining yoki gaplardagi ayrim bo’laklarning boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishi o’rg’u deyiladi. O’rg’u fonologiyada aksentema deb yuritiladi.

Tilning qaysi sathidagi birliklarga aloqador bo’lishiga ko’ra o’rg’u quyidagi turlarga ajratiladi:

1) So’z o’rg’usi.
2) Gap o’rg’usi.

So’z o’rg’usi yuqorida ta’kidlanganidek, so’zning biror bo’g’iniga tushadi va uning quyidagi turlari bor:

1) fonetik tabiatiga ko’ra:

a) dinamik (zarb) o’rg’u – so’z tarkibidagi bo’g’inlardan birining, ayniqsa, unli tovushning kuchli zarb bilan talaffuz qilishga asoslanadi. O’zbek tili o’rg’usi dinamik o’rg’u hisoblanadi. ya’ni so’z tarkibidagi o’rg’uli bo’g’in zarb bilan aytiladi.

b) kvantativ o’rg’u – o’rg’uli bo’g’indagi unlining cho’ziq talaffuz qilinishi bilan xarakterlanadi.

v) tonik (musiqiy) o’rg’u. Bunday o’rg’u tovush tonining ko’tarilish va tushish ohangiga bog’liq bo’ladi. xitoy, yapon, serb tillarida musiqiy o’rg’u ishlatiladi.

2) tushish o’rniga ko’ra: bog’langan va erkin o’rg’u. Bog’langan o’rg’u doim so’zning biror bo’g’iniga tushadi. Masalan, turkiy tillarda – oxirgi bo’g’inga, venger va chex tillarida – birinchi bo’g’inga tushadi.

Erkin o’rg’u – so’zdagi turli bo’g’inlarga tushadi, rus tili o’rg’usi bunga misol bo’ladi. erkin o’rg’uli tillarda o’rg’uning o’rni so’z ma’nolarini farqlash funksiyasini ham bajaradi: zamők (qulf) va zámok (qal’a, saroy). O’zbek tili bog’langan o’rg’uga ega bo’lsada, ba’zan shunday holatlar uchraydi: 1) o’z so’z va o’zlashma omonim bo’lsa, atlás – átlas; 2) sifatlar ravishga ko’chganda: yangi (uy) – yangi (kelib-ketdi). Erkin o’rg’uga xos yana bir xususiyat shuki, u so’zga qo’shimcha qo’shilganda ham, aksariyat, boshqa joyga ko’chmaydi: narodы-narodov, narodami …

Tilimizdagi bir qator qo’shimchalar o’rg’u olmaydi:

1) fe’lning bo’lishsiz shakli – ma.

2) dona son yasovchi –ta, chama son yashovchi – tacha qo’shimchalari.
3) ravish yasovchi: -day, -dek, cha.
4) shaxs-son qo’shimchalari: -man, -san, -miz, -siz – o’qiyman.
5) affiks yuklamalar: -mi, -chi, -u (-yu), -da, a, -ya, -ku, -oq, - yoq, -gina, -kina, -qina.

SHuningdek, kelib chiqishi jihatidan arab va tojik tiliga xos bo’lgan quyidagi so’zlarda ham o’rg’u oxirgi bo’g’inga tushmaydi.

a) ravishlar: doim, hozir, yangi.

b) yordamchi so’zlar: albatta, chunki, ammo, hatto, lekin, ba’zi, ba’zan.

v) olmoshlar: hamma, barcha, qancha, qanday, allkim, allanima, allaqancha, kimdir, qachondir, har kim, har qachon, har qaysi, hech nima, hech qanday, hech qaysi.

Gap o’rg’usi logik o’rg’u deb ham yuritiladi. Logik o’rg’uning qaysi so’zga tushishi so’zlovchining maqsadi va niyatiga bog’liq bo’ladi. so’zlovchi uchun muhim bo’lgan so’zning ma’nosini kuchaytirish uchun u alohida ohang bilan aytiladi.

1 sentyabr – Mustaqillik bayrami.
1 sentyabr – Mustaqillik bayrami.
1 sentyabr – Mustaqillik bayrami.

Umuman olganda, nutqining ifodaliligi va tushunarligini ta’minlashda o’rg’uning o’rni beqiyos.

Nazorat uchun savollar:

1. *Nutq fonetik jihatdan qanday bo’laklarga bo’linadi?*
2. *Segment va supersegment birliklar nima va ularning farqi?*
3. *Bo’g’in nima?*
4. *Bo’g’inning qanday tiplari bor?*
5. *O’rg’u qanday bo’lakka tushishiga kura necha xil?*
6. *O’rg’uning fonetik tabiatiga ko’ra turlarini sanang va izohlang.*
7. *O’zbek tili o’rg’usini tavsiflab bering.*

8.Fonetika nimani o`rganadi?9
9.Tovush va fonemaning farqini ayting.
10.Fonologiya haqida nimalarni bilasiz?
11.Fonema qanday belgilarga ega?
12.Fonetik akustika haqida qanday ma‘lumotga egasiz?
13.Nutq tovushlari artikulyatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
14.Nutq a‘zolarining vazifalari nimalardan iborat?
15.O`zbek tilining fonetik vositalariga nimalar kiradi
16.Vokalizm nima?

17.O`zbek adabiy tili vokalizmi qaysi fonemalarni O`z ichiga oladi?
18.Unli fonemalar undoshlardan qanday farqlanadi?
19.Unli fonemalar tasnifi nimalarga asoslanadi?
20.O`.Lablarning ishtirokiga ko`ra unlilarning turlari?
21.Tilning vertikal (tik) harakatiga ko`ra unlilarning turlari?

22.Tilning gorizontal harakatiga ko`ra unlilarning turlari?
23.Tasnifga asos bo`lgan qaysi belgilar fonologikxarakterda?
24. Qaysi belgi O`z holicha fonologik xususiyatga ega emas?
25. J va J(dj) undoshlari qanday farqlanadi?
26. Qanday pozitsiyalarda bu fonemalarning allofonlari yuzaga keladi?
27. Qanday holatda ch ning sh ga o`tishi uchraydi?
28. Bu hodisa nima deb ataladi?
29. Sayoz til orqa k, g undoshlari qanday pozitsiyada o`zgaradi?
30. Chuqur til orqa undoshlariqchi?
31. h undoshi talaffuzida qanday o`zgarishlar kuzatiladi?

2-MAVZU

ORFOEPIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. GRAFIKA VA ORFOGRAFIYA. ONA TILI IMLOSI VA UNING ASOSIY TAMOYIL(PRINSIP)LARI LEKSIKOLOGIYA, UNING OBYEKTI, TURLARI, VAZIFALARI. ONA TILI LUG'AT TARKIBINING MA'NO JIHATDAN TAVSIFLANISHI.

R E J A:

1. Orfoepiya haqida umumiy ma`lumot
2. Grafika va orfografiya
3. Leksikologiya, uning obyekti, turlari, vazifalari
4. Ona tili lug`at tarkibining ma`no jihatdan tavsiflanishi

Orfoepiya *– to`g`ri (adabiy) talaffuz me`yorlari tizimi. Qisqa talaffuz – urg`usiz bo`g`indagi unlining qisqa va kuchsiz (bilinar- bilinmas) talaffuz etilishi.*
Cho'ziq talaffuz *– urg`uli bo`g`indagi unlining urg`usiz bo`g`indagi unlidan cho`ziqroq bo`lishi. Bu xususiyat ruscha leksik O`zdashmalarda, ayniqsa, sezilarli bo`ladi.*
Ingichka talaffuz *– unli tovushlarning sayoz til orqa «k»,»g»,»ng», til o`rta «y» va bo`g`iz undoshi «h» bilan yondosh bo`lganda old qator fonema tarzida ingichka talaffuz etilishi.*
Yo'g'on talaffuz *– unli tovushlarning chuqur til orqa «q», «g`», «x» undoshlari ta`sirida orqa qator fonema tarzida yo`g`onlashuvi.*
Jarangsizlanish *– ayrim jarangli undoshlarning so`z oxirida yoki assimilyativ holatlarda jarangsiz undosh tarzida talaffuz etilishi.*
Intervokal holat *– undosh fonemaning ikki unli orasida qo`llanishi. Bunday pozitsiyada (ko`p bo`g`inli so`zlarda) portlovchi «q» undoshi sirg`aluvi «g`» tarzida (qishloq>qishlog`imiz kabi), jarangsiz «k» undoshi jarangli «g» tarzida (telpak>telpagim kabi) talaffuz qilinadi.*

Grafika *– yozuv tizimining birinchi (yetakchi) komponenti. U harfiy va noharfiy belgilar vositasida yozuvning tovush tili bilan aloqasini ta`minlaydi.*
Grafema *– grafik tizimning eng asosiy birligi, ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlari bor bo`lgan semiotik belgi.*
Fonografema *– grafemalarning fonemalarni ifodalashga asoslangan tipi.*
Monograf *- shaklan bir harfga teng grafema.*
Poligraf *- shaklan ikki yoki undan ortiq harflar qo`shilmasiga teng bo`lgan analitik grafema.*
Monosemantik grafema *– mazmun planida faqat bitta fonema kodlashtirilgan fonografema.*
Polisemantik grafema *– mazmun planida ikki va undan ortiq fonema kodlashtirilgan fonografema.*
Sintetik grafema *– nutq oqimida bir yo`la ikki fonemani ifodalaydigan monograf.*
Grafik simmetriya (fonetik-grafik simmetriya) *– so`z tarkibidagi tovush va harflarning miqdoran teng bo`lishi («bir tovushga bir harf» munosabatining ta`minlanishi).*
Grafik asimmetriya (fonetik-grafik asimmetriya) *– so`z tarkibida O`zaro munosabatga kirishayotgan harf va tovushlar o`rtasidagi miqdoriy tenglikning buzilishi.*
Grafik sinonimiya *– shakli har xil bo`lgan ikki grafemaning ma`lum fonetik-grafik pozitsiyalarda bitta fonemani ifodalashi.*
Leksik sath *- til ierarxiyasining lug`at boyligidan iborat yuqori pog`onasi: so`zlar, iboralar, ularning turli qatlamlari.*
***Monosemantik va polisemantik so`zlar****-tildagi so`zlar bir va birdan ortiq ma‘noga ega bo`lishi mumkin.*
Metafora*-(yunoncha «ko`chirma» so`zidan olingan) biror narsa, belgi yoki harakatning nomi o`zaro o`xshashligi bo`lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko`chishidir.*
Metonimiya*-(yunoncha «qayta nomlash», «nomini almashtirish»). Omonimlar, omoshakllar, omofonlar, omograflar va paronimlar -shakliga ko`ra; sinonimlar, antonimlar - o`zaro mazmun uzviyligi yoki zidligiga ko`ra alohida guruhga mansub bo`ladi.*

Orfoepiya haqida umumiy ma`lumot

Orfoepiya so'zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, o'zak va qo'shimchalardan iborat so'/ formalarini to'g'ri talaffuz qilish me’yorlari tizimidir. Tilshunoslikning bu tizim haqidagi bo'limi ham *orfoepiya* deyiladi.

Orfoepik me’yorlar aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi — jonli tildagi turlicha talaffuz ko'rinishlaridan adabiy til an’analariga, taraqqiyot traditsiyalariga mos keladiganlari tanlanadi.. Masalan, o'zbek shevalarida bir so'z turlicha talaffuz qilinadi: *yo'q-jo'q, ko‘z-go‘z, ota-ata, aka-oka, anor-onar* kabi. Hozirgi zamon davom fe’li qo'shimchasi shevalarda *-yap(ti), -op(ti), -utti, -vot(ti)* shakllarida qo'llanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda

shulardan *yo‘q, ko‘z, ota, aka, anor boryapti* variantlari adabiy talaffuz me’yori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

To'g'ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o'quvchi va talabalarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarining shakl la nt i ri 1 ish iga ta’limning barcha bosqichlarida jiddiy e’tibor beriladi.

I unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zlarda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: *til, tisb, bil, sir* kabi; 2) q, g', x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz etiladi: *qish, g'isht, xil* kabi; 3) y, ng undoshlaridan oldin ingichka va biroz cho'ziq talaffuz etiladi: *chiy, kiy. ming* kabi; 4) h bilan yondosh bo'lganda ham biroz cho'ziq va ingichka talaffuz qilinadi: *hid, hind, his* kabi; 5) ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kuchsiz va qisqa *(bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gibs, viqor* kabi), urg'uli bo'g'inda esa kuchliroq va cho'ziqroq (*nozik, alik, rostlik* kabi) talaffuz etiladi; b) so'z oxiridagi ochiq bo'g'inda biroz kengayadi («i» dan kengroq, «e» dan torroq unli tarzda talaffuz qilinadi): *tepki, bordi, oftobi, xuddi, rozi* kabi.

U *unlisi:* I) bir bo'g'inli so'zlarda va ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa *(tush, rus, pul, buloq, bug'doy* kabi), urg'uli bo'g'inida esa kuchliroq va cho'ziqroq *(bulut, yetuk, popuk* kabi) talaffuz etiladi; 2) k,g,y undoshlaridan keyin ingichka (old qator unli tarzida), q, g‘, x undoshlaridan so'ng esa yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *kid* va *qul, atirgul* va *norg'ul, yuk* va *xulq* kabi; 3) *—uvchi, -uv* affikslari tarkibida cho'ziqroq aytiladi: *yozuvchi, o'quvchi, to‘quvchi, oluv, qo'shuv* kabi.

O' *unlisi:* 1) bir bo'g'inli so'zlarda, shuningdek ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa talaffuz etiladi: *bo‘r, to'r, ro'mol, so'roq* kabi; 2) takroriy formalarning birinchi komponentida (urg'uli bo'g'inda) cho'ziq talaffuz qilinadi: *ko'p-ko'p, zo'r-zo'r, mo1-mo*7kabi; 3) sayoz til orqa k,g, til o'rta y va bo'g'iz undoshi (h) dan so'ng yumshoq (old qator) unli tarzida, chuqur til orqa q,g',x undoshlaridan so'ng qattiq va yo'g'on (orqa qator) unli tarzda talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *ko1 va qo'l, go'r va g'o'r, ho't va xo 'r, yo 1 va qo ‘r* kabi.

E *unlisi*: I) so'z va bo'g'in boshida kengroq *(erkin, ekin, eslamoq* kabi), bo'g'in ichida bir oz torroq *(kecha, beda, tekin, sekin* kabi) talaffuz qilinadi.

A *unlisi:* 1) sayoz til orqa k, g undoshlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzida *(kam, katta, gap, gal, gazlama, kayjlyat* kabi), chuqur til orqa q, g‘, x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda esa yo'g'on unli tarzida *(qalam, qatg'a, qasida, g'am, g'alvir, xalq, xabar, xat* kabi) talaffuz etiladi.

O *unlisi:* 1) quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: *tosh, bahor, somon, shamol* kabi. Shevalarda va jonli tilda bu unlining urg'usiz bo'g'inda «a»ga yaqin talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: *samon, davon* kabi, ammo bu hoi adabiy talaffuz (orfoepik me’yor) hisoblanmaydi; 2) sayoz til orqa k, g undoshlaridan so'ng yumshoq, chuqur til orqa q,g',x undoshlaridan so'ng esa yo'g'on unli tarzida talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *kosib* va *qoshiq, kotib* va *qotip, komil va qobil, gov* va *g‘ov, govmish* va *g'ovlamoq* kabi; 3) urg'uli bo'g'inda kuchliroq va biroz cho'ziq talaffuz etiladi: *bog'bon, obod*so'zlarining birinchi va

oxirgi bo'g'inlaridagi o unlisi talaffuzini qiyoslang; 4) y va h undoshlari bilan yondosh qo'llanganda ham o unlisi biroz yumshoq, ingichka unli holida talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *yor va qor, hokim va xolis* kabi.

Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq kombinator va pozitsion omillar ta'sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog'liq bo`ladi. Xususan:

1. b, d jarangli undoshlari so'z oxirida jarangsiz p,t tarzida talaffuz etiladi, bu hoi o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor hisoblanadi: *kitob > kitop, borib > borip, yozib > yozip, savod > savot, obod > obot* kabi;
2. b, d undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qollanganda assimilatsiyaga uchrab, p, t holida talaffuz etiladi, bu hoi ham adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi: *ibtidoiy > iptidoiy, ketdi > ketti*\ 3) j, z undoshlarining jarangsiz undoshlar ta'sirida sh, s deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me'yordir: *ijtimoiy > ishtimoiy, mazkur> maskur* kabi; 4) b, q undoshlarining intervokal holatda (ikki unli orasida) sirg'aluvchi v, g' undoshlariga o'tishi ham adabiy talaffuz me'yoriga xilof emas: *bora ber> boraver, keta ber > ketaver* kabi.

1. Q, K bilan tugagan otlarning egalik aflfikslari bilan turlangan shakllari quyidagicha talaffuz etiladi: a) ko'p bo'g'inli so'zlarda *qishloq> qishlog'imiz, qishlog'ingiz, qishlog'i; telpak > telpagim, telpaging, telpagi* kabi. Birbo'g'inli so'zlarda bunday o'zgarish bolmaydi: *o'q > o'qi, tok > toki* kabi *(yoq, yo'q* so'zlari bundan mustasno).

2. Q, K, G, G' bilan tugagan otlarningjo'nalish kelishigidagi shakllari quyidagicha talaffuz qilinadi: *qishloq+ga > qishloqqa, chelak+ga > chelakka, tog'+ga > toqqa, pedagog+ga > pedagokka* kabi. Boshqa barcha holatlarda:

a) jarangsiz undoshlardan so'ng -ka, jarangli undoshdan va unlidan so'ng -ga talaffuz etiladi: *otka, oshka, qopka,* ammo *uyga, ovga, to/ga, tomga, bolaga, akaga* kabi.

3. *Fe'llarda: a)* ong+la > angla, son+a > sana, yosh+a > yasha *kabi;*

b) ek+gan > ekkan, ket+gan > ketkan, oq+gan > oqqan, tush+gan > tushkan *kabi.*

4. Olmoshlarda: *u+n+da > unda, bu+n+da > bunda, shu+n+da > shunda* (bir «n» orttiriladi), *men+ning > mening, sen+ning > sening* (bir «n» tushirib qoldiriladi). fi/>so'zidan dona son yasalganda, o'zakdagi «r» undoshi «t»ga o'tadi: *bir+ta > bitta* kabi.

Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi

1. Turkiy tillarda, ma'lumki,/undoshi bo'lmagan, shuning uchun jonli so'zlashuvda arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan so'zlardagi «f» ni «p» deb talaffuz qilish hollari uchraydi: *ulfat> ulpat, faner> paner, ferma > perma* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ularni «f» bilan talaffuz qilish me'yor holiga kelgan.

2. So'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi turkiy tillarga xos bo'lmagan. Bu hodisa keyinchalik boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar talaffuziga ham ta’sir qilgan — jonli so'zlashuvda so'z yoki bo'g'in boshida yoxud bo'g'indagi ikki undosh orasida bir unlining orttirilishiga olib kelgan: *shkaf> ishkop, stakan > istakon, plan > pilon, traktor> tiraktir* kabi. Bunday holat so'z oxirida ham uchraydi: *aq/> aqil, fikr> fikir, ilm > Him, hukm > hukum* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday so'zlarni asl holicha (unli orttirmay) talaffuz qilish orfoepik me’yor sanaladi. Bunday me’yor shu tipdagi so'zlarning yozuvdagi shakiini (imlosini) to'g'ri belgilashga ham yordam beradi.
3. Umumturkiy so'zlarda ikki unli yonma-yon qo'llanmaydi, bu hoi arabtilidan o'zlashgan *oila, doir, rais, maorif saodat, mutolaa* kabi so'zlar talaffuziga ta’sir qilgan: *oila, doir, rais* so'zlarida bitta «y» orttirilgan *(oyila, doyir,rayis kabi), maorif, saodat, mutolaa* so'zlari esa unlilarning diftong- lashuviga — *mo.rip, so:dat, mutoia:* kabi talaffuz qilinishiga olib kelgan. Keyingi bir asr ichida ms tilidan so'z o'zlashtirishning faollashganligi, ruscha o'zlashmalarning rus tilidagi talaffuz va imlo me’yorlarini o'zbek tiliga aynan singdirish tendensiyasining ustun bo'lganligi o'zbek tilida ikki unli-ning so'z tarkibida yonma-yon kelishini orfoepik va orfografik me’yorga aylantirdi: *biologiya, geometriya, geologiya, geodeziya* va boshqalar. Bu hoi arabcha o'zlashmalarda *(oila, doir, rais, maorif, saodat, matbaa, mutolaa* kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini me’yor darajasiga ko'tardi.
4. Arab tilidan o'zlashtirilgan *ta'na, da’vo, ma'no, e’lon, me’mor, mo'tabar* kabi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi unlilar arabcha «ayn» tovuShi ta’sirida bo'g'iz artikulatsiyasi bilan cho'ziqroq talaffuz etiladi.
5. Rus tilidan o'zlashgan so'zlarda «i» unlisi o'zbek tilining «i» unlisidan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *tish* (o'zb.) — *tip > ti:p* (rus.), //‘/(o'zb.) - *tir*> //./-(rus.) kabi.
6. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz ochiq bo'g'inidagi «i» o'zbekcha «i» dan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *bilan* (o'zb.) — *bilet (*rus.), *kinoya* (o'zb.) — *kino* (rus.) kabi.
7. Rus tili orqali o‘zlashtirilgan so‘zlarning so‘nggi ochiq, urg‘uli bo‘g‘inida «i» unlisi o'zbekcha «i»dan tor va cho‘ziq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *maxsi* (o‘zb.) — *taksi* (rus.), *tepki* (o‘zb.) — *konki* (rus.) kabi. Urg‘uli bo‘g‘inning boshqa tiplarida (yopiq, to‘la yopiq bo‘g‘inlarda) ham ruscha «i» o‘zbekcha «i»dan cho‘ziqroq va torroq talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *met in* (o‘zb.) — *nikotin > nikot'v.n* (rus.), *oysin* (o‘zb.) — *ape/sin > apelsim* (rus) kabi.
8. Rus tilidan o‘zlashtirilgan bir bo‘g‘inli so‘zlarda «u» unlisi o‘zbek tHidagi «u»dan cho‘ziqroq va kuchliroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *dud* (o‘zb.) — *dub > du:b* (rus), *pul* (o‘zb.) — *puls > puds* (rus.), *tush* (o‘zb.) — *tush > tir.sh* (rus.) kabi.
9. Rus tilidan o‘zlashtirilgan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning urg‘uli bo‘g‘inida «u» unlisi o‘zbek tilidagi «u»dan ancha cho‘ziq va biroz yo‘g‘onroq talaffuz

etiladi. Qiyos qiling: *bu-da* (o‘zb.) — *budka* (rus.), *mangu* (o'zb.) — *mangusta* (rus.), *mavzu* (o‘zb < arab.) — *meduza* (rus.) kabi.

10. Rus tilidan o‘z!ashtirilgan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning ürg‘usiz bo‘g‘inidagi «u» qisqa talaffuz qilinadi, ammo o‘zbek tilidagi «u» ayni shu fonetik pozitsiyada ruscha «u»dan ham qisqaroq bo‘ladi. Qiyos qiling: *dushman* > *dbshmen* (o‘zb.) — *turbina* (rus.), *muzday* > *mhzday* (o‘zb.) — *muzey* (rus) kabi.
11. So‘z boshidagi berkitilmagan, urg‘usiz bo‘g‘inda «u» unlisi ruscha so‘zlarda yo‘g‘onroq, o‘zbekcha so‘zlarda ingichkaroq (yumshoqroq) talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *uklad* (rus.) — *uxlamoq* (o‘zb.), *uzual* (rus.) — *uzum* (o‘zb.) kabi.
12. Ruscha leksik o‘zlashmalarda «u» unlisi yumshoq undoshdan so‘ng o‘ta ingichka (old qator unli tarzida), qattiq undoshdan so‘ng esa yo‘g‘on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *abajur va manikur (aöaMyp ea Manuiaop), ultimatum va kastum (yribmuMamyM ea KocmioM), plug va salut (nrtye ea can tom)* kabi. Rus tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarda yumshoq undoshdan keyin kelgan «u» o‘zbekcha «u» dan ham ingichkaroq va yumshoqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *burro* (o‘zb.) — *byuro* (rus.) kabi.
13. Ruscha leksik o‘zlashmalarning urg‘usiz bo‘g‘inidagi «e» unlisi o‘zbekcha «e» dan ancha tor («i» ga yaqin) talaffuz etiladi: *telefon* > *tilifon, televizor* > *tiliviz.br, adres* > *adris* kabi.
14. Rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarda «a» unlisi o‘zbekcha «a» dan yo‘g‘onroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *kana* (o‘zb.) — *kanal* (rus.) kabi.
15. Rus tilidan o‘zlashtirilgan so'zlardagi o‘rta keng, lablangan «o» unlisi urg‘uli bo‘g‘inda o‘zbek tilidagi o‘rta keng, lablangan «o‘» dan kengroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *ton* (rus.) — *to‘n* (o‘zb.), *tok* (rus.) — *to'k* (o‘zb.), *tort* (rus.) — *to'rt* (o'zb.) kabi. Urg'usiz bo'g'inda esa ruscha «o» reduksiyaga uchrab, o'ta kuchsizlanadi va «qisqa «i» yoki «a» tarzida talaffuz qilinadi: *traktor* > *tbraktbr, samolyot* > *samalyot* kabi.
16. Jonli tilda «r» bilan boshlangan arabcha, forscha va ruscha so'zlarning boshida bir «o‘» tovushining orttirilishi ancha keng tarqalgan: *ro'za* > *o'raza, rus* > *o'ris, ro'mol* > *o'ramol* kabi. Adabiy talaffuz me’yori sifatida *ro'za, rus, ro'mol*shakllari saralangan.
17. Rus tilidan o'zlashtirilgan so‘zlarning oxirida lab-tish «v» undoshi jarangsiz «f» tarzida talaffuz qilinadi: *aktiv* > *aktif passiv* > *passif ustav*> *ustaf kursiv* > *kursif* kabi; «v» ning jarangsizlanishi so'z ichidagi assimilativ holatda ham yuz beradi: *avtomat* > *aftomat, stavka* > *stafka* kabi. Bunday talaffuz adabiy til uchun me’yor sanaladi, ammo o'zbek tilining o'z so'zlarida qo'llanadigan lab-lab «v» undoshi so'z oxirida ham, jarangsiz undosh ta’sirida ham «f» ga o'tmaydi: *ov, birov, ovqat, shavkat* kabi. (Bu holat ham orfoepik me’yor sanaladi).
18. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning ko'pchiligida urg'u erkin bo'ladi, bu hoi o'zbek adabiy tili va talaffuziga ham singib bormoqda: *atlas, trolleybus, tramvay* kabi.

19. O'zbek tilidagi urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrirn o'zlashgan so'zlarda urg'u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin: *hamma, jami, hamisha, afsuski* kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilish imkonini beradi.

Grafika va orfografiya

Grafika (grekcha grapho - "yozma" - so`zidan olingan) tildagi tovushlarni ko`rsatuvchi shakliy vositalar tizimidir. Har bir tovush uchun olingan maxsus shakl harf deyiladi, tovush ko`rsatmaydigan shakl esa belgidir. Tildagi muayyan tartib bilan joylashtirilgan harflar va belgilar tizimi alfavit deyiladi.

Hozirgacha amalda bo`lib turgan yozuv rus(kirill) grafikasiga asoslangan bo`lib, unda 35 ta shakl mavjud. Shundan 33 tasi harf, 2 tasi (ъ, ь) belgi. Lotin alifbosiga asoslangan yangi yozuvda 30 ta grafik shakl qabul qilingan bo`lib, ulardan bittasi (tutuq belgi) belgi hisoblanadi. Yigirma to`qqizta shakl esa unli va undosh tovushlarni ifodalovchi harflardir. O`zbek-kirill yozuvida tildagi 6 ta unli fonemalar quyidagi 10 ta harf vositasida ifoda etiladi:а, о, и, э, у, нь, ю, è, я, е. Bulardan keyingi to`rttasi ikki tovush ifodasini beradi: ю=й+у, я=й+а, è =й+о, е=й+е kabi. Biroq mazkur harflar ba'zi so`zlarda bir tovush ifodasini berishi ham kuzatiladi: Masalan: ю harfi: порошют so`zida u tarzida; я harfi октябрso`zida a tarzida; е harfi – кел, кет so`zlarida е tarzida talaffuz etiladi va bitta tovush ifodalaydi. Qiyoslang: юлдуз - 5 harf, 6 ta tovush; япроль- 5 harf, 6 ta tovush; èз- 2 ta harf, 3 tovush; ер - 2 ta harf 3 ta tovush. Kirill yozuvidagi ikki tovush ifodolovchi ю, è, я, е harflari yolashgan unlilar yoki grafemalar deb ataladi. O`zbek-lotin yozuvida esa unli harflar soni tilimizdagi 6 ta tovush soniga tengdir. Chunki yangi yozuvda o`zbek-kirill yozuvidagi yo, yu, ya, ye grafemalari maxsus xarflarga ega emas. Ular ю, è, я, е harf birligi orqali yoziladi: yer, yur, yor, yangi. Shuningdek, o`zbek-kirill yozuvidan farqli ravishda yangi yozuvda poroshut, oktabr, budjet, kel, ket so`zlari talaffuz qilingan shaklda bitta harf bilan yoziladi.

Har ikkala alfavitdagi 23 harf kirill alifbosiga asoslangan imloda 25 ta, yangi o`zbek-lotin alfavitida esa 24ta undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda quyidagilar e'tiborga olinadi: j harfi talaffuzda bir-biridan keskin farqlanuvchi ikki undosh tovushning yozuvdagi belgisi hisoblanadi: jurnal (jurnal), vijdon (vijdon) so`zlarida j harfi sirg`aluvchi undoshni; jo`ra, reja so`zlarida esa qorishiq portlov-chi undoshni ifoda etadi. Shuningdek, tong, anglamoq so`zlaridagi ng til orqa, portlovchi-sirg`aluvchi, burun tovushi uchun o`zbek-kirill alifbosida maxsus harf qabul qilinmagan. Bu tovush n+g harf birikmasi orqali ifodalandi. O`zbek-lotin alfavitida esa bu tovushini ifodalash uchun ng harf birikmasi mavjud. Masalan: tong, ko`ngil. Biroq, o`zbek-lotin alfavitida asosan o`zlashma so`zlarda uchraydigan s (ts) qorishiq portlovchisi uchun maxsus harf qabul qilinmagan. Bu tovush uchraydigan so`zlar yangi yozuvda quyidagicha yoziladi: a) so`z boshi va so`z o`rtasida hamda undosh va unli oralig`ida kelganda s harfi bilan yoziladi: sirk, kvars, fransiya, stansiya; b) so`z o`rtasida ikki unli oralig`ida kelganda esa ts harf birikmasi bilan yoziladi: militsiya, akatsiya kabi. Bundan tashqari yangi yozuvda o`zbek-kirill yozuvidan farqli ravishda sh (sher) ch(chopmoq) kabi harf birikmalari

ham qabul qilingan. O`zbek tili grafikasi alifavitdagi harf, harf birikmalaridan tashqari, tinish belgilari va urg`u belgisini ham o`z ichiga oladi.

Yozuvlar tarixidan. Yozuv fikrni tovush yetmaydigan joy va kelajak avlodga yetkazish ehtiyojidan kelib chiqqan. Dastlab bu vazifani ramziy ma‘nolarni ifodalaydigan narsa-buyumlar bajargan. Umuman, yozuvning ilk ildizlari odamzod biror joyga belgilar qo`yib har xil chiziqlar chiza boshlagan davrga borib taqaladi. Keyinchalik inson ham jismoniy, ham aqliy takomillashuvi natijasida ko`ngilda to`g`ilgan fikrni turli rasm - tasvirlar orqali ifodalay boshlagan. Ma‘lum bir shaklga ega bo`lmagan, ya‘ni mavhum narsalar uchun ham turli hil ramziy belgilar o`ylab topilgan. Shu tarzda taraqqiyot mahsuli o`laroq, yozuvning piktografik; idiografik; iyeroglifik va boshqa turlari kelib chiqqan. Turkiy xalqlar, jumladan, o`zbek xalqi tarixida ham xilma-xil yozuvlardan foydalanganlar. So`nggi yozuvlarning aksariyati fonografik, ya‘ni tovush yozuvi - harfiy yozuvdan iborat bo`lgan. Hozirgi paytda jahon ahlining to`rtdan uch qismi yozuvning mazkur turidan foydalanadi.

Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari singari o`zbek xalqi ham o`z tarixiy shakllanishi mobaynida oromiy, yunon, karoshta, so`g`d, xorazm, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, o`rxun (run), uyg`ur, arab, kirill va lotin kabi yozuvlardan foydalangan. Tarixiy tadqiqotlarning guvohlik berishicha, eramizdan avvalgi VI - IV asrlarda Markaziy Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida mix yozuvi ishlatilar edi. Ayrim joylarda esa mix yozuvidan birmuncha oddiy va qulay bo`lgan oromiy yozuvi amalda bo`lgan. Turli yodgorliklarda qayd etilishicha, eramizdan avvalgi I - III asrlarda oromiy yozuvi bilan bir qatorda yunon va karoshta yozuvlari ham ishlatilgan.

Miloddan avvalgi II-III asrlarda shakllana boshlagan sug`d yozuvi ham o`lkamiz madaniyati tarixida muhim o`rin egallagan. Olimlarning izlanishlari shuni ko`rsatadiki, sug`d yozuvi eramizning VII-VIII asrlarida amalda bo`lgan. Xususan, Mug` tog`idan topilgan manbalar VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin sug`d yozuvidagi hujjatlarni o`z ichiga olishi, buning yaqqol dalilidir. Bundan tashqari, o`lkamizda eramizning II asri oxiri III asr boshlarida Xorazm shohi zarb etgan pullarda qadimgi xorazm yozuvi uchraydi. Bu yozuv O`rta Osiyoda ancha keng tarqalgan bo`lib, shaklan Oromiy yozuviga ancha yaqin turadi.

Xalqimizning yozuvlar bilan bog`liq tarixining yana bir bosqichi turkiy-run yoki O`rxun-Enasoy kabi nomlar bilan yuritiladigan yozuvga daxldordir. O`rxun-Enasoy obidalari fanda «tosh bitiklar» deb ham yuritiladi. Buning boisi mazkur obidalarning aksariyat qismi qabr toshlariga o`yib yozilganligidadir. Xususan, Kultegin, Bilgahoqon, Tunyuquq kabi shahzoda va sarkardalar sharafiga qo`yilgan qabr toshlari shular jumlasidandir. Biroq «Irq bitik» deb nom olgan «Ta‘birnoma» turkiy-run yozuvining qog`ozdagi nusxasi ekanligi bilan ajralib turadi. Bu yozuv xususida yaqin yillarga qadar V-VIII asrlar davomida amalda bo`lgan, degan xulosa yetakchilik qilar edi. Biroq keyingi yillar mobaynida topilgan yangi dalillarga tayanilgan holda, turkiy-run yozuvi eramizning I ming yilligidayoq shakllanib bo`lganligi xususida xulosalarga kelinmoqda. Jumladan, 1988-yil Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Lo`mbitepadan topilgan ko`zaga o`yib

tushirilgan qadimgi turkiy bitiklar turkiy-run yozuvining ibtidosi eramizga qadar bo`lgan davrlarga daxldor ekanligini faraz qilish imkonini beradi.

Shuni ham ta‘kidlash joizki, tarixda O`rxun yozuvi keng joriy etilgan Turk hoqonligi tugab, turkiylar o`rtasida uyg`ur yozuvining joriy etilishida muhim o`rin tutgan uyg`ur hoqonligi (744 – 840-yillar oralig`ida hukmronlik qilgan) boshlangandan keyin ham turkiy-run yozuvi Sibir turklari va Mo`g`iliston hududlarida VIII asrgacha qo`llanavergan. Ba‘zan turk-run yozuvi va uyg`ur yozuvlari baravar amalda bo`lgan. Masalan, 784-yilda uyg`ur hoqonlaridan bo`lgan Muyunchurning qabriga o`rnatilgan toshning bir tomoniga turk-run yozuvi bitilganligi buning yaqqol dalilidir.

Turkiy-run yozuvi haqidagi dastlabki ma‘lumotga XVIII asrning boshlarida ega bo`lingan bo`lsa ham, biroq yozuv qaysi xalqqa mansub ekanligi noma‘lumligicha qolib kelar edi. Chunki topilgan manbalarni hali hech kim o`qiy olmagan edi. Yozuv haqidagi birinchi ma‘lumotlar 1691- yil Moskvadagi Gollandiya elchixonasi a‘zosi Nikolay Vidzen Verxoturdon uncha uzoq bo`lmagan joydan noma‘lum alifboda yozilgan bitiktoshlarni topganidan so`ng tarqala boshlaydi. Oradan besh yil o`tgach, 1696 -yilda, Semyon Remizov Yenisey daryosi havzasidan topilgan O`rxun yodgorligi haqida xabar beradi. 1830 -yilda asirlikka tushgan shved zobiti Iogan Stralenberg ham Sibirda noma‘lum yozuvlar bitilgan toshlarga duch keladi. Shundan so`ng, 1890-yilda Fin-Ugor ilmiy jamiyatining O`rxun daryosiga uyushtirgan arxeologik ekspeditsiyalari O`rxun- Enasoy bitiklari xususida ko`plab aniq va yangidan-yangi ma‘lumotlar to`planishida katta ahamiyat kasb etdi. Bu davrda runik yozuv deb nomlangan O`rxun - Enasoy yozuvini (O`rxun - Enasoy yozuvi shaklan got yozuviga, ya‘ni qadimgi olmon yozuviga o`xshash bo`lgani tufayli runik - sirli deb nomlangan) 1893-yilning oxirida danyalik olim V.Tompson birinchi bo`lib o`qishga muyassar bo`ldi. U eng avval tangri va turk so`zlarini o`qigach, bu yozma yodgorliklar turkiy xalqlarga tegishli ekanligi ma‘lum bo`ldi. Mazkur yilning 25- noyabrida esa bitiktoshlardagi barcha harflarni aniqlab, yodgorliklarning sirini to`laligicha ochishga muyassar bo`ldi. Shu orada rus sharqshunosi, akademik V.V.Radlov ham 15 ga yaqin harflarni aniqlab ulgurgan edi. Shunday qilib, O`rxun-Enasoy yozma yodgorlik-larining o`qilishida ikki zabardast olim V.Tompson va V.V.Radlov- larning xizmatlari beqiyosdir. O`rxun-Enasoy yozuvi o`ngdan chapga va yuqoridan pastga qarab yozilgan.

Eramizning VI - VII asrlarida turk hoqonligi o`rnida maydonga kelgan Uyg`ur hoqonligi o`zining yangi yozuvini joriy etadi. Bu yozuv tarixda "Uyg`ur yozuvi", "Turkiy yozuv" kabi nomlar bilan mashhur bo`lgan. Jumladan, XI asrning yirik tilshunos olimi Mahmud Koshg`ariy ham uyg`ur yozuvini "turkiy" yozuv deb atagan.

Uyg`ur yozuvi orqali turkiy xalqlarning juda ko`plab bebaho durdonalari bizgacha yetib kelgan bo`lib, "Oltin yorlug`", turkiylarning ilk yozma dostoni bo`lgan «Qutadg`u bilig» ning Vena nusxasi, "Hibat-ul haqoyiq", hamda "Tazkirat-ul avliyo", "Me‘rojnoma", "Baxtiyor-noma" kabi asarlarning turkiy qavmlar o`rtasida shuhrat qozonishida ana shu yozuvning xizmati katta bo`lgan. Bu yozuvning turkiy xalqlar o`rtasida arablar istilosidan so`nggi davrlarda ham

amalda bo`lganligi-ni tasdiqlovchi dalil sifatida Umarshayx mirzoning 1469 -yilda uyg`ur yozuvida bitilgan yorlig`ini keltirish mumkin. Uyg`ur yozuvining nihoyatda kuchli ta‘siri adabiy tilning yozma shaklida ham o`zining sezilarli izini qoldiradi. Bu Navoiygacha bo`lgan davrda yaratilgan barcha manbalarda qadimgi uyg`ur tizimga xos morfologik, fonetik, leksik unsurlarning ko`plab uchrashi misolida ko`zga tashlanadi.

VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi bilan arab madaniyati, tili, adabiyoti, ta‘siri islomiy madaniyat sifatida bu o`lkada yashovchi xalqlar o`rtasida keng yoyila boshladi. Ana shunday bir davrda boshqa xalqlar qatorida o`zbek xalqi ham arab yozuvini qabul qildi. Xususan, bu yozuvda yaratilgan ilk turkiy tilga oid manbalar XI asrga taalluqli bo`lib, «Qutadg`u bilig»ning Namangan va Qohira nusxalaridir. Shuningdek, «Devonu lug`atit turk», «Muhabbatnoma» kabi asarlar ham arab xatida yaratilgan qadimiy manbalardandir. Garchi bu yozuv o`zbek va boshqa turkiy xalqlar tili xususiyatlariga to`la mos kelmasa ham, asrimizning boshlariga qadar, aniqrog`i, 1929-yilgacha yaratilgan nihoyatda boy merosimiz ana shu yozuv asosida bizgacha yetib keldi. Arab yozuvidagi murakkabliklarni sezgan ayrim olimlar, masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur o`zining "Xatti Boburiy" yozuvini yaratdi. Biroq o`sha davrdagi siyosiy-ijtimoiy muhit uning bu sa‘y-harakatiga yo`l bermas edi. Nihoyat, amaldagi arab alifbosi asosida xalqni yoppasiga savodli qilish mumkin ekanligini anglab yetgan o`zbek ziyolilari, xususan, jadidlar tashabbusi bilan 1921- yilda yozuv isloh qilinadi. Ya‘ni arab yozuvidagi uch xil shaklda yoziladigan 38 harf xilma-xil yozuv turlari birmuncha soddalashtirilib, harflar soni 29 taga qisqartiriladi. Shunday bo`lishiga qaramasdan, bu yozuv tobora rivojlanib borayotgan ilm-fan, texnika va madaniyatning talablarini to`la qondira olmay qoldi. Xususan, arab yozuvi asosida xalqni tez orada savodli, madaniyatli qilishda muhim ahamiyatga ega bo`ladigan darslik va o`quv qo`llanmalarni, ilmiy, siyosiy va badiiy asarlarni ko`plab chop etish, gazeta va jurnallarni nashr etish borasida to`sqinliklar, texnik qiyinchiliklar mavjud edi. Ana shular e‘tiborga olingan holda, 1929-yildan boshlab o`zbek yozuvi lotinlashtirilgan alfavitga ko`chirildi. Albatta, bu yozuv o`zbek va boshqa turkiy xalqlar tillariga xos fonetik xususiyatlarni ifodalashda arab yozuviga nisbatan juda katta qulayliklarga ega edi. Biroq lotin alfaviti asosidagi yozuv 1940- yilgacha amalda bo`ldi. 1940-yil 6-8-mayda o`zbek yozuvini lotinlashtirilgan yozuvdan rus (kirill) grafikasiasosidagi yangi yozuvga ko`chirish haqida qaror qabul qilindi.

O`zbekiston o`z istiqloliga erishish arafasida, ya‘ni 1989-yil 21- oktabr kuni, O`zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. 1991-yil 31- avgustda esa O`zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e‘lon qilindi. Shu kunlardan boshlab barcha sohalarda ijobiy o`zgarishlar yuz bera boshladi. Jumladan, 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslan-gan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida"gi qonunning qabul qilinishi va bu orqali o`zbek tilining barcha fonetik xususiyatlarini ifoda eta oladigan yozuv bilan ta‘minlanishi ana shunday islohatlardan biri bo`ldi. Shundan so`ng, 1995-yil 6 mayda, O`zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida"gi qonuni-ga o`zgartirish kiritish haqida Oliy Majlis qarori qabul qilindi. Bu qaror-ga muvofiq muqaddam

qabul qilingan yangi alifbo birmuncha soda-lashtirildi. Xususan, harflar soni 29 taga qisqartirildi. Avval qabul qilin-gan qonunda ko`zda tutilgan to`liq o`tish muddati 2005-2010-yilgacha uzaytirildi. 1995 yilning 24 avgustida Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan qabul qilingan, "O`zbek tilining asosiy imlo qoidalari" 1996-1997-o`quv yilidan boshlab lotin alfavitiga asoslangan yangi o`zbek yozuvi maktabgacha ta‘lim muassasalarida, umumta‘lim maktablarining boshlang`ich sinflarida, korxona va tashkilotlarda iste‘molga kiritildi.

Leksikologiya, uning obyekti, turlari, vazifalari

Tildagi so`zlarning jami uning leksikasini, ya‘ni lug`at boyligini tashkil etadi. Leksikologiya (yunoncha lexikos-lug`atga oid va logos-ta‘limot) tilshunoslikning lug`aviy birliklar tarkibini tekshiradigan bo`limidir.

Tilning lug`at tarkibi va uni tashkil etuvchi so`zlar bir qator umumiyliklarga ega. Ular quyidagilarda ko`zga tashlanadi:1) tildagi so`zlar muayyan ma‘no ifodalash xususiyatiga ega bo`ladi. So`zning ma‘no xususiyatlari leksikologiyaning semosiologiya bo`limida o`rganiladi; 2) har qaday tilning taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan o`zgarishlar avvalo uning leksikasida o`z aksini topadi. Chunki til jamiyat taraqqiyoti davomida yangi-yangi so`zlar hisobiga boyib boradi, ayni paytda ba‘zi so`zlar eskiradi va iste‘moldan chiqadi; 3) tilning lug`at tarkbidagi so`zlar iste‘mol darajasiga ko`ra chegaralangan yoki chegaralanmaganligi bilan ham farqlanadi. Xususan, ba‘zi so`zlar umumxalq iste‘molida bo`lsa (ota, ona, yurmoq, men, sen), ayrim so`zlaning iste‘mol darajasi chegaralangan bo`ladi. Masalan, shevaga oid so`zlarning hududiy chegaralanishi, shular jumlasidandir; 4) so`zlar nutq uslubiga bo`lgan munosabatiga ko`ra ham farqlanadi. Jumladan, ba‘zi so`zlar uslubiy betaraf bo`lsa, ba‘zilari esa nutq uslubining ma‘lum turiga mansubligi bilan farqlanadi; 5) har bir so`z tovush qiyofasi va ma‘noga, ya‘ni shakl va mazmunga ega. Shunga ko`ra, so`zlar omonim, paronim, sinonim, antonim munosabatlarni yuzaga keltiradi.Tilning eng muhim birliklaridan bo`lgan so`zlarga xos bu umumiyliklar leksikologiyaning asosiy tekshirish ob‘yektidir.

So`z va uning belgilari. So`z tilning muhim unsurlaridan biri bo`lib, ma‘lum ma‘no doirasida birlashgan tovush va tovushlar majmuyidan tashkil topadi. Biroq har qanday tovushlar birligi so`z yoki uning ma‘nosini shakllantira olmaydi. Masalan, olma so`zidagi tovushlar birligi meva tushunchasini ifodalagan holda, shu so`zdagi tovushlarning mloa, oalm shaklidagi yig`indisi hech qanday ma‘noga ega emas. Ayni paytda, tovushlarning bunday birligini so`z deyish ham mumkin emas. Shunday ekan, har qanday tovush va tovushlar yig`indisi ma‘no ifodalovchi vosita sifatida emas, ma‘no tovush va tovushlar majmuyini shakllantiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga egadir. Muayyan ma‘noning tovush yoki tovushlar birligi vositasida belgilanishi esa so`zni shakllantiradi. So`zning tovush tarkibida o`zgarish yuz bersa ham ba‘zan ma‘no saqlanishi mumkin. Lekin bu hodisa birdaniga emas, tilning uzoq asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida ro`y beradi. Masalan o`grat-o`rgat, yog`mir-yomg`ir, qo`nshi-qo`shni kabi so`zlar tarkibidagi metateza hodisasi ana shunday uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Biroq bunday tarixiy o`zgarish so`z ma‘nosining yo`qolishiga olib kelmaydi. Ba‘zan

bunday tarixiy o`zgarishlar tilda yangi ma‘no tashuvchi belgining, ya‘ni yangi so`zning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin. Jumladan, arch, yoy, ko`r so`zlari tarkibida yuz bergan tarixiy fonetik o`zgarishlar tufayli, mazkur so`zlarda o`ziga xos ma‘no parchalanishi yuz bergan va ularning har biri hozirgi tilda alohida tushuncha ifodalovchi so`zlar sifatida shakllangan: arch-art, yoy-yoz, ko`r-ko`z. Bundan tashqari tilda shunday so`zlar ham borki, ular fonetik tarkibiga ko`ra bir xil (omonim), biroq ma‘no jihatdan har xil. Bunday so`zlarda yashiringan ma‘no faqat nutq jarayonida, ya‘ni boshqa so`zlar qurshovidagina anglashiladi.

So`zning ikkinchi muhim belgisi uning ma‘no ifoda etish va saqlash xususiyati orqali namoyon bo`ladi. Lekin ular ifodalaydigan ma‘nolar bir xil emas. Chunki so`z ifodalaydigan ma‘no eng umumiy xususiyati bilan ham turli tiplarga bo`linadi. Jumladan, ayrim so`zlar ob‘yektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, qiymat, harakat kabilarni, ba‘zilari esa so`zlovchining his-hayajonini, voqelikka munosabatini bildiradi, ba‘zan esa faqat grammatik ma‘no ifodalaydi. Biroq ular qanday ma‘no ifodalashidan qat‘iy nazar, so`z hisoblanadi.

So`zning ob‘yektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilar haqidagi ma‘lumoti leksik ma`no deyiladi. Masalan, anor, tosh so`zlarining narsa haqida ma‘lumot berishi, qattiq, shirin so`zlarining belgi haqida ma‘lumot berishi shular jumlasidandir. Demak, so`z borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarning atamasi – nomi bo`lishi yoki aksincha bunday xususiyatga ega bo`lmasligi mumkin. Shunga ko`ra ular mustaqil va yordamchi so`zlar turkumlariga ajratiladi. Tildagi mustaqil so`zlargina leksik(lug`aviy) ma‘noga ega bo`ladi va ular leksikologiyaning asosiy o`rganish manbai hisoblanadi. So`zning borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni atash, nomlash xususiyati esa uning nominativ funksiyasi deyiladi.

So`z nutq tovushlarining muayyan tartibda birikishidan hosil bo`lib, ma‘no anglatuvchi til birligidir.

So`zning tovush tomoni fonetikada, grammatik tomoni grammatikada, ma‘no tomoni leksikologiyada o`rganiladi. So`zning barcha tomonlari nazarda tutilsa, u til va nutqning eng muhim elementlaridan biri ekanligi anglashiladi.

So`z til birligi sifatida ma‘no ifodalash xususiyatiga ega. So`zning ma‘nosi narsa-hodisalar bilan bog`lanishidan kelib chiqadi, bu bevosita bog`lanish bo`lmay, borliqning inson ongida aks etishi orqali yuzaga keladi. Insonning borliqni anglashi, ongida aks ettirishi so`z ma‘nosida o`z aksini topadi. Borliqni bilish narsa-hodisa haqida tushunchaga ega bo`lishdir. Tushunchada so`zning umumiy va muhim belgilari mujassamlashadi. Bu belgilar uni boshqa predmetlardan ajratib turadi.

Inson ma‘lum bir predmet, belgi, harakat, holat kabilarning umumiy va o`ziga xos muhim xususiyati asosida ularni boshqa shu kabi predmet, belgi, harakatlardan ajratadi. Demak, so`z tushunchaning nomi, tushunchaga ega so`z ma‘nosining asosini tashkil etadi. So`z asosida yotgan tushuncha so`zning leksik ma‘nosi sanaladi. Demak, so`zning leksik ma‘nosi uning material ma‘nosi bo`lib, so`z ifoda etgan aniq bir predmet belgi, harakat, miqdor kabilardan iborat bo`ladi: anor, daraxt – predmet tushunchasini, ekdi - harakat, qizil – belgi, o`nta, ko`p - miqdorga ko`ra belgi, men, sen – shaxs tushunchasini ifodalaydi.

Demak, ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish so`z turkumlari lug`aviy ma‘no bildiradi. So`zlarning lug`aviy ma‘nodan tashqari, grammatik ma‘nolarga ham ega bo`ladi. So`zning lug`aviy ma‘nosi leksikologiyada o`rganiladi. Grammatik ma‘no grammatikada o`rganiladi. Yordamchi so`z turkumlari lug`aviy ma‘no ifodalamaydi, ular grammatik ma‘no ifodalashga xizmat qiladi.

So`z lug`aviy ma‘no-tushunchadan tashqari, insonning narsa va hodisaga bo`lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini ham bildiradi. Insonning ijobiy va salbiy munosabati so`z hissiy-ta‘siriy bo`yog`i deb yuritiladi. Masalan, yuz, aft, bashara, turq, chehra, oraz, chiroy kabi sinonimlar qatorida yuz so`zi odam a‘zosining biri haqidagi tushunchani anglatadi, bu ijobiy yoki salbiy ma‘no ottenkasiga ega bo`lmagan betaraf so`z. Aft, bashara, turq so`zlarida so`zlovchining asosiy-bosh tushunchaga qo`shimcha salbiy munosabatini ifoda etuvchi ma‘no ham mavjud. CHiroy, chehra, oraz, ruxsor so`zlariga so`zlovchining ijobiy (hayrixoxligi, yoqimli, go`zal kabi ma‘no) munosabati ham yuklatilgan. Bunday qo`shimcha ma‘no ottenkalar kishilarning hissiyotiga o`z ta‘sirini o`tkazadi. So`zdagi salbiy hissiy-ta‘siriy bo`yoq muayyan matn tarkibida oydinlashadi. Bet so`zi «Beti qursin» gapida salbiy ma‘no, «Beti-betiga tushsa nima deydi» gapida bu salbiy ma‘no kuchsizlanadi. Kitobning beti birikmasidagi beti so`zida salbiy ma‘no umuman yo`q.

Hissiy-ta‘siriy bo`yoq tildagi hamma so`zlarda bo`lavermaydi. Masalan, ilm- fan, texnikaga oid atamalarda hissiy-ta‘siriy bo`yoq bo`lmaydi.

So`zlar og`zaki va yozma nutqda qo`llanishiga ko`ra ham farq qiladi. Aft, bashara, turq so`zlari ko`proq og`zaki nutqda, chiroy, oraz, ruxsor ko`proq yozma nutqda, yuz so`zi har ikkala nutqda qo`llanadi. Ko`rinib turibdiki, so`zlar biror nutq uslubida qo`llanishga moslashgan bo`ladi, bu ulardagi uslubiy belgi deb yuritiladi.

Uslubiy belgi-so`zning ma‘lum uslubga mansubligini ko`rsatuvchi belgi. Masalan, metro – so`zlashuv uslubida metropoliten kitobiy uslubda qo`llaniladi.

Leksik ma‘no deganda so`z ifoda etadigan tushuncha, hissiy-ta‘siriy bo`yoq va uslubiy belgilar yig`indisi tushuniladi. Demak, tushuncha, hissiy-ta‘siriy bo`yoq, uslubiy belgi leksik ma‘no komponentlari deyiladi.

Monosemantik va polisemantik so`zlar. Tildagi so`zlar bir va birdan ortiq ma‘noga ega bo`lishi mumkin. Bir ma‘nolilik hodisasi monosemiya, ko`p ma‘nolilik hodisasi esa polisemiya deb yuritiladi. Masalan, marmar, g`oya, xulosa, taassurot kabi so`zlar va ilm - fan sohalariga doir atamalar bir ma‘noli so`zlardir. O`z va ko`chma ma‘nolari tufayli ikki yoki undan ortiq ma‘noga ega bo`lgan so`zlar esa ko`p ma`noli (polisemantik) so`zlar deyiladi. Masalan: etak - choponning etagi, tog`ning etagi.

Tilshunoslikda so`zning ko`p ma‘nolilik xususiyatini o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko`p ma‘noli so`zlar turli usullar vositasida ma‘no ko`chishi orqali o`z ma‘nosidan boshqa ma‘nolar ifodalagan holda tilning ifoda

imkoniyatlarini boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ko`p ma‘noli so`zlar o`z ma‘nosidan tashqari ko`chma ma‘nolarga ham ega bo`ladi. So`zning nutqdan tashqarida, ya‘ni tilda ifodalagan ma‘nosi o`z ma`nosi deb ataladi. Masalan, ko`z, etak so`zlari yakka holda ishlatilganda uning asl, ya‘ni o`z ma‘nosi anglashiladi.

So`zning gap ichida, ya‘ni nutqdagi o`z ma‘nosidan boshqacharoq mazmun ifodalashi uning ko`chma ma`nosi deb yuritiladi. Masalan, ishning ko`zi, tog`ning etagi kabi birikmalar tarkibida ko`z va etak so`zlari ko`chma ma‘noda qo`llangan.

So`zning ma`no ko`chish usullari. O`zbek tilida polisemantik so`zlar ma‘no ko`chishning to`rt xil usuli mavjud: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) vazifadoshlik.

Metafora (yunoncha «ko`chirma» so`zidan olingan) biror narsa, belgi yoki harakatning nomi o`zaro o`xshashligi bo`lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko`chishidir. Masalan: U tarozining ikki pallasini ko`zdan kechirdi (I.Rahim). Yormat tarvuzni kesdi. Bir pallasini o`zi olib, ikkinchi pallasini Yo`lchi va O`roz oldiga qo`ydi (Oybek). Birinchi misoldagi palla so`zining o`z ma‘nosi taroziga nisbatan qo`llaniladi. Uning tashqi ko`rinishiga ko`ra o`xshashligi ikkinchi misolda tarvuz bo`laklariga nisbatan ham qo`llanishga sabab bo`lgan.

Metafora asosida nom ko`chish aniq narsalar doirasida bo`lganda ular o`rtasidagi o`xshashlikni ilg`ash uncha qiyin bo`lmaydi. Mavhum narsalar doirasida esa bu bir oz qiyin kechadi: Bir qarichlikdan dutorni sevaman. Bir qo‘shni kelinchakdan o`rgangan edim (Oybek). Yigit yalt etib qo‘shni dalaga qaradi, u yerda xotin-xalajlar, bola-chaqalar chuvillashib paxta terishayotgan edi (M.Ismoiliy).

Metafora asosida nom ko`chish birgina narsa nomi bo`lgan otlarga daxldor bo`lmay, boshqa turkumga mansub so`zlarda ham uchraydi. Masalan: taqircho`l-taqir bosh, taqir sholcha; o`tkir pichoq-o`tkir hid, o`tkir odam kabi sifatlar; dalalarda qushlar uchadi – uning jahldan lablari pir-pir uchardi kabi fe‘llardaham metafora asosida ma‘no ko`chishi uchraydi.

Metonimiya (yunoncha «qayta nomlash», «nomini almashtirish») narsa yoki hodisalarning makon va zamonda o`zaro bog`liqligi, doimiy aloqadorligi asosida birining nomi ikkinchisiga ko`chishidir. Bunda narsa, harakat va belgi o`rtasidagi o`zaro o`xshashlik emas, balki doimiy aloqadorlikning mavjudligi birining nomini aytganda ikkinchisini anglash, nazarda tutish imkonini beradi. Metonimiya asosida nom ko`chishda narsalar (otlar) o`rtasidagi quyidagicha uzviy aloqadorliklar asos bo`lishi mumkin: 1) narsa yasalgan materialning umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko`chadi: Moyi tugab piligi so`xta bo`lgan chiroq bir lip etib so`ndi (S.Ahmad). Sochini mayda o`rib uchiga pilik taqqan edi (S.Ahmad);

2) narsalarning o`ziga xos harakat-holati, xususiyati jihatdan umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko`chadi: beshik-maktab ta‘lim va tarbiya beshigidir, qaldirg`och-litseyimiz qaldirg`ochlari; 3) o`rinning unda joylashgan narsa bilan doimiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko`chadi: kosa, qoshiq, tovoq-ovqat, zal-zal kulib yubordi, sinf-sinf oyoqqa qalqdi ma‘nolarida ishlatiladi; 4) harakat-hodisaning nomi shu harakat-hodisaning bajarilgan vaqtiga ko`chiriladi: Machitdan shom azoni eshitildi…(Sh.Toshmatov).

Azongayaqin bir iloj qilib qochibdi (P.Tursun); 5) narsaning nomi shu narsaga xos bo`lgan belgi aloqadorligi asosida ko`chadi: tulki-ayyor, mug`ombir odam, iflos-betayin, jirkanch kishi; 6) harakat, o`yin obyekti shu o`yinning nomi sifatida ko`chadi: uloq-uloq chopmoq va boshqalar.

Sifat va fe‘l turkumiga mansub so`zlar doirasida ham metonimiya hodisasi mavjud bo`lib, ularda ko`chma ma‘no belgining yoki harakatning aloqadorligiga asoslanadi. Masalan: qisqa yo‘l - qisqa nutq, qisqa ovoz, beg‘ubor osmon-beg`ubor odam, beg`ubor ko`ngil; bola boqmoq-kishini hunar boqadi, bog`ni boqsang bog` bo`lur.

Sinekdoxa narsa va hodisaning nomi bilan uning qismini atash yoki qismining nomi bilan shu qism mansub bo`lgan butunni atash orqali yangi ma‘no hosil qilish usulidir. Masalan: Tirnoq so`zining farzand ma‘nosida ishlatilishi (U tirnoqqazor edi) qism nomi bilan butunni ifodalashnishidir. Qo`l so`zi bilan uning bir qismini, ya‘ni barmoqning atalishi esa (Qo`ligauzuk taqdi) butun nomi bilan qismning nomlanishidir. Ajratib ko`rsatilgan so`zlarning quyidagi gaplardagi ma‘nolariga e‘tibor bering: Rux samovar. Egamberdi, Sen darrov o`t sol! (A.Qodiriy) Mirzo kechqurun samovarga chiqdi, ikkita choy ichdi (A.Qahhor). Devorlarda Tamara o`z qo`li bilan tikkan kashtalar osilgan edi(M.Muhammedov). U yenglariga chiroyli qizil kashtalar tikilgan ukraincha oq shoyi kofta kiygan edi (P.Tursun).

Vazifadoshlik narsa va hodisalarning bajaradigan vazifasidagi birlik, o`xshashlik asosida nom ko`chishidir. Masalan, chiroq so`zi o`tmishda moy shimdirilgan pilik yordamida yorug`lik beruvchi moslamani anglatgan. Hozirda esa elektor yoritgichlar ham chiroq deb yuritiladi. Yoki tarixan qamish yoki patdan yasalgan yozuv quroli qalam deb atalgan. Hozir esa grafitli maxsus yasalgan yozuv quroli ham shu nom bilan yuritiladi. Vazifadoshlik asosida nom ko`chish so`zning ko`p asrlik tarixiy taraqqiyoti bilan bog`liq bo`lgani uchun ma‘no ko`chishning boshqa usullariga nisbatan ancha kam uchraydi.

Ko`p ma‘noli so`zlarning yuzaga kelishida polisemantik so`z va yasovchi affikslarning ham alohida o`rni bor. Masalan, tuzsiz taom, tuzsiz gap birikmalari tarkibidagi -siz ko`p ma‘noli affiksi va o`zak birligi ko`p ma‘noli so`zning yuzaga kelishida muhim rol o`ynagan. Polisemantik so`zlar, qancha ma‘noga ega bo`lmasin, bu ma‘nolar o`zaro bog`langan bo`ladi. Agar ular o`rtasidagi ma‘no bog`liqlik davrlar o`tishi bilan uzilib qolsa, u holda bunday so`zlar o`zaro omonimga aylanadi. Masalan, gap-fikr, mulohaza; gap-tengdoshlar, hamkasblar yig`ini, ziyofati; ko`k-rang, ko`k-osmon kabilar. Keltirilgan misollarda ma‘no bog`liqlikni ilg`ab olish ancha qiyin. Shunga ko`ra, aytish mumkinki, polisemantik so`zlar bir xil fonetik qobiqqa ega bo`lgan so`zlar takrori nuqtai nazaridan omonimlarga o`xshasa ham, ko`p ma‘nolilik, avvalo bir turkum doirasida yuzaga kelishi, ular qancha ma‘noga ega bo`lmasin, o`zaro bog`liq bo`lishi bilan omonimlardan farqlanadi. Ko`p ma‘noli so`zlarning o`z va ko`chma ma‘nolari, odatda, izohli lug`atlarda, shakldosh so`zlar esa omonim so`zlarning izohli lug`atida beriladi.

Ona tili lug`at tarkibining ma`no jihatdan tavsiflanishi

Tildagi so`zlarning ma‘lum qismi shakl yoki ma‘nosiga ko`ra o`zaro aloqador butunliklarni tashkil etadi. Bunday butunliklardagi so`zlar ana shu xususiyatlariga ko`ra ikki guruhni tashkil qiladi: 1) omonimlar, omoshakllar, omofonlar, omograflar va paronimlar shakliga ko`ra; 2) sinonimlar, antonimlar esa o`zaro mazmun uzviyligi yoki zidligiga ko`ra alohida guruhga mansub bo`ladi.

Omonimlar yunoncha homos-bir xil, onoma-nom so`zlaridan olingan bo`lib, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo alohida ma‘nolarga ega bo`lgan so`zlardir. Bunday so`zlar leksik omonimlar deyiladi. Masalan: kuya - hasharot, kuya - qozonning kuyasi. Omonimlar bir va bir necha turkumga mansub bo`lishi mumkin. Masalan: chang - gard va cholg`u asbobi ma‘nolari bilan ot turkumiga mansub; o`t-olov, ko`kat kabi ma‘nolari bilan ot so`z turkumiga mansub, o`t - fe‘lining buyruq-istak mayli ekanligi kabilar shular jumlasidandir.

Bir xil so`z turkumiga mansub omonimlar turli grammatik qo`shimchalar bilan shakllanganda ham ularda omonimlik saqlanib qoladi. Masalan: ot - ism va uy hayvoni ma‘nolaridagi omonim so`zlarga egalik, kelishik, ko`plik qo`shimchalarini qo`shish bilan omonimlikning saqlanib qolganini ko`rish mumkin: otlar, otning, otlarim. Bunday omonimlarni mutlaq omonim so`zlar deb atash mumkin.

Omonimlarni vujudgaga keltiruvchi hodisalar turlicha bo`lib, ularning asosiylari qo`yidagilardir:

1. O`z qatlamga mansub bo`lgan ba‘zi so`zlar tarixan fonetik tuzilishi har xil bo`lsa ham talaffuzda shakldoshlik kasb etishi asosida omonimlarga aylanadi: ot (ism) - ot (hayvon) - ot (harakat); o`t (o`t-o`lan) - o`t (olov) - o`t (harakat) kabi omonim so`zlardagi o va o` unlilari tarixan o`zining til oldi va til orqa shakllariga (allafonlariga) ega bo`lgan. Biroq, hozirgi adabiy tilda ular farqlanmaydi.

2. Ko`p ma‘noli so`zlar o`rtasidagi ma‘no bog`lanishning uzilishi, zaiflashishi asosida ham omonimlar shakllanadi. Masalan, ko`k so`zi, dastlab, ko`k rang (sifat) tushunchasiga ega bo`lgan. Keyinchalik bu so`z metafora (o`xshashlik) asosida osmon tushunchasiga nisbatan ham ishlatila boshlagan. Hozir ular o`rtasidagi bunday ma‘no bog`lanish yo`qolib, omonim so`z hosil bo`lgan. Xuddi shunday holatni dam so`zining nafas, hordiq, harorat, bosqon ma‘nolarida ishlatilishi misolida ham kuzatish mumkin.

3. Umumturkiy yoki asl o`zbekcha so`zlar o`zga tillardan so`z o`zlashtirish asosida ham shakldoshlikka ega bo`lib qolishi mumkin. Masalan, bog` (mevazor) va bog` (bog`langan narsa, beda bog`i); tok (uzum novdasi) va tok (elektor toki), tom (uy tomi) va tom (kitob jildi) so`zlari o`zbekcha-tojikcha hamda o`zbekcha-rus va yevropa tillaridan o`zlashgan so`zlarning $_4$ρ`xshash fonetik qiyofasi asosida yuzaga kelgan omonim so`zlardir.

4. Ma‘lum bir so`zning o`zak-negizidan qo`shimchalar orqali yangi so`zlar yasalishi natijasida shakldosh so`zlar hosil bo`ladi. Masalan: oylikolmoq, oylikreja birikmalaridagi oylik so`ziga qo`shilgan –lik qo`shimchasi asosida shakldosh so`z hosil bo`lgan.

Ba‘zan shakldoshlik nisbiy bo`lib, so`zlarning ma‘nolari har xil bo`lgani holda aytilishi bir xil, ammo yozilishida bir oz farq bo`lishi yoki ba‘zan ma‘noli

qismlarigina shakldosh bo`lsa ham, grammatik ma‘nosi o`zgacha bo`lishi mumkin. Shunga ko`ra shakldosh so`zlarning uch xil turi farqlanadi: 1) omoshakllar, 2) omofonlar,3) omograflar.

Omoformalar ma‘nolari har xil bo`lib, ba‘zi grammatik shakllariga ko`ra bir xillikka ega bo`ladigan shakldosh so`zdir. Omoformalar ayni bir so`z turkumiga ham, boshqa-boshqa so`z turkumlariga ham mansub bo`lishi mumkin.

Masalan, oqar (oq tusga kir) - buyruq fe‘li, II shaxs birlik; oqar ("oqadigan") fe‘lning kelasi zamon sifatdosh shakli; yoz - ot, bosh kelishik shaklida, yoz - II shaxs birlikdagi buyruq fe‘li va boshqalar.

Bu so`zlarga boshqa grammatik qo`shimchalar qo`shilganda bir-birlaridan tamomila ajralib, omonimlik yo`qoladi. Masalan: oqaray, oqarsin - oqaradi, oqarsan; yozning, yozni, yozga, yozda, yozdan - yozay, yozgin, yozsin kabi holatlarda omonimlik mavjud emas.

Omofonlar fonetik tarkibi ma‘lum tovush bilan farqlanadigan, lekin talaffuzda shakldosh bo`lib qoladigan so`zlardir. Omofonlardagi o`zaro farq ular tarkibidagi bitta fonemada bo`ladi va ular, asosan, jarangli va jarangsiz juftliklar va hosil bo`lish o`rniga ko`ra yaqin bo`lgan tovushlarning talaffuzda bir xillik kasb etishida ko`zga tashlanadi. Masalan, sud - sut, tanbur - tambur, tub-tup , yetdi - yetti kabi so`zlar talaffuzi omofonlarni yuzaga keltiradi.

Omograflar yozilishi bir xil bo`lgan shakldosh so`zlardir. Omograflar ma‘nosi va fonetik tarkibi, talaffuzi jihatidan boshqa - boshqa, faqat yozilish shakli jihatdan bir xil bo`lgan so`zlardir. Masalan, tol - daraxt, qurilish jihozi, tok - elektr quvvati, uzum novdasi, to`r-xonaning yuqori qismi, parda kabi ma‘nolarga ega bo`lgan so`zlardagi o, o`tovushlari talaffuzda qattiq va yumshoqligi bilan farqlanadi, biroq yozilishiga ko`ra shakldoshlikka ega bo`ladi. Xullas, talaffuzi va yozilishi bir xil bo`lgan bunday shakldosh so`zlarni o`zak va grammatik qo`shimchalarining bir xilligi, bir turkumga mansubligi e‘tibori bilan omograflar qatoriga qo`shish mumkin. Tildagi bu kabi shakldoshliklar so`z o`yini sifatida tuyuq, askiya san‘atlarida asosiy o`rin tutadi.

Sinonimlar(yunoncha synonimon-bir xil nomli so`zidan olingan) fonetik tarkibi har xil, ma‘nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo`lgan so`zlardir. Ma‘nodoshlikning so`zlar asosida yuzaga kelgan turi leksik (lug`aviy) sinonimlar deyiladi. Masalan, nomus - vijdon, dangasa - yalqov - ishyoqmas – tanbal so`zlari leksik sinonimlardir. Bunday so`zlar, odatda, bir xil so`z turkumiga mansub bo`ladi. Ularning bir umumiy ma‘no doirasida bog`lanishi esa, sinonimik qator deb yuritiladi. Masalan, vaqt - payt -zamon - fursat - mahal - chog` - kez - mavrid

- palla - muddat - dam so`zlari o`zaro sinonimik qator hosil qilgan. Sinonim qator tuzishda asos qilib olingan so`z dominanta (bosh so`z) deb yuritiladi. Dominanta odatda uslubiy jihatdan betaraf va umumiste‘mol so`zlaridan bo`lib, sinonim so`zlar lug`atida birinchi o`rinda beriladi. Masalan, yuz - bet - aft - bashara - turq - chehra - oraz - ruxsor sinonimik qatoridagi yuz so`zi betaraf - dominanta bo`lib, aft, bashara turq salbiy, oraz, chehra, ruxsor esa ijobiy munosabat ifodalash uchun xizmat qiladi.

Sinonimlarni yuzaga kelishida polisemantik so`zlarning ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, polisemantik so`z o`zining har bir ma‘nosi

bilan boshqa - boshqa sinonim qatorda ishtirok etib, uni boyitadi. Masalan: balo - falokat - ofat; balo - uddaburon - bilog`on- ishbilarmon kabi ma‘nodoshlik qatorida balo so`zi o`z va ko`chma ma‘nosi bilan ishtirok etgan.

Sinonim qatordagi so`zlar quyidagi xususiyatlariga ko`ra o`zaro farqlanadi:

1. Sinonim qatordagi so`zlar nutqning biror uslubiga xoslanganligi bilan ham o`zaro farqlanadi. Masalan, doim, hamisha, nuqul, birday so`zlari ko`pincha so`zlashuv uslubida, mazkur sinonim qatorga mansub bo`lgan yakkash, mudom so`zlari esa kitobiy uslubda ko`proq ishlatilishi bilan boshqa ma‘nodoshlardan farqlanadi.

2. Sinonimik qatordagi ba‘zi so`zlar hozirgi tilga nisbatan eskirgan bo`lishi ham mumkin. Shuningdek, ulardan ba‘zilari shevalarga xosligi bilan ham ajralib turadi. Masalan: mard, jasur, botir, yovqur, jaysan. Bu sinonimlardan yovqur so`zi eskirganligi, jaysan esa tarixiy – dialektalligi bilan farqlanadi.

3. Sinonimik qatordagi so`zlar o`zaro adabiy tilga yoki shevaga xosligi bilan farqlanishi mumkin. Masalan, qidirmoq, axtarmoq, izlamoq, istamoq sinonimik qatoridagi istamoq so`zi shevaga xosdir.

Sinonimlar fikrni aniq, maqsadga muvofiq tarzda ifodalash vositalari bo`lib, xuddi mana shu omil ularni yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. Sinonimlar yuzaga kelishi va ma‘nolariga ko`ra quyidagi turlarni tashkil qiladi:

1. To`liq (sof) sinonimlar. Aynan bir tushunchani anglatish va nutq jarayonida biri o`rnida ikkinchisini ishlatish mumkinligi bilan ajralib turadi. Ular ko`pincha boshqa tillardan kirib kelgan o`zlashma so`zlarning o`zbekcha so`zlar bilan ma‘nodoshligi asosida hosil bo`ladi: kuch (o`zb.) - qudrat (ar.), ot (o`zb.) - ism (ar.), ko`klam (o`zb.)-bahor (toj.), tuman (o`zb.)-rayon (rus). Shuningdek, fazo-kosmos, muharrir-redaktor kabi faqat o`zlashma so`zlardan tuzilgan sinonimlar ham to`liq sinonimlardir.

2. Ma`noviy sinonimlar. Bir-biridan nozik ma‘nolari ya‘ni ijobiy, salbiyligi yoki uslubiy va boshqa jihatdan farqlanuvchi ma‘nodosh so`zlardan tashkil topadi. Masalan, kuldi, jilmaydi, tirjaydi, iljaydi, ishshaydi kabi ma‘nodosh so`zlar kulish harakatining darajasiga hamda ijobiy va salbiy bo`yoqdorligiga ko`ra chiroyli, go`zal, xushro`y, ko`hli, ko`rkam, barno, suluv, zebo, latif kabi sinonimlar esa ijobiy bo`yog`ining darajasiga ko`ra farqlanadi.

3. Shartli sinonimlar. Muayyan matndagina ma‘nodoshlikka ega bo`ladigan sinonim so`zlardir. Ular ko`pincha she‘riyatda kuchli his-tuyg`u ifodalovchi vositalar sifatida qo`llaniladi: Nega kerak shu chiroy, shu o`t, Shu yoniq yulduzni ko`zga yashirmoq (H.O.) Parchadagi chiroy, o`t, yoniq yulduz o`zaro ma‘nodosh so`zlar sifatida ishlatilgan shartli sinonimlardir. Bunday sinonimlar mumtoz adabiyotda qad-sarv, lab-la‘l, yuz-oy, hilol kabi tashbehlar asosida ham keng qo`llaniladi.

Sinonimlar tuzilishiga ko`ra a) sodda: tez-chaqqon-ildam; b) juft: sog`-salomat, el-yurt; v) birikmali: yuzi qora-beti qora-ori yo`q shaklida uchraydi.

Ayni paytda so`zlar fraziologik birikmalar bilan ham ma‘nodoshlik hosil qilishi mumkin. Masalan: sevindi, boshi ko`kka yetdi; xotirjam, ko`ngli to`q. Bunday ma‘nodoshlik leksik-fraziologik sinonim deyiladi.

Sinonimlarni deyarli barcha so`z turkumlarida uchratish mumkin. Masalan

1) ot sinonimlar: baxt, saodat, tole, iqbol; 2) sifat sinonimlar: go`zal, chiroyli, ko`rkam, ko`hlik, suluv; 3) olmosh sinonimlar: barcha, bari, hamma, butun; 4) fe‘l sinonimlar: o`smoq, ulg`aymoq, voyaga yetmoq; 5) ravish sinonimlar: tez,chaqqon, ildam; 6) aralash sinonimlar: besh, a‘lo, muvaffaqiyatli (son va sifat turkumlari asosida); 7) ko`makchi sinonimlar: kabi,singari; 8) bog`lovchi sinonimlar: ammo, lekin, biroq; 9) modal so`zli sinonimlar: shubhasiz, shaksiz, so`zsiz.

Xullas, sinonimlar tilning lug`aviy boyligini, ko`rkamligini belgilovchi vositalardan biri bo`lib, ular nutq jarayonida o`rinsiz takrordan, uslubiy g`alizliklardan saqlanishda muhim ahamiyatga ega bo`ladi.

Antonimlar (yunoncha anti-zid, onoma-nom so`zidan olingan bo`lib) o`zaro zid tushunchalarni ifodalaydigan so`zlardir. So`zlarning zid ma‘noligi boshqa shu kabi hodisadan farqli ravishda leksik (lug`aviy) antonimlar deyiladi Masalan: oq - qora, kun - tun. Antonimlar ham odatda bir so`z turkumi doirasida yuzaga keladi va zid ma‘nolilik, odatda, faqat ikkita so`z doirasida sodir bo`ladi: uzun - qisqa (sifat), kelmoq - ketmoq (fe‘l) kabi. Antonimlar bir xil va har xil o`zakli so`zlardan ham tarkib topishi mumkin. O`zakdosh so`zlarning antonimligi, asosan, zid ma‘noli so`z yasovchi qo`shimchalar vositasida yuzaga keladi: suvli - suvsiz, xabardor - bexabar kabi. Har xil o`zakli so`zlardan tarkib topgan antonimlar esa tub shaklda bo`ladi: katta - kichik, rost - yolg`on.

Ko`p ma‘noli so`zlar o`z va ko`chma ma‘nolari bilan bir necha antonim juftliklar tarkibida ishtirok etishi mumkin: og`ir yuk - yengil yuk, og`ir masala - oson masala kabi.

Bir so`z o`zaro sinonim so`zlar bilan yoki o`zaro sinonim so`zlar boshqa sinonimlar bilan ham antonimik munosabat hosil qilishi mumkin. Masalan, xafa so`zi xursand, shod xushnud kabi so`zlar bilan o`zaro antonim munosabatga kirisha oladi.

Antonimlar nutqda belgi-xususiyat, miqdor, o`rin, payt ifodolovchi so`zlarda ko`p bo`lib, aniq tushuncha ifodalaydigan lug`aviy birliklarda kam uchraydi. Bu hol antonimlarning asosan belgi, xususiyat negizida (sifat va ravishlarda) paydo bo`lishidan darak beradi. Antonimlarga so`z turkumlari nuqtai nazaridan qaralganda ularning quyidagi turkumlarda uchrashini kuzatish mumkin: 1) ot antonimlar: ota-ona, yigit-qiz, kelin-kuyov; 2) sifat antonimlar: shirin-achchiq, katta-kichik, baland-past; 3) fe‘l antonimlar: kulmoq-yig`lamoq, turmoq-o`tirmoq;

4) ravish antonimlar: uzoq-yaqin, oz-ko`p, sekin-tez; 5) ba‘zan nutqda baho me‘zoni bo`lgan besh va ikki sonlari ham zidlikka ega bo`ladi.

Antonimlar nutqda juft holda qo`llanilib, ma‘no ko`chgan holda yangi tushuncha ifodalash vositasi bo`ladi. Masalan: bordi - keldi, keldi - ketdi, yaxshi - yomon, oq - qora kabi antonimik juftliklar aslida fe‘l va sifatlar bo`lib, nutq jarayonida otga ko`chishi mumkin: bordi-keldi uzildi, keldi-ketdi ko`p bo`ldi, oq-qoranitanigan kabi.

Antonimlar asosida anglashilgan ma‘no zidligi kuchli va kuchsizligi bilan ham farqlanadi. Masalan, oq-qora, issiq-sovuq kabi belgi anglatuvchi so`zlarga nisbatan ota-ona, chol-kampir singari nom bildiruvchi so`zlarda ma‘no zidligi kuchsizroqdir. Shunga ko`ra ularni sof va yarimantonimlar sifatida ajratish

mumkin. Bulardan tashqari, muayyan matndagina o`zaro zidlik kasb etuvchi o`t (olov)-suv, it-mushuk, mushuk-sichqon kabi matniy antonimlar ham mavjud.

Zidlik munosabati faqat so`zlar doirasida mavjud bo`lmay, so`z bilan iboralar o`rtasida ham uchraydi: qo`rqoq-yuragida yoli bor, botir-chumchuq pirr etsa, yuragi shirr etadigan kabilar shular jumlasidandir. Budnay antonimlar leksik-fraziologik antonimlar deyiladi.

Antonimlar tildagi kuchli uslubiy vositalardan biri bo`lib, badiiy ijodda tazod san‘atini vujudga keltiradi.

Paronimlar. Paronimlar so`zlar yunoncha para-juft va onoma-nom so`zlaridan olingan bo`lib, fonetik tarkibi va ma‘nosi boshqa-boshqa biroq talaffuz jarayonida o`xshash, yaqin bo`lgan so`zlardir. Demak, paronimlar birdan ortiq so`zning shakliy o`xshashligiga asoslanadi va bu hodisa ko`pincha so`zlarni adabiy normada to`g`ri talaffuz etmaslik, adabiy normaning buzilishiga ham olib keladi. Masalan, fakt - pakt, afzal - abzal so`zlari f undoshining p, b tarzda talaffuzi asosida yuzaga kelgan paronimlar bo`lib, ular aslida fonetik tarkibi va ma‘no jihatdan farqlanuvchi so`zlardir: fakt - dalil, isbot, pakt - davlatlar o`rtasidagi shartnoma, kelishuv hujjati ma‘nosidagi so`z; afzal - qulay, ma‘qul abzal esa ot va boshqa ulov anjomi, to`qim va boshqa jihozlarning umumiy nomidir. Xuddi shuningdek, paronimlik holatni amr-amir, zirak - ziyrak, jayron- jiyron, yondosh - yondash, quyilmoq - quyulmoq so`zlari misolida ko`rish mumkin.

Paronimlar tub yoki yasama so`zlardan tarkib topgan bo`lishi mumkin. Masalan, fakt-pakt, burj-burch kabilar tub so`zlar asosida shakllangan paronimlardir. Yasama so`zdan esa bir o`zaklardan bir xil qo`shimchaning fonetik variantlarini qo`shish asosida hosil bo`ladi: yoriq-yorug`, qurit-qurut, oqlik-oqliq, otalik-otaliq. Paronim so`zlar o`z va o`zlashma so`zlar asosida vujudga kelishi mumkin: aro-oro (o`zbek va fors-tojik), burch-burj (o`zb. va arab). Paronimlar ham antonimlar singari har doim juft so`z shaklida tuziladi, biroq ular bir xil va har xil so`z turkumlariga mansub bo`lishi mumkin.

Paronimiya ba‘zi til hodisalariga yaqin bo`lib, ulardan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1. Paronimlar so`z variantlari (leksik dubletlar) bilan yondosh hodisadir. Ular ham ayrim tovush orqaligina farqlanib, talaffuz o`xshashligiga ega bo`ladi. Shu bois ba‘zan paronimlar mazkur hodisa bilan chalkashtirilishi mumkin. Masalan, adabiy tildagi tomosha so`zining ba‘zan tomosho, tamosho tarzda ikki xil variantda fonetik jihatdan buzib ishlatilishi orqali uning talaffuz dubleti hosil bo`ladi. Shuningdek, ayrim so`zlarning turlicha variantlarda ishlatilishi adabiy me‘yor sifatida qabul qilingan: gado-gadoy, demak-demoq, obro`-obro`y, nogoh-nogah, yiqilabermoq-yiqilavermoq kabi juftliklar, shular jumlasidandir. Xullas, tilshunoslikda variantlilik, so`z variantlari va leksik dubletlar kabi turlicha terminlar asosida nomlangan bu hodisa, paronimlardan farqli ravishda, bitta so`zning og`zaki va yozma nutqda turlicha shakllarda qo`llanishidir.

2. Paronimlar bilan yondosh hodisalardan yana biri omofonlardir. Bu ikki hodisaning asosiy o`xshash va farqli tomonlari quyidagilarda ko`zga tashlanadi: a) monosillabik (bir bo`g`inli) o`zlashma so`zlardan tarkib topgan ba‘zi paronimlardagi undoshlarning talaffuz o`rni va usuliga ko`ra bir xilligi ularni

omofonlarga yaqinlashtiradi. Masalan: burch-burj, dars-darz, qars-qarz. Biroq aksariyat paronimlarda bunday undoshlar jarangli-jarangsiz juftlik bo`lmay, hosil bo`lishi o`rniga ko`ra o`xshashlikka asoslanadi. Masalan fakt-pakt, abzal-afzal. Omofonlarda esa artikulyatsiya o`rni va usuliga ko`ra bir xil bo`lgan undoshlar har doim so`z oxirida uchraydi va talaffuzda aynan ana shu juftliklar omofonlikni yuzaga keltiradi. Masalan: top-tob tub-tup, mard-mart, yod-yot kabilar shular jumlasidandir; b) ko`p bo`g`inli so`zlardan tarkib topgan paronimlarda esa paronim juftliklar o`zaro noo`xshash fonema vositasida ajralib turadi va shu jihatiga ko`ra omofonlardan farqlanadi: ahil-ahl, otalik- otaliq, yoriq-yorug`, qurut-qurit kabilar shular jumlasidandir.

Nazorat uchun savollar:

1. *Orfoepiya nima?*
2. *Orfoepiyaning adabiy tildagi ahamiyati?*
3. *Unli tovushlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?*
4. *Unlilar qanday undoshlar ta`sirida yo`g`on talaffuz etiladi?*
5. *B,d undoshlari qanday pozitsiyada jarangsiz p,t tarzida talaffuz etiladi?*
6. *J,z undoshlari qanday o`rinlarda jarangsizlanadi?*
7. *Boshqa tillardan olingan o`zlashma so`zlar*
8. *orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?*
9. *Harfiy va noharfiy belgilar tizimiga nimalar kiradi?*
10. *Grafema nima*
11. *Grafemaning qanday tiplari bor?*
12. *Fonografema, prosodemografemalar va logografemalar qanday farqlanadi?*
13. *Monograf, digraf va trigraflar nima?*
14. *Analitik, sintetik va sinonim grafemalarni qanday tushunasiz?*
15. *Leksikologiya so‘zining ma`nosi va mohiyatini tushuntiring.*
16. *So‘zning lug`aviy ma‘nosi deganda nimani tushunasiz?*
17. *So‘zning grammatik ma`nosi deganda nimani tushunasiz?*
18. *Uslubiy belgi nima?*
19. *Bir ma‘noli so‘zlar haqida gapiring va misollar keltiring.*
20. *Ko‘p ma‘noli so‘zlar haqida gapiring va misollar keltiring.*
21. *O‘z ma‘no va ko‘chma ma‘no haqida gapiring.*
22. *Metafora usuli haqida gapiring.*
23. *Metonimiya usuli haqida gapiring.*
24. *Sinekdoxa usuli haqida gapiring.*
25. *Vazifadoshlik asosida ma‘no ko‘chish usuli haqida gapiring.*
26. *Sozlar shakl va ma`no munosabatlariga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?*
27. *Omonimlar deb nimaga aytiladi?*
28. *Sinonimlarning ta‘rifini aytib, misollar keltiring.*
29. *Sinonimik qator va dominanta (bosh so`z) haqida gapiring.*
30. *O`zlashma va yasama so`zlarning sinonimik xususiyatlari haqida gapiring.*
31. *Sinonimlarning turlari haqida gapiring.*
32. *Antonimlarning ta‘rifini ayting va misollar keltiring.*
33. *Ko`p ma‘noli so`zlarning antonimik xususiyatlari haqida gapiring.*

34. Antonimlikdagi uchta belgi haqida gapiring.
35. Paronimlar haqida gapiring.

3-MAVZU
LUG'AT TARKIBINING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI. LUG'AT TARKIBIDAGI SO'ZLARNING KELIB CHIQISHI, IJTIMOIY GURUHLAR TOMONIDAN QO'LLANISHI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI. LUG'AT TARKIBINING FAOLLIGI YOKI NOFAOLLIGI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI; LUG'AT TARKIBINING HISSIY-TA'SIRIY BO'YOQDORLIGI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI. LUG'AT TARKIBIDAGI AJRALMAS BIRIKMALAR – FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING MA'NO VA TARKIB JIHATDAN TAVSIFLANISHI. LEKSIKOGRAFIYA (LUG'ATSHUNOSLIK).

R E J A:

1. Lug'at tarkibining shakl va ma'no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi
2. Lug'at tarkibidagi so'zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanishi jihatidan tavsiflanishi
3. Lug'at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi; lug'at tarkibining hissiy-ta'siriy bo'yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi
4. Lug'at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma'no va tarkib jihatdan tavsiflanishi

Lug'at tarkibining shakl va ma'no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi

Omonimlar yunoncha homos-bir xil, onoma-nom so`zlaridan olingan bo`lib, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo alohida ma‘nolarga ega bo`lgan so`zlardir. Bunday so`zlar leksik omonimlar deyiladi. Masalan: kuya - hasharot, kuya - qozonning kuyasi. Omonimlar bir va bir necha turkumga mansub bo`lishi mumkin. Masalan: chang - gard va cholg`u asbobi ma‘nolari bilan ot turkumiga mansub; o`t-olov, ko`kat kabi ma‘nolari bilan ot so`z turkumiga mansub, o`t - fe‘lining buyruq-istak mayli ekanligi kabilar shular jumlasidandir.

Bir xil so`z turkumiga mansub omonimlar turli grammatik qo`shimchalar bilan shakllanganda ham ularda omonimlik saqlanib qoladi. Masalan: ot - ism va uy hayvoni ma‘nolaridagi omonim so`zlarga egalik, kelishik, ko`plik qo`shimchalarini qo`shish bilan omonimlikning saqlanib qolganini ko`rish mumkin: otlar, otning, otlarim. Bunday omonimlarni mutlaq omonim so`zlar deb atash mumkin.

Omonimlarni vujudgaga keltiruvchi hodisalar turlicha[47] bo`lib, ularning asosiylari qo`yidagilardir:

1. O`z qatlamga mansub bo`lgan ba‘zi so`zlar tarixan fonetik tuzilishi har xil bo`lsa ham talaffuzda shakldoshlik kasb etishi asosida omonimlarga aylanadi: ot (ism) - ot (hayvon) - ot (harakat); o`t (o`t-o`lan) - o`t (olov) - o`t (harakat) kabi omonim so`zlardagi o va o` unlilari tarixan o`zining til oldi va til orqa shakllariga (allafonlariga) ega bo`lgan. Biroq, hozirgi adabiy tilda ular farqlanmaydi.

2. Ko`p ma‘noli so`zlar o`rtasidagi ma‘no bog`lanishning uzilishi, zaiflashishi asosida ham omonimlar shakllanadi. Masalan, ko`k so`zi, dastlab, ko`k rang (sifat) tushunchasiga ega bo`lgan. Keyinchalik bu so`z metafora (o`xshashlik) asosida osmon tushunchasiga nisbatan ham ishlatila boshlagan. Hozir ular o`rtasidagi bunday ma‘no bog`lanish yo`qolib, omonim so`z hosil bo`lgan. Xuddi shunday holatni dam so`zining nafas, hordiq, harorat, bosqon ma‘nolarida ishlatilishi misolida ham kuzatish mumkin.
3. Umumturkiy yoki asl o`zbekcha so`zlar o`zga tillardan so`z o`zlashtirish asosida ham shakldoshlikka ega bo`lib qolishi mumkin. Masalan, bog` (mevazor) va bog` (bog`langan narsa, beda bog`i); tok (uzum novdasi) va tok (elektor toki), tom (uy tomi) va tom (kitob jildi) so`zlari o`zbekcha-tojikcha hamda o`zbekcha-rus va yevropa tillaridan o`zlashgan so`zlarning o`xshash fonetik qiyofasi asosida yuzaga kelgan omonim so`zlardir.
4. Ma‘lum bir so`zning o`zak-negizidan qo`shimchalar orqali yangi so`zlar yasalishi natijasida shakldosh so`zlar hosil bo`ladi. Masalan: oylikolmoq, oylikreja birikmalaridagi oylik so`ziga qo`shilgan –lik qo`shimchasi asosida shakldosh so`z hosil bo`lgan.

Ba‘zan shakldoshlik nisbiy bo`lib, so`zlarning ma‘nolari har xil bo`lgani holda aytilishi bir xil, ammo yozilishida bir oz farq bo`lishi yoki ba‘zan ma‘noli qismlarigina shakldosh bo`lsa ham, grammatik ma‘nosi o`zgacha bo`lishi mumkin. Shunga ko`ra shakldosh so`zlarning uch xil turi farqlanadi: 1) omoshakllar, 2) omofonlar,3) omograflar.

Omoformalar ma‘nolari har xil bo`lib, ba‘zi grammatik shakllariga ko`ra bir xillikka ega bo`ladigan shakldosh so`zdir. Omoformalar ayni bir so`z turkumiga ham, boshqa-boshqa so`z turkumlariga ham mansub bo`lishi mumkin. Masalan, oqar (oq tusga kir) - buyruq fe‘li, II shaxs birlik; oqar ("oqadigan") fe‘lning kelasi zamon sifatdosh shakli; yoz - ot, bosh kelishik shaklida, yoz - II shaxs birlikdagi buyruq fe‘li va boshqalar.

Bu so`zlarga boshqa grammatik qo`shimchalar qo`shilganda bir-birlaridan tamomila ajralib, omonimlik yo`qoladi. Masalan: oqaray, oqarsin - oqaradi, oqarsan; yozning, yozni, yozga, yozda, yozdan - yozay, yozgin, yozsin kabi holatlarda omonimlik mavjud emas.

Omofonlar fonetik tarkibi ma‘lum tovush bilan farqlanadigan, lekin talaffuzda shakldosh bo`lib qoladigan so`zlardir. Omofonlardagi o`zaro farq ular tarkibidagi bitta fonemada bo`ladi va ular, asosan, jarangli va jarangsiz juftliklar va hosil bo`lish o`rniga ko`ra yaqin bo`lgan tovushlarning talaffuzda bir xillik kasb etishida ko`zga tashlanadi. Masalan, sud - sut, tanbur - tambur, tub-tup , yetdi - yetti kabi so`zlar talaffuzi omofonlarni yuzaga keltiradi.

Omograflar yozilishi bir xil bo`lgan shakldosh so`zlardir. Omograflar ma‘nosi va fonetik tarkibi, talaffuzi jihatidan boshqa - boshqa, faqat yozilish shakli jihatdan bir xil bo`lgan so`zlardir. Masalan, tol - daraxt, qurilish jihozi, tok - elektr quvvati, uzum novdasi, to`r-xonaning yuqori qismi, parda kabi ma‘nolarga ega bo`lgan so`zlardagi o, o`tovushlari talaffuzda qattiq va yumshoqligi bilan farqlanadi, biroq yozilishiga ko`ra shakldoshlikka ega bo`ladi. Xullas, talaffuzi va yozilishi bir xil bo`lgan bunday shakldosh so`zlarni o`zak va grammatik

qo`shimchalarining bir xilligi, bir turkumga mansubligi e‘tibori bilan omograflar qatoriga qo`shish mumkin. Tildagi bu kabi shakldoshliklar so`z o`yini sifatida tuyuq, askiya san‘atlarida asosiy o`rin tutadi.

Sinonimlar(yunoncha synonimon-bir xil nomli so`zidan olingan) fonetik tarkibi har xil, ma‘nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo`lgan so`zlardir. Ma‘nodoshlikning so`zlar asosida yuzaga kelgan turi leksik (lug`aviy) sinonimlar deyiladi. Masalan, nomus - vijdon, dangasa - yalqov - ishyoqmas – tanbal so`zlari leksik sinonimlardir. Bunday so`zlar, odatda, bir xil so`z turkumiga mansub bo`ladi. Ularning bir umumiy ma‘no doirasida bog`lanishi esa, sinonimik qator deb yuritiladi. Masalan, vaqt - payt -zamon - fursat - mahal - chog` - kez – mavrid - palla - muddat - dam so`zlari o`zaro sinonimik qator hosil qilgan. Sinonim qator tuzishda asos qilib olingan so`z dominanta (bosh so`z) deb yuritiladi. Dominanta odatda uslubiy jihatdan betaraf va umumiste‘mol so`zlaridan bo`lib, sinonim so`zlar lug`atida birinchi o`rinda beriladi. Masalan, yuz - bet - aft - bashara - turq - chehra - oraz - ruxsor sinonimik qatoridagi yuz so`zi betaraf - dominanta bo`lib, aft, bashara turq salbiy, oraz, chehra, ruxsor esa ijobiy munosabat ifodalash uchun xizmat qiladi.

Sinonimlarni yuzaga kelishida polisemantik so`zlarning ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, polisemantik so`z o`zining har bir ma‘nosi bilan boshqa - boshqa sinonim qatorda ishtirok etib, uni boyitadi. Masalan: balo - falokat - ofat; balo - uddaburon - bilog`on- ishbilarmon kabi ma‘nodoshlik qatorida balo so`zi o`z va ko`chma ma‘nosi bilan ishtirok etgan.

Sinonim qatordagi so`zlar quyidagi xususiyatlariga ko`ra o`zaro farqlanadi:

1. Sinonim qatordagi so`zlar nutqning biror uslubiga xoslanganligi bilan ham o`zaro farqlanadi. Masalan, doim, hamisha, nuqul, birday so`zlari ko`pincha so`zlashuv uslubida, mazkur sinonim qatorga mansub bo`lgan yakkash, mudom so`zlari esa kitobiy uslubda ko`proq ishlatilishi bilan boshqa ma‘nodoshlardan farqlanadi.
2. Sinonimik qatordagi ba‘zi so`zlar hozirgi tilga nisbatan eskirgan bo`lishi ham mumkin. Shuningdek, ulardan ba‘zilari shevalarga xosligi bilan ham ajralib turadi. Masalan: mard, jasur, botir, yovqur, jaysan. Bu sinonimlardan yovqur so`zi eskirganligi, jaysan esa tarixiy – dialektalligi bilan farqlanadi.
3. Sinonimik qatordagi so`zlar o`zaro adabiy tilga yoki shevaga xosligi bilan farqlanishi mumkin. Masalan, qidirmoq, axtarmoq, izlamoq, istamoq sinonimik qatoridagi istamoq so`zi shevaga xosdir.

Sinonimlar fikrni aniq, maqsadga muvofiq tarzda ifodalash vositalari bo`lib, xuddi mana shu omil ularni yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. Sinonimlar yuzaga kelishi va ma‘nolariga ko`ra quyidagi turlarni tashkil qiladi:

1. To`liq (sof) sinonimlar. Aynan bir tushunchani anglatish va nutq jarayonida biri o`rnida ikkinchisini ishlatish mumkinligi bilan ajralib turadi. Ular ko`pincha boshqa tillardan kirib kelgan o`zlashma so`zlarning o`zbekcha so`zlar bilan ma‘nodoshligi asosida hosil bo`ladi: kuch (o`zb.) - qudrat (ar.), ot (o`zb.) - ism (ar.), ko`klam (o`zb.)-bahor (toj.), tuman (o`zb.)-rayon (rus). Shuningdek, fazo-kosmos, muharrir-redaktor kabi faqat o`zlashma so`zlardan tuzilgan sinonimlar ham to`liq sinonimlardir.

2. Ma`noviy sinonimlar. Bir-biridan nozik ma‘nolari ya‘ni ijobiy, salbiyligi yoki uslubiy va boshqa jihatdan farqlanuvchi ma‘nodosh so`zlardan tashkil topadi. Masalan, kuldi, jilmaydi, tirjaydi, iljaydi, ishshaydi kabi ma‘nodosh so`zlar kulish harakatining darajasiga hamda ijobiy va salbiy bo`yoqdorligiga ko`ra chiroyli, go`zal, xushro`y, ko`hli, ko`rkam, barno, suluv, zebo, latif kabi sinonimlar esa ijobiy bo`yog`ining darajasiga ko`ra farqlanadi.

3. Shartli sinonimlar. Muayyan matndagina ma‘nodoshlikka ega bo`ladigan sinonim so`zlardir. Ular ko`pincha she‘riyatda kuchli his-tuyg`u ifodalovchi vositalar sifatida qo`llaniladi: Nega kerak shu chiroy, shu o`t, Shu yoniq yulduzni ko`zga yashirmoq (H.O.) Parchadagi chiroy, o`t, yoniq yulduz o`zaro ma‘nodosh so`zlar sifatida ishlatilgan shartli sinonimlardir. Bunday sinonimlar mumtoz adabiyotda qad-sarv, lab-la‘l, yuz-oy, hilol kabi tashbehlar asosida ham keng qo`llaniladi.

Sinonimlar tuzilishiga ko`ra a) sodda: tez-chaqqon-ildam; b) juft: sog`-salomat, el-yurt; v) birikmali: yuzi qora-beti qora-ori yo`q shaklida uchraydi.

Ayni paytda so`zlar fraziologik birikmalar bilan ham ma‘nodoshlik hosil qilishi mumkin. Masalan: sevindi, boshi ko`kka yetdi; xotirjam, ko`ngli to`q. Bunday ma‘nodoshlik leksik-fraziologik sinonim deyiladi.

Sinonimlarni deyarli barcha so`z turkumlarida uchratish mumkin. Masalan

1) ot sinonimlar: baxt, saodat, tole, iqbol; 2) sifat sinonimlar: go`zal, chiroyli, ko`rkam, ko`hlik, suluv; 3) olmosh sinonimlar: barcha, bari, hamma, butun; 4) fe‘l sinonimlar: o`smoq, ulg`aymoq, voyaga yetmoq; 5) ravish sinonimlar: tez,chaqqon, ildam; 6) aralash sinonimlar: besh, a‘lo, muvaffaqiyatli (son va sifat turkumlari asosida); 7) ko`makchi sinonimlar: kabi,singari; 8) bog`lovchi sinonimlar: ammo, lekin, biroq; 9) modal so`zli sinonimlar: shubhasiz, shaksiz, so`zsiz.

Xullas, sinonimlar tilning lug`aviy boyligini, ko`rkamligini belgilovchi vositalardan biri bo`lib, ular nutq jarayonida o`rinsiz takrordan, uslubiy g`alizliklardan saqlanishda muhim ahamiyatga ega bo`ladi.

Antonimlar (yunoncha anti-zid, onoma-nom so`zidan olingan bo`lib) o`zaro zid tushunchalarni ifodalaydigan so`zlardir. So`zlarning zid ma‘noligi boshqa shu kabi hodisadan farqli ravishda leksik (lug`aviy) antonimlar deyiladi Masalan: oq - qora, kun - tun. Antonimlar ham odatda bir so`z turkumi doirasida yuzaga keladi va zid ma‘nolilik, odatda, faqat ikkita so`z doirasida sodir bo`ladi: uzun - qisqa (sifat), kelmoq - ketmoq (fe‘l) kabi. Antonimlar bir xil va har xil o`zakli so`zlardan ham tarkib topishi mumkin. O`zakdosh so`zlarning antonimligi, asosan, zid ma‘noli so`z yasovchi qo`shimchalar vositasida yuzaga keladi: suvli - suvsiz, xabardor - bexabar kabi. Har xil o`zakli so`zlardan tarkib topgan antonimlar esa tub shaklda bo`ladi: katta - kichik, rost - yolg`on.

Ko`p ma‘noli so`zlar o`z va ko`chma ma‘nolari bilan bir necha antonim juftliklar tarkibida ishtirok etishi mumkin: og`ir yuk - yengil yuk, og`ir masala - oson masala kabi.

Bir so`z o`zaro sinonim so`zlar bilan yoki o`zaro sinonim so`zlar boshqa sinonimlar bilan ham antonimik munosabat hosil qilishi mumkin. Masalan, xafa so`zi xursand, shod xushnud kabi so`zlar bilan o`zaro antonim munosabatga kirisha oladi.

Antonimlar nutqda belgi-xususiyat, miqdor, o`rin, payt ifodolovchi so`zlarda ko`p bo`lib, aniq tushuncha ifodalaydigan lug`aviy birliklarda kam uchraydi. Bu hol antonimlarning asosan belgi, xususiyat negizida (sifat va ravishlarda) paydo bo`lishidan darak beradi. Antonimlarga so`z turkumlari nuqtai nazaridan qaralganda ularning quyidagi turkumlarda uchrashini kuzatish mumkin: 1) ot antonimlar: ota-ona, yigit-qiz, kelin-kuyov; 2) sifat antonimlar: shirin-achchiq, katta-kichik, baland-past; 3) fe‘l antonimlar: kulmoq-yig`lamoq, turmoq-o`tirmoq; 4) ravish antonimlar: uzoq-yaqin, oz-ko`p, sekin-tez; 5) ba‘zan nutqda baho me‘zoni bo`lgan besh va ikki sonlari ham zidlikka ega bo`ladi.

Antonimlar nutqda juft holda qo`llanilib, ma‘no ko`chgan holda yangi tushuncha ifodalash vositasi bo`ladi. Masalan: bordi - keldi, keldi - ketdi, yaxshi - yomon, oq - qora kabi antonimik juftliklar aslida fe‘l va sifatlar bo`lib, nutq jarayonida otga ko`chishi mumkin: bordi-keldi uzildi, keldi-ketdi ko`p bo`ldi, oq-qoranitanigan kabi.

Antonimlar asosida anglashilgan ma‘no zidligi kuchli va kuchsizligi bilan ham farqlanadi. Masalan, oq-qora, issiq-sovuq kabi belgi anglatuvchi so`zlarga nisbatan ota-ona, chol-kampir singari nom bildiruvchi so`zlarda ma‘no zidligi kuchsizroqdir. Shunga ko`ra ularni sof va yarimantonimlar sifatida ajratish mumkin. Bulardan tashqari, muayyan matndagina o`zaro zidlik kasb etuvchi o`t (olov)-suv, it-mushuk, mushuk-sichqon kabi matniy antonimlar ham mavjud.

Zidlik munosabati faqat so`zlar doirasida mavjud bo`lmay, so`z bilan iboralar o`rtasida ham uchraydi: qo`rqoq-yuragida yoli bor, botir-chumchuq pirr etsa, yuragi shirr etadigan kabilar shular jumlasidandir. Budnay antonimlar leksik-fraziologik antonimlar deyiladi.

Antonimlar tildagi kuchli uslubiy vositalardan biri bo`lib, badiiy ijodda tazod san‘atini vujudga keltiradi.

Paronimlar. Paronimlar so`zlar yunoncha para-juft va onoma-nom so`zlaridan olingan bo`lib, fonetik tarkibi va ma‘nosi boshqa-boshqa biroq talaffuz jarayonida o`xshash, yaqin bo`lgan so`zlardir. Demak, paronimlar birdan ortiq so`zning shakliy o`xshashligiga asoslanadi va bu hodisa ko`pincha so`zlarni adabiy normada to`g`ri talaffuz etmaslik, adabiy normaning buzilishiga ham olib keladi. Masalan, fakt - pakt, afzal - abzal so`zlari f undoshining p, b tarzda talaffuzi asosida yuzaga kelgan paronimlar bo`lib, ular aslida fonetik tarkibi va ma‘no jihatdan farqlanuvchi so`zlardir: fakt - dalil, isbot, pakt - davlatlar o`rtasidagi shartnoma, kelishuv hujjati ma‘nosidagi so`z; afzal - qulay, ma‘qul abzal esa ot va boshqa ulov anjomi, to`qim va boshqa jihozlarning umumiy nomidir. Xuddi shuningdek, paronimlik holatni amr-amir, zirak - ziyrak, jayron- jiyron, yondosh - yondash, quyilmoq - quyulmoq so`zlari misolida ko`rish mumkin.

Paronimlar tub yoki yasama so`zlardan tarkib topgan bo`lishi mumkin. Masalan, fakt-pakt, burj-burch kabilar tub so`zlar asosida shakllangan paronimlardir. Yasama so`zdan esa bir o`zaklardan bir xil qo`shimchaning fonetik variantlarini qo`shish asosida hosil bo`ladi: yoriq-yorug`, qurit-qurut, oqlik-oqliq, otalik-otaliq. Paronim so`zlar o`z va o`zlashma so`zlar asosida vujudga kelishi mumkin: aro-oro (o`zbek va fors-tojik), burch-burj (o`zb. va arab). Paronimlar ham

antonimlar singari har doim juft so`z shaklida tuziladi, biroq ular bir xil va har xil so`z turkumlariga mansub bo`lishi mumkin.

Paronimiya ba‘zi til hodisalariga yaqin bo`lib, ulardan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1. Paronimlar so`z variantlari (leksik dubletlar) bilan yondosh hodisadir. Ular ham ayrim tovush orqaligina farqlanib, talaffuz o`xshashligiga ega bo`ladi. Shu bois ba‘zan paronimlar mazkur hodisa bilan chalkashtirilishi mumkin. Masalan, adabiy tildagi tomosha so`zining ba‘zan tomosho, tamosho tarzda ikki xil variantda fonetik jihatdan buzib ishlatilishi orqali uning talaffuz dubleti hosil bo`ladi. Shuningdek, ayrim so`zlarning turlicha variantlarda ishlatilishi adabiy me‘yor sifatida qabul qilingan: gado-gadoy, demak-demoq, obro`-obro`y, nogoh-nogah, yiqilabermoq-yiqilavermoq kabi juftliklar, shular jumlasidandir. Xullas, tilshunoslikda variantlilik, so`z variantlari va leksik dubletlar kabi turlicha terminlar asosida nomlangan bu hodisa, paronimlardan farqli ravishda, bitta so`zning og`zaki va yozma nutqda turlicha shakllarda qo`llanishidir.

2. Paronimlar bilan yondosh hodisalardan yana biri omofonlardir. Bu ikki hodisaning asosiy o`xshash va farqli tomonlari quyidagilarda ko`zga tashlanadi: a) monosillabik (bir bo`g`inli) o`zlashma so`zlardan tarkib topgan ba‘zi paronimlardagi undoshlarning talaffuz o`rni va usuliga ko`ra bir xilligi ularni omofonlarga yaqinlashtiradi. Masalan: burch-burj, dars-darz, qars-qarz. Biroq aksariyat paronimlarda bunday undoshlar jarangli-jarangsiz juftlik bo`lmay, hosil bo`lishi o`rniga ko`ra o`xshashlikka asoslanadi. Masalan fakt-pakt, abzal-afzal. Omofonlarda esa artikulyatsiya o`rni va usuliga ko`ra bir xil bo`lgan undoshlar har doim so`z oxirida uchraydi va talaffuzda aynan ana shu juftliklar omofonlikni yuzaga keltiradi. Masalan: top-tob tub-tup, mard-mart, yod-yot kabilar shular jumlasidandir; b) ko`p bo`g`inli so`zlardan tarkib topgan paronimlarda esa paronim juftliklar o`zaro noo`xshash fonema vositasida ajralib turadi va shu jihatiga ko`ra omofonlardan farqlanadi: ahil-ahl, otalik- otaliq, yoriq-yorug`, qurut-qurit kabilar shular jumlasidandir.

Lug’at tarkibidagi so’zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo’llanishi jihatidan tavsiflanishi

Ma‘lumki, o`zbek, qozoq, qirg`iz, turkman, uyg`ur qoraqalpoq singari tillar o`zaro qarindosh tillar bo`lib, ular birligi turkiy tillar guruhini tashkil etadi. Tilimizda faol qo`llanadigan oyoq, qo`l, ikki, uch, ol, kel, yaxshi, men, sen singari so`zlar ko`pchilik turkiy tillar uchun ham faol so`zlar hisoblanadi. Barcha turkiy tillar uchun umumiy iste‘molda bo`lgan bunday so`zlar umumturkiy so`zlar deyiladi. O`zbek tili leksikasining katta qismini umumturkiy qatlamga mansub so`zlar tashkil etadi.

Tilimizda umumtukiy so`zlarning quyidagi leksik-tematik guruhlari faol ishlatiladi: 1) inson tushunchasi bilan bog`liq so`zlar: kishi, el, yurt; 2) qarindoshlik tushunchalari bilan bog`liq so`zlar: ota, ona, opa, enaga, aka, uka, singil, qayin, qayinog`a, yanga va boshqalar; 3) odam va hayvon tana a‘zolari nomlari: barmoq, bag`ir, bel, bo`g`iz, biqin, milk, miya, og`iz va boshqalar.

Muayyan tushuncha doirasida birlashuvchi bunday so`zlar guruhi uyadosh so`zlar deyiladi.

Shuningdek, tilimiz lug`at boyligining ma‘lum bir qismi o`zbek tilining milliy tarixiy taraqqiyoti jarayonida tilning ichki imkoniyatlari, o`ziga xos qonun - qoidalar asosida hosil qilingan so`zlardan iborat. Ular quyidagi uch holatda kuzatiladi:

1. O`zbekcha o`zak va qo`shimcha asosida hosil qilingan so`zlar: qatnashchi, terimchi, og`machi, birlashma, qotma, o`tkazgich, turg`un, qo`llanma, yoqilg`i.
2. O`zlashma o`zak (so`z) va o`zbekcha yasovchi qo`shimchalar yordamida hosil qilingan so`zlar: a) tojikcha so`zlardan: jangchi, mardlik,charxlamoq, xastalanmoq, do`stlik; b) arabcha so`zlardan: rahbarlik, qimmatli, ovqatlanmoq, nomusli; v) ruscha va boshqa xorijiy tillardan o`zlashgan so`zlar asosida: sportchi, shofyorlik, betonchi.
3. O`zbekcha o`zak va o`zlashma qo`shimchalardan hosil bo`lgan so`zlar: tug`ruqxona, so`rovnoma.
4. Boshqa tillardan kirib kelgan o`zak va yasovchi qo`shimchalardan: tilshunos, madadkor, mehnatkash, vagonsiz, ilmiy, gazetxon.

Qayd etib o`tilgan umumturkiy so`zlar va o`zbek tilining o`z ichki imkoniyatlari asosida shakllangan so`zlar tilning o`z qatlamini tashkil etadi. Shuningdek, tilimiz o`zbek lahja va shevalaridan, qardosh turkiy milliy tillardan kirib kelgan so`zlar hisobiga ham boyib boradiki, bu ham uning o`z qatlami imkoniyatlarini oshiradi.

O`zlashma qatlam. Tilimizning lug`at tarkibida boshqa xalqlar tilidan kirib kelgan so`zlar ham mavjud. Bunday so`zlar tilning lug`at boyligidagi o`zlashma qatlamni tashkil etadi. Ular quyidagi tillardan tarixning eng qadimgi bosqichlarida o`zlashtirilgan:

1. Hind tildan o`zlashgan so`zlar: barcha, bibi, paysa, tovus, chaqmoq.
2. Xitoy tilidan o`zlashgan so`zlar: choy, lag`mon, shiypon.
3. Qadimgi yunon tilidan: iqlim, marvarid, marmar, ark, billur.

O`zbek adabiy tili leksikasining o`zlashma so`zlar qatlami asosini keyingi tarixiy bosqichlar mobaynida yaqin munosabatda bo`lgan fors-tojik, arab, rus va boshqa xorijiy tillardan o`zlashgan so`zlar tashkil etadi. Ular quyidagilar misolida ko`zga tashlanadi:

1. Fors-tojik tilidan o`zlashgan so`zlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, gul, xona, shamol, dasta, mehribon, agar, ham va boshqalar. Bulardan tashqari, fors-tojik tilidan -kor, -kash, - dor, -gar, -zoda, -soz, - goh, -gir, -boz, - parast, - xona, -go`y, -no, -be, -dor, -bod, -bon singari yasovchi affikslar ham kirib kelgan.
2. Arabcha so`zlar: kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma‘no, ilhom, tanqid, kashf, hayot, haqiqat, hisob, hurmat, musobaqa, qonun, san‘at, sanoat va boshqalar.
3. Rus va boshqa xorijiy tillardan o`zlashgan so`zlar: brigada, zveno, agranom, agrotexnika, kosmos, radio, televizor, vrach, bank, telefon va boshqalar.

Tilimiz, aynan o`zlashtirilgan so`zlardan tashqari kalkalash (tarjima qilish) orqali ham boshqa tillar bilan munosabatda bo`lib turadi. Masalan: nadstroyka - ustqurma, vozzreniye - dunyoqarash, vzglyad - nigoh kabilar shular jumlasidandir.

Tilimizda so`zlashuvchi barcha kishilar nutqida birdek ishlatiladigan so`zlar umumxalq leksikasi deb yuritiladi. Masalan; non, osh, qor, yo`l, yulduz, ikki, uch, yemoq, olmoq, men, sen kabi so`zlar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, barchaning nutqida ishlatilmaydigan, shevalarga, kasb- hunarga, ma‘lum ijtimoiy guruhlar nutqiga, ilm-fan sohalari vakillari nutqiga xos so`zlar ham mavjudki, ular iste`mol doirasi chegaralangan leksikani tashkil etadi. Ularning quyidagi turlari mavjud:

Dialektizmlar. Ma‘lum bir hududda yashovchi kishilar nutqida ishlatiladigan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so`zlar dialektizmlar deyiladi. Dealektizmlarning adabiy tilga xos me‘yoriy so`zlardan farqlari quyidagicha:

a) leksik-semantik dialektizmlar. Adabiy tilda o`z shakldoshiga ega, biroq ma‘no jihatdan farqlanadigan dialektizmlar: qalin - adabiy tilda: qiz uzatishda kuyov tomonidan beriladigan mablag`, shevada: gilam turi; g`ayir- adabiy tilda: rashkchi kishi, shevada: qopag`on it.

b) leksik dialektizmlar. Muayyan dialekt vakillari tilida qo`llanilib, adabiy tilda uchramaydigan so`zlar: ko`ma-yerto`la, makka - sho`x, bichqi - qo`l arra, shoti, zangi-narvon kabilar.

v) fonetik dialektizmlar. Adabiy tildan fonetik jihatdan farqlanadigan so`zlar: suvoq - shuvoq, yurmoq - jurmoq, kelmoq - galmoq.

g)grammatik dialektizmlar. Adabiy tildagi grammatik shakllaridan farqlanadigan so`zlar: kelutti - kelyapti, uya – uyga, nonnan-nondan.

Kasb-hunar leksikasi ham adabiy tilga nisbatan chegaralangan so`zlar qatoriga kiradi. Chunki ular ham ma‘lum bir kasb-hunar vakillari nutqidagina ko`p ishlatilib, boshqa kishilar uchun tushunarsiz bo`ladi. Masalan: zebgardan, sandon, dam, ko`ra, itombir, korchup kabi zargarlikka oid so`zlar shular jumlasidandir.

Terminlar. Ilm-fan, texnika, san‘at sohasidagi aniq bir tushunchani ifodalaydigan bir ma‘noli so`zlardir. Masalan: morfema, fonema, morfologiya, sintaksis kabi tilshunoslikka, o`tkazgich, tebranish, mayatnik kabi fizikaga oid terminlar shular jumlasidandir.

Jargon va argolar. Ma‘lum ijtimoiy sinf, tabaqa, guruh vakillari nutqida qo`llaniladigan, ba‘zan yashirin ma‘noli bo`lgan so`zlardir. Bu so`zlar ham chegaralangan leksik birliklar qatoriga mansub bo`lib, jargonlar yuqori sinf vakillari nutqida qo`llanilib kelingan dorulmulk, dorulbaqo, shaxriyori falak, oftobi olam, ne‘mati jannat singari so`zlarni o`z ichiga oladi. Argolar esa, yakan, loy, mullajiring, ko`ki, karamcha - pul, bedana – to`pponcha kabi yashirin ma‘noli so`zlardan iborat.

Tilning ijtimoiy-dialektal qatlamiga mansub so`zlar badiiy adabiyotda voqelikni ishonarli chiqishi uchun personajlar nutqini induviduallashtirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo`ladi.

O`zbek tili leksikasi shu tilda gaplashuvchi kishilar tomonidan bir xilda qo`llanmaydi. Ayrim so`z keng jamoatchilik tilida qo`llansa, ba‘zilari esa ma‘lum territoriyada yashovchi yoki ma‘lum kasb-hunar bilan shug`ullanuvchi kishilar nutqida ishlatiladi. SHunga ko`ra o`zbek tilidagi so`zlar ikki guruhga ajratiladi:

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika.
2. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika.

O`zbek tili lug`at tarkibining asosiy qismini ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika tashkil etadi.

O`zbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar tilida qo`llanadigan so`zlar ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikadan yashash joyi, kasbi, hunari, jinsi, madaniy saviyasidan qat‘iy nazar barcha o`zbek millatiga mansub kishilar foydalanadi, shunga ko`ra ular umumiste‘moldagi so`zlar deb ham yuritiladi. Umumiste‘moldagi so`zlarning ma‘nosi hammaga tushunarli bo`ladi. Bu so`zlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, barcha so`z turkumlariga oid bo`ladi. Umumiste‘moldagi so`zlarning ko`p qismini umumturkiy so`zlar va o`zbekcha so`zlar tashkil etadi.

Boshqa tillardan kirgan so`zlar ham o`zbek xalqining barchasiga tushunarli bo`lsa, ular ishlatilish doirasiga ko`ra chegaralanmaydi. Masalan, arab tilidan o`zlashgan shamol, soat, inoq, dohiy, mag` rur, hafa, maqol, hayot, millat, hikoya so`zlari; tojik tilidan o`zlashgan go`sht, non, sozanda, suhbat, sabzavot, omburkabi so`zlar; rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan traktor, kino, teatr, tsirk, kartoshka, fabrika, zavod kabi so`zlar umumxalq tilida qo`llanadi.

Demak, ishlatilish doirasi chegaralanmagan so`zlar o`z qatlamga ham, o`zlashgan qatlamga ham oid bo`lishi mumkin.

Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika. Tildagi so`zlarning umumxalq tomonidan ishlatilmaydigan qismi ishlatilish doirasi chegaralangan leksika deyiladi. Bunday so`zlarning ishlatilishi ma‘lum sabablarga ko`ra chegaralangan bo`ladi. Ishlatilish darajasi chegaralangan leksikaga dialektal so`zlar, atamalar, jargon va argolar kiradi.

Dialektal leksika ishlatilish territoriyaga ko`ra chegaralangan so`zlar bo`lib, ular adabiy tilga kirmaydi. Ma‘lum bir xududdagi kishilar nutqida qo`llanib, ulargagina tushunarli bo`lgan so`zlar sheva so`zlari deyiladi. SHeva so`zlari yig`indisi dialektizm deb yuritiladi. Dialektizm – grekcha so`z bo`lib, dialektos – «tilning mahalliy ko`rinishi» demakdir. SHuning uchun dialektizm umumtilning mahalliy ko`rinishi bo`lgan dialektlarga xosdir.

Shevadagi ba‘zi so`zlar adabiy tilda ham bo`lishi mumkin. Lekin ular boshqa-boshqa ma‘nolarni bildiradi. Masalan: kosa so`zi Xorazm shevasida «piyola» ma‘nosini, adabiy tilda «suyuq ovqat soladigan idish», lagan so`zi Xorazm shevasida kir yuvadigan tog` ora, adabiy tilda «quyuq ovqatlarni soladigan idish» ma‘nosini bildiradi.

Yozuvchilar badiiy asarda mahalliy koloritni berish, qahramonning nutqini individuallashtirish, uning qaerlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni ko`rsatish maqsadida sheva so`zlardan foydalanadi.

Kasb-hunar leksikasi. O`zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunar bilan shug`ullanib keladi. SHuning uchun O`zbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulochilik, qashshoqlik, kashtachilik, duradgorlik, terimchilik, ovchilik, chorvachilik, kosibchilik va hokazolar shular sirasiga kiradi. Turli kasbhunarga doir so`zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o`zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so`zlarga boy. Masalan: kulolchilikda dog` chil (xum yasashda ishlatiladigan asbob), aspak yoki ob yog` och, bandak, bog`ich (idish

chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi) kabi so`zlar, suvoqchilik sohasida bozi (tokcha yoki), andava (asbob), loykash (kishi), mola gazcho`p (asbob) kabi maxsus so`zlar bor. Ular shu hunar egalari tilida qo`llanadi va ular uchun tushunarlidir.

Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning mehnat faoliyatini ko`rsatishda kasb-hunarga doir so`zlardan foydalanadilar.

Atamalar. Fan-texnika, xalq xo`jaligi, qishloq xo`jaligiga doir ilmiy tushunchalarni aniq ifodalaydigan so`zlar atamalar deyiladi. Fan-texnika va ishlab chiqarish sohasida qo`llanadigan terminlarning jami terminologiya (terminologik leksika) deb yuritiladi. Masalan: fonetika, leksika, morfologiya, morfemika, sintaksis – tilshunoslikka oid; kvadrat, ildiz, teorema – matematikaga doir; sifatlash, o`xshatish, jonlantirish – adabiyotshunoslikka doir atamalardir. Hozirgi kunda dunyoda fanning 500 dan ortiq tarmoqlari bor, ular har tomonlama taraqqiy etmoqda. Bu tilda atamalarning boyib borishiga olib keladi. Atamalar ilmiy nutqda qo`llanadi va ular bir ma‘noli bo`ladi.

Ba‘zi atamalar o`zbek tilida so`zlashuvchi barcha kishilar nutqda qo`llanib ommalashib ketishi mumkin. Bunda ular ishlatilish doirasi chegaralanmagan umumxulq so`ziga aylanadi. Masalan, o`qituvchi, kitob, daftar, dars kabi.

Jargon va argolar. O`tmishda xalqni ekspluatatsiya qiladigan sinf vakillari, saroy ahllari, mansabdor shaxslar, savdogarlar, qalandar, maddohlar, xalqni aldab yuruvchi gadoylar, o`g` rilar, firibgarlar o`z niyatlarini xalqdan yashirish uchun o`zlariga tushunarli so`z va iboralardan foydalanganlar.

Tilda sinfiy ayirmalikni ko`rsatib turadigan bunday so`zllar «sinfiy dialektning so`zlari» - jargonlar deb yuritiladi.

Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so`z va iboralar jargonlar deyiladi. Masalan, oftobi olam (podsho), husni mutlak (xudo), nishoni oliy mon, shoe‘ qiling (bildiring), mal huz emas (mulohaza qilingan emas), ne‘mati jannat (yor, mahbuba), shavaqqu‘ aylang (umid bilan kuting), tanzil (foyda).

O`g` rilar, qimorbozlar orasida qo`llanadigan so`zlar argolar deb yuritiladi; loy (pul), xit (militsioner), bedana (to`pponcha), xitola (o`g`irla), zamri (jim tur), atamri (gapir), atanda (qoch) kabi.

Qadimda savdogarlarning, otarchilarning ham argolari bo`lgan: yakan (pul), joyi (yo`q), xasut (non), dax (yaxshi, durust) – otarchilar argosi; sar yoki sari piyoz (ming so`m), saru nimsar (bir ming besh yuz so`m), kapara (olti ming so`m).

Lug’at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi; lug’at tarkibining hissiy-ta’siriy bo’yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi

Tilning lug`at tarkibi tashkil etadigan so`zlarning hayotiyligi faol yoki nofaolligiga bog`liq. Zero, tildagi ba‘zi so`zlar kundalik hayotda iste‘mol etilish bilan xarakterlansa, boshqa bir guruh so`zlar kundalik aloqada juda kam qo`llanadi. Shu bois so`zlar tarixiy-funksional xususiyatiga ko`ra faol va nofaol so`zlarga ajraladi. Faol so`zlar adabiy tilning zamonaviy me‘yoriga xos so`zlari bo`lib, ular kundalik aloqada eng ko`p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Nofaol so`zlar qatlami

esa quyidagi uch turga bo`linadi:1) tarixiy so`zlar (istorizmlar), 2) eskirgan so`zlar(arxaizmlar), 3) yangi so`zlar (neologizmlar).

1. Tarixiy so`zlar (istorizmlar). O`tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi tilimizda o`z sinonimiga ega bo`lmagan so`zlardir. Masalan: miri, paqir, (pul birliklari) qozi, qushbegi, yasovul, xalifa (mansab nomlari), omoch, yorg`ichoq, charx kabilar.
2. Eskirgan so`zlar(arxaizmlar). Hozirgi kunda mavjud bo`lgan narsa va hodisalarning eskirib qolgan nomlaridir. Eskirgan so`zlarning hozirgi tilda sinonimi mavjud bo`ladi.

Masalan: budun, ulus, raiyat – xalq; handasa - geometriya; muarrix – tarixchi; dudoq – lab; lang - cho`loq, oqsoq.

3. Yangi so`zlar (neologizmlar). Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va o`zgarishlar natijasida vujudga kelgan narsa - hodisalarning yangi nomlaridir. Masalan, O`zbekiston mustaqil bo`lgandan so`ng tilimizda paydo bo`lgan faxriy - veteran, noib - deputat, tuman - rayon, tayyora - samolyot kabi so`zlar yangi so`zlardir. Yangi so`zlarning nofaol so`zlar qatoridan o`rin egallashi sababi shundaki, ular paydo bo`lgandan keng iste‘moldagi so`zlar singari barchaning nutqida birdek ishlatilavermay-di. Biroq vaqtlar o`tishi bilan yangi so`zlar ham keng iste‘moldagi so`zlar qatoridan o`rin egallashi mumkin. Masalan, 60-yillarda yangi so`zlar hisoblangan kosmos, kosmonavt, kosmik kema kabilar hozirgi kunda yangi so`z hisoblanmaydi. Shuni ham qayd etish lozimki, taraqqiyotning ma‘lum davrida tarixiy yoki eskirgan so`zlar qatoriga o`tgan so`zlar hisobidan ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, hozirgi tilimizda tuman, hokim, vazir, noib kabi neologizim sifatida qo`llanila-yotgan so`zlar aslida tarixiy va eskirgan so`zlarning yangilashgan holda qayta iste‘molga kirib kelishidan dalolat beradi.

Uslubiy jihatdan o`zbek tili leksikasi

Tilning lug`at tarkibidagi so`zlar nutqning biror uslubiga xoslangan bo`lishi yoki nutq uslublariga betaraf bo`lishi mumkin. Shunga ko`ra lug`aviy birliklar ikki guruhga bo`linadi: uslubiy betaraf so`zlar va uslubiy xoslangan so`zlar.

Uslubiy betaraf so`zlar nutq uslublarining birortasiga xoslanmay, barcha uslublarda birdek qo`llanilaveradigan lug`aviy birliklardan tashkil topadi: havo, suv, daraxt, bir, ikki, hamma, biz, siz, turmoq, yugurmoq kabilar shular jumlasidandir.

Nutqning ayrim-ayrim ulublari uchungina xizmat qiladigan so`zlar uslubiy xoslangan so`zlar deyiladi. Bunday maxsus so`zlar dastavval og`zaki nutqda yoki yozma nutqda qo`llanishiga ko`ra ikkiga ajraladi. Masalan, hazar qilmoq, birlashmoq, hunar, o`rin, arzimagan (kichik) so`zlari ko`proq og`zaki nutqda qo`llansa, ularning sinonimlari bo`lgan jirkanmoq, uyushmoq, kasb, makon, juz‘iy so`zlari ko`proq yozma nutqda qo`llanadi.

Og`zaki nutqning uslubiy chegaralangan leksikasi. Og`zaki nutq uchun xarakterli bo`lgan oddiy muomaladagi so`zlar o`zining soddaligi, hammaga tushunarli bo`lishi bilan yozma nutqdagi so`zlardan ajralib turadi. Og`zaki nutqda

uslubiy bo`yoqdor so`zlar ko`p ishlatiladi, unlarda soddalik, ta‘sirchanlik, ba‘zan esa erkinlik sezilib turadi. Og`zaki nutq leksikasiga dialektal so`zlar, oddiy muomalaga oid: zarar-zaral, zarur-zaril, dasturxon-dastarxon, devor-duvol,uch marta-uch matta, hech nima-hechtima, go`zal-ketvorgan, ajoyib-quling o`rgilsin; erkalov so`zlari: ninicha, asalim, shakarim, girgitton, qoqindiq; dag`al so`zlar (varvarizmlar): papulya, mamulya, oke, xarasho, ladno, patom; haqorat so`zlar (vulgarizmlar) juvonmarg, zantaloq, qizitaloq; jargonlar: mullajiring, xit, xarif kabi so`zlar kiradi. Og`zaki nutqqa oid leksika badiiy asarlarda personajlarning nutqida beriladi. Masalan: Nima qilib bu ezmachurukni sudrab yuribsiz, beti qursin!(S.Ahm.) Qizaloqlarim, qo`llaring nuqul baraka ekan.(O.) Boy qizitaloq ham toza erinmasdan davlat yiqqan ekan. (G`.G`.)

Yozma nutqning uslubiy chegarlangan leksikasi kitob, jurnal, gazeta va shuning kabilarda qo`llanadigan, umuman, yozma asarlar uchun xarakterli bo`lgan so`zlarning nisbatan turg`un, barqaror, uslubiy bo`yog`i bo`lgan yoki bo`lmagan so`zlarni taqozo etadi. Jumladan, rasmiy uslubga, poetik leksikaga, xalq dostonlariga, ommabop uslubga oid so`zlar ma‘lum darajada qo`shimcha bo`yoqqa ega bo`ladi. Shu bois mazkur uslublarga xos so`zlar og`zaki nutqqa oid so`zlardan ajralib turadi. Masalan, saylamoq, majburiyat, modda, farmon, jarima, izoh, isbot, mazkur, shaxsan; cheksiz, buyuk, asl, dargoh; ijozat, burch, bevosita, tabrik, boshchilik, erishmoq; zangori, ajoyib, sokin, mayin, chehra, jamol, ishq; dilovar, ajdar, dev, zo`ravon; kapital, ozodlik, ilg`or, qoloq, , qardoshlik, do`stlik, tinchlik va boshqalar.

Ammo ilmiy - texnik terminlar, tarixiy so`zlar, kasb-hunarga oid so`zlar, asosan, his-hayajonsiz bo`ladi. Hatto avval his-hayajonli bo`lgan so`z ham termin tusiga kirishi bilan his-hayajon bo`yog`ini yo`qotadi. Buning o`rniga "kitobiylik" bo`yog`i paydo bo`ladi. Masalan, kichik tilcha, qorincha, miya, umurtqa kabi anatomiya sohasiga oid so`zlar, til, lab, bo`g`iz bo`shlig`i, tovush paychasi kabi tilshunoslikka oid terminlar shular jumlasidandir. Ana shu "ilmiylik", "kitobiylik", "maxsuslik" xususiyati ilmiy - texnik terminlarni va kasb-hunar so`zlarini uslubiy jihatdan umumiste‘moldagi boshqa so`zlardan farqlanishiga va qo`llanish doirasining cheklanishiga olib keladi.

Lug’at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma’no va tarkib jihatdan tavsiflanishi

Ikki yoki undan ortiq so`zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma‘no ifodalaydigan til birligi frazeologik ibora deyiladi. Frazeologizmlar yaxlitligicha yoki muayyan so`zning ko`chma ma‘noda qo`llanishi asosida yuzaga keladi. Masalan, og`zi qulog`ida iborasi tarkibidagi so`zlar bir butun holda ko`chma ma‘noda qo`llanib, xursand tushunchasini ifodala-gan. Biroq qo`l ko`tarmoq birikmasida esa ko`tarmoq so`zining ko`chma ma‘noda ishlatilishi iborani vujudga keltirgan. Shu bois ular nutqning erkin sintaktik birliklaridan farqli ravishda, tilning turg`un birikmalari hisoblanadi. Frazeologik iboralarning so`zlar singari tilning lug`aviy bir-liklari qatoridan o`rin egallaydi. Bunga quyidagi omillar sabab bo`ladi:

1. Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq so`zdan tashkil topgan turg`un birikmalar bo`lsa ham, so`zlar singari, odatda, yaxlit bir tushun-chani ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat ularni so`zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishini ta‘minlaydi: Uchiga chiqqan-o`taketgan, turgan gap-albatta, yeng ichida-xufiya, yashirin kabilar shular jumlasidandir. Shu bois ular so`zlar singari bitta gap bo`lagi vazifasini bajaradi: Komissiya hayron bo`lib qoldi, ammo hech kim meni qaytarishni og‘ziga olmasedi (A.Qahhor).
2. Frazeologizmlarda ham so`zlar singari ko`p ma‘nolilik mavjud: o`ziga kelmoq - xushini yo`qotgach o`ziga kelmoq, esiga tushmoq, asabiylikdan so`ng o`ziga kelmoq; yerga urmoq-qimmatini pasaytirmoq, obro`sizlantirmoq, biror narsaning qadriga yetmaslik.
3. So`zlar singari frazeologizmlarning ham shakl va ma‘no munosabatiga ko`ra quyidagi turlari mavjud: a) omonimlar: boshiga ko`tarmoq - to`polon qilmoq, yaxshi ko`rmoq, e‘zozlamoq; b) sinonimlar: fe‘li aynimoq - avzoyi buzilmoq, yaxshi ko`rmoq - ko`ngil qo`ymoq, toqati toq bo`lmoq-sabr kosasi to`lmoq; v) antonimlar: ko`kka ko`tarmoq - yerga urmoq, yuzi yorug` - yuzi shuvut, yuragi qinidan chiqmoq - ko`ngli joyiga tushmoq.

Fraziolgizmlar nutqning ta‘sirchan vositalaridan bo`lib, so`zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda keng qo`llaniladi.

Ikki yoki undan ortiq so`zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma‘no ifodalaydiga n til birligi frazeologik ibora deyiladi. Frazeologizmlar yaxlitligicha yoki muayya n so`zning ko`chma ma‘noda qo`llanishi asosida yuzaga keladi. Masalan, og` zi qulog`ida iborasi tarkibidagi so`zlar bir butun holda ko`chma ma‘noda qo`lla nib, xursand tushunchasini ifodalagan.

Biroq qo`l ko`tarmoq birikmasidaesa ko`tarmoq so`zining ko`chma ma‘nod a ishlatilishi iborani vujudga keltirgan. Shu bois ular nutqning erkin sintaktik birliklaridan farqli ravishda, tilning turg`un birikmalari hisoblanadi. Frazeologik iboralarning so`zlar singari tilning lug`aviy birliklari qatoridan o`rin egallaydi. Bunga quyidagi omillar sabab bo`ladi:

1.Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq so`zdan tashkil topgan turg`un biri kmalar bo`lsa ham, so`zlar singari, odatda, yaxlit bir tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat ularni so`zlar bilan sinonimik munosabatga kiris ha olishini ta‘minlaydi: Uchiga chiqqan- o`taketgan, turgan gap- albatta, yeng ichida-xufiya, yashirin kabilar shular jumlasidandir. Shu bois ular so`zlar singari bitta gap bo`lagi vazifasini bajaradi: Komissiya hayron bo`lib qoldi, ammo hech kim meni qaytarishni og‘ziga olmas edi (A.Qahhor).

2. Frazeologizmlarda ham so`zlar singari ko`p ma‘nolilik mavjud:

o`ziga kelmoq - xushini yo`qotgach o`ziga kelmoq, esiga tushmoq, asabiylikdan so`ng o`ziga k elmoq; yerga urmoq-qimmatini pasaytirmoq, obro`sizlantirmoq, biror narsaning qadriga etmaslik.

3. So`zlar singari frazeologizmlarning ham shakl va ma‘no munosabatiga ko` ra quyidagi turlari mavjud:

a) omonimlar: boshiga ko`tarmoq - to`polon qilmoq, yaxshi ko`rmoq, e‘zozlamoq;

b) sinonimlar: fe‘li aynimoq - avzoyi buzilmoq, yaxshi ko`rmoq - ko`ngil qo`ymoq, toqati toq bo`lmoq-sabr kosasi to`lmoq;
v) antonimlar: ko`kka ko`tarmoq - yerga urmoq, yuzi yorug` - yuzi shuvut, yuragi qinidan chiqmoq - ko`ngli joyiga tushmoq. Fraziolgizmlar nutqning ta‘sirchan vositalaridan bo`lib, so`zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda keng qo`llaniladi.

Leksikografiya (yunoncha lexs-so`z, grapos-yozaman demakdir). Qomusiy lug`atlar tushuncha va ma‘lumotlar so`zligi, lingvistik lug`atlar- bunday lug`atlarda lug`aviy birliklar tilshunoslik nuqtai nazaridan izohlanadi.

Umumiy lug`atlarda - adabiy tilning barcha soha va qatlamiga oid so`zlar aks etadi. Maxsus lug`atlar- biror soha yoki ma‘lum bir qatlamga oid so`zlar bilan cheklangan bo`ladi.

Leksikografiya (yunoncha lexs-so`z, grapos-yozaman demakdir) o`z mohiyatiga ko`ra lesikologiya bilan uzviy bog`liq bo`lgan bo`limdir. Chunki leksikografiya tilning leksik qatlamiga mansub bo`lgan so`zlar, iboralarni lug`atlarda alfavit tartibida va ba‘zan uyadoshlik asosida jamlash, ularni turli tomondan izohlash bilan shug`ullanadi. Demak, leksikografiyada lug`at va lug`at turlari xususida bahs yuritiladi.

Lug`at va uning turlari. Lug`at ma‘lum bir tildagi so`zlarning barchasini yoki aksariyat qismini jamlab, ularning ma‘nolarini izohlash, imlosi va talaffuzini ko`rsatish, so`z ma‘nosini bir tildan ikkinchi tilga o`girish kabi maqsadlarda tuziladigan kitobdir. Lug`atlar maqsad va vazifasiga ko`ra, odatda, ikki turli bo`ladi: 1) qomusiy (ensiklopedik) lug`atlar; 2) lingvistik (filologik) lug`atlar.
Qomusiy lug`atlar tushuncha va ma‘lumotlar so`zligi bo`lib, ularda turli ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik, adabiy-badiiy, tarixiy voqea-lar haqidagi tushunchalar hamda ishlab chiqarishning turli sohalari, borliqdagi narsa va hodisalar, taniqli fan, san‘at, madaniyat, davlat arboblari haqidagi ma‘lumotlar beriladi. Masalan, «O`zbek milliy ensiklopediyasi», «Salomatlik ensiklopediyasi»,
«Uy-ro`zg`or ensiklo-pediyasi» shular jumlasidandir.

Lingvistik lug`atlar. Bunday lug`atlarda lug`aviy birliklar tilshunoslik nuqtai nazaridan izohlanadi. Ular tilshunoslikning ma‘lum bir sohasiga yoki barcha sohasiga tegishli ekanligi bilan, dastlab, maxsus va umumiy lug`atlarga ajratiladi.
Umumiy lug`atlarda adabiy tilning barcha soha va qatlamiga oid so`zlar aks etadi. Shu bois bunday lug`atlarning nomlanishi ham biror soha yoki so`z qatlami nomi bilan cheklanmaydi. Masalan: 65 ming so`zni o`z ichiga olgan, ikki jilddan iborat «O`zbek tilining izohli lug`ati» (M., 1981.) , «O`zbek tilining imlo lug`ati» (T., 1976.), «O`zbek tilining orfoepik lug`ati» (T., 1977.), «O`zbek tilining qisqacha etimologik lug`ati» (T.,2000) kabilar shular jumlasidandir.

Umumiy lug`atlar bir yoki ikki tilliligi bilan ham farqlanadi. Xususan, yuqorida sanab o`tilgan lug`atlar bir tilli lug`atlar hisoblanadi. Ikki tilli lug`atlar tarjima lug`atlardir. Chunki bunday lug`atlarda o`zbekcha so`zlarning muayyan tildagi muqobillari yoki aksincha xorijiy tildagi so`zlarning o`zbek tilidagi muqobili tarjima asosida ko`rsatiladi. Masalan: «Nemischa-o`zbekcha lug`at», «Inglizcha-o`zbekcha lug`at», «Fransuzcha-o`zbekcha lug`at», «O`zbekcha-ruscha lug`at», «O`zbekcha-fransuzcha lug`at», «O`zbekcha-inglizcha lug`at» kabilar. Mustaqillikdan so`ng xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarning tobora rivojlanib

borayotganligi sababli ikki tilli lug`atlar dunyodagi boshqa milliy tillar asosida ham tuzilmoqda.

Maxsus lug`atlar biror soha yoki ma‘lum bir qatlamga oid so`zlar bilan cheklangan bo`ladi. Bu cheklanish ularning nomlanishida ham o`z aksini topadi. Masalan: «O`zbek tili morfem lug`ati» (T.,1977.), «O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati» (T., 1974.), «O`zbek tili omonimlarining izohli lug`ati» (T.,1984.), «O`zbek tili antonimlarining izohli lug`ati» (T.,1980.), «Siyosiy terminlarning izohli lug`ati», «O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati» shular jumlasidandir.

Lug`atshunoslik tarixidan. Barcha turkiy xalqlar kabi o`zbek xalqining ham lug`atshunoslik bilan bog`liq tarixining dastlabki bosqichi Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asari bilan bog`lanadi. Uning to`liq ism-sharifi Mahmud Ibn-ul Husayn Ibn Muhammad-al-Koshg`ariy bo`lib (tavallud sanasi aniq emas), «Devonu lug`otit turk» asari hijriy 469, melodiy 1076-1077- yil yozilgan. Asarning yagona qo`lyozma nusxasi 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahridan topilgan va u hozirgacha Istambulda saqlanadi. Bundan tashqari alloma tomonidan turkiy tillar sintaksisiga doir «Javohirun nahv fil lug`otit turk» asari yaratilganligi haqida ham ma‘lumotlar mavjud. Biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

«Devonu lug`otit turk», dastlab, 1915-1917 yillarda uch tomlik kitob holida Istambulda, keyinchalik, ya‘ni 1928 yilda esa sharqshunos Brokkelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib Leypsikda nashr qilingan. «Devonu lug`otit turk» asari 1960-1963 yillarda taniqli sharqshunos olim Solih Mutallibov tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilinib, Toshkentda nashr etilgan. «Devonu lug`otit turk» asari faqat leksikografik tadqiqot bo`lib qolmay, unda qadimgi turkiylar tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik, lingvogeografik, dialektologik xususiyatlari haqida ham qimmatli ma‘lumotlar mavjud. Shu bois Mahmud Koshg`ariy turkiyshunoslikning sanab o`tilgan sohalarining asoschisi sanaladi.

Zamahshariy hijriy 467, melodiy 1045 yilning 19 martida Xorazmning Zamahshar qishlog`ida tavallud topgan. Abulqosim Mah-mud Zamahshariy taxallusi bilan arab tilida tilshunoslik, adabiyot-shunoslik, geografiya, hadis va diniy huquq kabi fanlarga doir ellikdan ortiq asar yaratib qoldirgan. Ayniqsa, uning «Al- mufassal fi sa‘at il-i‘rob», «Fleksiya san‘ati haqida mufassal kitob» ma‘nosini bildirib, bu asar (1121 yil Makka shahrida yozilgan) arab tilining grammatikasini o`rganishda muhim qo`llanma sifatida sharq va g`arbda mashhur bo`l-gan. Zamahshariyning xorazmshoh Alouddavla Abdulmuzaffar Otsiz sharafiga bag`ishlab 1137 yilda yozilgan «Muqaddimat-ul adab» (Adabiyotga kirish) asari, garchi adabiyotshunoslikka doir bo`lsa ham, tilshunoslikning morfologiya, leksikologiya va leksikografiya sohalariga daxldor qimmatli amaliy va nazariy mulohazalar mavjud. Zotan, besh qismdan tashkil topgan bu asarda otlar, fe‘llar, bog`lovchilar, otlarning turlanishi, fe‘llarning tuslanishi kabi masalalar xususida bahs yuritilgani holda, o`sha davr arab tilining iste‘molda bo`lgan barcha so`zlari, iboralari ham o`z aksini topadi. Bu so`zlaning ma‘nolari va etimologiya-si yetarli darajada keng sharhlanadi. «Muqaddimat-ul adab» fors, chig`atoy(eski o`zbek), mo`g`ul va turk tillariga tarjima qilingan bo`lib, manbalarda qayd etilishicha, uning chig`atoy tiliga tarjimasi Zamah-shariyning o`zi tomonidan amalga oshirilgan.

Zamahshariyning bilim-don, zukko allomaligi unga hayotligidayoq butun musulmon Sharqida katta shuhrat keltirgan. Shu bois alloma chuqur hurmat bilan «Arablar va g`ayri arablarning ustozi», «Xorazm faxri» kabi sharafli nomlar bilan ulug`langan.

Alisher Navoiyning «Muhokamatul lug`atayn» asari 1499 yilda yaratilgan bo`lib, bu asar eski o`zbek tilini qarindosh bo`lmagan til – fors-tojik tili bilan chog`ishtirib o`rganishga doir dastlabki leksikografik tadqiqotlardan biri ekanligi bilan qimmatlidir. Adabiyot osmonida Navoiydek yorug` yulduz paydo bo`lgach, uning asarlari asosida ham ko`plab lug`atlar yaratila boshlandi. Jumladan, «Badoi al-lug`at», «Sangloh», «Abushqa» kabi o`nlab lug`atlarning yaratilishi shular jumlasidandir.

O`zbek tilshunosligining zamonaviy bosqichida esa G`.Abdurahmo-nov, Z.Ma‘rufov, O.Usmonov, Sh.Shukurov, A.Hojiyev, R.Qo`ng`urov, Sh.Shoabdurahmonov, S. Mutallibov, Sh.Rahmatullayev, V.Rahmonov, A.Madaliyev, N.Mamatov, S.Ibrohimov kabi olimlar lug`atshunoslik-ning rivojishida o`zlarining munosib hissalarini qo`shib kelmoqdalar.

Modomiki, o‘quvchilarning soz‘ boyligini oshirish ona tili mashg‘ulotlarining asosiy vazifalaridan biri ekan, ularni turli lug‘atlar bilan tanishtirish va bu lug‘atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish ayniqsa muhim masala hisoblanadi. Lug‘at imlo savodxonligini oshirish, so‘z boyligini kengaytirishning muhim manbai, o‘quvchining asosiy maslahatchisidir. Lug‘atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish avvalo ularda ehtiyojni tarbiyalashdan boshlanadi. Chunki ehtiyoj sezilmasa, o‘quvchi lug‘atga murojaat qilmaydi. Ma‘lum bir so‘zning imlosi, ma‘nosi, ma‘nodoshi, qarama-qarshi ma‘nosi, uyadoshini bilish zaruriyati ehtiyojni vujudga keltiradi. O‘quvchilarni ular faoliyatida zarur bo‘ladigan lug‘at turlari bilan tanishtirishga alohida e‘tibor berish kerak. Chunki turli lug‘atlar bilan tanishgan o‘quvchi nimani qayerdan izlash kerakligini ham yaxshi biladi.

Ma‘lumki, keyingi yillarda o‘zbek leksikografiyasi katta muvaffaqiyatlari qo‘lga kiritdi. Ayniqsa, 14 tomlik entsiklopediya lug‘ati, 2 tomlik izohli lug‘at, imlo lug‘ati morfem lug‘at, frazeologik lug‘at, sinonim so‘zlarning izohli lug‘ati, antonym so‘zlarning izohli lug‘ati, paremeologik lug‘at, turli sohalarga oid atamalarning izohli lug‘atlari (masalan, paxtachilik atamalarining izohli lug‘ati, matematik atamalarning ozohli lug‘ati kabi)ning nashr etilganligi o‘zbek leksikografiyasining taraqqiyotidan dalolat beradi. Ammo bu lug‘atlarning asosiy qismi akademik lug‘atlar bo‘lib, ular o‘rta maktab o‘quvchilari uchun ancha qiyinlik qiladi. Bugungi ona tili mashg‘ulotlari o‘quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan ―O‘zbek tilining izohli lug‘ati‖, ―O‘zbek tilining qarama-qarshi ma‘noli soz‘lar lug‘ati‖ kabilarga tobora ko‘proq zaruriyat sezmoqda. Bu hozirgi kunda kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalardan biridir. Keyinchalik esa bu lug‘atlar sirasi ―O‘zbek tilining tovushdosh so‘zlar lug‘ati‖, ―O‘zbek tilidagi eskirgan soz‘lar lug‘ati‖, ―O‘zbek tili va adabiyoti: o‘rta maktab o‘quvchilari uchun entsiklopediya‖ va hoqazolar bilan to‘ldirilishi kerak.

Lug‘atlardan tez va to‘g‘ri foydalanish uchun o‘quvchi zarur malakalarga ega bo‘lishi lozim. Bu malakalardan eng muhimi alfavit tartibini yaxshi bilishdir.

Alfavitni yoddan bilmagan o‘quvchi lug‘atdan zarur so‘zni tez topa olmaydi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflardayoq o‘quvchilarning alfavit tartibini yaxshi bilishlariga erishish va izchil kursni o‘rganish jarayonida bu borada muntazam ish olib borishga to‘g‘ri keladi.

Lug‘at bilan ishlash uchun zarur malakalardan yana biri ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishdir. Masalan, sininimik qatorlar hosil qilish zarur bo‘lsa, imlo lug‘atiga murojaat etilmaydi. Topshiriqni bajarish uchun qaysi lug‘atga murojaat etish kerakligini bilgan bola, shubhasiz, undan samarali foydalana oladi. Lug‘atlar turli tuman bo‘lgani kabi, ular bilan ushlash usullari ham rang-barangdir. O‘quvchilarning lug‘at bilan ishlash malakalarini shakllantirish uchun muayyan ish turlari talab etilsa, ularning imlo savodxonligini oshirish uchun tamoman bohsqa, so‘z boyligini rivojlantirish uchun esa o‘ziga xos maxsus mustaqil ish turlaridan foydalanish talab qilinadi.

―Imlo lug‘ati‖ bilan ishlash. ―Imlo lug‘ati‖ faqat o‘quvchilarning imlo savodxonligini emas, balki so‘z boyligini oshirishda ham muhim qo‘llanmadir. O‘zbek tilining barcha bo‘limlarini o‘rganishda ―Imlo lug‘ati‖ dan unumli foydalanish kerak. Masalan, ―Fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya‖ bo‘limini o‘rganishda a, i, u, o‘ harflari ishtirok etgan so‘zlar topish, u – o‘, i – u, a – i va h.k. juftlar bilan farqlanuvchi so‘zlar tanlash, birinchi bo‘g‘inida u, o‘, ikkinchi bo‘g‘inida u yoki i kelgan so‘z juftlari (urush – urish, tushum - tushim va h.k.) ustida ishlash, i-u tovushlari (harflari)ning tushib qolishi, bu tovushlar tushib qolgan so‘zlar ro‘yxatini tuzish: o–a bilan farqlanuvchi so‘z juftlar (ana – ona, ata –ota va h.k.)tanlash, i-e (e) bilan farqlanuvchi so‘z juftlarini topish (ish –esh, bil – bel, tish – tesh kabi) ishlarini bajarishda ―Imlo lug‘ati‖ zarurdir.

―Ot‖ so‘z turkumini o‘rganishda otlarning ma‘no guruhlariga misollar tanlash, juft shaxs otlari, qo‘shib va ajratib yoziladigan qo‘shma otlar ro‘yxatini tuzish, ―sifat +turdosh ot‖, ―son + turdosh ot‖, ―ot +fe‘l + - ar‖ qolipli hosilalar ustida ishlash kabi mustaqil ishlar shu lug‘at yordamida bajariladi. Xullas, ―Imlo lug‘ati‖dan ona tilining barcha bo‘limlarini o‘rganishda unumli foydalaniladi. U o‘quvchining doimiy yo‘ldoshi, darslik materilallarini to‘ldiruvchi zarur qo‘llanma sanaladi. Entsiklopediya va izohli lug‘atlar bilan ishlash. Entsiklopediya ilm-fanning hamma sohalarini o‘z ichiga olagan yoki biror soha bo‘yicha keng, to‘liq ma‘lumot beradigan lug‘at tarzidagi ilmiy to‘plam yoki qomusdir1. O‘quvchi bu qomusdan barcha jumboqlarga javob topadi, istagan bir tushuncha haqida keng va atroflicha ma‘lumot oladi. Ayniqsa, o‘quvchilar lug‘atini yangi tushunchalar bilan boyitishda, bu tushunchalarni ularning iste‘moliga ko‘chirishda entsiklopediya lug‘atlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili mashg‘ulotlarida maktab o‘quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan ―U kim – bu nima‖ (ikki tomlik) entsiklopediyasidan unumli foydalanish mumkin. O‘quvchilar ushbu qomusdan foydalanib, ma‘lum bir sohaga taalluqli tushunchalar ro‘yxatini tuzishlari, bu tushunchalarning ma‘nosini aniqlashlari, tushuncha va so‘z orasidagi farqni bilib olishlarikerak.

Izohli lug‘atlar ona tili mashg‘ulotlarida tez –tez kerak bo‘ladigan qo‘llanmalardir. Ulardan unumli foydalanish o‘quvchilar nutqini ko‘p ma‘noli so‘zlar, ma‘nodosh, uyadosh va qarama – qarshi ma‘noli so‘zlar, tasviriy ifoda va

iboralar, frazeologik birikmalar bilan boyitish, ma‘nosi har xil, shakli bir-biriga yaqin so‘zlar (paroimlar)ni farqlash, so‘zlarning ma‘no nozikligi va qaysi uslubga xosligini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, lug‘atdan foydalangan holda ayni bir so‘zning ham turli ma‘nolarini, ham ma‘nodoshlarini, ham uyadoshlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Masalan, Izohli lug‘atlardan foydalanish faqat leksikologiya doirasi bilan cheklanib qolmasdan, tilning barcha sathlarini o‘rganishda ham qo‘llanilmog‘i lozim.

Xullas, ona tili mashg‘ulotlarida lug‘atlardan foydalanish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan nutqda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini shakllantirishga yoram beradi. Ayniqsa, ona tili o‘qitishning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, mashg‘ulotlarning foydalilik darajasini oshirishni lug‘atlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Ona tili o‘qituvchisi lug‘atlardan foydalanishni hayotiy zaruriyat, ehtiyojga aylantirish, o‘quvchilarni ulardan foydalanish malaka va ko‘nikmalari bilan qurollantirilishi lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. *So`zlar shakl va ma`no munosabatlariga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?*
2. *Omonimlar deb nimaga aytiladi?*
3. *Omonimlarning qanday turlari bor?*
4. *Omonimlarning ko`p ma`noli so`zlardan farqini ayting? Sinonimlarning ta‘rifini aytib, misollar keltiring.*
5. *Sinonimik qator va dominanta (bosh so`z) haqida gapiring.*
6. *O`zlashma va yasama so`zlarning sinonimik xususiyatlari haqida gapiring.*
7. *Sinonimlarning turlari haqida gapiring.*
8. *Antonimlarning ta‘rifini ayting va misollar keltiring.*
9. *Ko`p ma‘noli so`zlarning antonimik xususiyatlari haqida gapiring.*
10. *Antonimlikdagi uchta belgi haqida gapiring.*
11. *Paronimlar haqida gapiring.*
12. *Paronimlarning omonimlarga o`xshash va farqli tomonlari haqida gapiring*
13. *Leksikologiyada nimalar o`rganiladi?*
14. *Jargo so`zlar qanday so`zlar?*
15. *Argo so`zlar deb nimaga aytiladi?*
16. *So`zning o`z va ko`chma ma‘nolarini izohlang.*
17. *Ma‘no ko`chishi haqida nimalarni bilasiz?*
18. *Metafora va metonimiya hodisalari asosida ma‘no ko`chishini misollar yordamida izohlang.*
19. *Sinekdoxa hodisasida ma‘no ko`chishini qanday tushunasiz?*
20. *So`zlar shakl va ma‘no munosabatiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?*
21. *O‘zlashma so`zlar haqida ma‘lumot bering.*
22. *Dialektizmlar haqida nimalarni bilasiz?*
23. *O‘z qatlamning o`ziga xos xususiyatlari nimalarda ko`rinadi?*

24. Umumxalq ishlatadigan so`zlardan iste‘mol doirasi chegaralangan so`zlarning farqini tushuntiring.
25. Dialektizmlarning adabiy tildagi me‘yoriy so`zlardan qaysi jihatlariga ko`ra farqlanishini tushuntiring.
26. Tarixiy va eskirgan so`zlarni tavsiflang.
27. Iste‘moli chegaralangan so`zlarni guruhlab izohlang. Qanday so`zlar umumturkiy sanaladi?
28. O`zbek tili leksikasining o`z ichki imkoniyatlari asosida boyishi deganda nima tushuniladi?
29. O`zlashma so`zlar qanday so`zlar? Tilimizga qaysi tillardan so`zlar ko`p o`zlashtirilgan?
30. O`zbek tili leksikasining chegaralangan va chegaralanmagan qatlamlari haqi da ma‘lumot bering.
31. Tilning faol va nofaol so`zlari haqida nimalar bilasiz?
32. Frazeologiya nimani o`rganadi? Iboralar va so`zlar o`rtasidagi umumiylik h aqida so`zlab bering.
33. Tilning lug`aviy birliklariga nimalar kiradi?
34. Leksikografiyada nima o`rganiladi?
35. Lug`atlarning qanday turlari bor?
36. Lingvistik lug`atlarning qanday turlarini bilasiz?
37. Lingvistik lug`atlarning har bir turi misolida ularning qanday maqsadda ishlatilishini tushuntiring.
38. O`zbek lug`atshunosligi tarixi haqida ma‘lumot bering.

4-MAVZU

MORFEMIKA VA MORFEMA HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT. O’ZBEK TILIDA SO’Z YASALISHI. GRAMMATIKA HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT.

R E J A:

1. Morfemika va morfema haqida umumiy ma’lumot
2. O’zbek tilida so’z yasalishi
3. Grammatika haqida umumiy ma’lumot

Morfemika va morfema haqida umumiy ma’lumot

Morfemika so`zning ma`noli qismlari haqidagi ta`limotdir. So`zlarning grammatik tarkibi o`zak va turli morfemalardan tashkil topib, gapda so`zlar turli grammatik shakllarda ham, o`zgarmagan holda ham qo`llaniladi. So`zlarning o`zgarmagan shakli asosiy, ya`ni lug`aviy ma`noli qismdir. Turli grammatik shakllar esa lug`aviy ma`noga qo`shiladigan qo`shimcha ma`nolardir. Masalan, Uyimizning so`zidagi uy so`zning ma`noli qismi -imiz-egalik ma`nosini, -ning kelishik, ma`nosini ifodalagan.

So`zlar o`zgarmagan shaklda qo`llanib, qo`shimcha olmasa, u ma`noli qismlarga bo`linmaydi. Agar so`z tuzilishida qo`shimcha ishtirok etsa, u turli

grammatik ma`nolarni ifodalaydi. So`zning ma`noli qismi ikki tarkibdan: so`z va qo`shimchalaridan tashkil topadi. So`zning o`zi ham muayyan ma`noli qismdir.
Bu qism so`zning, boshqa ma`noli qismlarga bo`linmaydigan, ushbu so`z asosida yuzaga keladigan turli shakllarning hosil bo`lishi uchun asos bo`ladigan qismidir.
So`zning eng kichik ma`noli, boshqa ma`noli qismlarga bo`linmaydigan shakli morfema deyiladi. Morfema -grekcha " shakl" demakdir. Ya`ni so`zning ma`noli shakllari morfema hisoblanadi. Biroq so`z shakllari ma`no va vazifa jihatidan o`zaro farqlanadi. Shunga ko`ra morfemalar ikki xil: 1) o`zak morfema,
2) affiksal morfema.

O`zak morfema so`zning asl, lug`aviy ma`nosini ifodalovchi qismi, shuning uchun morfemaning bu turi asosiy morfema deb yuritiladi. O`zak morfemalar so`z yasalishi uchun ham: bilimdon, do`stlik; shakl yasalishi uchun ham: bilimdonroq, do`stliklar, so`z o`zgarish uchun ham: bilimdondan, do`stlikdan asos bo`ladi. O`zak morfemalar so`zning asl lug`aviy ma`nosini ifodalagani uchun u so`zning o`zagi hamdir. So`z shakli xuddi shu o`zakdan boshlanadi.

So`zning lug`aviy ma`nosi bilan bog`liq bo`lgan turli grammatik ma`nolar qo`shadigan qism affiksal morfema deyiladi. Affiksal morfemalar mustaqil holda ma`no ifodalamaydi. Shuning uchun yordamchi morfemalar deb yuritiladi. So`zlarning morfemalarga bo`linishining asosida lug`aviy va grammatik ma`nolarning ifodalanishi yotadi.

O`zak va affiksal morfemalar boshqa turli xildagi qo`shimchalarni qo`shilishi uchun asos bo`ladi. Masalan: kitobxonlarga so`zidagi - xon qo`shimchasi uchun kitob (o`zak) asos bo`lsa, -lar qo`shimchasi uchun kitobxon so`zi, ya`ni bir o`zak, bir affiksal morfema asos bo`lgan. So`zlarning morfologik jihatdan tuzilishi lug`aviy va grammatik ma`noli qismlardan tashkil topganligi uchun ham ular farqlanadi. Lug`aviy ma`noli qism so`z yasalishi, qo`shimchalar qo`shish uchun asos. Shuningdek, bu qism shakl yasalishi va so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarni ham qabul qiladi. So`zlarning, qo`shimcha oladigan qismi negiz deyiladi. Masalan, bilimdonlik so`zidagi bil (o`zak), bilim negizdir. Chunki shu qism -don qo`shimchasini qo`shilishiga asos bo`ladi. -lik qo`shimchasi uchun bilimdon so`zi negizdir. Negiz qaysi qo`shimchalar bilan yasalishiga ko`ra uch xil: lug`aviy negiz, morfologik negiz, sintaktik negiz.

So`z yasovchi qo`shimchalar bilan hosil bo`lgan negiz lug`aviy negiz deyiladi: gul (li) do`st (ona), do`st (lik), bil(im-li) kabi.
Shakl yasovchi qo`shimchalar bilan hosil bo`lgan negiz morfologik negiz deyiladi: do`st (lar), yaxshi (roq), bor (moqda) kabi.

So`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar bilan hosil bo`lgan negiz sintaktik negiz deyiladi: kitobdan, kitobim kabi. Ba`zan so`zlarda bir turdagi qo`shimchalar birdan ortiq holda keladi. Masalan: bilimli so`zida -im va -li so`z yasovchi qo`shimchalari mavjud bo`lsa, uyimdan so`zida -im va -dan so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalari mavjud.

Ko`rinadiki, bilimli so`zida ikkita lug`aviy negiz, uyimdan so`zida ikkita sintaktik negiz mavjud. Negiz tuzilishiga ko`ra ikki xil: tub va yasama bo`ladi. Tub negiz so`zning qo`shimcha olmagan qismidir. U so`zning o`zak morfemasiga mos kelib ma`noli qismlarga bo`linmaydi. Masalan, bor -moq, o`qi- moq, ish-ga

so`zlaridagi lug`aviy ma`noli qismlar shu so`zlardagi o`zak morfema va tub negizlardir.

Yasama negiz so`zlarni qo`shish orqali hosil bo`ladi. Masalan, kurash (chan), ep (chil), kuz (gi), ishbilarmon kabi .Yasama negiz ham sodda , qo`shma va juft bo`ladi.

Tub so`zga yasovchi qo`shimchalar qo`shish bilan hosil bo`lgan negiz sodda negiz deyiladi: Mehnat -kash, bog`-bon. Ikki yoki undan ortiq so`zlarning qo`shilishidan hosil bo`lgan negiz qo`shma negiz deyiladi: mirzaterak, belbog`. lkki so`zning o`zaro teng bog`lanishidan hamda takrorlanishidan hosil bo`ladigan negiz juft negiz deyiladi: ota- ona, baxt-saodat, tez-tez.

Qo`shimchalar ma`no va vazifalariga ko`ra uch xil: 1) so`z yasovchilar, 2) shakl yasovchilar, 3) so`z o`zgartiruvchilar. O`zak yoki negizga qo`shilib uning ma`nosi bilan bog`liq bo`lgan yangi ma`noli so`z yasaydigan qo`shimchalar so`z yasovchi qo`shimchalar deyiladi: ish-chi, gul-li, gul-la, qish-ki, mard-ona, qahramon-larcha, majburan kabi . So`z yasovchi qo`shimchalar yordamida bir so`z turkumidan boshqa turkumlarga xos so`zlar yasaladi: masalan, suv, chiroy, odam, harakat -ot; suvli, chiroyli, odamsimon, harakatchan- sifat; och, buz, kes, uch, - fe`l; ochiq, buziq, keskir, uchqur sifat.

Shuningdek, so`z yasovchi qo`shimchalar bilan bir so`z turkumidan shu turkumga xos so`zlar yasaladi: ish, suhbat, vatan, yo`l, kitob -ot; ishchi, suhbatdosh, vatandosh, yo`ldosh, kitobxon- ot. So`z yasovchilar yordamida qo`shma (toshkentlik) juft (ota -onali) so`zlar ham yasaladi. Shu bilan birgalikda bir so`zga birdan ortiq so`z yasovchi qo`shmacha qo`shilgan holda ham so`zlar yasaladi. Masalan, terimchi so`zidagi ter - fe`l, terim-ot, terimchi -otdir. Bir so`zga birdan ortiq qo`shimchalar qo`shilib so`z yasalsa, bunday qo`shimchalar so`z tarkibini murakkablashtiradi.

Shu bilan birgalikda ayrim so`z yasovchi qo`shimchalar tarkibi ikki yoki undan ortiq so`z yasovchi qo`shimchaga mos keladi, biroq bir qo`shimcha vazifasini bajaradi.

Shunga ko`ra so`z yasovchi qo`shimchalar ikki xil: Sodda qo`shimchalar, murakkab qo`shimchalar.

Bitta tarkibdan iborat bo`lgan qo`shimchalar sodda qo`shimchalar deyiladi: -chi, -dosh, -zor,-shunos, -lik.

Ikki yoki undan ortiq qo`shimchalarning birikuvidan tashkil topgan, bir qo`shimcha vazifasini bajaruvchi qo`shimchalar murakkab qo`shimchalar deyiladi: -chilik, -garchilik, -lan kabi. Masalan, chorvachilik, loygarchilik, o`ylan so`zlari tarkibidagi -chilik (ch-lik), -garchilik (gar-chi -lik), -lan (la- n) qismlardan tarkib topgan bitta murakkab qo`shimchadir. -chilik qo`shimchasi$_{67}$ ayrim so`zlarda tarkiban ajralishi mumkin bo`lsa -da, suv- chi-lik , o`quv -chi- lik ko`pgina so`zlarda bu qo`shimchani qismlarga ajratib bo`lmaydi: chorvachilik, bog`dorchilik kulolchilik kabi.

So`z yasovchi qo`shimchalar so`z yasashdagi darajasi jihatidan uch xil: unumli qo`shimchalar, kam unum qo`shimchalar, unumsiz qo`shimchalar.

Ko`plab so`zlarning yasalishi uchun ishtirok etadigan qo`shimchalar unumli qo`shimchalar deyiladi. Unumli qo`shimchalarga: ot yasovchi -chi (terimchi, ishchi,

xizmatchi); mavhum ot yasovchi -lik (do`stlik, tinchlik); sifat yasovchi -li (kuchli, bilimli) ; -ma (aylanma yo`l, yasama kulgi), nisbiy sifat yasovchi -gi (-ki ,-qi) (kuzgi- qishki); fe`l yasovchi -la (oshla, suvla, ishla) kabilar kiradi.

Kam miqdordagi so`zlarning yasalishida ishtirok etadigan qo`shimchalar kam unum qo`shimchalar deyiladi. Ot yasovchi: -dosh -kash, -bon,-boz, -dor, - im, -gich, -sifat yasovchi: -siz, -chil,-aki, -chog, -chak; fe`l yasovchi: -ik, -ig, - lan, - lash; ravish yasamasi: -an, -lab, -ona qo`shimchalari kam unum qo`shimchalardir. Hozirgi kunda yangi so`z yasamaydigan qo`shimchalar unumsiz qo`shimchalar deyiladi: -ag`on, -a, -g, -v, -g`oq, -gir, -qiz, -chil, -chan qo`shimchalari unumsiz qo`shimchalardir. So`z yasovchi qo`shimchalar omonimlik, sinonimlik, va antonimlik xususiyatlariga ham ega. Shaklan bir xil bo`lib turli turkumlardagi so`zlarni yasaydi qo`shimchalar omonim qo`shimchalar deyiladi: oq: o`roq, boshoq -ot ; qo`rqoq, tarqoq -sifat , - ch: sog`inch -ot; tinch -sifat. - ma: surma, turma -ot; osma, cho`zma-sifat.

So`z yasovchi qo`shimchalar shakl yasovchi qo`shimchalar bilan ham omonim bo`la oladi. Masalan, qushcha, uycha so`zlaridagi -cha shakl yasovchi, yangicha, eskicha so`zlaridagi -cha so`z yasovchidir.

Shaklan har xil bo`lib, bir xil ma`noli so`zlarni yasovchi qo`shimchalar sinonim qo`shimchalar deyiladi. Sifat yasovchi : -li, -ser, -dor: unumli, serunum, unumdor; -be, -siz: beaql, aqlsiz;- li, - ba, - mand davlatli, badavlat, davlatmand; -no, -siz: noinsof, insofsiz kabilar sinonim qo`shimchalardir.

Bir -biriga zid ma`nolarni ifodalovchi so`zlar yasaydigan qo`shimchalar antonim qo`shimchalar deyiladi.

- li, -siz: aqlli -aqlsiz;
-no, -li: noinsof -insofli;
-be, -li : bebaxt -baxtli.

So`zlarning lug`aviy ma`nosini o`zgartirmay ularga turli ma`no bo`yoqlari beruvchi, grammatik ma`no ifodalovchi qo`shimchalar shakl yasovchi qo`shimchalar deyiladi. Shakl yasovchi qo`shimchalar yangi so`z yasamaydi, balki so`zning shaklini hosil qilib turli grammatik ma`nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Shakl yasovchilar turli so`z turkumlarida turlicha vazifalarni bajaradi. Masalan, otlarda kichraytish -erkalash: qushcha, toylog`, qo`zichoq, bolagina; ko`plik: kitoblar, uylar kabi ma`nolarni ifodalasa , sifatda sifat darajalarini hosil qiladi: qizilroq, oqish, ko`kimtir.

Shu xususiytlariga ko`ra shakl yasovchilar ikki xil: kategorial shakl yasovchi va nokategorial shakl yasovchilar.

Kategorial shakl yasovchilar biror grammatik kategoriyaga xos shakllarni yasaydi. Otlardagi ko`plik, fe`llardagi shaxs -son, zamon, mayl nisbat shakllarini yasovchi qo`shimchalar kategorial yasovchilardir. Masalan, bolalar so`zidagi -lar ko`plik kategoriasini, boraman so`zidagi -man shaxs -son kategoriyasini hosil qiladi.

Ma`lum biror grammatik kategoriyaga xos bo`lmagan shakllarini hosil qiluvchi qo`shimchalar nokategorial shakl yasovchilar hisoblanadi. Masalan, otlardagi kichraytish -erkalash qo`shimchalari sonning ma`no turini hosil qiluvchi

qo`shimchalar, sifatdagi daraja, fe`lning xoslangan shakllari qo`shimchalari nokategorial shakl yasovchi qo`shimchalardir.

Nutqda so`zlarni boshqa so`zlar bilan munosabatini (bog`lanishini ) ta`minlaydigan qo`shimchalar so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar deyiladi. So`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar grammatik ma`no ifodalaydi. Shuning uchun bunday qo`shimchalar sintaktik vazifa bajaradi. Masalan, Shohning qoshlari chimirilib, mo`ylovlarini uchi pastga osilib qoldi. (P. Q.) Ushbu dapdagi so`zlarni bog`lashda -ning , -larini, -i ,-ga qo`shimchalarini muhim o`rni bor. Agar gap tarkibidan shu qo`shimchalar chiqarilib tashlansa, undagi so`zlar o`zaro bog`lanmaydi, natijada fikr i fodalanmaydi. Bu holat so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarning grammatik ma`nosiga nisbatan ham sintaktik vazifasini muhim ekanligini ko`rsatadi.

So`z o`zgartiruvchilarga otlardagi kelishik, egalik, fe`llardagi shaxs-son qo`shimchalari kiradi. Bu qo`shimchalar xarakteriga ko`ra ikki xil: turlovchi qo`shimchalar, tuslovchi qo`shimchalar.

Ot va otlashgan so`zlarga qo`shilib, ularni boshqa so`zlar bilan birikishini ta`minlaydigan qo`shimchalar turlovchi qo`shimchalar deyiladi. Otlardagi egalik va kelishik qo`shimchalari turlovchilardir.

Fe`llarga qo`shilib shaxs -son ma`nosini ifodalovchi qo`shimchalar tuslovchi qo`shimchalar deyiladi. Fe`llardagi shaxs-son qo`shimchalari tuslovchilardir.

So`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarining qo`llanishi boshqa qo`shimchalarga nisbatan kengdir. Ular qaysi turkumga taalluqli bo`lsa, shu turkumdagi barcha so`zlarga qo`shiladi. Masalan, uyning, uyim, uyga bolaning, bolam, boladan, bordim, o`qidim, ishladim kabi.Boshqa qo`shimchalarda bu xususiyat nisbatab chegaralangan. (otlardagi ko`plik qo`shimchasi bundan mustasno).

O’zbek tilida so’z yasalishi

So`z yasash yangi ma`noli so`z hosil qilish demakdir. So`z yasalishi lug`aviy ma` noning ozgarishi asosida vujudga kelib, yasama so`z ko`pincha bir turkumdan boshqa turkumga ko`chadi. Shu ma`noda so`z yasash hodisasi so`zning grammatik jihatidan o`zgartiradigan hodisadir. Masalan, gul so`zi ot turkumiga xosligi uchun otga xos ko`plik qo`shimchasini oladi turlanadi: gullar, gullarnning , gullarga kabi. Bu so`zga fe`l yasovchi -la qo`shimchasi qo`shilganda hosil bo`lgan so`z ko`plik va kelishik qo`shimchalarini olmaydi, turlanmaydi, balki tuslanadi. Chunki bu holatda so`z grammatik jihatdan o`zgarib, bir kategoriyadan boshqa kategoriyaga o`tadi. Bir turkumdan boshqa turkumga o`tganda so`zlarda hosil bo`ladigan o`zgarishlar kategorial o`zgarishlar deyiladi.Maslan, tasodifan so`zining o`zagi (tasodif) ot, unga yasovchi -an qo`shimchasi qo`shilganda so`z boshqa kategoriyaga ko`chdi, ya`ni kategoriya o`zgaradi. Uzumzor so`zidagi yasovchi -zor qo`shimchasi otdan ot yasagan. Bunda kategoriya o`zgarmagan.

So`z yasalishi bilan bog`liq ravishda so`zning lug`aviy va grammatik ma`nolari ham o`zgarishi mumkin. So`z yasalish til uchun ijobiy hodisadir. U tilni lug`aviy jihatdan boyituvchi manbalardan biridir.

So`z yasash tildagi boshqa sohalar bilan xususan lug`at va grammatika bilan uzviy bog`liq. Chunonchi yasama so`z avval tilda mavjud bo`lgan lug`aviy vositalardan hosil bo`ladi. Masalan, tilda kitob, chiroy so`zlari mavjudligi uchun

shu so`zlar asosida kitobxon ,chiroyli kabi so`zlar yasalgan. So`z yasalishi asosida so`z ma`nosi o`zgaradi, yangi ma`noli so`z hosil bo`ladi. Bu holat so`z yasalishi bilan leksikologiya orasida uzviy bog`liqlikk mavjudligini ko`rsatadi. Ma`lumki, so`z yasalishida ko`pincha qo`shimchalar ishtirok etadi, yangi yasama bir turkumdan boshqa turkumga ko`chadi. Bu holat so`z yasalishining grammatika bilan ham bog`liqligini ko`rsatadi.

So`z yasalishi natijasida so`zning shakli o`zgaradi. Yangi ma`no bilan birgalikda yangi shakl vujudga keladi. So`z yasalishi paytida hosil bo`ladigan shakl bilan so`z o`zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchi qo`shimchalar orqali vujudda keladigan shakl orasida o`xshashlik bor. Shuning ichin so`z yasalishi ham shu turdagi boshqa hodisalar singari morfologiyaning tekshirish ob`ektidir.

Tilda so`z yasash vositalari va usullari xilma-xil. O`zbek tilida so`z yasalishining asosiy ikki usuli mavjud.

1. Morfologik (affiksasiya) usuli.2. Sintaktik (kompozitsiya) usuli.

O`zak va negizga so`z yasovchi qo`shimchalar qo`shish bilan yangi so`z yasash morfologik usul bilan so`z yasash deyiladi.So`z yasalishida qo`shimchalar ishtirok etganligi uchun bu usul affiksatsiya usuli hisoblanadi.So`z yasovchi qo`shimchalar o`zakka : gulli, gulla, ishla, paxtakor, shuningdek negizga: bilimli, hosildorlik, chidamlilik ham qo`shiladi. So`z yasovchi qo`shimchalar asosan o`zak va negizdan keyin qo`shiladi. O`zakdan oldin qo`shiluvchi -old yasamalar o`zbek tili uchun xos emas. Biroq sifat turkumiga mansub bir qator so`zlarning yasalishida ola qo`shimchalar ishtirok etadi. Masalan badavlat, serhosil, nohaq kabi. Morfologik usulda so`z yasalishdagi muhim shartlardan biri so`z bilan yangi yasama orasida bog`liqlik bo`lishdir. Masalan, oshpaz, gulzor so`zlaridagi o`zak va yasovchi qo`shimchalar orqali hosil bo`lgan qismlar: osh-oshpaz, gul-gulzor ma`no jihatidan bir -biriga bog`liqdir.

Morfologik usul bilan so`z yasalishining shakllari ham rang -barang. Masalan, paxtakor, so`zida o`zak + qo`shimcha, serdaromad so`zida qo`shimcha, + o`zak, bil-im-li so`zida o`zak + negiz+ qo`shimcha, nohaq lik so`zida qo`shimcha + o`zak+ qo`shimcha shakllari mavjud.

Morfologik usul bilan so`z yasalishi ot, sifat, fe`l va ravish turkumlari uchun xos. Sintaktik usul bilan so`z yasashi ham unumdor usullaridan sanaladi.

Ikki yoki undan ortiq so`zlarning o`zaro qo`shilishi natijasida so`z yasalishi sintaktik usul bilan so`z yasalishi deyiladi. Sintaktik usul bilan qo`shma va juft so`zlar yasaladi. O`zbek tilida bulardan tashqari so`z yasalishining yana bir qator usullari mavjud.

Chunonchi, bir turkumdagi so`z boshqa turkumga ko`chadi va o`z ma`nosini o`zgartiradi. Masalan, barno (sifat), Barno (ot), to`xta (fe`l), To`xta (ot). Shuningdek, bir turkumdagi o`zaro so`z o`z ma`nosini o`zgartirishi, boshqa ma`no ifodalashi mumkin. Masalan, uzdi (ipni uzdi), uzdi (orani uzdi) yozdi (xat), yozdi (barg), yetdi (manzilga), yetdi (maqsadga). So`z yasaalishidagi bu usul lug`aviy - semantik usul deyiladi.

O`zbek tilida so`z yasalishining yana bir usuli -abbreviatura usulidir. Bu usul bilan qisqartma so`zlar hosil bo`ladi: BMT, MDH, DAN kabi. Bu usul bilan so`z yasash faqat ot turkumi uchun xosdir. So`z yasash usullaridan yana biri -

konversiya usulidir. Bu usulga ko`ra bir -kategoriyaga mansub so`z boshqa kategoriyadagi so`z o`rniga qo`llaniladi. Masalan, mard maydonda bilinar gapidagi mard so`zi aslida sifat turkumiga xos bo`lib, otga ko`chgan, ―odam ‖ ma`nosida qo`llangan. Bu holat sifatdoshlarda ham mavjud: o`qigan -o`zar kabi.

So`zlar tuzilishiga ko`ra : sodda, qo`shma va juft bo`ladi. Birgina o`zakdan tashkil topgan so`zlar sodda so`zlar deyiladi. kitob, yozmoq, katta, unumli, majburan. Sodda so`zlar tub va yasama bo`ladi. Tarkibida so`z yasovchi qo`shimchalar bo`lmagan so`zlar tub so`z deyiladi. yaxshidan, ko`pdan dalalardan kabi.

So`z yasovchi qo`shimchalar yordamida yasalgan so`zlar yasama so`z deyiladi: paxtakor, kutubxona, kitobxon kabi.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil ma`noli so`zlarining ma`no va grammatik jihatidan birikishidan tashkil topgan so`zlar qo`shma so`zlar deyiladi.

Qo`shma so`zlar so`z birikmalariga o`xshab ketsa -da, ular orasida keskin farq mavjud. Binobarin, qo`shma so`zlar tarkibidagi so`zlar ma`no jihatidan yaxlit holda bo`lib ularda hokim, tobelik munosabatlari bo`lmaydi. Masalan, toshbosar so`zining tarkibi mustaqil ma`noli tosh va bosar so`zlarining birikuvidan tashkil topgan qo`shma so`z bo`lsa, tosh devor birikmasida tosh devor so`zning aniglovchisi bo`lib , hokim va tobelik munosabati asosida shakllangan.

O`zaro grammatik tenglanish munosabatlari yoki takrorlanish asosida birikuvchi so`zlar juft so`zlar deyiladi.

Juft so`zlar quyidagicha hosil bo`ladi:

a) o`zaro ma`nodosh bo`lgan so`zlardan tashkil topadi: baxt -saodat, shod -xurram, zavq -shavq:

b) zid ma`noli so`zlardan tashkil topadi: katta -kichik, yaxshi -yomon, oq -qora;

v) ma`nosi bir- biriga yaqin bo`lgan so`zlardan tashkil topadi: ota -ona , aka-uka, opa- singil kabi;

d) so`zlarni takrorlash natijasida hosil bo`ladi: uzun -uzun, tez-tez, bora- bora, kula, -kula, tog`-tog` kabi.

e) Biri mustaqil ma`no bildiradigan ikkinchi mustaqil holda ma`no bildirmaydigan so`zlarning birikmasidan tashkil topadi: kiyim- kechak kabi.

Takrorlanish asosida hosil bo`ladigan juft so`zlar quyidagi shakllarda bo`ladi.

1. O`rin -payt va jo`nalish kelishiklari shaklida: qo`ldan -qo`lga, yildan yilga.
2. Birinchi so`zning tarkibida - ma qo`shimchasi kelib, ikkinchi so`z bosh shaklda bo`ladi: so`zma-so`z, izma -iz, zo`rma -zo`r.
3. Takrorlangan so`zlar tarkibida ayrim tovush o`zgarishlari yuz beradi: non -pon, ovqat -povqat.Juft so`zlar tarkibi doimo bir xil so`z turkumlaridan iborat bo`ladi: aka -uka (ot + ot), yaxshi -yomon (sifat +sifat), u - bu (olmosh +olmosh), kecha -kunduz (ravish+ ravish).

Ayrim juft so`zlar tarkibidagi so`zlarni o`rnini almashtirib qo`llash mumkin: asta- sekin (sekin -sata), baland -past (past -baland), biroq ko`prina juft so`zlarda bunday o`rin almashtirush imkoni bo`lmaydi:

bosh -qosh, opa -singil, ko`z -quloq, og`iz -burun.

Grammatika haqida umumiy ma’lumot

Grammatika ikki qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiiya so`zlarning tuzilishi va o`zgarishi, so`z turkumlarini o`rganuvchi sohadir. So`z turkumlari va ularning xususiyatlarini tekshirish morfologiyaning muhim vazifalaridandir. Ma`lumki, so`zlar turli grammatik ma`nolarni ifodaladi. Grammatik ma`no ifodalashiga ko`ra so`zlar har xil shakllarda bo`ladi. So`zlardagi bunday shakllarni ham morfologiya o`rganadi. Morfologiya atamasining morfo - shakl, logos -so`z ekanligi ham uning so`z shakllari haqidagi ta`limot ekanligini ko`rsatadi.

Til sathi sifatida morfologiya nisbatan gamrovdor bo`lib, so`z shakllari, so`zlarning tuzilishi va o`zgarishi, so`z turkumlari, ularning qonuniyatlarini o`rganuvchi ta`limotdir.

So`z shakllari. So`z shakllari hodisasi tilshunoslikdagi o`ziga xos hodisalardan biridir. Unda ma`lum so`zning o`z lug`aviy ma`nosini saqlagan holda turli shakllarda qo`llanilishi tushuniladi. Masalan, kitob, kitobi, kitobdan, kitobimiz.

So`z shakllarining o`zgarishi dastlab shu so`zning lug`aviy ma`nosiga daxldor bo`lib, uni qaysi turkumga mansubligini belgilaydi va shu turkumga xos qo`shimchalar asosida o`z shaklini o`zgarturadi.

Masalan, daraxt, odam, gul so`zlari ot turkumiga xos bo`lib o`z shaklini otga xos bo`lgan kelishik, egalik, ko`plik qo`shimchalarini olgan holda o`zgartiradi: daraxtim, daraxtlar, daraxtning. Sifat turkumida xos so`zlar esa shu turkumga xos daraja hosil qiluvchi bositalarni qabul qilgan holda o`z shaklini o`zgartiradi. Masalan, qizil, qizg`ish, qizilroq. So`z shakllarini o`zgarishidagi bu holat belgilangan, turg`un holat emas. So`z shakllarini o`zgarishi uchun asos bo`ladigan qo`shimchalar, so`zlarning muayyan turkumda taalluqli ekanligini belgilashda muhim bo`lsa -da, boshqa turkumga xos qo`shimchalarni ayniqsa, otlardagi kelishik, egalik ba`zan ko`plik qo`shimchalarini boshqa turkumdagi so`zlar olgan holda o`z shaklini o`zgartradi. Masalan, kattaning, kattalar, mening, ko`pdan va boshqalar .

So`z shakllaning o`zgarrishi ikki holatni yuzaga keltiradi. Birinchidan, so`z shakli o`zgarganda, so`zdagi asosiy ma`noga qo`shimcha ravishda grammatik ma`no ifodalanadi. Masalan, bolalar so`zidagi --lar qo`shimchasi orqali ifodalangan ma`no ko`plik ma`nosidir. Ikkinchidan, so`z shakllining o`zgarishi gapda so`zlarning o`zaro birikishini ta`minlaydi: ishdan kelmoq birikmasidagi -dan qo`shimchasi ushbu so`zlarni biriktirgan.

Ko`rinadiki, so`z shakllarini o`zgarishi natijasida morfologik shakl va sintaktik shakl vujudga keladi. Morfologik shakl yasovchi qo`shimchalar yordamida, sintaktik shakl esa so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar orqali hosil bo`ladi. Bundan tashqari tilda so`z yasalishi uchun xizmat qiladigan so`z yasovchi qo`shimchalar mavjud bo`lib, ular bir butun holda so`zning morfologik tuzilishini belgilaydi.

Grammatika tilshunoslik fanining nazariy bo`limlaridan biri bo`lib, gapda so`zlarning o`zgarishi va birikishi haqidagi qoidalarni o`rgatadi. Grammatika atamasining ikki ma`nosi mavjud .Birinchidan grammatika tilning muayyan tarkibiy qismi -grammatik qurilishini ifodalasa, ikkinchidan shu grammatik

qurilishga xos qoidalarni umumlashtirib, uni ilmiy asosda o`rganuvchi fanni bildiradi.

Tilning grammatik qurilishi grammatikaning tekshirish obektidir. Ma`lumki, har qanday tilning o`ziga xos grammatik qurilishi mavjud bo`ladi. Tilning grammatik qurilishi muayyan tilning boshqa tillardan farqlovchi o`ziga xos belgilaridan biridir. Shu boisdan grammatika tilning eng yuqori, oliy shaklidir. Binobarin grammatikasiz fikr ifodalab bo`lmaydi. Tilning grammatik qurilishi o`z -o`zidan vujudga kelmaydi. U nutq jarayonida tilning fonetik valug`viy tomonlari bilan bog`liq holda borliqdagi narsa va hodisalarni umumlashtirish asosida vujudga keladi. Biroq grammatika tilning boshqa sohalariga, chunonchi, lug`at tarkibida ko`ra ham keng qamrovlidir. Chunki grammatikada faqat so`zlar emas , balki ular orasidagi munosabatlar ham ifodasini topadi ya`ni tildagi har bir so`z lug`aviy ma`no ifodalaydi. Biroq bu ma`nolarning o`zi bilan fikr ifodalanmaydi. Ko`rinadiki, so`zlar nutqda grammatik jihatdan shakllangan bo`lsa o`zaro bir-biri bilan bog`lansagina fikr ifodalash uchun xizmat qiladi. Shunday ekan har qanday so`z birikmalari va nutqning asosida so`z yotadi. Shu jihatdan tilning grammatik qurilishi lug`at tarkibi bilan chambarchas bog`langandir.

Grammatika tilning eng oliy ko`rinishi sifatida yakka birliklar asosida emas umumlashmalar asosida vujudga keladi. Masalan, kitob, daraxt, bola, talaba, gul so`zlari turli predmetlarning nomini bildiruvchi so`zlardir. Biroq ular grammatikada bir grammatik kategoriya -ot turkumidir. Bu holat grammatik umumlashmadir. Shu asosida grammatika tildagi so`zlar uchun umumiy bo`lgan hodisalarni o`rganish asosida ularni muayyan tizimda birlashtiradi. Ikkinchidan grammatikadan tashqarida so`zlar til uchun oddiy material, ular grammatik munosabatlar asosida birikadi. Demak, grammatika tildagi lug`aviy materiallarni ma`lum maqsadlarga ko`ra ishlatish vazifasini ham bajaradi.

Tilning grammatik qurilishining muhim xususiyatlaridan biri uning takomillashib o`zgarib borishidir. Bunday o`zgarishlar jamiyat taraqqiyotidagi ob`ektiv qonunlar asosida vujudga keladi. Ammo tilning grammatik qurilishi til uchun umumiy bo`lgan normalarga qoidalarga bo`ysinadi. Masalan, adabiy tilda eganing gapning birinchi qismida kelishi yoki aniqlovchining aniqlanmishdan oldin kelishi: keng dala, moviy ko`l, ulkan tog`, qaratqich bilan qaratmishning shaxs va sonda moslashib kelishi: mening do`stim, uyning eshigi, kitobining varag`i -til normalari asosidagi hodisalardir. Bu normalar grammatikada ham grammatik qurilishga xos qonun qoidalar asosida o`z ifodasini topadi.

So`zlar ob`ektiv bog`liqdagi narsa va hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalaydi. Bunday tushunchalarning ifodalanishi so`zning lug`aviy ma`nosidir. Masalan, paxta so`zi asosida oppoq, yumshoq predmetni tushunilishi shu so`zda mavjud bo`lgan lug`aviy ma`nodir.

So`zlar lug`aviy ma`no ifodalashiga ko`ra tilda o`ziga xos mustaqillikka ega bo`lgan, lug`aviy jihatdan shakllangan birliklardir. Lug`aviy ma`no so`zlarning birlamchi, asosiy, nitqdan tashqaridagi ma`nosi bo`lib, shu ma`no orqali so`zlar narsa -hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalaydi. Tushuncha esa narsa -hodisalarning kishi ongida aks etishidir. So`zlar lug`aviy ma`nosiga ko`ra leksikalogiyaning tekshirish ob`ektidir.

Nutqda so`zlar faqat lug`aviy birlik bo`lib qolmaydi, balki nutq vositasiga aylanadi, ya`ni o`zaro birikadi, bog`lanadi. Bu jarayonda so`zlar turli qo`shimcha ma`nolarni ifodalaydi. Turli munosabatlarni bildiruvchi bunday ma`nolar lug`aviy ma`nodan tashqaridagi qo`shimcha grammatik ma`nodir.

Grammatik ma`no so`zning shakliy ma`nosidir. Masalan, kitoblar so`zida grammatik ko`plik ma`nosi mavjud bo`lsa, kitobning so`zida kelishik ma`nosi mavjud. Grammatik ma`no o`zaro munosabatlarni ifodalashi bilan birga so`zlar uchun umumiy bo`lgan ma`nolarni ham o`zida birlashtiradi. Masalan, biz a`lo o`qish uchun harakat qilamiz gapidagi egalik, shaxs-son va zamon ma`nolari munosabatni anglatsa,kitobning, uyga, darsdan so`zlaridagi qo`shimchalar ushbu so`zlar uchun umumiy ma`no -kelishik ma`nosidir. Lug`aviy ma`noga qo`shimcha ravishda bu xildagi turli ma`nolarni ifodalanishi grammatik ma`no deyiladi.

Grammatik ma`no umumiydir. jumladan, otlardagi egalik, kelishik, ko`plik ma`nolari grammatik ma`nolardir. Grammatik ma`nolarni hosil qiluvchi turli isullar mavjud:

1.Qo`shimchalar. So`zlarning o`zak va negiziga turli qo`shimchalar qo`shishi orqali grammatik ma`no hosil bo`ladi. Masalan, kitoblar, bolalar, uydan, ishdan, ishga oq yozish kabi.

2.Yordamchi so`zlar. Yordamchi so`zlar, asosan, ko`makchilar mustaqil so`zlar bilan birikib grammatik ma`no ifodalaydi. Masalan: Otabek Rahmatning bu so`zini samimiyat bilan qarshi oldi. (A. Qod).

3.So`z tartibi. So`zlarning gapda o`rin almashuvi grammatik ma`no ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, uzoqdan katta uy ko`rindi, -uy uzoqdan katta ko`rindi.

4.So`zlarni takrorlash. Nutqda so`zlarni takror holda ishlatish orqali grammatik ma`no hosil bo`ladi. Olcha va shaftolilar g`ij -g`ij, shoxlarining boshlari erga (O.)

5.Ohang. Gap yoki so`zlarni turli ohanglarda aytilishi ham grammatik ma`no ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Fotima keldi. (darak gap) Fotima keldi? (so`roq gap), Fotima keldi ! (his -hayajon gap).

6.So`zlarni juftlash. So`zlarni juftlash ham grammatik ma`no hosil qiladigan vositalardandir. Masalan, katta -kichik, yaxshi -yomon kabi
so`zlarning juftlanishi natijasida kattalar ham kichiklar ham, yaxshilaru yomonlar ham, xullas, hammaning ifodalanishi ham grammatik ma`nodir.

So`zning o`z lug`aviy ma`nosini yo`qotmagan holda turli shakllarda qo`llanishi so`zning grammatik shaklini tashkil etadi .Masalan. kishining, kishiga, kishilar. Grammatik shakl ma`no ifodalash uchun xizmat qiluvchi muhim qismdir. Masalan,keldi, yozdi so`zlariga -m, -k qo`shimchalari qo`shilganda birinchi shaxsning birlik va ko`plik ma`nolari anglashilsa shu so`zlarga -ng -ing qo`shimchalari qo`shilganda ikkinchi shaxsning birlik va ko`plik ma`nolari ifodalanadi. Ushbu misollardan ko`rinadiki turli grammatik ma`nolarni ifodalashda shakl asos bo`lib xizmat qiladi.

Grammatik shakl nutqdagi so`zlarning bir -biriga turli munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, kitobning varag`i birikmasida tobelik ma`nosi mavjud bo`lsa, ota va bola birikmasida tenglik ma`nosi mavjud.

Grammatik shakl so`zning lug`aviy ma`noli qismi orqali, shuningdek, unga qo`shiladigan grammatik ma`no orqali hosil bo`ladi. Demak, so`zlar nutqda

yo lug`aviy ma`no ifodalash shaklida, yoki grammatik ma`no ifodalash shaklida qo`llaniladi.

So`zlarning lug`aviy ma`nosi bilan birgalikda nutqdagi boshqa so`zlarga munosabatini ifodalaydigan qo`shimcha ma`noga mos holati so`zning grammatik shakli deyiladi.

So`zning grammatik shakli ikki xil:

a) so`zning modal shakli; b) so`zning so`z o`zgartirish shakli.

Lug`aviy ma`noga mos keladigan, turli munosabatlarni ifodalaydigan shakl so`zning modal shaklidir. Masalan, bola-bolalar (birlik va ko`plik) ,qush - qushcha (kichraytish), o`qi (aniq nisbat), o`qit (orttirma nisbat) shakllaridir.

So`z o`zgartirish shakli grammatik munosabatlarni vujudga keltiruvchi shakldir. Bu shakl nutqda so`zlarning o`zaro munosabatlarini (bog`lanishini) ifodalaydigan shakldir. Masalan, Kumushning bu holi bechora onaning yuragini ezar!(A. Qod.) gapidagi -ning,-ni so`z o`zgartruvchi qo`shimchalar so`zlarning birikishi uchun muhim vazifa bajaradi.

So`zning grammatik shakllari tuzilishiga ko`ra uch xil: sintetik shakl analitik shakl, aralash (analitik -sintetik) shakl. Grammatik ma`noning qo`shimchalar orqali ifodalanishi sintetik shaklni vujudga keltiradi. Sintetik shakl so`z o`zgartruvchi qo`shimchalar orqali: kitobni (o`qidim), kitob-dan o`qidim, hamda shakl yasovchi qo`shimchalar orqali: ko`kish, ko`kroq, ko`kimtir hosil bo`ladi.

Mustaqil so`zlarning yordamchi so`zlar bilan birgalikda ishlatilishi analitik shaklni hosil qiladi.Masalan, qalam bilan, bog` tomon, uy sari kabi. So`zlarni takrorlash bilan hosil bo`ladigan shakl ham analitik shakldir: uyum - uyum, baland-baland, uzun-uzun.

Ham qo`shimchalar , ham yordamchi so`zlar orqali ifodalanadigan shakl aralash shakl hosil qilad. Uyga tomon, yo`lga qadar, toqqa tomon kabi. Nutqda so`zlar biror maxsus shaklni olmagan holda ham qo`llaniladi. O`zaro zich bog`lanib, bir xil grammatik ma`no ifodalaydigan shakllar yig`indisi grammatik kategoriya deyiladi. Masalan, egalik, kelishik, son kategoriyalari ot turkumiga, shaxs -son, nisbat, mayl kategoriyalari fe`l turkumiga xos grammatik kategoriyalardir. Grammatik kategoriya atamasining ikki ma`nosi mavjud. So`zlarning lug`aviy -grammatik jihatdan turkumlarga ajratilishi, so`zlarni kategoriyalarga bo`lish-grammatik kategoriyadir. Shu bilan birgalikda muayyan turkumning o`ziga xos shakllari, jumladan, otlardagi egalik - grammatik kategoriyadir.

Nazorat uchun savollar:

75

1. *Morfema nima ?*
2. *So`zlar morfologik jihatdan qanday qisimlardan tashkil topgan?*
3. *Qo`shimchalar ma`no va vazifasiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?*
4. *Qanday qo`shimchalar so`z yasovchi qo`shimchalar deyiladi?*
5. *So`z yasovchi qo`shimchalar so`z yasalisdagi darajasiga ko`ra necha xil?*

6. So`z yasovchi sinonim, omonim, antonim qo`shimchalar qaysilar?
7. Shakl yasovchilarning vazifalari nimalardan iborat?
8. Kategorial va nokategorial shakl yasovchilar qaysilar?
9. Qanday qo`shimchalar so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarga kiradi?
10. So`z yasalishi nima?
11. O`zbek tilida so`z yasalishining faol usullari qaysilar?
12. So`zlarning tuzilishiga ko`ra qanday turlari bor?
13. Sintaktik usul bilan qahday so`zlar yasaladi?
14. Morfologiya nimani o`rganadi?
15. Qanday shakllar so`zning morfologik va sintaktik shakli hisoblanadi?
16. Grammatika nimani o`rganadi? U tarkiban qanday qismlardan tashkil topadi?
17. Qanday ma`no so`zning lug`aviy ma`nosi hisoblanadi? Grammatik ma`no-chi?
18. Grammatik ma`noning umumiyligi nimada ko`rinadi?
19. Grammatik ma`no hosil qiluvchi vositalar nimalar?

4-MAVZU
MORFOLOGIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. OT. OTNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. OTNING MA'NO TURLARI. OT TURKUMINING SON KATEGORIYASI; OTLARNING NOKATEGORIAL SHAKLLARI

R E J A:

1. Morfologiya haqida umumiy ma'lumot
2. Ot. Otning leksik-grammatik xususiyatlari. Otning ma'no turlari.
3. Ot turkumining son kategoriyasi; otlarning nokategorial shakllari.

Morfologiya haqida umumiy ma'lumot

So‘zning morfologik strukturasi so‘z formasining yasalishida qatnashadigan komponemtlardan iborat. Masalan, ishlarimizni so‘zining morfologik strukturasi ish+lar+imiz+ni dan iborat. Bunda
Ish - forma yasalish asosi, -imiz-egalik formasini yasovchisi,-ni-kelishik formasini yasovchisi;

Demak, so‘zning morfologik strukturasi forma yasalishida asos bo‘ladigan component bilan forma yasovchi komponentdan (affiks yoki yordamchi so‘zdan) iborat bo‘ladi.Forma yasalishiga asos bo‘ladigan qo‘shma so‘z yoki sodda yasama so‘z bo‘lishi mumkin. Lekin so‘z yasovchi komponentlar so‘zning morfologik strukturasiga kirmaydi.Shunga ko‘ra, terimchilarni so‘zi morfologik nuqtayi nazaridan, terim+chi+lar+ni kabi qismlarga ajraladi. So‘z formasining asosi so‘z birikmasiga teng bo‘lishi ham mumkin;O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi+da.

So‘zning morfologik strukturasi murakkab ko‘rinishda bo‘lishi mumkin, ya‘ni bir so‘z tarkibida birdan ortiq forma yasovchi komponentlar (affiks va yordamchi so‘zlar)ishtirok etishi mumkin. Lekin so‘zning har bir formasini ikki component tashkil etadi; 1)shu formaning yasalishiga asos bo‘layotgan component,

2)shu formani yasovchi component. Masalan, terimchilarni so‘zida tushum kelishigi formasini yasalishi uchun asos bo‘layoygan component(asos) terimchilardir, - ni- tushum kelishigini yasovchi qo‘shimcha. Demak, terimchilarimizni otining tushum kelishigi formasi ana shu ikki komponentdan iborat;

1) kelishik formasining yasalish asosi (terimchilarimiz),

2) kelishik formasining yasovchi affiksi (-ni) .Bu so‘zda ko‘plk formasi uchun asos bo‘layotgan qism terimchidir. –lar esa ko‘lik formasi affiksi . Demak, bu otning son formasining yasalishida ham ikki komponent ishtirok etadi;1) son formasinng yasalishida ishtirok etadigan asos (terimchi);2) son formasini yasovchi affiksi (-lar).

O`zbek tilida so`z turkumlari va ularni ajratish tamoyillari. So`zlar lug`aviy ma`nolari morfologik be`lgilari va gapda bajaradigan sintaktik vazifalariga ko`ra o`zaro farqlanuvchi turli guruhlarni tashkil etadi.

So`zlarning lug`aviy va grammatik jihatdan farqlanishiga ko`ra bunday guruhlarga bo`linish so`z turkumlari deyiladi. Shunga ko`ra, so`zlarni turkumlarga ajratishda quyidagi uch muhim belgi asos bo`ladi.

1. So`zlar ifodalaydigan lug`aviy ma`no turkumlarga ajratishdagi muhim belgidir. Masalan, uy, er, daraxt, kitob, tosh so`zlari borliqdagi predmetlarni anglatadi. Ularning nomi ekanligi bilan xarakaterlanadi.Bir qator so`zlar shu predmetlarning biror belgisini: rangini, shakl-ko`rinishini, mazasini, hajm- o`lchamini ifodalaydi: oq, ko`k, katta, yumaloq, keng, uzun kabi. Shuningdek, bir qator so`zlar predmetning ish- harakatini anglatsa: bordi, yozdi, o`qidi, so`zlar ish-harakat yoki belgining belgisini bildiradi: darrov, sekin, oz, ko`p va boshqalar.

So`z ma`nolaridagi mavjud bu xususiyatlar ularni turkumlarga ajratishdagi asosiy belgidir. Turkumlarga ajratishdagi ikkinchi va uchinchi xususiyat so`zning shu ma`no tomoniga bog`liq ravishda yuzaga keladi.So`z turkumlarini ajratishda morfologik belgi ham muhimdir. Bu xususiyat muayyan so`z turkumlarida maxsus qo`shimchalar tizimi mavjudligini, ularni asosan shu turkumga xoslanganini ko`rsatadi. Masalan, ot turkumi ko`plik , kelishik, egalik, shakllariga ega bo`lganidek, boshqa turkumlardan farqli ravishda ularda kichraytish -erkalash shakllari ham bor. Shunga ko`ra otlar ko`plikda keladi predmetning kimga, nimaga qarashliligini bildiradi, turlanadi. Shuningdek maxsus ot yasovchi qo`shimchalarning mavjudligi, ot turkumi morfologik jihatdan to`la shakllangan turkum ekanligini ko`rsatadi.

Fe`l turkumida morfologik ko`rsatkichlar boshqacha -zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kabi shakllar fe`lning o`ziga xosligini ta`minlaydi. Fe`llar tuslanadi, shaxs va sonni ifodalaydi. Maxsus fe`l yasovchi qo`shimchalarning mavjudligi bu turkumdagi so`zlarning ham turkumlanish uchun to`la shakllanganligini ko`rsatsa fe`lning xoslangan shakllarini hosil qiluvchi qo`shimchalar mavjudligi fe`lning sintaktik vazifasini yana ham kengaytiradi.

So`z turkumlariga ajratishdagi belgilardan biri so`zning gapdagi sintaktik vazifasi bilan bog`liq. Masalan, bosh kelishikdagi ot ega vazifasini bajarsa, qaratqich kelishigidagi ot-aniqlovchi, boshqa kelishikdagi otlar to`ldiruvchi va hol

vazifalarida keladi. Sintaktik jihatdan biror gap bo`lagi vazifasida kelish muayyan so`z turkumi uchun qotib qolgan holat emas.

Chunonchi, sifat gapda aniqlovchi vazifasida kelar ekan. Bu sifatning boshqa sintaktik vazifa bajarmasligini ko`rsatmaydi. Binobarin, sifatlar ham gapda to`ldiruvchi: kattani katta deydilar (Maqol), otlashganda ega: yaxshi eydi oshini, yomon eydi boshini(Maqol) vazifalarida qo`llaniladi.

Ko`rinadiki, so`z turkumlarining sintaktik vazifalari shu turkumdagi so`zlarning lug`aviy ma`nosiga mos holda bo`ladi.Xullas, so`z turkumlarini ajratishda shu uch belgiga tayaniladi. Biroq bu belgilar barcha so`zlarda bir xil emas. Masalan, ot, fe`l turkumlari uchun har uchala belgi etakchi bo`lsa, olmosh va son uchun bu belgilar o`ta past darajada uoki sifat ravishda sintaktik belgi kuchli bo`lganidek, morfologik belgi u darajada emas.

O`zbek tilida so`z turkumlari 12 ta bo`lib ular quyidagi guruhlarga bo`linadi.

1. Mustaqil so`zlar.
2. Yordamchi so`zlar.
3. Modal so`zlar.
4. Undov so`zlar.
5. Taqlidiy so`zlar.

So`z turkumlarining barchasi grammatik shaklga ega, biroq lug`aviy , grammatik ma`nosi va vazifasiga ko`ra turlichadir.

1.So`z turkumlari ma`no ifodalashiga ko`ra quyidagicha:

a) nomlovchi so`zlar: ot, sifat, son, fe`l, ravish.

b) ifodalovchi so`zlar: undov, modal so`z, yuklama, taqlidiy so`z.

d) ko`rsatuvchi so`zlar: olmosh, bog`lovchi, ko`makchi.

2. Morfologik jihatidan o`zgarishiga ko`ra quyidagicha:

a) morfologik jihatdan o`zgaradigan so`zlar : ot, sifat, son,olmosh,fe`l.

b) morfologik jihatdan o`zgarmaydigan so`zlar: ravish, bog`lovchi, ko`makchi, yuklama.

3. Gapda sintaktik vazifa bajarishiga ko`ra quyidagicha:

a) Sintaktik vazifa bajaradigan so`zlar : ot, sifat, son, olmosh,fel, ravish, taqlidiy so`z.

b) Sintaktik vazifa bajarmaydigan so`zlar: ko`makchi, bog`lovchi, yuklama, undov so`z. Modal so`zlar garchand gap bo`lagi bo`lmasada, gapda kirish, so`z vazifasini bajaradi.

Lug`aviy va gramatik ma`noga ega bo`lib, gapda biror gap bo`lagi vazifasini bajaradigan so`zlar mustaqil so`zlar deyiladi.

Mustaqil so`zlarda yuqorida sanab o`tilgan har uch xususiyat u yoki bu darajada mavjud. Masalan, ot va fe`llarda barcha turdagi ( so`z yasovchi, shakl yasovchi, so`z o`zgartiruvchi) qo`shimchalarni olgan holda qo`llanish xususiyati mavjud bo`lganidek, olmosh va sonda bu xususiyatlar deyarli yo`q, yoki mustaqil so`zlardan olmosh lug`aviy jihatdan atama bo`la olmasligi bilan ham ajralib turadi. Ular gapda ot, sifat, son o`rnida qo`llanib, narsa- hodisaning nomi, miqdori belgisi bo`lmaydi. O`zbek tilida mustaqil so`zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe`l, ravish.

Lug`aviy ma`noga ega bo`lmagan, so`z va gaplarni o`zaro bog`lash, ularga qo`shimcha ma`no berish uchun ishlatilib, gapda biror gap bo`lagi vazifasida

qo`llanilmaydigan so`zlar yordamchi so`zlar deyiladi. Yordamchi so`zlarga ko`makchi, bog`lovchi ,yuklama kiradi.

Yordamchi so`zlar lug`aviy ma`no anglatmaydi.Masalan, uchun, ammo, sayin, bilan, va deganda hech narsani tushunmaymiz. Biroq, til tizimida bu so`zlarning ham o`ziga xos o`rni bor. Binobarin, ular so`z va gaplarni o`zaro munosabatlarini uyushtiradi (ko`makchi ), so`z va gaplarni o`zaro bog`laydi (bog`lovchi), so`zlarga, ba`zan gapga qo`shimcha ma`no beradi (yuklama).

Shunga ko`ra yordamchi so`zlar ham til tizimidagi o`ziga xos xususiyatlari mavjud bo`lgan so`zlardir.

Modal so`zlar. So`zlarning fikrga yoki fikrning borliqqa bo`lgan munosabatini ifodalaydi. Garchand, modal so`zlar lug`aviy ma`no bildirmasa-da, turli modal ma`nolarni: tasdiq, inkor, taxmin, gumon ma`nolarini ifodalaydi.Gapda esa kirish so`z, yoki kirish gap vazifasida keladi.

Modal so`zlar ma`no ifodalashi (modal ma`no bo`lsa ham), gapda vazifa bajarish (kirish so`z bo`lsa ham) jihatidan yordamchi so`zlardan alohida ajratib tursa- da, gap bo`lagi bola olmasligi jihatidan yordamchi so`zlarga yaqindir.

Undov so`zlar so`zlovchining his -tuyg`ularini ifoda etadi. Ular buyruq- xitob, haydash -chaqirishning atamasi bo`lmasa ham ularning ifodasi bo`la oladi.Masalan, oh, uf, e, eh undovlari zavqlanish, charchaganlik, ajablanish, hayratlanish, kabilarni anglatsa, kisht, pisht, esa haydashning ifodasidir.

Taqlidiy so`zlar tovushga, sharpaga bo`lgan shartli taqlidni anglatadi.Taqlid asosida kishida tushuncha hosil bo`ladi. Masalan, taqir-tuqur, gup-gup, g`uj-g`uj so`zlari kishi ongida qandaydir tushunchalarni olib keladi. Ular gapda biror gap bo`lagi vazifasida keladi. Umuman, undov va taqlidiy so`zlar ayrim xususiyatlariga ko`ra mustaqil so`zlarga yaqin.Shuning uchun bu so`zlar gap bo`lagi vazifasida ham., o`zi mustaqil so`z-gap shaklida ham keladi. Biroq bu so`zlarda mustaqil so`zlardagidek xususiyatlar to`la shakllanmagani holda yordamchilarga hos belgilar ham mavjud.

Ot. Otning leksik-grammatik xususiyatlari. Otning ma’no turlari.

Predmetning nomini (keng ma'noda) bildiruvchi mustaqil so'z turkumiga ot deyladi. Ot so'z turkumiga oid so'zlar kim? Nima? Kimlar? Nimalar? so'rog'laridan biriga javob berad:

Yer, quyidagi leksik-semantik xususiyati:

1)Keng ma'noda predmet ma'nosini ifoda etish otning leksik xususiyatidir. Predmet ma'nosini tirik mavjudotlar (parranda, qush, chumoli kabilar), yer va osmonga, kundalik turmushga oid narsalarning nomi (quyosh, oy, tog', tosh, daryo, tuz, non, choynak, qoshiq kabilar), o'simliklarning nomi (paxta, sholi, jo'xori, beda kabi), voqea-hodisalarning nomi (to'y, anjuman, majlis, shodlik, ishonch, kurash) o'rin vaqt nomlari (yoz, kuz, pastlik, tepalik), atab qo'yilgan shaxs va predmetlarning nomi (Toshkent, Zulfiya, Sirdaryo, «O'qituvchi» nashriyot kabi) ifoda etadi.

Shunga ko'ra otlar ma'no jihatdan 2 turga bo'linadi: atoqli va turdosh otlar. Samarqand, Akmal. «Qora ko'zlar» (roman), «Fan» (nashriyoti)-atoqli otlar. Kitob, daftar, kulgi, tinchlik, turdosh otlar.

Otning morfologik xususiyatlari:

1)Ot son kategoriyasiga ega, ya'ni predmet anglatuvchi so'zlar birlik va ko'plik sonda qo'llanadi.

2)Ot egalik kategoriyasiga ega, ya'ni predmetning (keng ma'noda predmetlik tushunchasi: shaxs voqea-hodisa va b) uch shaxsdan biriga taaluqligini, qarashliligini, mansubligini bildiradi: menning daftarim, sening ukang, uning quvonchi kabi

3)Ot kelishik kategoriyasiga ega. Otlar oltita kelishik ma'nosiga ega bo'lib, kelishik qo'shimchalari otning otga yoki otning fe'lga tobeligini ifodalaydi: bosh kelshik-kitob, qaratgich kelishik-kitobning., tushum kelishigi-kitobni, jo'nalish kelishigi-kitobga, o'rin-payt kelishigi-kitobda, chiqish kelishigi-kitobdan. (Zulfiyaning kitobi, kitobni sevadi) kabi.

4) Ot so'z yasalish xususiyatlariga ega. Ot va so'z turkumi faol so'z yasalish usullari morfologik, sintaktik; shuningdek faqat ot so'z turkumini yasaydigan abbrevasiya usuli bilan yasaladi: xizmatchi, kulgi, taroq, gulzor, quvonch (morfologik usul bilan); belbog', ko'zoynak, baxt-saodat, ota-ona (sintaktik usul); DAN, ToshDPU (abbreviasiya usuli bilan)

4)Otlarda modal forma yasalishi ham mavjud. Otlarda modal ma'no otning leksik ma'nosiga kichraytirish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik, kesatiq kabi qo'shimcha ma'nolarni qo'shish bilan hosil qilinadi: qizcha, qo'zichoq, bo'taloq, bolagina, Karimjon, Ra'noxon, un-pun, non-pon kabi.

Ot quyidagi sintaktik xussuiyatlarga ega:

1)ot ot bilan bog'lanadi. Bosh va qaratgich kelishigidagi otlar ana shunday xususiyatga ega:

2)ot fe'l bilan bog'lanadi. Tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi otlar fe'l bilan bog'lanadi: xatni o'qidi, xatga qaradi, xatda yozilgan kabi;

3)ot ba'zan sifat, ravish, son, olmosh, undovga ham bog'lanadi: osmon tiniq, uylar ko'p, maqsadim shu kabi

4)bosh kelishik shaklidagi ot gapdaega, kesim, sifatlovchi kabi gap bo'laklari vazifasida; undalma, nomenativ gap bo'lib keladi.

Masalan: O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat (I.Karimov). Olim kishi o'zining ilmi va odobiga tayanadi. (Oz-oz o'rganib dono bo'lur). Seni ulug'layman, ey ona xalqim (A.O.) Subhidam. Quyosh yotog'idan bosh ko'tardi. (P.Q.)

5)Qaratgich kelishigidagi ot qaratuvchi-aniqlovchi vazifasida keladi; Sen Pushkinning sevgan malagi (A.O.)

6) Tushum, jo'nalish, o'rin-prayt va chiqish kelishigi shaklidagi otlar to'ldiruvchi, hol, ba'zan kesim vazifasini bajaradi.

Masalan: Bayramni munosib mehnat tortiqlari bilan nishonlashdi. (S.A.) Bog'chada daraxtlar oltin rang bilan tovlanardi. (O) Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda (Maqol)

Otning ma'no turlari.

Otlar ma'no jihatdan ikki turga bo'linadi: turdosh otlar va atoqli otlar:

Turdosh otlar. Bir turdagi predmetlarning, hodisalarning umumlashtiruvchi nomi turdosh ot deyiladi: stol, kitob, tanbur, baxt, kulgi, anjuman kabi. Turdosh otlar atoqli otlarga qaraganlar ko'p miqdorni tashkil qiladi. Turdosh otlar kichik

harf bilan yoziladi.

Atoqli otlar. Bir xildagi predmet (shaxs) yoki hodisalardan birini ayirib ko'rsatadigan otlar atoqli otlar deyiladi.

Atoqli otlar atab qo'yilgan nomlarni ifodalaydi. Atoqli otlarga quyidagilar kiradi:

1. Kishilarning ismi va familiyalari: Murod, O'ktam, O'tkir, Maxmudjon, Axmedov
2. Yozuvchi va shoirlarning taxalluslari: Oybek, Uyg'un, Muqimiy, Furqat
3. Uy havonlariga atab qo'yilgan nomlar: Lopar, To'rtko'z, Mosh
4. Planeta, yulduz va sayyoralarning nomlari: Yer, Zuhar, Yetti qaroqchi, Mirrix
5. Geografik nomlar (shahar, qishloq, tog', daryo, ko'l, cho'l, qit'a nomlari): Toshkent, Marg'ilon, Chotqol, Pomir, Ohangaron, Chirchiq, Osiyo.
6. Oliy Davlat va yuqori tashkilotlarning nomlari: O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Oliy Kengashi
7. Ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari, vazirliklar va korxonalar nomi: Paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti, O'rta Osiyo Ipakchilik ilmiy-tekshirish instituti, Toshkent davlat pedagogik universiteti, Moliya vazirligi, Davlat banki
8. Yuqori mansab, oliy faxriy unvon nomlari: O'zbekiston Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi raisi, Bosh Qo'mondon.
9. Turli anjuman, xujjat va rezolyusiyalar, tarixiy sanalar, voqealar nomi: Ulug' Vatan urushi, Mustaqillik kuni, Toshkent anjumani.
10. Fabrika, zavod, jamoa xo'jaligi, sport jamiyatlari, kino, teatr, kitob, gazeta, jurnal, nomlari: «Sharq yulduzi» xo'jaligi, «Qutlug' qon» romani, «Ma'rifat» gazetasi, «Yosh kuch» sport jamiyati, «Guliston» jurnali

Atoqli otlar ko'plikda qo'llanilmaydi.

Turdosh otlarning turlari.

Turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xususiyatiga ko'ra aniq (konkret) va mavhum (abstrakt) otlarga bo'linadi.

Aniq otlar bevosita predmetni ifoda etadi: uy, shaxar, talaba, eshik. Aniq otlar ifoda etgan predmetni donalab sanash mumkin: ikkita uy, o'nta shahar, beshta talaba kabi. Shuningdek, ko'plik ma'nosini -lar qo'shimchasini qo'shish bilan anglata oladi: uylar, shaharlar, talabalar, eshiklar kabi.

Mavhum otlar predmet sifatida tasavvur qilinadigan noaniq, mavhum, tushunchani ifodalaydi: yaxshilik, baxt, sog'inch, ёg'ingarchilik va boshqalar.

Mavhum otlar donalab sanalmaydi va -lar qo'shimchasi vositasida ko'plik ma'nosi ifodalamaydi.

Turdosh otlar shuningdek, birlik shaklda yakka bir predmetni ifoda etadi. Turdosh otlar shu xususiyatga ko'ra yakka va jamlovchi otlarga bo'linadi.

Yakka otlar birlik shakldagi predmetlardan bittasini yakkalab, ajratib ko'rsatadi: stol, kitob, qalam, uy chamadon. Grammatik jihatdan -lar ko'plik qo'shimchasini olib, ko'plik ma'nosini ifoda eta oladi.

Jamlovchi otlar birlik shakldagi bir xil predmet otlarning to'dasini, jamini anglatadi: xalq, armiya, gala, to'da, poda, ozchilik, ko'pchilik. Demak, jamlovchi

otlar grammatik jihatdan birlik shaklda bo'lsa ham, ma'no jihatdan ko'plikni ifodalaydi.

Narsa-buyum, shaxslarning nomi, atamasi bo‘lgan so‘zlar turkumi ot deyiladi. Otlar kim? nima? qayer? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Otlar egalik, kelishik kabi so‘z o‘zgartirish, turli ma’no va vazifa uchun qo‘llanuvchi vazifadosh shakllarga hamda o‘ziga xos so‘z yasalish tizimiga egaligi bilan ajralib turadi.

Otlarning muhim belgilaridan biri ularning sifat, son, olmosh, fe’l va ravish distributsiyasida kelishi, ya’ni ular bilan birika olishidir: *katta bino, ikkinchi kurs, barcha inson, kitob o‘qimoq, ko‘p odam.*

Ot gapning barcha gap bo‘lagi vazifasida qo‘llanishi mumkin. Otning bu kabi sintaktik vazifasi uning qanday grammatik shakldaligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, otning bosh shakli, ya’ni bosh kelishik, ko‘plik yoki birlik hamda egalik shakli gapda ega, Kesim kabi vazifada keladi: ***O‘zbekiston****-mustaqil davlat. Millatim-****o‘zbek. O‘zbekistonim-onajonim.***

Mustaqil so‘zlar ot turkumiga munosabati nuqtai nazardan ikki guruhni tashkil etadi: 1) ot tipidagi so‘zlar. Bu guruhga otlar kabi kim? nima? so‘rog‘iga javob bo‘lib, otga xos grammatik shakllarda bevosita qo‘llana oladigan olmoshlar (*men, sen, biz, har kim, nimadir*), jamlovchi sonning *–ov, -avlon* affiksli turi (*ikkov, ikkavlon*), fe’lning harakat nomi shakli (*o‘qish, yozuv*) kiradi; 2) otlashuvchi so‘zlar. Bu guruhga grammatik son, egalik, kelishik shakllaridan birida qo‘llanilib, muayyan matn doirasidagina ot vazifasida ishlatlishi mumkin bo‘lgan sifat, son va ular o‘rnida qo‘llanadigan olmoshlar (*qanday, qancha, nechta*), ba’zi bir ravishlar, fe’lning sifatdosh shakli kiradi.

Ot turkumining son kategoriyasi; otlarning nokategorial shakllari.

Otlarning birlik va ko`plik shakllarida ishlatilishi grammatik son kategoriyasi deyiladi.Son kategoriyasi otlarning muhim morfologik belgilaridan bo`lib birlik va ko`plik shakllari asosida son kategoriyasi vujudga keladi. Otlarning birligi biror vositasiz ifoda etiladi. Ya`ni otning ko`plikni bildiruvchi -lar qo`shimchasi mavjud bo`lmagan holati birlikdir: kiyim, uy, ovqat, o`quvchi, kitobxon, murabbiy kabi.

Otlarning ko`pligi -lar qo`shimchasi bilan ifodalanadi: o`quvchilar, kitoblar kabi. Ko`plikning -lar qo`shimchasi orqali ifodalanishi morfologik usul bilan ifodalangan ko`pliklir. Bundan tashqari otlarda ko`plikni hosil qiluvchi boshqa vositalar ham mavjud. Chunonchi, el, olomon, xalq kabi o`zi birlikda bo`lib , mazmuman ko`plikni bildiradigan so`zlar ham mavjul. Bunday ko`plik lug`aviy - semantik usul bilan hosil bo`lgan ko`plikdir.

Otlarning ko`pligi miqdor bildiruvchi so`zlarni otlardan oldin keltirish bilan ham hosil bo`ladi: ko`p odam, bir talay ish, bir necha kun kabi. Ko`plikning bunday ifodalanishi sintaktik usul bilan ifodalangan ko`plikdir. Sintaktik ko`plik otlardan oldin sonlarni: o`n kishi, yuz xonadoni, olmoshlarni qancha ish, shuncha odam, necha kun keltirish bilan ham hosil bo`ladi. Masalan, Ikromjon qishloqda shuncha odam borligini bilmas ekan .(S.A.)Shuningdek, ot oldidan so`zlarni takrorlash orqali ham sintaktik ko`plik hosil bo`ladi: savat -savat meva, uzoq-uzoq

yo`l. Otasining har qadamida allaqanday kishilar bilan uzoq-uzoq so`zlashuvidan zerikardi. (A.Q.)

Lug`aviy -semantik va sintaktik usul blan ifodalangan ko`plik so`zning morfologik tuzilishi bilan bog`lanmagan holda, morfologik ko`plik so`zning tuzilishi bilan bog`liq. Shuning uchun -lar qo`shimchasi bilan hosil bo`ladigan ko`plik so`zlarning ma`no xususiyati bilan bog`liqdir. Shu bilan birgalikda –lar qo`shimchasi o`zbek tilida ko`plikni hosil qiluvchi etakchi vositadir. Biroq, bu qo`shimcha barcha otlarga qo`shilavermaydi, yoki qo`shilganda ham doimo ko`plik ma`nosini ifoda etavermaydi.

-- lar qo`shimchasining barcha otlarga qo`shilmasligi hamma otlarning ham grammatik ko`plikda qo`llana olmasligini ko`rsatadi. Chunonchi, donalab sanalmaydigan otlarga -lar qo`shimchasi qo`shilganda ko`plikni emas, balki narsa-predmetning turini xilini anglatadi. Shunga ko`ra -lar qo`shimchasi ko`plikdan tashqari yana quyidagi ma`nolarni ifodalaydi.

1. Donalab sanab bo`lmaydigan predmet nomlariga qo`shilganda ularning turli- tumanligini, har xilligini bildiradi: tuzlar, sutlar, bug`doylar, yog`lar, unlar, qirqmalar (qovun turi). Tilimi tilingni ming tilim qilgan, Qirqmalar bog`ladi yukin qovg`aga .(G`. G`.)
2. Mavhum otlarga qo`shilganda, shu otdan anglashilgan ma`no kuchayadi. Masalan, Ming turlik xayollarga borib qaytdi .(A.Qod.) Qizlar undan-bundan uzoq gaplashidi, orzularga berilishdi.(O.)
3. Predmetlarning noaniq bo`lgan ko`p miqdorini ifodalaydi. Suhbatlar goh qizib, goh davom etardi . (O.)Biz bo`lajak adiblar, turmushning botqoq erlarinigina emas, undan chiqish yo`llarini ham ko`rsatishimiz mumkin. (A.Q.)
4. Qarindoshlik ifodalovchi otlarga egalik qo`shimchalaridan keyin qo`shilib hurmat ma`nosini ifodalaydi: otamlar, onamlar kabi.
5. Shaxsni anglatuvchi so`zlarga qo`shilib, piching, kesaatish va hurmat ma`nolarini anglatadi. O`zimning bu xizmatim evaziga bir mukofat olish muddaosida bo`lmaganimdan va nimaiki janoblari yo`lida mashaqqat chekkan bo`lsam.. (A.Qod.) Yangi podsho Nizomiddin hazratlarining el-yurtga osh berishi va ochlarga non ulashishi haqidagi xabarni butun shaharga tarqatdilar. (P.Q.)
6. Payt, vaqt bildiruvchi so`zlarga qo`shilib, taxmin ma`nosini ifodalaydi.Masalan, Shu gapdan bir hafta chamasi keyin va chorlar kutishning beshinchi kunlari edi.(A. Qod.)
7. Juft predmetlarni bildirgan so`zlarga qo`shilganda ko`plikni emal, balki ularning ikkitaligini ta`kidlash ma`nosini ifodalaydi: ko`zlar, quloqlar, qoshlar, lablar, torlar kabi. Masalan, Tanburning mo`jizakor torlaridan quyilgan musiqa mavjud havoni to`ldirdi. (O.) Beka begimning ko`zlaridagi tikanlar sal kamayganday bo`ldi. (P.Q.)
8. Kishi organizmi a`zolariga qo`shilganda ta`kid kuchayadi: yuraklar, tillar, burunlar.
9. Atoqli otlarga qo`shilganda umumlashganlik, o`xshaganlik ma`nolari anglashiladi. Ajoyib naslsiz sizdagi talant, Amular, Sirlarning mazmunidan mo`l. (G`.G`.)

10. Aniq va mavhum otlarga qo`shilib, hurmat -izzat ma`nolarini ifodalaydi. Xotiralariga malol kelmagay, hazrat.(O.) Qadamlariga hasanot, ko`p xursand bo`ldik .(O.)

Nazorat uchun savollar:

1. *Grammatikaning tarkibiy qismlari haqida gapiring. Uning o‘rganish obyekti nimalardan iborat.*
2. *Grammatika va milliy mafkura mutanosibligi haqida fikr bildiring.*
3. *An`anaviy va zotiy yondashuvda grammatikaga qarash. Ularning farqli va o‘xshash tomonlari.*
4. *Morfologiya va sintaksis sathlarining bog‘ligini misollar asosida ko‘rsatib bering.*
5. *Morfemika-morfonologiya fanining o‘rganish obyekti haqida gapiring.*
6. *So`z turkumlari qanday belgilarga ko`ra ajratiladi?*
7. *Ot turkumining o`ziga xos muhim xususiyatlari nimalarda ko`rinadi?*
8. *Qanday otlar atoqli otlar hisoblanadi?*
9. *Turdosh otlarning qayhay turlari mavjud?*
10. *Grammatik son kategoriyasi nima?*

II SEMESTR
1-MAVZU
OTLARNING ALOQA-MUNOSABAT KATEGORIYALARI. OTLARNING YASALISHI; OTLARNING TUZILISH JIHATDAN TURLARI
R E J A:

1. Otlarning aloqa-munosabat kategoriyalarining o‘ziga xosligi
2. Otlarning yasalishi
3. Otlarning tuzilish jihatdan turlari

Otlarning aloqa-munosabat kategoriyalarining o‘ziga xosligi

Predmet yoki predmetlik tushunchalarining uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini ifodalovchi shakllar egalik kategoriyasi deyiladi. Otlardagi egalik uch shaxsni, birlik va ko`plikni ifoda etadi.O`zbek tilida egalik ma`nolari morfologik va sintaktik usullarda ifodalanadi.

So`z o`zak, negiziga maxsus qo`shimcyalar qo`shish orqali egalikning hosil bo`lishi morfologik usul bilan ifodalanishdir. Predmet, narsa-hodisani uch shaxsdan biriga qarashliligini belgilaydigan qo`shimchalar egalik qo`shumchalari deyiladi.

Egalik qo`shimchalari predmetning shaxsga yoki predmetga qarashli ekanligini ko`rsatib, shaxs va son ma`nolarini ham ifodalaydi. Egalik qo`shimchalari so`zning qanday tovush bilan tugashiga ko`ra ikki shakllidir.

Egalik qo`shimchalarining III-shaxsli ko`pincha birlik va ko`plikda farqlanmaydi. Masalan, uning kitobi, ularning kitobi. Ba`zan III shaxs ko`plikda -lar qo`shimchasi ham qo`llaniladi: ularning ishlari kabi So`zlarga egalik qo`shimchalari qo`shilganda, ko`pgina so`zlar o`zagida o`zgarish bo`lmasa-da, ayrim so`zlarning o`zagida o`zgarish yuz beradi.Masalan, aka, uka, daftar, gul so`zlariga egalik qo`shimchalari qo`shilganda (akam, gulim) o`zak aslidagidek qoladi. Biroq og`iz, burun, ko`ngil, singil, qishloq so`zlariga egalik qo`shimchasi qo`shilganda o`zakda o`zgarish bo`ladi: og`zim, burnim, ko`nglim, qishlog`im kabi.

Egalik qo`shimchasini olgan so`zlar boshqa so`zlar bilan quyidagicha birikadi.Egalik qo`shimchasini olgan ot ko`pincha qaratqich kelishigidagi ot yoki otlashgan so`zlar bilan bog`lanadi. Shu boisdan egalik qo`shimchasini olgan so`zning kelishikli so`zga qarashli ekanligi ifodalanadi. Egalik qo`shimchasining qaratqichli so`z bilan bog`lanishi juda ko`p uchraydigan holatdir. Bu navning ahamiyatini hozir aniq baholash qiyin, albatta (O`. U.) Movarounnahrda esa Shayboniyzodalarning hokimiyati parcha- parcha bo`lib zaiflashib bormoqda. (P.Q.)

Egalik qo`shimchalarini qaratqich kelishigi qo`shimchasini olgan ot bilan birikishi, shu qo`shimchalarni ifoda jarayonini kengaytiradi. Zero, egalik qo`shimchalari faqat tegishlilik, mansublik ma`nolarini bildiradi.Masalan, ish joyi, bahor payti, kuz havosi kabi birikmalarda mansublik ma`nosi mavjud bo`lsa, maktabning bog`i, Alining ukasi kabi birikmalarda qarashlilik ma`nosi mavjud.

Egalik qo`shimchasining ko`proq qaratqichli so`z bilan birga qo`llanishi egalik vositalari hamda qaratqich kelishigining o`zaro bog`liqligini ko`rsatadi. Qaratqich va egalik qo`shimchalarini olgan so`zlar: mening o`rtog`im, mening o`rtoqlarim tipida qaratqich va qaralmish birlikda, qaratqich birlikda, qaralmish ko`plikda yoki ularning o`rtog`i tipida, qaratqich ko`plikda, qaralmish birlikda kelishi mumkin.

Egalik qo`shimchalarini olgan so`z son, ot, sifat yoki olmoshdan so`z bo`lsa chiqish kelishigi qo`shimchasini olgan so`z bilan birikadi: talabalardan biri, yaxshisidan yaxshisi, hunarmandlardan ko`pi kabi. Bundan tashqari egalik qo`shimchasini olgan so`z bosh kelishikdagi so`z bilan birikadi. Bu xildagi birikshida ham qarashlilik ma`nosi ifodalanadi. Masalan, Kampir qiziga javob topolmadi, allanimalar deb ko`ngillab savatdagi zog`oralarni yoyib qo`ydi-da, oshxona yig`shtirgani ketdi.(O.) Qarashlilik ma`nosi ifodalanmaydi: Tuhmat balosidan meni faqat Humoyun hazratlari qutqargaular, - dedi-yu, Agradan qochib chiqdi.(P.Q.)Egalik qo`shimchalari shaxs ma`nosini ham, son ma`nosini ham ifodalaydi. Egalik qo`shimchalarining shaxs ma`nolari birlik va ko`plikda bir xil: -m, -ng, -i (-si)qo`sjimchalari shaxs ko`rsatkichlaridir. Masalan, akam, akang, akasi so`zlarida har uchala shaxs ifodalangan . Bu qo`shimchalar uchta shaxsda birlik va ko`plikni ifodalash uchun asos bo`lsada, shaxs qo`shimchalarining o`zi ko`plikni ifodalay olmaydi. Ko`plikni ifodalash uchun shaxs qo`shimchalariga kop`lik ifodalovchi -iz son qo`shimchasi qo`shiladi. Masalan, aka+m-iz, aka-ng-iz kabi.

Egalik qo`shimchalarining I, II shaxslari ko`p jihatdan bir-biriga mos, III shaxs esa farqlanadi. Masalan, son qo`shimchalari I, II shaxsda bir bo`lsa, (-iz) III shaxsda boshqachadir (-lari).

Shuningdek, egalik qo`shimchalari I, II shaxsda predmet, narsa-hodisaning kimga, nimaga tegishli ekanligini aniq ko`rsatib turadi: kitobim, kitobing kabi. Bu xildagi ifodalarda qaratuvchi shaxslar (men, sen) aniq. III shaxsda esa qaratuvchi shaxs u olmoshi bilan ham, boshqa kishi otlari bilan ham ifodalanadi: uning kitobi-Nafisaning kitobi kabi.

I, II shaxs egalik qo`shimchalari predmetni, narsani shaxsga tegishli ekanligini ifodalaydi: akam, akang kabi. Predmetning shaxsga tegishli ekanligi III shaxs egalik qo`shimchasi orqali ham ifodalanadi: akasi kabi.

Shu bilan birgalikda III shaxs egalik qo`shimchasi ko`proq shaxsga tegishli bo`lmagan narsa predmetlarni ifodalaydi. Masalan, kitobning varag`i, maktabning bog`i kabi.

Egalik qo`shimchalari ko`plik ifodalovchi -lar qo`shimchasidan keyin qo`shiladi.

Ishxona rahbarlari to`yxonaga ancha barvaqt borishdi. Osmon xuddi tomlarga tegib turganday (A.Q.)

O`zbek tilida egalik ma`nosi ot va olmoshlarga -ni‘,-ki qo`shimchasini qo`shish bilan ham ifodalanadi: kitob meniki, kitob seniki. Bu qo`shimcha u olmoshiga qo`shilganda mavhum egalikni hosil qiladi: kitob uniki kabi.

Otlarda kelishik kategoriyasi. Ot yoki otlashgan so`zlarning boshqa bir so`zga tobeligini ifodalaydigan kategoriyalar kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik ot bilan otni,ot bilan fe`lni yoki boshqa

biror murkumdagi so`zni o`zaro ma`no sifatlarini ko`rsatib, shu so`zning gapdagi vazifasini belgilaydi/ Otlarning kelishik qo`shimchalarini olib o`zgarishi turlanish deyiladi. Shu boisdan kelishik qo`shimchalari turlovchi qo`shimchalardir Kelishik shaklidagi so`z boshqa so`zlar ,bilan grammatik aloqaga kirishadi. Kelishikli so`zning gapda biror gap bo`lagi vazifasida kelishi qaysi kelishik shaklida qo`llanishi bilan bog`liq.

Masalan, Peshonasini stulning suyanchig`iga qo`yib sukutga g`oydan Otaq`o`zi nogohon —dik— etib o`rnidan turdi. (O.Yo.) gapidagi peshona so`zi -ni qo`shimchasi bilan stul so`ziga, stul so`zi esa -ning qo`shimchasi bilan suyanchiq so`ziga, suyanchiq so`zi -ga qo`shimchasi bilan qo`yib so`ziga, o`rni so`zi -dan qo`shimchasi bilan ko`pincha sintaktik vazifani beigilovchi shakllar turdi so`ziga tobedir. Otaqo`zi so`zi kelishik qo`shimchasiga ega emasligi uchun hokim holatda qo`llanilgan. Kelishik shakllari so`zlarni o`zaro aloqasini ta`minlab, to`ldiruvchi (peshonasi, suyanchig`iga , sukutga), aniqlovchi (stolning) hol (o`rnidan) vazifalarida kelgan.Kelishiklar ko`pincha sintaktik bvazifa bajaruvchi shakllar hisoblanadi. Biroq ma`lum bir kelishikdagi shakl gapda turli gap bo`lagi bo`lib kelishi mumkin. Masalan, Vatanni kelgindilardan ozod qilish-dunyodagi eng katta mardlikdir!(P.Q.) Sal vaqt o`tgach qishloq kasalxonasidan chaqirilgan vrach va hamshira ayol qutichalarini ko`targanicha chiqib kelishdi.(O`. U.) Ushbu gaplardagi chiqish kelishigi qo`shimchalarini qo`shimchasini olgan so`zlar to`ldiruvchi va hol vazifalarida kelgan. Kelishik qo`shimchasini olgan so`zning turli vazifalarni bajarishi qaysi turkumdagi so`z bilan bog`lanishiga ham bog`liq. Bu hol, ayniqsa, o`rin-payt va chiqish kelishigi qo`shimchalarida yaqqol seziladi. Ushbu qo`shimchalarni olgan ot yoki otlashgan so`zlar, harakat nomi bilan bog`lansa hol vazifalarida keladi. Shuningdek, Orin -payt, chiqish kelishiklari qo`shimchasini olgan so`z o`rin, payt ma`nolarini ifodalasa hol: Bular mehmonxonaning quyirag`idan joy oldilar. (O.) Boshqa ma`nolarni ifodalasa to`ldiruvchi vazifasini bajaradi.

O`zbek tilida mavjud olti kelishik kelishik kategoriyani tashkil qiladi: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo`nalish kelishigi, orin-payt kelishigi, chiqish kelishigi.

Har bir kelishikni aks ettiruvchi maxsus qo`shimchalar mavjud bo`lsa-da, bosh kelishikda bunday qo`shimcha yo`q. Shunga ko`ra bosh kelishikdagi so`z boshqa kelishiklardan farqli ravishda o`zi bog`langan so`zni o`ziga tobelaydi. Shuning uchun bosh kelishik asosiy kelishik, qolganlari esa vositali kelishikdir.

Kelishik shakllarini olgan so`zlar boshqa so`zlar bilan quyidagicha bog`lanadi.

1.Kelishiklar ot bilan otni bog`laydi. Ikromjonning yuragi kuyardi (S. A)

2.Kelishiklar ot bilan fe`lni bog`laydi. Aziz elkasini qisdi. (O`$_{87}$UO.),Eshon boshini qimirlatdi. (O.)

3.Kelishiklar ot bilan boshqa so`zlarni ham o`zaro bog`laydi. Iyul` kunlarining birida (A.Q.)

-Eavfi umumiydan tashqari (P.Q.) va hokazo.

Ot bilan otni bosh va qaratqich kelishiklari, ot bilan fe`l va boshqa turkumdagi so`zlarni bosh, tushum, jo`nalish, o`rin-payt, chiqish,ba`zan qaratqich (kunlarning biri mehnatning zo`ri) kelishiklari o`zaro bog`laydi.

Bosh kelishik. Bosh kelishik shaxsni, predmetni narsa-hodisani nomini atab, kim? nima? so`roqlariga javob bo`ladi. Bu kelishikning maxsus qo`shimchasi yo`q.Bosh kelishikdagi so`z boshqa so`zlarga hokim bol`ganligi sababli, gapda ega bo`lib keladi. Masalan, Ota qo`zi eshikni sharaqlatib yopib, uydan chiqdi. (O.Yo.). Bosh kelishikdagi so`z bundan tashqari boshqa bir qator vazifalarda keladi.

1.Kesim bo`lib keladi . Siz sara dehqonmisiz. (T. Mal.)

2.Bosh kelishikdagi ot izohlovchi bo`lib keladi. U erda ham Mahamat chatoq hadeganda gapga ko`navermaydi. (O`. UO.) San`atshunoslik doktori, professor Rasul Nuriddinov bugun ishdan juda yaxshi kayfiyatda qaytdi. (O.Yo).

3. Undalma bo`lib keladi. Ha , qizim, birovni kutib turibsanmi? (O.YO.) Esingni yig`, bolam, ona o`z bolasiga yomonlikni ravo ko`rmaydi. (S. A.)

4.Nominativ gap bo`lib keladi: Amakijon. Choy- poy ichib keting, amakijon!(O.Yo.)

5.Bosh kelishikdagi so`z ko`makchilar bilan bog`lanib yoki takrorlangan holda kelib aniqlovchi, to`ldiruvchi, hol vazifalarini bajaradi. Shu mehnat bilan yurtning mushkulini oson qilmoqchi(S. A.) To`lanboy Nizomjon ag`dargan erga razm solib boshini sarak -sarak qilib qo`ydi. (S. A.)

6.Bosh kelishikdagi ot sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi. Po`lat pichoq qinsiz qolmas. (Maqol.) Mehnat kuzagining to`yin fayzidan, qolmagan daryodil erlar bebahra.(G`.G`.).

Sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelish asosan otga xos xususiyat emas.Biroq, ba`zan ot turkumidagi so`z otga bog`lanib, o`zi bog`langan so`z anglatgan predmetning nimadan ekanligini bildiradi va sifatlovchi aniqlovchi bo`lib keladi. Oshpaz sopol kosada ichiga mushtumdek lavlagi solingan sho`rva keltirib qo`ydi. (S.A.).

Shuningdek, sifatlovchi sifatlanmish ifodalangan predmetning qanday ishni bajarishini bildiradi. Terim mashinalari o`taverib, yaproqlari yulinib cho`p bo`lib qolgan g`ozalarda bir- ikkita, nari borsa uchta ko`sak qolgan.(O.Yo.)

Qaratqich keilshlgl predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetga qarashliligini bildiradi. Qaratqich kelishigi -ning qo`shimchasi bilan shakllanib kimning? nimaning so`roqlariga javob bo`ladi. Bu kelishikdagi so`z o`zi bog`langan so`zni o`ziga qaratadi, qaratilgan so`z egalik qo`shimchasini oladi: uyning oldi, tog`ning toshi kabi.

Bu tipdagi qaratqich va egalik qo`shimchalari shaklidagi bog`lanishlarda qaratqich ikkinchi otga bog`lanib, uni aniqlab, aniqlovchi vazifasida keladi. Kampir ularning gapidan Zirillamaga Yo`ldosh Oxunboboev kelganini bildi.(S.A.) Qaratqich kelishigining qo`shimchasi she`riy asarlarda -n shaklida ham qo`llaniladi.

Yigitlik shotisin poyalaridan
Asta yuqoriga ko`tarilolding [88] (G`.G`.)

Shuningdek, badiiy asarlarda bu kelishik qo`shimchasining -im shakli ham uchraydi.

O`zbekiston Vatanim manim (A.O.)

Manim bu so`zlarimga ishoning, ishonmang ixtiyor albatta sizdadur. (A. Qod.)Qaratqich kelishigi ma`no va shakl jihatidan ikki xil: belgili qaratqich kelishigi, belgisiz qaratqich kelishigi.

-ning qo`shimchasi bilan shakllanib, aniq qarashlilik ma`nosini ifodalaydigan shakl belgili qaratqich kelishigi deyiladi. Otaqo`zi tog`asining fe`l-atvorini yaxshi bilardi.(O. Yo.) Hovlining bir chekkasida yaproqlari shaldirab baland mirzaterak turardi.(O.)

Qaratqich kelishigining qo`shimchasi -ning tushib qolgan holat belgisiz qaratqich kelishigidir. Ikkoving cho`l marshallari bo`lasan. (S.A.) Bu shakldagi otlar bir-biri bilan o`zaro zich bog`lanadi va ularning orasiga boshqa so`z kiritib bo`lmaydi. Belgisiz qaratqich kelishigida qaratqich shaklidagi ot egalik shaklidagi otga belgi ekanligi ifodalanadi. Bu holatda qarashlilik ma`nosi emas balki aloqadorlik ma`nosi ustun turadi. Chunonchi, keltirrilgan gapdagi cho`l marshallari birikmasida marshal yoki cho`l bir-biriga qarashli emas, ulardagi muayyan aloqadorlik asosida cho`l so`zi marshal so`ziga belgi vazifasini bajargan.

Qaratqich kelishigining belgili va belgisiz kelishi lug`aviy va grammatik ma`nolarga bog`liq. Quyidagi ma`noli so`zlar asosan belgili qaratqich kelishgi shaklida keladi.

1.Shaxs otlarini ifodalovchi so`zlar: Eshonxonning dardi bo`lak.(O.) Yo`ldoshning badanlari jimirlab ketdi. (O` .U.)

2.Predmetning shaxs yoki boshqa predmetga tegishli ekanligini ifodalaydigan otlar.Bu Ikromjonning tovushi edi.(S.A.) Mana shu narsa, dedi u sher oyoqli bahaybat stolning g`aladonidan kattakon semiz papka chiqarib (O.UO.)

3. Butunning qismini anglatgan otlar: kitobning varag`i, uyning burchagi, qozonning qulog`i. Sallasidagi olmosdan tashqari belidagi kamariga, xanjarining sopi va qiniga qadalgan dur va la`llar tiniq va osuda bir jilo berib turardi.(P.Q.)

4.Qaratqich kelishigidagi ot bilan egalik qo`shimchalarini olgan ot orasiga boshqa so`z kelganda. Ona ko`zi oldida o`g`lining qop-qora qoshlari, chaqnagan ko`zlari qoldi. (S.A.) Dadasi erkatoy o`g`lining bu arzini eshitib, bir hayratga tushdi, bir quvondi.(O.Yo.)

5.Otlashgan so`zlar qaratqich kelishgi qo`shimchasini olib kelganda. Kattaning kichigi bo`lguncha, kichikning kattasi bo`l. (Maqol.)

6.Egalik qo`shimchasi otlashgan so`zlarga qo`shilganda u bilan bog`langan so`z belgili qaratqich kelishigida keladi. Yaxshining yomoni bo`lguncha, yomonning yazshisi bo`l.(Maqol.)

7.Olmoshlar qaratqich kelishigida kelganda. Bizning fakul`tetda ham majlis bor. (A.Q.) Chunki ne qilsa ham ular mening yurtdoshlarim.(P.Q.)

Belgisiz qaratqich kelishigi quyidagi bog`lanishlarda qo`llaniladi:

1.Bir predmet yoki narsa ikkinchisiga umumiylik asosida bog`langan bo`lsa.

Lekin undan beridagi chiroqsiz uy ayvonida qandaydir sharpa sezildi. (P.Q.) Uning yozuvchilik ishidagi kamoloti va o`qishi qanday ekanini bilmoqchi.(A.Q.)

2.Mavhum otlar o`zaro bog`lanib kelganda: dil quvonchi , vijdon amri, odam zoti. Manzura ko`r emas, kar ham emas, dunyoning odam zotiga vafo qilmasligini ko`rib eshitib turibdi. (T.Mal.)

3.Predmetning belgisi sifatida qo`llangan so`zlarda .Viloyatda er islohatini o`tkazish uchun ko`p yillar kerak(A.Q.) Lekin u o`z vatanida yashamoqda edi.(P.Q.)

Tushum kelishigi. Shu kelishikidagi so`zdan anglashilgan harakatni o`ziga olgan predmetni ifodalaydi. Tushum kelishigidagi ot kimni? nimani? so`roqlariga javob bo`lib, -ni qo`shimchasi bilan shakllanadi . Masalan, Ikromjon eshikdan chehrasini ochib kirdi. (S.A.) Mulla Fazliddin nuqul ovozini kamaytirib, qandaydir xabar sezib gapirmoqchi edi.(P.Q.) She`riy asarlarda tushum kelishigi qo`shimchasining -n, -in shakllari ham uchraydi. Masalan, Yulduzlar ertagin eshitib, o`zimni ko`klarda sezaman.(E.V.) Ko`chatlar qomatin eslatganidek , Nafasin ufurar tong otar eli.(G`. G`.)

Tushum kelishgidagi so`z gapda vositasiz to`ldiruvchi bo`lib keladi. Masalan, odamzodning bisotida bu dardni engillatadigan gap bormi? (S.A.)

Tushum kelishigi ma`no va shakl jihatidan ikki xil: belgili tushum kelishigi, belgisiz tushum kelishigi. -ni keilshik qo`shimchasini olib kelgan shakli belgili tushum kelishigidir. Mashina keng maydonni bir aylanib, klub yoniga o`ng qo`lga burildi. (O.Yo.) Tushum kelishigi qo`shimchasi -ni mavjud bo`lmagan shakl belgisiz tushum kelishgidir. Belgisiz tushum kelishigidagi ot fe`l kesimga bog`lannib keladi.

Ular ma`no va grammatik jihatdan zich bog`langanligi uchun ularning orasiga boshqa so`z kiritib bo`lmaydi.

Tushum kelishigi quyidagi holatlarda belgili shaklda keladi:

1.Shu kelishikdagi so`z atoqli ot bo`lsa: Otaqo`zi Fazilatini ham, o`g`li Qodirjonni ham, qizi Latofatni ham odam qatorida ko`rmaydi.(O.Yo.)

2.Shu kelishikdagi so`z kishilik, o`zlik ko`rsatish olmoshlari bilan ifodalansa. Fazilat o`zini qo`yarga joy topolmay qoldi.(O.Yo.) Qizlarning ota-onasi bizni bu yerga olib qolmoqchi emas. (T. Mal.)

3.Shu kelishikdagi so`z otlashgan bo`lsa. U o`zidan boshqani o`ylamaydigan bir xudbin ekan.(O.Yo.) 4. Shu kelishikdagi so`z harakat nomi bilan ifodalansa. Manzura o`g`lidagi o`zgarishni sezib, xatosini tuzatmoqchi bo`ldi.(T. Mal.) Jo`nalish kelishigi. Shu kelishikdagi otdan anglashilgan ish -harakatning kimga? nimaga? tegishli ekanligini , ish -harakatning bajarilish vaqtini ifodalaydi. Masalan, bu uyni qishloq kutubxonasiga aylantirmoqchimiz.(O. Yo.) Haydar hovliga kirishga chog`lanib, usti boshini ko`zdan kechirdi. (T.Mal.) Oqshomga yaqin villaga Muzaffarxon bilan Gulzor begim kelishdi.(T. Mal.) Jo`nalish kelishigi -ga qo`shimchasi bilan shaklanib, k, tovushi bilan tugagan so`zlarga qo`shilgandab aytiladi bva sdhunday yoziladi. Masalan, Inson ko`kka boqar doimo, Tintuv qilar ocmonni faqat.(E.V.) g` undoshi bilan tugagan so`zlarga qo`shilganda h` aytiladi va shunday yoziladi.

Qishloqqa kelganda uni ko`rmay, bir-ikki kun uning bog`ida bo`lib, tongotar suhbatlar qurmay ketmas edi. (O.Yo.)

Jo`nalish kelishigi qolgan barcha hollarda g yoziladi. so`zlar quyidagi ma`nolarni anglatib, turlidi sintaktik vazifalarda keladi.

1.Harakatning bajarilishi uchun ishtirok etgan shaxs, predmetni anglatadi. Jo`nalish kelishigining bu ko`rinishi kimga? nimaga? so`roqlaridan biriga javob bo`lib, gapda to`ldiruvchi vazifasini bajaradi.Masalan, Bundan tashqari otalik muhabbatini va mas`uliyatini menga tashlab ketgan(A.Q.) Ikki tomonda ikki o`q- yoyga

o`xshab salohu kamonlarini taqib, bellarini siqib, bog`lab olgan yigitlar o`z yuzboshilarini saqlab shay turardilar.

2.Harakatning bajarilish o`rnini bildirib, qaerga? qaerda? so`roqlaridan biriga javob bo`lib, gapda o`rin holi vazifasida keladi. Masalan, Yulduzlarga kemalar yo`llab, jonzod izlar cheksiz fazoda. (E.V.) Yozyovonga ikkoving komandirlik qilasan. (S.A.)

3.Harakatning bajarilish vaqtini ifodalab, qachon? qachongacha? so`roqlariga javob bo`ladi. Tushgacha uch yarimni yasab qo`ygan bo`lsang, kechgacha yerni timdalab tashlamasang, deyman, -dedi Ikromjon.(S.A.)

O`rin -payt kelishgi. Shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmet, ish-harakatning bajarilish o`rnini, vaqtini bildiradi.O`rin -payt kelishgi -da qo`shimchasi bilan shakllanib, quyidagi ma`nolarni ifoiaydi.

1.Harakatning bajarilish o`rnini bildirib, qaerda? so`rog`iga javob bo`ladi va gapda o`rin holi vazifasini bajaradi. Ko`chada tirik bir jon ko`rinmas, hammayoq jimjit. (O.Yo.) Besh yigit odamlarning ko`ziga tashlanmaslikka tirishib qishloqdan yakka-yakka chiqishdi-yu, to`qay ichida uchrashishdi. (P.Q.) 2. Harakatning bajarilish paytini bildirib, qachon? so`rog`iga javob bo`ladi va gapda payt holi vasifasini bajaradi. Bobur bugun peshinda ishongan beklarini to`plab, mashvarat o`tkazdi.(P.Q.) U yolg`iz farzandini qorong`u tunda dushman ko`payib ketgan shaharga chiqarishni istamas edi.(P. Q. )3. Harakatning bajarilishi uchun ob`ekt bo`lgan predmetni bildirib, nimada? so`rog`iga javob bo`ladi va gapda to`ldiruvchi bo`lib keladi.Shunga qaraganda yovning rejalarida qandaydir bir o`zgarish yuz bergan edi.(P.Q.).4. Harakatning bajarilishi holatini ifodalab, qanday? qay holatda? so`roqlaridan biriga javob bo`ladi va gapda ravish holi vazifasida keladi. Haydar apil-tapil kiyinib ariqdan hatlab o`tdi-da, paxsa devor bo`ylab o`sgan olchalar panasida cholning hovlisiga qaradi. (O.Yo.)

O`rin- payt kelishigi predmet ma`nosini bildirib kimga? nimada? so`roqlaridan biriga javob bo`lsa, gapda to`ldiruvchi, ish- harakatning bajarilish o`rni, payt, holatini bildirib, qaerda? qancha? qanday? so`roqlariga javob bo`lsa hol vazifasida keladi.

Chiqish kelishgi. Shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmet ish-harakatning yuzaga chiqish o`rnini, vaqtini, sababini bildiradi. Chiqish kelishigi -dan qo`shimchasi bilan shakllanadi.

Chiqish kelishigi shaklidagi so`z quyidagi ma`nolarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatning boshlanish o`rnini bildirib, qaerdan? so`rog`iga javob bo`ladi va gapda o`rin holi vazifasini bajaradi.

Derazamdan tushgan tola nur Somon yo`li kabi tovlanur. (E.V.)Klubdan chiqqan kishilar to`da-to`da bo`lib simyog`och tagida gaplashib turishibdi. (S.A.)2. Ish- harakatning bajarilish paytini bildirib, qachon? qachondan? so`roqlaridan biriga javob bo`ladi va gapda payt holi vazifasida keladi. Jannat hola kechadan beri supurgi tegmay ivirsib ketgan uyni yig`ishtirayotgan edi.(S.A.) 3. Ish -harakatning bajarilishiga sabab bo`lgan vositani bildirib, kimdan? nimadan? so`roqlariga javob bo`ladi va gapda to`ldiruvchi vazifasida keladi. Ishlaydi. Bor kuchi bilan ishlaydi. Rohatidan kechadi, uyqusidan kechadi.(S.A.) Zuhrabegim xayolidan o`ziga

tayanch izlar ekan yaqinda Buxoroni olib, endi Samarqandga qo`shin tortib kelishi kutilayotgan Shayboniyxon esiga tushdi. (P.Q.)
4.Chiqish kelishidagi so`z predmet ma`nosiga ega bo`lib, harakatning bajarilishga sabab bo`lgan shaxsni, predmetni ifodalasa gapda to`ldiruvchi, o`rin payt holat ma`nolarini ifodalasa hol vazifasida keladi.

Otlarning yasalishi

Otlar yasalish xususiyatlariga ko`ra boshqa turkumdagi so`zlarga nisbatan alohida ajralib turadi. Chunonchi, otlarda yasovchi qo`shimchalar ko`p bo`lib, ular ishtirokida ko`plab yangi so`zlar yasalganidek, so`z qisqarishini asosida yangi so`zlar yasalishi ham ot turkumiga xosdir. Shu boisdan ham otlar yangi so`zlar hisobiga tez boyib boruvchi turkumdir. Otlar asosan morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. So`z o`zak, negiziga maxsus so`z yasovchi go`shimchalar qo`shish bilan ot yasalishi morfologik usul bilan yasalishdir. Ot yasovchi qo`shimchalar yordamida ot, sifat, son, fe`l va boshqa turkumlardan ot yasaladi. Masalan, ishchi (otdan), terim (fe`l dan) , birlik (sondan), yaxshilik (sifatdan).

Morfologik usul bilan quyidagi ma`nolarni bildiruvchi otlar yasaladi.
1.Shaxs otlari
2.Narsa - quroi otlari
3.O`rin - joy otlari
4. Mavhum otlar

Shaxs oti yasovchi qo`shimchalar. Bu guruhdagi otlar katta miqdorni tashkil qilganidek, turli ma`nolarni ham ifodalaydi. Shaxs oti yasovchilar orasida eng faol va turli ma`nolardagi otlar yasovchi qo`shimcha - chi qo`shimchasidir . Bu qo`shimcha barcha so`z turkumlari va boshqa tillardan kirgan so`zlarga ham qo`shilib quyidagi ma`nolarni ifodalovchi otlar yasaydi .
1.-chi qo`shimchasi:
a) ot va fe`l negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan narsa, predmet bilan shug`ullanuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: ishchi, suvchi, terimchi, o`quvchi, o`qituvchi kabi.
b) Ot, sifat, son negizlarga qo`shilib negiz anglatgan predmet, narsa-hodisaga mansub ekanlikni ifodalovchi otlar yasaydi: Tursunoychi, musobaqachi, a`lochi, og`machi, o`n mingchi.
d) Fe`l va sifat negizlarga qo`shilib negiz anglatgan belgi, xususiyatga egalikni bildiruvchi otlar yasaydi: yozuvchi, sinovchi, qiziqchi, yolg`onchi kabi.
2) kasb- hunar yoki mutaxassislikni ifodalovchi so`zlarga qo`shilib, negiz orqali anglashilgan kasb-korga egalikni bildiruvchi otlar yasaydi: pichoqchi, suvoqchi, tilchi.
2. -dosh. Bu qo`shimcha negiz anglatgan shakl yoki predmet bilan birgalik ma`nosidagi otlar yasaydi.
a) Yashash joyda fikrda birgalikni ifodalovchi otlar yasaydi: vatandosh, mahalladosh, fikrdosh, suhbatdosh.
b) qarindoshlik jihatdan birlikni bildiruvchi otlar yasaydi: qarindosh, qondosh, jondosh.

-dosh qo`shimchasi bilan o`rinda birlik: sinfdosh, vatandosh; paytda birlik: zamondosh, asrdosh, holatda birlik: fikrdosh, suhbatdosh kabi otlar yasalganidek, ayrim tilshunoslik atamalari ham hosil bo`lgan: sifatdosh, ravishdosh kabi.

3.-kash. Bu qo`shimcha tojik tilidan o`zlashgan bo`lib, tojikcha kashidan ―tortmoq‖ so`zining o`zbek tilida affikslashgan shaklidir. -kash qo`shimchasi asl ma`nosiga mos holda ―yurgizuvchi‖ ma`nosidagi otlar yasaganidek : tuyakash, aravakash, ―biror ish bilan shug`ullanuvchi‖ ma`nosidagi otlar ham yasaydi: mehnatkash, chizmakash.

4.-bon. Negiz orqali anglashilgan predmetni qo`riqlovchi, qarovchi ma`nosidagi otlar yasaydi: darbozabon, bog`bon.

5.-dor. Tojikcha ― ushlamoq‖ so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali anglashilgan narsaga egalikni ifodalovchi otlar yasaydi; puldor, mulkdor, chorvador, aybdor.

6.-boz. Negiz orqali anglashilgan predmet bilan shug`ullanuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: nayrangboz, masxaraboz, dorboz, kaptarboz.

7.-paz. Tojikcha ― pishirmoq‖ so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali anglashilgan taomni pishiruvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: oshpaz, somsapaz, kabobpaz.

8.-shunos. Tojikcha ― bilmoq‖ so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali anglashilgan sohani egallaganlik ma`nosidagi otlar yasaydi: tilshunos, adabiyotshunos, o`lkashunos kabi.

9.-parast. Negiz orqali anglashilgan ishga berilganlik ma`nosidagi otlar yasaydi: amalparast, mansabparast kabi.

10.-furush. Tojikcha ― sotmoq‖ so`zidan o`zlashgan bo``lib, negiz orqali ifodalangan predmetni sotuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: nosfurush, qovunfurush.

11.- parvar. Tojikcha ` ‘ saqlamoq‖ so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali ifodalangan predmetga sodiqlik ma`nosidagi otlar yasaydi: vatanparvar, xalqparvar, ma`rifatparvar kabi.

12.-xo`r. Tojikcha ―emoq‖ so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali ifodalangan taomni ko`p eyuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: oshxo`r, samsaxo`r kabi. Shuningdek, ishyoqmaslik, dangasalik ma`nosini ifodalovchi : nonxo`r, yuvindixo`r; yomonlik ma`nosidagi: odamxo`r, qonxo`r; mehribonlik ma`nosidagi: g`amxo`r, kabi otlar yasaydi:

13.-so`z. Tojikcha ― yasamoq‖ so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali ifodalangan narsani tuzatuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: soatso`z, aravaso`z, mashinaso`z.

14.-do`z. Tojikcha ― tikmoq‖ so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali anglashilgan narsani tikuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: do`ppido`z, mahsido`z, etikdo`z kabi.

15.-xon. Tojikcha ― o`qimoq‖ so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali anglashilgan narsani o`qish bilan shug`ullanuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: gazetxon, kitobxon.

16.-gar, -kor, -kar. Negiz orqali angshilgan predmet bilan qiziquvchi, u bilan shug`ullanuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: zargar, kimyogar, san`atkor, paxtakor, miskar.

Narsa - qurol otib yasovchi qo`shlmchaiar. Narsa -qurol otlari asosan ot va fe`l negizlaridan yasaladi. Narsa -qurol otlarini yasashda fe`l negizlar ancha faoldir

.Qo`yidagi qo`shimchalar narsa- qurol otlari yasovchi qo`shimchalardir:

1.-gich, -kich, (-g`ich, -qich). Fe`l negizlariga qo`shilib, narsa otini yasaydi. Bu qo`shimchalar turli negizlarga qo`shilishiga ko`ra turli variantlidir: suzgich, o`tkazgich, ko`rsatkich, chizg`ich, ochqich, tutqich kabi.

2.-ma. Fe`l negizlarga qo`shilib narsa otlari yasaydi, qaynatma, joy otini yasaydi: bostirma.

3.-k, -ik, uk, -uq, iq, -oq, -ak. Fe`l negizlarga qo`shilib, quyidagi ma`nolarni ifodalovchi otlar yasaydi.

a) mehnat qilish uchun ishlatiladigan predmetlar otini yasaydi: kurak,, elak, g`ildirak, o`roq; b) inson uchun zarur bo`lgan narsa otlarini yasaydi taroq, to`shak, sochiq, pichoq; d) mavhum otlar yasaydi: chaqiriq, hayqiriq, tilak.

4.-m, -im, -um. Fe`l negizlarga qo`shilib, narsa oti yasaydi: kiyim: harakat oti yasaydi: terim, chiqim; sifat negizga qo`shilib mavhum ot yasaydi: oqim kabi.

5.-gi, -ki, -qi, g`i. Bu qo`shimchalar fe`l negizlarga qo`shilib, narsa-qurol oti yasaydi: supurgi, suzgi, chopqi, cholg`i kabi.

6.-indi. Fe`l negizlarga qo`shilib, narsa otini yasaydi: yuvindi, chiqindi kabi.

7.-in (-un). Fe`l negizlarga qo`shilib, negizdan anglashilgan mehnat jarayonlari otini yasaydi: ekin,yig`in.

8.-kin, gin.Fe`l negizlarga qo`shilib, narsa otini yasaydi: toshqin, to`lqin, qirg`in.

9.-don. Ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali anglashilgan predmetni saqlash uchun ishlatiladigan narsa otini yasaydi: tuzdon, siyohdon.

O`rin -joy otiari yasovchi qo`shimchalar. Bu qo`shimchalar bilan negiz orqali anglashilgan predmet ko`p bo`lgan, shu predmet o`sadigan yoki saqlanadigan joy nomlari yasaladi.

1.-zor. Ot negizlariga qo`shilib, negiz orqali anglashilgan predmet o`sadigan joy nomlari yasaladi: paxtazor, lolazor, o`rikzor, olmazor kabi.

2.-loq. Ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali anglashilgan predmet ko`p bo`ladigan joy nomlari yasaladi: qumloq, toshloq, o`tloq.

3.-iston. Ot negizlarga qo`shilib, atoqli otlar yasaladi: O`zbekiston, Guliston, Turkiston.

4.-goh. Ot negizlarga qo`shilib, qisqa muddatda yashash, tunash, sayr qilish, o`ynash uchun zarur bo`ladigan joy nomlari yasaydi: qarorgoh, xobgoh, sayrgoh, o`yingoh.

Mavhum ot yasovchi qo`shimchalar. Tubandagi ot yasovchi qo`shimchalar turli turkumdagi negizlarga qo`shilib, mavhum ot yasaydi.

1 -lik(-liq). Bu qo`shimcha mavhum ot yasovchi eng faol qo`shimcha bo`lib, quyidagi negizlardan ot yasaydi:

a)sifatlarga qo`shilib belgi, xususiyat ifodalovchi otlar yasaydi: go`zallik, yaxshilik, soflik;

b) otlarga qo`shilib holat ifodalovchi mavhum ot ysaydi: yigitlik, do`stlik, dushmanlik;
v) shaxs otlariga qo`shilib, o`zak orqali anglashilgan predmet, soha bilan shug`ullanuvchi ma`nosidagi mavhum ot yasaydi: binokorlik, tuproqshunoslik, manbashunoslik, pichoqchilik, zargarlik;
g) ravishga qo`shilib, harakatning mavhum miqdorini: tezlik ,ko`plik, songa qo`shilib, uning mavhum miqdorini: onlik, yuzlik bildiruvchi otlar yasaydi.
d) -liq qo`shimchasi bor modal so`ziga qo`shilib mavjudlik ma`nosidagi ot yasaydi: borliq.
2.-chilik. Bu qo`shimcha murakkab qo`shimcha (chi+lik) tartiblaridan tuzilgan bo`lib, ot, sifat negizlarga qo`shilib kasb-hunar bildiruvchi mavhum ot yasaydi: to`qimachilik , paxtachilik , chorvachilik ,dehqonchilik, pichoqchilik, suvoqchilik.
3. -garchilik. Bu qo`shimcha ham murakkab (gar-chi-lik) tarkiblardan tashkil topgan bo`lib, holat bildiruvchi mavhum ot yasaydi: yog`ingarchilk, loygarchilik.
4. - ch (inch). Fe`l negizlarga qo`shilib, kishidagi ruhiy holatni bildiruvchi mavhum ot yasaydi: seving, ishonch, quvonch.
5. -sh(-ish). Fe`l negizlarga qo`shilib harakat oti yasaydi: yig`ilish , tug`ilish.

Otlarning tuzilish jihatdan turlari

Sintaktik usul bilan qo`shma va juft otlar yasaladi.Ikki yoki undan ortiq so`zlarning o`zaro ma`no va grammatik jihatdan birikishi asosida vujudga kelgan otlar qo`shma otlar deyiladi. Qo`shma otlar tarkibi quyidagi so`zlardan tashkil topadi.
1.Ot+ otdan: belbog`, qo`lqop, muzqaymoq, toshko`mir, Sirdaryo.
2.Sifat+ otdan: oqqush, oqsoqol, qizilo`ngach, sassiq popushak.
3.Son+otdan: to`rt burchak, uchburchak, To`rtko`l, Besh buloq.
4.Ot+ fe`ldan : o`rinbosar, beshiktervatar, muzyorar, kunga boqar kabi. Qo`shma otlar quyidagicha yoziladi:
1.Ikki yoki undan ortiq so`zlarning birikuvidan tashkil topib, bir ma`no ifodalaydigan , bir urg`u bilan aytiladigan, otlar qo`shilib yoziladi: kunga boqar, oshqozon, belbog`, gultojixo`roz, Jarqo`rg`on kabi.
2.Ikki yoki undan ortiq so`zlarning birikuvidan tashkil topib, alohida urg`u bilan aytiladigan, tarkibli qo`shma otlar ajratib yoziladi: xalq xo`jaligi, Markaziy Osiyo, Qarshi cho`li kabi.Ikki so`zning o`zaro grammatik jihatdan teng bog`lanishidan hosil bo`lib, bir umumiy ma`no anglatuvchi otlar juft otlar deyiladi: ota-ona, aka-uka kabi.

Juft otlar tarkibi quyidagicha so`zlardan tashkil topadi.
1.O`zaro ma`nodosh bo`lgan so`zlardan: mehr- shafqat, kuch-qudrat, shon- sharaf, baxt-saodat.
2.Bir -biriga yaqin ma`noli, aralash tipdagi so`zlardan: ota-ona, aka-uka, qozon-tovoq, uy-ro`zg`or.
3.Tarkibidagi birinchi so`z mustaqil ma`no bildiradigan, ikkinchi so`z ma`no bildirmaydigan so`zlarning birikishidan: bozor-o`chor, don-dun, kiyim-kechak kabi.

Takror otlar ham tuzilishi jihatidan juft otlarga mansub. Biroq ular yasama ot sirasiga kirmaydi. Chunki, takror otlar tarkibidagi ikkinchi so`z fonetik jihatdan o`zgargan holda qo`llanilsa - da,birinchi so`z ifodalagan ma`nodan boshqa ma`noni bildirmaydi. Zero, birinchi so`z ifodalagan ma`no takror otlardagi asosiy ma`no bo`lib qoladi: non-pon, tosh-posh, kitob-mitob kabi.

Qisqartma otlar. Nutqda qisqalikka erishish maqsadida bir qator tarkibli otlar qisqartirilib qo`llaniladi. Bunday otlar qisqartma otlar deyiladi. Masalan, BMT, DAN, MHD kabi.

So`zlarni bu tipda qisqartirib qo`llash faqat ot turkumiga xos. So`z qisqarishi ham yasalishning bir turi bo`lib, unga abbreviatura usuli deyiladi.

Qisqartma otlar quyidagicha shakllardan iborat bo`ladi:

1.So`zlarning bosh harflari olingan holda so`z qisqartiriladi .Bunday qisqattmalar bosh harflar bilan yoziladi. GES, BAA(Birlashgan Arab Amirligi).

2.Birinchi so`zning birinchi bo`g`ini, keyingi so`zlarning bosh harflari olingan holda so`zlar qisqartiriladi; O`zR, O`zRFA, O`zMU kabi .

Nazorat uchun savollar

1. *Qanday otlar atoqli otlar hisoblanadi?*
2. *Turdosh otlarning qayhay turlari mavjud?*
3. *Grammatik son kategoriyasi nima?*
4. *Egalik kategoriyasi deb nimaga aytiladi?*
5. *Egalik qo`shimchalari qanday ma`nolarni ifodalaydi?*
6. *Kelishik kategoriyasi nima?*
7. *Kelishiklar va ularning shakllari qanday?*
8. *Otlar qanday usullar bilan yasaladi?*
9. *Morfologik usul bilan qanday ma`noli otlar yasaladi?*
10. *Sintaktik usul bilan-chi?*
11. *Otlar tuzilishiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?*
12. *Qaysi shakllar otlarning modal shakllari hisoblanadi?*

2-MAVZU
SIFAT SO’Z TURKUMI. SIFATLARNING YASALISHI. SON VA OLMOSH SO’Z TURKUMLARI SIFATIDA

R E J A:

1.Sifat so’z turkumi.
2.Sifatlarning yasalishi.
3.Son so’z turkumlari sifatida.
4.Olmosh so’z turkumlari sifatida.

Sifat so’z turkumi.

Predmetning belgisini bildiradigan so`zlar turkumi sifat deyiladi. sifat qanday? qanaqa? so`roqlaridan biriga javob bo`ladi.Sifat belgi sifatida predmetning rangini (oq, qizil, ko`k, sariq), shakl-ko`rinishini (yumaloq, yapaloq, yassi, uchburchak ), hajm- o`lchovini(tor, keng, katta, kichik), maza- tamini (shirin, nordon, mazali),

sifatini, xususiyatini(oddiy , kamtar, dono, aqlli, tadbirkor), xarakterini (ziqna, xasis, bosiq, sho`x, ko`ngli ochiq), o`rin yoki vaqtga bo`lgan munosabatini(uydagi, kuzgi, bahogi, kechki)ifodalaydi.

Sifat narsa-hodisadagi, predmetdagi belgini bildirgani uchun gapda doimo ot bilan bog`lanib keladi: keng xona, yaxshi joy, qizil olma, moviy ko`l kabi.

Sifatlar o`ziga xos morfologik xususiytlarga ega. Sifatning muhim morfologik belgisi, predmet belgisining boshqa predmet belgisiga qiyoslab darajalab ko`rsatishidir.Shu boisdan sifatlarda boshqa turkumlardan farqli ravishda daraja, ozaytirma va kuchaytirma shakllar mavjud. Shuningdek sifatiar zo`z yasovchi, shakl yasovchi qo`shimchalar tizimiga ham ega.

Sifatlar gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi. Og`ir tabiatlik, ulug` gavdalik, ko`rkam va oq yuzlik, kelishgan qora ko`zlik mutanosib qarashlik va endigina murti sabz urgan yigit (A.Qod) Hol va kesim vazifalarida keladi: Mag`rur holda cho`ntagidan bitta o`n so`mlik chiqarib, bo`lingan to`p ustida tashladi. (F. Mal.) Chodirning ichi o`rdaday keng tagiga somon va poxol to`shalib ustiga brezent tashlangan.(O.UO.)

Sifatlar otlashganda ega, qaratqichli aniqlovchi, to`ldiruvchi vazifalarida keladi: Mard maydonda bilinar. (Maqol.)Kattaning kichigi bo`lguncha, kichikning kattasi bo`l.(Maqol.) Yaxshini yaxshi deydilar (Maqol.) kabi.

Asliy va nisbiy sifatlar. Sifatlar ma`no xususiyatlariga ko`ra har xil.Binobarin, ayrim sifatlar predmet belgisini bevosita ifodalasa, ayrim sifatlar belgini boshqa predmetga yoki o`ringa, paytga nisbatlash asosida ifodalaydi. Shunga ko`ra sifatlar ma`no jihatdan ikkiga bo`linadi: asliy sifatlar, nisbiy sifatlar.

Bevosita belgi anglatib, belgini darajalab ko`rsata oladigan sifatlar asliy sifatlar deyiladi: uzun, katta, qizil, shirin, yaxshi, mulojim, ixcham kabi. Predmet belgisini o`rin yoki raytga ba`zan boshqa predmetga o`xshatish, nisbatlash asosida anglatadigan sifatlar nisbiy sifatlar deyiladi.

Nisbiy sifatlar maxsus sifat yasovchi qo`shimchalar yordamida yasaladi: -li, -iy (-viy),- lik, simon, gi -ki -qi: -dagi, - qo`shimchalari nisbiy sifat yasovchi qo`shimchalardir.

Bu qo`shimchalar yordamida quyidagi ma`nolarni ifodalovchi sifatlar yasaladi.

1. Predmetga nisbat berish ma`nosini bildiruvchi nisbiy sifatlar: mevali daraxt, ilmiy ish, tarbiyaviy ahamiyat kabi.

2.Vaqtda nisbat berish ma`nosidagi nisbiy sifatlar : kuzgi bug`doy, tungi yog`du., kechagi gap kabi.

3.O‘rinda nisbat berish ma`nosidagi nisbiy sifatlar: janubiy kenglik, sho`rchilik qiz, uydagi ish kabi.

4. Nisbiy sifat yasovchi qushimchalar yordamida yasalgan sifatlar : a) predmetga xoslikni: tarihiy kun, ma`naviy mezon: predmetga o`hshashilkni: odamsimon, butasimon: biror narsaga mo`ljallangan yozgi ta`til, kuzgi ekln: biror joylik ekanlikni: toshkentlik, samar qandlik ham bilaradi.

Asliy va nisbiy sifatlar belgini darajalab, kuchraytirib yoki aksincha kamaytirib ko`rsatishi hamda modal ma`no bildirishiga ko`ra o`zaro farqlanadi.

1. Asliy sifatlar belgini darajalab ko`rsata oladi: yaxshi- yaxshiroq -juda yaxshi.

Nisbiy sifat yasovchi qo`shimcha bilan yasalgan sifatlarga belgini darajalab ko`rsatish xususiyati maavjud emas: kuzgi, osamsimon. 2. Asily sifatlar modal ma`no ifodalaydi: yaxshigina, ochiqqina kabi. Nisbiy sifatlarga bu xususiyat mavjud emas, fogatli qo`shimchali nisbiy sifatlargina modal ma`no mavjud: chiroyligina, bilimligina kabi.

Sifatlar otga bog`lanish bilan birgalikda ba`zan fe`lga ham bog`lanib kelishi mumin.O`shanda biz yosh edik, -dedi Saidiy uzoqqa qaraganday (A.Q.) Nisbiy sifatlar fe`lga bog`lanmaydi.

Sifat darajalari. Predmetdagi belgini boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatlab farqlash hodisasi sifat darajalari deyiladi. Sifat darajalari predmetdagi bir xil belgini bir -biriga chog`ishtirish, solishtirish asosida yuzaga keladi. Sifatlarga uch xil daraja mavjud : oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja.

Predmet belgisi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmasa oddiy daraja deyiladi: katta, uzun, keng, epchil.Predmet belgisini boshqa predmetdagi shunday belgiga qiyoslanishidan qiyosiy va orttirma daraja sifatlari vujudga keladi. Qiyosiy daraja. Predmet belgisini boshqa predmetdagi shunday belgidan ortiq yoki kamligini bildiradigan daraja qiyosiy daraja deyiladi.Qiyosiy daraja sifatlarga - roq qo`shimchasini qo`shish bilan shakllanib: a) belgini oddiy darajadagi sifatlarga nisbatan ham kamligini ifodalaydi.

Masalan; bu yo`l,narigi yo`lga nisbatan qisqaroq, bu uy narigi uyga nisbatan pastroq.b) belgini ortiqligini ifodalaydi. Bu o`zidan ham ko`ra Saidiyga qattiqroq ta`sir qildi.(A.Q.) Havo musaffo bo`lgani uchun pastda yoqilayotgan olovning tutuni odatdagidan tiniqroq ko`rindi.(P. Q.)

Belgini yanada ortiqligini ko`rsatishda- roq qo`shimchali sifatdan oldin yana ham so`zlari keltiriladi. Nigora bu sehrli manzarada, oydinda yana ham sirliroq tuyilgan ko`hna qorg`onga tikilib uzoqroq turadi. (O. Uo.) Orttirma daraja. Predmet belgisini boshqa predmetdagi xuddi shunday belgidan juda ko`p eanligini ifodalaydigan daraj orttirma daraja deyiladi. Orttirma daraja oddiy daraja sifatlaridan oldin eng , juda g`oyat, g`oyatda, nihoyatda, benihoyat so`zlarini keltirsh bilan hosil bo`ladi. U Unsunga juda qadrli, va qadrdon.(O.) Zumrad Manzuraning gaplarini bugun g`oyat loqaydlik bilan tingladi. (O.) Yo`l tor, juda kichkina bo`lgani uchun hozir birinchi navbatda podshoh oilasi va Boburga eng yaqin kishi bo`lgan eshik og`a, Qosimbek chiqishmoqda edi. (P.Q.) Qiyosiy daraja sifatlar morfologik usul bilan, orttirma daraja sifatlar esa sintaktik usul bilan hosil bo`ladi.

Sifatlarning yasalishi.

98

Boshqa so`z turkumlari singari sifatlar ham asosan morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Morfologik usul bilan sifat yasash eng sermahsul usuldir.So`z o`zak, negiziga maxsus sifat yasovchi qo`shimchalar qo`shish orqali yangi sifatlar yasalishi morfologik usul bilan sifat yasalishi deyiladi. O`zbek tilida sifat yasovchi qo`shimchalar boshqa turkumlardan farqli ravishda o`zakdan oldin va o`zakdan keyin qo`shilgan holda ham sifat yasaydi. O`zakdan oldin qo`shilib sifat yasovchi qo`shimchalar tojik tilining ta`siri natijasida yuzaga kelgan.

O`zakdan oldin qo`shilib sifat yasobvchi qo`shimchalar:
1.-ser.Ot turkumidagi so`zlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan predmetning ko`pligini ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi: sersuv, serdaromad, sergap kabi.
2.-be : Otlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan predmetga ega emaslikni bildiruvchi sifat yasaydi: beor, benomus, betayin, bebaxt.
3.-ba: Otlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan predmetning ortiq ekanligini bildiruvchi sifat yasaydi: badavlat, basavlat, baquvvat.
4.-no: Ot va sifat o`zaklarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan pred-metning yo`qligini, mavjud emasligini bildiruvchi sifat yasaydi: nohaq, noinsof, noloyiq, noqulay kabi.
5.-bad: Ot negizlarga qo`shilib, salbiy belgi bildiruvchi sifat yasaydi:
badbashara, badxulq.O`zakdan keyin qo`shilib sifat yasovchi qo`shimchalar:
1.-li qo`shimchasi.O`zbek tilidagi sifat yasovchi eng mahssuldor qo`shimcha bo`lib, asosan ot, qisman sifatdosh va ravishdoshlarga qo`shilib sifat yasaydi.
a) o`zakdan anglashilgan ma`noda ega ekanlikni ifodalovchi sifat yasaydi: aqlli yigit, mevali bog`, bilimli talaba.
b)-r (-ar) qo`shimchali sifatdosh shakliga qo`shilib, undan anglashilgan belgiga ega ekanligini ifodalovchi sifat yasaydi: tushunarli kitob, qiziqarli suhbat.
v) -sh (-ish) qo`shim chali ravishdoshga qo`shilib o`zakdan anglashilgan ish-harakatga ega ekanlikni bildiruvchi sifat yasaydi: borishli , kelishli o`qimishli kabi.
2.-siz: ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmetga ega emaslik ma`nosidagi sifatlar yasaydi: suvsiz, ishsiz, mazasiz, kuchsiz kabi.
3.-chan: ot, harakat nomi va ravishdoshlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan ma`noning ortiqligini bildiruvchi, sifatlar yasaydi: qiziquvchan, talabchan.
4.-chil: ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet belgisini ortiq ekanligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: epchil, dardchil.
5.-aki: ot va sifat negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet belgisining soxtaligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: qalbaki,zo`raki, yuzaki.

6.-ag`on: fe`l negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosiga ega ekanlikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: bilag`on, topag`on.
7.-mon (-man): Bu qo`shimcha bilan belgini ortiq ekanligini ifodalovchi sifatlar yasaladi. -mon qo`shimchali sifatlar -ag`on qo`shimchali sifatlarga sinonimdir: bilarmon, toparmon, bilag`on , toparg`on
8.-ma: fe`l negizlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan harakatning natijasida hosil bo`lgan belgini ifodalovchi sifatlar yasaydi: qaynatma sho`rva, qovurma go`sht, yasama tish, uydirma gap.

9.- in: ot, va fe`llarga qo`shilib sifatlar yasaydi: erkin odam, tekin daromad, to`kin kuz.
10.-parvar: ot negizlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosi bilan bog`liqlikni ifodalovchi sifatlar yasaydi: vatanparvar, adolatparvar, xalqparvar.
11.-parast: ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosiga moyillikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: mansabparast, shuhratparast, uyquparast.

12.-xo`r: ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmetni yaxshi ko`ruvchi, uni xushlovchi ma`nosidagi sifatlar yasaydi: oshxo`r, go`shtxo`r. Bu qo`shimcha orqali yasalgan sifatlar ko`chma ma`nolarda ham ishlatiladi: odamxo`r, g`amxo`r, qonxo`r, nonxo`r(—hech ish qilmaydigan kishi ‖ ma`nosida) kabi. 13. - mang: ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosining ortiq ekanligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: davlatmand, hunarmand kabi.

14.-don: Ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosining ortiqligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: bilimdon, gapdon,

15.-dor: ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosining ortiqligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: bo`ydor, etdor, puldor, moldor.

16.-dek, -day: ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmetga o`xshashlik ma`nosini bildiruvchi sifatlar yasaydi: asalday qovun, gulday qiz, tog`day elka kabi.

17.-k, -q, -ik, -iq, -uk, -uq, -oq, -ak: fe`l negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan harakat yoki holatining natijasini bildiruvchi sifatlar yasaydi: kemtik, qaynoq, bo`liq, o`siq, tuzuk, chinqiroq, hurkak.

18.-qoq, g`oq: fe`l negizlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan harakat belgisini ortiq ekanligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: botqoq er, tirishqoq odam, urishqoq bola.

19.-choq, -chiq, -chak, fe`l negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan belgining ortiq ekanligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: maqtanchoq, toyg`onchiq, kuyinchak.

20.-g`in, g`un, -kin, -qin: fe`l negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan harakat, holat bilan bog`liqlik ma`nosidagi sifatlar yasaydi: so`lg`in, turg`un keskin, jo`shqin.

21.-qir, -qur, -gir, -kir: fe`l negizlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan harakat holatning ortiqligini bitiruvchi sifatlar yasaydi: topqir, chopqir, uchqur, sezgir, olg`ir, o`tkir.

Quyidagi qo`shimchalar o`zakdan keyin qo`shilib nisbiy sifat yasovchi qo`shimchalardir.

1.-iy (-biy): ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmetga aloqadorlik ma`nosidagi sifatlar yasaydi: ilmiy, tarixiy, oilaviy, tashkiliy.

2.-simon: ot negizlarga qo`shilib , negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosiga o`xshashlikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: odamsimon, butasimon, tuxumsimon, toshsimon kabi.

3.-lik: ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmetga xoslik ma`nosidagi sifatlar yasaydi: toshkentlik, farg`onalik kabi.

4.-gi, -ki, -qi: ot ravish, va ko`makchilarga qo`shilib, orin, payt va joyga xoslikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: kuzgi, qishki, tashqi, ichki, hozirgi.

5.-dagi: ot negizlarga qo`shilib, o`ringa xoslikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: uyqagi, ko`chadagi.

Sintaktik usul bilan qo`shma va juft sifatlar yasaladi. Ikki yoki undan ortiq so`zlardan tashkil topib, bir belgi anglatiladigan sifatlar qo`shma sifatlar deyi ladi. Qo`shma sifatlar tarkiban quyidagicha bo`ladi:

1) ot+ ot shaklida: mehmondo`st, sohibjamol, jigarrang.

2) sifat+ot shaklida: sofdil, oq ko`ngil, olijanob.
3) son+ot shaklida: uchburchak, besh xonali
4) ot+ fe`l shaklida: tinchliksevar, erksevar.
5) ravish +fe`l shaklida: ertapishar, kechpishar.
Bir umumiy belgi asosida ikki sifatning teng bog`lanishidan hosil bo`ldan sifatlar juft sifat deyiladi. Juft sifatlar quyidagicha hosil bo`ladi:
1. Ma`nodosh yoki ma`nosi bir-biriga yaqin bolgan sifatlarning birikuvidan: tinch-totuv, egri-bugri, qing`ir- qiyshiq.
2. Qarama -qarshi ma`noli sifatlarning birikuvidan : yaxshi-yomon, katta-kichik, uzun-qisqa.

Son so’z turkumlari sifatida.

Predmetning son-sanog`i, miqdori va joylashish tartibini bildiradigan so`zlar son deyiladi. Sonlar qancha? necha? nechanchi? so`roqlaridan biriga javob bo`ladi. Sonlar otga bog`lanadi va ot ifodalagan predmetning miqdorini, tartibini bildiradi: ikki o`rtoq, uch dugona, beshinchi sinf kabi.
Sonlar otga bog`lanmagan holda qo`llanilsa son ifodalaydigan miqdor mavhum bo`ladi. Masalan, ikki karra , ikki to`rt. Sonlarning bu xildagi mavhum holda qo`llanishi arifmetik hisob-kitoblar uchun xosdir.

Sonlar tildagi eng kam tub so`zlari mavjud so`z turkumlaridan hisoblanadi. Binobarin boshqa so`z turkumlaridan son yasalmaydi. Hozirgi o`zbek tilida faol ishlatiladigan 22 ta tub son mavjud: bir, ikki, uch, to`rt, besh, olti, etti, sakkiz, to`qqiz, o`n, yigirma, o`ttiz, qirq, ellik, oltmish, etmish, sakson, to`qson, yuz, ming, million, milliard.

Qolgan sonlar shu sonlarning o`zaro qo`shilishidan hosil bo`ladi. Masalan, o`n besh, bir yuz qirq, ikki ming birinchi yil kabi.
Sonlar harf bilan ham: o`n, ming raqam bilan ham: 10,1000 yoziladi.
.Raqam asosan arifmetik hisob-kitoblarda ishlatiladi. O`zbek tilida sonlarni qo`llashda ikki hil raqamdan foydalaniladi.
1.Arab raqamlaridan. Bu raqam yillarni chislolarni ifodalashda ishlatiladi: 1999 yil- ayollar yili. 9 may -xotira va qadrlash kuni.
2.Rim raqamidan. Bu raqamdan asrlarni, oylarni, s`ezd, konferensiya, sessiya, chaqiriq sanalarini ko`rsatishda foydalaniladi. VI asr, 10.III.2001 yil, XXI chaqiriq X sessiya kabi.

Sonlar so`z turkumlari orasida o`zining nisbatan mavhumligi bilan ajralib turadi. Chunki sonlar ifodalaydigan miqdor tushunchasi mavhum bo`ladi. Masalan,uch, besh, o`n besh kabi sonlarda faqat miqdor tushunchasi bor. Biroq bu niqdor nimaning miqdori ekanligi noaniq, mavhum . Sonlar ot bilan bog`langandagina bu miqdor nimaning miqdori ekanligi oydinlashadi: besh battar, o`n kishi kabi.Sonlar so`z turkumi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:
1. Sonlar boshqa so`z turkumlaridan yasalmaydi, biroq sondan boshqa turkumdagi so`zlar yasaladi: bir+ ik (fe`l,) uch+ lik, (sifat)
2. Sonning muhim morfologik belgilaridan biri turlanmasligidir. Ular ot oldidan kelib, otning miqdorini sanog`ini ifodalab, aniqlab keladi: besh kishi, o`n otliq, yuz uy.

3. Sonlar otlashganda ot bilan bog`lanmaydi. Bu hollarda sonlar ot kabi kelishik qo`shimchalarini olib gapda ot bajaradigan vazifalarda keladi. Masalan, oltovlon ola bo`lsa og`zidagini oldirar. (Maqol.)
4. Sonning modal shakllari songa maxsus son shaklini yasovchi qo`shimchalar qo`shish bilan hosil bo`ladi; to`rt + ta, uch+ ala, besh-ov, olt+ovlon, yuz+larcha kabi.
5. Ko`pincha son bilan ot orasida maxsus sanoq bildiruvchi so`zlar (numerativlar) ishlatiladi: uch kilogramm yog` , o`n gektar yer.
Sonlarning qo`llanilishi birlik, yuzlik va minglik tizimi bo`yichadir. O`ndan yuzgacha bo`lgan sonlarni ishlatishda katta sonlardan boshlab aytiladi: o`n besh, ellik uch, to`qson olti.Yuzdan yuqori sonlarni aytishda kichik sonlardan boshlab aytiladi: bir yuz ellik, bir ming to`qqiz yuz ellik.
Sonlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:
1.Ot oldidan kelib aniqlovchi vazifasini bajaradi: O`rta bo`yli yo`g`on gavdali ko`k movut avrali po`stin kiygan, qirq besh yoshlardagi bir kishi kirdi. (A. Q.)
2.Fe`l oldidan kelib hol vazifasini bajaradi. Fikrlar tuyg`ular o`ylar sonsiz bir - biriga ulashib boradi, chuvalashadi. (O.)
3. Ot yoki fe`lga bog`lanmagan holda ega, to`ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi: besh karra besh -yigirma besh, o`ndan beshni olsa besh qoladi..
Sonlar orasida ma`no va grammatik xususiyatlari jihatidan bir soni alohida ajralib turadi. Bir soni bir tomondan sonlarga xos: bir uy, birinchi uy xususiyatlariga ega bo`lganidek, sonlarga xos bo`lmagan xususiyatlarga ham ega.
Shunga ko`ra bir soni quyidagi ma`nolarda ifodalanadi.
1. Noaniqlik ma`nosini ifodalaydi: Uyimizga bir kishi keldi.
2.Miqdor ifodalovchi so`zlarga va so`roq olmoshlariga qo`shilib ko`plikni, ortiqlikni ifodalaydi: bir talay, bir necha, bir qancha; ba`zan kamlikni ham ifodalaydi: bir muncha. Bular tag`in bir muncha yurgandan so`ng katta darvoza oldida to`xtadilar. (O.)
3.Ot, sifat, fe`l , ravish oldidan kelib ma`noni kuchaytiradi. Bir jum hayratda qolgan chol kalovlanib o`rnidan turdi, ikki qo`llab ko`rishgach, mehmonni taqir po`stakka taklif qildi.(O.)
4.Ayiruv bog`lovchisi vazifasida keladi: bir yig`laydi , bir kuladi.

Sonlar ma`no va grammatik xususiyatlariga ko`ra ikkiga bo`linadi: sanoq sonlar, tartib sonlar. Predmetning son- sanog`i va umumiy miqdorini bildiradigan sonlar sanoq sonlar deyiladi: uch uy, o`ttiz kishi.

Sanoq sonlar asosan otga bog`lanib uning miqdoriy belgisini bildiradi va gapda aniqlovchi vazifasida keladi: besh o`quvchi, o`n bog`.

Sanoq sonlar sanoq so`zlar (numerativlar) bilan ham qo`llaniladi. Sanoq so`zlar predmetning miqdorini donalab sanash uchun ishlatiladigan so`zlardir. Sanoq so`zlar sanoq sonlar bilan birga otga bog`lanib, uning miqdorini bildiradi.

Sanoq so`zlar quyidagicha ma`nolarni ifodalaydi.
1.Predmetning miqdorini bildiradigan sanoq so`zlar: dona, nusxa, nafar, tup.
Masalan, besh tup olma kabi.
2.Predmetning uzunligini, masofasini bildiradi: metr, kilometr, qarich, qadam.
3. Predmetning maydonini bildiradi: sotix, tanob, gektar.

4.Suyuqlikning o`lchovini bildiradi: litr, chelak , flak, stakan, choynak.
Masalan, bir choynak choy kabi.
5.Og`irlikning o`lchovini bildiradi: gramm, kilogramm, sentmetr, tonna.
6.Predmetning qiymatini bildiradi: so`m, pul, tanga, tiyin.
7.Vaqtni bildiradi: minut, sutka, soat , yil.
Sanoq sonlar ma`nosiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:
1)miqdor son 3) chama son 5) taqsim son.
2)dona son4) jamlovchi

Miqdor sonlar predmetning umumiy miqdorini bildiradi va barcha xususiyatlari jihatidan sanoq songa mos keladi: ikki kishi, uch oy, o`n yil kabi. Dona sonlar predmetning donalab sanaladigan miqdorini bildiradi. Sanoq sonlarga -ta qo`shimchasini qo`shish bilan hosil bo`ladi: uch +ta kishi o`nta kitob.
Dona sonlar sanoq so`zlar: nafar, dona, bet, bosh, nusxa kabilar bilan ham hosil bo`ladi: uch nafar, o`n dona, yuz bet, ming bosh, besh yuz nusxa kabi.
Chama sonlar predmetning taxminiy miqdorini bildiradi va quyidagicha hosil bo`ladi.
1.Sanoq sonda -tacha qo`shimchasini qo`shish bilan: o`ntacha, yuztacha.
2.Sanoq songa -larcha qo`shimchasini qo`shish bilan: o`nlarcha, yuzlarcha.
3.Sanoq songa -lab qo`shimchasini qo`shish bilan: o`nlab, yuzlab, minglab.
4.Sanoq songa -lar (da) qo`shimchasini qo`shish bilan: uchlarda, beshlarda,
-lab, -larcha qo`shimchalari o`n yuz, ming sonlariga, - tacha qo`shimchalari esa barcha sonlarga qo`shiladi.
5.Sonlardan keyin chog`li so`zini keltirish bilan. Mashina kuzivida uch chog`li xotin, yosh bolalar va uchta sigir bor edi.(S.A.)
6.Ikki sanoq sonni jihatlash bilan: ikki -uch, o`n -o`n besh .Ular mirzo darvozasiga yaqinlashganlarida besh-olti kishi ot choptirib chiqdi. (P.Q.)
Jamlovchi son predmetning jamlangan to`dalangan miqdorini anglatadi.
Jamlovchi sonlar quyidagicha hosil bo`ladi.
1.Sanoq sonlarga - ov - qo`shimchasini qo`shish bilan: ikkov, ichov, oltov.
2.Sanoq sonlarga -ala qo`shimchasini qo`shish bilan: uchala, to`rtala, beshala.
3.Sanoq sonlarga -ovlon qo`shimchasini qo`shish bilan: to`rtovlon, beshovlon.
- ov , ovlon qo`shimchalari ikkidan yettigacha va o`n soniga -ala qo`shimchasi ikkidan beshgacha bo`lgan sonlarga qo`shiladi . Ikki, olti, yetti sonlariga -ov qo`shimchasi qo`shilganda o`zakdagi bitta i tushib qoladi: ikki- ikkov, olti- oltov. Shuningdek, ikki soniga -ala qo`shimchasi qo`shilganda ham bitta i tushib qoladi: ikki-ikkala.

Taqsim son predmetning taqsimlanish miqdorini bildiradi. Sanoq songa-tadan qo`shimchasini qo`shish bilan hosil bo`ladi: yuztadan, mingtadan.

Bundan tashqari taqsim sonlar: a) sanoq sonning takrorlanib kelishidan ham hosil bo`ladi: ikkita -ikkitadan, beshta-beshtadan . b) Jamlovchi sonning takrorlanib kelishidan hosil bo`ladi: beshov- beshov, oltov-oltov.Oshni uchala - uchala bo`lib olinglar.

Tartib son. Predmetning joylashish tartibini bildiradigan sonlar tartib son deyiladi. Tartib son sanoq sonlarga -nchi (inchi) qo`shimchalarini qo`shish bilan yasaladi: uchinchi sinf, beshinchi daha, o‘ninchi uy. Tartib sonlar so`z bilan

yozilganda -nchi -(inchi) qo`shimchalari so`zga qo`shib yoziladi: birinchi, ikkinchi kabi. Tartib sonlar arab raqami bilan ifodalanganda -nchi, -(inchi) qo`shimchalari o`rnida chiziqcha qo`yiladi: 2- sinf,15- xonadan kabi. Yil , oy chislolarda esa chiziqcha qo`yilmaydi: 1999 yil ,10 sentabr. Tartib son rim raqami bilan ifodalanganda hech qanday belgi qo`yilmaydi: XXI asr, XV sessiya kabi.

Tartib sonlar otlashganda gapda ega vazifasida keladi. Tavakkal qilib saharda bir chovut solamiz ulfatlar o`likday qotadi, shunda ishni boshlaymiz - shivirladi, ikkinchisi.(O.)

Tartib sonlar gapda asosan aniqlovchi: Kelganidan beri bu taraflarda birinchi marta mashina ovozi eshitilishi edi. (S.A.) Chiqish kelishigida tartib sonlar gapda kirish so`z vazifasida kelib, fikrni ifodalanish tartibini bildiradi: birinchidan, ikkinchidan.

Sonlar qo`llanilishiga ko`ra ikki xil: butun va kasr sonlarga bo`linadi. Butun sonlar predmetning butunligicha, qismlarda ajratmagan holda ifodalaydi: besh, o`n, bir yuz ellik.

Kasr sonlar butunning qismini ifodalaydi: yarim, bir yarim, beshdan bir.

Kasr sonlar quyidagicha hosil bo`ladi:

1.Butun son bilan kasr sonning qo`shilishidan : uch yarim, besh taqsim bir.

2.Chiqish kelishigidagi son bilan asosiy shakldagi sonning birikuvidan: uchdan bir, o`ndan ikki.

3. Mazmunan butun emaslikni bildiruvchi so`zlar bilan: chorak, yarim. Butun son bilan kasr son birgalikda qo`llanishi kasrli son deyiladi: uch yarim kabi.

Sonlar tuzilishiga ko`ra uch xil: sodda sonlar, qo`shma sonlar, juft sonlar. Birgina o`zakdan iborat bo`lgan sonlar sodda sonlar deyiladi. O`zbek tilidagi 22 ta tub son sodda sonlardir. Bu sonlar boshqa qo`shma va juft sonlarni vujudga keltiruvchi sonlardir.

Ikki yoki undan ortiq sonlarning birikuvidan tashkil topib, bir miqdor tushunchasini bildiruvchi sonlar qo`shma sonlar deyiladi: o`n besh, ellik olti, bir yuz oltmish kabi.

Qo`shma sonlar quyidagicha tartibda qo`llanadi: a) katta sonlar oldin, kichik sonlar keyin keladi: o`ttiz besh, oltmish olti kabi.b) oldin kichik sonlar, keyin katta sonlar, undan keyin yana kichik sonlar keladi: bir yuz ellik, ikki ming bir.

Ikki sonning ketma -ket kelishi asosida o`zaro teng bog`lanishdan hosil bo`lgan sonlar juft sonlar deyiladi. Juft sonlar quyidagicha hosil bo`ladi:

1.Ikki sonning o`zaro teng bog`lanishidan : ikki -uch, besh-olti.

2.Beshliklarning ketma -ket kelishidan : besh-o`n, o`ttiz- o`ttiz besh.

3.O`nliklarning ketma-ket kelishidan : oltmish-etmish, sakson-to`qson.

4.Yuzliklarning ketma-ket kelishidan : to`rt yuz-besh yuz, olti yuz- etti yuz.

5.Mingliklarning ketma-ket kelishidan: ikki ming-uch ming, besh ming- olti ming.

Son-leksema bilan miqdori, tartibi belgilanadigan ot-leksemalar oralig‘ida ularni o‘zaro bog‘lash, grammatik aloqaga kiritish uchun xizmat qiluvchi lug‘aviy birliklar numerativlar deyiladi. Numerativlar vazifasida mikdor va payt semalariga (ma‘nolariga) ega turdosh otlar ishlatiladi: o‘n somon pul, yigirma kilo paxta, o‘ttiz qadam masofa, o‘n besh nafar yigit, ikki soatlik vaqt, uch jild asar va b.: U…stolning ustiga ikki dona yuz dollarlik «ko‘kcha»ni tashladi (A.M.);Qurolning

quvuri chatanog‘i orasiga tiralgan o‘n olti-o‘n etti yoshlardagi qiznining tanasi titilib yotar…di (A.M.); Nonushtadan so‘ng xizmat muddati tugagan yigirma nafar soldat va bir mayorni kuzatish marosimi bo‘ldi (A.M.);
Quyon sotib sabzini, Boshlavordi to‘y.
Bir bog’ beda keltirdi To‘yonaga qo‘y (E.S.). Ushladim zo‘r laqqani, Naq yuz kilo vazni bor (E.S.).
-Olavergin, ayiqvoy,
Uch donaga uch kilo Asal bersang, bas (E.S.).
Sonlarning otlashuvi.

Sonlarning otlashuvi, sifatlarda bo‘lganidek, sonlar substantivatsiyasi deb ataladi. Bu lisoniy jarayonda son-leksema otning kelishik, egalik va son kategoriyalariga tegishli qo‘shimchalardan birini qabul qiladi, gapda otning shu kategoriyalarga xos vazifasini bajaradi. Otlashgan, ya‘ni substantivlashgan sonlarninggapdagi vazifasi ularning noizosemik vazifasi sanaladi: 1. Sabr qilsang, birni bergan xudo mingni ham beradi (m.); 2. Grammni qadrlamasang, tonnang bo‘lmaydi (m.); 3. Do‘st ming bo‘lsa ham, oz; Dushman bir bo‘lsa ham, kam (m.); 4.Ming ko‘rindi bitta olam, Ming ko‘rindi bitta Egam (R.S.).

Son-leksemalarning barcha ma‘no turlari, shu jumladan, tartib sonlar ham otlashaveradi: Risolat aya… , bir oyog‘ida kalish, ikkinchisi poyaafzalsiz, boshidagi ro‘moli ham yarim yo‘lda tushib qolgan edi (A.M.);

Berilgan misollarning birinchisida birni, mingni sonlari vositasiz to‘ldiruvchi; ikkinchisida tonna soni ega; uchinchisida ming, bir sonlari «bo‘lsa» bog‘lamasi bilan birgalikda kesim; to‘rtinchisida esa, ming soni daraja-miqdor holi vazifasida kelgan. Bular son-leksemalarning grammatik jihatdan noizosemik vazifalaridir. Quyidagi gapda esa, «uch» son-leksemasi otning chegara shakli qo‘shimchasi(-gacha)ni olib, ravish holi vazifasida kelgan:
So‘nggi marta aytaman, Uchgacha aytsang, aytding, Bo‘lmasa, naq otaman (E.S.).
Uch, etti, yigirma, qirq singari son-leksemalar turli xil milliy marosimlar nomini bildirib, ot so‘z turkumi tizimiga tamoman o‘tgan. Bunday «vazifa»da ular miqdor ma‘nosidagi son-leksemalarga omonim hisoblanadi: Shukrullo oyisining ettisini o‘tkazib, yana Rossiyaga jo‘nadi. Bechora oyisining ettisi ham, yigirmasi ham, qirqi ham Shukrullosiz o‘tdi (gaz.) .
-To’rtni to’rtga qo‘shsak, ayt, Necha bo‘ladi, Xolqiz? Barmoklarin sanab der: -Bir, ikki, uch,…besh, sakkiz (E.J.).
Marosim ma‘nolarida qo‘llanganda, ular son hisoblanmaydi, chunki bunday hollarda sonlar transpozitsiya bilan emas, balki konversiya bilan aloqador hodisalar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda baho darajalarini bildiruvchi ikki, uch, to‘rt, besh son-leksemalari ham konversiya ta‘sirida ot turkumiga o‘tgan:
O‘tgan kuni «Tarix»dan Olim «ikki» olgandi (E.S.). Doim «ikkichi» Tolib Bugun oldi birdan besh (E.S.).
-Men-chi, bugun, dadajon, Yuqori baho oldim…

-Mendan oldin-chi, dada, To‘rttasi «Bir» olishdi. Men «ikki» olgan edim, Bari qoyil qolishdi (E.J.); Tasodifan inshodan «Besh» olibdi Noila.
Shubhalanib qaradik Olgan o‘sha «besh»iga. Chunki u biror marta Hattoki «uch» olganmas.
Shuning uchun «besh»iga Biror kishi ishonmas (E.J.).

Ayrim sonlar, masalan, bir, ikki, etti, qirq ishtirokida frazema, parema (maqol) va topishmoqlar ham hosil bo‘lgan: bir pul, ikki pul, etti pushti, etti yot begona; qirqiga chidab, biriga chidamaslik, qilni qirq kesmoq, ettidan biri xizir, etti o‘lchab bir kes; dum-dumaloq bo‘yi bor, etti qavat to‘ni bor (piyoz).

Olmosh so’z turkumlari sifatida.

O‘zicha mustaqil lug‘aviy va grammatik ma‘noga ega bo‘lmasdan, boshqa so‘z turkumlari o‘rnida qo‘llanib, ularning ma‘no va grammatik xususiyatlariga «egalik» qiluvchi mustaqil so‘z turkumlari olmosh deb ataladi. Misollarga e‘tibor bering.
1.Ba‘zan men ne deyman, qubuzim ne der, Asli biz bir-birdan judo tor ekan (A.Bekm.); 2.Jahonlarni qurgan – o’zing,
Zamonlarni bergan – o’zing (R.S.);
3.O’zga yurtda shoh bo‘lguncha, o’z yurtingda gado bo‘l (m.);
4.Manov stol tagiga Yashirvolay o’zimni (E.J.).
5.Qaldirgochlar qachon-u qanday kelar, bimlar kim?

Ular qanday kelishin ko‘rmagan hech kim (E.J.).
Kim?, nima? so‘roqlariga javob bo‘lgan olmoshlar ot o‘rnida kelib, otning lug‘aviy va grammatik ma‘nosini ro‘yobga chiqaradi:

Mayliga, Siz kabi jon-u jahonim Men xam odamlarga baxshida etay (S.Q.); Kiyimi quyib qo‘ygan O’ziga yarashardi (Yo.O.); -Sening xavfing nimadan, Nedan qo‘rqasan, Sichqon? – Mushuk mening kushandam, Juda qo‘rqaman undan (E.J.).
Sifat, son va ravishning ba‘zi turlari o‘rnida qo‘llanuvchi olmoshlar, ma‘nosiga qarab, qanday?, qanaqa?, qachon?, qancha?, qaysi?; son o‘rnida qo‘llanuvchilari esa, qancha?, nechanchi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Misollar.
O, bormi ochunda bundan-da yaxshi,
Bundan-da sevikli, bebaho kalom.

Men-da quvonurman, sen bahor naqshi, Etkurding jonlarga huzurbaxsh payom (O.A.); Bitta ruchka yo‘qolgan,
Aniq emas, kim olgan (E.S.); -Ruchkangni ber, Mirolim,
-Axir, o’zim yozyapman. -Salim, sen-chi, berib tur…(E.S.); Quloqqa ilmas ekan. Birov yoqsa o‘tinni (E.S.); Qizigandan qiziydi O‘rmon bozori,
Barcha jondor chiqargan Sotishga borin (E.S.).

Olmoshlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, birinchidan, til lug‘at sostavida ular ko‘p emas; ikkinchidan, boshqa so‘z turkumlaridan yasalmaydi; uchinchidan, kelishik, egalik va ko‘plik qo‘shimchalarini olib, shaklan o‘zgaradi (ot o‘rnida qo‘llanuvchi olmoshlar, albatta); to‘rtinchidan, sifat, son, ravish so‘z turkumlari o‘rnida qo‘llanuvchilari esa, otlashish(substantivlashish) xususiyatiga ega bo‘ladi.

Olmoshlar, ma‘no va grammatik xususiyatlariga ko‘ra, quyidagi etti guruhga ajraladi: 1) kishilik olmoshlari; 2) o‘zlik olmoshi; 3) ko‘rsatish olmoshi; 4)so‘roq olmoshlari; 5) belgilash olmoshlari; 6) bo‘lishsizlik olmoshlari; 7) gumon olmoshlari.

Olmoshlarning yordamchi so`zlarga aylanishi.

Olmosh mustaqil so‘z turkumlari ichida eng murakkab lugaviy-grammatik kategoriyadir. Bu so‘z turkumining murakkabligi shundaki, ular tizimidagi ayrim leksemalar yordamchi so‘zlarga aylanishga ancha moyil bo‘ladi, lisoniy birliklarning sintagmatik munosabatini ro‘yobga chiqaruvchi grammatik vosita xarakterini kasb etadi. Olmoshlarning bu xususiyati tilning sintaktik tizimida, ayniqsa, faol ko‘zga tashlanadi. Masalan, «Kimki yomonlardan uzoqlashsa, u yaxshilar suhbatiga etishadi»(«Qobusnoma») ergash gapli qo‘shma gapida kimki, u olmoshlari ishtirok etgan. Muhimi shundaki, bu jumlaning qo‘shma gapligi shu ikki olmoshning grammatik vazifasi tufaylidir. Qiyoslang: …yomonlardan uzoqlashsa, yaxshilar suhbatiga etishadi. Kimki, u olmoshlari jumla tarkibidan tushirilgan edi, jumlaning qo‘shma gaplik maqomi ham barham topdi. Demak, olmoshning kimki – u juftligi qo‘shma gap qismlarini (ergash va bosh gaplarni) grammatik jihatdan bog‘lagan, uning me‘yoriy gaplik xususiyatini ta‘minlagan.

Olmoshlar qo‘shma gap qismlarini biriktirish vazifasiga o‘tganda, ular nisbiylashadi, nisbiy so‘zlarga aylanadi. Nisbiy so‘zlarga aylangan olmoshlarning asosiy vazifasi—bu grammatik vazifadir, sintaktik butunlik qismlarini biriktirishdir.

Olmoshlarning yordamchi so‘zlarga aylanishining ikki turi mavjud. Birinchisi juft holda, ya‘ni korrelyativ tarzda yordamchi vositalarga aylanadi. Bunda juft korrelyatlardan biri so‘roq olmoshlaridan, ikkinchisi ko‘rsatish olmoshlaridan bo‘ladi; so‘roq olmoshi xarakteridagilari qo‘shma gapning ergash gap tavsifidagi birinchi komponentida, ko‘rsatish olmoshi xarakteridagilari esa, bosh gap maqomidagi ikkinchi komponentida keladi: kimG‘G‘kimki – uG‘G‘o‘sha, niaG‘G‘nimaiki G‘G‘ u, qaysi – o‘sha, qaerda – u erda va b.: Nimaiki noyob bulsa, u qadrli bo‘ladi; Qaerda tinchlik bo‘lsa, u erda qo‘shiq bo‘ladi va h.k.

Ikkinchisi yakka holda izoxlanuvchi nisbiy so‘z maqomida buladi. Yordamchi lisoniy vositaga aylanayotgan olmosh ergash gapli qo‘shma gapning bosh gapi tarkibida keladi. Bu vazifani turli shakllardagi «shu» leksemasi bajaradi: Shunisi muhimki, guruhimiz talabalarining barchasi yaxshi baholarga qiydi; Maqsad shuki, yaxshi tayyorgarlik bilan oliy o‘quv yurtiga kiramiz.

Olmoshlashish (proniminalizatsiya).

Til bir so‘z turkumidan boshqasiga o‘tishi va unda lisoniy rasmiylashuvi yo‘li bilan ham boyiydi. Yuqoridagi paragraflarda ham aytilganidek, so‘zlarning bir so‘z turkumidan boshqasiga o‘tishi ikki bosqichda amalga oshadi. Ularning birinchi-dastlabki bosqichi t r a n s p oz i ts i ya deyiladi, ikkinchi-yakunlovchi bosqichi esa – konversiyadir.

Boshqa turkum so‘zlarining otga o‘tishi (substantivatsiya), sifatga o‘tishidan (ad‘ektivizatsiya) boshqa turkum so‘zlarning olmoshga o‘tishi farq qiladi. Boshqa turkum so‘zlarining ot yoki sifatga o‘tishida yuqorida tilga olingan har ikki bosqichning amali bo‘ladi (er, xotin, yigit, qiz, bemor, qirq, etti; yaxshi, tilla, zahar,

olin so‘zlarini eslang). «Olmoshlashuv»da esa,faqat keyingi bosqich— transpozitsiyaning amali mavjud, xolos.

Olmoshlashish jarayoni fan tilida pronominalizatsiya deyiladi.

Olmoshlashish jarayonining asosiy xususiyati shundaki, aniq denotatsiya bilan lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlarning semantik ko‘lami mavhumlashib, uning lug‘aviy ma‘nosi xiralasha boradi (eslang: olmosh o‘z lug‘aviy ma‘nosi va grammatik xususiyatiga ega bo‘lmagan so‘z turkumidir).

Hozirgi vaqtda kishi, odam, inson, narsa, er, joy singari bir qator otlarning ma‘no doirasi nihoyatda kengayib, ularning aniq denotatsiyaga asoslangan ma‘nolari xiralashgan. Masalan, «Davramizga odam kelib qo‘shildi», «Ukam narsani stol ustiga qo‘ydi» tipidagi gaplarda odam, narsa leksemalari aniq ma‘noga ega emas. Shu bois tinglovchi bu gaplardagi fikrni tushunmaydi. Keltirilgan bu gaplar «Davramizga notanish odam kelib qo‘shildi», «Ukam qo’lidagi narsani stol ustiga qo‘ydi» shakllarida berilsagina, undagi fikr oydinlashadi, tinglovchi undagi mazmunni tushunadi. Mazkur gaplar «Davramizga bir notanish kelib qo‘shildi», «Ukam qo‘lidagini stol o‘stiga qo‘ydi» tarzida o‘zgartirilsa ham bo‘laveradi: ular mazmunan va fikran me‘yoriy gapga aylanadi. Demak, bu misollarda odam, narsa olmoshlashish bosqichidagi ot turkumiga mansub lug‘aviy birliklardir.

«Bir» soni ma‘nosining mavhumlashib, miqdor anglatmasligi ham uning olmoshlashish jarayonida ekanligidan dalolatdir: bir narsa, bir guruh va b.

Uch shaxs (so‘zlovchi, tinglovchi va o‘zga)ning birligi va ko‘pligi o‘rnida qo‘llanib, ularga xos ma‘nolarni ifodalovchi olmosh-leksemalar kishilik olmoshlari deyiladi. Bunday olmoshlarga men-biz, sen-siz va u-ular kiradi:

Ko‘rinay men ham cho‘g‘day, suyanchig‘ bo‘lay tog‘day (Yo.O.); Birov kutar, biz uni kutsak (Yo.O.); Sen yiroq-yiroqdasan, Endi yuzga tushmas yuz (Yo.O.); Ayting, Siz ziyolimi? (Yo.O.); Uzatildi u beor Otasi tengi cholga (Yo.O.); O‘g‘il-qiz, nevaralar, Xotin tomonda ular (Yo.O.); Sen baxtli bo‘lsang, men ham baxtliman (R.S.); Sen bilganni bilaman men ham (R.S.).

Birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari (sen, biz; sen, siz) faqat shaxs(kishi) ma‘nosida ishlatiladi:

Yurakda bor gapimni Sen bilan gaplashaman.
Axir, axir. sen bilan Men dildan gaplashaman (S.H.);
Sen ko‘nsang, men ko‘nsam.Ko‘ngilga qaytsak..(O.A.)

Uchinchi shaxs birliini bildiruvchi u olmoshi esa o‘zga shaxs ma‘nosidan tashqari (Chiqardi u yomon nom, Ko‘zlari o‘yli endi. Yo.Ochilov), narsa-predmetlar ma‘nosida ham ishlatiladi. «U» olmoshining shaxs ma‘nosini yoki narsa-predmet ma‘nosini bildirishi matn mazmunidan anglashiladi. Masalan, quyidagi misralarda bu olmosh o‘zga shaxs ma‘nosini anglatadi:

Yosh jangchilar bo‘ldi qurbon, Kimlar uchun berdi u jon (R.S.);
Yo‘ldan ozdirdi shayton, Yuzlari loyli endi

Chiqardi u yomon nom, Koʻzlari oʻyli endi (A.Bekm.); Uzatildi u beor Otasi tengli cholga (A.,Bekm.)

Quyidagi misollarda 3-shaxs kishilik olmoshi (u) narsa-hodisalar maʻnosini anglatadi:

Bir oʻgʻlim olgani moshinning quli,
Erta-yu kech u shuni yuvib-taraydi (S.H.);

Kitob – muqaddas neʻmat, uni koʻz qorachigʻiday asrang (g.;); SheʻR ilohiy nurli yoʻldir, Unga shoh-u gado quldir (Yo.O.); Mayli, u oddiy temir, Nomi kurol, bari bir (E.S.).

Kishilik olmoshlari substantiv olmoshlar hisoblanadi; ular egalik va kelishik qoʻshimchalarini olib, turlanadi. Ot-leksemalarning qaysi kelishik shakli gapda qanday vazifada kelsa, kishilik olmoshlari ham oʻshanday vazifalarni bajaradi. Misollarga eʻtibor bering.

1.Men boshqamas, sen boshqamas, ey odam, Tildan chiqqan tilga kirar bir kuni (R.S.);

Sen yiroq-yiroqdasan, Oyoq etmas yoqdasan (Yo.O.); Hali ham zamonni tushunmaymiz biz,
Hali ham olamni tushunmaymiz biz (R.S.);
Siz borsiz, bu dunyo charogʻon butun (O.A.)

2.Sening soʻzing boshqa, mening soʻzim boshqa (R.S.);

Menga qoʻshil, senga qoʻshilay, Meni angla, men seni anglay (R.S.); Qilsang yaxshi bir niyat, etarsan unga albat (R.S.);
Har lahza OʻUziga qilaman shukur,
Ona, Sizga farzand qilgani uchun (O.A.).

Birinchi guruh misollarda men, sen, biz, siz olmoshlari bosh kelishigi shaklida boʻlib, gapda ega vazifasini bajargan; ikkinchi guruh misollarda esa, ular qaratqich, joʻnalish, tushum kelishiklari shakliga kirib, gapda karatqich aniqlovchi (mening, sening), vositali(menga, senga, unga, sizga) va vositasiz toʻldiruvchi (meni, seni) boʻlib kelgan.

«Men» olmoshidan boshqa barcha kishilik olmoshlari «-lar» qoʻshimchasini olib, turli xil uslubiy qiymat kasb etadi. Ayniqsa, «-lar» qoʻshimchasi «sen» olmosh-leksemasiga qoʻshilganda, soʻzlovchining tinglovchiga nisbatan mensimaslikka oʻxshash «sovuq» salbiy munosabati ifodalanadi: Senlarni deb men makonimdan ayrildim, issiq joyimni sovuq qildim (gaz.). «-lar» qoʻshimchasi «biz», «siz» olmoshlariga qoʻshilganda, soʻzlovchi va tinglovchining birdan ortiqligi maʻnosiga hurmat ottenkasi ham qoʻshilganday boʻladi. Misollar.

OʻTganlarning chirogʻini yoqar olam, OʻTganlarning kelajagi ekanmiz bizlar (R.S.); Rohat ham, azob ham qoʻshilib ketgan Bizlarda tugʻgilar hayot bolasi (R.S.); OʻZim esa Sizlarga Ishni oson qilaman (E.S.); Bir sinf koʻchdik, Yorugʻ yuzlar. Dam olamz Endi bizlar (E.J.); Shogirdlarim, Sizlarga faqat oq tilaklarim,
Oq yoʻl endi, shogirdlarim, parvozga shaysiz! (E.J.).

O`zlik olmoshi.

Olmoshning bu turiga faqat «oʻz» leksemasi kiradi. «O`z» olmosh- leksemasi grammatik jixatdan koʻp vazifali va koʻp maʻnolidir. Bu olmosh koʻproq shaxs

ma‘nosidagi otlar (o‘zim-o‘zimiz, o‘zing-o‘zingiz, o‘zi-o‘zi) o‘rnida, ayrim nutqiy lahzalarda narsa-predmet otlari (gulning o‘zi, temirning o‘zi: Bugun pul topishning o’zi mashaqqat. O.A.) o‘rnida ham ishlatilaveradi. Quyidagi misollarda «o‘z» leksemasi shaxs ma‘nosini bildiruvchi otlar o‘rnida qo‘llangan.

Sening o’zing – mening o’zim,
Holing nadur, bori merim (R.S.)» Havaslarim o‘ldi, balkim o’zim ham! (O.A.);
Jahonlarni qurgan – o’zing, Zamonlarni bergan – o’zing, Davronlarda yurgan – o’zing, Dovonlarni ko‘rgan –o’zing (R.S.); Sening yo‘ling – mening yo‘lim,
Bizga faqat pul-mul emas, O’zingiz ham keraksiz-a..(S.H.); Ko‘rgan qo‘shni juvonlarUyalib labin tishlar.
Ko‘zguga suq tikilar Eng go‘zal der o’zini (Yo.O.).

«O‘z» olmosh-leksemasi nutqda asosan ot va kishilik olmoshlari bilan bog‘lanadi: o‘z uyim, o‘z ukam, o‘z maktabim, o‘z qiziqishim; mening o‘zim, sening o‘zing, uning o‘zi; bizning o‘zimiz, sizning o‘zingiz, uning o‘zi kabi.

«O’z» olmoshi ot bilan bog‘langanda, sifat va sonlar kabi unga tobedoshlik va bitishuv yo‘llari bilan tobelanadi, karatqichli va atributiv xarakterdagi otli so‘z birikmasining tobe qismi bo‘lib keladi.

«O‘z» olmosh-leksema ot bilan bog‘langanda, ikki xil lisoniy xususiyat kasb etadi:

a)ot-leksema qaratqich kelishigi shaklida, «o‘z» olmoshi esa egalikning 3- shaxs shaklida bo‘lib, so‘z birikmasining ikkinchi qismini ishg‘ol qiladi: ukamning o‘zi, qishloqning o‘zi(da), ustozning o‘zi;

b)«o‘z» olmoshi prepozitiv (oldingi pozitsiyada) tarzda ot-leksemaga bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi, otli so‘z birikmasining tobe qismi xarakterida belgili («-ning» qo‘shimchali) va belgisiz («-ning» qo‘shimchasisiz) shakllarda keladi: o‘zimning vatanim-o‘z vatanim, o‘zimning farzandim-o‘z farzandim, o‘zimning mashqlarim-o‘z mashqlarim va h.k.

«O‘z» olmosh-leksemasi hamma olmoshlar bilan emas, faqat kishilik olmoshlari bilangina sintagmatik aloqada bo‘ladi, qaratqichli so‘z birikmasi hosil qilib, uning postpozitiv(keyingi) a‘zosi maqomida ishtirok etadi: mening o‘zim G‘G‘ bizning o‘zimiz; sening o‘zing; sizning G‘G‘ sizlarning o‘zingiz; uning o‘zi G‘G‘ ularning o‘z(lar)i. Misollarga e‘tibor bering.

«O‘z» olmosh-leksemasi kishilik olmoshlari bilan sintagmatik aloqada bo‘lganda, kishilik olmoshlari grammatik emas, balki uslubiy-pragmatik qiymat kasb etadi, ta‘kid tavsifidagi mantiqiy urg‘u ostiga olinadi: mening(senig yoki uning emas!) o‘zim, bizning (sizning yoki uning emas!) o‘zimiz; sening (mening yoki uning emas!) o‘zing, sizning (bizning yoki ularning emas!) o‘zingiz; uning (mening yoki sening emas!) o‘zi, ularning (bizlarning yoki sizlarning emas!) o‘z(lar)i va b.

Sening yo‘ling – mening yo‘lim,
sening o’zing –mening o’zim (R.S.);
Tiriklikning o’zi baxt, Bor kuningga shukur qil (S.H.).

Ba‘zan «o‘z» olmosh-leksemasini «boshqargan» kishilik olmoshlari belgisiz qaratqich kelishigi shaklida bo‘ladi:

Oyog‘ing ostida yotibman, Alloh,

Gunohim kechirgin, sen o’zing – panoh (R.S.).
«O‘z» olmosh-leksemasi kishilik olmoshlarisiz ham qo‘llanadi. Verbal (shakliy) qiyofaga ega bo‘lmagan (noverbal) kishilik olmoshlari matn mazmunidan sezilib turadi: O’zim esa sizlarga Ishni oson qilaman (E.Sohibnazarov);
Avval-o’zing, Oxir –o’zing, Botin – o’zing, Zohir- o’zing,
Basir-o’zing, Kabir –o’zing, Ham Xoliq-u Qodir – o’zing (R.S.); Suyunchiga ruchkani Sovg‘a kilay o’ziga (E.S.).

O‘zlik olmoshi «-niki» qo‘shimchasini olib ham, kishilik olmoshisiz kela oladi:
Bilganlarim –o’zingniki, olganlarim –o’zingniki, Ko‘rganlarim –o’zingniki, holing nadur, jonim erim? (R.S.).

O‘zlik olmoshi (o‘z) otga uning oldidan aniqlovchi maqomida tobelanganda, so‘z birikmasi va gap trkibida sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: o‘z ishim (ishimiz), o‘z ijodim(ijodimiz); o‘z ishing (ishingiz), o‘z ishi(ijodi) va b. :

O‘zlik olmoshi kishilik olmoshlari bilan postpozitiv (kishilik olmoshlaridan keyin) tarzda bog‘langanda, gapda qaralmish vazifasida keladi: Bevaqt o‘lim, nohaq tuhmatdan Yaratganning o’zi asrasin (Yo.Ochilov); Normat bobo shahar aylantirgani faqat kichik nabirasining o’zini olib ketdi (gaz.).

O‘zlik olmoshi («o‘z» leksemasi) yakka, ya‘ni postpozitiv holda qaratqich aniqlovchisiz kelishi ham mumkin. Bunday lisoniy imkoniyat bu olmoshning asosan birinchi va ikkinchi shaxs shakllari uchun xosdir, uchinchi shaxs shakli esa, bu imkoniyatdan xolidir: o‘zim G‘G‘o‘zimiz (o‘zim keldimG‘G‘o‘zimiz keldik;, o‘zingG‘G‘o‘zingiz (o‘zing o‘qidingG‘G‘ o‘zingiz o‘qidingiz) kabi: -Dada, bugun buvimni Samolyotga mindirdim.
O’zim rulga o‘tirib, Rosa sayr qildirdim (E.S.); Qovoq uyib menga, hey, Katta tutma o’zingni (E.S.);
Yo‘ldan adashgan qiz, O’zi sezmay shoshgan qiz…(Yo.O.); Jilovlanmas, tan bermaydi aqlga,
O’zi xondir, o’z so‘zidan qolmaydi (Yo.O.);
Ot o‘rnida qo‘llanuvchi o‘zlik olmoshi otning barcha grammatik shakllarini olib, ular bajargan vazifada kela oladi. Bular o‘zlik olmoshining izosemik vazifasiga kiradi.

Ko`rsatish olmoshlari.

Ko‘rsatish olmoshlari tizimini u, shu, o‘sha, ushbu, ana, mana, anov (ana u), manov (mana u) singari lug‘aviy birliklar tashkil qiladi. Ular ko‘pincha ot-leksemalarga bitishuv yo‘li bilan tobelanadi, sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: Onasidan bu mashmashalarni eshitgan Shaxzoda karshilik ham qilib ko‘rdi (A.M.); Ikki yilni osmonlarga bo‘y cho‘zganarmonlarga o‘xshash anna shu qirlardan…ayro o‘tkazish vaqti etganligidan ko‘ngli ma‘yus tortib qolgandi (A.M.); Ushbu holat yuragim chokini sitib borar (A.Bekm.);
Qorachig‘da porlagan – o’sha, Iqboliga chorlagan – o’sha. Dunyoni tor aylagan – o’sha, Mehr qolur, muhabbat qolur (M. Yu.); O’sha uchko‘chada aytilgan qarg‘ish Qulog‘im ostida jaranglar hamon (S.Q.); Kecha chorvog‘imizda Akam hashar qilgandi. Shu hasharga O‘rtoqlari kelgandi (E.J.); Mening xayolimda jonlanar tag‘in,

Nigohim chulg‘agan ul yor tal‘ati. Ishq bu – ko‘ngil yo‘lin aylagan yaqin,
Kelaqol men o’sha, ishqning dav‘ati (O.A.).

«U» olmosh-leksemasi 3-shaxs kishilik olmoshi bilan shakldoshlik xususiyatiga ega. «U»ning qaysi vaqtda kishilik olmoshi, qaysi vaqtda ko‘rsatish olmoshi ekanligini farqlash qiyin emas. Kishilik olmoshi bo‘lganda, «u», ma‘nosiga qarab, kim? yoki nima? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini olib, shu kelishik shakllari taqoza etgan gap bo‘laklari vazifasida keladi: 1. U o‘zini tomosha qilayotganlarga yovqarash qildi…(A.M.)—bosh kelishigi shaklida, ega. 2. Mana, bugun uni harbiy xizmatga jo‘natyapti (A.M.)--tushum kelishigi shaklida, vositasiz to‘ldiruvchi. 3. Bizlar endi to‘rt chorak Unga itoatdamiz (E.J.) – jo‘nalish kelishigi shaklida, vositali to‘ldiruvchi va b.

«U» leksemasi ko‘rsatish olmoshi bo‘lganda, ot-leksemalarga bitishuv yo‘li bilan tobelanib, «qaysi» so‘rog‘iga javob bo‘ladi., kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini olmaydi:

Nega qarab turasizlar? U odam Sizlarning yordamingizga muhtoj-ku?! (gaz.)—qaysi odam?, sifatlovchi aniqlovchi.

«U» olmosh-leksemasi «ul» shaklida ham ishlatiladi: Navoiy ham demish, bilsang: «Kimki zararni kasb etar, Ul zarari elga emas, Bil, faqat o‘ziga etar (E.J.).

Ko‘rsatish olmoshlarining «U» dan boshqa barcha turlari faqat ot-leksemalardan oldin kelib, ularga bitishuv yo‘li bilan tobelanadi, sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: Axir, bu yurtning…o‘z xalqi, o‘z farzandlari bor (A.M.);

Bu holat har bahorda Yana bo‘ladi takror (E.J.);

Bu dunyoda sen bor ekansan,
Undan nafas olmoq biram xush (S.H.);

Bunday ofatni qayta ko‘rmasin hech bir zamon (S.H.);

Ushbu damni eslasam, zirqirar yuraklarim (E.J.).

Anov, manov, manavi olmoshlari nutqning oddiy so‘zlashuv shakliga xos bo‘lib, tarixan ikki ko‘rsatish olmoshining qo‘shilishidan hosil bo‘ldan; ana, mana olmoshlariga u, bu olmoshi birikkan: anaQuq anov, manaQuqmanov, mannaQbuqmanavi. Misollarga e‘tibor bering.

I-ya anov tirrancha Meni quvib o‘tdimi? (E.S.);

Anov daraxt tagida Xol, hujumga bo‘l tayyor (E.S.); Yuragi iztiroblardan arimadi: hissiz va loqaydlik bilan Shahzodaga etishish uchun manavi qattol o‘lim komidan omon qolishi kerak (A.M.);

U, bu, shu, o‘sha olmoshlarining ul, bul, shul, o‘shal kabi tarixiy muqobillari ham mavjudki, ular badiiy ijodda, xususan, hozirgi zamon she‘riyatida ham ishlatiladi, o‘ziga xos ekspressiv ottenkaga ega bo‘ladi:

Hayot oqar daryodir, to‘lqinida oq, o‘g‘lim,
Bul qirg‘og‘i-fidolik, mardlik-ul qirg‘oq, o‘g‘lim (A.Bekm.); Dunyo o’shal, o’shaldir zamon,
Ketib borar goh shod, goh giryon (A.Bekm.);
Ul tulpor zakovatli chavondozga yarashar (Yo.O.);
Sochlar oqqa belandi, ko‘pi ketdi arazlab.

Ammo o’shal qarashlar, o’shal jonbaxsh noz qoldi (A.B.).

U, bu, shu, o‘sha ko‘rsatish olmoshlari bir umumiy ma‘noda farq qilmasa- da, har xil ustama jilolarga (ma‘no ottenkalariga) egaligi bilan farq qiladi. Xususan, shu olmoshi so‘zlovchiga ancha yaqin bo‘lgan narsa-hodisalarni, bu olmoshi nisbatan yaqinroq bo‘lgan narsa-hodisalarni, u, o‘sha olmoshlari esa, aksincha, so‘zlovchiga nisbatan uzoqroq narsa-hodisalarni ko‘rsatish, ularga ishora qilish ma‘no ottenkalariga egadir:

Umid niholimni kesding arralab, Jonim sug‘urding zarra-zarralab.
U esa o‘smoqda dilxush bo‘y tarab, Raqibim, bu kasbu koringga shukur (A.Bekm.);
Insof tilab sengaoqardi bu bosh,
Boshimga yog‘dirgan qoringga shukur (A.Bekm.);
Axir, axir, ey birodarlar,
Bu hovlining yo‘q-da bolasi (S.H.);

O‘sha erda uylanib o‘g‘il, Qizlar esa erlarga tekkan. Farzandlari o‘sib-ulg‘aygan, O’sha davlat odami ular (S.H.); Duogo‘y shu tilingdan bir o‘pay, onam (A.Bekm.).

Hozircha, og‘ayni u ishlarni ortga surib turing, bu ishlarga tezroq qo‘l uring, vaqt tobora tig‘izlashib bormoqda (gaz.).

U, bu, shu, o‘sha olmosh-leksemalari ot va sifat-leksemalariga xos shaxs va narsa-predmetlarga ishora ma‘nosini bildiraveradi: ular ko‘p ma‘noli va ko‘p vazifali olmoshlardir. Bu olmoshlarning sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelishi ularning izosemik vazifasi hisoblanadi, substantivlashgan tarzda sifatlovchi aniqlovchilikdan boshqa vazifalari esa, ularning noizosemik vazifasi sanaladi.

Shu olmoshi «-ki» yuklamasini olib, ergash gapli qo‘shma gaplarda bosh gapning kesimi vazifasida ham keladi: Maqsad shuki, bu erlar bog‘-u rog‘larga aylanishi kerak (gaz.).

U, bu, shu, o‘sha olmoshlari -day, -dek qo‘shimchalarini olib, narsa-predmetlarning belgi-xususiyatlariga ishora ma‘nosini bildiradi, shu shakllarning «-in» unsurini olgan variantlarida (shundayin, bundayin, o‘shandayin) narsa-predmet belgi-xususiyatiga bo‘lgan ishora ma‘nosi yana kuchayadi:

O‘zi shunday dunyo ekan, So‘zi shunday dunyo ekan (R.S.); Bunday ofatni qayta ko‘rmasin hech bir zamon (S.H.); Faqat ayolda bor bundayin qudrat,
Faqat muhabbatda shundayin qudrat (S.H.); Bizda ham ona-yu, ena bor edi,
Shundayin xushsuxan, shunday beozor (S.H.).

Shu, bu, o‘sha olmoshlari harakat-holatning daraja-miqdoriga ishora ma‘nosini ham bildiradi, Bunday ma‘no ana shu olmosh-leksemalarga «-cha», so‘ngra «-lar», «-lik» qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi. Bu, shu, o‘sha olmoshlariga «-cha» qo‘shimchasi qo‘shilganda, leksemaning o‘zak va qo‘shimcha oralig‘ida bir «-n-» tovushi orttiriladi:

-Shuncha og‘ir yuk bilan O‘zingni qiynab bekor, Yurganingni qara deb, Kuyinar onaizor…(S.H.); Men seni shunchalik sog‘indim, jonim…(O.A.); Bunchalar sevgimni sen kech anglabsan… (R.S.); Shunchalar yiroqda yaralmish olam …(R.S.); Shunchalar dilbarsan, dildor shunchalar, Ko‘ksimda gulladi mudroq g‘unchalar (A.Bekm.); Dilrabo, yo‘lga qaratding bunchalar,
Yuraging toshdan ekanmi shunchalar (S.H.).

So`roq olmoshlari.

So‘roq olmoshlari tizimi kim (kimlar), nima(nimalar), qaysi, qanaqa, qanday; qachon, nechun, nega; necha G‘G‘ nechta, qancha; nechanchi singari leksemalardan tashkil topadi. Bunday olmoshlar, noaniq shaxsni, narsa-predmetni, belgi-xususiyatni, paytni, miqdor-darajani so‘rab, aniqlash ma‘nolarini bildiradi: Biz nima uchn jang qilamiz?! Kimga qarshi kurashamiz, kimni himoyalaymiz?! (A. M.); Hayot shu zayda davom etaversa, oqibat nima bo‘ladi ?! (A.M.);
Yolg‘iz qolgach, qo‘lini So‘raganlar ko‘p bo‘ldi.
Nechalarning umidi Intizorlikda so‘ldi (S.H.);
Armonlaring qayda qoldi? Davronlaring qayda qoldi? (R.S.);
Faxrimiz o‘lgan-da: qabringiz qani ? Edingiz urug‘ning shuhrati, shani (A.Bekm.);
Qanday gunoh qilgan ekan odamzod, Dunyo yukin ko‘tarib, qayga intilar? (R.S.).

So‘roq olmoshlari ham, olmoshning boshqa turlarida bo‘lganidek, shaxs va narsa-predmet otlarining, belgi-xususiyat sifatlarining, miqdor-daraja, o‘rin-payt ravishlarining ma‘nolarini aniqlash uchun berilishiga ko‘ra, quyidagi vazifa turlariga ega: 1) otga nisbatan ishlatiluvchi so‘roq olmoshlari: kimG‘G‘kimlar, nimaG‘G‘nimalar; 2) sifatga nisbatan ishlatiluvchi so‘roq olmoshlari: qanday, qanaqa, qaysi; 3) songa nisbatan ishlatiluvchi so‘roq olmoshlari: qancha, nechta, nechanchi; 4) ravishga nisbatan ishlatiluvchi so‘roq olmoshlari: kachon, qancha, qaer.

Ot ma‘nosini aniqlashga xizmat qiluvchi so‘roq olmoshlariga kim G‘G‘ kimlar, nima G‘G‘ nimalar kiradi. Bu olmoshlar substantiv olmoshlar deb ham ataladi. Ular otga xos barcha kategorial qo‘shimchalarni (kelishik, egalik va ko‘plik) olib, ularning grammatik shakllariga kira oladi: Mehringizni kimlardan topaman endi (R.S.);
…Boshin changallab kimlar, Kim yuragin ushladi…,
Kimning ko‘zi qo‘kargan, Kimning esa og‘zi qon (A.Bekm.);
Nimam yoqdi bilmadim, Menga qolding boylanib (E.S.); Kimlarga sevgi ham ermak bo‘ladi…(S.H.);
Tabiat chiroyini nimaga ham o‘xshatay ?(S.H.);
Bir mamlakat edik ilgari, Sarhad nima bilmasdik, rosti (S.Hojiboev); O‘tganlardan nima qoldi, xotira qoldi (R.S.).
Kim bersa bir saboq, ustoz-pir dedim…(A.Bekm.);

Nima olmoshi ba‘zan, uslub talabiga ko‘ra, «ne», «neki»(ba‘zan «na»: Senga gulim etmadi, na qilay? Senga ohim etmadi, na qilay ? R.S.) shakllarida ham uchraydi; otning kelishik qo‘shimchalarini qabul qiladi, «-lar» qo‘shimchasini ham olib, noma‘lum shaxs, narsa-predmet, belgi-hususiyat, o‘rin-payt ma‘nolarini kuchaytiradi:

Sog‘insak ham, ne iloj, Dardni ichga yutamiz (S.H.); Oshiqqa ne aziz bo‘lsa dunyoda,
Baridan sevgani azizroq bo‘lar (S.H.);
Ne esalar, edi seni, ne olsalar, oldi seni,
Ne desalar, dedi seni, Xoling nadir, xori erim (R.S.);
Ne keltirdim, nelar oldim, Nelar bo‘ldim, bilolmadim (R.S.);

Odamiylik uchun neki kerak, oling (Yo.O.); Atrofida neki bor, Fikrin tortar bari (E.J.)

Yuqorida ham aytilganidek, sifat va ravish o‘rnida qanday?, qanaqa? olmoshlari ishlatiladi:

Bosh qotirdik barchamiz Nima sovg‘a qilsak deb. Istiqlol bayramiga Qanday sovg‘a bo‘lar deb (E.J.); Men, axir, qanaqa Bugunman unga—

Dardlarim bitmasam ro‘yi-rost, halol (A.Bekm.);

-Qanaqa savol ekan, Qani, ayt-chi, Botir? (E.J.);

Bir kunda uch «2»ni Qanday olding sen, o‘g‘lim? (E.J.).

Bu olmosh-leksemalarning ham qay tarzida qisqargan shakli mavjud. Bu shakl ko‘p ma‘noli va ko‘p vazifali bo‘lib, birinchidan, sifat o‘rnida kelib, narsa-predmetning noaniq belgi-xususiyatiga ishora m‘nosini bildirsa, ikkinchidan, ravish o‘rnida kelib, uning noaniq payti va noaniq o‘rni ma‘osiga ishora ma‘nosini bildiradi.

Qaysi olmoshining qisqargan shakli –qay otga bog‘langanda qaysi olmoshining, fe‘lga bog‘langanda qaerga, qaerda olmoshlarining ma‘nosini bildiradi, ularning gapdagi vazifasini bajaradi:

-Unda yordam berayin, -Qay ko‘chada turasan? (E.J.)—otga (ko‘cha) bog‘langan, qaysi olmoshining qisqa shakli; sifatlovchi aniqlovchi vazifasida; Otang qayga ketdi, qaylarda onang? (A.Bekm.)—fe‘lga bog‘langan (ketdi), qaerga, qaerlarda olmoshlarining qisqa shakli, o‘rin hollari vazifasida. Yana: qay olmoshi kuyidagi gapda –dan qo‘shimchasini olib, sabab ravishi o‘rnida kelgan, noaniq sababga ishora ma‘nosini bildirgan: -Buni men qaydan bilay, Qanday bolasan, Bozor? (E.J.);

Sabab ravishi o‘rnida qo‘llanib, noaniq sababga ishora qiluvchi maxsus so‘roq olmoshi ham bor. Bu – nega leksemasidir:

Quy deganda qo‘ymasdan, Nega birdan to‘xtading? (E.J.).

Ravish o‘rnida qo‘llanuvchi olmoshlardan biri – «qachon»dir. Bu olmosh noaniq paytni bilish ma‘nosida bo‘lib, gapda payt holi vazifasida qeladi: U qachon keladi, keyin qachon junaymiz, hozircha bir narsa deyish qiyin (gaz.);

Noma‘lum shaxs, narsa-predmetni aniqlash ma‘nosida qani olmoshi ham ishlatiladi:

Mening yuragimni bir dard qiymalar, Bahorga etmayin ketganlar qani? (S.H.);

To‘g‘ri bo‘lsa gapingiz, G‘ildirag-u, ro‘l qani?
«Bi-bib»lagan signal-u, Unga katta yo‘l qani? (S.Q.)

Eslatma. Qani olmoshi «Alisher, Ra‘no va Zumradlar qani?» singari gaplardagina so‘roq ma‘nosini bildiradi. Bu leksema boshqa nutqiy lahzalarda modal so‘zga aylanadi, gapda kirish bo‘lak vazifasida keladi. Misollar.

Inshoni yozgan bo‘lsang, Tezroq cho‘zib qo‘y, qani! (E.S.);

-O‘quvchi domlaga der: -Domla, bir savolim bor.

-Qanaqa savol ekan, Qani, aytgin-chi, Bozor! (E.J.).

So‘roq olmoshlari gapda hamma vaqt ham javob talab qiladigan ma‘noga ega bo‘lmaydi. Xususan, U mening kimligimni so‘radi; Uning qaerga ketganligi noma‘lum; Rossiyaga qachon borishimiz aniq emas singari gaplarda kim, qaer,

qachon olmoshlari javob talab qiladigan so‘rash ma‘nosiga ega emas: Qariya bir umr chorvaning orqasidan kezib, chinakam hayot nimaligini bilmay o‘tdi (A.M.);
Belgilash olmoshlari.

Biror shaxs yoki ularning guruhini, biror narsa-predmet yoki ularning guruhini, belgi-xususiyatini, miqdor-darajasini noaniq holda umumlashtirib ko‘rsatishga xizmat qiluvchi leksemalar belgilash olmoshlaridir. Bunday olmoshlarga xar, har kim, har narsa, har nima, har qancha, har bir, hamma, bari, barcha, butun, ba‘zi leksemalari kiradi: Hech kimning gapi qovushmas, barchaning ta‘bi tirriq, borlig‘ini g‘amginlik qamrab olgan (A.M.); Xohlagan niyatiga Etishaversin hpr kim (E.J.);Ko‘zga nima ko‘rinsa, Barin bilmoq istaydi (E.J.); Qiz ko‘chaga chiqqan dam Barcha suq qarashardi (Yo.O.);
Titkilamay kitob-daftar, Olim bo‘lib qolsam-a,
Hamma bo‘lib ta‘zimda, Qulluq qilib turishsa (E.S.);
Hammaga oftobday mehribon edi, Oftobday barobar edi barchaga (S.H.);
Har qandayin ekin ham Men bor joyda dami past (E.J.).

Belgilash olmoshlaridan har kim, har kimsa, har nima, har narsa, har qaysi ot o‘rnida qo‘llanadi, otning kelishik va egalik singari kategorial shakllariga kiradi, ularning gapdagi vazifasini evaz qiladi:
1. Mehnatini qilar har kim, Qo‘shig‘ini aytar har kim..(R.S.); 2.Har kimning bir zebosi bor, Bozorida savdosi bor (R.S.);
3.Hammasini bilgan – o‘zing, Hammani sen ko‘rgan – o‘zing (R.S.);
3.Bezaklarsiz barchaga birday tanilgan bo‘lsin (Yo.O.); Go‘zal jilmayishlaring, Go‘zal iymanishlaring,
4.Oddiy, biroq barchadan Cho‘g‘day kiyinishlaring (Yo.O.).

Keltirilgan misollarning birinchisida har kim olmoshi bosh kelishigi shaklida bo‘lib, gapda umumlashgan noaniq shaxs ma‘nosidagi ega vazifasini bajargan; ikkinchisida har kimning olmoshi qaratqich kelishigi shaklida, gap ega (zebo) sining qaratqich aniqlovchisi.

Uchinchi misolda hammasi(3-shaxs egalik qo‘shimchasini olgan:-si), hamma olmoshlari otning tushum kelishigi shakliga kirib, gapda vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib kelayotir.

To‘rtinchi va beshinchi misollarda barcha olmoshi ishtirok etgan: to‘rtinchi gapda jo‘nalish kelishigi (barchaga), beshinchi gapda esa, chiqish kelishigi(barchadan) shakllarida kelib, vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.
Demak, belgilash olmoshlari ham ot, sifat, son va ravish-leksemalar va ularning ma‘nolarini umumlashtirgan tarzda evaz qiladi. Shu bois ularni vazifa va ma‘nosiga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin:
1)ot-leksemalarni evaz qiluvchi belgilash olmoshlari: har kim, har nima, har narsa: Yangi yil istagi bo‘lar har kimda..(S.H.);Yor bo‘lar qiz o‘shanga, Har kim o‘zidan ko‘rsin (Yo.O.); Har kim o‘ziga loyiq Topsin yorug‘ yulduzin (Yo.O.); Har narsaga to‘ysa-ku bo‘lar, Diydorga-chi, yo‘q, to‘yib bo‘lmas (S.H.).
2)sifat-leksemalarni evaz qiluvchi belgilash olmoshlari. Ular gapda ot orqali ifodalangan gap bo‘lagiga tobe bog‘lanadi: har qanday, har qanaqa: Bu besh kunlik yorug‘ dunyoning Yorug‘ kechsin har bir lahzasi (Yo.O.); Har qanday non-tuzningham Tamin his etgan tildir (Yo.O.).

3)son va ravish leksemalarni evaz qiluvchi belgilash olmoshlari; bunday olmoshlar ham ot-leksemalarga, ba‘zan fe‘l-leksemalarga tobelanadi: har qancha; ravishleksemalarnievazqiluvchibelgilasholmoshlarihar qachon, har payt: Savri Ulug‘bek bilan har qachon uchrashganda, bir gap-«Meni kechir»ni takrorlardi (g.); Mushuk har qancha chiransa ham, narvonga ikkinchi oyog‘i etmasdi.Izoh. Belgilash olmoshlari tizimidagi har qaysi,har narsa, barcha, bari, ba‘zi, butun leksemalari ko‘p vazifali va ko‘p ma‘noli bo‘lib, ot, sifat, son va ravish-leksemalar o‘rnida kelib, ularning noaniq va umumlashgan ma‘nolarini evaz qilaveradi:

G‘animatdir hayotning, umrning ham ko‘lami, G‘animatdir hammasi-hammasidan odami (S.H.); Har narsani tortishda Bordir toshu tarozi (S.H.).

Bo`lishsizlik olmoshlari

Shaxs, narsa-predmet, belgi-xususiyat, harakat-holat belgisi ma‘nolarini inkor etuvchi olmoshlarni bo‘lishsizlik olmoshlari deyiladi. Bunday olmoshlar bir, narsa, kim, kimsa, nima, qaysi, qaer, qachon singari leksemalar oldidan hech so‘zini keltirish bilan hosil bo‘ladi: hech bir, hech nima, hech narsa, hech kim, hech kimsa, hech qaysi, hech qachon, hech qaer va h.k.

Shaxs ma‘nosini inkor etuvchi olmoshlarga hech kim, hech kimsa kiradi. Bu olmoshlar otning kelishik, egalik kategoriyalariga xos grammatik shakllarga kirib, ularning gapdagi vazifasini bajaradi: Yo‘lda hech kim ko‘rinmadi; Yo‘lda hech kimni uchratmadi; Hech kimning hayoti mudhishlikka uchramasin; U hech kimdan qo‘rqmasdi; Uning ishonadigan hech kimi yo‘q edi va b.

Balki bu dunyoni hech kim, hech qachon Rudakiy singari ko‘rolgan emas (S.H.);

Narsa-predmet, voqea-hodisalar ma‘nosi inkor etilganda, hech nima, hech narsa olmosh-leksemalari ishlatiladi:

Hech narsani inson mehriga
Qiyoslab-u, teng qo‘yib bo‘lmas (S.H.);

Narsa-predmetlar belgi-xususiyatining inkori ma‘nosi hech qaysi olmoshi vositasida ifodalanadi:

Oh, ularning hech qaysi, jonim.
Sen bergan saboqni bera olmadi (S.H.);

Bo‘lishsizlik olmoshlari tizimida hech qancha olmoshi ham borki, u son-leksemalarni evaz qilib, narsa-predmet miqdorining inkoriga ishora qiladi: Uning bu xonadonga oyoq qo‘yganiga hech qancha bo‘lmay, yangi qurilishlar boshlanib ketdi.

Ish-harakat, voqea-hodisaning sodir bo‘lish payti, o‘rni ma‘nolarini ifodalash hech vaqt, hech qachon olmoshlarining vazifasiga kiradi: Hech zamonda, hech qachon Sira ham urushmagan (S.H.).

Misollar tabiatidan ma‘lum bo‘ladiki, bo‘lishsizlik olmoshlari, shakl va ma‘no xususiyatlariga ko‘ra, ot, sifat, son va ravish-leksemalarni, ularga xos ma‘nolarniinkor etish yo‘li bilan evaz qiladi, gapda ularning vazifalarini bajaradi.

Gumon olmoshlari

Gumon olmoshlari taxmin etilgan shaxs, narsa-predmet, harakat-holat va ularning belgi-xususiyatlarini bildiruvchi leksemalardir: birov, kimsa, allakim, allanarsa, kimdir, nimadir, qaysidir, qanchadir, qandaydir, allaqaer va sh.k.: Ajoyib

odam ekansiz, birov nima desa, ishonaverasizmi? ; Birovning qo‘li, boshqasining boshi chandib bog‘langan. Kimdir sherigiga suyangan, allakim qo‘ltiqtayoqda (A.M.); O‘zlariga o‘xshagan boshqa birovning ustidan nuqul kulishadi (A.M.);
Kimdir kelayapti, ana,yo‘talar (S.H.); Og‘irlik qilmas-ku kimgadir,
Ikki o‘rtoq birlashib, Nimanidir sirlashib,
Topib o‘nta butilka, Topshirdilar «util»ga (E.S.).
Gumon olmoshlari olmosh-leksemalarning o‘zidan turli usullar bilan yasaladi. Ularning asosiy ko‘rinishlari quyidagicha:
1)so‘roq olmoshlari oldidan «alla» unsurini keltirish bilan: allakim, allanarsa, allanima, allaqanday, allaqaysi, allaqancha, allaqachon, allaqaer va b.: U…allanimaga chanqoq nigohlarini atrofga yugurtirdi (A.M.);
2)so‘roq olmoshlaridan keyin «-dir» unsurini qo‘shish bilan: kimdir, nimadir, qaysidir, qandaydir, qanaqadir, qachondir, qaerdir, negadir va b.:
…ayaning bo‘g‘ziga nimadir tiqilib, yuragi uvishib ketdi (A.Mirzaahmad); Hovlida hamma o‘zi bilan o‘zi. Kimdir askiya aytyapti, kimlardir xomush tortib qolgan (A.M.);
Bugun pul topishning o‘zi mashaqqat, Sarflamoq undan ham qiyin negadir (O.A.).
3)odam, kishi, nima, narsa, joy, er so‘zlaridan oldin «bir» so‘zini keltirish yo‘li bilan: bir narsa, bir kishi, bir odam, bir qancha, bir er, bir joy : U uzoq yurdi, qaerligini bilmaydi-yu, bir joyda o‘tirib dam oldi. Yana yo‘lida davom etar ekan, unga bir odam hamroh bo‘ldi. Bir ozdan so‘ng ro‘paradan ot mingan bir kishi yo‘lni kesib o‘tdi.

Bulardan tashqari, kim, nima, qaer, qachon olmoshlari ham shaxs, narsa-predmet va ularning belgi-xususiyati, daraja-miqdorini taxminlab ko‘rsatish ma‘nosiga ham egaki, bu xususiyat shu olmoshlar ishtirok etgan matndan anglashiladi:
Ortda nima bo‘lyapti,
Kim dodlab, kim kulyapti Parvosi yo‘q, ishi yo‘q (E.S.); g‘
Akbar uning qulog‘iga nima dedi, anglay olmadim (gaz.); Kimga nimaning zarurligi, uning o‘zi biladi.
«-Dir» unsuri so‘roq olmosh-leksemalarning ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalari olgan shakllaridan, ba‘zan ularni boshqargan ko‘makchilardan keyin qo‘shiladi: kimlardirG‘G‘nimalardir, kimningdirG‘G‘nimaningdir, kimnidirG‘G‘nimanidir, kimgadirG‘G‘nimagadir, kimdandirG‘G‘nimadandir; kimlarG‘G‘nimalar;qimingdirG‘G‘nimangdir,kimidirG‘G‘nimasidir, qaerdandir, qaergadir: Uyning burchagiga borib, timirskilanib nimalardir qildi (A.M.);
Kimgadir berolmas engillik (O.A.); Dardini kimgadir aytishni bilmay, Yuragim o‘zini yolg‘iz sezadi (S.H.); Ammo nimadandir kechmay hech mahal Insonning negadir etmog‘i dushvor (O.A.);

Uning uydan qachon chiqqanligini hech kim bilmaydi. Kim bilandir qayergadir ketgan ko‘rinadi (jurn.).

Olmoshlarning tuzilish tiplari.

Olmoshlar, tuzilishiga kura, uch turga ajraladi: a) sodda olmoshlar;
b) qo‘shma olmoshlar; v) juft va takroriy olmoshlar.

Sodda olmoshlar bir leksemadan iborat buladi: men, sen, u. biz, siz, o‘z, anna, mana, kim, nima, qaysi va
b.: Men yaxshiman, Qilma firoq (E.Sohibnazarov);
Sen bahorning gullari Orasida eng sara (E.Sohibnazarov);
Ayaning bo‘g‘ziga nimadir tiqilib, yuragi uvishib ketdi (A.Mirzaahmad) va b.

Nazorat uchun savollar

1. *Sifatlar belgi sifatida nimalarni bildiradi?*
2. *Sifatning o`ziga xos morfologik belgilari nimalardan iborat?*
3. *Sifatning ma`no jihatidan qanday turlari mavjud?*
4. *Sifatlar gapda qanday vazilarni bajaradi?*
5. *Sifat darajalari nima? Sifatlarda qanday darajalar bor?*
6. *Sifatlar belgi sifatida nimalarni bildiradi?*
7. *Sifatning o`ziga xos morfologik belgilari nimalardan iborat?*
8. *Sifatning ma`no jihatidan qanday turlari mavjud?*
9. *Sifatlar gapda qanday vazilarni bajaradi?*
10. *Sifat darajalari nima? Sifatlarda qanday darajalar bor?*
11. *Sifatlar qanday usullar bilan yasaladi?*
12. *Son deb nimaga aytiladi?*
13. *Sonlar yozuvda qanday ifodalanadi?*
14. *Sonlar so`z turkumi sifatida qanday xususiyatlarga ega?*
15. *Sonlar ma`no jihatidan necha xil?*
16. *Tuzilishga ko`ra-chi?*
17. *Hozirgi o`zbek tilida faol qo`llanadigan hisob so‘zlar qaysilar?*
18. *Hozirgi o`zbek tilida faol qo`llanadigan olmoshlar qaysilar?*
19. *Olmosh bilan sinonim bo`lgan qanday so`zlarni bilasiz?*
20. *Olmoshning grammatik ma‘no va vazifalarini vujudga keltiruvchi vositalar haqida ma‘lumot bering.*
21. *Olmoshni ot va sifat bilan qiyoslab tavsiflang.*
22. *Olmosh so‘z turkumi haqida amaliy mashg‘ulotga test topshiriqlarini tayyorlang.*
23. *Olmoshlarning qanday ma‘no turlari mavjud.*
24. *Olmoshlar qaysi so‘z turkumi o‘rnida qo‘llanilishi mumkin?*
25. *Olmosh gapda qanday vazifalarda kela oladi.*
26. *Olmoshning ma‘no turlariga test topshiriqlari tayyorlang.*

3-MAVZU
FE’L SO’Z TURKUMI SIFATIDA. FE’LLARNING NISBAT KATEGORIYASI. FE’LLARNING MAYL KATEGORIYASI.

R E J A:

1. Fe’l so’z turkumi sifatida.
2. Fe’llarning nisbat kategoriyasi.
3. Fe’llarning mayl kategoriyasi.

Fe’l so’z turkumi sifatida

Fe‘l shaxs va narsa-predmetning harakat-holatini bildiruvchi eng murakkab mustaqil so‘z turkumidir. Grammatik jixatdan fe‘l otga qaraganda ham murakkabroq lug‘aviy-grammatik guruh hisoblanadi. Zero, uning tizimi bir qator grammatik kategoriyalarni o‘z ichiga oladi.

Fe‘l so‘z turkumi tizimidagi barcha leksemalar, ma‘nosi va vazifasidan qat‘iy nazar, «nima qildi» umumiy so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Bu xususiyat asosida fe‘lning umumkategorial grammatik ma‘nosi belgilanadi. Fe‘lning umumkategorial grammatik ma‘nosi – bu ish-harakat va holatdir.

Ish-harakat va holat keng ma‘nodagi «predmet» tomonidan ro‘yobga chiqadi. Keng ma‘nodagi «predmet»lik, yuqorida ham aytilganidek, otning umumkategorial grammatik ma‘nosidir. Shu bois fe‘l otga mantiqan tobe lug‘aviy- grammatik kategoriya sanaladi. Zero predmetlik tushunchasi ostida qaraluvchi jonli yoxud jonsiz mavjudod bo‘lmas ekan, unga nisbatlanadigan ish-harakat va holat tushunchalarining bo‘lishi ham nomantiqiydir.

Demak, «ish-harakat va holat» fe‘lning umumkategorial grammatik ma‘nosi hisoblanar ekan, bu ma‘no doirasida bir qator xususiy kategorial grammatik ma‘nolar ham mavjud. Chunonchi, ishlamoq (Biz ishladik), yugurmoq (bolalar yugurdi)fe‘llari anglatgan ma‘nolar o‘yladi (Otam nimanidir o‘yladi), uxladi (Chaqaloq uxladi) fe‘llarining ma‘nolaridan farq qiladi.

Gapirmoq (O‘qituvchi gapirdi), aytmoq (Jinoyatchi qilgan ishlarini ro‘y- rost aytdi) fe‘llariga xos ma‘nolar esa, yuqoridagi ikki tur fe‘llarning ma‘nosidan farq qiladi. Birinchi guruh fe‘llari (ishlamoq, yugurmoq) faol harakat ma‘nosini, ikkinchi guruh fe‘llari (o‘ylamoq, uxlamoq) holat ma‘nosidagi nofaol harakat ma‘nolarini, uchinchi guruh fe‘llar esa (gapirmoq, aytmoq) nutq jarayoni bilan bog‘liq «harakat» ma‘nosini anglatayotganligini sezish qiyin emas, albatta. Fe‘l-leksemalarning bu misollarda reallashgan ma‘nolar fe‘l so‘z turkumining xususiy kategorial grammatik ma‘nolaridir. Demak, seziladiki, fe‘l lug‘aviy-grammatik kategoriyasi boshqa mustaqil so‘z turkumlaridan ham grammatik shakllariga, ham xususiy kategorial grammatik ma‘nolariga ko‘ra murakkabligi bilan farq qiladi.

Fe‘l-leksemalar ma‘no va grammatik xususiyatiga ko‘ra, dastlab ikki katta guruhga ajraladi: a) mustaqil fe‘llar; b) yordamchi fe‘llar.

Mustaqil fe‘llar shaxs va narsa-predmetlarning ish-harakati va holatini bildirib, lug‘aviy ma‘noga ega bo‘ladi. Shuningdek, shaxs-son, zamon, nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, o‘timli-o‘timsizlik kategoriyalariga xos shakl o‘zgarishiga ega bo‘ladi. Bulardan tashqari, mustaqil fe‘llarning otga (harakat nomi), sifatga (sifatdosh) va ravishga (ravishdosh) o‘xshash, gapda ularning vazifasini bajaruvchi funktsional (vazifaviy) shakllari ham mavjud.

Mustaqil fe‘l-leksemalarga xos bunday lisoniy xususiyatlarning birortasi yordamchi fe‘llarga xos emas. Eng muhimi, ular lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lmaydi, gapda mustaqil ma‘noli so‘zlarga qo‘shilmasdan turib, biror-bir lisoniy qiymatga ega bo‘lolmaydi.

Yordamchi fe‘l-leksemalarning bir guruhi mustaqil ma‘noli fe‘llarning lug‘aviy ma‘nodan vaqtincha soqit bo‘lishi natijasida shakllangan bo‘lsa, bir

guruhi (edi, ekan, emish) chin ma‘noda lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lmagan shakliy-grammatik birliklar xarakterida bo‘ladi (ularning ichki turlari haqida keyingi paragraflarda ma‘lumot beriladi).

Fe‘l-leksemalar, tarkibiga ko‘ra ham tub va yasama kabi ikki guruhga bo‘linadi. Yasama fe‘llar, ularning qanday usulda nimalardan hosil bo‘lishi til ilmining «So‘z yasalishi» bahsida (sohasida) o‘rganiladi.

O`timli va o`timsiz fe`llar

Fe‘llar ish-harakat, holat bilan narsa-predmet o‘rtasidagi munosabatning xarakteriga ko‘ra, ikki guruhga bo‘linadi: a) o‘imli fe‘llar; b) o‘timsiz fe‘llar. Masalan, Bulbul chamanini, odam vatanini sevadi (m.) gapidagi sevadi fe‘li bilan Er bo‘ynida qil arqon chirimaydi (m.) gapidagi chirimaydi fe‘li farq qiladi. Sevadi fe‘li anglatgan ish-harakat (anig‘i: holat) chamanini, vatanini leksemalari anglatgan narsa-predmetga (chaman, vatan) bevosita o‘tgan; chirimaydi fe‘lidan anglashilgan ish-harakat (aniqrog‘i: holat) esa, er (bo‘ynida) leksemasi anglatgan narsa-predmetga bevosita o‘tmagan. Ana shu farq asosida birinchi gapdagi sevadi fe‘li o`timli, ikkinchi gapdagi chirimaydi o`timsiz fe‘l deyiladi.

O`timli fe`llar

Narsa-predmetga bevosita o‘tgan ish-harakat yoki holat ma‘nosini bildirgan fe‘llar o‘timli fe‘llar deyiladi. Bunday fe‘llar, valentlik xususiyatiga ko‘ra, ob‘ektli fe‘llar deb ham ataladi. Chunki o‘timli fe‘llarning predikatlik amalida ularning ob‘ekt valentligi reallashadi.

O‘timli fe‘llar odatda tushum kelishigi shaklidagi ot va otlashgan so‘zlarni boshqaradi. Tushum kelishigi shaklidagi ot va otlashgan so‘zlar o‘timli fe‘llarning ob‘ekt valentligini ro‘yobga chiqaruvchi aktant hisoblanadi. Misollar. Odamni po‘stin emas, ish qizdiradi (m.); Temirni qizig‘ida bos (m.); Ish seni engmasin, sen ishni eng (m.); Suv qadrini quduq qazigan biladi (m.) va b. Bu gaplarda odamni «qizdirmoq» fe‘lining, temirni «bosmoq» fe‘lining, seni «engmaslik» fe‘lining, ishni» engmoq» fe‘lining, suv qadrini «bilmoq» fe‘lining ob‘ekt valentligini ro‘yobga chiqargan aktantlardir.

O‘timli fe‘llarning ob‘ekt valentligi ba‘zan chiqish kelishigi shaklidagi ot-leksemalar orqali xam vokelanadi. Bunday xollarda chiqish kelishigi shaklidagi ot-leksema butunning qismi ma‘nosiga ega bo‘ladi. Masalan. Risolat piyoladagi kofedan bir-ikki hupladi gapida kofedan «ho‘plamoq» fe‘l-leksemasining ob‘ekt valentligini ro‘bga chiqaruvchi aktantdir, u «kofening hammasini emas, uning muayyan bir qismi» ma‘nosini bildirgan.

O`timsiz fe`llar

O‘timsiz fe‘llar o‘timli fe‘llarning grammatik jihatdan aksidir. O‘timsiz fe‘llar ob‘ekt valentligiga ega bo‘lmaydi, shuning uchun bunday fe‘llar valentligining aktantlari ot va otlashgan so‘zlarning kelishikli sintetik va ko‘makchili analitik shakllariga teng keladi. O‘timsiz fe‘l valentligi kelishikli ot-leksemalar vositasida reallashganda, ularning aktantlari jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari shaklidagi ot va otlashgan so‘zlarga teng keladi: Yigit so‘zidan, arslon izidan qaytmas (m.);Qo‘rqkanga qo‘sha ko’rinar (m.); Mard maydonda bilinadi(m.); Mexnatdan qo’rqma, minnatdan qo’rq (m.) va b.

O‘timsiz fe‘l valentligi ot va otlashgan so‘zlarning ko‘makchili shakllarida reallashganda, uning aktantlari ot va otlashgan so‘zlarning bilan, uchun, orqali, uzra singari ko‘makchili qurilmalariga teng keladi: O‘zing uchun emas,eling uchun ishla (m.); Mexnat bilan er unar(m.) va b.

O‘timli va o‘timsizlikni bildiruvchi maxsus shakliy ko‘rsatkichlar yo‘q. O‘timli- o‘timsizlik fe‘lning o‘zak shaklidan anglashilaveradi. Masalan, ko‘r, bil, ayt, ich, ol, o‘qi va sh. k. fe‘llar o‘timli; bor, kel, uxla, yot, tur va b.sh.k. fe‘llar o‘timsizdir. Biroq ba‘zi qo‘shimchalar qo‘shish bilan o‘timli fe‘lni o‘timsizga, o‘timsiz fe‘lni o‘timliga aylantirish mumkin. Bu jarayonni d i a t e z a deyiladi (bu haqda «Fe‘l nisbatlari» mavzusida batafsil ma‘lumot beriladi).

Bo`lishli va bo`lishsiz fe`llar.

Bo‘lishli va bo‘lishsizlik ma‘nolari ularni hosil qiluvchi shakliy-grammatik vositalar bilan birgalikda fe‘lning aloxida grammatik kategoriyasini tashkil qiladi.

Fe‘ldan anglashilgan har qanday harakat, holat amalga oshgan va oshishi lozim bo‘lgan va amalga oshmagan va amalga oshishi mumkin bo‘lmagan ma‘nolar anglatadi. Shu xususiyat asosida fe‘llar bo‘lishili va bo‘lishsiz kabi ikki guruhga bo‘linadi. Demak, bo‘lishli–bo‘lishsizlik fe‘l umumkategorial grammatik ma‘nosiga qarashli ichki, xususiy grammatik ma‘nolardir. Masalan, o‘qidi-o‘qimadi, yurdi-yurmadi, keldi-kelmadi, uxladi-uxlamadi, so‘radi-so‘ramadi va b.

Fe‘lning bo‘lishli shakllari markersiz ifodaga ega, ya‘ni bu grammatik ma‘noni shaklga kirituvchi maxsus lisoniy ko‘rsatkich yo‘q: uxladi, o‘yladi, ketdi, yozdi, o‘qidi va b.

Fe‘lning bo‘lishli shakllari maxsus lisoniy ko‘rsatkichlarga ega, ya‘ni markerlidir. Bo‘lishsizlik ma‘nosi fe‘lning ikki xil xarakterdagi shakllari vositasida ro‘yobga chiqadi: a) bo‘lishsizlikning sintetik shakli; b) bo‘lishsizlikning analitik shakli.

Bo‘lishsizlik ma‘nosi fe‘lning sintetik shakli yordamida ifodalanganda, bu vazifa asosan «-ma» affiksining zimmasida bo‘ladi: o‘qi-ma-di, ayt-ma-di, kel-ma-di, bil-ma-di, uxla-ma-di va b.:

Maylida, kimgadir, Yoqsa, Yoqmasa, Ularga qo‘shilib, Yig‘lasharmidik… Biz baxtli bo‘lamiz, Xudo xohlasa,

Xudo hohlamasa, Uchrasharmidik (M. Yu.); Yomonlashdan tolmadik, Nasihatni olmadik,

Bita gapdan qolmadik, Endi nima qilamiz? (S.Q.)MuhammadYusuf Birovni ham kuttirmay, biroq o‘zi zor kutgan,

Dardin tilga ko’chirmay, dardin ichiga yutgan… Ochunga bir qutlug‘ his shoir keldi-yu, ketdi (Yo.O.); Yuzlaringga bir qarashda ko‘ngling uqar, Sezdirmaydi ro‘zg‘oringni kam-ketigin (Yo.O.).

Inkor ma‘nosini ifodalovchi «-ma» qo‘shimchasi ko‘makchi fe‘lli analitik shakliga xam qo‘shiladi. Bunday hollarda bu qo‘shimcha fakat ko‘makchi fe‘l tarkibida bo‘ladi: kela qolmadi, o‘qib chiqmadi, aytib qo‘ymadi va sh.k.

Bu qo‘shimcha fe‘lning ko‘makchili analitik shakllarida takrorlanib ham keladi, ya‘ni ham etakchi, ham ko‘makchi fe‘l tarkibiga qo‘shiladi. Qizig‘i shundaki, -ma unsuri takrorlangan shakllarda harakat-xolatning inkori barham topadi, tasdiq ma‘no kasb etadi: aytmay quymayman, bormay qo‘ymayman kabi.

Bo‘lishsizlik ma‘nosi fe‘lning analitik shakli bilan ifodalanganda, o‘tgan zamon sifatdoshiga emas yordamchi fe‘li va yo‘q so‘zi hamrohlik qiladi: borgan emas, aytgan emas, o‘qigan emas; borgan yo’q, aytgan yo’q, o‘kigan yo’q kabi.

Bo‘lishsizlikning «-sa» qo‘shimchali shakli uning «emas» va «yo’q» unsurli analitik shakllaridan uslubiy-pragmatik jihatdan farq qiladi: bo‘lishsizlikning «emas», «yo’q» unsurli analitik shakllarida harakat-holat inkori ancha bo‘rttiriladi: Vaqt bo‘ldi, biroq yig‘ilish boshlangan emas; Qizning kutgani hozircha kelgan yo’q.

Fe‘llarning bo‘lishsizlik ma‘nosi takrorlanib qo‘llanuvchi na yuklamasi yordamida ham hosil bo‘ladi: U na o’qidi, na yozdi; Oyim ishxonasida bo‘ladigan tadbirga na borishini, na bormasligini biladi.

Fe’llarning nisbat kategoriyasi

Fe’l ifodalagan harakat bilan uning bajaruvchisi (sub’ekti) va predmeti (ob’ekti) yoki bir necha bajaruvchi (sub’ektlar) orasidagi munosabatning ifodalanishi fe’l nisbati deyiladi. Harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabat turlicha bo`ladi. Ma’lum bir shaklda harakat ega bilan ifodalangan shax syoki predmet tomonidan bajariladi. Masalan: *Bobur ota yurtidan batamom ajralganini endi astoydil his qildi (P.Qodirov).*

Boshqa bir shaklda harakatning sub’ekti (ega) ham, ob’ekti ham bir shaxsning (predmetning) o`zi bo`ladi. Masalan: *Feruzaga hovliga tushib, shabnamda qiyg`os ochilgan atirgullar ustiga egildi. (H.G`ulom).*

Yana bir ko`rinishda harakatning bajaruvchisi sub’ekt emas, ob’ekt sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma’lum bo`ladi. Masalan: *Tashqarida so`riga gilam to`shaldi, ko`rpacha solindi. Dasturxon yoyildi, choy damlandi (Tog`ay Murod).*

SHuningdek, harakat bir necha sub’ekt tomonidan birgalikda bajarilishi mumkin. Masalan: *Ichkaridan birin-ketin bolalar chiqib kelishdi (Tog`ay Murod).*

Yana bir nisbat shaklida esa harakat grammatik sub’ekt (ega)ning boshqa bir sub’ekt va ob’ekt ta’siri bilan bajariladi. Masalan: *Mo`minning ovozidan qat’iyat, buyruq Laylini bo`shashtirdi (S.Z.).*

SHunga ko`ra fe’llarda besh xil nisbat ko`rinishi mavjud: 1. Aniq nisbat. 2. O`zlik nisbat. 3. Majhullik nisbati. 4. Birgalik nisbati. 5. Orttirma nisbat.

Fe’l nisbati maxsus shakl yasovchi qo`shimchalar yordami bilan yasaladi. Bu qo`shimchalar fe’lning leksik ma’nosini o`zgartirmaydi, balki unga qo`shimcha ma’no qo`shadi. YA’ni bu qo`shimchalar harakatning bajaruvchisi (sub’ekti) va predmeti (ob’ekti) ni ko`rsatib, gap qurilishining qanday bo`lishini bildirib turadi. Masalan: yozdi – sub’ekt (ega)ning o`zi bajaradigan harakat, yozildi – predmet (ob’ekt) tomonidan bajarilib, sub’ekti noma’lum harakat, yozishdi – bir necha sub’ektlar bajaradigan harakat, yozdirdi – sub’ektning ob’ektga ta’siri bilan bajariladigan harakat.

Aniq nisbat

Bu shakldagi fe’lda harakatning bajaruvchisi grammatik jihatdan ega vazifasini bajargan shaxs yoki predmet bo`ladi. To`ldiruvchi esa harakatning ob’ekti bo`ladi. Gapning bunday qurilishi tilshunoslikda aktiv konstruktsiya (faol qurilma) deb yuritiladi. Masalan: *Navoiy shiringina yasog`liq uyda tanho ishlar edi (O.).* Ushbu

gapda ishlar edi harakatning bajaruvchisi (sub'ekti) Navoiy bo`lib, u ega orqali ifodalangan. Harakatning ob'ekti esa uyda vositali to`ldiruvchi orqali ifodalangan.

Bunday shaklida maxsus nisbat ko`rsatkichi yo`q. Bu nisbat ma'nosi fe'l negizi orqali ifodalanadi, shuning uchun ham u boshqa nisbat shakllarini hosil qilishi uchun asos bo`la oladi (qiyoslang: o`qidi, o`qildi, o`qishdi, o`qitdi kabi).

O`zlik nisbat

Bu nisbatdagi fe'lda harakatning sub'ekti bilan ob'ekti bir shaxsning o`zi bo`ladi. Masalan: *Men har tong Toshkentning go`zilligi, fayzi bilan zavqlanaman (U.Mahkamov)* gapida zavqlanaman fe'li tarkibida kelgan –lan qo`shimchasi harakatning sub'ekti bilan ob'ekti men shaxsi ekanligini ko`rsatib turibdi.

O`zlik nisbati quyidagi affikslar bilan yasaladi:

a) fe'l negiziga unlidan so`ng –n, undoshdan so`ng –in qo`shish bilan: maqta-n, o`ra-n, yuv-in, kiy-in kabi;

b) fe'l negiziga unlidan so`ng –l, undoshdan so`ng –il qo`shish bilan: surka-l, shosh-il kabi;

v) –lan (-la+-n dan tuzilgan qo`shma affiks) affiksini qo`shish bilan: zavq-lan, tinch-lan, shod-lan kabi;

g) –ish qo`shimchasini qo`shish bilan: ker-ish kabi.

Barcha fe'l negizlaridan (o`timli, ba'zi bir o`timsiz) o`zlik nisbati yasalmaydi: so`ra, bor, yugur kabi. Ba'zi fe'l negizlarining, aksincha, aniq nisbati yo`q: quvon, seskan kabi.

Majhullik nisbati

Bu shakldagi fe'lda harakat bajaruvchisi sub'ekt (ega) emas, ob'ekt (to`ldiruvchi) sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo`ladi.

Masalan: *Ot-aravalar birin-ketin saroyga olib kirildi (H.G`.)* gapida olib kirildi harakatining bajaruvchi sub'ekti noma'lum, ot-aravalar so`zi ega vazifasida kelsa-da, ob'ekt vazifasini bajargan.

Kesimi majhullik nisbatidagi fe'l bilan ifodalangan gap qurilishi tilshunoslikda passiv konstruktsiya deb yuritiladi.

Majhullik nisbati quyidagi qo`shimchalar bilan yasaladi:

a) fe'l negiziga unlidan so`ng *–l,* undoshdan so`ng *–il* affiksini qo`shish bilan: *yasa-l(-di), ata-l(-di), yut-il(-di), sot-il(-di)* kabi;

b) fe'l negiziga unlidan so`ng *–n,* undoshdan so`ng *–in* affiksini qo`shish bilan: *bastala-n(-di), ol-in(-di)* kabi.

Majhullik nisbatdagi fe'lni hosil qilishda *–l (-il)* affiksi ko`proq qo`llaniladi. Ba'zan ayni bir fe'l negizidan *–l (-il), -n (-in)* affikslari bilan ham o`zlik, ham majhullik nisbati yasalishi mumkin. Bunday bir xil shaklda kelgan bir xil fe'l negizining o`zlik yoki majhullik nisbatda ekanligi matndan aniqlaniladi. Masalan: Zulfiya darsga tayyorlandi. Operatsiyaga meditsina uskunalari tayyorlandi.

Birgalik nisbat

Bu nisbatdagi fe'lda ish-harakat bir necha sub'ekt tomonidan birgalikda bajariladi. Masalan: Ayollar chaqaloqqa ko`z tegmasligi uchun qilinadigan irim-sirimlarini bitirishgach, bolani beshikka belashdi (O`.Hoshimov) gapida bitirishgach, belashdi fe'llari anglatgan harakatning bir necha sub'ekt, ya'ni ayollar tomonidan birgalikda bajarilganini anglatadi.

Birgalik nisbatdagi fe'l quyidagicha yasaladi:

a) fe’l negiziga unlidan so`ng –sh, undoshdan so`ng –ish affiksini qo`shish bilan: sana-sh(di), yugur-ish(di) kabi;
b) so`z o`zagiga –lash (-la+-sh qo`shma affiksi) affiksini qo`shish bilan: yordam-lash(di), bahs-lash(di) kabi.

Orttirma nisbat

Bu nisbat shaklida harakat grammatik sub’ekt (ega)ning boshqa bir sub’ekt yoki ob’ektga ta’siri, tazyiqi bilan bajariladi.

Masalan: *Biz Hamid Olimjon bilan bunday oydin, musaffo kechalarni ko`p o`tkazganmiz (G`.G`.)* gapida ikkita sub’ekt mavjud bo`lib, asosiy sub’ekt vositali to`ldiruvchi (Hamid Olimjon bilan), ikkinchi darajali sub’ekt esa ega (Biz) vazifasida qo`llangan bo`lib, o`tkazganmiz harakati sub’ektning sub’ektga ta’siri natijasida bajarilgan.

SHuningdek, orttirma nisbatdagi fe’lda faqat bir sub’ekt mavjud bo`ladi. Bunday holda harakat ob’ektga (to`ldiruvchiga) o`tadi. Masalan: *U kitob keltirdi* kabi. Orttirma nisbat fe’l negiziga quyidagi affikslarni qo`shish bilan yasaladi:
a) fe’l negiziga –t affiksini qo`shish bilan: qisqart, boyit kabi;
b) fe’l negiziga –tir (-dir) affikslarini qo`shish bilan: keltir, chaqirtir, kuldir, buzdir kabi;
v) sh, ch, t, undoshlari bilan tugagan fe’l negizlariga –ir affiksini qo`shish bilan: shoshir, ichir, botir kabi;
g) oxiri undosh bilan tugagan bir bo`g`inli fe’l negizlariga –ar affiksini qo`shish bilan: chiqar, qaytar kabi;
d) oxiri undosh bilan tugagan fe’l negizlariga -g`iz, -giz, -qaz, -g`az, -kaz, -qiz, -kiz affikslarini qo`shish bilan: turg`iz, egiz, o`tkaz, qutqaz, yutqiz, etkiz kabi;
e) oxiri m, q undoshlari bilan tugagan fe’l negizlariga –iz affiksini qo`shish bilan: tomiz, oqiz, boqiz kabi;
y) fe’l negiziga –sat (-sa+-t qo`shma affiksi) affiksini qo`shish bilan: ko`rsat (faqat ko`r fe’l negiziga qo`shiladi) kabi.

Fe’llarning mayl kategoriyasi.

Ish harakatning voqelikka munosabatini ifodalovchi fe’l shakli mayl deyiladi. Fe’l mallari harakatning voqelikka munosabatini ifodalab, grammatik zamon, grammatik shaxs bilan uzviy bog‘lanadi. Bu uch hodisa fe’lning gapda kesimlik vazifasidan kelib chiqadi. O‘zbek tilida fe’l mayllarining to‘rt turi bor: 1) xabar mayli, 2) buruq-istak mayli, 3) shart mayli, 4) maqsad mayli.

1. Xabar mayli. Ish-harakatning uch zamondan birida bajarilish va bajarilimaganligini ifodalaydi. Xabar maylining maxsus grammatik ko‘rsatkichi yo‘q. U fe’lga uchala zamon va shaxs-son affikslarini qo‘shib tuslash orqali shakllanadi. Masalan: *o‘qidim, o‘qiding, o‘qidi, o‘qiganman, o‘qigansan, o‘qigan, o‘qimoqchiman, o‘qimoqchisan, o‘qimoqchi.* Xabar maylidagi fe’lning asosiy sintaktik vazifasi gapda kesim bo‘lib kelishdir.

2. Buyruq-istak mayli. Ish-harakatni bajarish-bajarmaslik haqida buyurish, istash, so‘rash,iltimos, maslahat,chaqiriq kabi ma’nolarni ifodalaydi. Buyruq-istak maylidagi fe’l xabar maylidan farqli ravishda maxsus mayl ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, bu mayl quyidagicha tuslanadi:

	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs	*yoz+ay, ishla+yin*	*yoz+aylik, ishla+ylik*
2 -haxs	*yoz (yoz+gin), ishla(ishla+gin)*	*yoz+ing, ishla+ng, ishla+ngiz yoz+sin (lar), ishla+sin (lar)*
3- haxs	*yoz+sin, ishla+sin*	

Birinchi shaxs birligi -(a)y va -(a)yin affiksi yordamida yasaladi: *boray, so‘zlayin.* Bu shaxsda so‘zlovchining harakatni bajarish istagi, harakatga bo‘lgan rag‘bati ifodalanadi: *Mana bu kitoblarni o‘quvchilarga yetkazay.*

So‘zlovchining o‘ziga o‘zi buyruq berishi mantiqqa to‘g‘ri kelmay-di, shuning uchun birinchi shaxs sof buyruq ma’nosida ishlatilmaydi. Xususan, o‘zgaga bo‘lgan murojaatda istak bilan birga iltimos ham ifodalanadi: *Siz bilan boray.* Xuddi shuningdek hollarda buyruq, do‘q ham ifodalanishi mumkin: *Bu qilig‘ingni ikkinchi ko‘rmay!*

Birinchi shaxs ko‘plik faqat istakni emas, harakatga da’vat, iltimos kabi ma’nolarni ham ifodalaydi. Chunki bu shakl so‘zlovchidan tashqari u bilan birga bo‘lgan shaxslarni ham o‘z ichiga oladi: *Bir yoqadan bosh chiqaraylik. Keling, mana shu ona-yer oldida so‘z beraylik. (P.Qodirov)*

Qat’iy buyruq ma’nosi ikkinchi shaxs vositasida ifodalanadi. Chunki bunda nutq qaratilgan shaxsning o‘zi qatnashadi: *Salim qoraga ayting, fermada hisob-kitobni to‘g‘rilab qo‘ysin. (H. F.)*

Bu shaklda sof buyruq bilan birga do‘q qilish, iltimos, hatto yalinish kabi munosabatlar ham ifodalanishi mumkin: *Yo‘qol, dedim! Ko‘zimga ko‘rinma!(do‘q). Stol ustiga qo‘ya qol (iltimos). Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilg‘il (o‘tinch).*

Ikkiichi shaxsning **–gin\\ -gil** affiksi bilan yasaluvchi shaklida esa buyruq ma’nosi kuchsizlanadi. Bu shakl ko‘proq iltimos yoki oddiy undash, da’vat uchun qo‘llanadi: *Boshingga qilich kelsa ham to‘g‘risini gapirgin. Otangga bo‘lmagil arzanda bandi, Bandidan chiqib bo‘l hunar farzandi. (A.Jomiy)*

Uchinchi shaxsda harakatga undash, buyruq ma’nolari ikkinchi shaxs orqali bo‘ladi: *Odamlar bilan yaxshi tanishsin, keyin menga uchrasin. (H. F.)*

Uchinchi shaxsning sof buyruq uchun qo‘llanishi, asosan, majhul nisbatdagi fe’llarda uchraydi: *Tuyaning dumiga bog‘lab sazoyi qilinsin. (As.M.)* Shuningdek, 3-shaxs istak, iltimos kabi ma’nolarni ifodalash uchun ham qo‘llanadi: *Farzandlarimiz murod-maqsadlariga yetishsin, qo‘sha qarishsin.*

Buyruq-istak maylining birinchi va uchinchi shaxs so‘roq, taxmin, o‘ylash kabi ma’nolarni ifodalovchi vositalar bilan qo‘llana oladi. Ikkinchi shaxs shakli esa bunday xususiyatga ega emas. Bunga bu shaxs shakllarining ma’no xususiyatlari sabab bo‘ladi. Masalan, *ertaga kelaymi, ertaga kelsinmi, ertaga kelaymikin, ertaga kelsinmikin* kabi qo‘llanish ko‘p uchraydi.

Buyruq-istak maylining bo‘lishsiz shakli harakatning bajarilish ehtimoli borligi, unga ogohlantirish kabi ma’nolarda ham qo‘llanadi: *Otlariga ishonib biror falokatga yo‘liqishmasin, tag‘in.*

Yordamchi fe’llardan faqat *edi* to‘liqsiz fe’li buyruq-istak mayli-dagi fe’llarning ikkinchi va uchinchi shaxs shakli bilan qo‘llana oladi: *borgin edi, borsin edi* kabi. Bunday qo‘llanish natijasida: 1) buyruq-istak mayli shakliga xos ma’no butunlay yo‘qoladi: *bor - borgin edi, aytma - aytmagin edi;* 2) buyruq - istak maylida harakatning bajarilishi mantiqan kelasi zamonga, *edi* to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llanganda esa o‘tgan zamonga oid bo‘ladi: *kelsin -kelsin edi;* 3) buyruq-istak shakli *edi* to‘liqsiz fe’li bilan yoki usiz qo‘llanganda ham istak ma’nosi ifodalanadi.

Shart mayli biror ish-harakatning yuzaga chiqishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo‘lgan harakatni ifodalaydi. Shart mayli *-sa* affiksi va shaxs-son qo‘shimchalarining qo‘shilib tuslanishidan hosil bo‘ladi.

	B i r l i k	K o‘ p l i k
1- shaxs	Bor+sa+m	bor+sa+k
2- shaxs	bor+sa+ng	bor+sa+ngiz
3- shaxs	bor+sa+0	bor+sa+(lar)

Fe’lning bu shakli quyidagi ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi: 1. Shart mayli shaklidagi fe’l boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart bo‘lgan harakatni bildiradi: *Mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta ham ko‘payadi (A.R).* 2. Shart maylidagi fe’l payt ma’nosini bildiradi va payt ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi: *Ertalab derazadan qarasam, hammayoq oppoq qor ekan.* 3. Istak ma’nosini bildiradi. Bunday holda *edi* to‘liqsiz fe’li ishtirok etib bu ma’noni kuchaytiradi: *Qani edi bir parcha soya-salqin joy topilsa…(H.G‘).* 4. Agar edi to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llangan shart maylidagi fe’l bo‘lishsiz shaklda qo‘llansa, gumon manosi hosil bo‘ladi: *Biror qaltis gap aytib, sharmanda qilmasa edi.*

4. Maqsad mayli *-moqchi* affiksi yordamida yasaladi va harakatning bajarish maqsadini, niyatini, mo‘ljalini bildiradi:

	B i r l i k	K o‘ p l i k
1- shaxs	bor+moqchi+man	bor+moqchi+miz,
2 -shaxs	bor+moqchi+san	bor+moqchi+siz
3 -shaxs	bor+moqchi	bor+moqchi+(lar)

Fe’lning bu shakli faqat maqsad, mo‘ljal ma’nosini bildiradi. -moqchi affiksli fe’l *edi* to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llanganda, o‘tgan zamon ifodalanishi mumkin. Lekin bunda harakat o‘tgan zamonga (o‘tgan zamonda bajarilishi)

emas, balki maqsad o‘tgan zamonga oid bo‘ladi: *bormoqchi edim, bormrqchi eding, yubormoqchi edi.*

-moqchi affiksi bilan yasalgan shakl *bo‘l* fe’lining o‘tgan va hozirgi zamon shakllari bilan qo‘llanganda ham harakatning emas, balki maqsadning hozirgi zamon yoki o‘tgan zamonga oidligi ifoda-lanadi: *bormoqchi bo‘layapman, bormoqchi bo‘laman, bormoqchi bo‘ldim.*

Fe’l mayllari sinonimiyasi. Fe’l mayllarini hosil qiluvchi affikslar nutq talabiga ko‘ra o‘zaro **sinonim** sifatida ham ishlatiladi:

1. Xabar maylidagi fe’l buyruq-istak mayli manosini ifodalashda ishlatiladi: *Qani, yigitlar, ketdik! Kechagi qiliqlaring uchun bugun hech yoqqa chiqmaysan, tushundingmi!*

2. Xabar maylidagi fe’l shart mayli vazifasida qo‘llanadi: *Va’da berdingmi-bajar. Boshga bir ish tushdimi, yagona yo‘l- uni jasorat bilan yengishdir.*

3. Buyruq-istak maylidagi fe’l xabar mayli vazifasida ishlatiladi: *Bolani o‘qitish o‘rniga xizmatingizni qildiring, yana urdiring! Sizda insof bormi? (xizmatingizni qildiribsiz, urdiribsiz)*

4. Buyruq–istak maylidagi fe’l shart mayli vazifasida qo‘llanadi: *Kimlardir mehnat qilsin-u, rohatini siz ko‘rasizmi?! Avval qo‘ng‘iroq chalsin, keyin hammamiz birga tashqariga chiqamiz.*

5.Shart maylidagi fe’l xabar mayli ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi: *Kenjaboyning o‘g‘li yugurib kelsa-yu, to‘ni bilan sumkasini qo‘limga tutqazsa bo‘ladimi? (O.) (qo‘limga tutqazdi).*

6. Shart maylidagi fe’l buyruq-istak mayli vazifasida qo‘llanadi: *Sabr qilsang, g‘o‘radan halvo pishar (sabr qil, g‘o‘radan halvo pishadi).*

Nazorat uchun savollar:

1. *Fe‘l so‘z turkumiga ta‘rif bering.*
2. *O‘timli va o‘timsiz fe‘llar deganda nimani tushunasiz?*
3. *Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llarga to‘xtalib o‘ting.*
4. *Nisbat tushunchasiga to‘xtalib o‘ting.*

4-MAVZU
FE’LLARNING ZAMON KATEGORIYASI. FE’LLARNING SHAXS-SON KATEGORIYASI. FE’LNING MODAL SHAKLLARI VA TUZILISH JIHATDAN TURLARI.

R E J A:

1.Fe`llarning zamon kategoriyasi.
2.Fe`llarning shaxs-son kategoriyasi
3.Fe`lning modal shakllari va tuzilish jihatdan turlari

Fe`llarning zamon kategoriyasi

Fe’l zamonlari ish harakati nutq so‘zlanib turgan paytdan avval, nutq so‘zlanib turgan paytda yoki nutq so‘zlanib turgan paytdan keyin bajarilgan, bajarilmaganligiga munosabatni ifodalovchi fe’l shaklidir. Shunga ko‘ra, fe’l

zamonlari, dastlab, uch guruhga bo‘linadi: 1) o‘tgan zamon, 2) hozirgi zamon, 3) kelasi zamon.

O‘tgan zamon - nutq so‘zlanib turgan paytdan avval bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lmagan harakatni anglatadi. O‘tgan zamonning quyidagicha besh turi mavjud: 1) yaqin o‘tgan zamon, 2) o‘tgan zamon hikoya fe’li, 3) uzoq o‘tgan zamon, 4) o‘tgan zamon davom fe’li, 5) o‘tgan zamon maqsad fe’li.

1. Yaqin o‘tgan zamon nutq so‘zlanib turgan paytdan oldin, so‘zlovchining ko‘z o‘ngida yoki bevosita ishtirokida sodir bo‘lgan harakatni ifodalaydi. U -di affiksini fe’llarga qo‘shish va tuslash orqali hosil bo‘ladi: o‘qi+di+m, o‘qi+di+ng, o‘qi+di.

2. Uzoq o‘tgan zamon ancha avval, qachondir bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lmagan harakatni ifodalaydi: Bu shakl -gan sifatdoshi + edi, ekan, emish singari to‘liqsiz fe’llarni qo‘shish va tuslash orqali hosil qilinadi: o‘qi+gan+man, o‘qi+gan ekan+man, o‘qi+gan emish+man, o‘qi+gan edi+m kabi.

3. O‘tgan zamon hikoya fe’li nutq so‘zlanib turgan paytdan ilgari kutilmaganda, qisqa vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tgan hikoya qilish, tasvir-lash orqali hosil bo‘ladi. Bu shakl - b / ib yoki-b/-ib + edi to‘liqsiz fe’li orqali yasaladi: ol+ib+man, ol+ib+san, ol+ib edi+m, o‘qi+b edi+ng kabi.

4. O‘tgan zamon davom fe’li nutq so‘zlanib turgan paytdan ilgari davomli bo‘lgan, takrorlanib turgan harakatni ifodalaydi. Bu shakl –r (-ar), - yotgan, -moqda affikslari + edi to‘liqsiz fe’li yordamida yasaladi: bil+ar edi+m, bil+ar eding; ol+ayotgan edi+m, ol+ayotgan edi+ng; ol+moqda edi+m, ol+moqda edi+ng kabi.

5. O‘tgan zamon maqsad fe’li nutq so‘zlanib turgan paytdan avval maqsad qilingan harakatni ifodalydi. Bu shakl –moqchi, -digan affikslari va to‘liqsiz fe’li yordamida yasaladi: ol+moqchi edi+m, ol+moqchi edi+ng; ol+adigan edi+m, ol+adigan edi+ng kabi.

Hozirgi zamon ish - harakatning nutq so‘zlanib turgan paytda bajaradigan, bajarilmaganini ifodalaydi. Hozirgi zamon fe’lining quyi-dagi ikki turi mavjud: 1) hozirgi-kelasi zamon, 2) hozirgi zamon davom fe’li.

1. Hozirgi - kelasi zamon nutq so‘zlanayotgan payt va undan sung sodir bo‘ladigan harakatni ifodalaydi: -a / -y ravishdosh affiksini olgan fe’lni tuslash orqali shakllanadi: ol+a+man, ol+a+san; ishla+y+man, ishla+y+san.

2. Hozirgi zamon davon fe’li nutq so‘zlanayotgan paytda davom etib turgan harakatni ifodalaydi va fe’lning o‘zak-negiziga –yap, -moqda, -yotib,-yotir affikslarini qo‘shib tuslash orqali hosil bo‘ladi: ishla+yap+ man, ish+la+yap-san; ishla+moqda+man; ishla+yotib+man; o‘qi+yotir+ man kabi.

Kelasi zamon harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan so‘ng bajaralish yoki bajarilmasligini ifodalaydi. Bu zamonning ikki turi mavjud:1) kelasi zamon maqsad fe’li, 2) kelasi zamon gumon fe’li.

1. Kelasi zamon maqsad fe’li bajarilishi maqsad qilib qo‘yilgan harakatni ifoda etadi va fe’lning o‘zak negiziga –moqchi, --digan -ajak affikslarini qo‘shib tuslash orqali hosil bo‘ladi: ishla+moqchi+man, ishla +moqchi+san; ishla+yajak.

2. Kelasi zamon gumon fe’li harakatning bajarilishi mo‘ljali, taxminini ifodalaydi va –r,-ar affiksini fe’lga qo‘shib tuslash orqali yasaladi: ol+ar+man, ol+ar+san, ol+ar, ol+ar+miz kabi.

Fe’l zamonlari sinonimiyasi. Boshqa fe’l shakllarida bo‘lganidek, zamon shakllari o‘rtasida ham grammatik ma’nodoshlik munosabati mavjud:

1. O‘tgan zamon fe’lini hosil qiluvchi –di affiksi, hozirgi zamon o‘rnida qo‘llanadi: Hozir qorong‘uda qayoqqa bordigu, nimayam qildik// qayoqqa boramizu, nimayam qilamiz.

2.O‘tgan zamon fe’lini hosil qiluvchi -gan affiksi hozirgi zamon ma’nosida ishlatiladi: Birov kitob o‘qigan, kimdir shaxmat atrofida.

3.Hozirgi zamon shakli kelasi zamon ma’nosida qo‘llaniladi. Bunday hol, asosan, ket bor, yubor,boshla kabi fe’llar doirasida uchraydi: Ertaga Buxroga ketayapmiz.

4.Kelasi zamon fe’li o‘tgan zamon ma’nosida qo‘llanadi: Rais majlisni ochiq deb e’lon qiladi, hamma o‘rnidan turadi, O‘zbekiston gimni yangraydi.

5. Kelasi zamon fe’li hozirgi zamon ma’nosini ifodalaydi: Ha, bu yer-da hayot qaynaydi… Talabalar baxtiyor yoshlik gashtini surmoqdalar.

Fe`llarning shaxs-son kategoriyasi

Quyidagi berilgan misollardagi ajratib ko'rsatilgan fe'l formalariga e'tibor bering:

1.Onajon, men o'qib ulg'aymoqdaman (T. Saydaliyev). 2. Sen uning azob chekayotganini sezmading (J.Abdullayev) 3. Bolam, kim bilan gaplashayapsan? (Said Ahmad). 4. Ular hazil-mutoyiba bilan ovqatlandilar. (F.Musajonov).

Ulg'aymoqdaman fe'li tarkibidagi -man, sezmading fe'lidagi -ng, gaplashayapsan fe'li tarkibidagi –san, ovqatlandilar fe'lidagi (-di) -lar qo'shimchalari harakat qaysi shaxs (yoki shaxslar) tomonidan bajarilganini ko'rsatadi. Shuning uchun ham ular shaxs-son affikslari (qo'shimchalari) deb nomlanadi. Tilshunoslikda ular tuslovchi qo'shimchalar deb ham yuritiladi.

Ular ish-harakatni bajaruvchisi 3 shaxs (I shaxs-so'zlovchi; II-shaxs tinglovchi; III shaxs o'zga) va 2 son (birlik-yakka shaxs, ko'plik 2 va undan ortiq shaxs) tushunchalarini aks ettiruvchi qo'shimchalarni o'z ichiga oladi.

Tuslovchi qo'shimchalar 3 guruhga bo'linadi:

1-guruhda: -m, -k, -ng, -ngiz, nol-nol (-lar);

2-guruhda: -man, -miz; -san, -siz; -di (yoki nol)-di (lar) yoki nol (lar);

3-guruhda: -ay (-in), -y (in), -aylik, -ylik; -nol (-gin) –ingiz, -ngiz (lar); -sin, -sinlar shaxs -son qo'shimchalari kiradi.

Birinchi guruh tuslovchilar –di, -sa affiksli fe'l formalariga (aniqlik va shart-istak maylidagi fe'llarga); qo'shma (sostavli) fe'l tarkibidagi qo'shiladi (m: o'yladim, o'ylasam, o'ylab edim kabi).

Ikkinchi guruh tuslovchilar -b (-ib), -a (-y) affiksli ravishdoshlarga (m: boramiz, ishlabsan,) sifatdoshlarga (m: kelgansiz, ko'rarman, ishlaydigansan...), ekan, emish to'liqsiz fe'llar mavjud bo'lgan sostavli fe'llarga (borar emishsan, aytgan ekanmiz, kabi) qo'shiladi.

Demak ikkinchi guruh tuslovchilar aniqlik mayli formalarini hosil qiladi.

Uchinchi guruh tuslovchilar faqat buyruq mayliga (buyruq-istak mayliga) xos affikslar sanaladi.

Ish-harakat ma’lum bir grammatik shaxs tomonidan bajariladi (yoki bajarilmaydi). Grammatik shaxs so`zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o`zga (III shax syoki predmet) bo`lishi mumkin.

Grammatik shaxs grammatik son (birlik yoki ko`plik) bilan birgalikda ifodalanadi. Fe’llardagi bunday grammatik shaxs va son ma’nosi ma’lum bir grammatik ko`rsatkichlar orqali ifodalanadi. Masalan: o`qidim, o`qisam, o`qisang, o`qiyapman, o`qibman, o`qiy fe’llari tarkibidagi –m, -man, -y qo`shimchalari ish-harakatning I shaxs so`zlovchi, ya’ni yakka shaxs tomonidan bajarilganini ko`rsatsa; o`qidik, o`qisak, o`qiyapmiz, o`qibmiz, o`qiylik fe’llari tarkibidagi –k, -miz, -ylik affikslari ish-harakatning I shaxs, lekin ko`p so`zlovchilar (shaxslar) tomonidan bajarilganini ifodalaydi.

Demak, ish-harakatning bajaruvchisi uch shaxs va 2 son tushunchalarini aks ettiruvchi affikslarni o`z ichiga oladi. SHuning uchun ham bunday affikslar shaxs-son affikslar deb yuritiladi. Fe’llarning shaxs-son affikslari bilan o`zgarishi esa tuslanish deyiladi. SHaxs-son affikslari tilshunoslikda tuslovchi affikslar deb ham yuritiladi.

O`zbek tilida tuslovchi affikslar fe’l shakllariga turlicha ko`rinishda qo`shiladi. SHu jihatdan tuslovchi affikslar uch guruhga bo`linadi.

1. **Birinchi guruh tuslovchilar** aniqlik va shart-istak maylidagi –di, -sa qo`shimchalarini olgan sof fe’l negizidan so`ng va edi to`liqsiz fe’liga qo`shiladi: keldi-m, keldi-ng, keldi; kelsa-k, kelsa-ng, kelsa(lar) kabi.

Fe’llarning birinchi guruh tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

SHaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	*yozdim, yozsam, yozgan edim*	*zdik, yozsak, yozgan edik*
II	*yozding, yozsang, yozgan eding*	*yozdingiz, yozsangiz, yozgan edingiz*
III	*yozdi, yozsa, yozgan edi*	*yozdi(-lar), yozsa(-lar), yozgan edi(-lar)*

Ikkinchi guruh tuslovchi affikslar *–b(-ib), -a(-y)* qo`shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlardan, sifatdoshlardan *(-yotgan* qo`shimchasidan tashqari), shuningdek, *-yap, -moqda, -yotib, -moqchi* bilan shakllangan fe’l negizidan so`ng qo`shiladi. Mazkur guruhdagi tuslovchilar III shaxsdagina ikki xil ko`rinishda bo`ladi, ya’ni birinchi xil ko`rinishda *–b(-ib), -a(-y)* qo`shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlar hamda –yap, -yotib bilan shakllangan fe’llar III shaxs birlikda –di (-ti), ko`plikda –di(lar), -ti(lar) shaxs-son affikslari bilan shakllanadi.

Ikkinchi xil ko`rinishda esa fe’lning sifatdosh shakllariga *(-gan, -r(-ar), -digan, -vchi(-uvchi* bilan hosil qilingan shakllariga), -moqda, -moqchi, -yotir bilan shakllangan fe’l negizlari, shuningdek, fe’llar ekan, emish to`liqsiz fe’llari bilan

birga qo`llansa, III shaxsda shaxs ko`rsatkichi shakllanmaydi (nol ko`rsatkichli shaklda keladi).

Fe'llarning ikkinchi guruh (A.B ko`rinishi) tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha: «A» ko`rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	*yozib-man, yozayotib-man, yoza-man yozyap-man*	*yozib-miz, yozayotib-miz, yoza-miz, yozyap –miz*
II	*yozib-san, yozayotib-san, yoza-san, yozyap -san*	*yozib-siz, yozayotib-siz, yoza-siz, yozyap –siz*
III	*yozib-di, yozayotib-di, yoza-di, yozyap -ti*	*yozibdilar, zayotibdilar, yozadilar, yozyaptilar*

«B» ko`rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	*yozgan-man, yozar-man, yozadigan-man, yozmoqda-man, yozmoqchi-man*	*yozgan-miz, yozar-miz, yozadigan-miz, yozmoqda-miz, yozmoqchi-miz*
II	*yozgan-san, yozar-san, yozadigan-san, yozmoqda-san, yozmoqchi-san*	*yozgan-siz, yozar-siz, yozadigan-siz, yozmoqda-siz, yozmoqchi-siz*
III	*yozgan, yozar, yozadigan, yozmoqda, yozmoqchi*	*yozgan-lar, yozar-lar, yozadigan-lar, yozmoqda-lar, yozmoqchi-lar*

Uchinchi guruh tuslovchilar buyruq maylidagi sof fe'l negizidan so`ng qo`shiladi.

Fe'llarning uchinchi guruh tuslovchi bilan tuslanishi quyidagicha:

SHaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	*yoz**ay**, yoz**ayin**, o`qi**y**, o`qi**yin***	*yozaylik, o`qiylik*
II	*yoz, yozgin, o`qi, o`qigin*	*yozingiz, o`qingiz,*
III	*yozsin, o`qisin*	*yozsinlar, o`qisinlar,*

Fe`lning modal shakllari va tuzilish jihatdan turlari

O`zbek tilida fe'l o`ziga xos turli modal ma'nolarga (qo`shimcha ma'nolarga) ega. Fe'llardagi modal ma'nolar sintetik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar vositasida ifodalanadi.

Fe'ldagi modal ma'no sintetik shakl vositasida ifodalanganda, fe'l negiziga ish-harakatning davomliligi, takroriyligi, kuchsizligi kabi qo`shimcha ma'nolarni qo`shadigan shakl yasovchi qo`shimchalarni qo`shish bilan hosil qilinadi. Fe'llarda modal ma'no yasovchi affikslar quyidagilar:

1) ***–la*** affiksi fe'l negiziga qo`shilib, takror, davomiylik ma'nosini bildiradi: *savala, ishqala, tirnala, cho`qila* kabi;

2) ***–gila (-kila, -qila, -g`ila):*** *yugurgila, turtkila, tortqila, ezg`ila* kabi. Bu affikslar ham fe'l negiziga qo`shilib, harakatning davomiyligi, takror ma'nosini bildiradi;

3) ***–(i)msira, -(i)nqira:*** *yig`lamsira, kulimsira, oqarinqira* kabi. Bu affikslar fe'l negiziga qo`shilib, harakatning kuchsizlanishini bildiradi;

4) ***–(i)sh*** affiksi ham harakatning kuchisizligini bildiradi: *oqarishdi, to`lishdi* kabi;

5) ***-qilla:*** *chopqilla.* Bu affiks fe'l negiziga qo`shilib, harakatning zudlik bilan bajarilish ma'nosini bildiradi.

Fe'ldagi modal ma'no analitik shakl vositasi bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl ko`makchi fe'llar va to`liqsiz fe'llar yordamida hosil qilinadi: yozib ko`r, aytib chiq, ko`ra qol, so`zlay boshla, borar edi, kelgan emish, olgan ekan kabi.

Ko`makchi fe'llar bilan shakllangan qo`shilmalar ikki so`z shaklidan tashkil topib, birinchi qism leksik ma'no ifodalaydi. SHu tufayli etakchi fe'l deb yuritiladi; ikkinchi qism esa unga birikib grammatik ma'no ifodalaydi va ko`makchi fe'l sanaladi. Ko`makchi fe'llar etakchi fe'lning ma'nosiga qo`shimcha modal ma'nolar qo`shadi.

Ko`makchi fe'l tarzida kel, ket, bor, yubor, chiq, o`t, tur, qol, bo`l, ol, bil, qo`y, ber, tashla, ko`r, boshla kabilar keladi. Bu fe'llar bir tomondan, harakat ma'nosini ifodalab, mustaqil holda leksik birlik sanaladi, ya'ni keldi, borgan, ko`rmoqchi, bilib kabi; ikkinchi tomondan boshqa fe'l shakliga qo`shilib, o`z leksik ma'nosini vaqtincha yo`qotib, o`zi aloqador bo`lgan fe'lning leksik ma'nosiga qo`shimcha ma'no qo`shadi va ko`makchi fe'lga aylanadi. Masalan: yoza boshladi fe'li tarkibidagi boshladi fe'li mustaqil holda boshlanish harakatini ifodalaydi, lekin bu qo`shilmada o`z leksik ma'nosini yo`qotib yozish fe'lining leksik ma'nosiga qo`shimcha ma'no, ya'ni harakatning endi boshlanish ma'nosini qo`shgan.

SHu bilan birga ko`makchi fe'l etakchi ma'nosiga davomiylik, tugallanganlik, takroriylik (yoza tur, yozib tur, aytib bo`l kabi); harakatning bajarilish imkoniyati (yozib ko`r, aytib boq kabi); harakatning boshqa shaxsdan so`zlovchiga yo`nalishi (aytib ket, olib bor, aytib chiq, ola kel, yozib ol, yozib ber), harakatning bajarilish usuli (yozib tashla, aytib yubor) kabi modal ma'nolarni qo`shadi.

Fe'llarda modal ma'no juft va takroriy shakllar vositasida ham ifodalanadi. Etakchi fe'l bilan ko`makchi fe'l bir xil shaklda kelib, juft fe'lni hosil qiladi.

Bunda leksik ma’no salmog`i birinchi qismda bo`ladi: a ytdi-qo`ydi, o`tdi-ketdi, oldi-qoldi kabi.

Ko`makchi fe’llar fe’lning –b (-ib), -a (-y) bilan yasalgan ravishdosh shakllari bilan birga qo`llanadi: o`qib ber, o`qiy boshla kabi.

Etakchi va ko`makchi fe’ldan tashkil topgan fe’l shakllarida ko`makchi fe’l birdan ortiq bo`lishi ham mumkin: yozib qo`ya qol, yozib berib qo`ya qol kabi.

Ko`makchi fe’lli fe’l shakllarida shaxs-son qo`shimchalari ko`makchi fe’llarga qo`shiladi: yozib chiqdim, yozib chiqding, yozib chiqdik, yozib chiqdingiz kabi.

To`liqsiz fe’llar

Mustaqil holda ish-harakat ma’nosini ifodalamay, turli fe’l shakllaridan so`ng (keng ma’noda ot bilan) qo`llanib, faqat grammatik modal ma’no ifodalaydigan fe’llar to`liqsiz fe’llar deyiladi. To`liqsiz fe’llarga edi (-di), ekan (-kan), emish (-mish) kabi fe’l shakllari kiradi. YOzar edi – yozardi, yozar ekan – yozarkan, yozar emish – yozarmish kabi. Bu fe’llar aslida bir e (arxaik er) fe’l negizining turli shakllari bo`lib, ular hozir ayrim-ayrim so`z sifatida tushuniladi.

To`liqsiz fe’l sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi bilan birikib, fe’l zamonlarining analitik usul bilan yasalgan shakllarini hosil qiladi. To`liqsiz fe’llar edi, ekan, emish turlicha modal ma’nolar ifodalaydi:

1) edi to`liqsiz fe’li qatnashgan fe’l shaklida ta’kidlash, eslatish, hikoya, davomiylik, takror kabi ma’nolarni bildiradi: Bo`shagan erlarning bag`rini pluglarning o`tkir tig`lari tilka-tilka qilmoqda edi (H.N.). SHu kuni endi ko`chaga chiqib edi... (M.Ismoiliy). Ular bir partada o`tirishar, birga dars tayyorlashar, maktabni bitirgandan keyin qaerga o`qishga borish haqida maslahatlashar, xayol surishar edi (S.Zunnunova).

2) ekan to`liqsiz fe’l qatnashgan shakllarda o`tmishda yuz bergan voqea-hodisaning so`zlovchiga keyinchalik ma’lum bo`lganligi va uning davomi ekanligi anglashiladi: Aytishingizdan, oradan hech gap o`tmagan ekan (A.Qahhor).

3) emish to`liqsiz fe’li esa noaniqlik, gumon, eshitilganlik ma’nolarini bildiradi: O`zgarmagan, ammo negadir ikkovining ham bo`yi juda uzun bo`lib ketgan emish (S.Ahmad).

To`liqsiz fe’llar boshqa so`z turkumlari bilan ham birikib keladi. Bu holda ot kesim tarkibida kelib, bog`lama vazifasini bajarib, tuslovchi affikslarni oladi: Uy kichkina, lekin yorug` va toza edi (O.)

Fe’llarda modal ma’no fe’lning juft va takrorik shakli bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl orqali harakatning davomliligi, takrorlanib turishi, tugallanganlik, harakatning voqe bo`lishiga turlicha munosabat (befarqlik) kabi modal ma’nolar anglashiladi: ayta-ayta, borib-borib, aytsa-aytar, uchadi-ketadi, kelsa-kelibdi, ishlasa-ishlasin kabi.

5-MAVZU
FE’LNING VAZIFADOSH SHAKLLARI. SIFATDOSH, HARAKAT NOMI. FE’LNING YASALISHI.

R E J A:

1.Fe’lning vazifadosh shakllari.

2.Fe’lning yasalishi.

Fe’lning vazifadosh shakllari

Fe’lning biror gap bo‘lagi vazifasini bajarishga xoslangan shakl-lari vazifadosh shakllar deyiladi. Fe’lning vazifadosh shakllari to‘rt xil bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: 1) harakat nomi, 2) sifatdosh, 3) ravishdosh.

Harakat nomi. Harakat nomi ish - harakatning atamasi bo‘lib, gapda otga xos vazifalar bajarishga xoslangan fe’l shaklidir. Harakat nomi *-(i)sh, -(u)v, -moq*. affikslari yordamida yasaladi: *kechmoq, kechish, kechuv.* Harakat nomi fe’lga xos tuslanish, zamon, mayl kabi ma’nolarni bildirmaydi, balki harakat-holatning atamasi bo‘ladi. Shu sababli otlarga xos kelishik, egalik kabi grammatik shakllarni qabul qila oladi va gapda otlarga xos vazifalarni bajaradi.

Ma’no jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan uch xil harakat nomi qo‘shimchalaridan –moq bilan yasalgan shakl fe’lga *–sh (-ish)* bilan yasalgan shakl esa otga yaqin turadi. Shuning uchun -moq orqali fe’lning noaniq (infinitiv) shakli hosil qilinadi. Harakat nomi shakllarining har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

-(i)sh affiksi bilan yasaluvchi harakat nomi quyidagi xususiyatlarga ega: 1) harakatning nomini bildiradi, uning atamasi hisoblanadi: *yurish; yozish, o‘ylash;* 2) *-(i)sh* affiksi bilan yasaluvchi harakat nomi shakli ko‘plik, egalik va Kelishik affikslari bilan qo‘llanganda, bu affikslarning ma’nosida deyarli o‘zgarish bo‘lmaydi. Biroq, o‘rin-payt kelishigi shaklida qo‘llanganda, hozirgi zamon sifatdoshining o‘rin-payt kelishigidagi shakli bilan ma’nodoshlikka ega bo‘lishi mumkin: *tuzishda-tuzayotganda-tuzayotgan vaqtda;* 3) harakat nomining *-(i)sh* affiksli shakli ko‘makchilar bilan ham qo‘llanib maqsad, vaqt, birgalik kabi ma’nolarni ifodalaydi: *o‘qish uchun, o‘qishdan avval, o‘qish bilan.*

-(u)v affiksi bilan yasaluvchi harakat nomidagi fe’l undosh bilan tugaganda, **u** unlisi orttiriladi: *bor-boruv*. So‘z oxiri **i** bilan tugagan bo‘lsa, **i** tovushi **u** tovushiga, **a** bilan tugagan bulsa, **a** tovushi **o** tovushiga o‘tadi: *o‘qi-o‘quv, ishla-ishlov.*

-(u)v affiksi bilan yasaluvchi shakl ko‘proq ot ma’nosida qo‘llanadi. Shu bois, *-(u)v* affiksi yordamida yasalgan harakat nomining ayrimlari butunlay otga ko‘chgan bo‘ladi: *saylov, chanqov, qistov, o‘quv* kabi.

-moq affiksi bilan yasaluvchi harakat nomi *-(u)v* affiksi yordamida yasaluvchi shaklga nisbatan ham kam qo‘llanadi. Harakat nomi shakllari har doim ham biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llab bo‘lmaydi. Masalan,*Talabalarning bilim olishini yaxshi tashkillashtirish uchun mustaqil talimga alohida e’tibor berish zarur*, gapida qo‘llangan *–ish* qo‘shimchasi bilan shakllangan barcha harakat nomini –moq yoki *–v/uv* qo‘shimchali shakl bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Harakat nomining yuqoridagi uchala shakli ham bo‘lishsizlik ko‘rsatkichi -ma affiksini qabul qilmaydi. Ularning bo‘lishsiz shakli -maslik affiksi yordamida yasaladi: *ketmaslik, aytmaslik* kabi. –maslik asosida hosil bo‘lgan bo‘lishsizlik harakat nomining boshqa shakllariga nisbatan *–sh (-ish*) affiksiga mazmunan yaqinligi mavjud: *o‘qish-o‘qimaslik. borish-bormaslik.*

Sifatdosh sifat kabi narsaning belgisini bildirib, gapda aniqlovchi vazifasiga xoslangan fe’l shaklidir: *kelgan odam, ishlayotgan yigit* kabi.

Sifatdosh, barcha fe'llar kabi o‘timli va o‘timsizlik, nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik hamda zamon kategoriyalariga xos ma'nolarda kela oladi. Ular zamon ma'nosiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi: 1) o‘tgan zamon sifatdoshi, 2) hozirgi zamon sifatdoshi, 3) kelasi zamon sifatdoshi.

O‘tgan zamon sifatdoshi –gan (k, g undoshlaridan so‘ng **–kan**) affiksi bilan yasaladi: *o‘qigan (kitob), yozgan (insho), tikkan(ko‘ylak).* Eski o‘zbek tilida *–mish, -dik* shaklida ham qo‘llangan: *E yorim, sevdigim obod ro‘zg‘orim. (E.J)* Sifatdoshning bu shakli 1) fe'lning o‘tgan zamon ma'nosini bildiruvchi formasini yasaydi: *borganman, borgan edim;* 2) *yot, tur, yur, o‘tir* kabi holat fe'llariga qo‘shilganda, hozirgi zamon ma'nosi ham ifodalanadi: *Faxriddin osilib turgan qalin pastki labini bir-ikki qimirlatib javob berdi. (A.Q.);* 3) ot oldidan kelib, narsaning doimiy belgisini bildiradi va sfatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi. Bunda harakatning o‘tgan zamonga oidligi ifodalanmaydi, balki narsaning hozirgi holatdagi belgisi asosiy o‘rinda bo‘ladi: *xonaning ko‘chaga qaragan oynasi, hovuz boshiga to‘plangan odamlar.* 4) *-gan* affiksli sifatdosh shaxs-son qo‘shimchalarini olib, kesim vazifasida qo‘llanadi. Bunda u xabar maylining o‘tgan zamon shakli hisoblanadi, *-gan* affiksi esa zamon (3-shaxda esa zamon va shaxs) ko‘rsatkichi sifatida qaraladi: *kelganman, kelgansan, kelgan; kelganmiz, kelgansiz, kelgan;* 5) egalik, ko‘plik va kelishik qo‘shimchalarini olib otlashadi: *Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra*.

Hozirgi zamon sifatdoshi fe'lga **–yotgan, -vchi(-uvchi)** affikslarini qo‘shish orqali yasaladi va quyidagi ma'no, vazifalarga ega bo‘ladi:

1. **–yotgan** affiksi grammatikalizatsiyalashgan **yot** fe'li va o‘tgan zamon sifatdoshi hosil qiluvchi *–gan* affiksiniing birikishi orqali yasaladi. Hozirgi zamon sifatdoshining bu shakli, asosan, ot oldidan kelib aniqlovchi vazifada qo‘llanadi: *ishlayotgan odam, esayotgan shamol* kabi. Bu shaklni shaxs-son affikslari bilan tuslash orqali hozirgi zamon fe'lini hosil qilib bo‘lmaydi. Faqat quyidagi hollardagina mazkur sifatdosh hozirgi zamon fe'lining yasalishi uchun xizmat qilishi mumkin: a) *yo‘q* so‘zi bilan hozirgi zamon fe'lining inkor shaklini yasaydi: *ishlayotgani yo‘q, kelayotgani yo‘q;* b) *emish* tuliqsiz fe'li bilan birga qullanganda hozirgi zamon fe'lining eshitilganlik shakli yuzaga keladi: *ishlayotgan emish, kelayotgan emish;* d) horzirgi zamon gumon ma'nosini ifodalashda -dir affiksi bilan qo‘llanadi: *ishlayotgandir, kelayotgandir.*

2. Hozirgi zamon sifatdoshining **-vchi(-uvchi**) affikslari bilan yasalgan shakli oxiri a tovushi bilan bitgan so‘zlarga qo‘shilganda, a tovushi o tovushiga aylanadi, i unli tovushi bilan bitgan fe'llarda esa i tovushi u tovushiga aylanadi. Undosh bilan bitgan fe'llarga qo‘shilganda, u orttiriladi: *ishla - ishlovchi, o‘qi - uquvchi, bor- boruvchi* kabi.

Hozirgi zamon sifatdoshi quyidagicha ma'no va vazifalarga ega bo‘ladi: a) **–yotgan** sifatdoshidan farqli ravishda shaxs-son affikslari bilan tuslanadi va gapda kesim vazifasida qo‘llanadi: *ishlovchiman, ishlovchisan, ishlovchi;* b) otga bog‘lanib, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi: *ishlovchi kishi, o‘quvchi qiz* kabi; d) bu shaklda otlashishga moyillik kuchliroq bo‘ladi: *o‘quvchi, yozuvchi, to‘quvchi kabi.*

Kelasi zamon sifatdoshi fe’lga **–r(-ar), -digan** affikslarini qo‘shish bilan yasaladi va qo‘yidagicha ma’nolarni ifodalaydi:

1. Sifatdosh yasovchi *-(a)r* (bo‘lishsizi *-mas*) affiksi hozirgi o‘zbek adabiy tilida juda kam uchraydi. Bu affiks bilan qo‘llanuvchi ayrim so‘zlar fe’ldan ko‘ra sifatlarga yaqin turadi: *oqar suv, so‘nmas hayot* kabi. Shuningdek, *-(a)r* affiksi yordamida yasaluvchi shakl tuslanganda kelasi zamon gumon fe’lini hosil qiladi: *yozarman, yozarsan, yozar kabi*.

2.Sifatdoshning **–digan** affiksi bilan yasaluvchi shakli ravishdoshning *–a (-y)* affiksi bilan yasalgan shaklidan so‘ng qo‘shiladi va quyidagicha ma’nolarga ega bo‘ladi: a) fe’lining atributiv shaklini hosil qilishda faol ishlatiladi: *o‘qiydigan kitob, bajaradigan yumush* kabi; b) shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanib, kelasi zamon maqsad ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi: *o‘qiydiganman, o‘qiydigansan, o‘qiydigan* kabi.

Bundan tashqari, kelasi zamon sifatdoshining –**jak, -gusi, -asi** singari qadimiy shakllari ham mavjud bo‘lib, ular hozirgi tilimizda *kelajak, kelgusi, kelasi* singari so‘zlar doirasidagina uchraydi.

Sifatdoshlarning asosiy sintaktik vazifasi aniqlovchi bo‘lib kelishdir. Ular otlashganda otlarga xos sintaktik vazifalarni bajaradi: *Aytilgan so‘z-otilgan o‘q*.

Shaxs-son affikslari bilan tuslanib, mayl, zamon ma’nolarini ifodalaganda esa kesim vazifasida keladi: *Men bu kitobni o‘qiganman. Sen ertaga borarsan.*

Ravishdosh. Ravishdosh harakatning belgisini bildiradigan, uni biror tomondan xarakterlaydigan fe’l shaklidir. Hozirgi o‘zbek tilida ravishdoshlar quyidagi xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi:

1. Ma’nosiga ko‘ra: a) holat ravishdoshlari *-b(-ib), -a (-y) -gudek* affislari vositasida hosil bo‘ladi; b) payt ravishdoshlari *-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha)* vositasida hosil bo‘ladi; d) maqsad ravishdoshi -gani (-kani, -qani) affiksi vositasida hosil bo‘ladi.

2. Tuslanish-tuslanmasligiga ko‘ra: a) tuslanadigan ravishdoshlar: a) *-b(-ib), -a (-y)* affikslari bilan yasalagan ravishdoshlar; b) *-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha) -gani (-kani, -qani)* affikslari bilan yasalagan ravishdoshlar kiradi.

3. Zamon ma’nosiga ko‘ra: a) o‘tgan zamon ravishdoshi: a) *-b(-ib), -gach (-kach, -qach)* affikslari bilan yasalagan ravishdosh; b) hozirgi zamon ravishdoshlari: *-a (-y)* affiksi bilan yasalagan ravishdosh; d) kelasi zamon ravishdoshlari: *-guncha (-kuncha, -quncha) -gani (-kani, -qani), -gudek* affikslari bilan yasaladigan ravishdoshlardan tashkil topadi.

Ravishdosh yasovchi affikslar quyidagi ma’no va grammatik vazifalarga egaligi bilan xarakterlanadi:

-(i)b affiksi: *so‘rab, eslab, quvonib.* Bu shakl bajaradigan vazifasining xilma-xilligi bilan boshqa ravishdosh shakllaridan alohida ajralib turadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar: 1) yetakchi fe’l bilan ko‘makchi fe’lni bog‘lashga xizmat qiladi: *so‘rab ko‘r, tashlab yubor, ishlab tur* kabi; 2) harakat belgisini bildirib, hol vazifasida keladi:*Shu payt chorbog‘dan echki yetaklab Dildor kirib keldi.*

(S.Ahm.) Harakat belgisini bildirgan ravishdosh, xuddi ravish kabi, -roq, -gina affikslari bilan ham qo‘llanadi: *Qudrat tortinibgina so‘radi.* 3) ravishdoshning bu turi shaxs-son affiksi bilan tuslanib, o‘tgan zamon hikoya fe’lini hosil qiladi: *kelibman, kelibsan* kabi.

Bu ravishdoshning bo‘lishsiz shakli –ma (o‘qimabman), **-may, -masdan** (o‘qimay, o‘qimasdan) shaklida**,** She’riyatda **-mayin** (tinmayin) shaklida qo‘llanishi ham uchraydi.

-a (-y) affiksi undosh bilan tugagan fe’llarga -a, unli bilan bitgan fe’llarga -y affiksining qo‘shilnshidan hosil bo‘ladi. Bu turdagi ravishdosh quyidagi ma’no va vazifalarda qo‘llanadi: 1) harakatning belgisini bildiradi, bu vazifada u yakka so‘z holida *(kula, ushlay* kabi) kam qo‘llanadi. Yakka so‘z tarkibida qo‘llanganda, harakatni tezlik bilan bajarganligini ifodalaydi: *Jo‘xori tuyayotgan xotin kelisopni kelining ustiga qo‘ya chopdi. (A.Q.)* 2) ravishdoshning -a, -y affiksi bilan yasaluvchi turi harakatning belgisini bildirish vazifasida, asosan, takror yoki juft so‘z holida qo‘llanadi. Bu shaklda qo‘llangan -a, -y affiksi yordamida yasaluvchi ravishdosh gapda vaziyat holi vazifasida keladi: *Muyassar shosha-pisha unga kechagi o‘ylarini gapira boshlagan edi. (O. Yo.)* 3) yetakchi fe’l bilan ko‘makchi fe’lni bog‘lash uchun xizmat qiladi: *yoza olmoq, o‘qiy boshlamoq;* 4) shaxs-son bilan tuslanib, hozirgi-kelasi zamon fe’li yasash uchun xizmat qiladi. Uning bo‘lishsiz shakli –**ma** affiksi orqali yasaladi: *kelaman, kelmayman, kelasan, kelmaysan, keladi; ishlayman, ishlaysan, ishlaydi* kabi.

-gach (-kach, -qach) affiksi: *Kelgach, ekkach, chiqqach.* Ravishdoshning bu turi qo‘yidagi vazifalarda qo‘llanadi: 1) payt ma’nosini bildiradi va payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi harakatning o‘zi bildirgan harakatdan keyin bajarilishini ifodalaydi: *U yechinib ko‘rpaga kirgach, Ikromjonga nimadir demoqchi bo‘lib boshini ko‘tardi. (S.Ahm.)* 2) sabab ma’nosini bildiradi va sabab ergash gapning kesimi vazifasida keladi: *Ko‘ksimda o‘ynadi bir onda sevinch, mahallam oldiga kelgach tramvay.(O.)* 3) -gach affiksi yordamida yasalgan ravishdoshning bo‘lishsiz shakli *–ma* orqali yasalib, asosan, sabab ma’nosini ifodalashda qo‘llanadi: *Hadeganda eshik ochilavermagach, xavotir oldik.* Ushbu ma’no chiqish kelishigidagi sifatdoshning *keyin* so‘zi bilan birikuvi vositasida ham ifodalanadi: *kelgach - kelgandan keyin, aytavermagach - aytavermagandan keyin.*

-guncha (-kuncha, -quncha) affiksi: *kelguncha, chekkuncha, chiqquncha.* Bu affiks yordamida yasaluvchi ravishdosh ham hozirgi o‘zbek tilida juda keng qo‘llanadi va quyidagi ma’nolarni bildiradi: 1) o‘zi bog‘lanib kelgan fe’l bildirgan harakatning bajarilish vaqtini aniqlaydi. Bunda: a) biror harakatning *-guncha* affiksli fe’l bildirgan harakatga qadar bajarilib bo‘lishi ifodalanadi: *Yuringlar, mashina kampirni tashlab kelguncha, qirga chiqib tushamiz. (I. R.)* b) biror harakatning *-guncha* affiksli fe’l bildirgan harakat sodir bo‘lguncha davom etishi ifodalanadi: *Hoy qizlar, shartim shuki, ketguncha ashula qilib ketasanlar. (S.3.)* 2) qo‘shma gaplarda ergash gapning kesimi vazifasida kelib, chog‘ishtirish ma’nosini bildiradi: *Muncha hayqir-guncha, telba to‘lqinlar, Simlarga quvvat ber shalolalardan. (Mirtemir.)*

-gani (-kani, -qani) affiksi: *olgani, ekkani, yiqqani.* Bu affiks yordamida maqsad ma'nosini bildiruvchi ravishdosh yasaladi: *Yig'im-terimga qarashgani yoshu qari, erkak-ayol - butun shahar hasharga chiqdi.* Bunday ma'no ifodalashda *uchun* ko'makchisi ham keng qo'llanadi: *Yig'im-terimga qarashish uchun yoshu qari, erkak-ayol- butun shahar hasharga chiqdi.*

Bu turdagi ravishdoshning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning bo'lishsiz shakliga ega emasligidir.

Fe`lning yasalishi

Fe'llar, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

1-§. Affiksatsiya usuli. Bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zlarga maxsus yasovchi qo'shimchalar qo'shib fe'llar yasaladi. Fe'l yasovchi affikslar cheklangan bo'lishiga qaramay, ular vositasida yasalgan fe'llar anchagina miqdorni tashkil etadi:

-la. Bu affiks quyidagi so'zlardan fe'l yasaydi:1) otdan: *qatiqla, gulla, metrla*; 2) sifatdan: *oqla, yaxshila, tozala*;3) olmoshlardan: *senla, sizla;* 4) ravishdan: *tezla, sekinla*; 5) taqlid so'zdan*: taqqilla, gursilla*; 6) undovlardan: *ohla, dodla*.

- a. Ot, sifat va taqlid so'zlardan: *sana, osha, ata (ot+a), yasha (yosh+a), qiyna, shildira, yaltira.*

-y\-ay. Ot, sifat va ravishdan: *kuchay, qoray, toray, sarg'ay, pasay, susay, ko'pay, ozay.*

-r\-ar. Faqat sifatlardan fe'l yasaydi*: qizar, oqar, ko'kar, eskir*.

-ik\- iq. Ba'zi ot, sifat, son, ravish va undov so'zlardangina fe'l yasaydi: *yo'liq, zo'riq, birik, hayiq*.

-ir\-ur. Ot va undov so'zlardan: *gapir, tupur.*

-sira. Ot va olmoshlardan yasaydi: *suvsira, qonsira, sensira, sizsira.*

-i. Ot va sifatdan fe'llar yasaydi: *changi,boyi, tinchi*.

- illa. Taqlid so'zlardan: *taqilla, shig'illa, miltilla.*

-lan. Ot, sifat va ikki sonidan yasaydi: *ovqatlan, jonlan, sergaklan, shodlan, ikkilan.*

-lash. ot, sifat va bir sonidan: *gaplash, birlash, qiyinlash, do'stlash.*

-t\-it. Sifatdan kamsonli fe'l yasaydi: *to'lat, berkit*.

Shuningdek, fe'l yasovchi **- qir** undov so'zlardan: *hayqir,* **- sa,- ka** ba'zi otlardan: *suvsa, iska* fe'l yasaydi. Biroq fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan fe'ldan fe'l yasalmaydi.

2-§.Kompozitsiya usuli. Qo'shma fe'llar komponentlarining qaysi turkumga oidligiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi: 1) ot + fe'l shaklidagi qo'shma fe'llar; 2) fe'l + fe'l shaklidagi qo'shma fe'llar.

Birinchi tipdagi fe'llarning asosiy qismlaridan biri sifatida *qilmoq, aylamoq, etmoq, bo'lmoq* so'zlari ishtirok etadi: *bayon qilmoq, kashf etmoq, kasal bo'lmoq* kabilar. Ular ko'pincha fe'l yasovchi affikslar bilan yasalgan fe'llarga ma'nodosh bo'ladi: *kasal bo'lmoq-kasallanmoq, hozir bo'lmoq-hozirlanmoq* kabi. Fe'l bo'lmagan so'zning *qilmoq, erimoq, aylamoq, bo'lmoq* fellaridan biri bilan birikishidan hamma vaqt ham qo'shma fe'llar hosil bo'lavermaydi. Masalan, *o'qituvchi edi, o'qituvchi bo'ldi* shaklidagi birikuv tarkibidagi fe'llar ot kesimga qo'shiladigan **bog'lamalardir**.

O‘zbek tilida ikki fe’lning birikuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma fe’llar uncha ko‘p emas. Masalan, *olib kelmoq, sotib olmoq, terib bormoq* kabi qo‘shma fe’llar shular jumlasidandir. Bu qo‘shma fe’llarni *ko‘rib qolmoq, o‘qib chiqmoq*,*ishlay boshlamoq* singari ikkinchi qismi mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan **ko‘makchi fe’lli birikmalardan** farqlash lozim.

1. Ot, sifat, ravish so'z turkumlari singari fe'llar ham boshqa so'z turkumlaridan yasaladi. Fe'llar asosan, ikki xil yo'l bilan yasaladi: a) morfologik yoki fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida; b) sintaktik (kompozitsiya) yoki so'zlarni qo'shish yordamida fe'l yasash.

2. Fe'llarning morfologik usulda yasalishi. Maxsus fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida fe'llarning yasalishi morfologik usul deyiladi. Morfologik, ya'ni fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlidiy so'zlardan fe'l yasaladi.

Masalan: ishla, terla, so'zla, kechik, guldira, chuxla kabi. fe'l yasovchi qo'shimchalar tubandagilar:

1. –la ot negiziga qo'shilib, o'sha negizdan anglashilgan predmetga ega qilish (qitiqla, bolala, tuzla, moyla), o'sha predmetni vujudga keltirish, yaratish (gulla, bolala, qo'zila), o'sha predmet holatiga o'tish (muzla), o'xshash bo'lish (cho'lla), o'lchash (metrla, kilola), o'ringa taalluqli bo'lish (osmonla, yerla), negizdan anglashilgan paytga aloqador bo'lish (qishla) kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu qo'shimcha sifat, ravish va taqlidiy so'zlar negizlariga qo'shilganda, negizdan anglashilgan tusga, holatga o'tish ma'nosini ifodalaydigan fe'l yasaydi. Masalan: yaxshila, oqla, tozala, tezla, sekinla, paqirla, gumburla, qisirla kabi. Undovga qo'shilgan –la qo'shimchasi undovdan anglashilgan ruhiy holatni, buyruq-xitobni bajarish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Masalan: uxla, tufla, chuxla kabi. Kishilik olmoshlaridan ham ba'zan – la qo'shimchasi qo'shilishi bilan fe'l yasaladi. Masalan: sizla, senla kabi.

2. –a (-la) qo'shimchasi ot, sifat va taqlidiy so'z negiziga qo'shilib, yuqorida -la qo'shimchasi uchun sanalgan kabi ma'nolardagi fe'llarni yasaydi: osha, qona, ata, tuna, o'yna, sana, bo'sha, yasha, qiyna, guldira, xo'ngra, (xungira) yaltira kabilar.

3. –y (-ay) qo'shimchasi ot, sifat, ravish negizlariga qo'shilib, negizdan anglashilgan holatga kirish ma'nosini ifodalaydigan fe'l yasaydi. Masalan: kuchay, o'lgay, qoray, ozay, sarg'ay kabi.

4. –r (-ar) qo'shimchasi sifat negiziga qo'shilib, negizdan anglashilgan holatga kirish harakatini ifodalaydigan fe'l yasaydi. Masalan: o'zgar, qizar, oqar, qisqar, eskir kabi.

5. –ik (-iq) qo'shimchasi ot, ravish, son undovlardan negiz anglatgan holda ega bo'lish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Masalan: yo'liq, kechik, birik, hayiq kabi.

6. –ir (-ur) qo'shimchasi ot va undovlarga qo'shilib, negizdan anglashilgan ishni bajarish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Masalan: gapir, tupur kabi

7. –sira qo'shimchasi ot, sifat va olmoshlardan negiz anglatgan predmetni istash, o'sha xususiyatga ega bo'lish kabi ma'nolardagi fe'lni yasaydi. Masalan: suvsira, qonsira, uyqusira, sensira kabi.

8. –i qo'shimchasi ot va sifat negizlariga qo'shilib, negizdan anglashilgan predmet yoki holatga ega bo'lish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Masalan: changi, tinchi, boyi kabi.

9. –qir, illa qo'shimchalari taqlidiy so'zlardan o'sha ishni bajarish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Masalan: hayqir, o'shqir, piqilla, vichilla, taqilla, chirqilla, chirilla, guvilla kabi.

10. –ka affiksi ot negiziga qo'shilib, negizdan anglashilgan predmetni sezish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Bu qo'shimcha unumsiz bo'lib, ayrim so'zlargina yasaladi. Masalan: iska.

11. –sa qo'shimchasi ham –ka qo'shimchasi kabi negizdan anglashilgan predmetni istash ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Bu qo'shimcha ham unumsizdir. Masalan: suvsa kabi.

12. –dan, -lash qo'shimchalari ayni bir vaqtda ham fe'l, ham fe'lning biror nisbat formasini yasaydi. Bu qo'shimchalar asosan, ot, sifat, sondan fe'l yasaydi. Masalan: otlan, jonlan, zavqlan, ajablan, lazzatlan, bahslash, gaplash, birlash, ikkilan, shodlan kabilar.

3. **Fe'llarning sintaktik usulda yasalishi.**

Sintaktik usul bilan murakkab fe'l hosil qilinadi. Murakkab fe'llarning ikkinchi qismi har vaqt fe'l bo'lib, birinchi qismi fe'l bo'lishi ham, fe'ldan boshqa so'z turkumi, masalan, ot, sifat va boshqalar bo'lishi mumkin.

Murakkab fe'llar birinchi qismning fe'l yoki fe'ldan boshqa so'z turkumiga oid bo'lishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

a) birinchi tip murakkab fe'llar;

b) ikkinchi tip murakkab fe'llar.

Birinchi tip murakkab fe'llar fe'l bo'lmagan so'zlarning fe'l bilan birikishidan tuziladi. Masalan, himoya qilmoq, oh urmoq, qo'l qo'ymoq, hurmat qilmoq, qaror qil, ado et kabi. Birinchi tip murakkab fe'llarni yasashda et, ayla, qil, bo'l, ko'makchi fe'llari, shuningdek, ber, qo'y, sol, chek, sur, ur kabi fe'llar ishtirok etadi. Masalan, javob ber, qo'l qo'y, yod ol, nazar sol, imzo chek, umr sur, oh ur kabilar. Ikkinchi tip murakkab fe'llar kamida ikki fe'lning birikish usuli bilan yasaladi. Bunda birinchi qism –a, -y yoki –b, -ib qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdosh formasida bo'ladi, ikkinchi qism esa tuslanadi. Bunday fe'l ikki xil bo'ladi:

1. Leksikalizatsiyalashgan murakkab fe'l.

2. Grammatikalizatsiyalashgan murakkab fe'l (yoki analitik forma).

Birikkan fe'llarning har biri o'z leksik ma'nosini saqlagani holda birgalikda bitta murakkab harakatni ifodalasa, leksikalizatsiyalashgan murakkab fe'l hosil bo'ladi. Masalan, olib chiq, borib kel, sotib ol, ola kel kabi. Birikkan fe'llarda biri o'z leksik ma'nosini ifodalagan holda, ikkinchisi grammatik ma'no ifodalasa, grammatikalizatsiyalashgan murakkab fe'l yoki fe'lning analitik formasi hosil bo'ladi. Masalan, yozib ko'r, o'qib ber, ko'rib chiq kabi.

Murakkab fe'lning leksik ma'nosini ko'pincha uning birinchi qismi ifodalaydi. Unda birikkan so'z esa murakkab fe'l bo'ladi. Masalan, yozib ko'r, ko'rib chiq, olib tur fe'llarida ish-harakat yozib, ko'rib, olib fe'llaridan anglashilib ko'makchi fe'llar (ko'r, chiq, tur) yetakchi fe'lning ma'nosiga qo'shimcha modal ma'no qo'shadi.

Ikkinchi tip murakkab fe'l yasashda tubandagi fe'llar ko'makchi fe'l sifatida ishlatiladi.

1. Gorizontal harakat bildiradigan kel, ket, bor, yur, o't, chiq, yubor so'zlari.
2. Holat bildiradigan o'tir, tur, yot, qol, bo'l so'zlari.
3. Turli ish-harakatni bildiradigan ol, bil, quy, ber, tashla, ko'r, boq, yoz, boshla so'zlari.

Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'lga shunday modal ma'nolarni qo'shishi mumkin. a) harakatning davomli ekanligi: ayta tur kabi; b) harakatning endi boshlanishi: ayta boshla kabi; d) harakatning takrorlanib turishi: aytib yur kabi; ye) harakatning tugallanganligi: aytib bo'l kabi; f) harakatning so'zlovchidan boshqa shaxsga yoki boshqa shaxsdan so'zlovchiga yo'nalishi: olib bor, aytib ket, aytib chiq, ola kel, yozib ol, yozib ber kabi; g) harakatning bajarilish usuli: yozib tashla, aytib yubor kabi;

Yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'l bir formada bo'lsa, juft fe'l hosil bo'ladi. Bunda ham leksik ma'no salmog'i birinchi qismda bo'ladi. Masalan, aytdi-qo'ydi, o'tdi-ketdi, oldi-qoldi, bordi-keldi kabi.

2. AMALIY MASHG`ULOT
1-MAVZU
TIL IJTIMOIY, DOIM O‘ZGARIB, RIVOJLANIB TURUVCHI HODISADIR. MILLIY VA ADABIY TIL. FONETIKAVA FONOLOGIYA. UNLI TOVUSHLAR. UNDOSH TOVUSHLAR. NUTQNING FONETIK BO’LINISHI. NUTQ TOVUSHLARINING FONETIK O’ZGARISHLARI.

Til ijtimoiy, doim o`zgarib, rivojlanib turuvchi Hodisadir.

1.Tilshunoslik fani nimalarni o`rganadi?
2.Tilshunoslik fanining qanday turlari bor va ular o`zaro qanday farqlanadi?
3.Nima uchun til ijtimoiy hodisa sanaladi?
4.Keyingi paytlarda o`zbek tili sathlarida (leksika, fonetika, grammatikasida) qanday o`zgarishlar yuz berdi?
5. Tilshunoslikda tillarning qanday tasniflari mavjud?
6. Tillarning geneologik tasniflanishiga ko`ra yer yuzida qanday til oilalari bor?
7. Oltoy tillar oilasi va turkiy tillar guruhi haqida nimalarni bilasiz?
8. Morfologik tasnif bo`yicha bo`lingan amorf va agglyutinativ tillar guruhlari haqida qanday ma‘lumotlarni bilasiz?
9. Flektiv va polisintetik tillar haqida nimalarni bilasiz?

Mashq. So‘zlarni va gaplarni o‘qing. Chapdan o‘ngga va o‘ngdan chapga qarab o‘qilsa ham, tovush tizimi va ma‘nosi o‘zgarmaydigan so‘zlarni topib ko‘chiring.

I. A‘zo, aza, ammo, dog‘, amma, dod, bobo, qoloq, bob, obbo, kiyim, qipiq, shox, kiyik, shosh, kichkina, kuchuk, ko‘p, ko‘k, aka, quyruq, quduq, uka, dono, quruq, bilib, qochmoq, qochoq, nodon, ota, alla, kez, aka, kek, dum, tivit, qulluq.

II. 1.-Quruq bo‘htonga imzo chekadigan nodon yo‘q! (Mirm.) 2. Jo‘xori non yeb o‘tirgan kunlarimizda otam cho‘ldan ikki qop un yuborib qoldi.(E.A‘zamov.) 3. Safura tantiqona bir qiliq, bilan o‘zini Bakir hamda Bargida o‘tirgan divanga tashladi...(E.A‘zamov.) 4. Avtobusning haydovchisi Adham, ... qirriq, chapani shofyorlardan edi. (E.A‘zamov) 5. Tabibiyning yumaloq, rangpar yuzi bir oz so‘lg‘in ko‘rinar, qiyiq ko‘zlarida malollik, xijolatga o‘xshash ifoda zuhur edi.(S.Siyoev)

Mustaqil ish. Talabalar o‘tirgan joylariga qarab 6 qatorga bo‘liniadilar va har bir qatorga alohida quyidagi tartibda o‘tilayotgan mavzu asosida mustaqil ishi topshiriladi:(Bajarilgan ishning sifati gapning mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati hamda talabaning o‘z misolini to‘g‘ri va tushunarli ifodalay olishi bilan belgilanadi.)

1-qator-Ko‘p ma‘noli so‘zlar asosida ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi. 2-qator-Bir ma‘noli g‘o‘zlar asosida ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.
3-qator-Metafora asosida ma‘no ko‘chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.
4-qator-Metanimiya asosida ma‘no ko‘chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.

5-qator-Sinekdoxa usuli asosida ma‘no ko‘chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.
6-qator-Kinoya usuli asosida ma‘no ko‘chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.

Test

1.Quyida berilgan so`z qo`shilmalaridagi suzmoq so`zi qanday so`z? Oshni suzdi, suvda suzdi, sigir suzdi.
A) omonim B) paronim C) sinonim D) ko`p ma‘noli so`z
2.Ko`p ma‘noli so`z har bir ma‘nosi bilan ayrim-ayrim so`zlarga antonim bo`lishi mumkinmi?
A) Ko`p ma‘noli so`z faqat bir ma‘nosi bilan boshqa bir so`zga antonim bo`lishi mumkin B) bir ma‘noli so`zlargina antonim bo`lishi mumkin C) har bir ma‘nosi bilan ayrim-ayrim so`zlarga antonim bo`lgan so`zlar ko`p ma‘noli so`z hisoblanmaydi D) ko`p ma‘noli so`z har bir ma‘nosi bilan ayrimayri m so`zlarga antonim bo`lishi mumkin
3.Qurilishda men boshliqman, Bo`riyev. Mablag` ham, odamlar ham, jumladan, siz ham mening ixtiyorimdasiz. Ushbu gapdagi ixtiyor so`zi o`rnida quyidagi so`zlarning qaysi birini sinonim sifatida qo`llash mumkin?
A) mayl B) izn C) izm D) mayl, izn
4.Omonimiya quyida berilgan qaysi birliklar orasida voqe bo`lmaydi?
A) ikki so`z orasida B) ikki ibora va ikki tasviriy ifoda orasida C) ikki qo`shimcha orasida D) sanalgan barcha birliklar orasida omonimiya vujudga kelishi mumkin
5.Qaysi qatorda berilgan so`zlar tarkibidagi qo`shimchalar o`zaro omonim hisoblanadi?
A) kiyinmoq-ekinlar B) o`qildi-yozildi C) gulzorlarda-paxtazorga D) uchrashmoq-o`rganish

Milliy va adabiy til

1.—Jamiyatsiz til, tilsiz jamiyat bo`lishi mumkin emas‖, degan fikrni qanday izohlaysiz?
2.Tilning tarkibiy qismlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
3.Tilda yuz beradigan o`zgarishlar birinchi navbatda uning qaysi bo`limida (sathida) yuz beradi va nima uchun?
4. Keyingi paytlarda o`zbek tili sathlarida (leksika, fonetika, grammatikasida) qanday o`zgarishlar yuz berdi?
5. Milliy til nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
6. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlariga ko`ra farqlanadi? 144
7. O`zbek tilida qanday lahjalar mavjud va ular qanday belgilarga ega?

Mashq. O‘qing, og‘zaki nutqda fonetik o‘zgarishga uchragan ruscha-internatsional so‘zlarni aniqlang. So‘z ichida qaysi tovush qanday o‘zgarganligini izohlab, shu so‘zlarning adabiy tildagi variantini ayting.
1. Istansada u yoqdan bu yoqqa yurib o‘zimdan o‘zim so‘radim. (S. Ahm.) 2. Boshpurti yo‘q darbadar degandek bir narsaman.(A. Chakovskiy.)

3. Siyoqidan zo‘r generol bo‘lishini fahmlab turibman.(H. G‘.) 4. – Ayrapo‘rtlari yaxshi ekan, - dedi u birpasdan keyin. (F.Muhammadiev.) 5. Ikkilasining ham mingan oti yaxshi ekan. Serkdagi otlarga o‘xshaydi-ya! (S.Ahm.) 6. Katta teatrlarda shunday bo‘lsa bordir, bu o‘zimizning teatr. Qancha xohlasak, shuncha ayttiramiz.(S.Ahm.) 7. O‘ris texniklar valasipit minib, yelkasida qo‘shtig‘ bilan Naymandan to‘ng‘iz urib kelishadi .(S.Ahm.)
8.Sallotlar o‘qi bilan gum bo‘ldi. (O.)

Mustaqil ish. Talabalar o‘tirgan joylariga qarab 6 qatorga bo‘liniadilar va har bir qatorga alohida quyidagi tartibda o‘tilayotgan mavzu asosida mustaqil ishi topshiriladi:(Bajarilgan ishning sifati gapning mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati hamda talabaning o‘z misolini to‘g‘ri va tushunarli ifodalay olishi bilan belgilanadi.)

1-qator-Ko‘p ma‘noli so‘zlar asosida ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.
2-qator- Bir ma‘noli g‘o‘zlar asosida ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.
3-qator-Metafora asosida ma‘no ko‘chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.
4-qator-Metanimiya asosida ma‘no ko‘chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.
5-qator-Sinekdoxa usuli asosida ma‘no ko‘chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.
6-qator-Kinoya usuli asosida ma‘no ko‘chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.

Fonetika va fonologiya

1-mashq. O‘qing, og‘zaki nutqda fonetik o‘zgarishga uchragan ruscha-internatsional so‘zlarni aniqlang. So‘z ichida qaysi tovush qanday o‘zgarganligini izohlab, shu so‘zlarning adabiy tildagi variantini ayting.

1. Istansada u yoqdan bu yoqqa yurib o‘zimdan o‘zim so‘radim. (S. Ahm.) 2. Boshpurti yo‘q darbadar degandek bir narsaman.(A. Chakovskiy.)
3. Siyoqidan zo‘r generol bo‘lishini fahmlab turibman.(H. G‘.) 4. – Ayrapo‘rtlari yaxshi ekan, - dedi u birpasdan keyin. (F.Muhammadiev.) 5. Ikkilasining ham mingan oti yaxshi ekan. Serkdagi otlarga o‘xshaydi-ya! (S.Ahm.) 6. Katta teatrlarda shunday bo‘lsa bordir, bu o‘zimizning teatr. Qancha xohlasak, shuncha ayttiramiz.(S.Ahm.) 7. O‘ris texniklar valasipit minib, yelkasida qo‘shtig‘ bilan Naymandan to‘ng‘iz urib kelishadi .(S.Ahm.) 8. Sallotlar o‘qi bilan gum bo‘ldi. (O.)

2-mashq. So‘zlarni va gaplarni o‘qing. Chapdan o‘ngga va o‘ngdan chapga qarab o‘qilsa ham, tovush tizimi va ma‘nosi o‘zgarmaydigan so‘zlarni topib ko‘chiring.

I.A‘zo, aza, ammo, dog‘, amma, dod, bobo, qoloq, bob, obbo, kiyim, qipiq, shox, kiyik, shosh, kichkina, kuchuk, ko‘p, ko‘k, aka, quyruq, quduq, uka, dono, quruq, bilib, qochmoq, qochoq, nodon, ota, alla, kez, aka, kek, dum, tivit, qulluq.

II.1.-Quruq bo‘htonga imzo chekadigan nodon yo‘q! (Mirm.) 2. Jo‘xori non yeb o‘tirgan kunlarimizda otam cho‘ldan ikki qop un yuborib qoldi.(E.A‘zamov.) 3. Safura tantiqona bir qiliq, bilan o‘zini Bakir hamda Bargida o‘tirgan divanga tashladi...(E.A‘zamov.) 4. Avtobusning haydovchisi Adham, ... qirriq, chapani shofyorlardan edi. (E.A‘zamov) 5. Tabibiyning yumaloq, rangpar yuzi bir oz

so‘lg‘in ko‘rinar, qiyiq ko‘zlarida malollik, xijolatga o‘xshash ifoda zuhur edi.(S.Siyoev)

Mutaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

Savollar:

1.Kirill alifbosida nechta unli harf, nechta unli tovush mavjud? Lotin alifbosida-chi?
2.Unli va undosh tovushlarning farqli jihatlarini ayting.
3.Unli tovushlar tasnifini yod oling.

3-mashq. Nuqtalar o`rniga unli yoki undosh fonemalardan qo`yib ko`ring, hosil bo`lgan so`zlarni yozing.

1. B...z, s...z, t...z, k...z; t..n, j...n, k...n, t...t, b...t, s...t; sh...m, sh...r, sh...x; x...n, x...l, x...m, x...s, x...t, x...sh; z...l, z...r, k...r. 2. O...a, a...a, e...a, u...a, o`...a, a...i. 3. O…, u..., e..., i..., o`...

4-mashq. Birgina fonema bilan farq qiladigan so`zlarni toping va ularni yonma-yon yozing.

Roziq, sho`ra, tolmoq, tong, tin, pona, botmoq, ko`z, so`ra, Ber, qin, bayt, qoziq, bong, xona, ko`ra, bo`z, din, qayt, solmoq, jo`ra, dong, so`z, fin, hoziq, olmoq, chin, payt, shona, sotmoq, qin, qo`ra, qona, totmoq, xo`ra, to`z, ter, qotmoq, cho`z, g`o`ra, sher, sin.

Ajratib ko`rsatilgan so`zlar tarkibidagi unlilarning tilning gorizontal harakatiga turini ayting.

5-mashq. O`qing. Har bir so`z tarkibidagi unli va undosh fonemalarni ko`rsating.

Ko`zlarim tindirolmas Na dovrug`u, na davlat. Izmiga indirolmas
Na mansabu, na savlat. (Z.O.)

Ajratib ko`rsatilgan so`zlar tarkibidagi unlilarning tilning vertikal harakatiga va lablarning ishtirokiga ko`ra turini ayting.

6-mashq. O`qing. Unli fonemalarni tilning gorizontal, vertikal harakatiga va lablarning ishtirokiga ko`ra guruhlab, chizmaga joylang.

Tilim bormas aslo ko`r qiz demakka,
Siz ham bir eshiting «Dugoh ‖ , —Bayot ‖ ni. CHamamda, ko`z nuri ko`chgan yurakka,
SHuning-chun u kuylar qaynoq hayotni.(O. Xoldor.)

Unli tovushlar

1-mashq. Tushirib qoldirilgan unli harflarni o`z o`rniga qo`yib, so`zlarni ko`chiring; aytilishi va yozilishini tushuntiring. Yozgan so`zlaringizni imlo lug`atidan tekshiring.

1.N..tarius, ...bligatsiya, ...rganizm, ...rol, p...rtret, pr...spekt, pr...tokol, r...mantik, t...lqon, t. ..mat, f...ntan, sh...fer, b...rona, v...jatiy, v...ronka, g...rizont, d...klad, d...mino, d...tsent, kisl...rod, kisl...ta, k...llektiv, k... lorit, k...manda, k...mbayn, k...meta, k...mitet, k...mpot, k...nspekt, k...nfet, k...ntsert, lab...rant, m...zaik a, m...n...lit, m...ntaj, m...totsikl, n...vator, n...rmal.

2.Uch...n, but...n, ul...sh, turg`...n, tuz...m, turm...sh, tug...n, turk...m, uyq..., tuyg`..., ud...m, uz...m, uz...nlik, uz...nchoq, uyq...chan, ung...r, un...tuvchan, ust...n, uch...q, uchq...r.
3.D...lar, d...mna, d...nor, zav...d, z...na, z...nt, kal...riya, kart...n, k...lba, k...mik, nas...s,
n...rma, ...braz, ...blastg‘, ...krug, ...rgan, ...rden, s...da.
4.B...ho, b...hona, b...hor, v...bo, v...gon, g...vda, g...vjum, g...vhar, d...vlat, d...vomat, d...vron, z...l, zo`r...von, m...vj, m...bodo, n...vbat, n...vqiron, n...moyon, naq...rot, n...hor, t...mom, x...votir, x...vf, h...vaskor, h...vza, h...vo, sarl...vha, hash...rot.
5....stiq, …lkan, …tuk, …lpiz, …lchimoq, ...mish, ...pun, ...lmog`iz, ...lg`iz, ...mush, ...ridik, ...ntoq, ...mg`ir, ...ngil, ...qumli, ...sanmoq, ...noq, ...tarli, ...daki, ...shirin, ...rlaqamoq, ...lduzsimon, ...qinlashmoq, ...g`log`i, ...g`o ch, ...g`du, ...vosh.
2-mashq. O`qing , ayrim so`zlardagi unlilarning yozilishida yo`l qo`yilgan xatolarni topib, qaysi imlo qoidasi asosida yozilishi lozimligini izohlang.
1. CHol salomimga alik olish o`rniga, boshi aylangandek ko`zlarini yumub, ingradi-da, gandiraklab ketdi. (S.Nazar.) 2. Ruxsat bergin mushkil damda olib ketay boshimni. (SH.Rustaveli.) 3. To`lun oyday yorug` sochar, shu payt uning jamoli. (SH. Rustaveli.) 4. Ahmadjon aka, hali sizga katta mukofatlar chiqar. (A.Q.) 5. Tutqin qizning qayg`usini chekar faqat bu Asmat. (SH. Rustaveli.) 6. Kamarbasta xizmatkorlar g`oyat xushmuomila. (SH. Rustaveli.) 7. Qizdur, juvondur, ayol zotida hayo, iffat nomus bo`lishi shart.(SH.) 8. Matluba yaqinlashganida, u nima deyishini bilmay qizarib, kulimsirab qarab turaverdi.(A. Eshonov.) 9. Ikkinchi soatning so`nggi minutlari o`tayotganda, Saidiyning ko`zi charchab, turtuna boshladi. (A. Q.)
3 -mashq. So`zlarni avval chapdan o`ngga, so`ngra o`ngdan chapga qarab o`qing; ularning tovush tizimi va mahnosidagi o`zgarishlarini so`zlang.
Ko`p, qiz, shod, arava, bez, kirib, dush, ibo, qo`l, tosh, mosh, nok, top, madad, jig`, narsa, sal, tilak, tuf, sur, fan, biri, mato, kit, nos, tirik, sur, ilon, loy, kech, adad, ado, toza, allo, mol, nam, amal, amin, omma, qora, a
slo, matoh, lab, bit, tub, dada, kod, g`ijim

Undosh tovushlar

1-mashq. O`qing. Hosil bo`lish o`rniga ko`ra undosh fonemalarni guruhlab, chizmaga joylang.
Ko`m-ko`k bog` bor Toshkent chetida,
Uni ―Mo`hjiza bog` ‖ deyishar... Bunda qishda ‒ yozu,
kuzda –bahor,
Bunda ajab g`o`za etishar.(Mirm.)

2- mashq. So`zlarni o`qing . Qaysi guruhdagi so`zlar tarkibida faqat til undoshlarigina qatnashganligini aniqlang .

1. Agar(da), agent, adadsiz, adolat, ayg`oqchi, akashak, alang-jalang, anarxist, antiqa, asilzoda, attang, achchiqtosh, ajdod.
2. Asalari, aslaha, arg`uvon, asrandi, attor, ashaddiy, aqidaparast, aholi, abjir, admiral, aysberg, aka-singil, aktsiyador.
3. Gavhar, gajim, galstuk, giyoh, girdob, gugurt, gultuvak, gulqaychi, go`sxo`r, gulxayri, gulkaram, gulxan, gazanda.
4. Gajak, gazetxon, garaj, gardish, general, gilos, guldasta, gultojixo`roz, gulqand, go`ngqarg`a, gulshan, gazak.

3 -mashq. So`zlarni avval chapdan o`ngga, so`ngra o`ngdan chapga qarab o`qing; ularning tovush tizimi va mahnosidagi o`zgarishlarini so`zlang.

Ko`p, qiz, shod, arava, bez, kirib, dush, ibo, qo`l, tosh, mosh, nok, top, madad, jig`, narsa, sal, tilak, tuf, sur, fan, biri, mato, kit, nos, tirik, sur, ilon, loy, kech, adad, ado, toza, allo, mol, nam, amal, amin, omma, qora, aslo, matoh, lab, bit, tub, dada, kod, g`ijim

Nutqning fonetik bo`linishi

Topshiriq

1.Nutqning fonetik bo`linishi haqida gapiring.
2.Jumla nima.
3.Fraza haqida gapiring.
4.Bo`g`in va uning turlari haqida ma`lumot bering.

Savollar:

1.Urg`u nima? Uning qanday turlari bor?
2.Leksik urg`u nima? Uning qanday turlari bor? Ular o`zaro qanday farq qiladi?
3.Leksik urg`uning qanday amaliy ahamiyati bor?
4.Mantiqiy urg`u nima? U leksik urg`udan qandy farq qiladi?

1-mashq. O`qing, so`zlardagi urg`uli va urg`usiz bo`g`inlarni aniqlang.

Ajratib ko`rsatilgan so`zlardagi urg`uning ko`chish sababini tushuntiring.

1.Bilim, bilimdon, bilimdonlik; dukkak, dukkaklik; ishonch, ishonchli; meҳmon, meҳmondo`st, meҳmondorchilik; paxta, paxtakor, paxtakorlar, paxtakorlarga; ҳosil, serҳosil, ҳosildor.
2.Akrobat, akrobatika, akrobatik, arifmetika, arifmetik, biologiya, biologik, vegetatsiya, vegetatsion, industriya, industrial, telefon , telefonist, yumor, yumoristik.

2-mashq. O‘qing. Urg`u qaysi bo`g`inga tushganini aniqlang.

Azimut, aysberg, benzin, birja, boda, botanik, botanika, vanilin, vena, viktorina, galstuk, demagog, demagogiya, dollar, duet, jeton, jodu, jodi, zebra, zona, kazarma, kaktus, kafedra, kashalot, leksika, lektor, maket, makler, nihoya, opera, opium, paluba, parik, sambo, selitra, seminar, tango, telepatiya, tormoz, tranzit, tranzistor, ulg‘timatum, uran, faza, xronika, filarmoniya, ekran, ekspert, elektron, elektronika, yunker, yupiter.

Urg`uning qaysi (nechanchi) bo`g`inga tushishini hisobga olgan holda so`zlarni guruhlab ko`chiring, urg`u belgisini qo`ying.

3-mashq. Gaplarni o`qib, ajratib ko`rsatilgan so`zlarning urg`usini belgilang, mahno farqlarini tushuntiring.

1. Zargarov Qutbiddinovni o`larday kalaka qilib toza alamini oldi.(A.Q.) 2. Zaynabning ham toza, osuda, Dog` ko`rmagan mahsum qalbida Sevgi yaproq yozib qolibdi. (H.O.) 3. – Bu uzoqmi? – Yo`q. Xuddi amerikaliklar zonasidagi bizning uycha keladi. (D. Kg‘yusak.) 4. Kiyikchamga katta uycha yasadim.(SH.S.)

4-mashq. So`zlarni urg`usiga rioya qilgan holda o`qing va mahnosini ayting. Urg`uni oxirgi bo`g`inga ko`chirgan holda so`zlarni qayta o`qib, shu so`zlar mahnosining o`zgarishiga ehtibor bering.

Akademik, grafik, didaktik, dinamik, dogmatik, yig`ma, klassik, praktik, radiotexnik , taktik, terma , fizik , qoplama, ximik, estetik, energetik, to`qima, qiyma, hozir.

5-mashq. Gaplarni o`qing va logik urg`u olgan so`zlarni aniqlang.

1. Saida qattiq xijolat bo`ldi.(A. Q.)2. Qalandarov toza yalinibdi: ― Jon uka, nachalg ‘nikka ro`para qilib, erkak qaddimni bukma... ‖ (A. Q.) 3. Sizning ishingiz bo`lmasin! Bu erda men boshliqman, siz emas.(L. SH.) 4. Ko`chaga chiqsa, hammaning ko`zi o`shanda.(A. Q.) 5. SHu kuni ertalab Botirov Salimovning kelib qolishi mumkinligidan darak berib ketgan edi. (J. Abd.) 6. Gazetaga Said haqida yozish kerak edi. Bu adolatsizlik-ku, u qildi hamma ishni.(As. M.) 7. Men or qilaman unga o`xshashdan. Nima sababdan adashtirishadi bizni, tavba!(As. M.) 8. Mening qizim gul keltirib beribdi? – Ha, shunaqa deyishyapti... (F. Niyoziy)

Nutq tovushlarining fonetik o’zgarishlari.

Savollar:

1.Nutqdagi tovush o`zgarishlari nima? Nima uchun nutqda tovush o`zgarishi ro`y beradi?

2.Tovush o`zgarishlarining qanday turlarini bilasiz?

3.Kombinator o`zgarish nima? Uning qanday turlari bor?

4.Assimilyatsiya nima va uning qanday ko`rinishlarini bilasiz?

5.Dissimilyatsiya nima?

6.Metateza haqida nimalarni bilasiz?

7.Pozitsion o`zgarishlar deganda nimani tushunasiz?

1-mashq. O`qing. Assimilyatsiyaga uchragan so`zlarni topib, turini ayting.

1. Bular yozib bergan bir enli xatni odamlar suvga ezib ichganini ko`rgan. (P.T.) 2. U... kambag`alqashshoqlar bilan bittanga-yarim tanga ustida g`ijillashib o`tirishni istamas edi. (P.T.) 3. Uning badani jimillashib ketdi.(N.Biryukov.) 4. Ha, ko`hlik tolihimdan o`rgulay deb mundoq qulochchi keravering.(H.N.) 5. Endi Go`ro`g`libekdan eshitmoq kerak gappi.(Po`lkan.) 6. Handalak – shakar palak, shirinini tallab oling.(N.S.) 7. Aytmoqchi, kechka yaqin yana kirib o`tarsiz...(J.Abd.) 8. U boyning otini Oqchishboy der edi. (Usmon baxshi.) 9. U juda qarigan, qo`lda tokqaychi. (Mirm.) 10. Ukaginang

orderlarini jaranglatib keldi. (S.Ahm.) 11. Gulsunbibi qizi Gulnorni ro`parasiga o`tqizdi, mahsini eshtirdi. (O.)

2-mashq. O`qing, fonetik o`zgarishga uchragan so`zlarni aniqlang. Dissimilyatsiya hodisasiga uchragan so`zlarni ajratib, qay tarzda o`zgarganini izohlang.

1. ―Bo, zaril keptimi! – Lobar labini burdi. – Ishim boshimdan oshib yotibdi ‖. (H.G`.) 2. Ko`rmay turib tusmonlab o`xshatardi kimgadir.(Mirm.) 3. Menga qara, Hojiakbarri o`g`lisan-a, ertaga bir do`ppi o`rik beraman, mana shu xatti o`qib ber. (S.Ahm.) 4. Boy buvang to`y qilib, beripti xatti, Ulug`im deb xon otangni yo`qlapti, Borolmasman bugun, bolam, bu to`yga, O`zi uchun otang sizni jo`natti! (Usmon baxshi.) 5. Boshiga lo`mba degan narsa o`lgur tushdimi, zambarakmi, nayzagami duch keldi...(O.) 6. Saida kasal kishiday bitta- bitta qadam bosib, hujrasiga tomon yo`naldi. (A. Q.) 7. ―Sayr qilsa arziydigan tun,

- dedi Ketrin. – Bevosh kecha, nimasini aytasiz ‖. (E. Xeminguey.)

3-mashq. O`qing, assimilyatsiya, dissimilyatsiya va metatezaga uchragan so`zlarni aniqlang. Metatezaga uchragan so`z ishtirok etgan gaplarni ko`chirib, shu so`zning tagiga chizing va izohlang.

1.Boshim aynaldi. U yog`ini eslolmayman.(H. G`.) 2. Sizzi ko`rishga ko`pdan beri mushtoq edi.(S.An.) 3. – Unda ekchi go`shti ishlatamiz, - dedi Bashirjon kaftlarini yoyib, quv ko`zlarini o`ynatarkan...(N.A.) 4. Elmurod… turli nozu nehmatlardan eyayotgan sallalilarga telmurdi.(P.T.) 5. Toshtemir aka tambur, Alijon esa dutor, Dadavoy aka nay chalar edi.(H.G`.) 6. Tomlar tut tolqonlari bilan qoplangan. Quritib, yag`richoqda tortib yoki o`g`irchada tuyib, bir tirikchilikka sarflashadi. (O.Xalil.)

4-mashq. O`qing. Pozitsion o`zgarishga uchragan so`zlarni topib, ularning turini aniqlab ayting.

I.Avlot, balog`at, ajabtovir, dahshat, amalparas, daslap, bazim, ataylap, blaknot, biyron, garchan, blanka, dasgoh, gazit, zabarjat, zanggori, ijod, zovir, ituzim, kannay, kosip, barometir, mavrit, minora, ba kal, mikrop, dakalat, barikada, gladiyolis, diplom, zabastovka, infark.

II. 1. – Said! Said! Tur, ukajon! Eshikda shubhali odamlar! (Mirm.) 2. Ehtibor yugurib oyisiga peshvoz chiqadi. – Opa, keldizmi, opa? (M.Boboev.) 3. Ollo bizga shafqat qildimi, men sening yana yuzingni ko`rdim. SHuning o`zi kata baxt. (Mirm.) 4. Dilfuza… bor dardini ichiga yutib jilmayib muomila qilar, har zamon-har zamonda butun nafratini nigohiga joylab Ahmadbekka qarab qo`yardi. (M.Boboev.) 5. Kelayotgan odamning yarmi shu erda tushib, chiqadiganning yarmi shu erdan chiqadi. Biroq hozir – choshgoh palla, qatnov mo``tadil, yo`lovchi odatdagidan siyrakroq. (E.Ahzamov)

2-MAVZU
ORFOEPIYA HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT. GRAFIKA. ONA TILI IMLOSINING TAMOYILLARI. ONA TILI IMLO QOIDALARI.

Orfoepiya haqida umumiy ma`lumot.

1 Orfoepiya (talaffuz) qoidalari haqida gapiring
2.Unlilar ofoepiyasihaqida nimarni bilasiz
3.Ayrim undoshlar orfoepiyasi haqida gapiring

1-mashq. Orfoepik normaga mos holda berilgan so`zlarni o`qing. Har bir so`zning orfografik shaklini yozib, ularni ― Imlo lug`ati ‖ dan tekshiring; talaffuzi va yozilishidagi farqni izohlang.

Bangkir, botingka, ko`ngilchang, mungkaymoq, to`ngka, fingka, chungki, esangkiramoq, sho`xchang, bangkrot, bangket, bangka, ko`langka, masqaraboz, maxtov, qizixchilik, bixsimoq, boxcha, bo`yoxchilik, vaxt, vaxtincha, vaxtichog`lik, zixna, zorixtirmoq, ixtisod, nixtamoq, oxsamoq, oxshom, oxshoq, poyloxchi, soxchi, taxchil, to`xson, to`xmoq, chaxchaymoq, o`xtalmoq, quloxchin, alangga, banggi, barzanggi, vatanggado, vaholangki, gunggalak, go`shangga, davanggir, danggal, danggasa, buxangka, varangka, denggiz, domanggir, enggiltak, janggavor, kalamingka, karzingka, jinggalak, kunggaboqar, kunggira, kunggay, tangketka, ko`langka, ko`taringki, mingashmoq, nongko`r, chekangka, sarpoychang, tangga, to`ngka, changgal, shinggil, shtanga, sho`xchang, enggash, yanggi, harakatchang, qizilo`nggach.

2-mashq. O`qing. Avval sirg`aluvchi, so`ngra, qorishiq j undoshini ifodalovchi harf ishtirok etgan so`zlarni ajrating. Ularni ikki ustun shaklida yozing.

Jabr, jabra, jadval, janr, jangvar, jargon, jasur, gijda, jamoat, anjir, abajur, ajablanmoq, ajdargul, ajriq, gijja, dyujina, daraja, javob, jadval, jandarm, jemper, jingalak, jirafa, jumla, jurnalist, jurnalxon, jo`yak, juft, zanjir, zijigalka, zotiljam, ijozat, ijobiy, injener, iskanja, kenjatoy, kinorejissyor, mavj, majlis, morj, natija, passajir, projektor, reja, rejim, sabotajchilik, tajriba, tarjima, falaj, xorijiy, shajara, o`lja, g`ijim, hajv.

3-mashq. O`qing. Fonetik tamoyil asosida yozilgan so`zlarni ko`chiring va izohlang.

G`ayrat, qolib, qo`lyozma, qo`llanma, qo`llanma, o`toq, g`alla, g`avvos, qultum, quvonch, o`rama, yagana, yaktak, yagona, yuqumli, yupanch, ekologiya, ezgu, eskiz, shudring, shulxa, shilel, chayqov, chastota, cherkov, xaridorbop, xokkey, fermer, firuza, uyqu, ushu, tajriba, tazkira, teletayp, simvol, simob, romans, razolat, poyabzal, papirus, orangutan, og`ayni, nogoron, neftg‘, mardonavor, marketing, lashkarboshi, lagerg‘, konfet, kokain, katapulg‘ta, kaptar, yo`qlov, inhom, zag`cha, zenit, jarangdor, jarima, jandarm, dilorom, dilozor, dardkash, guberna, gavhar, vazelin, boqatdan, bodroq, anvoyi, akvarelg‘.

4-mashq. So`zlarni o`qing. Ularning yozilishi va talaffuziga e‘tibor bering. Orfografiyaning shakliy-anhanaviy tamoyil asosida yozilgan so`zlarni ko`chirib, tegishlicha izohlang.

Direktor, mavhum, dirijyor, makkor, doktorant, minbar, dolzarb, izhor, kristall, mirzaterak, muolaja, mollyuska, mazkur, mukofot, matbaa, olijanob, motor, naqdina, okean, orbita, og`zaki, palg‘to, pasport, piramida, rasmiyatchilik, reportaj, ravoch, rusumli, safsata, sekund, separator, sirop, solqi, tabor, tadqiqot, tarozi, tembr, tokqaychi, tumonot, xoin, xokkey, xo`tik, chilangar, chirmovuq, sharmsor, shahodat, shifer, elevator, ehtiyoj, yashovchan, qalamtarosh, qopag`on.

Grafika

Savollar:

1.Yozuv nima?

2.Kishilik tarixida qanday yozuvlar qo`llanilgan?

3.O`zbek xalqi ajdodlari qaysi yozuvlardan foydalangan?

4.Harf va belgining farqini ayting. O`zbek alifbosida nechta harf va nechta belg

5.Alfavit nima? Uning ahamiyatini ayting. O`zbek yozuvining o`ziga xos xususiyatlarini ayting.

1-mashq. O`qing. Tovush va harfni ajrata olmaslik tufayli personaj nutqida yo`l qo`yilgan xatoni toping va nimada xato qilganini ayting.

Xizmatchi daftar-qalam keltirib, sanhatkorning oldiga qo`ydi.

-—J ‖ ning kattasi qanday yozilar edi? Domlamiz bir kuni ko`rsatgan edi, esimda qolmapti.

Sanhatkorning jahli chiqdi:

-Endi —J ‖ ga keldingizmi? Barjom deganda yoziladi. Kechagi barjom og`zi ochiq qolipti, gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat. Siz ham dunyoga kelib kulg ‘turniy bo`lsangiz-chi!.. Burninngiz terladi, arting, tahbir joyiz ko`rilsa!

Sanhatkor o`rnidan turib, yotoqqa kirib ketdi.

-Yotasizmi? – dedi xizmatchi narigi uydan.

-Nima edi?

- — J ‖ ning kattasini ko`rsatib bermadingiz, ertaga domla so`raydigan edilar. Qanaqa yoziladi?

-Kichigini yozib qattiqroq o`qing! (A.Q.)

2-mashq.O`qing. So`zlar tarkibidagi yonma-yon qo`llangan bir xil va har xil unlilarning talaffuzi va yozilishi (imlosi)ga ehtibor bering.

Aviatexnika, videoklip, voajab, ziroatchilik, koinot, intuitsiya, inshoot, laureat, doim, kinoocherk, duo, muddao, mushoira, tabiat, tabiiy, murojaat, xoin, shuur, navoiyshunos, mikroorganizm, maosh, zaiflashmoq, matbuot, majmua, rais, faoliyat.

Savollar:

1.Orfografiya nima? Orfografiyaning asosiy imlo qoidalarini ayting.

2.Imlo qoidalari qanday tamoyillar asosida ishlab chiqiladi?

3.Harf va belgining farqini ayting. O`zbek alifbosida nechta harf va nechta belgi bor?

4.Alfavit nima? Uning ahamiyatini ayting. O`zbek yozuvining o`ziga xos xususiyatlarini ayting.
5.Fonetik tamoyil asosida ishlab chiqilgan asosiy imlo qoidalarini va ularni imlo qoidalarining qaysi turiga kirishini ayting.
6.Morfologik tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
7.Shakliy an‘anaviy (tarixiy an‘anaviy) tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
8.Grafik tamoyil nimani belgilab beradi?

3-mashq. O`qing, ajratib ko`rsatilgan so`zlar orfografiyaning qaysi printsipi (tamoyili) asosida yozilganini tushuntiring.

Qosh qorayib qolgan. Pastqam tepaliklar qurshagan Jarqoq, yahni o`z nomi bilan o`zini ifodalovchi qaqragan jarlik dengizdagi charog`on kemaday uzoq-uzoqlardan ko`rinib turibdi. Bahzan uchar yulduzlarday cho`g` parchalari ko`kka ko`tarilib, Yer yo`ldoshi trassasimon ufqda iz qoldirib yana so`nadi, bahzan pastdan o`tkir chaqmoq chaqnab, ko`z qorachiqlarini teshib o`tadi. ― Elektr payvandchilar ishlashyapti ‖ , - ko`nglidan o`tkazdi Dadashev. Mashina Jarqoqqa yaqinlashgan sari, motorlarning ovozi tank batalg ‘ onlarining jangga kirish paytlarini eslatib, tobora avjga mindi. Dadashev ― gazik ‖ ning darchasidan boshini chiqarib, bo`lajak trassani kuzatdi. Trassa yo`lning o`ng tomonidan o`tadi. Keng dala, atrofi osmon... Osmonning yarim gumbazida yakka-yakka yulduzlar tevarakka igna sanchib turibdi. Gumbaz pastlagan sari, yulduzlar siyraklashib, er zimistonida yo`qolib ketmoqda.(I.R.)

4-mashq. To`g`ri talaffuziga ehtibor bergan holda so`zlarni o`qing; kirillchada ― e ‖ harfining ― e ‖ va ― y+e ‖ tovushlarini ifodalash uchun qo`llangan o`rinlarini aniqlab, ularni alohida -alohida yozing.

Jez, gigiena, mavze, peshin, agregat, bearmon, elvizak, obhekt, rezavor, anketa, bellashmoq, ieroglif, spidometr, beega, vergul, episkop, kekirdak, poezd, chechan, devor, dorpech, kofe, svetofor, zebra, infektsiya, pg‘esa, tesha, karuselg‘, kechmish, razhezd, tavoze, felg‘eton, makler, mezon, relg‘ef, tole, traektoriya, mutelik, nevara, parket, foye, hezlamoq.

Test

1.i qo`shimchasi qo`shilgan quyidagi so`zlarning qaysi biri to`g`ri yozilgan?
A)qishloqi, mishiqi B) qishlog`i, mishig`i C) barchasi imlo qoidasiga ko`ra to`g`ri yozilgan D) qishloqi, mishig`i E) qishlog`i, mishiqi
2. X undoshini H undoshi bilan almashtirganda so`zlar mahnosi o`zgaradigan qatorni toping.
A) xiyobon, xattot, xolis B) kutubxona, tuxum, taxlit C) axloq, shaxdam, shaxsan D) xiyla, uxlamoq, shoh E) taxallus, taxmin, xushxabar.
3. Bir unli yo bir undosh bilan farq qiladigan so`zlar qatorini toping.
A) bilim, baliq B) kamon, zamin C) bolg`a, bolta D) boshliq, toshloq E) bormoq, qarmoq.
4. O`rta Osiyoda XXV asrda arab yozuvi bilan bir qatorda yana qanday yozuv ishlatilgan?
A) turkiy yozuv B) rim yozuvi C) uyg`ur yozuvi D) lotin yozuvi E) so`g`d yozuvi

5. Drama, prokuror, trolleybus so`zlari yozilishi qaysi qoidaga as langan?
A) so`z o`zagi va qo`shimchalarini aynan yozish B) fonetik yozuv C) morfologik yozuv D) eshitganimiz asosidagi yozuv E) shakliy yozuv.
6 Turkiy xalqlar qaysi asrlarda O`rxun-Enasoy yozuvidan keng foydalanganlar?
A) II-III asrlarda B) V-VIII asrlarda C) V-IX asrlarda D) VII-XI asrlarda
E) VII-IX asrlarda.
7. Og`zaki nutqning qonun va qoidalarini tilshunoslikning qaysi bo`limi o`rganadi?
A) fonetika B) orfografiya C) orfoepiya D) morfologiya E) uslubshunoslik
8. Fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so`zni belgilang.
A) ketdi B) maktabga C) fikr D) buloqqa E) tug`ildi.
9. Y harfi tushirib qoldirilganda ham ma`no anglata oladigan so`zlar qatorini aniqlang.
A) kiyma, piyma, choynak B) siyla, ziyrak, biyron C) mayda, qayda, soyda D) qiyma, qayirma, sayla E) moyla, sayra, qaysi.
10 Qaysi qatordagi so`zlarda harf to`rtta, tovush beshta?
A) yashil, buyuk B) tongi, ta‘na C) da‘vo, qal‘a D) so`ng, bong E) olim, havo.

Ona tili imlosining tamoyillari

1-mashq. O‘qing. Matndgi so‘zlarni qaysi prinsip asosida yozilganini izohlang.
1. Bozordan uch-to‘rt hovli naridagi, biqinida bir tup zardoli o‘sgan katta ko‘k darvoza bizniki. (E.A‘zamov) 2. Savat ko‘targan yigit parmanchak terib, o‘rmon cheti bilan kelaverdi. (Yo.SH.) 3. Men yugurib borib non sandiqdan nonparni olib keldim. Buvim yasagan patir-kulchalarga nonpar bosa boshladim. (S.Nurov) 4. Umarxo‘ja boy kata bazm berib, mushakbozlik qildirgan edi. O‘shanda SHamsiddinim yo‘lga kirmagan buvak edi.(S.Ahm.) 5. Qandolatfurush yarim kilo pechak qand tortib uzatdi. (Yo.SH.) 6. Faner bermasa, vassa qilarsiz. (P.Q.) 7. – Taladan kelganimda shatta turgan edi-ya! – Kampir chiroqsiz xonada gugurt chaqib, qimiz kadini qidirar edi.(P.Q.) 8. Men seni injitmayman, Va lekin tinchitmayman. (M.Boboev) 9. Ma‘lumki, tun bilan kunduz tenglashgan tongda ko‘katlar bulturgi ildizlaridan bosh ko‘tarib chiqadi, daraxtlar pindig‘i bo‘rtadi, tabiat uyg‘onib, yer ko‘pchiydi. 2. Bozordagilar: «Jinoyat amakimdi eshagining ham aytgani aytgan,
2-mashq. Q. Hikmatning «Bobo dehqon hangomasi» poemasidan olingan parchani o‘qing, so‘zlarning imlosini tushuntiring.
Paykal to‘la «Gulobi»,
«Gurvak»lari karsillar.
«Qari qiz»i xuddi qand,
«Oq novvoti» karsillar. Men ham asal bo‘ldim deb,

«SHakar poya», «Qora qosh», Azza-bazza pushtadan Ko‘tarishib turar bosh.
3-mashq. Jyulg‘ Vernning «Suv ostida 80000 kilometr» romanidan olingan quyidagi parchani o‘qing, shakliy-an‘anaviy tamoyilga asosan yozilgan so‘zlarni ko‘chiring.
.— Mana bu yoqqa qarang, professor, — deb so‘z boshladi kapitan Nemo xona devorlarida osig‘liq turgan asboblarga ishora qilib. — Bular «Nautilus»ni boshqarishga xizmat qiladigan apparatlar. Bu yerda ham salondagiday, bular

hamisha mening ko‘z oldimda bo‘ladi va «Nautilus»ning okeanning qaerida turganini va yo‘nalishini aniq ko‘rsatadi. Mana bu «Nautilus»dagi havo haroratini ko‘rsatadigan termometr; bunisi barometr, u havo bosimini aniqlaydi va bu bilan havoning o‘zgarishini oldindan aytib turadi, gigrometr atmosferada namlik miqdorini ko‘rsatadi; kema yo‘nalishini ko‘rsatadigan kompas, quyosh balandligiga qarab joyning kengligini aniqlaydigan sekstant; geografik uzunlikni belgilaydigan xronometrlar; nihoyat, kunduzgi va tungi kuzatuv trubalari; «Nautilus» suv sathiga chiqqanda, men bular yordamida ufqni kuzataman.

— Bu asboblarning hammasi, — deb javob berdim men,— kemachilikda ishlatib kelinmoqda va bularning hammasi menga ilgaridan tanish. Biroq mana bu yerda menga ma‘lum bo‘lmagan allaqanday asboblar bor. Mana bu harakat qilib turadigan milli katta tsiferblat manometr emasmi?

—Ha, bu manometr. U kema tashqarisidagi suv bosimini o‘lchaydi va bular «Nautilus»ning suvga qancha cho‘kkanini ko‘rsatib turadi.

—Mana bular zondlarmi?

—Ha, faqat yangi konstruktsiyadagisi. Bular turli suv qatlamlaridagi haroratni o‘lchaydigan termometrik zondlar.

Ona tili imlo qoidalari

1-mashq. O‘qing. Berilgan so‘zlar o‘zbek tili imlo lug‘atida berilishini izohlang.

1.Sut, mayiz, un, mastava, sho‘rva, qatiq, patir, sabzi, mosh, turshak, chuchvara, bodom,

2.Biz, siz, u, hech kim, har narsa, har kim, kim, qancha, necha, bu, o‘sha, o‘zim.

3.Opa, singil, uka, buvi, buva, momo, bobo, jiyan, ada, oyi.

4.Yomg‘ir, qor, shudring, bulut, suv, havo, muz, qir, tog‘, adir, jar, soy, jilg‘a, yer, osmon, o‘rmon, quyosh, oy, yulduz.

5.Ko‘z, qosh, bosh, oyoq, dum, tumshuq, tuyoq, teri, o‘pka, jigar, buyrak, ichak, tirnoq.

6.SHirin, achchiq, qizil, ko‘k, sariq, katta, kichik, uzun, kalta, silliq, ...

7.Kelmoq, ketmoq, ishlamoq, bormoq, yozmoq, o‘qimoq, aytmoq, yugurmoq, sakramoq,

8.El, yurt, xalq, mamlakat, davlat, jamoa, mahalla, millat, do‘st, o‘rtoq,...

9.O‘n besh, o‘ttiz, ellik, yetmish, to‘qson, yuz, ming, million...; so‘m, tiyin, metr, kilogramm, litr, gektar, kilometr...

10.Odam, hayvon, bola, ot, xotin, qush, dehqon, chorva, echki, quyon, parranda, tuya, mol, ilon, eshak, chol, kampir...

11.Ko‘rpa, gilam, poyondoz, yostiq, ko‘ylak, ro‘mol, do‘ppi, dasturxon, choynak, qoshiq, igna, mahsi, kalish...

12.Daftar, kitob, qalam, ruchka, qog‘oz, televizor, telefon, radio.

13.Mashina, poezd, avtobus, samolyot, traktor...

14.Bolta, tesha, ketmon, pichoq, qaychi, o‘roq, bolg‘a, qozon, ...

So ‘zlarni qayta o ‘qib, umumturkiy va o ‘zbekcha so ‘zlarni ko ‘chirib yozing. Bu topshiriqni bajarishda —O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati ‖ dan foydalaning.

2- mashq. O‘qing. Ruscha-internatsional so‘zlar imlosini izohlang.

I.Maqbara, klient, shifoxona, shogird, simvol, tuman, trest, g‘oya, firma, gol, ehson, kamera, konspekt, dilkash, zukko, industriya, karnay, karniz.
II.1. Ishim ustidan rahbarlik qilishga professor Odil Jo‘raev rozilik berdi. (U.N.) 2. O‘sha dorini tezdan topib, ustaga yetkazish uchun aptekaga bordi. (H.N.) 3. Mehr-oqibatli komandirlarni omilkor bog‘bonga o‘xshatsa bo‘ladi. (H.Tojiboev) 4. Injenerning, akademikning bilishi shart bo‘lmagan sohalar bor. Yozuvchining unday sohasi yo‘q. (As.M.) 5. Bosh buxgalter ham choyxonaga chiqib ketgandi. 6. Mayor sabrsizlanib har yoqqa tikildi. (O.)

3-MAVZU

LEKSIKOLOGIYA, UNING OB’EKTI, TURLARI, VAZIFALARI. ONA TILI LUG’AT TARKIBINING MA’NO JIHATDAN TAVSIFLANISHI. LUG’AT TARKIBINING SHAKL VA MA’NO MUNOSABATLARI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI. OMONIMLAR. SINONIMLAR (MA’NODOSH SO’ZLAR). ANTONIMLAR. PARONIMLAR.

Leksikologiya, uning obuekti, turlari, vazifalari

Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash

№	Blits savollari	Talaba javobi	To‘g‘ri javob	Savollarga javoblar
1	So‘zning gapdan tashqarida ifodalaydigan ma‘nosi qanday ma‘no hisoblanadi?		Gazeta, ravish	
2	Faqat bir ma‘noli so‘zlar erilgan qatorni aniqlang.		Ma‘no torayishi	
3	Ko‘p ma‘noli so‘zlar berilgan qatorni toping.		Bir ma‘nolilik	
4	Atoqli ot turdosh otga ko‘chsa qanday ma‘no o‘zgarishi hosil bo‘ladi?		Ma‘no kengayishi	
5	Turdosh ot atoqli otga ko‘chsa qanday ma‘no o‘zgarishi sodir bo‘ladi?		Metafora	
6	Butunni ifodalash orqali qism, qismni ifodalash asosida butunni anglash asosida ma‘no ko‘chishi nima deb yuritiladi?		Metonimiya	
7	Predmet, belgi,harakatning o‘xshashligiga asoslangan ma‘no ko‘chishi turi nima deb yuritiladi?		Ko‘z, bosh, quloq	
8	Men 11da keldim gapida ma‘no ko‘chishining qaysi turi qo‘llangan?		Kinoya	
9	Uyda har kuni ―dushman‖ tomondan bir vakil bo‘ladi. Gapida ma‘no ko‘chishining qaysi shakli qo‘llangan?		Sinekdoxa	
10	Monosemiya hodisasi qanday ma‘noni anglatadi?		So‘zning asl o‘z ma‘nosi	

1. Leksikologiya bo‘limining obg‘ektiga nimalar kiradi?
2. So‘zning leksik ma‘nosi nima? 3.So‘zning grammatik ma‘nosini izohlang.
4. Bir va ko‘p ma‘noli so‘zlarni tushuntirib bering.
5. So‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nosini tushuntirib bering.

6. So‘z ma‘nolarining o‘zgarishini misollar asosida tushuntirib bering. 7.Ma‘no ko‘chishi hodisalarini misollar orqali tushuntirib bering.
8. Ma‘no kengayishi va ma‘no torayishi hodisalarini izohlang.

Savol-javob jarayonida mavzu materiallarining izchilligi va uzviyligiga amal qilinadi, talabaning javobini ikkinchi bir talaba tomonidan to‘ldirilishi uchun imkoniyat yaratib beriladi. Talabalar faolligini ta‘minlash maqsadida har bir talabaning javobi o‘z vaqtida belgilangan ballar asosida baholanib boriladi.

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to`liq va mukammal bo`lishi o`qituvchi va talabalar tomonidan qatg`iy nazoratga olinadi.)

1-mashq. So‘zlarni o‘qing. Har bir so‘zning leksik ma‘nosini, nominativ(nomlash) xususiyatini izohlang.

Ajriq, ayvon, amaki, ari, asov, o‘nta, barvasta, men, bastakor, avval, baxil, bahs, bedana, bezatmoq, bildirgi, allakim, burro, bo‘ron, vergul, gerb, go‘zal, dardchil, diyor, mana shu, dimlamoq, doim, dono, dum, dubulg‘a, yetmak, yetmish, yechintirmoq, yoyiq, yong‘oq, yoppasiga, jadval, jiyan, jiddiy, jilg‘a, jussa, ziyofat, ziroat, ziqna, zubr, ikkinchi, iljaymoq, injiq, in‘om, irkit, istiqlol, itoatkorona, yo‘g‘on, kalit, kaltafahm, kashta, keyin, kimyogar, ko‘p, hech kim.

2-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning leksik va grammatik ma‘nolarini izohlang.

1. Farzand umr bog‘ida Hayotdek aziz, shirin. (T.Saydaliev) 2. Tuhmatning oyog‘i qisqa, uzoqqa bormaydi. Haqiqat to‘q danak, ko‘msa ham ko‘karib chiqadi. (SHuhrat) 3. Mehnat bilan topilgan non beminnat bo‘ladi. 4. Qahramon ota, jasur o‘g‘il, jafokash ona, hijronzada qalliq, hurmatli yodgorlik oldida uzoq bosh egib turdim. (S.Ahm.) 5. Yaramas, fosiq odamlar bilan suhbatdosh bo‘lish ilonni asrashga o‘xshaydi. Ilon har qancha asralsa ham, zahari va ziyoni kamaymaydi, balki ko‘payadi. (—Oz -oz o‘rganib dono bo‘lur‖)

Mutaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

Ona tili lug`at tarkibining ma`no jihatdan tavsiflanishi

Matnlarni o‘qing, monosemantik so‘zlarni aniqlang va qaysi sohaga oidligini ayting.

I. Bakteriya hujayralari massasining asosiy qismn oqsil va nuklein kislotalaridan hosil bo‘lgan tsitoplazma va yadrodan iboratdir. Oqsillar juda murakkab organik moddalar bo‘lib, ularning molekulalari yuz va minglab atomlardan tuzilgandir. Oqsillar tarkibiga uglerod, vodorod va kislorodlardan tashqari azot, oltingugurt va ba‘zan fosfor ham kiradi. (K. Ye. SHarikov.)

II.Mahmud Koshg‘ariy yirik fonetist sifatida har bir tovushni alohida o‘rganib, uni fiziologik va akustik tomondan tasvirladi. Tovush va harf orasidagi munosabatga to‘xtalib, arab yozuv sistemasidagi harflarning turkiy tillardagi mavjud tovushlarni ifodalash uchun yetarli emasligini ko‘rsatdi...Mahmud Koshg‘ariy so‘zlarni uch turkumga ajratadi. Bular: ot, fe‘l, yordamchi so‘zlar. Mahmud Koshg‘ariy ko‘pgina

affikslarning ma‘no va funktsiyalarini ko‘rsatib bergan edi. Uning semasiologiya sohasidagi fikrlari ham juda qimmatli. (S. Usmonov.)

III. Alisher Navoiy katta badiiy va ilmiy asarlari qatorida maxsus lingvistik asar yozganligi barchaga ma‘lum.Navoiy eski o‘zbek tilining morfologiyasini yaxshi analiz qildi. Masalan, u fe‘lning o‘zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko‘makchi fe‘l yordamida tuzilgan murakkab fe‘llarni, sifatning orttirma darajasini va kuchaytirma shakllarini, ayrim so‘z yasovchi affikslarning ma‘nolarini ko‘rsatib, ularni misollar bilan izohlab beradi.Navoiy eski o‘zbek adabiy tilining fonemalariga, ayniqsa, unlilariga ham ahamiyat berdi. (S. Usmonov.)

2-mashq. Gaplarni o‘qing, o‘z va ko‘chma ma‘noli so‘zlarni aniqlang. Ko‘chma ma‘noli so‘z ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, ma‘nosi ko‘chgan so‘zlarning tagiga chizing.

I.1. Agar derlar ko‘ngil yosh bo‘lsa, Oq soch o‘zi bir husn erur. (SH.) 2. Oqsoch har baloni eplaydi, xumpar, nayrangdan shaytonga dars beradi. (O.) 3. Avval o‘z bolalaringni va jigarlaringni oq podshoh qo‘shiniga yuborib ko‘ringlar-chi. (S. Kalmikov.) 4. Yuzim chaydim chiroyingga, oyingga... (Qo‘shiqdan.)5. Ishonmasdan qarardi Do‘ndiq, go‘zal yuzlarga. (Mirm.) 6. Kechqurun u maktabga kelganda, kechaning tantanali qismi tugab, o‘yin-kulgi avjiga chiqqan edi. (O‘. U.) 7. Karim yo‘lda borar ekan, qulog‘iga Bibining ovozi eshitildi. (N. Biryukov.) 8. Bu suvning qulog‘iga yaqin, tekis yer edi. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 9. Bir samovar bilan bir necha choynak meniki bo‘ldi. (S. A.) 10. Otlarni saroyga bog‘lab, o‘zlari samovarga kirishdi. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.)

II.1. U yil oxirida xizmati uchun boydan ma‘lum miqdorda tuyoq oladi. Bu yilgi oladigan tuyog‘i ham noma‘lum. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 2. Otlarning tuyoqlari... qattiq yerdan... toshlarni taraqlatib ketar edi. (S. B.) 3. Mana menam suv to‘la ariq labida quruq labman. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 4. Barmog‘imning tirnog‘i etidan ajrab ketdi. (N. S.) 5. Xushro‘y bitta-yu bitta qizi. Befarzand o‘tdim deganda ko‘rgan tirnog‘i. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 6.

— Sizlar menga ishonaveringlar, — dedi Nosir mamash ohu ko‘z yigitga choy uzatib... — Siz Haydarbek emassiz! — dedi burgut ko‘z yigit. — Bu yog‘i endi o‘zlaringizga bog‘liq. To‘g‘ri yurib, bechorachilikni bo‘yinlaringizga olsalaring, oshlaringni yeysizlar. — Bo‘lmasam-chi?! — dedi Nosir mamash so‘zini kesib burgut ko‘z. (N. S.)

Mutaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

3-mashq. O‘qing. Metafora yo‘li bilan ma‘nosi ko‘chgan so‘zlarni aniqlang. Gaplarni ko‘chirib, ma‘nosi ko‘chgan so‘zlarning tagiga chizing va ma‘no ko‘chish xususiyatini izohlang.

1. Yo‘ldoshboy soy yoqasidan pastga tomon qiyalab yurdi. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 2. ... Ikki ko‘zi har nav mollar bilan to‘la xurjunni.elkaga tashlab, ...inqillab kirdi. (O.) 3. CHarchamagan bo‘lsangiz «Nautilus»ning quyruq tomoniga yuring. (J. Vern.) 4. Darhaqiqat, suv osti kemasining tumshuq qismini

koʻrib boʻlgan edim. Kemaning oʻrtasidan tumshugʻigacha joylashgan xonalar oʻz tartibi bilan quyidagicha edi... (J. Vern.) 5. Bulbullarning dudogʻidan uchgan navoni Qoʻshiqlarim qanotida olib keltirdim. (E. V.) 6. Togʻlarning etagidan uchib maysaga yetar. (Mirm.) 7. Quyosh botib ketdi. Bir tutam nuri Varrak dumlariga ilashib qoldi. (SHukrullo.)

4-mashq. Metonimiya yo ʻli bilan ma ʻnosi ko ʻchgan so ʻzlarni topib, izohlang. 1. Butun vujudi bilan Berildi u o ʻqishga. Har kun olib papkasin, Qatnar u ―Navoiy ‖ ga. (Mirm.) 2. Ko ʻzimning oldidan o ʻtadur g ʻamgin Navoiy tobutin ko ʻtargan Hirot. (A.Eshonov) 3. Siz ham uzoq yashaysiz, yuzga kirasiz. (SHuhrat) 4. Butun qishloq bizni soʻzlaydi, Toʻyimizni doim koʻzlaydi. (H. Gʻ.) 5. Dod deyman! Mahallani boshimga koʻtaraman. (H. Gʻ.) 6. Bir «Opa-doktor» degan Yoqib qolgandi xalqqa; Yarim Toshkent tanirdi. (Mirm.) 6. Qosh qoraygach, barcha yigʻiladi: Maktab, ferma, hamma xonadon... (Mirm.) 7. Zal gurillab kulib yubordi. (A. Q.) 8. London xushchaqchaq bir kuyni eshittirardi. (Yu. Semyonov.) 9. Beshinchidagi Anorgulni aytsang-chi, har kuni yuz yetmish besh kilogrammdan teryapti-ya. (A. Muhiddin.) 10.

—Sizning kelishingizni eshitib, butun Margʻilon koʻchib chiqdi. (H. Nuʻmon, SHorahmedov.) 11. Qishlogʻimiz asosan bogʻdorchiligu chorvachilik bilan shugʻullanar edi. (E.Aʻzamov)

5-mashq. Koʻchiring. Metonimiya yoʻli bilan maʻnosi koʻchgan soʻzlarni topib, tagiga chizing, uning metaforadan farqini tushuntiring.

1. «CHoʻl kezding»,—debsiz,—muncha? Ne der eshitgan quloq? (Mirm.) 2. Sakkizda eding, oʻn oltiga qadam qoʻyding. (H. Gʻ.) 3. Ulugʻ qabrning ustida Hirot yigʻladi. (O.) 4. Zalning butun nigohi, butun eʻtibori boshqa tomonga koʻchganini sezganda ham, ...toʻxtamay gapiraverdi. (A. CHakovskiy.) 5. Til bilan dil boshqa-boshqa boʻlmasin, Egri qoʻllar bizni aldab yurmasin. (H. Gʻ.) 6. Menga lazzat berar shashmaqom, yalla, Toʻychi hofiz kuyi, CHaykovskiy, Bax. (U.) 7. Gospitalgʻ shu tarafga yordamchi xoʻjalik qilmoqchi. (S. Ahm.) 8. Sport maydoninig etagida esa katta hovuz boʻladi. (H.Gʻ.) 9. Qishloq uygʻonmoqda, har joy-har joyda moʻrilardan tutun chiqmoqda. (L. SH.) 10. Olijanoblikni qutlar yer yuzi, Qurbonsiz boʻlmadi va lekin yarash... (Mirm.)

6-mashq. Gaplarni oʻqib, koʻchma maʻnoli soʻzlarni aniqlang. Sinekdoxa yoʻli bilan maʻnosi koʻchgan soʻzli gaplarni koʻchiring; maʻnosi koʻchgan soʻzning tagiga chizib, uning metonimiyadan farqini tushuntiring.1. Quvnoq tongning oltin boʻsagʻasida Tongni kutar quvnoq ming-ming koʻz. (Mirm.) 2. — Qanaqa tashvishni aytyapsiz, oqsoqol? (H. N.) 3. Egizakni koʻp tugʻar qoʻylar, Koʻpayadi suruvda tuyoq. (Mirm.) 4. Hoshim zoʻr, Ergash polvon va boshqa qingʻir oyoqlarning ishlari Haydarbekka ayon. (N. S.) 5. — ... Qulingizdan qoladigan yolgʻiz tirnoq bu. Ishqilib mendan keyin yetimligi bilinmasin! (Y. Sulaymon.) 6. Qiyigʻing uchida sen koʻtarib kelgan toʻrtta olma yeyman deb turgan sakkiz ogʻizga nima boʻladi. (H.Gʻ.) 7. Eshitgan quloq nima deydi? (H. Gʻ.) 8. Uqubatli kunlarni Endi koʻrmasin boshlar. (Mirm.) 9. Allo, hozir Toshkent bilan gaplashasiz, — dedi telefonistka. (Yo. SH.) 10. Yoʻli menga besh qoʻldek ravshan boʻldi. (Yo.SH.)

7-mashq. O‘qing. Ko‘chma ma‘noda qo‘llangan so‘zlarni toping. So‘z ma‘nosi qaysi yo‘l bilan ko‘chganligini izohlang.

1.Surxonboy zal etagida tik turib bolalarini uzundan-uzoq duo qildi. (I. R.)

2.Oyoqda og‘ir etik Asfalg‘tda taraqlardi, Soldatlar etigidek Tumshug‘i yaraqlardi. (Mirm.) 3. Bir oshnam «she‘r» o‘qib, chapak chalmasa, zalga o‘shqiribdi — «talant» emish u... (Mirm.) 4. Sen o‘zing go‘zalsan, ey O‘zbekiston, Bog‘imiz husniga jahon boqmoqda. (Mirm.) 5. SHinelni yechmasdan frontdan to‘g‘ri Zavod quchog‘iga otilding tetik. (SH.) 6. Igna zahrin mendan so‘ramang, Tob berganman ne zahmatlarga. O‘ttizga kirsam ham cho‘chib turaman, Ko‘zim tushsa oq xalatlarga. (E. V.) 7. «Akamdan bitta- yu bitta shu tirnoq qoldi», — dedi u. (Y. Sulaymon.) 8. Modomiki maslahatni mendan emas, mahalla qora ko‘zlaridan so‘ramoqchi ekansiz, so‘rang, qani bular nima der ekanlar. (N. S.) 9. Oyga uchayotgan kosmonavt agar so‘rasa ne kitob olishni, u dam — Navoiy-yu Pushkin, G‘afuru Tagor Va olib uch derdim Tixonovni ham. (Mirm.)

10. Qizning mehrini, iltijosini sezgan saman ot buloq boshida bo‘yin egib turib berdi. (H.G‘.)

Mutaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

Namuna: Siz ham uzoq yashaysiz, yuzga kirasiz. (SHuhrat. —SHinelli yillar ‖)

Yuzga kirasiz so ‘zlarida ma ‘no ko ‘chishining metonimiya va metofara usullari mavjud.

Lug`at tarkibining shakl va ma`no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi. Omonimlar

1-mashq. Ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan omonim so‘zlarning ma‘nolarini izohlang.

1. Ayshingizni surib yura berasiz. Paxta har yili yuz! Pilla yuz. (A. Q.) 2. Mayin kulimsar yuzi, Tajangliklardan yiroq. (Mirm.) 3. Dunyoda bor ekan har narsaga chek. Bema‘ni umringga bir oz qayg‘u chek. (G‘. G‘.) 4. Tegirmonchi Roziq degan chol, CHolning yuzi, ko‘zi doim un. (Mirm.) 5. Dodlay desam chiqmas unim, Nima qildim, nima qildim?! (M.Boboev) 7 bir masalaning hali uchun qoshingizga kelgan edim. (O.) 8. Bu atrofda hali ko‘p izg‘iydi u. (O.) 9. Yana bir kasb etgan baxtim sizsiz, azizim. 10. Mayli, lekin biron majlis sizsiz o‘tsa nima bo‘pti? (O.)

2-mashq. O‘qing, omonim so‘zlarni aniqlab, ma‘nosini izohlang

1. Bir vaqt Bog‘dod xalifasi saroyining yetukli dabiri bilan uchrashganim bor. (K. Moiseeva.) 2. Dono mudarrisimizning o‘zi ham... hali biron bor kirishga muyassar bo‘lolmagan-ku! (K. Moiseeva.) 3. Men do‘zaxning qoq o‘rtasida bo‘ldim, undagi hayotning «lazzatlarini» totib ko‘rdim (K. Moiseeva.) 4. Ayabroq o‘t sochishdi, shekilli, har qalay, bir qo‘limdan ajrasam-da, tirik qoldim. (N. T.) 5. Qovjiragan tutam o‘t Bo‘lgan unga paloslar. (Q. H.) 6. Mo‘rilardan tutun burqadi, Gur-gur yonar qoq g‘o‘zapoya. (Mirm.) 7. Yuragingda bo‘lsa o‘t, Bizga qiyo boqib o‘t. Agar ko‘ngling bo‘lmasa, Mayli bag‘rim yoqib o‘t. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.)

8. Yig‘ilgan pullarni yaktagining qiyiq cho‘ntagiga solib, xayrlashib jo‘nadi. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 9. Xo‘b yarashgan qop- qora miyiq, Belidadir shohidan qiyiq. (O.) 10. Uni eshitishdan ko‘ra quloqlarim tom bitgani yaxshi. (K. Moiseeva.) 11. CHakka o‘tar — eski tom. Bosaman deb qo‘rqitar. (Mirm.) 12. Stolida turar qalin tomlar... (Mirm.)

3-mashq. O‘qing. Omonimlarni topib, turini (omoshakl, omofon, omograf) ayting.

1. Semurg‘ dedi: «Ey botir, Kel endi o‘rningdan tur!» (H. O.) 2. Jyuri sizlarga o‘zining quyidagi birinchi tur savollarini yuboradi. (B. Ergashev.) 3. Binafshalar, rango-rang gullar, SHisha kabi zangori ko‘llar, ...Hammasi bor, hammasi ma‘mur. (H. O.) 4. Bahor chog‘i butun tabiat gullar, G‘uncha kabi ochiladi ko‘ngillar. (H. O.) 5. Maktab binosi yoniga yetganda, qizi La‘liga duch keldi. — Idoraga uch, senga ham pul katta. (SH. Toshmatov.) 6. Hosil olamiz der ekanmiz, har kuni uch mahal ovqat kilishni kanda qilmaganimizdek, ekinlarni ham bir kun emas, bir soat ham kechiktirmasdan sug‘orib turishimiz kerak. (CH. Ayt.) 7.Abdulhay, o‘zing ham to‘rga o‘t, bolam. Bemalol yonboshlayveringlar, o‘z uylaring. (E. Nosir.) 8. Mamatali to‘rga tushgan bedanadek ko‘p urinib ko‘rdi. (I. Sodiqov.) 9. Mehmonlarga ko‘p yoqar, Qanday soz bu el raqsi. (Mirm.) 10. Uni bayon qilishda Soz ham yig‘laydi yomon... (Mirm.) 11. Minora baland, zinapoyalari tik, o‘y-xayollar esa zildek og‘ir edi. (S.B.) 12. Feruza yo‘l-yo‘l tik ko‘rpachada ma‘yus o‘tirarkan, onasiga yumshoqqina jilmaydi. (H. G‘.) 13. Gapga yana gap ular, o‘zaro suhbat gullar. (Q. H.) 14. So‘ng zolim xonga ular Tanitdilar Darxonni. (H. O.) 15. — Umridan shuncha uzoq bo‘lgandan keyin... umri uzoq bo‘ladi-da, — deb so‘z o‘yini qildi. (A. Q.)

4-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning omonimlarini toping.

1. Xon shu kechasiyoq kampirga chopar yubordi. (S.Ahm.) 2. Dildor yugurib borib Davlatbaxtning xonasidan g‘ijjak, tanbur, daf keltirdi. (O.) 3. Belni aldab-aldab ishga solmasak bo‘lmas. (S. Ahm.) 4. Men ikkinchi rang harbiy vrachman. (A. CHakovskiy.) 5. U turtinib, plashchining bari butalarga ilinib,
...hansirardi. (CH. Ayt.) 6. Sog‘inib kutdim, yoshim marjon bo‘lib. (H. G‘.) 7. Ba‘zan uning organ chalayotganini eshitar edim. (J. Vern.) 8 Unga musiqiydan dars berish uchun jaziramada, qoq to‘p paytida piyoda borib-kelib tursa — bu qanaqa muhabbat bo‘ldi. (R. Zahir.)

5-mashq. Quyidagi omomnim so‘zlarning ma‘nolarini izohlang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Kurak, kunda, ko‘za, may, mansab, nor, ol, ort, och, osha, oshiq, palak, par, sep, son, son, sur, taqa, rom, ter, tovon, tirish, tok, tuz, to‘p, chang, chop, qazi, qiy, qil, qirq, qor, quv, qo‘y, qo‘sh.

Izohlaringizni —O ‘zbek tilida omonimlarning izohli lug ‘ati $\frac{\|}{161}$ bilan solishtirib ko ‘ring.

6-mashq. SHakli bir xil, vazifasi har xil affikslarni aniqlang, ularning turini ayting.

I.1. Bu gullarning umri qisqa, olingiz, Iqbolingiz ming yil etsin davomlar. (H. G‘.) 2. Bola ochib bemalol Bog‘larida o‘sdimiz. Ular bizga jonkuyar, Saxovatli do‘stimiz. (Q. H.) 3. Mehmonxonada, o‘z xonamizdamiz. (E. Xeminguey.)

II.O‘zbekcha—qizcha; hayqir—uchqur, suvsa— borsa, boray — kuchay; yig‘iq — tortiq; bosma—bosma; tugma – tugma; tortinchoq — qo‘zichoq, suvsiz— studentsiz; baliqchi — baliqchi, o‘qidim—o‘qituvchim, chiqindi — yuvindi, supurgi — yozgi.

7-mashq.Tovush tizimi jihatdan bir xil shakllangan so‘zlarni topib, ma‘nolarini izohlang.

1. Tushma qallob to‘riga, O‘tqizsa ham to‘riga. Odam qovun emasdir, Qarab bilsang to‘riga. (Habibiy) 2. Ba‘zilar bor go‘yo ho‘l o‘tin, Tutab yonar, ko‘rmaysan o‘tin. Yangilikka qayishmas sira, Xoh buyur-u, xoh o‘tin. (M.Mudarrisov) 3. Qoshlarni terdirib kuya tortibsiz, Bekuya do‘stlardan o‘zni tortibsiz. Ko‘rganini qilgandek qush uyasida, Ayangizga siz ham aynan tortibsiz. (Yamin Qurbon)Bu so‘zlar so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra qaysi turlariga kiradi?

Mutaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olibkelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishlio‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

Namuna: . — Umridan shuncha uzoq bo‘lgandan keyin... umri uzoq bo‘ladi-da, — deb so‘z o‘yini qildi. (A. Q.) Umri-qiz bolaning ismi, umri- hayoti ma‘nolarida, leksik omonimlar, ot turkumi doirasida yuzaga kelgan.

Sinonimlar (ma`nodosh so`zlar). Antonimlar. Paronimlar

Talabalar bilimi quyidagi savollar asosida aniqlanib va mustahkamlanib baholanadi:

1. So‘zning leksik ma‘nosini tushuntirib bering.
2. So‘zning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari deganda nimani tushunasiz?
3 .Cinonim so‘zlar deganda qanday so‘zlarni tushunasiz?
4. Sinonimik qator nima?
5. Cinonimlik xususiyati necha so‘z turkumi doirasida amalga oshishi mumkin?
6. Leksik va frazeologik sinonilarni misollar asosida tushuntirib bering.
7. Antonim so‘zlar deganda nimani tushunasiz?
8. Morfologik antonimlarni tushuntirib bering
9. Paronimlar to‘g‘risida ma‘lumot bering.
10. Paronimlarning turlarini tushuntirib bering.

Savol-javob jarayonida mavzu materiallarining izchilligi va uzviyligiga amal qilinadi, talabaning javobiniikkinchi bir talaba tomonidan to‘ldirilishi uchun imkoniyat yaratib beriladi. Talabalar faolligini ta‘minlashmaqsadida har bir talabaning javobi o‘z vaqtida belgilangan ballar asosida baholanib boriladi.

Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.

1-mashq. O‘qing. Sinonimlarni aniqlang, omonimlardan farqini ayting.

1. ...Keyin maskayog‘ surtib, likobchaga qo‘ydi. (R. Zahir.) 2. U likobchadagi ustiga sariyog‘surtilgan... ikki bo‘lak nonni olib, yeya boshladi. (R. Zahir.) 3. Yoshlik — fundament. ...Poydevorni qiyshiqqo‘ysang, imorat qulaydi. (Mirm.) 4. Borib onangni va ro‘zg‘orlaringni bu yerga oldirib kel. (J. Zaydon.) 5. Bo‘lmasa farmoningizni volidamga yetkazish uchun uyga borishga ijozat bersangiz. (J.

Zaydon.) 6. Qo‘shinorqada qolib ketgani uchun, Temur ilgari yurmay to‘xtadi. (S. B.) 7. Bosqinchilarning askari tor tog‘ cho‘liga kirib kelgan mahalda, yerli aholi bu joyni toshlar bilan himoya qilgan. (S. B.) 8. Bir sohib ikkala qo‘libilan yo‘g‘on asosiga tayanib o‘tiribdi. (R. Zahir.) 9. O‘ng qo‘lida hassasini yerga tiq-tiq urgancha chiqibkeldi. (J. Zaydon.) 10. Jamila dastgohiga kombinat gudok chalib turgan paytda yetib keldi. (Mirm.) 11. Stanok ustiga qo‘ngan changni cho‘tka bilan artdi. (Mirm.) 12. Begona yurtda, bolasi diydoridan uzoqda armon bilan ko‘z yumdi. (S.Ahm.) 13. Tolibjon ko‘p mashaqqatlarni birga kechirgan xotinini yot el tuprog‘ida qoldirdi. (S.Ahm.) 14. Intiqom ol! — der edi. Har gunohsiz oqqan qon. O‘ch ol!— derdi Maratga Har tongchiqqan zar quyosh. (SH.) 15. Bu qo‘shiq bilmaydi nedir to‘siq-g‘ov. (SH.) 16. Olam yaralmishki, bandisan, osmon, Sukunat domiga o‘tmishing asir. (G. J.) 17. Ana bedazor. ...Dilni yashnatgan yo‘ng‘ichqazor ham o‘ribolinib, o‘rni shudgor qilib qo‘yilgan edi. (S. Z.)

2-mashq. Sinonim so‘zlarni aniqlab, ma‘no jilvasidagi farqni tushuntiring.

1. Saharlab turaman, qutlayman tongni, Bo‘ynimga osilar subh shamoli. (Mirm.) 2. Yel keltirar mayinbir ohang. Yana olib ketar nariga. (Mirm.) 3. Dalamizda salqin shabboda yeldi, Uxla, jonim bolam, allayo-alla. (Mirm.) 4. Martabador shaxslarni fuqaroga tez-tez siyosat qilib, avom jilovini mahkam ushlabturishga undardi. (Mirm.) 5. Eldan qo‘rqqan qozi keyinchalik uni bo‘shatib yubordi. (Mirm.) 6. Ulug‘Gimnning yangroq ohangini Olib ketdi tungi sho‘x sabo. (Mirm.) 7. Qovjiragan palaklarning u yer-bu yerida qolib ketgan sapchalardan uzib, chaylaga olib bordi. (H. N.) 8. Qani, bu hamaklarni chanqovbosdi qilibturaylik. (H. N.) 9. Sendan hech sirimni yashirmayman. (A.Q.) 10. ...Ammam boyaqishning o‘g‘lini dadammusofirlar, mardikorlar orasiga qo‘shib qo‘ydi. Dadamda sira insof yo‘q. (O.) 11. Ba‘zan uni o‘qiyman oshkor, Ba‘zan xufiya — g‘oyatda pinhon. (Mirm.) 12. Siddiqjon bunga mutlaqo ishonmasa ham, Ro‘zimatning ko‘ngliuchun yoqasini ushladi. (A. Q.) 13. Endi u butunlay qo‘rqmay ham qoldi. (P. T.) 14. Siz asti xavotir bo‘lmang. (Ya.) 15. CHoy qog‘ozga yozilib, to‘rt buklangan xatni boy ochdi. (O.) 16. Maktubning bosh tomonini o‘qiganda Homidning yuzida ko‘rilgan shodlik o‘zgarishlari... o‘rnini chuqur bir mulohaza olgandek bo‘ldi. (A. Qod.) 11. Bunoma ertasi kun xonga yuboriladigan bo‘lib, bunga maxsus kishi belgilandi. (A. Qod.)

3-mashq. Berilgan gaplardagi sinonim so‘zlarni toping, ularni sinonimik qatorlarga guruhlabko‘chiring.

1. Tushida u brigada traktoriga minib, qabriston chekkasidan ariq o‘tkazish niyatida go‘ristonga yo‘l olgan emish. (O.Yo.) 2. Uning chekiga Asaka ko‘chasidagi dorixona tushdi. (S. An.) 3. Hilol ko‘ksin yer o‘g‘liga Yostiq etmish par. (E.V.) 4. Munavvar... Asaka ko‘chasidagi aptekaga qadam bosmay qo‘ydi. (S. An.) Oy sukut aro, CHeksiz fazo og‘ushida yer o‘g‘li uxlar. (E.V.) So‘rar ekan fursat sarhisob, benaf o‘tgan hayoting uchun vaqt oldida berursan javob. (E.V.) 7. Biz ochgan xazina Vatanimizga arzirli tortiq bo‘ladi, deb umid qilaman. (H.G‘.)

8.-SHaxmatni ham olib kelay- a? - dedi SHarifjon. (S. Kalm.) 9. Dadam sizga ozgina sovg‘a berib yubordilar. (H.G‘.)10. Yemakni ko‘proq g‘amla. (K. Moiseeva.) 11. Juda yaxshi bo‘ladi- da. Oshdan keyin achchiq- achchiq choy ichib, satranj suramiz. (S.Kalm.) 12. Tirikchiligimiz avval qanday bo‘lsa, hozir ham

shunday. (O.) 13. Aytmaysiz ham, qo‘shni. (H. G‘.) 14. Aytib ber- chi, qaysi qiz burun sevib bo‘lgan umid bilan yor. (H.O.) 15. Itni olib kelishga aqlimiz yetibdi-yu, xo‘ragi to‘g‘risida o‘ylamabmiz. (N.S.) 16. Yelkangizni tuting bizga, hamsoya. (H.G‘.) 17. O‘zimiz tolqon, turshak bilan zo‘rg‘a kun o‘tkazib turgan kezimizda itga beradigan yemishimiz yo‘q edi. (N.S.)

4-mashq. Quyidagi so ‘zlarni asos(dominanta) qilib olib, sinonimik qatorlar tuzing va ularni A.Hojievning —O ‘zbek tili sinonimlarining izohli lug ‘ati ‖ dan tekshirib ko ‘ring. Aloqadar, anqov, baxt, vatan, dangasa, jirkanch, inoq, maosh, nom, uzoq, ozod, osmon, rohat, sassiq, soya, tabrik.

5-mashq. Quyidagi so‘zlardan sinonimiya qatorlari tuzib yozing.

Egoist, bahs, sovg‘a, tanqis, yashirin, g‘alaba, hadya, o‘g‘rincha, tirriq, munozara, pinhon, tortiq, kamchil, tortishuv, armug‘on, tahchil, xudbin, xufiya, zafar, g‘irrom, tuhfa, maxfiy, betashvish, tanbal, naridan-beri, yesir, ma‘ruza, yakka, ko‘mak, yov, jussa, beg‘am, apil-tapil, dangasa, zulm, yordam, dushman, guvoh, doklad, g‘amsiz, beva, gavda, yalqov, yolg‘iz, madad, g‘anim, shohid, istibdod, qayg‘usiz, shoshapisha, ishyoqmas, tanho, ag‘yor.

6-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning sinonimlarini toping.

1. Aspirantura yillari qishloqqa kelishning sira iloji bo‘lmadi. (S.Ahm.) 2. Qorli cho‘qqilardan olibkeladigan bebosh toshqin suv to‘lqinlarining qaypallada vujudga kelishidan juda kamdan-kam odamxabardor. (K. Moiseeva.) 3. Nodirov likopchasini qush go‘shtlariga to‘ldirib oldi. (I. R.) 4. Tush bo‘laydeganda horib-charchab yetib keldik. (M.Boboev) 5. To‘piqqa urgan ko‘m-ko‘k yo‘ng‘ichqa o‘rtasidan... yo‘l tushgan. (S. Z.) 6. Ammo jiddiy manglay Ferdinand Intiqomni o‘ylardi yomon. (Mirm.) 7. Bunda yo‘lbarslar poylar, Kelar chanqoq ohular. (Mirm.)

1-mashq. Gaplar tarkibid an antonimlarni topib , ularning antonimlik xususiyatlarini tushuntiring .

1. ...U o‘ziga kerakli odamlarni omon saqlab qoldi, keraksizlarni, aksincha, lagerga jo‘nataverdi. (Yu. Semyonov.) 2. Qani, aytinglar-chi, o‘t bilan suv sherik bo‘la oladimi? (I. R.) 3. Hazratov bundan tashida xursand bo‘lsa ham, ichida xafa. (I. R.) 4. Tojixon dalada ham yigit, ham qiz bo‘lib ishladi. (Mirm.) 5. Va lekinko‘zlarim oldida birdan, Ochdi poyoni yo‘q yaqin-yiroqni. (Z.) 6. Men qancha mahorat bilan yolg‘onni chinqilishga urinmay, Munira buni sezdi... (U. N.) 7. Erksiz o‘tgan bir yildan Ozod on yaxshi! (SH.) 8. Ikki tomono‘rtasida beomon jang bormoqda, u yomonlik ila yaxshilikdir. (Mirm.) 9. —Obod shaharni xarob qilaylikmi yokixarob shaharni obod qilaylikmi? ‖ — debdi. (—Gulpari ‖ .) 10. Endi siz menga og ‘a, men esa sizga singil bo ‘libqolibman. (—Gulpari ‖ .) 11. Zorimiz bor, zo ‘rimiz yo ‘q, jo ‘nashingiz mumkin. (Mirm.) 12. Istibdod o ‘ligu, Iste[164]‘dod tirik. SHoh ijod tirigu SHahanshoh o‘lik. (Z. O.)

2-mashq. Antonimlarni aniqlang. Avval to‘la antonimlarni, so‘ngra yarim antonimlarni ko‘chiring.

1. Meva-chevaning ho‘lidan qurug‘i, qurug‘idan ho‘li ko‘p. (I. R.) 2. U yosh-yalang, qari-qartangodamlarga ko‘nikkan... (SH. Toshmatov.) 3. Suyunganimdan emas. Kuyunganimdanaytyapman. (S. Kalmikov.) 4. Sevgan

ko‘ngil shoh bo‘lurmi va yoki gado, Bila olmadim. (E. V.) 5. U bilanSaodatxon necha yil birga yashadi, shodlikni ham, qayg‘uni ham birga totdi. (S. Z.) 6. SHu kunikechqurun aka-uka ona oldida bu haqda yana gaplashishdi. (Mirm.) 7. SHoir, sizga ijozat yo‘q, kulolga bor! (Mirm.) 8. Ko‘proq emas, kamroq yermiz. Hozir kulollik ham yomon emas. (Mirm.) 9. Nima, g‘unan bo‘lib sakrab yursam sog‘u, mundoq yotsam kasalmi ? (Mirm.) 10. Ho‘l tarashani qalab Pishirdi yog‘liqyovg‘on. (Mirm.) 11. — Kecha yoz edi, bugun — qippa- qish! (U. N.) 12. Goh juda uzun, goh jud a kalt a kiyimkiyardi. (R. Zahir.) 13. Yeru ko‘kni tutib ketgan xitoblar. Maguaning ovozini bosib yubordi. (F. Kuper.)

3-mashq. O‘qing. Antonimlarni aniqlang; avval o‘zakdosh, so‘ngra turli o‘zakli antonimlarni ko‘chiring.

1. Aql turg anda nechuk qurol- la gaplashmoqlik ?! Nodonlar yoqalash ar, donolar til topish ar . (Mirm.) 2. Bunda yondosh shodlik va qayg‘u, Bunda yondosh visol va firoq . (E. V.) 3. Dadashev a haqli, Dadashev nohaq, — dediHazratov . (I . R.) 4. Kishi qahri toshni yorganday, mehri temirni eritadi. (SHuhrat) 5. Odamlarg a pok ko‘z bilanqar as ang pok, nopok ko‘z bilan qar as ang nopok ko‘rinadi. (S. Z.) 6. Laylakning ketishini em as, kelishinikutishadi. (N. S.) 7. Borar ikki yo‘lovchi — Biri — tong , Biri —oqshom . (Mirm.) 8. Rahbarxonning onasi ... xursand-noxursandligi nom a‘lum vaziyatd a o‘tirar edi. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 9. —Salom , o‘g‘lim, kel ‖ ,—dedi. — Dushman em as , el ‖ ,— dedi. (H. O.) 10. Bor mening ko ‘zlarg a ko ‘rinm as yo ‘rg ‘am, Kiftida goh shodm an, gohida purg ‘am. Bilolmam manzilim yaqinmi yiroq, yo ‘rtadi uyqimu uyg`ogimda ham. (Z. O.) 11. Uning gaplarid anbama‘ni va bem a‘ni jih atl arni aql t arozisid a sinchiklab tortdi. (K. Moiseeva.) 12. Daryo yuzi tinch oqar , Notinchbo‘ladi tubi . (Mirm.) 13. O‘g‘il- qizlari davlatid a birini yechib , birini kiyib yurg an kampirlarning ham uyda o‘tirishg a yuzi chidamay qoldi. (S. Z.) 14. Ularning xotirasi turli - tum an ishl ar bilan band bo‘lib, darrov nozarurid an z arurini, keraksizidan kerakligini ajr at a olm ay qoldilar. (S. B.)

4-mashq. Quyidagi so‘zlarning antonimlarini toping.

Yog‘liq, sog‘lom, og‘a, botirlik, mehnatkash, yosh-yalang, qayg‘u, ixtiyoriy, ko‘pchilik, yiroq, samo, istiqbol, aziz, progressiv, issiq, qo‘y, yumshoq, dono, zahar, aqlli, ko‘p, kirmoq, arzon, yashirin, to‘g‘ri, past, quyi, ibtido.

5-mashq. A ntonimlarni aniqlang. Ular ichidan juft so‘z hosil qilish mumkin bo‘lganlariii ajratib yozing.

N a m u n a: oq-qora.

1. Toshkentdan komissiya kelarmish Oqni oqqa, qorani qoraga chiqaradigan komissiya. (I. R.) 2. Mushketyorlarning g‘alabasi yoki mag‘lubiyati ularga cheksiz quvonch baxsh etar yoki chinakam qayg‘uga solardi. (A. Dyuma.) 3. Rais bo‘lsa tun ham, kun ham o‘yladi. (S. Z.) 4. Traktorchi bo‘lsang to‘g‘riko‘chani qo‘yib, egrisiga burilganing nimasi? (A. Muhiddin.) 5. Endi kunduzlarigina emas, kechalari ham nevaqtgacha dars tayyorlardim. (N. S.) 6. Pok dilni nopok qilmasin! (A. Muhiddin.) 7. Yovning tashida bo‘lguncha ichida bo‘l, degan gap bor. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 8. Ko‘hna dunyo shu qadarqadimiyki, uning ibtidosiga ham, intihosiga ham yetib bo‘lmaydi. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.)9.

Siz ko‘ngil qo‘ygan ayol dono yo befahm, sohibjamol yo xunuk, badavlat yo kambag‘al bo‘lsa ham, uningsizga baxsh eta oladigan yoki bundan sizni mahrum qila oladigan bitta narsasi bor: bu — uning yuragi. (T. Drayzer.) 10. CHarx tepayotgan akasi yoniga kelib... turdi. Ukasi ruhining pastligi Mirsaidga ham o‘tdi. (Mirm.) 11. Gazlar... zo‘r bosim kuchi bilan suyuq va quyuq holatda snaryadlarga joylanardi. (N. T.)

6-mashq. O‘qing. Quyidagi bosh qismi berilgan maqollarning qolgan qismini topib to‘ldiring, unda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning antonimi qatnashgan bo‘lsin.

1. Erta ekkan xirmon qilur, ... 2. Yaxshi do‘st jon ozig‘i, 3. Donoga Ish shonu shuhrat, ... 4. Mardo‘zar, ... 5. Aqlli o‘zini ayblar, Kishi Yurtida shoh bo‘lguncha, ... 6. Ko‘z qo‘rqoq, ... 7. Ilmsiz biryashar, 8. Kengga keng dunyo, ... 9. Egri ozadi, ...

7-mashq. Bosh qismi tushirib qoldirilgan maqollarni o‘qing va mazmunig a qarab ularni to‘ldiring . Berilganqismdagi ajr atib tagiga chizilgan so‘zlarning antonimi to‘ldirilg an qismda qatn ashgan bo‘lishiga e‘tibor bering.

1. ... – qish xazinasi. 2. ..., arzon beillat bo‘lmas. 3. ..., yo‘q maqtansa chopilar. 4. ..., ishniko‘p ko‘zla. 5. ... mehr bilgan yot yaxshi. 6. ..., ona ko‘rgan to‘n bichar. 7. ..., keyin so‘yla. 8. ..., aql – do‘st. 9. ..., nomard to‘zar. 10. ... – sichqonning tirigi.

4-MAVZU

LUG’AT TARKIBIDAGI SO’ZLARNING KELIB CHIQISHI, IJTIMOIY GURUHLAR TOMONIDAN QO’LLANISHI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI. LUG’AT TARKIBINING FAOLLIGI YOKI NOFAOLLIGI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI; LUG’AT TARKIBINING HISSIY-TA’SIRIY BO’YOQDORLIGI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI.

Lug`at tarkibidagi so`zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo`llanishi jihatidan Tavsiflanishi

Talabalar bilimi quyidagi savollar asosida aniqlanib va mustahkamlanib baholanadi:

1. O‘zbek tilining leksik qatlamini tushuntirib bering.
2. O‘zbek tili leksik qatlamining tarkibini tushuntirib bering.
3 .Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar deganda qanday so‘zlarni tushunasiz?
4. Eskirgan so‘zlar qanday so‘zlar?
5. O‘z qatlam deganda nimani tushunasiz?

6. O‘zlashgan qatlam deganda qanday leksik birliklar nazarda tutiladi?
7. Faol va nofaol qatlamni misollar asosida tushuntiring.
8. O‘zbek tili leksikasini tarixiy jihatdan tasniflab bering.
9. O‘zbek tiliningboyish manbalarini sanab bering.
10. Arab, fors-tojik, rus tillarining o‘zbek tiliga ta‘siri xusuida o‘z mulohazalaringizni tushuntirib bering.

Savol-javob jarayonida mavzu materiallarining izchilligi va uzviyligiga amal qilinadi, talabaning javobini ikkinchi bir talaba tomonidan to‘ldirilishi uchun imkoniyat yaratib beriladi. Talabalar faolligini ta‘minlash maqsadida har bir talabaning javobi o‘z vaqtida belgilangan ballar asosida baholanib boriladi.

1-mashq. O ‘qing. Ajratib ko ‘rsatilgan so ‘zlarni ―umumxalq leksikasi ‖ va ―dialektal leksika ‖ ga ajratib yozing. Dialektal so ‘zlar ma ‘nosini tushuntiring, ularning adabiy tildagi shaklini ayting va yonma-yon yozing.

1. ...Bozordan uch-to‘rt hovli naridagi, biqinida bir tup zardoli o‘sgan katta ko‘k darvoza bizniki. (E.A‘zamov) 2. Savat ko‘targan yigit parmanchak terib, o‘rmon cheti bilan kelaverdi. (Yo.SH.) 3. Men yugurib borib non sandiqdan nonparni olib keldim. Buvim yasagan patir-kulchalarga nonpar bosa boshladim. (S.Nurov) 4. Umarxo‘ja boy ... katta bazm berib, mushakbozlik qildirgan edi. O‘shanda SHamsiddinim yo‘lga kirmagan buvak edi.(S.Ahm.) 5. Qandolatfurush yarim kilo pechak qand tortib uzatdi. (Yo.SH.) 6. Faner bermasa, vassa qilarsiz. (P.Q.) 7. – Taladan kelganimda shatta turgan edi-ya! – Kampir chiroqsiz xonada gugurt chaqib, qimiz kadini qidirar edi.(P.Q.) 8. Men seni injitmayman, Va lekin tinchitmayman. (M.Boboev) 9. Ma‘lumki, tun bilan kunduz tenglashgan tongda ko‘katlar bulturgi ildizlaridan bosh ko‘tarib chiqadi, daraxtlar pindig‘i bo‘rtadi, tabiat uyg‘onib, yer ko‘pchiydi. 2. Bozordagilar: «Jinoyat amakimdi eshagining ham aytgani aytgan,

2-mashq. Q. Hikmatning «Bobo dehqon hangomasi» poemasidan olingan parchani o‘qing, polizchilikka oid so‘zlarning ma‘nosini izohlang

Paykal to‘la «Gulobi»,
«Gurvak»lari karsillar.
«Qari qiz»i xuddi qand,
«Oq novvoti» karsillar. Men ham asal bo‘ldim deb,
«SHakar poya», «Qora qosh», Azza-bazza pushtadan Ko‘tarishib turar bosh.

3-mashq. Jyulg‘ Vernning «Suv ostida 80000 kilometr» romanidan olingan quyidagi parchani o‘qing, terminlarni aniqlab, ularning qaysi sohaga oidligini ayting. So‘z va terminning farqini izohlang

.— Mana bu yoqqa qarang, professor, — deb so‘z boshladi kapitan Nemo xona devorlarida osig‘liq turgan asboblarga ishora qilib. — Bular «Nautilus»ni boshqarishga xizmat qiladigan apparatlar. Bu yerda ham salondagiday, bular hamisha mening ko‘z oldimda bo‘ladi va «Nautilus»ning okeanning qaerida turganini va yo‘nalishini aniq ko‘rsatadi. Mana bu «Nautilus»dagi havo haroratini ko‘rsatadigan termometr; bunisi barometr, u havo bosimini aniqlaydi va bu bilan havoning o‘zgarishini oldindan aytib turadi, gigrometr atmosferada namlik miqdorini ko‘rsatadi; kema yo‘nalishini ko‘rsatadigan kompas, quyosh balandligiga qarab joyning kengligini aniqlaydigan sekstant; geografik uzunlikni belgilaydigan xronometrlar; nihoyat, kunduzgi va tungi kuzatuv trubalari; «Nautilus» suv sathiga chiqqanda, men bular yordamida ufqni kuzataman.

—Bu asboblarning hammasi, — deb javob berdim men,— kemachilikda ishlatib kelinmoqda va bularning hammasi menga ilgaridan tanish. Biroq mana bu yerda

menga ma‘lum bo‘lmagan allaqanday asboblar bor. Mana bu harakat qilib turadigan milli katta tsiferblat manometr emasmi?
—Ha, bu manometr. U kema tashqarisidagi suv bosimini o‘lchaydi va bular «Nautilus»ning suvga qancha cho‘kkanini ko‘rsatib turadi.
—Mana bular zondlarmi?
—Ha, faqat yangi konstruktsiyadagisi. Bular turli suv qatlamlaridagi haroratni o‘lchaydigan termometrik zondlar.
4-mashq. Quyidagi so‘z va terminlar qaysi sohaga oidligini aniqlang.
SHulardan ikki sohaga oid so‘z va terminlarni ko‘chiring.
Argument, afilliya (bargsizlanish), oqsil, g‘uncha, miqdor, kattalik, noto‘g‘ri kasr, toq son, nomerlash, proekqiya, astronavtika, teleskop minorasi, oy tutilishi, fonema, akustika, meteor nurlanishi, gultoj, novda, vilt, cheksiz yechim, ehtimoliy xato, sig‘im, grafik usul, punktuatsiya, semasiologiya, o‘zak, kabisa yil, kosmogonik gipoteza, Katta Ayiq, vaqt, absolyut vaqt, negiz, so‘z yasovchi affiks, bo‘luvchi, yopiq chiziq, tenglik ishorasi, logarifm, urg‘u, milliy til, bo‘g‘in, tovush, leksikografiya, kometa, meteor, oy o‘rog‘i, assimilyatsiya, moslik, elliptik nuqta, dukkak, yon ildizlar, vegetativ hujayra, Omega tumanligi, bachki, kurtak, gerbariy, yulduzsimon yadro, turkiy tillar, ko‘chirma gap, kallak, g‘allasimonlar, nektar, moslashuv, harakat nomi, palak, soyadagi barglar, o‘sish nuqtasi, to‘qima, qalamcha

Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.
(Talabalarmashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to‘liq va mukammal bo‘lishi o‘qituvchi va talabalar tomonidan qatg‘iy nazoratga olinadi.)
1-mashq. O‘qing. Berilgan so‘zlar o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi asosiy qatlamlarning qaysilariga oid ekanini aniqlab ayting.
1.Sut, mayiz, un, mastava, sho‘rva, qatiq, patir, sabzi, mosh, turshak, chuchvara, bodom, palov.
2. Biz, siz, u, hech kim, har narsa, har kim, kim, qancha, necha, bu, o‘sha, o‘zim.
3. Opa, singil, uka, buvi, buva, momo, bobo, jiyan, ada, oyi.
4. Yomg‘ir, qor, shudring, bulut, suv, havo, muz, qir, tog‘, adir, jar, soy, jilg‘a, yer, osmon, o‘rmon, quyosh, oy, yulduz.
5. Ko‘z, qosh, bosh, oyoq, dum, tumshuq, tuyoq, teri, o‘pka, jigar, buyrak, ichak, tirnoq.
6. SHirin, achchiq, qizil, ko‘k, sariq, katta, kichik, uzun, kalta, silliq, ...
7. Kelmoq, ketmoq, ishlamoq, bormoq, yozmoq, o‘qimoq, aytmoq, yugurmoq, sakramoq, ...
8. El, yurt, xalq, mamlakat, davlat, jamoa, mahalla, millat, do‘st, o‘rtoq,...
9. O‘n besh, o‘ttiz, ellik, yetmish, to‘qson, yuz, ming, million...; so‘m, tiyin, metr, kilogramm, litr, gektar, kilometr...
10. Odam, hayvon, bola, ot, xotin, qush, dehqon, chorva, echki, quyon, parranda, tuya, mol, ilon, eshak, chol, kampir...
11. Ko‘rpa, gilam, poyondoz,yostiq, ko‘ylak, ro‘mol, do‘ppi, dasturxon, choynak, qoshiq, igna, mahsi, kalish...
12. Daftar, kitob, qalam, ruchka, qog‘oz, televizor, telefon, radio...

13. Mashina, poezd, avtobus, samolyot, traktor...
14. Bolta, tesha, ketmon, pichoq, qaychi, o‘roq, bolg‘a, qozon, ...
So`zlarni qayta o`qib, umumturkiyva o`zbekcha so`zlarni ko`chirib yozing. Bu topshiriqni bajarishda ―O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati ‖ dan foydalaning.
2-mashq. O‘qing. Ruscha-internatsional so‘zlarni topib ko‘chiring.
I. Maqbara, klient, shifoxona, shogird, simvol, tuman, trest, g‘oya, firma, gol, ehson, kamera, konspekt, dilkash, zukko, industriya, karnay, karniz.
II. 1. Ishim ustidan rahbarlik qilishga professor Odil Jo‘raev rozilik berdi. (U.N.) 2. O‘sha dorini tezdan topib, ustaga yetkazish uchun aptekaga bordi. (H.N.) 3. Mehr-oqibatli komandirlarni omilkor bog‘bonga o‘xshatsa bo‘ladi. (H.Tojiboev) 4. Injenerning, akademikning bilishi shart bo‘lmagan sohalar bor. Yozuvchining unday sohasi yo‘q. (As.M.) 5. Bosh buxgalter ham choyxonaga chiqib ketgandi.
6. Mayor sabrsizlanib har yoqqa tikildi. (O.)
3-mashq. Quyidagi ruscha-internatsional so‘zlarning o‘zbek tilidagi sinonimlarini topib, namunadagidek yozing.
Namuna: progressiv – ilg‘or.
Pedagog, baza, konkret, fraza, affiks, fakt, syujet, agitatsiya, funktsiya, lingvistika, aktiv, avtor, abst

Lug`at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi; lug`at tarkibining hissiy-
Ta`siriy bo`yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi

1-mashq. O‘qing. Gaplarda ishlatilgan jargon va argolarni aniqlang, qanday ma‘noda qo‘llanganini ayting.
1. Zamon bunaqa bo‘lishini bilganimda hamma narsani sotib, shundan qilib qo‘ymasmidim, —boy tagidagi xurjunga ishora qildi, — uch mingta buxoriy xurjunning bir chekkasida kelyapti. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 2. — Belni baquvvatrok, qilib oliptimi? — CHakki emas, uch mingdan ortiq tirigi-yu, uch ming o‘ligi bor. — «O‘ligi» dedingizmi? — O‘sha Buxoroning qizili-da, — dedi cho‘zib O‘rmonbek xuddi pashmak holva yeb tamshangandek. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 3. — Xo‘sh, agar ikkita oq qirg‘oqdan bo‘lsa? — Ikkita yuz so‘mlik demoqchisan-da, a? yomon emas-a!.. (M. G.) 4. — Nilufar, tur o‘rningdax deyapman! — Nima qilaman turib? Nima ishingiz bor? — E, bomisan, danap? — dedi Karomatxon Nilufarni gij-gijlab va menga qarab: — Ana, pattangizni oldingiz, kalampo, endi noyi bo‘ling! (U. N.) 5. Mullajiring bo‘lmasa, har qanaqa mavsum ham befayzu belutf ko‘rinadi. (R. Zahir.) 6. Burchakka ilib qo‘yilgan plashchning cho‘ntagidan g‘ilofli ustara va quyidagi mazmundagi g‘alati xatni topib oldik: «Kecha Mitkani xitlar ilintirishibdi, TSigan sotgan bo‘lishi kerak. Qaqir-ququrlar xitoynikida». (L. SH.)

2-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma‘nosini izohlang.
1. Bo‘y desangiz — bir guli nihol, Dilni o‘rtar yonoqdagi xol. (O.) 2.
3. Bir podsho shikordan qaytayotib tashna bo‘libdi va bir hovli oldiga kelib suv so‘rabdi. («Gulpari».) 4. Oftob mashriqdan chiqib o‘lkamizni nurafshon qildi. (S. Kalmikov.) 5. Diydalarda yosh qalqidi. (S. Kalmikov.) 6. Mulla Mirtojiga o‘xshaganlar zohirda tishlarining oqini ko‘rsatib yurgan bo‘lsalar-da, botinlarida

g‘azabnafrat qaynab toshardi. (N. S.) 7. Ash‘oriy kitoblarga ixlosmand bo‘lgan Husayn yangi «Devon» yoki «Bayoz»lar toppish ishtiyoqida saxxof do‘koniga tez-tez kelib turardi. (K. Moiseeva.) 8. Hatto Aburayhonga birinchi da‘fa muqobil kelganda ham, o‘zini bunchalik yo‘qotib qo‘ymagan edi. (K. Moiseeva.) 9. Zarb, taqsimdan bergan vazifalarni tez-tez ishlab berdim. (N. S.) 10. Satranjning ham vatani Hindiston ekanligi jumla olamga ayon-ku! (K. Moiseeva.) 11. Siz yoshlarimiz fabrika-zavodlar qurishni bilmog‘ingiz, «osmon poezd»lar yasab uchmog‘ingiz kerak. (N. S.) 12. Har toifa xalq va qavm olimlari bitib qoldirgan kitoblarni o‘qib chiqish lozim bo‘ladi. (K. Moiseeva.) 13 Aburayhonning falakiyot va riyoziyot bobidagi ilm-hunarlari Xorazm saltanati uchun mislsiz foyda keltirajagiga imonim komil. (K. Moiseeva.)

14. Qarag‘aylar uzra yoyilgan, ko‘k gumbazida jilva qilayotgan ol rang shafaqning nafis bo‘yog‘i uning qirmizi yonog‘i tusichalik tiniq va dilrabo emasdi. (F. Kuper.) 15. Biringiz buyuk munajjim bobolaringiz Ulug‘bek poyoniga yeta olmagan falakiyot ilmini nihoyasiga yetkazarsiz. Oralaringizdan Beruniylar, Ibn Sinolar, zamon muhandislari, ulug‘ tabiatshunoslar yetishib chiqar. (N. S.)

3-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Nofaol so‘zlarni topib, ma‘nolarini izohlang turini aniqlab ayting.

1. ...Rang-barang kiyingan otliqlar uning orqasidan yurib borar, tug‘ yoki yalovlar baland ko‘tarilgan edi. (S. B.) 2. ...Yuz minglab yosh dehqonlar kerak edi, biroq yoshlar so‘qa dastasini ushlashni unutgan, ... (S. B.) 3. Qishloqda bir hakim yo‘q, Ko‘pchilnkni dard ezgan. (Q. H.) 4. Mulla Abdishukur, ertaga ojizamizga to‘y keladi, marhamat qiling, durustmi? (O.) SHodlikdan bir zumdayoq Dudoqlar ketdi yonib. (Mirm.) Yorg‘uchoq tortish ham, qo‘rg‘oshin kuydirish ham uning ishi. (Mirm.) 7. Temurning orqasidan... choparlari, mirzalari, tilmochlari va eng keyinda xizmatkorlari kelar edi. (S. B.) 8. Nasriddinbek gilamga sochilgan satranj donalarini bosib, pastga tushdi. (Mirm.) 9. Boychechaklarning xushbo‘y, sezilar-sezilmas hidini nayning yoqimli sasi bilan uchirib keldi. Qilich esa otini olti chaqirimcha bir tusda choptirib borib... darvozaxonaga kirdi. (S. B.) 11. Sizlarning bog‘laringizdagi zardoliga chiqishga chiqib, tusholmay yig‘lab o‘tirganlarimda necha-necha bor tushirib qo‘ygansiz (B.Daminov.) 12. Olimshoh yetti mamlakat hoqonidan yiliga ikki martadan xiroj olar ekan. («Gulpari».)

4-mashq. Gaplarni o‘qing. Arxaik va tarixiy so‘zlarni aniqlab, ikki ustun shaklida yozing.

1. Qo‘llarida aso, keksalar, Yuzlarida ziyo, keksalar. (E. V.) 2. Bu maktabxona bo‘lib, mullavachchalar haftiyak yodlashardilar. (P. T.) 3. Besh paysa yemni ayagan kezlaringda, qor kurab, ildiz topib berdim ularga. (I. R.) Ishlar zimdan bitsin, sezmasin ag‘yor. (Ya.) 5. Tirak bo‘ldi — loy iylab, charx tepdi, yorg‘uchoq tortdi. (Mirm.) 6. Mushtlashish, ur-yiqitni mirshablar ham bosolmadi. (Mirm.) 7. Abduvahob tezgina chipta oldi va yo‘lovchilarga qo‘shildi. (SH. Toshmatov.) 8. Bo‘lmasa sizning o‘g‘lingizga o‘xshab shayton arava minsinmi?... (H. N.) 9. – Sening ishing kolxozimizning sekretari mulla Muqimning anketa to‘ldirishiga o‘xshaydi. (A. Q.) 10. Kemtik tishday omochga muhtoj dehqon bechora. (Q. H.) 11.

Aldab qo‘yadi deb menga ishonmaydi, bir soat savdolashib, to‘rt pul hayon ko‘radi. (S. B.)

5-mashq. I. Gaplarni o‘qing. Tarixiy so‘zlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, shu so‘zlar tagiga chizing. Arxaik so‘zlarning sinonimlarini toping.

1. Mirzo Ulug‘bek ilmi riyoziyot va handasa borasida ust-ustiga savollar berdi. (O.Yo.) 2. Kichkinakichkina, shiftiga bosh tekkudek do‘konlarda baqqollar, attorlar, bazzozlar, vopurushlar, poyakilar o‘z mollari bilan savdo qilishadi. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 3. Yigitlarni to‘playver, yuzboshi qilib qo‘yaman. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedav.) 4. Tun yarmidan oqqan, olis qirlar ortidan ko‘tarilgan zaifgina hilol shu‘lasida borliq sokin, osuda uyquga cho‘mgan. (O.Yo.) 5. Bugun bu yerga politsmeyster, pristav, qozi, mingboshilar, ellikboshilar kelib, xalqqa va‘z-nasihat qilmoqchi. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 6. ...Mana paxta orqasida o‘zi yonar chiroqqayam yetishdik. (O.) 7. Niyoz harifining qo‘lini qattiq burab orqasiga qayirdi. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 8. Zavod sizga bo‘nak beradi. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 9. Kelasi bahorda sherkatning yerini o‘t omoch bilan haydashsa kerak. (H. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 10. Bu amirlarga ishonma, o‘g‘lim! Ularni sodiq bo‘lsin desang, qilichingni ilkingda mahkam ushla.(O.Yo.)

II. Badiiy asarlardan tarixiy va arxaik so‘zlar ishtirok etgan ikkitadan gaplarga mis ollar topib yozing, ma‘nolarini izohlang.

5-MAVZU

LUG’AT TARKIBIDAGI AJRALMAS BIRIKMALAR – FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING MA’NO VA TARKIB JIHATDAN TAVSIFLANISHI. LEKSIKOGRAFIYA (LUG’ATSHUNOSLIK).

Lug`at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma`no va tarkib jihatdan tavsiflanishi.

Talabalarning mavzu yuzasidan egallagan nazariy bilimlarini aniqlash va baholash maqsadida quyidagi savollar asosida savol-javob amalga oshiriladi: ((Bunda o‘qituvchi asosiy e‘tiborni talaba nutqiningravonligiga, shevalardan xoli bo‘lishishiga, javoblarning ilmiyligi va mantiqan to‘g‘riligiga hamda har bir ifodalanayotgan fikrning aniq misollar yordamida izohlanishiga qaratiladi).

1.Leksikologiya bo‘limining obg‘ekti va vazifalarini tushuntirib bering.
2.Ibora deganda qanday til birligi tushuniladi?
3.Iboralarning turlarini izohlang.
4.Leksik birliklarni tushuntiring.
5.Sinonim iboralarni misollar asosida izohlang.
6.Antonim iboralarni misollar asosida tushuntirib bering.
7.Omonim iboralarni misollar asosida tushuntiring..
8.Frazeologik chatishma, qo‘shilma va birikmaning farqini tushuntirib bering.
9.O‘zbek tilining boyish manbalarini sanab bering.
10.Ibora bilan so‘zning o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlarini izohlang.

Savol-javob jarayonida mavzu materiallarining izchilligi va uzviyligiga amal qilinadi, talabaning javobiniikkinchi bir talaba tomonidan to‘ldirilishi uchun imkoniyat yaratib beriladi. Talabalar faolligini ta‘minlashmaqsadida har bir talabaning javobi o‘z vaqtida belgilangan ballar asosida baholanib boriladi.

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarningto‘liq va mukammal bo‘lishi o‘qituvchi va talabalar tomonidan qatg‘iy nazoratga olinadi.)

1-mashq. Gaplarni o‘qib, frazeologik birikmalarni aniqlang, ma‘nolarini izohlang.

1. Abdurahim Toshmatovich tanqiddan xafa bo‘lgan ekanlar shekilli, trestdan kelganlar bilan ham xayrma‘zurni nasiya qilib, quyon bo‘ldilar. (E.Nosirov) 2. Bosmachilik harakatidan ko‘z-quloq bo‘lib turmoq uchun Keyli Farg‘onada qoldi. (S. Kalmikov.) 3. Ish men kutgandek yakunlanmadi. Tarvuzim qo‘limdan tushib ketdi. (N.Yoqubov) 4. Qo‘rquvdan yuragini hovuchlab yana anchagacha kiprik qoqmay yotdi. (SH. Siddiqiy.) 5. Ularni ko‘rib Afshin hang-mang bo‘ldi-yu, tiliga muhr bosildi. (J. Zaydon.) 6. – Bu yog‘i haqida ertalab bosh qotiramiz. (SHuhrat) 7. «Hozircha ishlab turadi, — dedi Yo‘ldosh aka, —durustroq bilimdon kishi topilgach, pattasi qo‘liga tegadi». (K. Nu‘mon, A. SHorahmedov.) 8. Kabinetni ko‘rib, Saidaning og‘zi ochilib qoldi. (A. Q.) 9. Oyog‘ingni qo‘lingga olib g‘izilla. (R. Zahir.) 10. Birovning dilini siyoh qilmay yuradigan kun ham kelarmikin? (N. Biryukov.) 11. – Voy, gapga tushib ketib vaqtni tuya qilibmiz-ku! (SHuhrat) 12. Oyog‘idagi tuflisining ohori to‘kilibroq qolgan, demak, bitta tufli ham xarid qilish lozim. (F. Musajonov.)

2-mashq. Frazeologik iboralarni topib, turlarga ajrating; har bir turga oid ikkitadan gapni ko‘chirib, ma‘nolarini izohlang.

1. Arava bo‘lsa almisoqdan qolgan, yana sinibdi. (O.) 2. Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi... (S. Abd.) 3. ...Ishqilib baraka topsin shu doktorlar, boshing yostiqqa yetganda joningga ora kirishadi. (H. N.) 4. Yo‘qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi. (As. M.) 5 Qizlar har zamon ishdan bosh ko‘tarib, bir-biriga gap otishadi. (S. Ahm.) 6. Qorasochning dili siyoh bo‘lib, birdan xo‘rligi keldi. (S. Azimov.) 7. ...Amalda ishni izdan chiqarib yuboribsiz! (S. Nazar.) 8. Kavushini to‘g‘rilab qo‘yish kerak: qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi. (As. M.) 9. Hoji xola ko‘zi ilinib, endi xurrak ota boshlagan edi. ... (M. I.) 10. ...Uning ko‘zlari qinidan chiqayozdi. (O.) 11. — Murodovaga ma‘qul. Ammo Zunnunov ikki oyog‘ini tirab turibdi. (I. R.) 12. Qodir kirganda, u kitobga mukka tushgan edi. (SHuhrat)

3-mashq. O‘qing. Frazeologik iboralarni topib, ma‘nolarini izohlang; So‘ngra ularning sinonimlarini topib, har bir iboradan so‘ng qavs ichida yozib ko‘rsating.

1. Hay-hay, bola, og ‘zingga qarab gapir, to ‘riq qashqa o$_{72}$‘ldi, dedingmi? (.G`G`.) 2. Nusrat uni: —Er tagida ilon qimirlasa biladi ‖ , — der, undan o ‘tdan qo ‘rqqandek qo ‘rqardi. (S. Nazar.) 3. SHu o ‘tirishda ichini mushuk tatalayotganini qayoqdan bilsin u? (S. An.) 4. Uyalmadingizmi davlatning ko‘zini bo‘yagani? (S. An.) 5. ... Qodirning qorong‘i dunyosi yorishib ketdi, labining tanobi qochdi. (SHuhrat) 6. La‘lixonning sha‘niga bir gap aytdi, hammaning tepa sochi tikka bo‘ldi. (S. Ahm.) 7. O‘zining shu yerdaligini bildirsinmi? Yo‘g‘-e.

Tomdan tarasha tushganiday-a? (S. An.) 8. ...CHunonam bir terlaysizki, dardingiz xamirdan qil sug‘urgandek chiqib ketadi. (S. Ahm.) 9. Sal qovog‘ingizni ochib o‘tiring. Odamning kapalagini uchirib yubordingiz-ku, Matlubaxon! (O.Yo.) 10. Maktabga taalluqli nima masala bo‘lsa aralashadi. Lekin hech kim:

—Nega sen hamma narsaga chovlingni solaverasan? ‖ demaydi. (SHuhrat)

4-mashq. O‘qing. Frazeologik iboralarni topib, ma‘nolarini izohlang. O‘zaro antonim sifatida qo‘llangan frazeologik iboralarni aniqlab, ularni juftlab ko‘chiring. 1. Sodiqning fikri ravshanlashib, o‘ylay ketdi: CHuxanov ham tergovchi, bu ham tergovchi. Ikkalasi ikki dunyo. Biridan kishining ko‘ngli suv ichadi, ikkinchisidan ensang tosh qotadi. (SHuhrat) 2. Sudg‘yaning dunyoda o‘g‘li borligidan qalbiga iliq nur yugurgani bilan ko‘ngliga qora soya tushib, xijil edi. (SHuhrat) 3. Sobir bilan uning o‘rtasidan shu kunlarda ola mushuk o‘tganini yaxshi bilishmasdi. (H.N.) 4. U dashtdagi qizlar bilan apoq-chapoq bo‘lib ketgan edi. (O.Yo.) 5. Hamma ishlaridan ko‘ngli to‘q bo‘lganidan ikki kun ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketdi. (O‘.Usm.) 6. Kunlar oyog‘iga tosh boylab o‘tar, U maktub yo‘liga intiq ko‘z tutar. (M.Ali)

5-mashq. Badiiy asarlardan frazeologik iboralarga misollar topib yozing, ularning ma‘nolariniizohlang.

Mutaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelganmavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

Namuna: Bosmachilik harak atid an ko‘z- quloq bo‘lib turmoq uchun Keyli Farg‘on ada qoldi. (S. Kalmikov .) Ko‘zquloq bo‘lib turmoq –ibora, xabardor so‘ziga teng.

Leksikografiya (lug`atshunoslik)

Barcha turkiy xalqlar kabi o`zbek xalqining ham lug`atshunoslik bilan bog`liq tarixining dastlabki bosqichi Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asari bilan bog`lanadi. Uning to`liq ism-sharifi Mahmud Ibn-ul Husayn Ibn Muhammad-al-Koshg`ariy bo`lib (tavallud sanasi aniq emas), «Devonu lug`otit turk» asari hijriy 469, melodiy 1076-1077- yil yozilgan. Asarning yagona qo`lyozma nusxasi 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahridan topilgan va u hozirgacha Istambulda saqlanadi. Bundan tashqari alloma tomonidan turkiy tillar sintaksisiga doir «Javohirun nahv fil lug`otit turk» asari yaratilganligi haqida ham ma‘lumotlar mavjud. Biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

«Devonu lug`otit turk», dastlab, 1915-1917 yillarda uch tomlik kitob holida Istambulda, keyinchalik, ya‘ni 1928 yilda esa sharqshunos Brokkelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib Leypsikda nashr qilingan. «Devonu lug`otit turk» asari 1960-1963 yillarda taniqli sharqshunos olim Solih Mutallibov tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilinib, Toshkentda nashr etilgan. «Devonu lug`otit turk» asari faqat leksikografik tadqiqot bo`lib qolmay, unda qadimgi turkiylar tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik, lingvogeografik, dialektologik xususiyatlari haqida ham qimmatli ma‘lumotlar mavjud. Shu bois Mahmud Koshg`ariy turkiyshunoslikning sanab o`tilgan sohalarining asoschisi sanaladi.

Zamahshariy hijriy 467, melodiy 1045 yilning 19 martida Xorazmning Zamahshar qishlog`ida tavallud topgan. Abulqosim Mah-mud Zamahshariy taxallusi bilan arab tilida tilshunoslik, adabiyot-shunoslik, geografiya, hadis va diniy huquq kabi fanlarga doir ellikdan ortiq asar yaratib qoldirgan. Ayniqsa, uning «Al- mufassal fi sa‘at il-i‘rob», «Fleksiya san‘ati haqida mufassal kitob» ma‘nosini bildirib, bu asar (1121 yil Makka shahrida yozilgan) arab tilining grammatikasini o`rganishda muhim qo`llanma sifatida sharq va g`arbda mashhur bo`l-gan. Zamahshariyning xorazmshoh Alouddavla Abdulmuzaffar Otsiz sharafiga bag`ishlab 1137 yilda yozilgan «Muqaddimat-ul adab» (Adabiyotga kirish) asari, garchi adabiyotshunoslikka doir bo`lsa ham, tilshunoslikning morfologiya, leksikologiya va leksikografiya sohalariga daxldor qimmatli amaliy va nazariy mulohazalar mavjud. Zotan, besh qismdan tashkil topgan bu asarda otlar, fe‘llar, bog`lovchilar, otlarning turlanishi, fe‘llarning tuslanishi kabi masalalar xususida bahs yuritilgani holda, o`sha davr arab tilining iste‘molda bo`lgan barcha so`zlari, iboralari ham o`z aksini topadi. Bu so`zlaning ma‘nolari va etimologiya-si yetarli darajada keng sharhlanadi. «Muqaddimat-ul adab» fors, chig`atoy(eski o`zbek), mo`g`ul va turk tillariga tarjima qilingan bo`lib, manbalarda qayd etilishicha, uning chig`atoy tiliga tarjimasi Zamah-shariyning o`zi tomonidan amalga oshirilgan. Zamahshariyning bilim-don, zukko allomaligi unga hayotligidayoq butun musulmon Sharqida katta shuhrat keltirgan. Shu bois alloma chuqur hurmat bilan «Arablar va g`ayri arablarning ustozi», «Xorazm faxri» kabi sharafli nomlar bilan ulug`langan.

Alisher Navoiyning «Muhokamatul lug`atayn» asari 1499 yilda yaratilgan bo`lib, bu asar eski o`zbek tilini qarindosh bo`lmagan til – fors-tojik tili bilan chog`ishtirib o`rganishga doir dastlabki leksikografik tadqiqotlardan biri ekanligi bilan qimmatlidir. Adabiyot osmonida Navoiydek yorug` yulduz paydo bo`lgach, uning asarlari asosida ham ko`plab lug`atlar yaratila boshlandi. Jumladan, «Badoi al-lug`at», «Sangloh», «Abushqa» kabi o`nlab lug`atlarning yaratilishi shular jumlasidandir.

O`zbek tilshunosligining zamonaviy bosqichida esa G`.Abdurahmo-nov, Z.Ma‘rufov, O.Usmonov, Sh.Shukurov, A.Hojiyev, R.Qo`ng`urov, Sh.Shoabdurahmonov, S. Mutallibov, Sh.Rahmatullayev, V.Rahmonov, A.Madaliyev, N.Mamatov, S.Ibrohimov kabi olimlar lug`atshunoslik-ning rivojishida o`zlarining munosib hissalarini qo`shib kelmoqdalar.

Ma‘lumki, keyingi yillarda o‘zbek leksikografiyasi katta muvaffaqiyatlari qo‘lga kiritdi. Ayniqsa, 14 tomlik entsiklopediya lug‘ati, 2 tomlik izohli lug‘at, imlo lug‘ati morfem lug‘at, frazeologik lug‘at, sinonim so‘zlarning izohli lug‘ati, antonym so‘zlarning izohli lug‘ati, paremeologik lug‘at, turli sohalarga oid atamalarning izohli lug‘atlari (masalan, paxtachilik atamalarining izohli lug‘ati, matematik atamalarning ozohli lug‘ati kabi)ning nashr etilganligi o‘zbek leksikografiyasining taraqqiyotidan dalolat beradi. Ammo bu lug ‘atlarning asosiy qismi akademik lug ‘atlar bo ‘lib, ular o ‘rta maktab o ‘quvchilari uchun ancha qiyinlik qiladi.

Lug‘atlardan tez va to‘g‘ri foydalanish uchun o‘quvchi zarur malakalarga ega bo‘lishi lozim. Bu malakalardan eng muhimi alfavit tartibini yaxshi bilishdir. Alfavitni yoddan bilmagan o‘quvchi lug‘atdan zarur so‘zni tez topa olmaydi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflardayoq o‘quvchilarning alfavit tartibini yaxshi bilishlariga erishish va izchil kursni o‘rganish jarayonida bu borada muntazam ish olib borishga to‘g‘ri keladi. Lug‘at bilan ishlash uchun zarur malakalardan yana biri ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishdir. Masalan, sininimik qatorlar hosil qilish zarur bo‘lsa, imlo lug‘atiga murojaat etilmaydi. Topshiriqni bajarish uchun qaysi lug‘atga murojaat etish kerakligini bilgan bola, shubhasiz, undan samarali foydalana oladi.

Lug‘atlar turli tuman bo‘lgani kabi, ular bilan ushlash usullari ham rang-barangdir. O‘quvchilarning lug‘at bilan ishlash malakalarini shakllantirish uchun muayyan ish turlari talab etilsa, ularning imlo savodxonligini oshirish uchun tamoman bohsqa, so‘z boyligini rivojlantirish uchun esa o‘ziga xos maxsus mustaqil ish turlaridan foydalanish talab qilinadi.

Entsiklopediya va izohli lug‘atlar bilan ishlash. Entsiklopediya ilm-fanning hamma sohalarini o‘z ichiga olagan yoki biror soha bo‘yicha keng, to‘liq ma‘lumot beradigan lug‘at tarzidagi ilmiy to‘plam yoki qomusdir1. O‘quvchi bu qomusdan barcha jumboqlarga javob topadi, istagan bir tushuncha haqida keng va atroflicha ma‘lumot oladi. Ayniqsa, o‘quvchilar lug‘atini yangi tushunchalar bilan boyitishda, bu tushunchalarni ularning iste‘moliga ko‘chirishda entsiklopediya lug‘atlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili mashg ‘ulotlarida maktab o ‘quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan ―U kim ‑ bu nima‖ (ikki tomlik) entsiklopediyasidan unumli foydalanish mumkin. O`quvchilar ushbu qomusdan foydalanib, ma ‘lum bir sohaga taalluqli tushunchalar ro ‘yxatini tuzishlari, bu tushunchalarning ma‘nosini aniqlashlari, tushuncha va so‘z orasidagi farqni bilib olishlarikerak.

Izohli lug‘atlar ona tili mashg‘ulotlarida tez –tez kerak bo‘ladigan qo‘llanmalardir. Ulardan unumli foydalanish o‘quvchilar nutqini ko‘p ma‘noli so‘zlar, ma‘nodosh, uyadosh va qarama – qarshi ma‘noli so‘zlar, tasviriy ifoda va iboralar, frazeologik birikmalar bilan boyitish, ma‘nosi har xil, shakli bir-biriga yaqin so‘zlar (paroimlar)ni farqlash, so‘zlarning ma‘no nozikligi va qaysi uslubga xosligini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, lug‘atdan foydalangan holda ayni bir so‘zning ham turli ma‘nolarini, ham ma‘nodoshlarini, ham uyadoshlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, Izohli lug‘atlardan foydalanish faqat leksikologiya doirasi bilan cheklanib qolmasdan, tilning barcha sathlarini o‘rganishda ham qo‘llanilmog‘i lozim. Xullas, ona tili mashg‘ulotlarida lug‘atlardan foydalanish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan nutqda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini shakllantirishga yoram beradi. Ayniqsa, ona tili o‘qitishning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, mashg‘ulotlarning foydalilik darajasini oshirishni lug‘atlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

6-MAVZU
MORFEMIKA VA MORFEMA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. O'ZBEK TILIDA SO'Z YASALISHI. GRAMMATIKA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.

Morfemika va morfema haqida umumiy ma`lumot

1. So`zning ma`noli qismlari deyilganda nima nazarda tutiladi?
A) so`zning o`zagi B) so`zning o`zagi, so`z yasovchi va so`z shakli yasovchi qo`shimchalar C) so`zning o`zagi, so`z yasovchi va so`z shakli yasovchi qo`shimchalar D) o`zak va qo`shimchalar so`zning ma‘noli qismlari hisoblanadi.
2. Qo`shimchalarning vazifasiga ko`ra qaysi turi o`zlashma bo`lishi mumkin?
A) so`z yasovchi; B) shakl yasovchi; C) so`z o`zgartuvchi; D) A va B javoblari to`g`ri.
3. Keltirilgan ta`riflardan o`zak morfemaning asosiy xususiyatlari ifodalangan javobni toping.
A) so`zning ma‘noli qismlari haqidagi ta‘limot B) so`zning eng kichik, bo`linmas ma‘noli qismi C) so`zda albatta ishtirok etadigan, leksik ma‘no ifodalay oladigan morfema turi D) mustaqil leksik ma‘no ifodalay olmaydigan, so`zning leksik yoki grammatik ma‘nolarining shakllanishiga xizmat qiladigan morfema turi
4.Keltirilgan ta`riflardan qay biri so`z yasovchi qo`shimchalarning xususiyatini aks ettiradi?
A) so`z birikmasi va gapda so`zlarni bir-biriga bog`lash uchun xizmat qiladigan qo`shimcha turi B) o`zakkka qo`shilib, ma‘noni bir oz o`zgartiradigan qo`shimcha turi C) mustaqil leksik ma‘no ifodalay olmaydigan, grammatik ma‘nolarning shakllanishida xizmat qiladigan qo`shimcha turi D) yangi so`z hosil qiladigan, so`z leksik ma‘nosining shakllanishida qatnashadigan qo`shimcha turi
5. So`z shakli yasovchi qo`shimchalarning xususiyatlari aks etgan javobni toping.
A)yangi so`z hosil qilmay, so`zning ma‘nosiga turli ma‘no nozikliklarini qo`shadi.
B) leksik ma‘no ifodalamaydi. C) so`z ma‘nosiga kichraytirish, erkalash, chegaralash, kamlik, gumon, taxmin kabi turli ma‘nolar qo`shadi. D) A,B,C
6. So`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar necha xil bo`ladi va ular qaysilar?
A) 3 xil: zamon, mayl, nisbat B) 2 xil: unumli va unumsiz C) 3 xil: kelishik, egalik va shaxs-son D) 2 xil: tub, yasama
7. Qaysi qatorda o‘zak+so‘z yasovchi qo‘shimcha+so‘z yasovchi qo‘shimcha+so‘z yasovchi qo‘shimcha shaklidagi so`z berilgan?
A) yamoqchiniki B) sanoqsiz C) pishiqchilik D) barcha so`zlar o`zak va ikki so`z yasovchi qo`shimchadan iborat
8.Qaysi so`z uch morfema (ma`noli qism) dan iborat?

A) rostakam B) loygarchilik C) oshnachilik D) majburiyat
9. Omonim o`zakka omonim qo`shimcha qo`shilishi bilan hosil bo`lgan omonim so`zni belgilang.
A) olma, suzma B) to`lat, kechik C) changi, tinchi D) barcha javoblar to`g`ri
10. Yarqirama sifati qaysi qatorda morfemalarga to`g`ri ajratilgan?
A) yarq – o`zak morfema, -ira va –ma – so`z yasovchi morfema. B) yarq – o`zak morfema, -ira so`z yasovchi morfema, -ma – shakl yasovchi morfema. C) yarqira –

o`zak morfema, -ma – bo`lishsizlik shaklini hosil qiluvchi qo`shimcha. D) yarqira – o`zak morfema, -ma – so`z yasovchi morfema.

4-mavzu

O`zbek tilida so`z yasalishi

1-ilova

Fonetik usul. Bu usulga ko`ra, so`zda fonetik o`zgarish yuz berib, yangi so`z hosil qilinadi. CHunonchi, so`z urg`usining o`rnini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so`z turkumiga doir so`zlar hosil bo`lishi mumkin: yo‘zma – fe‘l, yozma‘ – sifat, su‘zma – fe‘l, suzma‘ – ot, fi‘zik – ot, fizi‘k – sifat, akade‘mik – ot, akademi‘k – sifat va b.

Semantik usul. Bu usulga binoan, so`z ma‘nosida o`zgarish ro`y berib, ma‘nosi boshqa-boshqa, shaklan o`xshash yangi so`z hosil bo`ladi: kun – sutkaning yorug` qismi, kun - quyosh, planeta; ko`k – osmon, ko`k - havorangga o`xshash rang, bir – son, birga, birdan, birda – ravish.

Fonetik va semantik usul hozirgi o`zbek tili nuqtai nazaridan nofaol tarixiy so`z yasash usullari deb qaraladi.

Abbreviatsiya usuli. Bu usulga ko`ra, bir butun holda qo`llanadigan to`g` ri ma‘noli turg`un birikmalarning qismlari har xil yo`l bilan qisqartirilib so`z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo`lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi: BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH - Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi, ATS – Avtomatik telefon stantsiyasi, ToshMI – Toshkent Meditsina instituti, filfak – filologiya fakulteti, akademlitsey – akademik litsey, peduniversitet – pedagogika universiteti va b.

2-ilova

1-mashq. Quyida guruhchalarga ajratib berilgan o`zlashma so`zlarni o`qing. Rus tilidan va rus tili orqali boshqa Yevropa tillaridan o`zbek tiliga o`zlashgan so`zlarni topib, ular etimologik jihatdan qaysi til(lotin, grek, frantsuz, rus) larga mansubligini aniqlab ayting.

1.Avgust, agregat, advokat, akvarelg‘, akkumulyator, aktsiya, ambulatoriya, annotatsiya, argument, arxiv, armatura, artikulyatsiya, aspirant, auktsion, antenna, apparat, assimilyatsiya, atseton, affiks.

2.Alg‘bom, anketa, aktrisa, avans, abajur, attraktsion, ansamblg‘, akusher, amortizator, antrakt, artilleriya, akkordeon, adres, avangard, atelg‘e, argo, alg‘ternativa, avantyura, anons.

3.Abstrakt, avaxta, avtomatika, akrobat, anonim, ariston, avtobaza, aktiv, akula, aliment, aerodrom, ataman, aviatransport, amirkon, affrikat, arbitraj, aristokrat.

4.Akademiya, akustika, aksioma, alebastr, anatomiya, antibiotik, amnistiya, antiteza, aorta, asbest, asfalg‘t, atmosfera, alfavit, amfiteatr, azot, avtograf, analiz, araxis, akatsiya, antonim, apostrof, apteka.

2-mashq. O`qing. Berilgan va ajratib ko`rsatilgan so`zlar etimologik jihatdan qaysi tilga mansubligini aniqlab ayting.

I.Adir, azimut, neft, guzar, muammo, kompleks, beshik, zona, gul, ruboiy, chilla, latifa, ayol, bola, stsenariy, platshakl, mushoira, diyor, disket, anor, armug`on, gavhar, gayka, davo, dabdaba, demokrat.

II.1.Dunyoda oqilona so`z va yaxshi nomdan boshqasi unutiladi. 2. Tarbiyasiz odam jonsiz jasadga o`xshaydi. (—Oz-oz o`rganib dono bo`lur‖) 3. Xalqimiz azaldan o`z mahnaviy qadriyatlari va diniy ehtiqodini yuksak qadrlab kelgan. 4. Milliy tuyg`u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-bobolardan meros qilib olingan. (I.Karimov) 5. Aspirant Davron Bo`ronov kechqurun institutdan uyga qaytmoqda edi. (E.Ahzamov) 6. Vatanimda chin grajdanman, SHudir mening oliy mansabim. (T.Saydaliev)

3-mashq. Quyida berilgan o`zlashma so`zlarni o`qing. Arab tilidan va fors-tojik tilidan o`zlashgan so`zlarni aniqlab, ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Abadiy, avvalo, ajdar, andisha, beandisha, attor, anjir, anjirzor, aziyat, alifbe, alifbo, ark, armug`on, asar, afsun, afsungar, atir, afzal, arg`uvon, arzon, ashyo, ashyoviy, anduh, aqida, aql, ahil, afg`on, astoydil, astar, avra, araz, ariza, armon, anjuman, adolat, ayol, arzanda, ajoyib, ajoyibot, andava, axloq, anor, anorzor, aholi, angishvona, askiya, askar, arra, arrakash, aloqa, amal, amaliyot, andaza, asbob, asil, atrof, afsona, anhana, ayyor, asab, ahlo, andarmon, azmoyish, adabiyot, ahd, ahamiyat.

7-MAVZU
MORFOLOGIYA HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT. SO’ZLARNI TURKUMLARGA AJRATISH TAMOYILLARI.OT. OTNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. OTNING MA’NO TURLARI. OT TURKUMINING SON KATEGORIYASI; OTLARNING NOKATEGORIAL SHAKLLARI.





1. So‘z yasovchi affikslar o‘zakka qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z hosil qiladi.Ular ko‘pincha bir turkumdagi so‘zdan boshqa bir turkumga mansub yangi so‘z yasaydi: yoz, qish – ot || yozgi, qishki - sifat || ish, qon–ot || ishla, qonat-fe’l || supur, o‘r–fe’l || supurgi, o‘roq - ot. Shuningdek, ular bir turkum doirasida so‘zlar yasashi ham mumkin: *-chi: ishchi, xizmatchi, payvantchi* || *- bon: bog‘bon, darvozabon* kabi. So‘z yasovchi affikslar o‘zakka birdan ortiq qo‘shilishi va yangi - yangi so‘zlar hosil qilishi mumkin: bog‘ + bon + lik, ter+im+chi+lik. Bunday yasalish, odatda, negiz asosida yasalish hisoblanadi. Xullas, so‘z yasovchilar o‘zakning lug‘aviy ma’nosini yangilovchi marfemalar bo‘lib, tilning Leksik qatlamini boyitadi.



2. Shakl yasovchilar (lug‘aviy shakl qo‘shimchalari) so‘zning lug‘aviy ma’nosini bir oz o‘zgartib, unga qo‘shimcha ma’no bo‘yog‘i beradigan, biroq yangi so‘z hosil qilmaydigan morfemalardir. Masalan: *kitob**lar**, kitob**cha**, katta**roq**, katta**gina**, besh**inchi**, besh**ov**, uch**ala**, bor**gan**, ishla**moq**, kul**dir**, kel**ma**.* Shakl yasovchilar o‘z tabiatiga ko‘ra so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga qo‘shimcha ma’no bo‘yog‘i berish bilan birga ularning sintaktik munosabatini belgilashda ham o‘ziga xos o‘rnga ega bo‘ladi.



3. So‘z o‘zgartuvchilar (aloqa – munosabat qo‘shimchalari) yyan so‘zning nutqdagi boshqa so‘zga nisbatan sintaktik mu ati aloqasini ko‘rsatuvchi affikslardir. So‘z o‘zgartuvchilar 1) (turlovchi) qo‘shimchalari; 2) egalik qo‘shimchalari; 3) sh (tuslovchi) qo‘shimchalaridan iborat. Masalan: *kuzning havosi, kitobni o‘qidim, daladan qaytayapman* kabi birikmalar tarkibidagi so‘zlar o‘trtasidagi sintaktik aloqa *-ning, -ni, -dan* kabi kelishik, *-i* egalik, *-m, -man* kabi shaxs-son qo‘shimchalari vositasida yuzaga kelgan.

Affikslarning tuzilishiga ko‘ra turi. Affiksal morfemalar tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab bo‘lishi mumkin. Masalan, *gulzor, gulla, aqlli* kabi so‘zlardagi *-zor, -la, -li* sodda affikslar bo‘lsa, *zavqlan, dehqonchilik, isrofgarchilik* kabi so‘zlardagi *-la\n, -chi\lik, -gar\chi\lik* murakkab affikslar bo‘lib, ular tarkiban bir necha sodda affikslarning birikishidan tuzilgan. Demak, murakkab affikslar ikki yoki undan ortiq sodda affikslarning bitta ma’noli qism doirasida birikishi orqali yuzaga keladi.

Unumli va unumsiz affikslar. Affikslar so‘z tarkibida ishtiroki darajasiga ko‘ra unumli, kam unum va unumsiz turlarga bo‘linadi. Bunday affikslarning aksariyat qismi so‘z yasovchilarga taalluqlidir.



Affikslarning shakl va ma'no turlari. Affikslar ham so'zlar singari shakl va ma'no munosabatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Omonim affikslar shakli bir xil bo'lib, ma'no va vazifasiga ko'ra bog'lanmaydigan qo'shimchalardir. Omonim affikslar qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turlari doirasida quyidagi ko'rinishda uchraydi: 1) so'z yasovchilar doirasida: *-ki: tepki-ot yasovchi, kechki*-sifat yasovchi; 2) shakl yasovchilar doirasida: *-ish: oqish*-sifatning daraja shakli, *tortish*-fe'lning harakat nomi shakli;

3) so'z o'zgartuvchilar doirasida: *-ng: olmang*-egalik qo'shimchasi, bording-tuslovchi qo'shimcha; 4) so'z yasovchi va shakl yasovchilar doirasida: *-ma: bo'g'ma- (ilon)* sifat yasovchi, *qatlama* -ot yasovchi, *ketma* – fe'lning bo'lishsiz shakli; 5) so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchilar doirasida:*-im: qultum*-ot yasovchi, *kitobim*-egalik qo'shimchasi. Ba'zan o'zakdosh so'zlar ham omonim affiks qabul qilib shakldoshlikka ega bo'lishi mumkin. Masalan, *qatla* fe'liga so'z yasovchi va shakl yasovchi omonim qo'shimcha *–ma* qo'shilishi bilan *qatlama* (ot) , *qatlama* (fe'lning bo'lishsiz shakli) kabi shakldosh so'zlar hosil bo'ladi.





2. Sinonim affikslar shaklan har xil umumiy ma'nosi bir xil bo'lgan qo'shimchalardir. Masalan: *-li\-dor: umumli-umumdor.* Affikslar sinonimligi qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra barcha turlari doirasida uchraydi: a) so'z yasovchilarda: *-siz\-no* ma'nodoshligi asosida: *o'rinsiz - noo'rin, -li\-ser* ma'nodoshligi asosida: *g'ayratli - serg'ayrat*; b) shakl yasovchilarda: *-ish\ -imtir* ma'nodoshligi asosida: *oqish-oqimtir, -qar\-kar\-qaz\-kaz* ma'nodoshligi asosida: *qutqar - qut+qaz, o'tkaz-o'tkar, -lar\ ish* ma'nodoshligi asosida *kelishdi-keldilar*; v)so'z o'zgartuvchilarda: *-ning\-dan* ma'nodoshligi asosida: *mehmonlar +ning|| +dan kattasi.*

3. Antonim affikslar bir-biriga zid ma'noli qo'shimchalardir. O'zbek tilida qo'shimchalarning zid ma'noligi boshqa yondosh hodisalarga nisbatan ancha kam uchraydi. Ular ko'proq sifat yasalishida ko'zga tashlanadi. Masalan: *kuchli-kuchsiz, mazali – bemaza, g'ayratli-serg'ayrat.*

4. Ko'p ma'noli affikslar birdan ortiq leksik va grammatik ma'noni shakllantiruvchi qo'shimchalardir. Masalan, *- chi* qo'shimchasi: *temirchi (asosdan anglashilgan kasbga ega bo'lgan shaxs oti), hasharchi, ijarachi, pudratchi (o'zakdan anglashilgan faoliyat ishtirokchisi bo'lgan shaxs oti)* kabi yasama so'zlardagi - *chi* ko'p ma'nolidir. Affikslarning ko'p ma'noligi shakl yasovchi va so'z o'zgartuvchilarga ham xos hodisadir. Xususan,*-lar* affiksining *bolalar* – sof ko'plik ma'nosida, *unlar*- tur, nav ma'nosida, *dadamlar* - hurmat ma'nosida ishlatilishi, ularning nutqiy ko'p ma'noligidan dalolat beradi.

O'zak va affikslarning qo'shilish tartibi. Affikslarning o'zakka qo'shilish tartibi ham o'ziga xoslikka ega. Xususan, so'z tarkibida ma'noli qismlar joylashishining odatdagi tartibi asosan, o'zak yoki negiz+ so'z yasovchi+shakl yasovchi+so'z o'zgartuvchi shaklida bo'ladi. Masalan: *qishloq+dosh+lar+imiz, qo'riqla+di+k.*

O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan negiz hosil bo'ladi. Masalan: *ter+im, quri+q, tinch+i (moq)* kabilar negizdir. Agar so'z tarkibida birdan ortiq so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etsa, u holda negizning chegarasi oxirgi so'z yasovchi qo'shimcha bilan belgilanadi. Masalan: *bil+im+don+lik* yasalmasida *bilimdonlik* negizdir. Demak, odatdagi tartibga ko'ra shakl yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar so'zning o'zak qismiga (bil+di+m) yoki negiziga (*bil+im+lar+dan // bil+im+don +lig+i+ni*) qo'shilishi mumkin.





Mashqlar

1-mashq

Matndagi kirn?, nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni yozing.

Qalampir, mushtipar, charog'on, tinchlik, tarixiy, to'tiqush, handalak, munavvar, haydovchi, oshpaz.

O'qituvchi diktant so'zlarini doskaga yozadi. O'quvchilar yozganlarini shunga qarab tekshiradilar.

— Qaysi so'zlarni daftaringizga yozdingiz?

— Har bir so'zning ustiga so'rog'ini yozib qo'ying.

— Kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'qing.

— So'zlar insonning nimasini bildiradi?

— *Munavvar* so'ziga yana qanday so'roq berish mumkin?

— *Munavvar* so'zini bosh harf bilan yozsak, qaysi so'z turkumiga, kichik harf bilan yozsak, qaysi so'z turkumiga kiradi?

— Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'qing.

— Qaysi so'zlarni yozishda xato qildingiz? *(To'tiqush, handalak, haydovchi.)*

- So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qing. *(to'-ti-qush, han-da- lak, hay-dov-chi.)* So'zlarning yozilishini doskaga qarab tekshiring. Yozilishini esda tuting. Shu so'zlarni qatnashtirib, gaplar tuzing. *(Haydovchi avtobusni to'xtatdi. Polizdan handalakning isi taraldi. Biz hayvonot bog'ida to'tiqushni ko'rdik.)*

— Kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar predmetning nimasini bildiradi? Predmetning nomini bildirib, kim?, nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar qaysi so'z turkumiga mansub?

2-mashq O'qituvchi hikoyatni o'qib beradi. Matndagi ma'nosi tushunarsiz so'zlar izohlanadi.

Lug'at ishi.

Mulozim — xizmatchi, amaldorlar huzurida xizmatda bo'ladi- gan kishi.
Hazrat— muqaddas zotlarni ulug'lash uchun ularning ismlari oldidan qo'llanadi.
Nazar— ko'z qarashi, nigoh.

— Hikoyat kim va nima haqida ekan?
— Sulton Ulug'bek kim ekan?
— U qayerga qaytayotgan ekan?
— Ulug'bek ko'cha o'rtasida nimani ko'ribdi?
— U nonni ko'rgach, nima qildi? —Mulozimlar nima deyishibdi?
— Ulug'bek nima deb javob beribdi?
— Qissadan qanday hissa chiqibdi?
— Siz yana qanday hissa chiqargan bo'lardingiz? (Non aziz ne'mat. Nonning ushog'i ham non.)
— Hikoyatga shu gaplarni sarlavha qilib qo'yish mumkinmi? O'quvchilar matndagi otlarni so'roqlar yordamida topadilar.

Birinchi gapni husnixat bilan ko'chiradilar, otlarning gapdagi vazifasini aniqlaydilar.

— Gapning bosh bo'laklarini so'roqlar yordamida toping.
— Kim qaytayotgan ekan?

(Sulton Ulug'bek qaytayotgan ekan. *Sulton Ulug'bek* gapning egasi. Ulug'bek nima qilayotgan ekan? — *qaytayotgan ekan,* gapning kesimi.)

— *Navbatdagi* so'ziga so'roq berib, gapdagi vazifasini aniqlang. *(Navbatdagi* qaysi? so'rog'iga javob bo'ladi. Gapda aniqlovchi vazifasida kelgan.)

Gapdagi boshqa otlar ham shu tarzda gap bo'laklari bo'yicha tahlil qilinadi va tagiga chiziladi.

3- mashq. O'quvchilar matnni o'qiydilar. Matn yuzasidan suhbat uyushtiriladi.

— Matn nima haqida ekan?
— Matn kimning nutqidan olingan?
— O'zbekistonning qaysi shaharlari qadimdan mashhur bo'lgan?
— Bu shaharlar qanday yurtlar bilan aloqada bo'lgan?
— Shahar nimasi bilan shuhrat qozongan?
— Yurtimizda yashab, o'z yurtlarini jahonga tanitgan qanday insonlarni bilasiz?
— Amir Temur qaysi shaharni o'z davlatining poytaxti qilgan?
— Temur kimlarga homiylik qilgan?

— Shuhrat qozongan, homiylik qilgan ***iboralarini izohlang.***
(Shuhrat qozongan — dong'i ketgan. *Homiylik qilgan* — g'amxo'rlik ko'rsatgan, qaramog'iga olgan.)
O'qituvchi matndagi ma'nosi tushunarsiz so'zlarni izohlab beradi.

Lug'at ishi.

Me 'morchilik obidalari—tarixiy obidalar.

Mutafakkir — chuqur fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi.
Mashshoq — sozanda.

— Matnda nechta gap bor?
— Gaplar maqsadiga ko'ra qanday mazmun ifodalagan?
— Matnni necha qismga bo'lish mumkin?
— Matndagi bosh harfbilan yozilgan so'zlarni yozing.
— So'zlar qanday so'roqqa javob bo'ladi? Ularning qaysi so'z turkumiga kirishini ayting.
— Nima uchun bu otlar bosh haif bilan yozilgan?
— *Toshkent, Samarqand, Buxoro* atoqli otlari nimaning nomini bildiradi? (Joylarning nomini bildiradi.)
— Bosh harf bilan yozilgan so'zlar bir xil so'roqqa javob bo'ladimi? (Ha.)

4- mashq. O'quvchilar matnni o'qiydilar. So'roqlar yordamida otlarni aniqlaydilar. Daryo, anhor nomlarini va hayvon nomini bildirgan otlarni ajratadilar. O'zlari bilgan baliq nomlarini sanay- dilar.
Uyga bosh harflar bilan yozilgan otlarni bir ustunga, kichik harflar bilan yozilgan otlarni 2-ustunga yozib kelish topshiriladi.
7. Darsda o'tilganlarni umumlashtirish va mustahkamlashda quyidagi savollardan foydalaniladi:
- Darsda nima haqidagi hikoyatni o'qidik?
- Hikoyatlar bizni nima qilishga undaydi?
- Xalqimizda yana nimalar non kabi muqaddas hisoblanadi?
- Yurtimiz nimalari bilan, qanday insonlar bilan mashhur bo'lgan?
- Otlar narsalarning nimasini bildiradi?
- Ot so'z turkumidagi so'zlar qanday so'roqqa javob bo'ladi?
- Qanday so'zlarni bosh harf bilan yozamiz?

Testlar

1.Qaysi qatorda morfologiyaga to’g’ri ta’rif berilgan?
A.Tub va yasama so’zlarni o’rganuvchi tilshunoslik bo’limi .B.So’zlarning gr ammatik ma’nolarini va ularni ifodalovchi grammatik shakllarni o’rganuvchi tilshunoslik bo’limi D.SHaxs yoki narsalarning harakat - holatini atab kelgan so’z turkumini o’rganuvchi bo’lim.
2.Qaysi qatorda asosga to’g’ri ta’rif berilgan ?
A.So’zning asosiy ma’nosini ifodalab mustaqil qo’llana oladigan qism.
B.Mustaqil qo’llana olmaydigan asosga qo’shilib unga yangi yoki qo’shimch a ma’no yuklaydigan qism. C.So’zlarni bo’g’lashga xizmat qiladigan qism.
3.Qaysi qatordagi gapda so’z yasovchi qo’shimchali so’z mavjud?
A.Hunar –zar hunardan rizqing unar. B.Aql ko’pga yetkazadi, hunar ko’kka.

C.O’qish yaxshi ,uqish undan ham yaxshi. D.Bilimga eltuvchi yagona yo’l - faoliyatdir.

4.-lar, -gan, -guncha, -b,-ib,-ta qo’shimchalari qanday qo’shimchalar sanaladi?

A.So’z yasovchi qo’shimchalar. B.Lug’aviy shakl yasovchi qo’shimchalar.

C.Sintaktik shakl yasovchilar D.Lug’viy va sintaktik shakl yasovchilar.

5.Qaysi qatorda holat fe’llari berilgan?

A.Pirillamoq, yasamoq, tasvirlamoq. B.Eshitilmoq, o’smoq, unmoq.

C.Qotmoq, turmoq, uxlamoq. D.Ikkilanmoq, porlamoq, fikrlamoq.

6. Qaysi qatordagi fe’llar o’timsiz fe’llar sanaladi?

A.Tilamoq, joylashmoq, so’ramoq. B.Qizarmoq, jiringlamoq, jilmaymoq.

C.Kiymoq, so’roqlamoq,ko’rmoq. D.Qaratmoq, yaratmoq, so’ramoq.

7.Bajaruvchining ta’siri

bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bild iruvchi fe’l shakliga qanday nisbat shakli deyiladi?

A.Aniq nisbat shakli. B.Majhul nisbat shakli.

S.Birgalik nisbat shakli. D.Orttirma nisbat shakli.

8.Qaysi qatorda xato fikr berilgan?

A.Ikki asosdan tashkil topgan otlar soda otlar hisoblanadi.

B.Ikki va undan ortiq asosdan tashkil topgan otlar qo’shma otlar hisoblana di. C.Bir-

biriga yaqin yoki qarama qarshi ma’noli asoslardan tashkil topgan otlarga ju ft otlar deyiladi.

D.Ikkinchi qismi birinchi qismining takroridan hosil bo’lgan yoki tovush o’ zgarishidan hosil bo’lgan otlar takroriy otlar sanaladi.

9.To’g’ri yozilgan qo’shma otlar qatorini toping?

A.Uch ariq, quyi chirchiq , Toshhovuz. B.Karnay-surnay, qovun- tarvuz, erkak-ayol. C.Tillaqosh, bilakuzuk, asalari.

D.Qashqadaryo,Katta qo’rg’on, qo’shko’pir.

10. O’rin-joy otlarini

hosil qiluvchi qo’shimchalar qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

A.-paz, -kash, -kor,-bon,-gar. B.- zor, -loq , -iston, -goh, -xona.

C.-k, -ki,-gi, -q,- qi, -gich. D.To’g’ri javob yo’q.

Savollar:

1. Qanday otlar atoqli otlar hisoblanadi?
2. Turdosh otlarning qayhay turlari mavjud?
3. Grammatik son kategoriyasi nima?
4. Egalik kategoriyasi deb nimaga aytiladi?
5. Egalik qo`shimchalari qanday ma`nolarni ifodalaydi?
6. Klishik kategoriyasi nima?
7. Kelishik kategoriyasi nima?
8. Kelishiklar va ularning shakllari qanday?
9. Otlar qanday usullar bilan yasaladi?
11. Morfologik usul bilan qanday ma`noli otlar yasaladi?
12. Sintaktik usul bilan-chi?
13. Otlar tuzilishiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?

II SEMESTR
1-MAVZU
OTLARNING ALOQA-MUNOSABAT KATEGORIYALARI OTLARNING KELISHIK KATEGORIYASI. OTLARNING EGALIK KATEGORIYASI.

_1-mashq. Gaplarni ko`chiring. Egalik qo`shimchasi bilan qo`llangan otlarni aniqlang. Otlarga egalik qo`shimchasi qo`shilganda o`zakning o`zgarishini izohlang.

1. Moshi siyrak dukkalab, Qovog`i kech gullagan. (Q.H.) 2. Butun qishlog`imizda bita Rajabiyimiz bor, xolos. (N.Biryukov.) 3. U ishkomning og`zida ko`ringan yorug`likka intildi. (S.An.) 4. Jonajon o`rtog`i Karima bilan hujralarida yuzma-yuz qolishga Munavvarning yuragi betlamas edi. (S.An.) 5. Bolalar yotog`ida ham hech kim ko`rinmaydi. (S.An.) 6. Ha, aytganday, Yo`ldoshevlar chakana radio emas, og`zini berkitsangiz, burni bilan gapirishdan ham toymaydigan odamlar. (A.Muhiddin.)

2-mashq. Egalik qo'shimchalarini olgan otlarni aniqlang. Ko'chirib, egalik qo'shimchasi tagiga chizing, shaxs va sonini so'zning ustiga yozing.

1.Maktab yoshlik gulshani, bolalar esa uning nihollari, 0'qituvchilar bu bog'ning oqil, mirishkor bog`bonlaridir. 2. Ona yerim - oltin tuprog'im. 3. Boshqalarni bilmayman-u, suyak sho'rva Kulala ikkovimizga zo'rlik qildi. (A.Qahhor). 4. Ustozning bilim ziyosidan foydalanib, so'ngra uning o'rnini egallashga urinayotgan shogird daraxtning shoxida yurib, ildizini kemirayotgan hasharotni esalatadi. (A.Q.) 5. Turmush o`rtog'ingiz qanchalik mehribon bo'lsa, umringizga shunchalik umr qo'shiladi. 6. Esimdadir yigitlarni sherdil qilgan so'zlaring, Xotiramda g'azab bilan porlab turgan ko'zlaring. 7. Tikon kirsa qatingga kiynasidin, Chiqarsam erdi kirpik ignasidin ko'rub xoru xas o`rnungda nihoniy, Sochim birla supursam erdi oni (A.N).8. Kim o'ylasa onalarini, Vatanim deb mehnat qilsa, unda inson fazilati bor. 9. U o'rta bo'yli, qorni katta, semiz, bo'yni kalta va yo'g'on, boshi ham katta va sergo'sht bir odam edi, bo'ynining yo‘g‘onligi va yuzining sergo'shtligi shu darajada ediki, uning gavdasi suv to'Idirilgan meshday tekis ko'rinar edi. (S.A.). 10. Hafizaxon, tog'angizga, Mavlon akaga, havasim keladi (A.Q.). 11. Yurganida atir ufurgan, Kelinchaklar ko'cha supurgan, Ko'chatlari doim qufurgan, Gulga to'lsin, ko'chang, mahallam, Yorug‘ bo'lsin kechang, mahallam (P.M.). (0'zbek tili grammatikasi 1 tom 144-154- betlar).

Testlar 185

1.Orol, Kaspiy, Boltiq atoqli otlari qanday otlar sanaladi?

A.Dengiz nomlari, B.Soy nomlari.

C.Kanal nomlari. D.Daryo nomlari.

Predmetning belgisini bildirib qanday?, qanaqa?, qaysi? So’roqlariga javob .

2. bo’ladigan so’zlar qaysi so’z turkumiga mansub bo’ladi?

A.Ot so’z turkumiga . B.Fe’l so’z turkumiga.

C.Sifat so’z turkumiga. D.Ravish so’z turkumiga.

3.Sifatlar tarkibiga ko’ra qanday sifatlarga bo’linadi?
4.Yasama sifatlarga 5ta so’z yozing?
5.Qaysi sifat yasovchi qo’shimchalar zid qo’shimchalar sanaladi?
6.Sifatlar tuzilishiga ko’ra qanday turlarga bo’linadi?
7.Qo’shma sifat qatnashgan gap yozing?
8.Said Ahmadning birinchi hikoyasi qanday nomlanadi?
A.Tortiq. B.Ishqiboz.
C.Muhabbat. D.Qadrdon dalalar.
9.Said Ahmad pyesalari qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?
A.Er yurak, Farg’ona hikoyalari. B.Muhabbat , Hukm.
C.Kelilar qo’zg’aloni, Kuyov. D.Xandon pista, Bir o’pichning bahosi.
10.”Qoplon” hikoyasi orqali qanday illatlar qoralanadi?
A.Ikkiyuzlamachilik. B.Manfaatparastlik.
C.Xudbinlik. D.Chaqimchilik.

Savollar

1. Qanday otlar atoqli otlar hisoblanadi?
2. Turdosh otlarning qayhay turlari mavjud?
3. Grammatik son kategoriyasi nima?
4. Egalik kategoriyasi deb nimaga aytiladi?
5. Egalik qo`shimchalari qanday ma`nolarni ifodalaydi?
6. Kelishik kategoriyasi nima?

2-MAVZU
OTLARNING YASALISHI; AFFIKSATSIYA USULIDA OT YASALISHI. OTLARNING KOMPOZITSIYA, SEMANTIK, QISQARTMA VA FONETIK USULLARDA YASALISHI.

1- mashq.Yasama otlarni qaysi so'z turkumidan ifodalanganligini aniqlang. Ularni o'zak va qo'shimchalarga ajrating, qo'shilmalarning qanday qo'shimcha ekanligini ayting va gapdagi vazifasini ko'rsating.

1.Barcha tillar aniqlikka intiladi, aniqlik esa qisqalik, ixchamlikni talab etadi. 2. Ekinni erta ekkan, hosilini erta o'rar. 3. Yolg'onchining rost so'zi ham yolg'on bo'lur. 4. Ha, filday cho'ng, chinorday chayir, chidamlilikda qayraqtosh, bilimlikda alloma va qalamkashlikda shoiri zamon edi G'afur ota (Mirtemir). 5. Katta tugunni boshiga ko'tarib oldi. 6. Ko'pchilikning haqi yetim haqidan yomon. 7. Bahor kelsa ham, havo unchalik issiq emas edi. 8. Beodoblik-johillik urug'i. 9. Atoqli otlar ham graminatik jihatdan ko'plik sonda qo'llanadi. 10. Butun bir ro'zg'omi ko'targan tuyaga bitta elak og'irlik qilgan ekan. 11. Omon bo‘l, onajonim, dil quvonchim, sururim, 12. Kamlikning kamoli bor, manmanlikning zavoli bor. 13. Mana, otin ham guvoh bo'ladilar, qaytarma qildiramiz. 14. Tortma ichidan bir dasta oq qog'ozlarni oldi. 15. Gullab yotgan o'rikzor xira pardaga o'raldi.

2-mashq. Noto'g'ri qo'llangan kelishik qo'shimchalarini to'g'rilab va tushirib qoldirilgan kelishik qo'shimchalarini qo'yib mashqni yozing.

1. Umrini tog'larda o'tkazgan odamning tabiat tilini bilmaydi deyish qiyin. 2. Ulug' saltanati bilan olamni titratgan Amir Termur o'z ustozini oyoq tomoniga qo'yilishini vasiyat qilgan edi. 3. Keksalar oppoq soqollari namlangan edi. 4. U...voqea...bexabar ekani...bilib, butun vujudi… yengib bo'lmas bir horg'inlik sezdi. 5. Yer o'z o'qi atrofida aylanadi. 6. Sen Lutfiyning so'lim g'azali, Bulbulisan Hofiz gulshanin. 7. Yer haydasang, kuz hayda. Sening to'g'ringda anchagina yaxshi gaplar gapirdi. 9. Har holda, es-es biladi: o`sha oy juda ham katta chiqqan edi. (A.Qah). 10. Olimjon jo'rttaga qattiq ovoz bilan gapirdi.

3-mashq. O`qing. –lar qo`shimchasining ma`nolarini aniqlang.

1. Quvg‘inlik odamni nima ahvollarga solmaydi, axir?(J.Abd.) 2. – Shunaqami? U kishi ham diplom yoqladilarmi? – dedi Otaqo`zi kesatib. (O.Yo.) 3. Ne mashaqqatlar bilan o`rnidan turib, soatiga qaradi. (A.Q.) 4. – E, o`zlariga qolsa haliyam bo`lsa qo`l qovushtirib o`tirmoqchi emaslar. (O.Yo.) 5. Yo manman degan, o`zi xon, ko`lankasi maydon bo`lib yurgan ne-ne zo`ravonlarning tagiga suv ketganidan bexabarmilar akamlar? (O.Yo.) 6. – Qayoqda deysiz, bizni nazarlariga ҳam ilmaydilar shoir akamlar! (O.Yo.) 7. Mayor qizning tirsagidan yigitlardek nazokat bilan ushlab, A`zamlarning oldiga olib keldi. (Sh.) 8. Toshkentlar qalay? Toza oboddir- a? (J.Abd.) 9. Husn bozorini kechqurunlar ana bu yerda tomosha qil! (O.) 10. Ertalab soat sakkizlarda bulut quyuqlashib, hamma yoqni qorong‘ilik bosdi...(Mirm.) 11. Hirotlar ham juda notinch bo`lib ketdi, begim.(P.Q.) 12. Senlarning tufaylingdan yomon nomim yetti io`limga ketdi...(Ch.) 13. Nevaralarim qo`limga qaraydi deb olaqolgan edim, bellarimni urib yubordi.(Sh.)

Ko`chiring. So`zlarning tuzilishiga ko`ra turlarini aniqlang. Qo`shma, juft va murakkab so`zlarni alohida-alohida ko`chiring.

Egnida qizg`ish, nim qora aralash matodan tikilgan gimnastyorka, galife shim. Oyog`ida chiroyli qora xrom etik. Boshida qorako`l telpak.

Belida kamar, kamarida chiroyli jajji xanjar, to`pponcha, qora qosh, xushmo`ylov, xushqomat, behad ko`rkam Haydarbek qurolli ikki yigiti o`rtasida, qo`li ko`ksida, bosh egib, o`ng va so`lida zanjirband odamlar orasiga kirib borardi. Uning jozibador chehrasidagi alomat shodlikmi, qayg`umi, payqab bo`lmas edi. (N.Safarov.)

Ot -so'z turkumini takrorlash uchun savollar:

1. Ot turkumiga oid so'zlar qaysi turkumdagi so'zlar bilan birika oladi?
2.Ot turkumiga oid so^zlar nutqda har doim qanday shaklda bo'ladi?
3.Turlanish hodisasi qaysi so'z turkumlariga xos?
4.Qaysi qo'shimchalar narsaning uch shaxsdan biriga qarashli ekanini bildiradi?
5.Qanday otlar faqat birlikda qo'llanadi?
6.Yasama otlar qanday usul bilan yasaladi?
7.Ot -so'z turkumi qanday gap bo'laklari bo'la oladi?
8.Atoqli va turdosh otlar qanday farqlanadi?

Testlar

1. Tarkibidagi har bir so’z bosh harf bilan yozilishi lozim bo’lgan nomlar qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?

1) xalqaro tashkilot nomlari; 2) oliy davlat tashkilotlari; 3) oliy davlat mansabi; 4) vazirliklar nomi
A) 1,2,3,4 B) 1,2,4 C) 1,2,3 D) 2,3,4
IZOH: savolda berilgan hamma nomlarning tarkibidagi har bir so`z bosh harf bilan yoziladi. bulardan tashqari oliy davlat mukofatining ham nomi tarkibidagi har bir so`z bosh harf bilan yoziladi.
2. Qaysi javobda shaxs nomlari berilgan? A) zargar, suvchi, kampir B) lola, rayhon, temir C) Aziz, Ilg'or, Lobar D) qoplon, lochin, qaldirg'och
IZOH: a javobda: zargar, suvchi, kampir shaxs otlari; b javobda: lola, rayhon, temir narsa otlari; c javobda: qoplan, lochin, qaldirg`och hayvon otlari. Agar bular kishilar ismi bo`lib kelganida shaxs nomi hisoblanardi
3. Qaysi gapda shaxs oti yasovchi qo'shimcha qo'llangan? A) Rashidboy ertasi kuni qassobning mashinasida tog' ortiga jo'nadi. B) Yaxshilikka yomonlik deganlari shu ekan. C) Qo'shiq aytganim faqat otamga yoqqan emish. D) Aravakash mo'mingina, muloyim, kamgap kishi. IZOH: a javobda: qassob so`zi shaxs oti hisoblanib, lekin uning tarkibida yasovchi qo`shimcha yo`q b javobda; shaxs oti yo`q c javobda: ota so`zi shaxs oti hisoblanib, u ham yaama so`z emas d javobda; aravakash shaxs oti hisoblanib, uning tarkibida -kash shaxs oti yasovchi qo`shimcha ishtirok etgan
4. Turdosh ot asosida paydo bo'lgan atoqli otlarni aniqlang A) Lobar , Nodir , Laziz B) Ozoda , Go'zal , O'ktam C) Temir , Shakar , Muhabbat D) Mahkam , Ozod , Erkin
IZOH: Ozod , Erkin Lobar , Nodir , Ozoda , Go'zal , O'ktam, Laziz atoqli otlari sifat asosida qo`yilgan. Temir , Shakar , Muhabbat turdosh otlar asoida qo`yilgan. Mahkam ravish so`z turkumi asosida qo`yilgan.
5. Qaysi javobda mansab-unvonni anglatadigan shaxs otlari berilgan ? A) shifokor , sartarosh , dehqon B) qipchoq , xo'ja , barlos C) nafaqaxo'r , talaba , ishchi D) rais , vazir , kapitan
IZOH: shifokor , sartarosh , dehqon, talaba, shaxs otlari kasb-koriga nomlaydi. qipchoq , xo'ja, barlos urug` nomiga ko`ra nomlaydi. ishchi, nafaqaxo'r, talaba ijtimoiy holatiga ko`ra nomlaydi. 6. Qaysi javobda shaxs oti yasovchi qo'shimchalar ko'rsatilgan? A) -dak , -don , -in B) -liq , -chilik , -xon C) -oq , -don , -choq D) -soz, -kor , -kash
IZOH -oq, -choq, -don , -liq, -in qo`shimchalari narsa oti yasovchi qo`shimchlar. o`roq, o`yinchoq, kuldon, bulamiq, ekin. -kor , -kash, -soz , -xon shaxs oti yasovchi qo`shimchalar: paxtakor, aravakash, soatsoz, kitobxon -chilik faoliyat-jarayon oti yasovchi qo`shimcha: paxtachilik.
7. Qaysi javobda otlarning lug'aviy shakllari ko'rsatilgan? 1) -niki 2) -dek 3) -xon 4) -dan 5) -gacha 6) -dosh A) 1,2,3,5,6 B) 1,2,3,4,5,6 C) 2,3,5 D) 1,2,3,5
IZOH: -gacha, -niki, -dek, -xon lug`aviy shakllaridir. -niki qarashlilik ma'nosi: Kitob Boburniki, dek o`xshatish ma'nosi: Toshdek qattiq, -xon erkalash shakli: Suluvxon piyolalarni yuvdi. -gacha chegara ma'nosi: Toshkentgacha ancha yo`l bor. -dan sintaktik shakli. chiqish kelishigi. dosh so`z yasovchi qo`shimcha: sinfdosh.

8. Tilshunoslikning qaysi bo’limlarida so’z o’rganiladi ? A) morfologiya va leksikologiya B) morfologiya va sintaksis C) leksikologiya va sintaksis D) morfologiya va punktuatsiya
9.Qaysi javobda tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan xalq nomi to’g’ri ko’rsatilgan? A) arab B) yunon C) hind D) rus
10. Qaysi hukm to’g’ri ? 1) xalqaro tashkilot nomlari tarkibidagi har bir so’z bosh harf bilan yoziladi 2) oliy davlat tashkiloti nomlari tarkibidagi har bir so’z bosh harf bilan yoziladi 3) oliy davlat mansabi nomlari tarkibidagi har bir so’z bosh harf bilan yoziladi 4) davlat nomlari tarkibidagi har bir so’z bosh harf bilan yoziladi 5) vazirliklar , idoralar , korxonalar nomlari tarkibidagi har bir so’z bosh harf bilan yoziladi A) 1,2,3 B) 1,2,3,4 C) 1,2,4 D) 1,2,3,4,5
IZOH: vazirliklar , idoralar , korxonalar nomlari tarkibidagi birinchisi bosh harf bilan, qolganlari kichik harf bilan yoziladi.

3-MAVZU
SIFAT SO’Z TURKUMI. SIFATLARNING DARAJA KATEGORIYASI. SIFATLARNING YASALISHI, TUZILISH TURLARI.

Savollar

1. Sifatlar belgi sifatida nimalarni bildiradi?
2. Sifatning o`ziga xos morfologik belgilari nimalardan iborat?
3. Sifatning ma`no jihatidan qanday turlari mavjud?
4. Sifatlar gapda qanday vazilarni bajaradi?
5. Sifat darajalari nima? Sifatlarda qanday darajalar bor?
6. Sifat va uning ma‘no turlarini misollar vositasida izohlang.
7. Sifat darajalari xususida nimalarni bilasiz?
8. Sifatlarning otlashishida qanday grammatik birliklar muhim o`rin tutadi?
9. Sifatlarning gapdagi sintaktik vazifasi nimalar asosida belgilanadi?
11. Asliy va nisbiy sifatlarning farqini tushuntiring.

1-mashq. Berilgan matndagi sifatlarni ma’noviy guruhlarga ajratib yozing.

Namuna: Maza- ta’m bildiruvchi sifatlar: shirin, nordon...

Shakl ko‘rinishni bildiruvchi sifatlar: novcha, gavdali...

Bir – ikki bayt o‘tgandan keyin Zebining tiniq, g‘uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan, chiroyli va o‘tkir ovozi qo‘shildi. (Cho‘lpon). 2. Mana o‘sha sariq qamishzor ichida yurgan «yo‘lbars»lardan biri parcha nonga zor, beholi bemador qadam tashlab, sarnigun, yo‘l yoqasida yiqildi. (Mirmuhsin). 3. Barcha jonzod bolaligida shirin va suyganchik bo‘ladi, echki bolasini oling, katta bo‘lgach biri- shumshuk taka, bo‘ri bolasi- bo‘ri, ular ota bobolari qilgan ishni qiladurlar. (Mirmuhsin). 4. Tor ko‘chada qo‘shnimizning eski, shaloq eshigi oldida mening chol bobom -- uzun soqolli, yirik jussali, kar quloq mo‘ysafid bilan nimalar to‘g‘risidadir ezmalanib so‘zlashadi (Oybek). 5. Bobom oriq kichkina gavdasini devorga suyab cho‘qqaygan, hassasini tizzalarining orasiga qadagan. O‘rtog‘i esa

qo‘pol, eski, sag‘ri kovush kiygan, uzun oyoqlarini cho‘zib, oftobga yag‘rinini tutgan holda, yerga yonboshlab o‘tiribdi (Oybek). 6. Siyrak o‘tkinchilar albatta, qo‘l qovushtirib «assalomu alaykum», - deb o‘tadilar (Oybek). 7. Bo‘yi pastroq odamlar baland bo‘ylilarga havas bilan qarar emish (Shukrullo). 8. Mashinaning oynalariga tushgan ertalabki quyoshning nurlari bugun ham kunning issiq bo‘lishidan darak berib turardi (Shukrullo). 9. Ovchi odam bog‘bonlik qilib daromad topishdan ko‘ra ko‘proq qanday qilib bo‘lsa ham o‘z ovchiligi orqali kattaroq o‘lja tushirish, uning bo‘ladigan joylari haqida bosh qotirgani ma’qul (Shukrullo). 10. Bugun kutilmaganda shahristonlik xavaskor shoirlar bilan uchrashib qoldik (Shukrullo). 11. Yangi yaraqlagan quticha ustiga kattakon bir karnay o‘rnatilgan (Oybek). 12. Muhabbatning saroyi keng ekan, yo‘lni yo‘qotdim-ku, Asrlik tosh yanglig‘ bu xatarlik yo‘lda qotdim-ku. Karashma dengizin ko‘rdim, na nozlik to‘lqini bordir, Halokat bo‘lg‘usin bilmay, qulochni katta ochdim-ku (Cho‘lpon). 13. Qoraqosh, ko‘krakdor, xushbichim bu yigit Dildorning ham hushini o‘g‘irlagan edi (S.Ahmad). 14. Yer hali yaxshi qurimagan, devorlarning kungay etaklari sergib qolgan bo‘lsa ham, o‘radagi arava izi pilchillab yotar, bultur kallaklangan tollarning silliq novdalari hushtak yasasa bo‘ladigan darajada sarg‘imtil rangga kirib suv yig‘ib qolgan (O‘.Hoshimov).

2-mashq. Berilgan gaplarni yozing. Otlashgan sifatlar ostiga chizing va ularning gapdagi vazifasini izohlang.

1. Saxiyning ehsoniga baxilning boshi og‘rir (Maqol). 2. Axir inson bolasi baliq emaski, zo‘ravoni ojizini yutib, hayot kechirsa! (Shuhrat) 3. Yaxshigayam, yomongayam birdek yaxshi ko‘rinishga urinadigan odam eng xavfli odamdir (O‘.Hoshimov). 4. Odamlar «bozor munosabati»ni baliqdan o‘rgangan. Kattasi kichigini yeyaveradi (O‘.Hoshimov). 5. Hech kimga hasad qilma. Hasadgo‘y hech nimaga erisholmaydi (O‘.Hoshimov). 6. Baxilning bog‘i ko‘karmas (Maqol). 7. Yalqov bilan anqov – dushman uchun ov (Maqol). 8. Aqlli o‘z fikrini o‘zgartiradi, axmoq hech qachon (maqol). 9. Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz - do‘stini (Maqol). 10 Baxil baxilni ko‘rganda saxiyligi tutadi (Maqol).

3-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Sifatlarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Kelinchakning kichkina, qop-qora va o‘ynoqi ko‘zlari keng ochilib, qo‘shni xotinning og‘ziga tikilgan edi (Cho‘lpon). 2. Jayxun bo‘ylaridagi bu bepoyon sarg‘ish qamishzorlarga boqqan kishi uning ichida qancha yo‘lbars, jayronlar yurganini ko‘rmaydilar. 3. Bahor chog‘lari tomlarda tizza bo‘yi bo‘lib o‘sgan barra o‘tlar orasidagi chuchmomalardan tortib, lalaqizg‘aldoqlar ichiga kirib qolgan lolaqo‘ng‘izlaru, tip-tiniq osmon ostida bodroq-bodroq bo‘lib gullab yotgan o‘riklar hammasi esimda (Shukrullo). 4. Daraxtlarning bunday fusunkor gullari, ko‘m-ko‘k mayin yaproqlari ruhlarni ko‘taradi, zavqlarni chayqaydi (Oybek). 5. Qodir ko‘k eshikni asta qoqdi. Qiz yana bidirladi: --Ichkarilik, qoqavering! Qodir qattiqroq qoqdi. Ichkaridan ayol kishining «labbay» degan tovushi keldi (Shuhrat). 6. Jannatning shaharga kelishidan eng katta umidi nomi ketgan doktorda edi. Kimga maslahat solsa shu doktorning nomini aytdi (Shuhrat).

4-mashq. Berilgan so‘zlarga daraja shakli ko‘rsatkichlarini qo‘yib ko‘chiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: *yaxshi-yaxshiroq-eng yaxshi*.

Bu yil akam «Eng yaxshi talaba» tanlovining g‘olibi bo‘ldi.

qiziq, qisqa, teran, ixcham, durust, yapaloq, yassi, ziyrak, qo‘rqoq, kuchli, chiroyli, og‘ir, afzal, kulgili, go‘zal, bahaybat, sariq, aziz, ulug‘, baland, xira, nafis, nam, g‘amgin, xafa, tund, sho‘x, quvnoq.

5-mashq. Gaplarni o‘qing. Sifatlarni topib, to‘liq tahlil qilishga harakat qiling.

1. Kuz. Daraxtlarning mo‘rt bo‘lib qolgan tillarang yaproqlari sal shamol bilan duv to‘kiladi (Shuhrat). 2. Bu uyga o‘ttiz-qirq chamaliq qizlar yig‘ilganlar, yig‘ilishdan maqsad: qizlar o‘zlarining eng latif, eng go‘zal bir a’zolarini bu kun xotinliq olamiga uzatmoqchidirlar (A.Qodiriy). 3. Men esa Munavvarni eslayveraman. Hayrat bilan tikilib turgan ko‘zlarini, katta-katta, qop-qora ko‘zlarini... (O‘.Hoshimov). 4. Yoshliq ko‘zlar ariq bo‘yig‘a tushib, nozik oyoqlar ariq bo‘yi tomong‘a harakatlandilar (A.Qodiriy). 5. O‘tindan boshqaga yaramas gohi, Mevali daraxtning mevasiz shoxi (A.Jomiy). 6. Uyiga qaytib o‘g‘ilchasining behisob savollariga javob berayotganida ham, ovqatlanayotganida ham, yotganida ham muammolarning chigal kalavasi uni holi qo‘ymadi (T.Malik).

Testlar

1. Birgalikda yoziladigan murakkab sifat gapda:

A. Hamma havo titraydi (oltin). B. Shimoliy (g'arbiy) sohilidagi tog'lar zanjirini pasttekisliklar kesadi. C. Ular siyosiy (iqtisodiy) haqiqatlarga kar edi. D. Qurilma yonida juda chiroyli (katta ko'zli) baliqlar suzayotgan edi. F. Qizil (nilufar) rangli qoyalar orasida, hatto, yaltiroqlar ham bor edi.

2. Qisqa sifatdoshli qatorni aniqlang:

A. Bo'shashgan, yonuvchi, qizil, ko'piruvchi. B. Hashamat, sahro, sukunat, qaltirash. C. Kesish, surtish, yashirish, himoya qilish. E. Yaylovlar, xazinalar, maktablar, qo'shinlar. F. Allaqachon, uylangan, chidab bo'lmas.

3. Barcha sifatlar nisbiy bo'lgan qatorni aniqlang.

A. Qiziqarli siluet, sokin ot, issiq o'pish. B. Go'zallikda, karlar chakalakzorlarida, erta bahorda hayratlanarli.C. O'tgan yilgi barg, o'tloq o't, qumli qirg'oq. D. Yosh aspen o'rmonida, o'rmon jarligi bo'ylab, buloq oqimlari. E. Yuqori cho'qqilarda, iliq oqshom tongi.

4. Ikki N bilan sifatdoshni ko'rsating.

A. Teri ... th. B. Pescha ... th. S. qalay ... th. D. Jun ... oh. E. Ledya ... oh.

5. Harfli sifatdoshni ko'rsating *O* oxirida

A. Dremuch ... mu. B. Noqulay ... th. S. Torn ... th. D. begona ... mu. E. Eng yaxshi ... th.

6. Qaysi versiyada sifat turkumlari to'g'ri ko'rsatilganligini aniqlang:
g'isht, chiroyli, engil, bo'ri.

A. Sifatli, nisbiy, nisbiy, egalik. B. Nisbiy, sifat, sifat, egalik. C. Nisbiy, nisbiy, sifat, egalik. E. Sifat, sifat, nisbiy, egalik. E. Egalik, sifat, sifat, sifat, nisbiy.

7. Sifatlar oxirining to'g'ri yozilishini ko'rsating:
Issiq ... non uchun, pastda ... qatorda, qishda ... Men kiyim, tikanli ... m butalar, eng kichik ... m harakati.
A. E, men, men, men, E. V. E, E, I, I, I. S. Men, E, men, men, E.
D. E, E, E, I, E. E. E, E, I, I, E.
8. Sifatning oxirida kesilganidan keyin harf yoziladigan gapni ko'rsating*O:*
A. Siz tikanli ... m buta ichida yashira olmaysiz. V. Asan issiq ... uning yo'li bo'ylab band edi. C. Sayohatchilar qamishlardan o'tib ketishdi ... chakalakzorlar. D. Yaxshi ... aka -ukadan, aql -idrokka ega bo'lishingiz mumkin.
9. To'g'ri ta'rifni toping.
A. Sifat - bu predmetning harakatini bildiruvchi va nimaning savollariga javob beradigan qism. kimniki? B. Sifat - bu gapning bir qismi, uning xususiyatini bildiradi va savollarga nima javob beradi? kimniki?
C. Sifat - bu gapning bir qismi, biror harakatning xususiyatini bildiradi va nima haqidagi savollarga javob beradi? kimniki?
E. Sifat - bu predmetni bildiruvchi va savollarga nima javob beradigan qism. qaysi? F. Sifat - bu predmetning xususiyatini bildiruvchi va savollarga nima javob beradigan qism. kimniki? Qanaqasiga?
10. Noto'g'ri gapni ko'rsating:*Sifat*…
A. jinsi, holatlar, sonlarning o'zgarishi. B. qaysi savollarga javob beradi? kimniki? S. jinsi, holati, soni bo'yicha o'zgarmaydi. D. jumlada ta'rif yoki predikat bo'lishi mumkin. E. Mavzuning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatadi.

4-MAVZU
SON. OLMOSH

Son

Predmetning sonini miqdorini va joylashish tartibini bildirgan so`zlar turkumi son deyiladi. Sonlar qancha? necha? nechanchi? so`roqlaridan biriga javob bo`ladi.
Hozirgi o`zbek tilida 22 ta tub son bor: bir, ikki, uch, to `rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o `n, yigirma, o `ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard. Qolgan sonlar esa shu sonlar asosida hosil qilinadi. Masalan: o‘n olti, yigirma besh, yetti yuz o `tiz, ikki ming to `rt kabi.
Sonlar harf bilan ham, raqam bilan ham yoziladi: sakson, to‘qson, yuz; 80, 90, 100. Raqamning ikki xilidan foydalaniladi.
1. Arab raqami. Asosan, hisob ishlarida, kun yilni ko'rsatishda ishlatiladi: 14+16=30, 21 mart, 2004 yil kabi.

2. Rim raqami esa ko`proq asr, oy, hukumat anjumanlari, ilmiy tadqiqotlarda bob va fasllami belgilashda ishlatiladi: XXI asr, 10. XL 2004, XXchaqiriq, IX sessiya, I bob, IYfasl, I kurs kabi.
Sonlar otga bog'langanda sifatlovchi, fe‘lga bog`lanib kelsa hoi vazifasini bajaradi: To `qqizinchi qavat, Umsiz bir yashar, ilmli ming yashar. Sonlar otlashganda, kelishik, egaiik qo`shimchalarini oladi va gapda ot bajargan vazi fa larda keladi. Masalan, ega: Biri mamnun bo`Isa, ikkinchisi kuyaveradi (T.Malik); kesim: Ikki

karra ikki - to `rt\ to'ldiruvchi: Bo`tqa sendaqadan o 'ntasini sixga terib qo'yadi (T.Malik); qaratqich aniqlovchi: O‘nning yarmi - besh.
Songa xos morfologik xususiyatlardan biri so'z yasash tizimining yo'qligi bilan belgilanadi. Boshqa turkumdagi so'zlardan son hosil qilinmaydi.
Songa -nchi (-inchi), -cv, -ata, -ta, -tacha qo'shimchalarini qo'shish orqali sonning turli shakllari hosil qilinadi: to `rtinchi, beshov, uchala, to `rtta, o `ntacha.
Ko'pincha sonlar maxsus o'lchov-miqdor bildiruvchi hisob so'zlari bilan keladi o'n daqiqa, bir tomchi, uch qadoq, to'rt kilogramm, bir burda.
1-topshiriq. Berilgan ma‘lumotlar asosida klaster tuzish
Ushbu usul talabalarga erkin fikrlash, g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rnatish, ularni guruhlarga ajratishga imkon beradi.
O‘tkazish tartibi:
1-qadam-asosiy so‘z yoki gap kattaroq qog‘oz yoki doska o‘rtasiga yoziladi;
2-qadam- ushbu so‘z talabalar ongida ma‘lum assotsiatsiyalarni shakllantiradi;
3-qadam- shakllangan assotsiatsiyalarni anglatuvchi bu so‘zlar asosiy so‘z atrofiga yoziladi. Bunda ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniqlanadi.



1-mashq. Gazeta va jurnallardan sonlar ishtirok etgan gaplami ko'chiring. Ularning qaysi so'z turkumi bilan bog'langanligini ayting.
2-mashq. Gaplarni o`qing. Raqam bilan ifodalangan sonlami harflar bilan, harflar bilan yozilgan sonlami raqam bilan yozing. Sonlaming imlosi va gapdagi vazifasini izohlang.
1. Qimmatli qog`ozlar bozoridagi umumiy mablag‘ aylanishi 32889 million so`mni tashkil etdi. 2. Yer yuzida har yili o`rta hisobda yigirmata kuchli va uch yuz mingdan ortiq sezilmaydigan yer tebranishlari bo`lib turadi. 3. Biija bozorida 7954,3 million so`mlik, biijadan tashqari bozorda esa 24934,6 million so`mlik aksiyalar sotildi. 4. Akula terisining bir kvadrat santimetri to`rt yuz oltmish kilogrammgacha kuchga chiday oladi. 5. Yuz kilogramm og`irlikdagi dengiz toshbaqasi bir soatda o`ttiz ikki kilometr masofani bosib o 4a oladi. 6. Yog`ochdan qilingan eng uzun narvon 1955 yilda Norvegiyada tayyorlangan. Uning uzunligi

bir kilometrdan ortiq bo`lib, uch ming yetti yuz o`n besh pog`onaga ega. 7. Narvon 740 metr balandlikka 45 gradus burchak ostida ko`tariladi (Gazetadan).

2-topshiriq. Kontseptual jadval tuzish

Kontseptual jadval-bu grafik tashkilotchi. Ushbu jadval uch va undan ko‘proq fakt yoki hodisalarni o‘zaro taqqoslashga, ularni atroflicha tahlil qilishga imkon beradi.

Maqsad:

Talabalarda manbalar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish

Talabalarda izlanishlar olib borish uchun zaruriy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirish

1-qadam-Yangi ma‘lumot bilan ishlash.

2-qadam- Jadval tuzish: jadvalning birinchi ustunida taqqoslanishi talab qilingan fakt , hodisalar nomlari, yuqori gorizontal qatorda esa taqqoslanuvchi jihatlar ifodalanadi.

3-qadam- Jadvalni to‘ldirish. Talabalar taqqoslanuvchi jihatlarni ta‘riflashadi va muvofiq turkumlar tagiga ma‘lumotni taqsimlab chiqadilar.

3-mashq. Sonlarning ma‘no turlari bo‘yicha berilgan ma‘lumotlarni o‘qing.

Unga qo‘shimchalar kirgizing.

Sonlar ma‘no va grammatik xususiyatlariga ko`ra ikkiga bo`linadi: sanoq sonlar va tartib sonlar.

Sanoq sonlar predmetning sanog`ini, umumiy miqdorini bildiradi va ma‘no jihatdan quyidagi turlarga bo6linadi: miqdor son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son.

Miqdor son predmetning umumiy miqdorini bildiradi va bir, o `n, o `ttiz, sakson, to'qson besh, yuz kabi qo`shimchalarsiz yoziladi.

Dona sonlar miqdor songa -ta qo`shimchasini qocshish bilan hosil qilinadi: sakkizta, to'qqizta, o lnta, mingta.

Chama sonlar miqdor songa -tacha, -larcha, -lab qo`shimchalarini qo`shish yoki ikki sonni juftlash orqali hosil qilinadi: yuztacha, o`nlarcha, minglab; o `n-o `n besh, besh-o`n, to `rt-beshtacha kabi. chama son taxminiy miqdomi bildiradi.

Jamlovchi sonlar -ov, -ala, -ovlon qo`shimchalari yordamida hosil qilinadi: ikkov, beshala, yettovlon kabi. Jamlovchi son predmetning jamlangan, to`dalangan holdagi miqdorini anglatadi.

Taqsim sonlar predmetning miqdor jihatdan bo‘linganligini bildiradi. Taqsim sonlar miqdor songa -tadan qo`shimchasini qo`shish orqali, hamda dona sonlaming takrorlanishdan hosil bo`ladi: beshtadan, o'ntadan, yuztadan: o lnta-o `nta, yuzta-yuztadan.

Tartib sonlar predmetning joylashish tartibini bildiradi. Tartib son miqdor songa -nchi (-inchi) qo`shimchasini qo`shish bilan hosil qilinadi: birinchi kurs, to‘rtinchi qavat, o`ninchi qator kabi.

Tartib sonlarning imlosi. Tartib son harflar bilan yozilganda -nchi (- inchi) qo`shimchasi so`zga qo`shib yoziladi: beshinchi. Tartib son arab raqami bilan ifodalanganda mazkur qo`shimcha o`mida chiziqcha qo`yiladi: 2- kurs, 18-maktab; rim raqami bilan ifodalanganda chiziqcha qo`yilmaydi, biroq o`qilganda -nchi (-inchi) talaffuz qilinadi: XXI asr, IX chaqiriq kabi. Tartib sonlararab raqami bilan

ifodalanib oy va yillami bildirsa ham chiziqcha qo'yilmaydi, lekin o‘qilganda -nchi (-inchi) qo‘shib talaffiiz qilinadi: 22 mart, 2004 yil kabi.
Sonlar qo‘llanishiga ko'ra butun va kasr sonlarga bo`linadi.

Butun sonlar umumiy miqdomi bo'laklarga ajratmagan holda, butunligicha ifodalaydi: besh, o`n, yuz kabi.
Kasr sonlar butunning qismini bildiradi: beshdan bir, o`ndan uch kabi.

Butun son bilan kasr son birgalikda ifodalansa kasrli son deyiladi. Kasrli son yozuvda quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:
12,5 - o‘n ikki yarim, o`n ikki butun o‘ndan besh. 1
3 - uchdan bir; bir taqsim uch. 5,03 - besh butun yuzdan uch kabi.

4-mashq. Gaplami o'qing sonlami topib, ma‘no turini va imlosini tushuntiring. Ularning gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Har bir odamni hayot o4z ummonidagi olovlari bilan pishiq g`isht kabi toblamasa, siz ming tarbiya berganingiz bilan g`isht xomligicha qolarkan, bir- ikki zarbadan uvalanib ketarkan (P.Qodirov). 2. Otasining rasadxonasida ilmi nujumdan saboq olgan Abdullatif osmondagi o'nlab yulduzlami bir qarashda tanir edi (P.Qodirov). 3. Uning ikkita aybi bor: birlamchi, jussadan beigan emas, ikkilamchi, xotinidan ko`p urish eshitadi (A.Qodiriy). 4. Har bir mingboshiga o4ntadan, har bir aminga ikkitadan, har bir ellikboshiga bittadan yaroqlik yigit beradigan bo4lishibdi (Cho'lpon). 5. Begimni madrasaga ikki nafar sodiq kanizagidan tashqari yana to‘rt nafar barvasta soqchilar ham kuzatib keldilar (P.Qodirov). 6. Uchovlon tashqariga chiqqanlarida daraxt soyasida poyloqchilik qilib turgan kishi yo‘lni to`sdi (P.Qodirov). 7. Uchala xotin ham bu yukning nimaJigini anglab yetolmadilar (Choipon). 8. Aholining uchdan bir qismi dehqonchilik bilan shug'ullanar ekan (Gazetadan).

Olmosh

1-mashq. Olmoshlar haqidagi fikrlarni o‘qing. Olmoshlarning mustaqil so‘z turkumlaridagi o‘rnini ko‘rsatib bering.

Predmet yoki uning biror belgisiga nom bo`lmay, predmet yoki belgi tushunchasining mavjudligini ko'rsatadigan mustaqil so`zlar turkumi olmosh deyiladi. Olmoshlar nutqda ot, sifat, son o`mida keladi va gapda ularga xos vazifani bajaradi.

Olmoshni boshqa turkumdagi so`zlardan ajratuvchi asosiy belgi uning ma‘no xususiyatidagi mavhumlik va umumiylikdir. Olmoshlar boshqa turkumdagi so`zlardan yasalmasligi jihatidan songa o‘xshaydi.

2-mashq. Gaplami o'qing. Olmoshlami topib, ularning qaysi so`z turkumi o`mida qo'llanganligini va gapdagi vazifasini ayting.

1. Avtobus shahardan chiqar mahalda Zelixon yigitaliga qarab ajablandi. Shuncha paytdan beri uning birga ekaniga ahamiyat bermagan ekan (T.Malik). 2. Shaharda bitta kutubxona bor. Bu kutubxona ham qarovsizlikdan to'kilib qolgan (Gazetadan). 3. Uning uchun bu eshik hovli bilan ko'chani bog'laydigan bir vosita emas, balki umid qopqasi edi (T.Malik). 4. Dunyoda faqat bir sobit suxan bor: U o'z farzandingga o'zing qo`ygan nom (A.Oripov). 5. Kimdir eski kursi keltirib gulxan yoniga qo`ydi (O'.Hoshimov). 6. Balki qovurma chuchvaradan umid qilib tavanxonaga kirgandir? Mo`ralab qarasam, u yerdayam yo'q (O'.Hoshimov). 7.

O‘sha kuni ham odatdagidek yarim kechada uyga qaytdim (0 4.Hoshimov). 8. Hammamiz duoyi-jonimizni qilib yuribmiz, siz mashq qilib bo'lguncha urush ham bitib qolarmish degin (O'.Hoshimov).

3-mashq. Gapdagi olmoshlami topib, qaysi so'z bilan bog‘langanligini ayting. Ulardagi qo'shimchalaming qo'shilishini izohlang.

1. O'zi pasmondaning ko'zi osmonda (Maqol). 2.Har qanday chuqur yerdan ham osmonga ko'tarilish mumkin (Seneka). 3.Palag`da tuxumga murch sepib bergan bilan uni yeb bo`lmaydi (A.Qahhor). 4. Mening oltita sadoqatli xizmatkorim bor. Hamma narsani ulardan o`rganaman. Ismlari: nima?, qachon?, qanday?, qaerda?, kim?, nimaga? (D.Kamegi). 5.Taqdirotning muqarrar qonuniga ko`ra, har bir xalq o`z turmushi bilan jami insoniyat hayotining qaysidir bir qirrasini ifodalashi lozim, aks holda, bu xalq hayot kechirmaydi, balki behuda tirikchilik qiladi va uning mavjudligidan hech qanaqa naf yo'q (V.Belinskiy).6. Biryoqlamalik har qanday odamga zararli, jumladan, butun insoniyatga ham. Butun dunyo Rimgaaylanganida, hamma xalqlar rimcha fikrlab, rimcha his qila boshlaganida, inson tafakkurining harakati ham to'xtaydi (V.Belinskiy). 7. Har kimning o'z eli - o'ziga shirin (Maqol). 8. Birovning bergani - ko‘rgulik, mehnatning bergani to`ygulik (Maqol). 9. 0 `zining butunini qo'yib, birovning yarmiga osilar (Maqol).

Topshiriq. Klaster tuzish.

Ushbu usul talabalarga erkin fikrlash, g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rnatish, ularni guruhlarga ajratishga imkon beradi.

O‘tkazish tartibi:

1-qadam-asosiy so‘z yoki gap kattaroq qog‘oz yoki doska o‘rtasiga yoziladi;

2- qadam- ushbu so‘z talabalar ongida ma‘lum assotsiatsiyalarni shakllantiradi;

qadam- shakllangan assotsiatsiyalarni anglatuvchi bu so‘zlar asosiy so‘z atrofiga yoziladi. Bunda ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniqlanadi.

Munozara qatnashchilariga eslatma

1.Munozara munosabatlar yig‘indisi emas, balki muammo echimi uslubiyatidan iborat.

2.Ko‘p gapirmasdan boshqalarning so‘zlashiga imkon ber.

3.Maqsadga erishish yo‘lida hissiyotlarni jilovlab, batafsil o‘ylagan holda so‘zla.

4.Raqiblaring vaziyatini o‘rganib, ularga xurmat bilan murojaat qil.

5.Raqiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va mulohazali yondash.

6.Munozara predmeti bo‘yicha chetga chiqmagan holda to‘g‘ri yondashib gapir.

Muammoli seminarning boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni o‘ziga oladi - munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to‘g‘riligini tasdiqlash, qo‘llangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to‘g‘ri qo‘llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to‘g‘ri boshqarish.

Taqrizchi - tomonlarning javoblarini yo‘nalishlar bo‘yicha belgilash va to‘liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyligi va masalalarning aniq qo‘yilganligi, xulosalarning aniq ko‘rsatilishi.

Raqib - qabul qilingan tadqiqot oʻrtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi.U faqatgina maʻruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda oʻzining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert - barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning maxsuldorligini baholaydi.

Munozara reglamentini o`tkazish tartibi

1.Boshlovchi maʻruza mavzusi va maʻruzachilarning taqdimotlarin eʻlon qiladi.

2.Maʻruza 5 minut davom etadi.

3.Taqrizchi - 2 minut.

4.Raqib - maʻruza mavzusi boʻyicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi. Jamoaviy muhokama - 5-10 minut.

Topshiriq. Berilgan maʻlumotlar asosida savol-javob oʻtkazish.

Olmoshlar maʻnosiga ko'ra yetti turga bo'linadi: kishilik olmoshlari, ko`rsatish olmoshlari, o`zlik olmoshlari, so'roq olmoshlari, belgilash olmoshlari, boiishsizlik olmoshlari, gumon olmoshlari.

Kishilik olmoshlari. Nutqdagi uch shaxs yoki predmetni ko'rsatib, birlik va ko'plikda qoMlanadi: men, sen, u; biz, siz, ular.

Ko'plikni ko'rsatuvchi biz, siz, ular olmoshlari qo'llanishiga ko`ra baʻzan birlik hamda kamtarlik, hurmat, kibrlanish, faxrlanish kabi modal maʻnolarni ifodalaydi. Biz, siz olmoshlariga baʻzan ko'plikni taʻkidlash maqsadida -/or qo'shimchasi qo'shiladi. Kishilik olmoshlari hech qachon egaiik qo`shimchalarini qabul qilmaydi. Men, sen olmoshlariga qaratqich va tushum kelishigi qo`shimchalari qo'shilganda bitta n tushib qoladi: men+ni—meni, men+ning - mening. U olmoshi jo'nalish, o`rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olganda bitta n orttiriladi: u+ga—unga, u+da—unda, u+dan— undan.

Ko`rsatish olmoshlari predmet, shaxs, belgi, voqea-hodisa, o'rin yoki vaqtga nisbatan ko'rsatish, ajratish, taʻkidlash uchun ishlatiladi. Ko'rsatish olmoshlariga quyidagilar kiradi: bu, shu, и, o lsha, ana u, mana bu. Poetik nutqda va tarixiy asarlarda ul, bul, shul, o `shal olmoshlari qo'llanilganligini kuzatish mumkin.

Ko'rsatish olmoshlariga qoʻshimchalar quyidagi tartibda qo'shiladi: Olmosh+kelishik: u+ni, shu+ning, o`sha+ni.

Olmosh+ko'plik: u+lar, bu+lar, o'sha+lar. Olmosh+ko'plik+kelishik: u+lar+ni.

Olmosh+ko'plik+egalik+kelishik: shu+lar+ing+ni, o'sha+lar+ing+da.

So`roq olmoshlari predmet, shaxs, belgi, ish-harakatning bajarilish o'mi haqidagi so'roqni bildiradi.

So'roq olmoshlariga quyidagilar kiradi: kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, necha?, qancha, qachon?, qaerda?. Poetik nutqda ne? na?, nechun?, nechuk?, qay? shaklida qo'llanishi kuzatiladi.

Oʻzlik olmoshi aniq, yakka shaxsni ajratib ko'rsatish uchun qo`llanadi. Oʻz (o'zi) so`zi o`zlik olmoshi hisoblanadi. Bu olmosh kishilik olmoshlari o`mida: o 'zim-o `zing-o `zi; o `zimiz-o lzingiz-o `zlari baʻzan birga men o`zim

-sen o`zing - uning o`zi; ot o'mida kelib, egaiik qo'shimchasini oladi va har uchala shaxsni ko'rsatadi. Qo`shimchalar qabul qilish tartibi quyidagicha:

olmosh+egalik—o`z+i; olmosh-begalik+kelishik—o`z+i+ni. Ko'plik qo'shimchasini olganda nutq vaziyatiga ko'ra hurmat, kesatiq, piching kabi modal ma‘nolami ifodalashi mumkin. Gapda ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi va kesim vazifasida keladi.

Belgilash olmoshlari predmet yoki uning biror belgisini jamlab, yakkalab, ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Har kim, har nima, ba ‘zi, har qanday, har qaysi olmoshlari shaxs yoki narsa belgini ajratib, alohida ta‘kidlash orqli ifodalaydi.

Hamma, barcha, bari, butun olmoshlari jamlashga, umumlashtirishga xizmat qiladi. Butun, bari olmoshlari ko`plikda qo'llanmaydi. Ba‘zi olmoshi va har so'zi ishtirokida yasalgan belgilash olmoshlariga kelishik qo'shimchasi egaiik qo'shimchasidan so'ng qo'shiladi: ba‘zisini, har qaysingizni.

Belgilash olmoshlari gapda sifatlovchi bo'lib keladi. Otlashganda (hammasini, ba‘zilar, har narsangizni) otga xos morfologik sintaktik xususiyatga ega bo'ladi.

Bo'lishsizlik olmoshlari umuman mavjud bo'lmagan predmet, belgi yoki miqdomi ko'rsatadi. Bo'lishsizlik olmoshi hech so'zidan keyin so'roq olmoshi yoki narsa, bir so'zini keltirish bilan hosil qilinadi: hech qaysi, hech kim, hech narsa, hech bir kabi.

Gumon olmoshlari mavjud, ammo noma‘lum bo'lgan predmet, belgi yoki miqdomi ko`rsatadi. Gumon olmoshlari so'roq olmoshlariga -dir qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi: kimdir, nimadir, qaysidir kabi. Shuningdek, so'roq olmoshlari oldidan alia yoki bir elementini keltirish bilan: allakim, allanima; bir narsa, bir qancha, bir necha kabi hosil qilinadi.

Nutqda ba‘zi, birov olmoshlarining birgalikda qo'llanilganini kuzatish mumkin: ba‘zi birov, ba‘zi birovlaming kabi. Bir so'zi qaysi, ba‘zi olmoshlaridan so'ng kelishi mumkin: qaysi bir, ba ‘zi bir. Kimdir, qandaydir olmoshlariga sinonim bo'lgan birov, biron, biror so'zlari ham gumonni anglatadi. Hatto bir so'zining o`zi ham o'miga ko'ra gumonni anglatadi.

4-mashq. Gaplardagi kishilik va ko`rsatish olmoshlarining ma‘no va grammatik xususiyatlarini aniqlang.

1. Mana biz, taqsir, shu keyingi ishda ko'rilmasa ham faqat shirin xayollardagina yurgan oliy firqag'a o'zimizda tarafdorlik his etamiz. 2.-Biz bu daqiqada sizning fikringizcha go'yo bir ig`vogar, go`yo bir isyonchi bo‘lib tanilib turibmiz, - dedi bek, - chindan ham shundoq kishilarmizmi, yo4qmi, buni albatta sizning tekshirishlaringiz, haqiqatlaringiz ko4rsatar. 3. Ana, ana, hov aka! O'sha qipchoqqa o‘q tegib o'lib o‘lalmay, yurib yuralmay ingrab yotqan ekan. 4.U1 bizni aniq toshkandlik bo‘lg‘onimizga ishonsa darbozaga solingan nortuyaning boshidek qulftii ming mashaqqat bilan ochib, zanjirini tushuradir. 5.O‘shal kungi manim so'zlag'anlarim, otam bilan manim ichki sirlarimiz edi, - dedi bek, - albatta bunga guvoh va isbot toppish qiyindir. Adolatingizdan talabimiz shul! — dedi va qo‘rboshig4a qaradi. 7. Uning yuzida qo'rqish va iztirob alomatlari ko‘rdi. 8. Mundan so‘ng xalqning o'ziga ishonib turolmay Toshkandni ololmay qaytqan Normuhammad qushbegiga yordamga yetib kelish uchun chopar yugurtiradi. 9. Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo'lardi-ku, - dedi. 10. Biz sani Marg`ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingni o`ylamag`an edik, adabsiz... O'zingga qolsa shu marg'ilonliqni xoting'a hisoblab yuraberar ekansan-da, uyatsiz... (A.Qodiriy).

5-mashq. Gaplardagi so'roq olmoshlarini topib, nimaga nisbatan so'roq ifodalashini ayting. So'roq olmoshlarining ma‘no va grammatik xususiyatini izohlang.

1.O‘chib borayotir qanchalar kalom, Ne-ne bitiklar ham yo‘qdir, vassalom (A.Oripov). 2. Odamlar o`g‘ri devomi qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorga sotishi mumkinligi to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi (A.Qahhor). 3. Hazratimni men nechun uyg`otdim? (P.Qodirov). 4. Bobur sahhoflami chaqirib, bu kitobning eng baland narxi qancha bo'lishini so'radi (P.Qodirov). 5. Nimaga ishondim anavi imonsizning gapiga? Bolang nobud bo'pti desa, nega laqqa tushdim? (O'.Hoshimov). 6. Nima deb kelardim? Kimning oldiga? Qaysi yuz bilan? (O'.Hoshimov). 7. Dunyoning qanchalar chehrasi o'zgardi, qanchalar yangiliklar ro'y berdi (G'.G'ulom). 8. - Qanday kuyni chalay, bek aka? (A..Qodiriy). 9.Nega qadding egik, nega boshing xam, Nega nigohingni tortadi tuproq? (A.Qodiriy). 10. Bir qo'yning puli ekan, qayoqdan kelib, qayoqdan ketmaydi (P.Qodirov).

6-mashq. Berilgan misollardagi o'zlik olmoshining ma‘no va grammatik xususiyatini izohlang.

1. Inson boshiga kelgan fojealarni o`zicha tahlil qiladi. Yuzaki sabablar bog'lab yuradi. Ammo o'zini, o'zligini anglagan inson hayotida sodir bo'lga ko'ngilsizliklar sababini o'zidan izlab ko'radi (B.Nurmuhammad). 2.O‘z uyim o'lan to'shagim (Maqol). 3. Endi uning butun borlig'i quloq bo'lib aylangan, o'zin unutib barcha diqqati hujraga ichiga oqg'an edi (A.Qodiriy). Topshiriq.

O'zingiz o'qigan badiiy asarlardan gumon olmoshlari ishtirok etgan gaplami ko'chiring va olmoshlami tahlil qiling.

Olmoshlarning tahlil qilish tartibi:

1. Ma‘no turi.
2. Qo`shimchalari tartibi.
3. Tuzilishiga ko`ra turi.
4. Qaysi so`z bilan bog`lanishi.
5. Qaysi so`z o`midaqo`llangani.
6. Gapdagi vazifasi.

Namuna: O `sha kitobni olib bering.

l. o `sha - ko`rsatish olmoshi
2. qo`shimchasiz qo‘llangan
3. Sodda
4 . O‘sha kitobni: olmosh + ot
5. Sifat.
6. Aniqlovchi

2-topshiriq. Berilgan olmoshlami ma‘nosiga ko'ra turlarga ajratib yozing. Bari, hech qaysi, kimdir, har kim, hamma, hech kim, mana bu, o'sha, qalay,
nega, nimadir, qancha, o'zi, na, jami, yalpi, hech nima, butun, qandaydir, allanima, allakim, allaqanday, birov, biz, nechun ular, siz, men, u, qanaqa.

3-topshiriq. Berilgan olmoshlami tuzilishiga ko'ra turlarga ajratib yozing.Shu-shu, qay vaqt, mana bu, allaqaysi, har bir, hech qanday, ba‘zi, nega, bari, jami, yalpi,

o4sha-o`sha, uni-buni, allaqanday, hech kim, qanchadan-qancha, necha-necha, ana u, siz, biz, men, u, kim, nima.

5-MAVZU
FE’L SO’Z TURKUMI SIFATIDA. BO’LISHLI, BO’LISHSIZ FE’LLAR. O’TIMLI, O’TIMSIZ FE’LLAR. FE’LLARNING NISBAT KATEGORIYASI.

Guruh bilan ishlash qoidalari

Har biri o‘z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;

Har biri berilgan topshiriqlar bo‘yicha faol, hamkorlikda va mas‘uliyat bilan ishlashlari lozim;

Har biri o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin; Har biri yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;

Har biri guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

Har biri: "Biz bir kemadamiz, birga cho‘kamiz, yoki birga qutulamiz" atamasini yaxshi bilishlari lozim.

Munozara savollari.

1. Oila Vatan bo‘la oladimi ?
2. Vatanni madh etuvchi she‘r yoki hikoya bilasizmi?
3. Xorijdagi vatandoshlarga munosabatingiz?
4. Fe‘la xos xususiyatlarni sanab bering.
5. Bo‘lishli fe‘llarga misol keltiring.
6. Bo‘lishsiz fe‘llarni misollar yordamida tushuntirib bering.
7. ―aytmay qo‘yma‖, ―gapirma qo‘yma‖ shakllari bo‘lishli fe‘lmi, bo‘lishsiz fe‘lmi?
8. O‘timli fe‘lni o‘timsiz fe‘lga aylanishini misol bilan tushuntiring.
9. O‘timsiz fe‘lni o‘timli fe‘lga aylantiring.

Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari

Guruh	Mavzunin g echimi	Tushuntiris h (aniqlik,	Guruh faolligi (qo‘shimchala	Jami ballar	Baho
	(1,2)	(1,2)	(0,6)	(3,0)	
1.					
2.					
3.					
4.					

"Insert usuli "

Insert - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma‘ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; Q; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(Q) - yangi ma‘lumot.

(-) - men bilgan narsaga zid.

(?) - meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma‘lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	Q	-	?
Fe‘l				
Bo‘lishli fe‘l				
Bo‘lishsiz fe‘l				
O‘timli fe‘l				
O‘timsiz fe‘l				

Testlar

1. Qaysi qatorda holat fe’llari berilgan?
A. unmoq, jimirlamoq, ikkilanmoq B. yiqilmoq, bo`yamoq, o`ylamoq C. porlamoq, ketmoq, tegmoq D. sarg`aymoq, tekislamoq, bermoq
2.Qaysi qatorda o`timli fe’llar qo`llangan?
A. almashmoq, joylashmoq, kuymoq B.o`xshamoq, jiringlamoq, so`ramoq C. o`qimoq, jilmaymoq, kiyinmoq D. joylashtirmoq, almashmoq, yaxshi ko`rmoq
3.Qaysi gapda orttirma nisbat shaklidagi fe’l qo`llangan?
A. Yo`lga chiqqan bahodirga ota-onasi yoki suyuklisi non tishlatgan B. Bolalar kitob, jurnal, gazetalar o`qigani tez-tez keladigan bo`ldilar C. Bolaga ins-jins ziyon yetkazmasin deb, ona o`z go`dagi yostig`i ostiga non qo`ygan. D.A va S
4.Bir kuni chol bechora qo`li titrab , osh suzib berilgan kosasini tushirib sindirdi. Ushbu gapda qaysi nisbatdagi fe’llar qo`llanilagn?
A. o`zlik, majhul, orttirma nisbatlar B. aniq, majhul, orttirma nisbatlar C. orttirma, birgalik, aniq nisbatlar D. majhul, birgalik, aniq nisbatlar
5. Qaysi gapda o`zlik nisbat shaklidagi gap berilgan?
A. Ammo kampirning dodiga odam tez to`plandi B. Belbog`imga bitta kulcha tugilgan C. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko`chirdi D. Yo`lga chiqqan bahodirga ota-onasi yoki suyuklisi non tishlatgan
6.Qaysi gapda birgalik nisbat shaklidagi gap berilgan?
A. Boshida tashvishi bo`lishiga qaramay , bolani erkalashga, tarbiyalashga vaqt topdi B. Alisher uyga kirishi bilan qolganlar jim bo`lishdi C. Har bir voqea-hodisaga katta mas’uliyat bilan yondashishimiz kerak D. barcha javoblar to`g`ri
7. 1.Qushlar uni yaxshi ko`rishib, Mayna deb ism qo`yishibdi 2.Yozuvchi turmushni har taraflama o`rganishi, buning uchun uning hamma sohalaridan xabardor bo`lishi kerak. Ushbu gaplardagi fe’llarda qo`llangan –ish qo`shimchasi haqidagi qaysi hukm to`g`ri?
A. ikkala gapda birgalik nisbat shakli hosil qilingan B. birinchi[201] gapda harakat nomi, ikkinchi gapda birgalik nisbat shakli hosil qilingan C. birinchi gapda birgalik nisbat, ikkinchi gapda harakat nomi shakli hosil qilingan D. ikkala gapda harakat nomi shakli qo`llanilgan
8.Qaysi qatordagi gapda o`tgan zamon sifatdoshi qo`llangan?
A. Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko`tarib kelayotgan yosh nihollarni tebratar edi B. Vahobjon boyagi qiz ko`rsatgan uy eshigining tugmasini bosdi C. Bilmaslik

ayb emas, bilmasligini bo`yniga olmaslik ayb D. Onang ko`zlariga boqib, uning his-xohishlarini o`rgan

9.Bola boshini qo`llari orasiga qo`yib, Boysun tog`i uzra charx urayotgan bulutlarga qarab jim qoldi. Ushbu gapda nechta o`rinda fe'lning vazifa shakllari qo`llangan?

A. 4 B. 2 C. 5 D. 3

10.Boysariboy o`n ming uyli Qo`ng`irot eli bilan ko`chib borgach, Ko`kqamish ko`li atrofida mollarini semirtirib, yaylovda yayrab yotadi. Ushbu gapda nechta o`rinda ravishdosh qo`llangan va ular qaysi nisbat shakllarida?

A. 3 o`rinda; o`zlik, orttirma va aniq nisbatlarda B. 4 o`rinda; aniq, orttirma, nisbatlarida C. 2 o`rinda; aniq va o`zlik nisbatlarida D. 3 o`rinda; aniq va orttirma nisbatlarda

Doskaga BBB tehnologiya jadvalini ilib uni to`ldirib olamiz.

BILAMAN.	BILISHNI HOHLAYMAN	BILIB OLDIM
Fe`llar shaxs va narsaning harakatini bildiradi  Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? So`roqlariga javob bo`ladi, bo`lishli va bo`lishsiz fe`llar.	**Fe`l zamonlari.**	

**O`qituvchi:**Demak bugun sizlar bilan fe`l zamonlari mavzusini o`rganamiz.

374-mashq. Gaplarni o`qing, so`roqlar yordamida fe`llarni aniqlang.

**O`qituvchi**: Maktabimiz badiiy havaskorlari tuman ko`rigida 1-o`rinni egalladi.

Nima qildi? Egalladi. Egalladi so`zi fe`l so`z turkumi.

Dehqonlar ariqlarni tozalayaptilar.

Nima qilyaptilar? Tozalayaptilar. Tozalayaptilar so`zi fe`l so`z turkumi.

Sayyora kelajakda shifokorlik kasbini egallamoqchi.

Nima qilmoqchi? Egallamoqchi. Egallamoqchi so`zi fe`l so`z turkumi.

**O`qituvchi**: O`quvchilar ushbu fe`llarni taqqoslang, ushbu so`zlar nimasiga ko`ra farqlanyapti?

O`quvchilar; Qo`shimchasiga ko`ra, shaxs soniga ko`ra.

Kuzating har bir gapdagi harakat qachon bajarilayapti?

Maktabimiz badiiy havaskorlari tuman ko`rigida 1-o`rinni egalladi. Ushbu gapda harakat bajarilib bo`lingan.

Dehqonlar ariqlarni tozalayaptilar. Ushbu gapda harakat hozir bajarilayapti.

Sayyora kelajakda shifokorlik kasbini egallamoqchi. Ushbu gapda harakat keyinroq bajariladi.

O`qituvchi**: **Fe`llarda harakat 3 zamonda bajariladi.

- So`zlab turgan paytingizdan avval- o`tgan zamon

- So`zlab turgan paytingizda –hozirgi zamon
- So`zlab turgan paytingizdan keyin- kelasi zamon

Qachon bajarilayotganini so`zlab turgan paytimizga qarab belgilaymiz.
O`qituvchi; Barakalla bolajonlar.

1-mashq
Hovliga chiqdik. Yo`lakda bir chumchuq bolasi og`zini kappa-kappa ochmoqda. Bir oyog`i singan. Bahodir ikkimiz chumchuq bolasining singan oyog`iga qog`oz o`radik vaip bilan bog`ladik. Bahodir pashsha tutib berdi. Bahrom non uvoq bilan boqdi. Qushcha uy ichida aylanib uchadigan bo`ldi. Ba`zan ona chumchuqning ovozi eshitilib chiriqlaydi. Uni onasi sog`inib yig`layapti, deb uchirib yubordik.

O`tgan zamon fe`li	**Hozirgi zamon fe`li**	**Kelasi zamon fe`li**
Tutib berdi *Boqdi* *Uchadigan bo`ldi* *Chiriqlaydi* *Uchirib yubordik*		

Doskaga ilingan “BBB”tehnologiyasini bugungi mavzudan kelib chiqqan holda to`ldirib qo`yamiz.

BILAMAN.	BILISHNI HOHLAYMAN	BILIB OLDIM
Fe`llar shaxs va narsaning harakatini bildiradi Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? So`roqlariga javob bo`ladi, bo`lishli va bo`lishsiz fe`llar.	Fe`l zamonlari.	Fe`l so`z turkumi 3 zamonga bo`linadi. O`tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

Savollar

1.Fe`l deb nimaga aytiladi?
2.Fe`lda nechta zamon bor?
3.Fe`l zamonlarini qanday belgilanadi?
4.Fe‘l so‘z turkumiga ta‘rif bering.
5.O‘timli va o‘timsiz fe‘llar deganda nimani tushunasiz?
6.Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llarga to‘xtalib o‘ting.
7. Nisbat tushunchasiga to‘xtalib o‘ting

Harakat fe’llari deb qanday fe’llarga aytiladi? 2. Holat fe’llariga misollar keltiring. 3. Qoraymoq, ko‘karmoq, qizarmoq fe’llarining nima sababdan holat fe’llari sanalishini ayting

O‘timli fe’llar deb nimaga aytiladi? 2. O‘timsiz fe’llar qanday so‘zlarga bog‘lanib keladi? 3. O‘timli fe’llarni o‘timsiz fe’llarga aylantiruvchi vositalar qaysilar? 4. O‘timsiz fe’llar qanday qo‘shimchalar orqali o‘timliga aylantiriladi?

6-MAVZU
FE’LLARNING MAYL KATEGORIYASI. FE’LLARNING ZAMON KATEGORIYASI. FE’LLARNING SHAXS-SON KATEGORIYASI.

1.Qaysi qatordagi gapda o`tgan zamon sifatdoshi qo`llangan?
A. Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko`tarib kelayotgan yosh nihollarni tebratar edi B. Vahobjon boyagi qiz ko`rsatgan uy eshigining tugmasini bosdi
C. Bilmaslik ayb emas, bilmasligini bo`yniga olmaslik ayb D. Onang ko`zlariga boqib, uning his-xohishlarini o`rgan
2.Bola boshini qo`llari orasiga qo`yib, Boysun tog`i uzra charx urayotgan bulutlarga qarab jim qoldi. Ushbu gapda nechta o`rinda fe’lning vazifa shakllari qo`llangan?
A. 4 B. 2 C. 5 D. 3
3.Boysariboy o`n ming uyli Qo`ng`irot eli bilan ko`chib borgach, Ko`kqamish ko`li atrofida mollarini semirtirib, yaylovda yayrab yotadi. Ushbu gapda nechta o`rinda ravishdosh qo`llangan va ular qaysi nisbat shakllarida?
A. 3 o`rinda; o`zlik, orttirma va aniq nisbatlarda B. 4 o`rinda; aniq, orttirma, nisbatlarida C. 2 o`rinda; aniq va o`zlik nisbatlarida D. 3 o`rinda; aniq va orttirma nisbatlarda
4.Qaysi qatordagi ravishdosh holat ma’nosini ifodalagan?
A. Toqqa chiqqach, osmonning pastligini his qildi B. Bobur gulni yana bir hidlab, boshidagi sallasining qatiga qistirib qo`ydi. C. Gapni bilib-bilmay gapirmaslik kerak D. B va S
5.Qaysi gapdagi fe’l tarkibida ko`makchi fe’l mavjud? 204
A. Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi B. O`yin-kulgi, askiya yarim kechagacha davom etdi C. Onam bilan miriqib suhbatlashdim D. Choyxonachi patnisda non bilan qand-qurs, kabobpaz kabob olib keldi
6. 1.U sumkasidan kitobini chiqardi. 2. U doim aylanishga chiqardi. Ushbu gaplardagi –ar qo`shimchasini izohlang.

A. 1-gapda orttirma nisbat, 2-gapda aniq nisbat B. 1-gapda aniq nisbat, 2-gapda orttirma nisbat C. 1-gapda aniq nisbat, 2-gapda birgalik nisbat D. Har ikkala gapda orttirma nisbat

7.Saida o`rtog`i bilan shu qarorga kelishdi. Ular o`qishga kelishdi. Ushbu gaplardagi kelishdi so`zining nisbatini aniqlang.

A. 1-gapda aniq nisbat, 2-gapda birgalik nisbat B. 1-gapda birgalik nisbat, 2-gapda aniq nisba C. Har ikkala gapda birgalik nisbat D. Har ikkala gapda aniq nisbat

8.U yuziga belbog`ini tashlab ko`rpachaga cho`zildi. Lag`mon ingichka qilib cho`zildi. Ushbu misollardagi cho`zildi so`zining nisbatini aniqlang.

A. 1-gapda majhul nisbat, 2-gapda o`zlik nisbat B. 1-gapda o`zlik nisbat, 2-gapda majhul nisbat C. 1-gapda aniq nisbat, 2-gapda majhul nisbat D. Har ikkala gapda majhul nisbat

9. Qaysi so`zlardan bir xil grammatik shakl bilan ham majhul, ham o`zlik nisbat hosil qilish mumkin?

A.Kiymoq, taramoq, bermoq B.Sevmoq, ko`rmoq, tayyorlamoq

C.Olmoq, o`qimoq, bormoq D.Qoqmoq, yozmoq, to`plamoq

10.Shart mayli shaklidan keyin qaysi vositani keltirish orqali taxmin-gumon ma’nosi ifodalanadi?

A.Shaxs-son shaklini B.To`liqsiz fe’llarni C.Kerak so`zini D.Barcha javoblar to`g`ri

1-mashq. Matnni o‘qing, fe’llarni topib, ularning mayl, nisbat, zamon shakllarini belgilang. Oxirgi gap bo‘yicha bahslashing.

... Alisher o‘rtog‘ining aytganini eshitmadi, shekilli: – Ov qilmoq, merganlik – ermak narsa, lekin eng zo‘r zaruriyat maktabdir. Turmushning ko‘p sirlarini maktab o‘rgatadi. Suhbatning bunday keskin o‘zgarganidan shoshib, bir on jim qolgan bolalarning kattarog‘i: – Kim o‘rgatdi senga bu gaplarni? – deb so‘radi Alisherga tik qarab. – Bilaman-da, otam hamisha: «Olim odam xor bo‘lmaydi», – deydilar. (Oybek)

2-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan qo‘shimchalarga ta’rif bering.

Hayitvoy o‘rtog‘imnikiga kirmadim. Murodxonlarnikiga qarab yurdim. Shu o‘rtog‘im juda yaxshi-da! Lekin sizlab gapiradi, men ham sizlayman. Keyin-chi, otalarini «dada» deb chaqirishadi. Murodxonga: – Jon o‘rtoq, bedanalarni qo‘yib yuboraylik, onalarining oldiga borishsin, bizni duo qilishadi, – degandim, darrov rozi bo‘lib, uylaridan katta qaychi olib chiqdi. (X. To‘xtaboyev)

3-mashq. Fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turini aniqlab, jadvalga joylashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Berdi-qo‘ydi, sotib olmoq, sotmoq, yuzlanmoq, o‘lchamoq, qaltiramoq, irg‘ishlamoq, qo‘zilamoq, uyqusiramoq, ko‘karmoq, burmoq, qo‘l urmoq, xatlamoq, kulmoq, javob bermoq, nazar solmoq, olib chiqmoq, aytdi-qo‘ydi, sindi-qoldi.

4-mashq. Gaplarni ko‘chiring. O‘tgan zamon fe’llarini toping, ularni hozirgi zamon va kelasi zamon fe’llariga aylantirishga urinib ko‘ring.
1. Qizlar to‘da-to‘da bo‘lib lapar aytishdi. (N. Safarov) 2. Sinf rahbarimiz Hasan aka menga bildirmay G‘anini uyga yuboribdilar. (M. A’zamov) 3. Aka-ukalar to‘qayda bo‘ri, to‘ng‘iz, tulkilar ko‘p bo‘lishini eshitishgan edi. (X. To‘xtaboyev) 4. Mana bu shotutni bobosi ekkan ekan. (Sh. Otaboyev) 5. Ho‘ so‘ridagi cholni ko‘rdinglarmi, yonidagi chollarga Navoiy g‘azallarini o‘qib berib o‘tiribdi. (S. Anorboyev)

5-mashq. Berilgan gaðlardagi fe’llarni toðing. Kelasi zamon ma’nosini ifodalayotgan qo‘shimñhalarni aniqlang.
1. Daryoning suvi ko‘ðaysa, baliqlarning ñhiqishi oson bo‘ladi. (Said Ahmad) 2. Kunlarning sanog‘in bilmay qolasan. (Omon Muxtor) 3. Maktabga boray, siz aytgan narsani toðay, keyin aytaman. («G‘unña»dan) 4. Dalaga suv ñhiqaraman, ekinlar gurkirab, yashnab ketadi. (Said Ahmad) 5. Ertaga mashina kelar, kelmasa, yo‘lga ñhiqmayman. (Omon Muxtor)

6-mashq. Fe’llarni toping, qaysi mayldaligini aniqlang.
1. Avvallari yashash uchun yozdim, endi yozish uchun yashayapman. 2. Inson qanchalik uzoq yashasa, yana shuncha ko‘proq yashagisi keladi. 3. Qarilikdan qo‘rqma, unga hali yetish kerak. 4. O‘n olti asr oldin toshga o‘yib bitilgan O‘rxun bitiklarini o‘qing. (Asqad Muxtor)

7-mashq.Matnni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qaysi zamon shaklida ekanini aniqlang.
Labihovuzning bahorini ko‘rganmisiz? Yo‘qsa, so‘ylab berayin. Buxoroga bahor erta keladi. Ilk bahor kunlaridanoq quyosh kiftni kuydiradi, mitti yaðroqlardagi bo‘yoqlarni shimiradi, binolar devori kun-bakun oqara boradi. Shamol xuddi kuzdagidek ñhang-u g‘uborni qo‘zg‘ab, telbalarñha har yon yuguradi. O‘riklar oððoq gullaydi, akatsiyalar o‘z shoxlarini bezaydi... (Omon Muxtor)

8-mashq. Fe’llarni tarkibiy qismlarga ajrating. Shaxs-son qo‘- shimñhalarining asosga qo‘shilishiga diqqat qiling.
1. Yuringlar,— dedi kamðir o‘rnidan turib. Keyin mening yelkamga qoqdi. – Sen ham yur, shirin bola. (O‘. Hoshimov) 2. Bir mahal ñharñhab, suvsab, holdan toyib o‘tirib qolibman. (Õ. Òo‘xtaboyev) 3. O‘shanda yetti yoshlarda edim. Òog‘da yashardik. (Sh. Õolmirzayev) 4. Òo‘g‘ri gaðirding. Yaxshi gað, diqqat-e’tibor har qanday doridan kuñhli ekan. (O‘. Umarbekov) 5. Imtihon ro‘yxatida Odil bilan men ham bor ekanmiz. Sevindik... (N. Safarov)

Savollar
1.Fe’lning noaniq shakli deb nimaga aytiladi?
2.Fe’lning munosabat shakllari haqida so‘zlab bering.
3.Fe’lning noaniq shakliga munosabat shakllari qanday qo‘shiladi?
4.Zamon shakllari deb nimaga aytiladi?

5.Fe’l zamonlari necha xil bo‘ladi?
6.-di, -yapti, -moqchi qo‘shimchalari yordamida qaysi zamon shakllari yasaladi?
7.O‘tgan zamon fe’llari deb nimaga aytiladi?
8.O‘tgan zamon fe’llari qanday qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
9.O‘tgan zamon fe’llariga shaxs-son qo‘shimchalari qay tarzda qo‘shiladi?
10.-di qo‘shimchasi yordamida o‘tgan zamon fe’llarini yasang.
11.-(i)b qo‘shimchasi yordamida o‘tgan zamon fe’llarini hosil qiling.
12.-gan, (-kan, -qan) yordamida o‘tgan zamon fe’llarini yasang.
13.Edi, ekan, emish to‘liqsiz fe’llari ishtirokida gaðlar tuzing va zamonini belgilang.
14.Bu to‘liqsiz fe’llarning qanday so‘zlarga qo‘shilishini ayting
15.Hozirgi zamon fe’llari deb qanday fe’llarga aytiladi?
16.Hozirgi zamon fe’llari qanday qo‘shimñhalar yordamida yasaladi?
17.Turmoq, yugurmoq fe’llarining hozirgi zamon shakllarini hosil qiling.
18.Unli bilan tugagan fe’l asoslaridan hozirgi zamon shaklini yasang.
19.Undosh bilan tugagan fe’l asoslaridan hozirgi zamon shaklini hosil qiling.
20.Kelasi zamon deb nimaga aytiladi?
21.Kelasi zamon fe’llari qaysi qo‘shimñhalar yordamida yasaladi?
22.Kelasi zamon fe’l shakllarining hozirgi zamon ma’nosini ifodalashiga misollar keltiring..
23.Xabar mayli deb nimaga aytiladi?
24.Xabar maylidagi fe’llarga misollar keltiring.
25.Ishlamoq, yoðmoq, qurmoq fe’llarining xabar maylidagi shakllarini yasang.
26.Buyruq-istak mayli deb nimaga aytiladi?
27.Buyruq-istak mayli qaysi qo‘shimñhalar yordamida hosil qilinadi?
28.Buyruq-istak maylidagi fe’llarga misollar keltiring..
29Boringiz, boring fe’llari ishtirokida gaðlar tuzing va ular o‘rtasidagi farqlarni ayting.
30.II shaxs buyruq-istak maylidagi fe’llarga misollar keltiring.
31.Hurmat ma’nosini bildiruvñhi II shaxs buyruq-istak maylidagi fe’llar ishtirokida gaplar tuzing.. Shart mayli deb nimaga aytiladi?
32.-sam, -sak, -sangiz qo‘shimñhalarini fe’llarga qo‘shing va ma’nolarini tushuntiring.
33.Termoq, gullamoq, ðarvarishlamoq fe’llarining shart mayli shaklini hosil qiling
34.Shaxs-son qo‘shimñhalari deb nimaga aytiladi?
35.I va II shaxsni bildiruvñhi shaxs-son qo‘shimñhalari qaysilar?
36.III shaxsda shaxs-son ma’nosi qanday ifodalanadi?

7-MAVZU
FE’LNING VAZIFADOSH SHAKLLARI. SOF FE’L, RAVISHDOSH. SIFATDOSH, HARAKAT NOMI. FE’LNING YASALISHI. FE’LNING MODAL SHAKLLARI VA TUZILISH JIHATDAN TURLARI.

1-mashq. Berilgan gaplardagi fe’llarning vazifa shaklini aniqlang va tushuntiring. 1. Alisher uyga kirishi bilan qolganlar jim bo‘lishdi. (Oybek) 2. Azizim, qizingizning baxtini birovlarning ostonasidan qidirmang. (Abdulla Qahhor) 3. Suv kelguncha, podani tepaga haydab chiqdi. Misoli suvga kalla qilganday o‘zini soyga otdi. (Òog‘ay Murod) 4. Òursunboy tizzasini ushlab zo‘rg‘a qadam bosardi. (Abdulla Qahhor) 5. Siddiqjon borishni ham, qaytishni ham bilmay qoldi. (Abdulla Qahhor)

2-mashq. Berilgan gaplardagi fe’llarning vazifa shakllarini toping, tahlil qiling. Alisher Navoiy o‘zbek xalqining ulug‘ shoiri va mutafakkiri bo‘lib, u o‘zbek adabiyotini, ayni zamonda, jahon adabiyotini ajoyib durdonalar, o‘lmas badiiy obrazlar bilan boyitdi. Shoir o‘z ijodiy faoliyati bilan XV asr o‘zbek adabiyotini mislsiz taraqqiyot cho‘qqilariga ko‘tarib, uyg‘onish davri deb fe’llarning vazifa shakllari harakat nomi atalayotgan bu davr madaniy va adabiy hayotida burilish yasadi. Zo‘r jur’at va mahorat bilan insonparvarlik, xalqparvarlik, taraqqiyparvarlik g‘oyalarini ilgari surib, xalqimizning nomini jahonga yoydi. Oradan qancha zamonlar o‘tsa-da, uning nomini faxr bilan tilga olyapmiz. («Adabiyot» darsligidan)

3-mashq. Harakat nomlariga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring, harakat nomlarini izohlang.
1. Jo‘yakda cho‘zilib, soya-salqinda dam olish... (-ni, -ning, -ga) nima yetsin? (S. Barnoyev) 2. Aql odamga o‘ylash... (haqida, uchun, to‘g‘risida) berilgan. (O‘. Hoshimov) 3. Nasiba ertalab barvaqt kelish sharti bilan dugonasiga ketish... (-dan, -ga, -ni) ijozat berdi. (O. Yoqubov) 4. Uning bu boqishi.... (-ida, -ining, -iga) Sobirning bilag‘onligiga qoyil bo‘lish... (-ga, -dan, -qa) tashqari ajablanish ham bor edi. (Hakim Nazir)

4-mashq.Gaplarni ko‘chiring. Sifatdoshlarni topib, yasalishini tushuntiring.
1. Endigina ko‘tarilib kelayotgan oy sarg‘ish nurlar sochib, tun qo‘ynida mudrayotgan pastqam uylarning tomlarini, daraxtlarning yalang‘och novdalarini yoritib turardi. (Õ. Òo‘xtaboyev) 2. Chuqur ariqdan toyimni sug‘orib chiqayotganimda bir to‘da uloqchi-chavandozlar uchrab qoldilar. (A. Qodiriy) 3. ...Jimirlab oqayotgan daryo bo‘yiga borib, yuz-qo‘llarini yuvib, birikki qultum suv ichishdi. (Mirmuhsin) 4. Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko‘tarib kelayotgan yosh nihollarni tebratar edi. (O‘. Hoshimov)

5-mashq. Matn tarkibidagi ravishdoshlarni aniqlab, qanday so‘roqqa javob bo‘layotgani va qaysi so‘zga bog‘lanayotganini ayting.

... Boysariboy o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eli bilan ko‘chib borgach, Ko‘kqamish ko‘li atrofida mollarini semirtirib, yaylovda yayrab yotadi. O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining boyvachchalari bilan yig‘ilib, bir yerga jam bo‘lib, bir baxmal o‘tovni tikib, shu o‘tovning ichida hamma boyvachchalar bilan qimiz ichib, o‘z kayf-u safosi bilan o‘tirar edi. («Alpomish»dan)

6-mashq. Matnni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, fe’lning vazifa shakllarini hosil qiling.
Bir bog‘bon birovning bog‘ini parvarish qilar edi. Bog‘da bir olma daraxti bo‘l... (-gani, -yotgan, -ib), mevasi juda shirin edi. Bog‘bon bu daraxtni sevar, mevasi pish... (-ib, -ish, -qani)i bilan bog‘ egasining oldiga olib borardi. Bu gal ham bog‘ egasi keltiril... (-kan, -qan, -gan) olmadan g‘oyat xursand bo‘ldi va uni o‘z hovlisiga keltir... (-ay, -gun cha, -ib) o‘tqaz... (-gani, -ish, -quncha)ni buyurdi. Ko‘chiril... (-ib, -y, -gan) olma daraxti qurib qoldi. Ochko‘z bog‘ egasi olmaning boridan ham ajralib qoldi. (Rivoyat)

7-mashq. Gaplarni ko‘chiring, nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, fe’llar hosil qiling va ularning yasalishini izohlang.
1. Odobli va adolatli inson qo‘lidagi qalam baxt-saodat uchun xizmat qilib yurgan odamlarni zavq... (-la,-ir,-lan) tiradi, bir-biriga yaqin... (-sa, -lash, -man)tirib, do‘stlikni mustahkam... (-sira, -la, -y)di. (H. Ziyoyev) 2. Goho miriqib gap... (-cha,-ir,-la)shib, o‘y... (-in, -la, -choq)shib olish ham kerak-ku? Õotiralar odamning yuragini toza... (-lik, -gar, -la)ydi. (Sh. Õolmirzayev) 3. Yuzimga qarab turib «sen... (-la, -sira, -sa)mang» deydi-ya?! (Abdulla Qahhor) 4. U Marg‘ilonga yaqin... (-roq, -lash, -la)ib qolganda kun og‘ib qolgan edi. (Òohir Malik)

8-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Sodda fe’llarni tub va yasama fe’llarga ajrating. Durroj nima uchun tuzoqqa tushdi? Shu haqda fikrlashing. Kunlardan bir kuni Durroj: «Men tuzoqqa tushdim!» — deb sherni aldadi. Sher o‘zining aldanganini bilib: «Meni aldamagil, yolg‘onchidan el nafratlanadi», — desa ham, Durroj quloq solmas, yolg‘onchilikni, aldashni qo‘ymas edi. Bir kuni Durroj tuzoqqa ilindi va: «Meni tutib oldilar!» — deb qattiq qichqirdi. Sher «Bu gal ham Durroj meni aldayapti» deb qutqarishga bormadi. (Alisher Navoiy) Ko‘rdingizmi, bolalar! Durroj yolg‘on so‘zlagani, noto‘g‘ri gapirgani uchun tuzoqqa tushdi.

9-mashq. Qo‘shma fe’llarni va ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini topib, ularning yasalishini izohlang.
...Choyxonachi yoshi elliklardan oshib qolgan bo‘lsa ham xuddi o‘smirlarday yengil qadam tashlardi, yugurib-yelardi. So‘ridagi eskiroq ko‘rpachani darrov yig‘ishtirib olib, supurib, ko‘z ochib yumguncha yangi yakandoz to‘shab, joy soldi. Choyxonachi patnisda non bilan qand-qurs, kabobpaz kabob olib keldi. (Yo‘ldosh Sulaymon)

10-mashq. Gaplarni ko‘chiring, sodda, qo‘shma va juft fe’llarni aniqlang.

1. Õolasinikida qandaydir bir mehmondorchilik o‘tkaziladigan bo‘ldi-yu, hammamiz o‘sha yerga otlandik. (E. Usmonov) 2. Uning chehrasi ko‘zimga tanishdek ko‘rindi. Kimgadir o‘xshaydi, lekin kimga? Eslolmadim. (S. Anorboyev) 3. O‘yladi-o‘yladi, lekin o‘yining oxiriga yetolmadi. (N. Fozilov) 4. Chol unga yaqinlashib salom berdi. Qiz loqaydgina alik oldi. (F. Musajonov) 5. Nogoh entikdi-yu, egildi kamon. O‘q uchdi belgisiz yoqlarga tomon. Keksa otasining qaddin dol etib. MUSÒAHKAMLASH 83 Ketib borar edi farzand shu zamon. (A. Oripov) 6. Yuribyurib, oxiri yolg‘iz bir uychaga duch keldi. (Ertakdan)

Savollar

1.Fe’lning vazifa shakllari deb nimaga aytiladi?
2. Fe’lning vazifa shakllari qaysilar?
3. Fe’lning vazifa shakllariga misollar ayting
4.Harakat nomi qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
5. Harakat nomlariga egalik va kelishik qo‘shimchalari qay tarzda qo‘shiladi? Sifatdosh deb nimaga aytiladi?
6. Sifatdosh yasovchi qo‘shimchalarni sanang.
7. -gan, -kan, -qan qo‘shimchalarining qanday fe’l asoslaridan so‘ng qo‘llanishini izohlang.
Sifatdoshning o‘tgan zamon shakli qanday yasaladi?
8. -gan (-qan, -kan) qo‘shimchasi yordamida o‘tgan zamon sifatdoshlarini yasang.
Hozirgi zamon sifatdoshi qanday yasaladi?
9. Kelasi zamon sifatdoshiga misollar ayting.
10. Qurmoq, boqmoq, tikmoq fe’llaridan hozirgi va kelasi zamon sifatdoshlarini yasang.
11. Sifatdoshlarning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari deganda nimani tushunasiz?
12. Sifatdoshlarning bo‘lishsiz shakliga misollar keltiring
Ravishdosh deb nimaga aytiladi?
13. Ravishdosh qaysi qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
14. Ravishdosh gapda qanday gap bo‘lagi vazifalarida keladi?
15.Payt ma’nosini bildiruvchi ravishdoshlarga misollar ayting.
16. Holat ma’nosini bildiruvchi ravishdoshlarga izoh bering.
17. Maqsad ma’nosini bildiruvchi ravishdoshlarni tavsiflang.
18. Sabab ma’nosini bildiruvchi ravishdoshlar qaysi qo‘shimchalar bilan yasaladi?
19. Ravishdoshlar qaysi qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
20. Ularning imlosi haqida gapiring.
21. Qanday asoslarga -qach, -quncha, -qani qo‘shimchalari qo‘shiladi?
22. So‘z yasalishi deganda nimani tushunasiz?
23. Fe’llar qaysi qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
24. Òaqlid so‘zlardan qaysi qo‘shimchalar yordamida fe’l yasaladi?
25. Qaysi qo‘shimchalar qo‘shilganda asosda tovush o‘zgarishi yuz beradi?
26. -illa qo‘shimchasining aytilishi va imlosi haqida gapirib bering.
27. -ay qo‘shimchasi qaysi so‘zlardan fe’l yasaydi?
28. -a qo‘shimchasi qaysi so‘zlarga qo‘shilganda asosda tovush o‘zgarishi bo‘ladi?

29. Fe’llar tuzilishiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?
30. Sodda tub fe’llarga ta’rif bering.
31. Sodda yasama fe’llarga misollar keltiring.
32. Qo‘shma fe’llar deb nimaga aytiladi?
33. Qo‘shma fe’llar qanday yasaladi?
34. Qo‘shma fe’llarning imlosi haqida so‘zlab bering.
35. Juft fe’llar deb nimaga aytiladi?
36. Juft fe’llarning imlosi haqida so‘zlab bering.
37. Takroriy fe’llarga misollar keltiring.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZILIGI FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI

“IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR” KAFEDRASI

“ONA-TILI”
fanidan

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta‘lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Ta‘lim yo`nalishi: 5111700-Boshlang`ich ta`lim va STI

MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH BO`YICHA USLUBIY KO`RSATMA

212

FARG`ONA-2022

Fanning mustaqil ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmasi o‘quv, ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:
X.Shokirova - FarDU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Mustaqil ishlarni bajarish bo`yicha uslubiy ko`rsatma ―Sirtqi bo’lim Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan (2022 yildagi –sonli bayonnoma).

Kafedra mudiri: M.Isroilov.

KIRISH

Ta‘lim – tarbiya jarayonini har tomonlama zamonaviy talablar asosida tashkil etish va rivojlantirishdagi omillardan biri sifatida ta‘lim-tarbiya jarayonini boshqarishni yuqori asosda tashkil etish va boshqarishdan iboratdir. Shu boisdan ta‘lim tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni boshqarishning nazariy asoslari va uning mexanizmlarini shakllantirishda

«Ona-tili ‖ fanining mazkur uslubiy ko ‘rsatmasi —Ta ‘lim to ‘g ‘risida ‖ gi qonun,

—Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ‖ xamda davlat ta ‘lim standartlari bo ‘yicha bakalavr darajasidagi malakali iqtisodchi-pedagog mutaxassislar tayyorlash talablaridan kelib chiqib tuzilgan.

O‘quv jarayonining uzluksiz jarayonlaridan biri-bu talabalarda mustaqil ishlash va nazariy bilimlarni puxta egallashga qaratilgan Mustaqil ishbajarish xisoblanadi. Mustaqil ishbajarish jarayonida talabalar olgan bilimlarini mustaxkamlash bilan bir qatorda pedagogik maxorat asoslarini, ta‘lim munosabatlarini, ijtimoiy-pedagogik jarayonlarni, pedagogik ta‘lim-tarbiya masalalarni, jamiyatdagi ta‘lim jarayoni isloxotlarni, ta‘lim- tarbiya jarayonlarida kasbiy pedagogikani shakllantirish asoslarini xamda pedagogik maxoratning nazariy asoslari to‘g‘risida xulosalar chiqarish, pedagogik maxoratni shakllantirishning joriy muammolarini mo‘ljalga olish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumot (axborot)lar to‘plash va ulardan foydalanish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish, rivojlantirish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, umumpedagogik ixtisoslik yo‘nalishidagi fanlar bo‘yicha bilimlarini kengaytiradilar, ixtisoslik bo‘yicha adabiyotlarni chuqur o‘rganadilar va o‘zlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini mustaqil bajarish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Ushbu uslubiy ko`rsatma —Ona-tili ‖ fani bo ‘yicha yangi namunaviy o ‘quv dasturi va o ‘quv rejasi asosida tuzilgan bo ‘lib, unda kasb ta ‘limi yo ‘nalishida ta ‘lim olayotgan talabalarning mustaqil ishbajarishi davomida amal qilishi lozim bo ‘lgan umumiy tartib- qoidalar, me‘yorlar, tegishli ko‘rsatma va maslaxatlar berilgan. Uslubiy ko‘rsatmani ishlab chiqishda mualliflar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy jixatdan mustaxkamlash, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan.

Ona-tili fanidan mustaqil ishxajmi, bo‘limlari, mavzuning nazariy axamiyatini yoritishdagi asoslari ko‘rsatilgan bo‘lib, Kasbiy pedagogikani oshirish va nazriy asoslarini yoritishdagi pedagogik talablarni o‘z ichiga oladi.

1.Mustaqil ish maqsad va vazifalari

Mustaqil ishning maqsadi-talabani nazariy va amaliy tayyorgarligini aniqlash, uning fikrlash qobiliyatini va olingan bilimlarining chuqurliligini va sifatini belgilash xisoblanadi.

Mustaqil ishning maqsadidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

-Ona-tili fanidan tanlangan mustaqil ish mavzusi bo ‘yicha mavjud pedagogik maxorat asoslari va pedagogik maxorat muammolar moxiyatini nazariy va amaliy asoslash va mazmunli yoritilishi;

-pedagogik maxorat qonun-qoidalarini, ta‘lim munosabatlari va jarayonlari mazmunini yanada teran va chuqur mantiqiy mushoxada qilishi;
-milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraning asosiy qoidalari xamda ta‘lim-tarbiyani to‘g‘ri shakllantirish asosida xozirgi zamon rivojlangan malakali o‘qitishni shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb muammolarini singdirish;
-ta‘lim va tarbiyaviy munosabatlar to‘g‘risida amaliy ko‘nikmalar xosil qilishi;
-O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezident Islom Karimov asarlarini, Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan ta‘lim-tarbiyaga tegishli qonunlarni va Vazirlar Maxkamasi chiqargan me‘yoriy xujjatlarni ishda o‘zlashtirishi;
-internet ma‘lumotlari, xisobotlar va xujjatlarni taxlil qilish;
-ishlab chiqarish va xizma ko‘rsatish xamda ta‘lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yo‘l-yo‘riq, xulosalar va ko‘rsatmalarni ishlab chiqish.
-Ona-tilining nazariy va amaliy sohalari va kasb-hunar ta‘limida o‘qitishning metodik jihatlarini optimallashtirishning ilmiy yo‘nalishlarini tahlil qilish.
Mustaqil ishbajarish jarayoni o‘quv jarayonning ajralmas qismi bo‘lgani uchun to‘g‘ri tashkil etish, yoritilayotgan mavzuning sifatli bayon etilishiga ta‘sir ko‘rsatadi.
Shuning uchun Mustaqil ish bajarish davomida talaba o‘z mexnatini quyidagi bosqichlar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlashi katta axamiyatga ega:
-Mustaqil ishmavzusini tanlash;
-axborot uslubiy ta‘minoti (adabiyotlar, internet) ma‘lumotlarini yig‘ish va ularni o‘rganish;
-Mustaqil ish mavzusi rejasini tuzish;
-mavzuga oid turli ma‘lumotlar to‘plash va qayta ishlash;
-Mustaqil ishmatnini yozish;
-Mustaqil ishrasmiylashtirish;
-Mustaqil ishhimoyasi;
Mustaqil ish bajarishda talaba o‘z ustida ishlashi bilan bir qatorda mustaqil ish raxbarlari bilan maslaxatlashishi va tegishli ko‘rsatmalar asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur xisoblanadi.

3.Mustaqil ish mavzusini tanlash.

—Ona-tili fanidan Mustaqil ish muvaffaqqiyatli bajarilishining muhim omili – bu talabaning o‘z qiziqishi va qobiliyatiga qarab mos mavzuni tanlashi xisoblanadi. Shuning uchun ushbu bosqichda talaba mavzu tanlashda sinchkov va ma‘suliyatli bo‘lishi lozim.
Mustaqil ish mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi215va tasdiqlanadi. Mavzular soni talabalar sonidan ko‘p bo‘lishi kerak, ularning yo‘nalishi o‘quv dasturi doirasida va talabaning qobiliyati hamda imkoniyatlari darajasida bo‘lishi kerak.
Mustaqil ish mavzusi talabalarni nazariy bilimlarini mustahkamlashga va ijodiy fikrlashga qaratilgan bo‘lishi bilan bir qatorda bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib belgilanishi kerak.

Mustaqil ishni talabaga tanlangan mavzu bo‘yicha mustaqil ish topshirig‘ini rasmiylashtiradi va kafedra mudiri tasdiqlagandan so‘ng topshiriqni talabaga beradi.

Mustaqil ish bajarish jarayonida mustaqil ish mavzusini o‘zgartirish yoki boshqa mavzu tanlanishiga ruxsat etilmaydi.

Mustaqil ish mavzusini tanlash tartibi gurux jarnalidagi ismi, sha‘rifi raqami bo‘yicha taqsimlanadi. Guruh talabasi tartib raqami asosida uchta mavzudan ya‘ni 1, 2, 3, lardan ixtiyoriy birini tanlashi mumkin. Agar kursda guruhlar soni ikkitani tashkil etsa ushbu guruhlarga alohida mavzular beriladi. Bir mavzuni ikkita talaba yozishi mumkin emas.

Talaba gurux jurnalidagi ismi, sha‘rifi bo‘yicha tartib raqami	1-mavzu	2-mavzu	3-mavzu
1	1.1	2.1	3.1
2	1.2	2.2	3.2
3	1.3	2.3	3.3
4	1.4	2.4	3.4
.	.	.	.
.	.	.	.
30	1.30	2.30	3.30

4.Axborot uslubiy ta`minotini yaratish va ularni o`rganish.

Talaba mustaqil ish mavzusini biriktirish to‘g‘risida ariza bergandan sung va kafedra uni tasdiqlagandan so‘ng rahbar bilan maslaxatlashib adabiyotlar to‘plashiga kirishishi kerak. Bunda faqat darslik, balki boshqa fanlarni o‘rganish davomida ko‘rsatilgan adabiyotlar, statistik va internet ma‘lumotlari, qonunlar, me‘yoriy xujjatlar va boshqalarni ham o‘rganishi lozim.

Undan so‘ng ularning ichidan Mustaqil ish mavzusiga bevosita aloqador bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzish va ularni topib bir qator tanishib chiqishi kerak, chunki boshlang‘ich tanishuv natijasida talaba Mustaqil ish rejasini mustaqil ravishda tuzadi.

Adabiyotlar va internet ma‘lumotlari bilan ishlashni mamlakatimizdagi ta‘lim qonunchiligiga ta‘luqli bo‘lgan qonun va me‘yoriy xujjatlarni o‘rganishdan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har tomonlama mukammal yoritilgan va ilmiy ijodiy yondoshilgan Mustaqil ish bayon etish uchun iqtisodiy va tarbiyaviy, pedagogik qonuniyatlarni bilish va ularni qo‘llash katta ahamiyatga ega.

Mustaqil ishbajarishda faqat uslubiy qo‘llanmalarda va Mustaqil ish topshirig‘ida tavsiya qilingan adabiyotlardan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, imkoni boricha mustaqil xolda tanlangan adabiyotlarga asoslanish lozim, xatto xorijiy adabiyotlardan ham foydalanish ishni mazmunini boyishiga va yanada mukammal bajarilishiga yordam beradi.

5. Mustaqil ish rejasini tuzish.

Mustaqil ish tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslangan kirish qismidan, ilmiy raxbar bilan kelishib tuzilgan rejaga koʻra nazariy va amaliy masalalar yoritilgan asosiy boʻlimdan, shuningdek, xulosa va takliflar yozilgan xotimadan iborat ishdir. Rejadagi koʻzda tutilgan masalalar tarkibiy mavzuning mohiyatidan kelib chiqishi, aniq boʻlishi va oʻrganilayotgan muammoni har taraflama aks ettirishi muhimdir. Rejadagi har bir masala oʻzaro bogʻlangan boʻlishi lozim, ularni yoritishda esa kasbiy pedagogikaning mohiyatini va nazariy asoslarini aks ettituvchi tushunchalarning biror taʻlim muassasalarning amaliy ish faoliyatiga bogʻlangan boʻlishi ham eʻtibordan chetda qolmasligi kerak.

6. Maʻlumotlarni toʻplash va qayta ishlash.

Ushbu bosqichda talaba adabiyotlar, internet maʻlumotlari va boshqa manbalar asosida mavzuni har tomonlama yoritish maqsadida maʻlumotlar toʻplaydi va ular boʻyicha xisob – kitoblarni amalga oshiradi. Ushbu bosqichda iqtisodiy va tarbiyaviy taxlil usullaridan foydalanib, tegishli xulosalar chiqariladi.

Mustaqil ishyozish jarayonida bakalavriat taʻlimi yoʻnalishining semestr yakunidagi malakaviy amaliyot va unga oid oʻquv-metodik materiallaridan hisob shakllari, oʻquv jarayoni koʻrsatkichlari asosida foydalanish ham tanlangan mavzuning amaliy jihatini aks ettiradi.

Mustaqil ish nazariy jihatdan turli manbalardagi maʻlumotlar taxliliga asoslangan boʻlib, mavzuga mos muammolar, takliflar, sxema, grafik, jadval va diogrammalarda mujassamlashtirilgan boʻlishi lozim.

SHuningdek, hozirgi kunda davlatimizning kasb-hunar taʻlimi tizimidagi davlat siyosati va uning amaliy ahamiyatini yoritishga qaratilgan ustuvor yoʻnalishlarga bagʻishlangan koʻrsatkichlar, maʻlumot taxlil jadvallari, kasb-hunar taʻlim tizimidagi ijtimoiy, iqtisodiy, maʻnaviy, tashkiliy jihatlarning yangi qirralarini ochib, tahliliy omillar sifatida keltirib oʻtish ham kasb-hunar taʻlimi mutaxassisligining iqtisodiy munosabatlari sharoitidagi amaliy ahamiyatini aks ettiradi.

7. Mustaqil ish matnini yozish.

Mustaqil ish bajarishda uni yozish va rasmiylashtirish muhim va maʻsuliyatli bosqich hisoblanadi.

Asosiy qismda belgilangan savollarni yoritishda masalaga uzviy bogʻliq boʻlgan nazariy bilimlar bilan bir qatorda talaba tomonidan toʻplangan materiallar, statistik maʻlumotlar, pedagogik tushunchalar mohiyati yoritiladi va taxlil qilinadi. Olingan natijalar, yangiliklar, gʻoya va fikrlar ilmiy jihatdan asoslanadi va oʻrganilgan adabiyotlar, meʻyoriy xujjatlar va boshqa manbalardan toʻplangan maʻlumotlar toʻla tahlil qilinadi. Ushbu yoʻnalishda bajarilgan ishlarning mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tajribasi ham bayon etilishi maqsadga muvofiq keladi. Agar talaba mavzu boʻyicha olgan natijalarni tanqidiy baxolay olsa mustaqil ishning qiymati yanada oshadi. Asosiy qismda mavzu moxiyati yanada kengroq ochishda mavzuga doir chizmalar va jadvallarni koʻrsatib oʻtish mumkin.

Nazariy tomondan o‘rganilayotgan masala chuqur yoritilgandan so‘ng Mustaqil ishbajaruvchi nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan o‘zaro bog‘lay olishi kerak. Ish bo‘yicha berilayotgan takliflar asosli bo‘lishi va takliflar aniq, lo‘nda va tushunarli qilib bayon qilinishi kerak.

Talaba Mustaqil ish matnini yozishda adabiyotlar va manbalardan olingan citatalar va mualliflarning qarashlari qo‘shtirnoq ichida berilishiga e‘tibor berilishi lozim.

Xulosa qismidaMustaqil ishning barcha qismlari doirasida bajarilgan ishlarga umumiy yakun yasaladi. Ushbu mustaqil ish doirasida erishilgan asosiy natijalar xulosa va takliflar, tavsiyalar ko‘rsatib o‘tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzishda ishning xulosa qismidan keyin keltiriladi, ro‘yxatga faqat ishni yozish jarayonida muallif tomonidan foydalanilgan adabiyotlar, qonunlar, qarorlar, maqolalar, tezislar, avtoreferetlar, jurnallar, gazetalar va x.k.lar kiritiladi.

Amaldagi «Xujjatlarni biblografik ro‘yxatga olish» davlat standartiga muvofiq kurs ishlarida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar keltiriladi:

-kitob, monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanmalar uchun muallif (lar) ning familiyasi, ismi, va otasining ismi bosh harflari, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlar ;

Mustaqil ish yozish jarayonida talaba adabiyotlarida keltirilgan boshqa olim va mutaxassislarning fikrlarini keltirish mumkin. Bunday xollarda matnda ushbu adabiyotlardan foydalanilganlik belgisi qo‘llaniladi.

Ayrim vaqtlarda mavzuga oid qonunlar, xukumat qarorlari va me‘yoriy xujjatlardan aynan ko‘chirmalar keltiriladi. Bunday hollarda satr osti izohi beriladi. Satr osti izohlari sahifa so‘ngida berilib, matnda har bir sahifa uchun ketma – ketlik asosida raqamlanadi yoki yulduzchalar bilan belgilanadi.

Ilovalar qismida Mustaqil ish mavzusiga oid chizmalar, jadvallar, klaster texnologiyasi asosidagi kategoriyalar va turli tushuncharni keltirib o‘tishi yoki matn tarzida atamalar asosida izohlarni keltirib o‘tishi lozim. Ilovalar qismida mustaqil ish mavzusiga tegishli boshqa chizmalardan ham foydalanish mumkin.

Mustaqil ishyozishda talaba avallo raxbarning ko‘rsatma va maslahatlariga rioya etishi zarurdir.

8. Mustaqil ishni rasmiylashtirish.

Mustaqil ishrasmiylashtirish belgilangan talab va standartlarga javob berishi Mustaqil ish matni sahifaning ma‘lum chegaralarida joylanishi chizma va jadvallarni rasmiylashtirilishi, bir xil formatdagi oq qog‘ozlardan foydalanilishi ishni sifatli va umumiy talablar bo‘yicha yoritilishiga olib keladi.

Mustaqil ish asosan A4 (210x297 mm) farmatidagi oq qog‘ozlarga ko‘k tushda (ruchkada) tushunarli tarzda, qisqartirishlarsiz, aniq va ravon tilda o‘z qo‘li bilan davlat tilida (rus guruxlarda rus tilida) yoziladi. Mustaqil ish xajmi 15-20 betni tashkil etishi lozim. Har bir sahifani chap tomonda 30 mm, o‘ng tomondan 15 mm tepa va pastki tomondan 20 mm qoldirilgan holda yoziladi. Mustaqil ish matnlari qog‘ozning bir tomoniga har sahifaga 25- 30 qator yoziladi. Har qatorda 7-8 ta so‘z joylashishi mumkin. Barcha satr osti izohlari qaysi sahifaga tegishli bo‘lsa, o‘sha sahifada keltiriladi.

Har bir qism, kirish asosiy va hulosa qismlari, ilovalar yangi sahifalardan boshlanadi. qismning nomi va matn orasi yaqqol ajralib turishi kerak. qismdagi sarlovhalar qismning tartib raqami bilan boshlanib, unda so‘zlarning bo‘g‘in ko‘chirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sahifa tartib raqami sahifaning pastda o‘rta–qismida keltiriladi. Mustaqil ishda keltirilgan qismlar, shuningdek ilovalar ham sahifalanadi. Jild varag‘i 1-bet sanaladi, unga tartib raqami qo‘yilmaydi.

Mustaqil ish qismlari quyidagicha joylashtiriladi: jild varag‘i, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalar.

Ilovada turli xujjatlar, katta xajmdagi chizmalar, jadvallar va shu kabilar beriladi. Mustaqil ish yuzasiga taqriz uchun oq qog‘oz qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir. Mustaqil ishmateriallarida ilovalarni keltirish tartibi harb bir berilayotgan mavzuga tegishli ilovaning jadval, matn, rasm, animatsion ko‘rinishlari pastki qismida ilovaning nomi keltirilishi, izohlari berilishi lozim. Ilovalarni keltirishda hisob ishlari, kasb-hunar ta‘limida ma‘lum mavzuga tegishli hisob jadvallarini kiritishning qiymati, natijasi aniq va ravon keltirilishi lozim. Unga ko‘ra ilovalarni mavzuga tegishli hisob ishlari yoki kurs ishlari jadval va grafiklarining ijodik xususiyatini aks ettiradi.

Mustaqil ish rasmiylashtirishning hujjatlar tashqi ko‘rinishi, etik va estetik jihatlariga e‘tibor qaratish lozim. Unga ko‘ra har bir mustaqil ishmaterialida o‘rganuvchi tomonidan olinishi va foydalanuvchiga qulay tartibdagi materiallarni keltirilishi mustaqil ishi ilmiy saviyasini keltirib o‘tadi.

Mustaqil ishrasmiylashtirish tartibi tikilgan va papkada tayyorlangan bo‘lishi lozim. Turli fayl va rangli materiallarda Mustaqil ishkeltirib o‘tish taqiqlanadi.

Jild (titul) varag‘i mustaqil ishning 1- beti bo‘lib, unda Vazirlik, oliy o‘quv yurtining nomi fakultet va kafedra, mustaqil ish mavzusi, ta‘lim yo‘nalishi, kursi, guruxi, muallifning familiyasi, ismi va sharfi, ilmiy raxbarning ilmiy unvoni va darajasi, familiyasi, ismi va sharifi keltiriladi.

9. Mustaqil ish ximoyasi.

Mustaqil ish ximoyasi Mustaqil ish bajarilishining yakuniy bosqichlaridan biri xisoblanadi. Tugallangan mustaqil ish belgilangan muddatda kafedraga tekshirish uchun topshiriladi. Past saviyada sifatsiz bajarilgan ishlar, ilmiy raxbarning yozma taqrizi bilan ishdagi kamchiliklarni to‘ldirish va qayta ishlash uchun talabalarga qaytariladi. Belgilangan talablar darajasida sifatli bajarilgan ishlar ilmiy raxbar tomonidan kafedrada ximoya qilish uchun ruxsat beriladi.

10.Mustaqil ish baxolashning reyting mezonlari

219

Bakalavr 5111700-Boshlang`ich ta`lim va STI bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari tomonidan Mustaqil ishbajariladi. Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan mustaqil ishtalaba tomonidan raxbarga taqdim etiladi. Raxbar mustaqil ish talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so‘ng, ishni o‘z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga

taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va mustaqil ishning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Mustaqil ishi kafedra professor- o‘qituvchilaridan tashkil topgan komissiya oldida ximoyadan o‘tkaziladi. Mustaqil ish natijasi 20 ballik tizimi bo‘yicha baxolanadi.

Mustaqil ish baxolash mezoni

Maksimall ball (100%)	Saralash ball (55%)	Yakuniy reyting ball	Reyting natijasi
5	3	5 4 3 2	–A‘lo‖ –Yaxshi‖ –Qoniqarli‖ –Qoniqarsiz‖

Mustaqil ish ximoyasi yuqori saviyada Nizom talablariga to‘la rioya qilingan xolda xolis va adolatli o‘tkazilishi xamda baxolanishi lozim.

11.Mustaqil ishbaxolash tartibi

№	Mustaqil ishlarni ish turlari	5	4	3	2
1	2	3	4	5	6
1.	Mavzuning dolzarbligining asoslanganligi;				
	- etarli darajada asoslanganligi;				
	- etarli darajada asoslanmagan;				
	- noaniq;				
	-asoslanmagan;				
2.	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi:				
	- qonunlar, qarorlar, ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, etakchi olimlar asarlaridan to‘la foydalanilgan;				
	-darslik, ma‘ruza matnlari, o‘quv-qo‘llanma, va ma‘lumotlardangina foydalanganligi;				
	- etarli foydalanilmagan;				
	- foydalanilmagan;				
3.	Talabaning ma‘ruzasiga baxo:		220		
	- a‘lo;				
	- yaxshi;				
	- qoniqarli;				
	-qoniqarsiz;				
	Berilgan savollarga javoblari:				
	- to‘liq;				

4.	- o‘rta;				
	- qoniqarli;				
	- qoniqarsiz;				
5.	Adabiyotlar tanqidiy taxlili darajasi:				
	- to‘la darajada;				
	- qisman darajada;				
	- noaniq;				
	- taxlil yo‘q;				
	Mustaqil ishga qo‘yilgan yakuniy ball:				

8. “Mustaqil ta`limni tashkil etishning shakliva mazmuni

Talaba mustaqil ta‘limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- ma‘ruzalar qismini mustaqil o‘zlashtirish;
- elektron darsliklar va o‘quv ko‘llanmalar, avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi axborot-kommunikasiya texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari; masofaviy ta‘lim.

Mashg‘ulotlar shakli: Mustaqil ta’lim (MT)		**soat**
1 semestr		
1	Til ijtimoiy, doim o‘zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir. Milliy va adabiy til.	6
2	Fonetikava fonologiya. Nutqning fonetik bo’linishi. Nutq tovushlarining fonetik o’zgarishlari.	6
3	Orfoepiya haqida umumiy ma’lumot. Ona tilining vokalizmi va konsonantizmi.	6
4	Grafika va orfografiya. Ona tili imlosi va uning asosiy tamoyil(prinsip)lari	2
5	Leksikologiya, uning obyekti, turlari, vazifalari. Ona tili lug’at tarkibining ma’no jihatdan tavsiflanishi.	2
6	Lug’at tarkibining shakl va ma’no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi. Lug’at tarkibidagi so’zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo’llanishi jihatidan tavsiflanishi. 221	2
7	Lug’at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi; lug’at tarkibining hissiy-ta’siriy bo’yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi. Lug’at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma’no va tarkib jihatdan tavsiflanishi. Leksikografiya (lug’atshunoslik).	2
8	Morfemika va morfema haqida umumiy ma’lumot. O’zbek tilida so’z yasalishi.	2
9	Grammatika haqida umumiy ma’lumot. Morfologiya haqida umumiy	2

	ma’lumot.	
10	Ot. Otning leksik-grammatik xususiyatlari. Otning ma’no turlari.	2
11	Ot turkumining son kategoriyasi; otlarning nokategorial shakllari.	2
12	Fe’l so’z turkumi sifatida. Bo’lishli, bo’lishsiz fe’llar. O’timli, o’timsiz fe’llar.	8
	Jami	120
	2 semestr	**soat**
1	Leksikologiya, uning ob’ekti, turlari, vazifalari.	8
2	Ona tili lug’at tarkibining ma’no jihatdan tavsiflanishi.	8
3	Lug’at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma’no va tarkib jihatdan tavsiflanishi.	8
4	Leksikografiya (lug’atshunoslik).	8
5	Morfemika va morfema haqida umumiy ma’lumot. O’zbek tilida so’z yasalishi.	8
6	Grammatika haqida umumiy ma’lumot.	8
7	Morfologiya haqida umumiy ma’lumot. So’zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.	8
8	Ot. Otning leksik-grammatik xususiyatlari. Otning ma’no turlari.	8
9	Sifat so’z turkumi. Sifatlarning daraja kategoriyasi.	8
10	Sifatlarning yasalishi, tuzilish turlari.	8
11	Son. Olmosh.	8
12	Fe’l so’z turkumi sifatida. Bo’lishli, bo’lishsiz fe’llar. O’timli, o’timsiz fe’llar.	8
	Jami	120

13. Axborot uslubiy ta`minot. Foydalaniladigan asosiy darslik va o`quv qo`llanmalar, elektron ta`lim resurslari hamda qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati

Asosiy darsliklar va o`quv qo`llanmalar

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G`ulomova, Sh. Yo`ldosheva, Ona tili (darslik) MOLIYA-IQTISOD, Toshkent, 2007-yil..

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –—O`zbekiston‖ -2016.56 B.

2 .Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –—O`zbekiston‖ -2016.488 b.

3. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –—O`zbekiston‖ -2016.488 b.

4. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. Toshkent –—O`zbekiston‖ -2017.104 b.

5. George Yule. The Study of Language. CAMBRIDJE UNIVERSITY PRESS. 2010. 6.H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, ―Talqin‖ nashriyoti

6. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006,―Universitet‖ nashriyoti.

7. M.Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari. ―Sharq‖ NMAK, 2015.

Internet saytlari

8. www/pedagog/uz

9. w.w.w.ziyo.net

GLOSSARIY

t/r	**o`zbekcha**	**ruscha**	**inglizcha**
1.	Abbreviatura	аббревиатура	abbreviation
2.	Adverbializatsiya	адвербиализация	adverbialization
3.	Adyektivatsiya	адъективация	adjectivisation
4.	Affiks	аффикс	Affix
5.	agglyutinativ tillar	агглютинативный язык.	agglutinative language.
6.	Akkomodatsiya	аккомодация	accommodation
7.	Aksent	акцент	Accent
8.	Alfavit	алфавит	alphabet
9.	Allofon	аллофон	allophone
10.	amorf tillar	аморфные языки	amorphouslanguages
11.	analitik tillar	аналитические языки	analytical languages
12.	Antropolingvistika	антрополингвистика	anthropolinguistics
13.	Antropotsentrizm	антропоцентризм	anthropocentrism
14.	Antroponim	антропоним	anthroponomy
15.	Antroponimika	антропонимика	study of personal names
16.	Antonimlar	антонимы	antonyms
17.	Argo	арго	Slang
18.	artikulyatsiya	артикуляция	articulation
19.	artikulyatsion baza	артикуляционная база	articulation base
20.	arxaizm	архаизмы	archaisms
21.	assimilyatsiya	ассимиляция	assimilation
22.	bilingvizm	билингвизм	bilinguialism
23.	bo`g`in	слог	syllable
24.	bobo til	праязык (язык-основа)	parent language (language-basis)
25.	chog`ishtirma lingvokulturologiya	сопоставительная лингвокультурология	comparative lingvocultural science
26.	dialekt	диалект	dialect
27.	diftong	дифтонг	diphthong
28.	dissimilyatsiya	диссимиляция	dissimilation

29.	enklitika	энклитика	enclitic
30.	etalon	эталон	the standard
31.	etimologiya	этимология	etymology
32.	etnolingvistika	этнолингвистика	ethnolinguistics
33.	etnopsixolingvistika	этнопсихолингвистика	ethnopsycholinguistics
34.	evfemizm	эвфемизм	euphemism
35.	filologiya	филология	philology
36.	fleksiya	флексия	inflexion
37.	flektiv tillar	флективные языки	inflectional languages
38.	Fraza	фраза	Phrase
39.	fraza urg`usi	фразовое ударение	phrase accent
40.	frazeologizm	фразеологизм	phraseological unit
41.	fonema	фонема	phoneme
42.	fonologiya	фонология	phonology
43.	globallashuv	глобаллизация	globalization
44.	grafika	графика	graphics
45.	grammatik kategoriya	грамматическая категория	grammatical category
46.	grammatik ma‘no	грамматическое значение	grammaticalvalue
47.	grammatika	грамматика	grammar
48.	Harf	буква	letter
49.	hayvonlar tili	язык животных	language of animals
50.	ichki fleksiya	внутренняя флексия	internal inflexion
51.	ideogramma	идеограмма	ideogram
52.	idiolekt	идиолект	idiolect
53.	idioma	идиома	idiom
54.	ijtimoiy shartnoma nazariyasi	теория специального договора	the theory of the special contract
55.	imo-ishora tili	язык жестов	sign language
56.	inkorporatsiya	инкорпорация	incorporation
57.	intonatsiya	интонация	intonation
58.	istorizm	историзмы	historicism
59.	iyerarxiya	иерархия	hierarchy
60.	iyerogliflar	иероглифы	hieroglyphs
61.	Izofa	изафет	postpositional attributive group
62.	jargon	жаргон	slang
63.	kalka	калька	tracing-paper
64.	ko`makchilar(poslelog)	послелог	postposition
65.	kognitiv tilshunoslik	когнитивная лингвистика	cognitive linguistics

66.	konsept	концепт	concept
67.	konseptosfera	концептосфера	conceptosphere
68.	konseptual maydon	концептуальное поле	conceptual field
69.	kombinator o`zgarishlar	комбинаторные изменения звуков	combinatory changes of sounds
70.	konnotatsiya	коннотация	connotation
71.	konsonantizm	консонантизм	consonantism
72.	kontekst	контекст	context
73.	lakuna	лакуна	lacuna
74.	leksema	лексема	lexeme
75.	leksikografiya	лексикография	lexicography
76.	lingvistik nisbiylik nazariyasi	теория лингвистической относительности	the theory of linguistic relativity

Fan bo`yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish mezonlari

	Test topshiriqlari, yozma ish, tahlil uchun misollar, taqdimotlar
Baholash mezonlari	5 (a'lo) - Tilning ijtimoiy mohiyati va uning tarkibiy qismlarini, dunyo tillarining tasnifini, o'zbek tilining qaysi til oilasiiga va turkumiga kirishini, nutq a'zolarini, o'zbek tiliga xos unli va undosh tovushlarni, bo'g'in va urg'uni, tovush o'zgarishlarini, o'zbek tili grafikasini, imlo va talaffuz qoidalarini, hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibini, ma'no ko'chish usullarini, so'zlarning shakl va ma'no xususiyatga ko'ra turlarini, faol va nofaol, o'z va o'zlashgan qatlamni, o'zbek tili frazeologiyasini, milliy til tarkibiga kirgan guruhlarni (sheva, atama, eskirgan va yangi so'zlarni, jargon va argolarni, uyadosh va olinma so'zlarni), o'zbek tilidagi so'z yasalish usullarini, morfemik tarkibni, mustaqil va yordamchi so'zlarni, modal, undov va taqlid so'zlarni, o'zbek tilidagi so'z birikmasi sintaksisini, gap sintaksisisini, matn sintaksisini, o'zbek tili tinish belgilari tizimini, nutq uslublarini, uslubiyat turlarini biladi.Unli va undosh tovushlarni tasniflay oladi, so'zlarni bo'g'inlarga ajrata biladi va urg'ularini to'g'ri qo'ya oladi, o'zlashtirilgan qoidalarga asoslangan holda ma'nosi ko'zchgan so'zlarning ma'nolarini, omonim, sinonim, antonym va paronimlik xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlarning ma'nolarini, atama, sheva, eskirgan va yangi so'zlarning ma'nolarini izohlay biladi, gap ichidagi yasama so'zlarni aniqlay oladi, so'z turkumlarining xususiyatlarini farqlay oladi, gap tarkibidagi so'z birikmalari va gap bo'laklarini aniqlab biladi, tinish belgilarining qo'yilish sabablarini anglay oladi, muayyan gaplarning qaysi uslubga tegishli ekanligini farqlay oladi, berilgan matndagi gaplarni fonetik, leksik, morfologik va sintaktik jihatdan to'liq tahlil qila oladi, mavjud tinish belgilarining qo'yilish o'rinlarini aniqlay oladi va qo'yilish sabablarini to'liq tushuntira oladi, tildagi mavjud birliklardan to'g'ri va o'rinli foydalana oladi. 4 (yaxshi) - Tilning ijtimo iy mohiyati va uning tarkibiy qismlarini, dunyo tillarining tasnifini, o'zbek tilining qaysi til oilasiiga va turkumiga kirishini , hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibini, ma'no ko'chish usullarini, so'zlarning shakl va ma'no xususiyatga ko'ra turlarini, faol va nofaol, o'z va o'zlashgan qatlamni,

	o‘zbek tili frazeologiyasini, milliy til tarkibiga kirgan guruhlarni (sheva, atama, eskirgan va yangi so‘zlarni, jargon va argolarni, uyadosh va olinma so‘zlarni), o‘zbek tilidagi so‘z birikmasi sintaksisini, gap sintaksisisini, matn sintaksisini biladi, unli va undosh tovushlarni tasniflay oladi, o‘zlashtirilgan qoidalarga asoslangan holda ma’nosi ko‘zchgan so‘zlarning ma’nolarini, omonim, sinonim, antonym va paronimlik xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘zlarning ma’nolarini, atama, sheva, eskirgan va yangi so‘zlarning ma’nolarini izohlay biladi, so‘z turkumlarining xususiyatlarini farqlay oladi, tinish belgilarining qo‘yilish sabablarini anglay oladi, berilgan matndagi gaplarni fonetik, leksik, morfologik va sintaktik jihatdan to‘liq tahlil qila oladi. 3 (qoniqarli) Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibini, ma’no ko‘chish usullarini, so‘zlarning shakl va ma’no xususiyatga ko‘ra turlarini, faol va nofaol, o‘z va o‘zlashgan qatlamni, o‘zbek tili frazeologiyasini, milliy til tarkibiga kirgan guruhlarni (sheva, atama, eskirgan va yangi so‘zlarni, jargon va argolarni, uyadosh va olinma so‘zlarni) biladi, unli va undosh tovushlarni tasniflay oladi, so‘z turkumlarining xususiyatlarini farqlay oladi, berilgan matndagi gaplarni fonetik, leksik, morfologik va sintaktik jihatdan tahlil qila oladi. 2 (qoniqarsiz) Ona tili fani bo‘yicha mavzular haqida aniq tasavvurga ega emas.

Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1.M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G`ulomova, Sh.Yo`ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. - 300 bet.
2.Sh.Yo`ldosheva Onatili (darslik) MOLIYA-IQTISOD, Toshkent, 2007-yil.
3.R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to‘plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
4.Жумабоев М. Ўзбек болалар адабиѐти(дарслик) -Т.: Ўқитувчи, 2002
5.Жумабоев М. Ўзбек болалар адабиѐти(дарслик)-Т.: Ўқитувчи, 2012

Qo`shimcha adabiyotlar

1.Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –‖O`zbekiston‖ -2016.56 B.
2 .Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –‖O`zbekiston‖ -2016.488 b.
3.Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – –O`zbekiston‖ -2016.488 b.
4.Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va
5.Shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. Toshkent –‖O`zbekiston‖ -2017.104 b.
6.George Yule. The Study o f Language. CAMBRIDJE UNIVERSITY PRESS. 2010
7.H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, –Talqin‖ nashriyoti
8.Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006,–Universitet‖ nashriyoti.
9.M.Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari. –Sharq‖ NMAK, 2015.

Internet saytlari

10.www/pedagog/uz
11. w.w.w.ziyo.net